NAMANGAN
DAVLAT
PEDAGOGIKA
INSTITUTI

# TA'LIM VA TARAQQIYOT

ILMIY-USLUBIY JURNAL

2023-YIL 2-SON

***Bosh muharrir:*** *Namangan davlat pedagogika instituti rektori v.v.b. M.R.Qodirxonov*
***Mas'ul muharrir:*** *Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor A.A.Isoqboyev*
***Mas'ul muharrir o'rinbosari:*** *Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedogogik kadrlar tayyorlash sektori boshlig'i J.A.Yuldashev*

**T A H R I R  H A Y 'A T I**

***Aniq va tabbiy fanlar:*** *akad. K.Tojibayev, akad. A.To„rayev, k.f.d., prof. Sh.Abdullayev, f-m.f.d., dots. R.Xakimov, b.f.d., dots. A.Batashov, f-m.f.n., dots., T.Abdullayev.*

***Texnika fanlari:*** *t.f.d., prof. A.Umarov, PhD. Sh.Xudoyqulov, PhD. A.Abdunazarov.*

***Ijtimoiy gumanitar fanlar:*** *s.f.d., prof. T.Fayzullayev, tar.f.d, prof. A.Rasulov. f.f.d., prof. M.Ismoilov, i.f.d., dots. N.Sotivoldiyev, PhD. J.Yuldashev, PhD. A.Abdullayev.*

***Pedagogika fanlari:*** *p.f.d., prof. U.Inoyatov, p.f.d., prof. B.Xodjayev, p.f.d., prof. SH.J.Yusupova, p.f.d., prof. O'.M.Asqarova. p.f.n., dots., Sh.Ubaydullayev, PhD. M.Asranboyeva.*

***Filologiya fanlari:*** *fil.f.d., prof. N.Uluqov, fil.f.d., prof. H.Usmanova, p.f.n., dots. S.Misirov, PhD.,dots. P.Lutfullayev, PhD., dots. M.Yakubbayev*

***Texnik muharrir: R.Tursunov***

**Tahririyat manzili: Namangan shahri, Uychi ko'chasi, 316-uy**.
***Pochta indeksi:*** 160136, ***Faks:*** (0369) 227-27-21,
***Email***: Info@namspi.uz

*"Ta'lim va taraqqiyot" ilmiy-uslubiy jurnali elektron to'plam sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi (AOKA)ning 2022-yil 25-oktabrdagi № 045 044 raqamli guvohnomasi asosida chop etiladi. "Ta'lim va taraqqiyot" ilmiy-uslubiy jurnalining 2023-yil 2-soni NamDPI Ilmiy-texnikaviy Kengashining 10-may 2023-yildagi 5-sonli kengaytirilgan yig'ilishida muhokama qilinib, ilmiy to'plam sifatida chop etishga ruxsat etilgan (Bayonnoma **№ 5**). Maqolalarning ilmiy saviyasi va keltirilgan ma'lumotlar uchun mualliflar javobgar hisoblanadi.*

**NAMANGAN DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI 2023**

TA'LIMNING DOLZARB MUAMMOLARI VA YECHIMLARI;

# TA'LIMDA ZAMONAVIY AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING DOLZARBLIGI, AHAMIYATI VA AFZALLIGI

***To'g'izboyev Faxriddin Ulashovich***

*O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti Aniq fanlar kafedrasi assistenti*

***e-mail:*** *tugizboyev0711@gmail.com,* ***tel:*** *+99891-548-66-47*

***Erkinov Behruz Ne'mat o'g'li***

*O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti Matematika va informatika yo'nalishi 2 bosqich talabasi*

***e-mail:*** *erkinovbehruz980@gmail.com,* ***tel:*** *+99890-282-23-12*

***Annotatsiya:*** *Ta'lim jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishga bo'lgan ehtiyoj va bu ehtiyojni qondirish uchun amalga oshirilishi kerak bo'lgan vazifalar haqida fikrlar keltirib o'tilgan.*

***Kalit so'zlar:*** *kompetentlik, AKT, kommunikatsiya, elektron darslik, didaktika, motivatsiya, funktsional savodxonlik, innovatsionlik, intellektual rivojlanish.*

***Аннотация:*** *Обсуждается необходимость использования информационно-коммуникационных технологий в образовательном процессе и задачи, которые необходимо решить для удовлетворения этой потребности.*

***Ключевые слова:*** *компетентность, ИКТ, общение, электронный учебник, дидактика, мотивация, функциональная грамотность, инновации, интеллектуальное развитие.*

***Annotation:*** *The need for the use of information and communication technologies in the educational process and the tasks that should be performed to satisfy this need are discussed.*

***Key words:*** *competence, ICT, communication, electronic textbook, didactics, motivation, functional literacy, innovation, intellectual development.*

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 11 iyuldagi PF-5763-son “Oliy va o‘rta maxsus ta’lim sohasida boshqaruvni isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni ijrosini ta’minlash maqsadida bir qancha muhim masalalar belgilab berildi. Farmonda belgilangan masalalardan:

– zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va chet tillarini chuqur o‘zlashtirgan kadrlarni tayyorlashning yuqori darajasi va sifatini ta’minlash;

– ta'limning yangi pedagogik texnologiyalari va o‘qitish uslublarini joriy etishning xalqaro amaliyotga muvofiq ta’lim jarayonini tashkil etish, o‘quv rejalari va fan dasturlarini takomillashtirish, o‘qitishning zamonaviy shakllari va axborot-kommunikatsiya texnologiya vositalarini joriy etgan holda o‘quv jarayonini sifat jihatidan yangilash;

– zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish orqali talabalar, o‘qituvchilar va yosh tadqiqotchilarning jahon ta’lim resurslari, ilmiy adabiyotlar elektron katalogi va ma’lumotlar bazasidan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish;

– o‘quv va ilmiy laboratoriya bazalarini modernizatsiya qilish, zamonaviy asbob-uskunalar bilan jihozlash, sport-sog‘lomlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish;

– bu vazifalarni ta’limda qo‘llash, jamiyatnng yuqori darajalarga chiqishiga zamin yarartadi[1].

Ta’lim jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish o‘quv jarayonidagi barcha ishtirokchilarning axborot texnologiyalariga bo‘lgan kompetentligini shakllantirish, shu bilan birga, ijodiy, maqsadga muvofiq va samarali bo‘lishini ta‘minlash uchun hal qilinishi kerak bo‘lgan ko‘plab savollarni o‘z ichiga oladi[5].

Zamonaviy mutaxassislarni o‘qitish, tarbiyalash va rivojlantirish bugungi *“axborotga boy”* davrda amalga oshirish bir muncha jiddiy va dolzarb masala sifatida qolmoda.

Shulardan kelib chiqqan holda, jamiyatni, qolaversa bugungi kun ta’lim muassasalarida ta’lim-tarbiya jarayonini axborotlashtirish, zamonaviy pedagogik dasturiy vositalar bilan boyitish hamda dars jarayonida hosil bo’ladigan, qayta ishlanishi kerak bo‘lgan axborotlar hajmi ortib bormoqda. Bu esa, zamonaviy

kompyuter va telekommunakatsion texnologiyalari vositalari tez sur'atlar bilan mukammalashib va takomillashib borayotganligini anglatadi[3].

Demak, axborot texnologiyalari o'qituvchining kasbiy-pedagogik fazilatlariga, o'qitishda axborot - kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning uslubiy va tashkiliy jihatlariga yangi talablarni belgilab beradi.

Bugungi kunda har qanday o'qituvchi o'quv jarayonida: axborot texnologiyalarini - Internetdagi ma'lumotlarni, elektron darsliklarni, lug'atlar va ma'lumotlarni, taqdimotlarni, dasturlarni, turli xil axborot tizimlari – internet kontentlar, forumlar, bloglar, elektron pochtalarni ishlatishning ko'plab telekonferentsiyalar, veb-seminarlar kabi imkoniyatlariga ega[4].

Bu esa, mashg'ulotlarning mazmuni yangilanishiga, o'quv jarayoni ishtirokchilari o'rtasida tezkor axborot almashinuvini ta'minlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ta'lim beruvchi nafaqat ta'lim oluvchini o'qitadi, rivojlantiradi, balki yangi texnologiyalarni joriy qilish bilan u o'zini-o'zi nazorat qilish, kasbiy o'sish va ijodiy rivojlanishi uchun kuchli turtki beradi. Bundan tashqari, o'qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanish pedagogga quyidagi didaktik vazifalarni hal qilishda amaliy yordam beradi[2]:

- barqaror motivatsiyani shakllantirish;
- talabalarning fikrlash qobiliyatini faollashtirish;
- passiv talabalarni mehnatga jalb qilish;
- ta'lim jarayonining intensivligini oshirish;
- boshqa mamlakatlar va madaniyat vakillari bilan jonli aloqani ta'minlash;
- o'quv jarayonini zamonaviy materiallar bilan ta'minlash;
- talabalarni turli xil ma'lumot manbalari bilan mustaqil ishlashga o'rgatish;
- ta'limga shaxsga yo'naltirilgan va tabaqalashtirilgan yondashuvni amalga oshirish;
- o'quv jarayonini faollashtirish, talabalarni tadqiqot faoliyatiga jalb qilish imkoniyati;
- o'quv jarayonining moslashuvchanligini ta'minlash.

Pedagogik amaliyotda o'qituvchining axborot-kommunikatsion kompetensiyasining ikki darajali modeli taklif etiladi:

1) funksional savodxonlik darajasi (faoliyatga tayyorlik):

- matnli, raqamli, grafik, tovushli, videokompanentlarni qayta ishlash uchun kompyuter dasturlari bilimlariga ega bo'lish;
- Internetda ishlash, uning xizmatlaridan foydalanish qobiliyati;
- multimedia qurilmalari, skaner, printer va boshqalar kabi uskunalardan foydalanish qobiliyati.

2) faollik darajasi (amalga oshirilgan faoliyat):

- yuqori natijalarga erishish uchun ta'lim faoliyatida AKT sohasidagi funksional savodxonlikdan samarali va muntazam foydalanish.

Faoliyat darajasini quyi darajalarga ajratish mumkin:

- innovatsionlik;
- ma'lum bir o'quv mavzusining mazmuni va metodikasi talablariga muvofiq ishlab chiqilgan ixtisoslashtirilgan media-resurslarni o'quv faoliyatiga kiritish;
- ijodiylik;
- o'zlarining ta'lim elektron vositalarini rivojlantirish.

Ta'lim tizimi natijalarida sifat o'zgarishlariga olib kelishi mumkin bo'lgan faoliyat darajasi mavjud bo'lib, bunda o'qituvchini funksional savodxonlik darajasidan qanday qilib faoliyat darajasiga ko'tarish mumkin degan savol tug'iladi. Bularni o'qituvchilarning axborot-kommunikatsiya salohiyatini oshirish alohida ta'lim muassasasi doirasida amalga oshirilishi kerak bo'ladi. O'qituvchilar o'zlarining kasbiy faoliyatlarida axborot texnologiyalaridan foydalanishni o'rganishlari mumkin bo'lgan turli loyihalar, kontentlar, masofaviy ta'lim va malaka oshirish kurslari mavjuddir. AKTdan foydalanish bo'yicha metodik yordam, AKTdan foydalanish bo'yicha pedagogik tajribani seminarlar, mahorat darslari, vebinarlar va kurslar orqali umumlashtirish va rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'quv faoliyatida yuqori natijalarga erishish uchun pedagog, to'plangan bilimlaridan samarali va tizimli ravishda foydalanishning zaruriy sharti shundaki, ichki motivatsiya, o'qituvchi kasbiy kompetensiyasidan foydalangan holda dars o'tkazishga bo'lgan ehtiyoji va tayyorligi, olingan nazariy bilimlarni ongli ravishda o'quvchilarga uzatishidir. Bunda amaliy ko'nikmalar amaliy pedagogik faoliyatga, ta'lim jarayonida tayyor multimedia dasturlaridan, internetdagi ta'lim

manbalaridan, ijtimoiy tarmoq xizmatlaridan foydalanish hamda mavjud dasturiy mahsulotlar, o'quv saytlaridan unumli foydalanish zarur.

Ta'limning barcha shakllarida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish qator salbiy oqibatlarga olib kelishi ham bugungi kunda uchrab turgan muammolardan hisoblanadi. Shu jumladan, psixologik-pedagogik xarakterdagi bir qator salbiy omillar, yoshlarning fiziologik holati, psixikasi va sog'ligiga salbiy ta'siri kabilardir. Ayniqsa, bugungi kunda yoshlarning kompyuterga va kompyuter o'yinlariga, internetga qaramlik kabi jiddiy muammolar ham paydo bo'ldi.

Ko'pincha, axborot texnologiyalaridan foydalangan holda ta'lim olishning afzalliklaridan biri ta'limni individualizatsiya qilish deb ataladi. Biroq, afzalliklar bilan bir qatorda, umumiy individualizatsiya bilan bog'liq bo'lgan katta kamchiliklar ham mavjud. Individualizatsiya o'quv jarayonida oldindan mavjud bo'lmagan ta'lim jarayonining ishtirokchilari – o'qituvchi va talabalar hamda talabalararo muloqotni jonli ravishda qisqartiradi va ularga "kompyuter bilan dialog" shaklida muloqot uchun yondoshuvni taklif qiladi.

Ta'lim jarayonida zamonaviy talaba juda ko'p miqdordagi ta'lim ma'lumotlari bilan shug'ullanishi kerak. Natijada, o'quvchining ruhiy va jismoniy salomatligi uchun xavfli bo'lgan ortiqcha ma'lumot va hissiy qo'zg'alish ham paydo bo'ladi.

Internetda nashr etilgan axborot resurslaridan foydalanish ko'pincha salbiy oqibatlarga ham olib keladi. Ko'pincha, bunday axborot texnologiyalaridan foydalanganda, barcha tirik mavjudotlarga xos bo'lgan energiyani tejash prinsipi ishga tushiriladi. Jumladan, tayyor loyihalar, hisobotlar va internetdan olingan ma'lumotlar muammo echimlariga aylandi, hamda ular ta'lim va tarbiya samaradorligini oshirishga kata hissa qo'shishi ma'lum.

Kompyuterda uzoq muddatli ishlash bola tanasining ko'plab funksiyalariga salbiy ta'sir qiladi: jumladan, yuqori asabiy faoliyat, endokrin va immunitet tizimlari, ko'rish va mushak-tayanch tizimlariga.

Tashqi salbiy ta'sirlar esa o'z navbatida kompyuterlarda ishlashdan paydo bo'ladi, jumladan:

- bolalar hayol qilishni to'xtatadilar, o'zlarining vizual tasvirlarini yarata olmaydilar, ma'lumotni umumlashtirish va tahlil qilishda qiynaladilar;

- kompyuter bolalarning aqliy va intellektual rivojlanish sohasida uzoq muddatli buzilishlarni keltirib chiqarishi, ayrim turdagi xotiralar faoliyatini kamaytirishi, hissizlik, mas’uliyatsizlikning oʻsishiga olib kelishi mumkin;
- virtual haqiqat tabiiy xavf hissi yoʻqolishiga olib keladi.

Shunday qilib, oʻqituvchilar oʻqitish jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishda sanitariya-gigiena talablariga, ijodiy, kasbiy faoliyat me’yorlariga qat’iy rioya qilishlari kerak boʻladi.

Ta’lim jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish oʻquv jarayonidagi barcha ishtirokchilarning axborot kompetensiyasini shakllantirish ogʻriqli va muammoli emas, balki ijodiy, maqsadga muvofiq va samarali boʻlishini ta’minlash uchun hal qilinishi kerak boʻlgan koʻplab savollarni oʻz ichiga oladi. Shu bilan birga, kompyuter texnologiyalari hech qachon oʻqituvchining oʻquvchi bilan jonli muloqatining oʻrnini bosa olmasligini unutmaslik kerak. Bugungi kunda zamonaviy oʻqituvchi yosh avlod bilan ishlaydi va uni hayotga tayyorlaydi, demak u oʻzi ham zamon bilan hamnafas boʻlishi talab etiladi.

Oʻqituvchilarning yangi texnologiyalar va metodlarni ishlab chiqishdagi muvaffaqiyat darajasi koʻp jihatdan kasbga sadoqat, yangi narsalarni oʻrganishga boʻlgan intilish va oʻz-oʻzini tarbiyalashga boʻlgan xarakati bilan bogʻliqdir. Shu bilan birga, oʻqituvchining oʻquvchi bilan jonli muloqoti, kreativ fikrlashini, kasbiy kompetentlik faoliyati, oʻquvchilar faolligini baholash va ragʻbatlantiruvchi vosita ekanligi, xar qanday zamonaviy kompyuterlar, axborot texnologiyalari bilan almashtirib bo’lmasligini unutmaslik kerak.

**Adabiyotlar:**

1. https://lex.uz/docs/-4415388
2. Захарова И. Г. Информационные технологии в образовании. — М.: Издательский центр «Академия», 2010. — 192 с.
3. Aminov I.B, Toʻgʻizbaev F.U., The Role of Modern Information Technology in the Formation of Professional Competencies of Primary School Teachers. Spanish Journal of Innovation and Integrity. Special Issue. http://sjii.indexedresearch.org/index.php/sjii/article/view/516/671
4. И.Б.Аминов, Т.Оқазаров, Ф.Тугизбоев. Таълим-тарбия жараёни самарадорлигини оширищда ахборот-коммуникацион технологияларидан

фойдаланиш ўрни. 29-апрель 2018 йил Самарқанд шаҳри. СамДУ хузуридаги ХТХҚТМОХМ

5. Omonov A. RAQAMLI TA'LIM ISHTIROKCHILARI KOMPETENTLIGI OSHIRISH MUAMMOLARI. PEDAGOGS jurnali, 2(1), 150-153. https://doi.org/10.5281/zenodo.5919934 2.

**UDK:** 378+65.011.8

## KASB-HUNAR MAKTABLARIDA INFORMATIKA FANINI O'QITISH HOZIRGI KUNDA MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR

***Nafasov G'anisher Abdurashidovich***

*Guliston davlat universiteti dotsenti,*

*Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) E-mail: gnafasov87@gmail.com*

***Abduraimov Dostonbek Egamnazar o'g'li***

*Guliston davlat universiteti katta o'qituvchisi*

*E-mail: abduraimov.dostonbek@mail.ru*

***Qilichev Sunnatillo Tohir o'g'li***

*Guliston davlat uriversiteti o'qituvchisi E-mail: sunnatillo.qilichev@mail.ru*

***Axmedova Xolbuvi Abdullaevna***

*Sardoba tuman kasb-hunar maktabi o'qituvchisi,*

*E-mail: axmedova.xolbuvi @mail.ru*

***Annotatsiya:*** *Ushbu keltirilgan maqolada kasb-hunar maktablarida informatikani o'qitishning dolzarb muammolari ko'rib chiqilib, ularni hal etish istiqbollari ochib berildi.Informatikani o'qitish jarayonida o'quv jarayoni ishtirokchilarining o'zaro aloqalari yo'llari ko'rsatilgan, samaradorligini oshirish yoritib berilgan.*

***Kalit so'zlar:*** *informatika, axborot madaniyati, informatikaning tizimli tabiati, topshiriqlar, metasubject, mobilтелефонлар, планшетлар, пропедевтик, темперамент, коммуникация.*

***Аннотация:*** *В данной статье рассмотрены актуальные проблемы обучения информатике в профессионально-технических училищах и выявлены перспективы их решения.В процессе обучения информатике показаны пути*

*взаимодействия участников образовательного процесса, совершенствования объясняется их эффективность.*

***Ключевые слова:*** *информатика, информационная культура, системность информатики, задания, метапредмет, мобильные телефоны, планшеты, пропедевтика, темперамент, общение.*

***Annotation:*** *This article discusses the actual problems of teaching computer science in vocational schools and identifies the prospects for their solution. In the process of teaching computer science, the ways of interaction between the participants in the educational process are shown, their effectiveness is explained by improvement.*

***Key words:*** *informatics, information culture, consistency of informatics, tasks, metasubject, mobile phones, tablets, propaedeutics, temperament, communication.*

**KIRISH.**Bugungi kunda har bir kishi o'z farzandining kelajagi, ayniqsa uning olayotgan ta'limi haqida chuqur qayg'uradi.O'z farzandlarini maktabga yuborish orqali ular ta'lim olish jarayonida zarur bilimlarni olishi, har tomonlama rivojlanishi va ota-onalar maktab va o'qituvchilarni o'z farzandlarining tarbiyasi uchun mas'ul ekanligi uning kelajagini belgilab beradi.Shu munosabat bilan o'quv jarayonining hozirgi pozitsiyasi va an'analarini qayta ko'rib chiqish, umumiy ta'limning yangi ta'lim standartlarini takomillashtirish zaruriyati tug'iladi.

Hozirgi zamonda dunyo bo'ylab tadqiqotchilar va o'qituvchilarning nisbatan yosh va tez rivojlanayotgan informatika faniga qiziqishi tobora ortib bormoqda.Bugungi kunda informatika fundamental fan sifatida paydo bo'ldi.Uni o'rganish obekti - bu ma'lumot, uning tuzilishi va uni qayta ishlash usullari.So'nggi yillarda "Informatika va AT" maktab kursi o'z rivojlanishining sifat jihatidan yangi bosqichiga qadam qo'ydi.Ayniqsa, kompyuter savodxonligi haqidagi dunyoqarash o'zgardi.Maktabda informatika fanini joriy etish boshida kompyuter savodxonligi dasturlash qobiliyati sifatida tushunilgan.Endi hamma maktabdagi informatika dasturlash kursi bo'lmasligi kerakligini anglab etdi.Hozirgi vaqtda maktab informatika o'qituvchisi eng qiyin va qiziqarli kasblardan biri hisoblanadi. Informatika fani o'qituvchisi kompyuter texnologiyalari rivoji, yangi dasturlarning

paydo boʻlishi, ular bilan ishlash texnikasi va usullarining oʻzgarishini diqqat bilan kuzatishga majbur.Mutaxassis muttasil quyidagi savollar bilan yuzma-yuz keladi: Nimani va qanday oʻqitish kerak? Qanday qilib bolani tez rivojlanayotgan axborot texnologiyalari dunyosida yoʻnalish olishni oʻrgatish kerak? “Buning uchun oʻqituvchi oʻzini doimiy ravishda takomillashtirib borishi kerak, shaxsiy maqsadga muvofiqlik va doimiy ravishda axborot texnologiyalari dunyosida va pedagogik sohada sodir boʻlayotgan voqealarni bilishga intilish kerak” [3, b.98].

**TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI.** Maktabda informatika fanini oʻrganish zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari oʻquvchilarining rivojlanishiga hissa qoʻshadi.Hozirgi pandemiya sharoitida amaliyot shuni koʻrsatadiki, bolalar informatika darslarida olgan bilimlarini qoʻllagan holda ularni boshqa fanlarga tayyorgarlik koʻrishda foydalanadilar, masalan, oʻqituvchilar bilan masofaviy muloqotda, aytaylik, ular biror darsdan ta’lim olish jarayonida albatta bevosta kompyuterdan, informatsion texnologiyalardan foydalanadi.Shuning uchun informatika oʻqituvchisi, hech kimga oʻxshamagan holda, oʻquvchilarni oʻz darslari, mavzusi bilan qiziqtirishi kerak.

Informatika darslari oʻquvchilarning ijodiy rivojlanishiga ham ta’sir qiladi.Kompyuter darsda nafaqat oʻquvchining ishini kuzatibgina qolmay, balki ularning bilim, koʻnikma va malakalarining foydali va kamchiliklarini kashf etishga yordam beradi.Informatika darslarida faqat oʻquvchilar nazariy bilimini shakllantirbgina qolmay, balki fanning texnik jihatlaridan ham bilimga ega boʻlishlarini ta’minlash lozim.Har bir oʻquvchining temperamenti har boʻlishini hisobga olib vazifalarning tasniflanishi, berilgan topshiriqlarning oʻquvchi uchun qiziqarli boʻlishini ta’minlash boʻyicha mutaxassisdan kuzatuvchanlik talab qilinadi.Berilgan vazifa oʻquvchilarni ijobiy fikrlashga moslashishga yordam beradi.Agar ular kompyuter bilan ishlashga boʻlgan qiziqishini rivojlantirsalar, ular koʻproq rivojlanishi mumkin.Juda oddiy qilib aytadigan boʻlsak kompyuterdan foydalanishni yaxshi oʻrgangan, informatika boʻyicha zarur bilim va koʻnikmalarga ega boʻlgan oʻquvchilar maktabda boshqa fanlarni oʻqishi, ularni oʻzlashtirishi birmuncha oson boʻladi [2, b.88].

Umumta’lim maktabida informatika oʻqitishning muammolari va istiqbollari haqida gapirishdan oldin, asosiy muammo muhokama qilinishi kerak,

bu bolalarning informatika fanining akademik mavzu sifatida ahamiyatini anglashi, shuningdek, uni qoʻllash sohasining aniq tavsifi.Internet, elektron kutubxonalar va kitoblar, raqamli audio-video-foto vositalar, mobil telefonlar, planshetlar, choʻntak kompyuterlari va kommunikatorlar, ijtimoiy tarmoqlar, bloglar haqidagi tushunchalarni zamonaviy maktab oʻquvchisi bilmogʻi, taxminan 10-20 yil oldingi maktab oʻquvchisi bilan hozirgi zamon oʻquvchisining tubdan farq qilishi, fan sifatida rivojlangan Informatikaning ilm-fan sohasida juda katta yutuqlarga erishishda koʻmakchi boʻlganligini va boʻlayotganligi toʻgʻrisida tasavvurni shakllantirish kerak boʻladi.

Yuqoridagilarga asoslanib, biz informatika oʻqitishning asosiy muammolarini shakllantirishimiz mumkin:

1.Maktab informatikasi barcha maktab fanlari ichida eng yoshi va, ehtimol, eng muammoli (moddiy-texnik bazaning zaifligi va kadrlar bilan ta'minlanganligi sababli).

2.Informatika fanini oʻrganishda echilgan vazifalar, shuningdek, boshqa bilim sohalari - fizika, matematika, astronomiya va boshqalarga tegishli boʻlib, shu tufayli informatika fanini oʻrganish metasubject xarakteriga ega.

3.AKTni rivojlantirishning yuqori sur'atlari oʻqituvchining doimiy ravishda kompyuterning davriy nashrlari, Internet-resurs materiallaridan foydalanishi zarurligiga olib keladi.

4.Hozirgi kunda bolalar nafaqat kompyuter mavjudligi haqida bilishlari, balki u haqida shunchaki tasavvurga ega boʻlishlari emas, balki ular ustida ishlashlari, ushbu texnikadan foydalana olishlari kerak.

Informatika bu obektlar yoki jarayonlar haqida emas, balki ularni avtomatlashtirish, yaratish va ishlash usullari, vositalari va texnologiyalari haqidagi fandir.Ushbu fan nafaqat uni chuqur oʻrganishni, balki oʻz bilimlarini modernizatsiya qilish, shuningdek oʻquv yuklamasini optimallashtirish uchun bilim, koʻnikma va malakalarni amalda qoʻllashni ham ta'minlaydi.Shaxsiy kompyuter oʻrganish obekti sifatida (qurilmalar, operatsion tizim, dasturiy ta'minot, ma'lumot olish usullari) bilan ishlashning asosiy bilimlari va koʻnikmalari shakllanadi.Shu bilan birga, kompyuter - bu oʻquv vositasi va berilgan vazifalarni bajarish vositasi hisoblanadi.Oilalarning moddiy va madaniy darajasidagi farq

tufayli maktab oʻquvchilari uy vazifasi uchun kompyuterdan foydalanish, oʻz qiziqishlarini qondirish uchun har xil imkoniyatlarga ega va bu oʻquv jarayonini tashkil etishda ham hisobga olinishi kerak.

5.Kompyuterda ishlash 10-30 daqiqadan oshmasligi kerak (oʻquvchilarning yoshiga qarab).

6.Qoida tariqasida, kompyuter uskunalari miqdori etarli emas, buning natijasida kichik guruhlarning birgalikdagi ishini tashkil etish zarur (bitta kompyuterga 2-4 oʻquvchi)

7.Umuman olganda barcha sinf oʻquvchilari informatika darslariga zavq bilan borishadi va bu kompyuterning oʻzi mavzuni oʻrganishga turtki boʻlganligi bilan bogʻliq.Shu bilan birga, kompyuterlarning inson faoliyatining koʻplab sohalariga kirib borishi bu qiziqishni vaqt oʻtishi bilan susaytiradi.

8.Boshlangʻich maktab yoshidagi bolalar uchun ta’limning asosiy muammolaridan biri bu oʻyindan ta’limga qadar etakchi faoliyatning keskin oʻzgarishi.Ta’lim faoliyatining shakllanishi koʻpincha bolaning oʻyin ehtiyojlariga toʻgʻri kelmaydi va u uchun juda ogʻriqli boʻladi.Ushbu bosqichda, asosan, oʻynaydigan didaktik kompyuter texnologiyalaridan foydalangan holda, asosan oʻyin oʻynaydigan faoliyatdan ta’limga silliq oʻtishni tashkil etish zarur.Avvalo, informatika oʻqituvchisi oʻynash orqali oʻqitishni oʻrganishi kerak [3, b.48].

**TADQIQOT NATIJALARI.**Ayniqsa, yuqoridagi muammolar boshlangʻich maktabda informatika fanini oʻqitish bilan bogʻliq, chunki informatika fanini oʻrganish zamonaviy umumiy ta’limning ajralmas qismi boʻlib, yosh avlodda yangi integral dunyoqarash va axborot dunyoqarashini shakllantirishga, kompyuterni axborotni qayta ishlashning zamonaviy vositasi sifatida tushunishga qaratilgan.Bolalarga kompyuterdan qanday foydalanishni oʻrgatishni boshlash yoshi toʻgʻrisida har xil fikrlar mavjud.Shifokorlar, psixologlar, oʻqituvchilarning zamonaviy tadqiqotlari shuni koʻrsatadiki, gigiena va ergonomik talablarni bajarishda kompyuter bilan ishlash boshlangʻich sinf oʻquvchilarining sogʻligʻiga salbiy ta’sir koʻrsatmaydi.Agar siz bolalarni ortiqcha yuklamasdan, ularga oʻz gʻoyalarini tezkor va ixcham shaklda amalga oshirish uchun joy ajratib qoʻysangiz, ular oʻzlarini samolyotda yoʻnaltirish, diqqat va xotirani oʻrgatish, tasavvur va ijodkorlikni rivojlantirish qobiliyatini yanada faol rivojlantiradilar. Boshlangʻich

maktab kursini doimiy ravishda oʻrganish uchun 1-sinfdan boshlab "Informatika va AKT" propedevtik kursida mantiqiy jihatdan murakkab mavzularni oʻz vaqtida kirish darajasida oʻrganish dolzarbligini alohida taʼkidlash lozim.Boshlangʻich maktabda "Informatika va AKT" fanini oʻrganishning asosiy maqsadi oʻquvchilarda AKT asoslarini - kompetentlikni shakllantirishdir, ularning koʻp tarkibiy qismlari umuminsoniy taʼlim harakatlari tarkibiga kiritilgan.Bu ushbu kursning mazmuni uchun asosiy qiymatlarni belgilaydi.Meta-predmetli oʻqitish natijalariga, shuningdek yuqori darajadagi uzluksiz taʼlimga erishish nuqtai nazaridan (shu jumladan oʻrta va yuqori darajalarda "Informatika va AKT" fanini oʻqitish ) quyidagi kompetentsiyalar eng qimmatlidir, bu kurs mazmunida aks etadi:

*Mantiqiy va algoritmik kompetensiya asoslari,* xususan mantiqiy va algoritmik fikrlash asoslarini oʻzlashtirish, algoritmga muvofiq harakat qilish va eng sodda algoritmlarni tuzish qobiliyati.

*Axborot savodxonligi asoslari,* xususan maʼlumotni qidirish, olish, taqdim etish usullari va uslublarini oʻzlashtirish, shu jumladan turli xil shakllarda taqdim etilgan maʼlumotlarni: matn, jadval, diagramma, zanjir, agregat.

*AKT malakalarining asoslari,* xususan, axborot muammolarini hal qilish uchun kompyuterlardan (va boshqa AKT vositalaridan) foydalanish asoslarini oʻzlashtirish.

*Aloqa kompetensiyasining asoslari.*Ushbu oʻquv predmeti doirasida axborotni qabul qilish va uzatish bilan bogʻliq boʻlgan aloqa kompetensiyasining tomonlari eng faol shakllanmoqda.Bunga lisoniy kompetentsiyaning axborot tushunchalari tizimini oʻzlashtirish, maʼlumotni qabul qilish va uzatish uchun tildan foydalanish bilan bogʻliq boʻlgan jihatlari ham kiradi .

Informatika darslarida dunyoni tizimli idrok etish shakllanadi, turli xil tabiiy va ijtimoiy hodisalar, tizim tafakkurining birlashtirilgan axborot aloqalari haqida tushuncha rivojlanadi, uning darajasi asosan maʼlumotni tez qayta ishlash va unga asoslanib qarorlar qabul qilish qobiliyati bilan belgilanadi, bu maktab oʻquvchilari va oʻqituvchilardan qoʻshimcha imkoniyatlarni talab qiladi. - tobora koʻproq yangi uslublar va oʻquv qoʻllanmalaridan foydalanish [1, b.18].

Kompyuter fanidan maktab kursining mazmuni maʼlum darajada fanning hozirgi rivojlanish darajasi va jamiyat talablariga javob berishi kerak.Kompyuter

texnologiyalari, birinchi navbatda, shaxsiy kompyuterlar va ularning dasturiy ta'minotining rivojlanishi shunchalik tez ro'y beradiki, uning inson faoliyatining barcha sohalarida kengayishi shu qadar qamrab oladiki, yangi axborot texnologiyalaridan foydalangan holda bolalarga axborot fanlarini sifatli o'rgatishga qodir mutaxassislarni tayyorlash va qayta tayyorlashga ehtiyoj bor, shuningdek bolalarni zamonaviy kompyuter fanining murakkab dunyosi bilan tanishtirish.

Ushbu muammolarni va hal qilinmagan vazifalarni hal qilish informatika o'qitishning uzluksizligi va izchillik tamoyillari asosida o'qitish uslublarini takomillashtirmasdan imkonsizdir.

**XULOSA.**Informatika jamiyatning keyingi rivojlanish jarayonlariga tobora ko'proq ta'sir ko'rsatmoqda. U jamiyatning umumiy salohiyatini va uning rivojlanish istiqbollarini belgilaydigan dominant omilga aylanadi.Jamiyatni axborotlashtirish zamonaviy sivilizatsiyaning eng muhim tarkibiy qismi bo'lib, u yuqori darajadagi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va rivojlangan axborot tuzilmalari bilan ajralib turadi. Informatika mohiyatan texnikadan tabiat va jamiyatdagi axborot va axborot jarayonlari haqidagi fundamental fanga aylanmoqda [2, b.38]. Maktabdagi informatika kursining umumiy o'quv va amaliy ahamiyati barqaror va tez sur'atlarda o'sib boradi.Kurs katta gumanitar salohiyatga ega.U allaqachon yosh avlodni axborot jamiyatidagi samarali faoliyatga tayyorlashda muhim rol o'ynamoqda.

## Adabiyotlar ro'yxati

1. Ш.М.Мирзиёев. Эркин ва фаровон, демократик ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз.– Тошкент : Ўзбекистон, 2016. - 56 б.

2. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2017 йил 6 апрелдаги "Умумий ўрта ва ўрта махсус, касб-ҳунар таълимининг давлат таълим стандартларини тасдиқлаш тўғрисида" 187-сонли Қарори. – Т.: Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 14-сон, 230-модда.

3. Азизхўжаева Н.Н. Педагогик технология ва педмаҳорат. Т.: Низомий номидаги ТДПУ, 2003 – 176 б.

# AXBOROT ASRI TAXDIDLARINING YOSHLAR ONGIGA TA`SIRI VA UNING G`AYRIAXLOQIY JIHATLARINI OLDINI OLISHDA TA`LIM TIZIMINING O`RNI

***Karimov Islomjon Isroiljon o`g`li***
*Namangan davlat pedagogika instituti magistranti*
*Gmail: islomjonkarimov2775@gmail.com*

***Annotatsiya**: Jamiyatimiz hayotining yetakchi kuchiga aylanib borayotgan yoshlarning har jabhadagi takomili yo`lida hizmat qiluvchi axborot vositalari va ulardan foydalanish ko`nikmalarini shakllantirish bugungi kunning dolzarb muammolaridan biriga aylanib ulgurdi. Ushbu maqolada ta`lim tizimning ham axborot asri masalalarida shiddat bilan o`zgarib, islohotlarga ehtiyoj sezayotgani, o`quvchi-yoshlarda mediasavodxonlik ko`nikmalarini shakllantirish, ushbu sohadagi muammolar va ularning qanday salbiy natijalarga olib borayotgani haqida atroflicha fikr yuritiladi va sabablarini aniqlashga harakat qilinadi.*

***Kalit so`zlar:** Bunyodkor g`oyalar, vayronkor g`oyalar, internet, televideniya, ommaviy axborot vositalari, globallashuv, ommaviy madaniyat, mafkura, dunyoqarash, mediasavodxonlik.*

***Annotation:** Formation of information media and their use skills has become one of the urgent problems of the day. In this article, the education system is rapidly changing in the information age and needs reforms, the formation of media literacy skills among students, the problems in this area and how they lead to negative results, and an attempt is made to determine the reasons. .*

***Key words:** Creative ideas, destructive ideas, Internet, television, mass media, globalization, mass culture, ideology, worldview, media literacy.*

***Аннотация:** Формирование информационных носителей и навыков их использования стало одной из актуальных проблем современности. В данной статье система образования стремительно меняется в век информации и нуждается в реформах, формирование навыков медиаграмотности у учащихся, проблемы в этой сфере и то, как они приводят к негативным результатам, а также делается попытка определить причины. .*

***Ключевые слова:*** *Креативные идеи, деструктивные идеи, Интернет, телевидение, СМИ, глобализация, массовая культура, идеология, мировоззрение, медиаграмотность.*

## Kirish.

Hozirgi kunda butun dunyo davlatlari va aholisi butun dunyo bo`ylab axborot tarmoqlari orqali bog`langani global hayot sur`atlarining yanada jadallashuviga hizmat qilmoqda. Voyaga yetmagan yoshlarning ham borgan sari axborot ummoniga tezlik bilan sho`ng`ib, hayot va o`zlari yashab turgan jamiyat haqidagi ma`lumotlarni birinchi navbatda ommaviy ahborot vositalari orqali olayotgani odatiy holga aylanib ulgurdi. Ilm-fan sohalarida bo`lgan rivojlanish insoniyat rivojida katta o`zgarishlar olib keldi va hayotlarining farovonligiga hissa qo`shdi. Shunday ekan, insonlarning qanday qilib o`z dunyoqarashlariga ega bo`lishlari va zamonaviy dunyoda o`z yo`llarini topa olishlari uchun ham axborot texnologiyalaridan to`g`ri foydalana olishlari, uning manfaatli va zarar keltiruvchi jihatlariga to`g`ri yondosha olishi lozim. Ta`lim tizimi oldiga ham asosiy axborot iste`molchilari bo`lgan yoshlarning ushbu sohadagi faoliyatlarini tartibga solishda mas`uliyatli vazifalar yuklangan. Ta`lim tizimi islohotlarini keng qamrovda amalga oshirish, maktabgacha, maktab, oliy, professional va mustaqil ta`lim bosqichlarining har biri ushbu sohada alohida yondashuvlarni taqozo qiladi.

## Adabiyotlar tahlili:

Axborot xavfsizligi masalasi yaqin bir necha asrlardan beri ayniqsa dolzarb muammolardan biriga aylanib ulgurdi. Turli mamlakatlar qatori yurtimizda ham ushbu masalada turli tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. O'zbekiston mustaqilligiga havf solayotgan ma'naviy tahdidlar va axborot sohasida milliy xavfsizlik masalalari S.Otamurtovning "Globallashuv va milliy-ma'naviy havfsizlik", Sh.Umarov va F.Mulaydinovlarning "Axborot xavfsizligi", M.Quronovning "Milliy tarbiya", M.Lafasovning "Diniy ekstremizm: tarixi va mohiyati", X.Jumaniyozov, M.Sobirovlarning "Globallashuv asoslari", I.Karimov va N.Turgunovlarning "Axborot xavfsizligi asoslari" asarlarida yoritib berilgan.

## Tadqiqot metodologiyasi.

Maqolada OAV lar tomonidan uzatiladigan axborotlar, ularni tahlil qilish ko`nikmalarini shakllantirish zaruriyati, ta`lim tizimining ushbu sohadagi muhim vazifalari va muammolari haqida so`z yuritiladi. Ta`lim tizimining axborot havfsizligi borasidagi mas`uliyati va ota-onalarning bu muammolar oldi olinishidagi o`rniga ham to`xtalib o`tiladi. Bir qator axborot hurujlarini keltirib chiqarayotgan muammolar haqida ma`lumot beriladi.

**Tahlillar va natijalar.**

So`nggi bir necha asrda butun dunyoda ilm-fan sohalaridagi yutuqlar natijasida bir qator ilmiy kashfiyotlar qilinib, axborotlarni tezlik bilan yetkazib beruvchi, qulay va ishonchli axborot tarmoqlari, internet saytlari, vaqtli matbuot nashrlari, radio televideniyaning ommalashishi ta`lim sohasining mazmuni va xususiyatlarida sezilarli burilishlar yasadi. Ta`lim tizimida media vositalari kirib kelishi bilan axborotlarni qabul qilish, saralash, foydalana olishga yetarli malakaga ega bo`lgan yoshlarni shakllantirish davlat siyosati darajasiga ko`tarildi. Qonunchiligimizda barcha fuqarolar uchun belgilangan axborot olish va tarqatish to‘grisidagi huquqlar bilan bir qatorda, majburiyatlari mavjudligi belgilab qo`yilgan. Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risidagi qonunning 5-moddasida belgilab qo`yilgan "Davlat ommaviy axborot vositalarining faoliyati va axborotdan foydalanish erkinligini, mulk huquqini, davlat organlarining g‘ayriqonuniy qarorlaridan, ular mansabdor shaxslarining g‘ayriqonuniy harakatlaridan (harakatsizligidan) himoya qilinishini kafolatlaydi. Ommaviy axborot vositalarining faoliyatiga to‘sqinlik qilish yoki aralashish taqiqlanadi".

Ta`lim jarayonlarini tashkillashtirishda moddiy texnik bazani mustahkamlash, zamonaviy ta`lim metodlarini jadal qo`llash, internet va boshqa axborot tarmoqlaridan faol foydalanish, axborot kommunikatsion texnologiyalari orqali o`quvchi yoshlarning dars o`rganishlarini muvofiqlashtirish, zamonaviy kasblar va bilimlarni o`rgata olish kabi jihatlar bugungi kun o`qituvchisining zimmasiga ulkan mas`uliyat yuklaydi. Tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan, har yoqlama dars mavzularini tushunarli va aniq tarzda yetkazib beuvchi qo`llanmalar, darsliklar va axborot tarmoqlari ishlab chiqilib hayotga tatbiq etilayotgani bir qator ijobiy o`zgarishlarga olib keldi va mediasavodxonlik darajasi yuqori jamiyatni shakllantirishda ahamiyati oshib bormoqda. «Barchamizga ayonki, O`zbekiston boy

qazilma va tabiiy resurslarga, qudratli iqtisodiy va insoniy salohiyatga ega. Biroq bizning eng katta boyligimiz - bu xalqimizning ulkan intellektual va ma'naviy salohiyatidir», degan edi Shavkat Mirziyoyev. Ma`naviy barkamol yosh avlodni tarbiyalash uchun esa tavsiyaviy asosda qaysi axborotlardan foydalanishda nimalarga e`tibor berilishi haqida tushuntirib berilishi kerak. Jamiyatning mafkuraviy immunitetiga salbiy ta`sir o`tkazayotgan terrorizm, diniy aqidaparastlik, totalizatorlik faoliyati, ommaviy madaniyat, pornografiya, axloqsizlikning boshqa ko`rinishlari kabi vayronkor g`oyalarni taqiqlash, cheklovlar bilangina axborot makoni xavsizligining ta'minlanishi amri mahol. Axborot texnologiyalari yoshlar ongiga quyidagi tarzda ta`sir o`tkaza oladi:

**Avvalambor,** axborot vositalari insonlar ongini manipulatsiya qila oluvchi kuchga ega. Axborotlar dunyosiga sayohat qilishda davlat chegaralari degan tushuncha yo'qolib bormoqda. Siyosiy va boshqa turdagi niyatlarini amalga oshirishga urinuvchi yovuz niyatli guruhlar o`z g`arazlari yo`lida nafaqat yoshlarga, balki keng aholi qatlamlariga ta`sir ko`rsatib boshqarishga urinadi. OAVlar davlatlar hukumatlari uchun aholiga o`z siyosiy irodalarini yetkazishda rol o`ynaydi. Insonlar ongiga ma`lum bir tushunchani singdirish va har bir honadonga yetkazilishi uchun televideniya, radio va boshqa turdagi vositalar amaliy vosita bo`lib xizmat qiladi. Axborot iste`molchilarining katta qismini tashkil etuvchi yoshlar esa uning faol ijrochilariga aylanadi. Biroq, turli diniy ekstremizm va terrorchi tashkilotlar ham ana shu omildan foydalanib axborotlar oqimini salbiy ta`sir doirasiga olishga urinmoqdalar. Buning uchun ularda qulay bo`lgan vaziyat yetilgan bo`lib, ular hech qayerga bormasdan va majburlamasdan insonlarni o`z qabih jinoyatlariga sherik qilishga urinmoqdalar.

Diniy va dunyoviy ilmi yuqori bo`lmagan yoshlarning ba`zilari ana shu qora kuchlar tuzog`iga ilinib qolayotganlari insoniyatni yana bir bor ogohlikka chorlaydi. Missionerlik tashkilotlarida ham ushbu omilga tayanayotganlari sezilib bormoqda. Missionerlar boshqa din vakillariga o`z dinlarini singdirib borishda o`z darslik qo`llanmalari va kontentlari bilan boshqa din vakillarini o`z e`tiqodlaridan qaytarishga urinadilar. Buning natijasida jamiyatda diniy adovatlar ham kelib chiqmoqda.

**Ikkinchidan,** axborot beruvchi vositalarning yana bir muammoga sabab bo`layotgan tomoni, undan foydalangan insonlar turli onlayn firibgarlar tuzog`iga tushib qolayotgani bo`lib, internet tarmog`idagi reklamalarning ko`pchilik qismi qimorga asoslanga o`yinlarni yoyishga targ`ib etadi. Turli totalizatorlik o`yinlari va boshqa turdagi tavakkalga asoslangan o`yinlar foydalanuvchilarning katta qismida hayotga nisbatan befarqlik, o`z joniga suiqasd qilish va qo`rslik kabi salbiy fe`l atvor shakllanishiga sabab bo`lmoqda.

Bunday turdagi o`yinlar qatnashchilarining asosiy qismi o`z mablag`larini boy berib qo`yadilar. Shuningdek ba`zi qalloblik bilan hayriya ishlari olib borayotgan qo`shtirnoq ichidagi ayrim “sahovatpeshalar” insonlardagi psihologik ta`sirlanish omilidan foydalangan holda ularning ishonchiga kirishga urinmoqdalar. Shunday firibgarlik yo`li bilan insonlar ishonchiga kirib qalloblik bilan shug`ullanuvchilar insonlar uchun manfaatli bo`lgan ilovalar, o`yinlar va loyihalarga ham ishonchni kamaytirmoqda. Buning natijasida ishonchsizlik muxiti bo`lgan axborot makoni shakllanadi.

**Uchinchidan,** dars mashg`ulotlari olib borishda darsliklarning tez yangilanishi va ma`lumotlar bazasining kengayishi natijasida o`quvchilar ba`zi mavzularda yetarli bilimlarni darslikdan topa olmaydi va internet tarmog`idan turli informatsiyalarni qidiradi. Biroq, hozirgi kunda axborot saytlari va vositalari shu darajada ko`payib ketdiki, qaysi axborot qay darajada to`g`ri ekanligini aniq tushuntirib berish ham mushkul muammoga aylanib bormoqda. Ilmiy asoslanmagan faktlar va ularning ahborot ist`emolchilari tomonidan uzuq-yuluq qabul qilinishi o`rganilayotgan biror mavzuga holisona baho berishga imkon bermasligi mumkin. Misol uchun, biror baxtsiz hodisa ro`y berdi deb faraz qilaylik, axborotni yoritishda bir jurnalist voqeani baholash va xulosalashda o`z fikrlash doirasi va ayrim hollarda manfaati yuzasidan yondoshadi. Ayni shu axborot boshqa jurnalist tomonidan yoritiladigan bo`lsa yana boshqa bir xulosa kelib chiqadi. Hali yetarli darajada tafakkur qobiliyati shakllanmagan axborot oluvchi esa bundan turli xulosalar yasashi mumkin. Zero, ma`lum bir jamiyatdagi ahborot bazasi boshqa bir jamiyat mafkurasi tomonidan qabul qilina olmasligi mumkin. Bu kabi ziddiyatlar jamiyatlarning ijtimoiy, teologik, madaniy qarashlari bilan bog`langan bo`ladi.

**To`rtinchidan,** eng ommaviy bo`lib borayotgan ijtimoiy tarmoqlar ta`lim va ilmiy yangiliklar kabi foydali materiallarni o`z ichiga olgan bo`lsada, yoshlarni o`ziga jalb eta oladigan axborotlar ular uchun "ommaviy madaniyat"ni targ`ib etuvchi, biror maslak va vazifasiga ega bo`lmagan ko`ngilxushlik va maynavozchilikka yo`g`rilgan ahborot turlarini o`z ichiga oladi. Ana shunday yoshlar ommasiga keng kirib borayotgan internetdagi loyihalardan biri bo`lgan "tik-tok" tarmog`i butun dunyo bo`ylab o`z foydalanuvchilari sonini oshirib borayotgani bunga misoldir. Inson psixologik intilishlari doimo taqiqlangan va o'zgachalikka intiluvchi bo'lgan informatsiyalar o'ziga jalb etuvchi kuchga ega. Nafsoniy istaklariga ergashgan foydalanuvchilar o'zlariga kerakli ma'lumotlar o'rniga kerak bo'lmagan ma'lumotlarni izlashga harakat qiladilar.

**Beshinchidan,** hattoki televediniya, vaqtli nashrlar va boshqa axborot tarmoqlarida ham insonlarni jalb qilish maqsadida pornografik kontentlarning rasm, matnli va videorolik ko`rinishida keng targ`ib qilinishi natijasida yoshlarda axloqiy o`zgarishlarning salbiy ta`sirlari namoyon bo`lib bormoqda. Zamonaviy kinochilik, badiiy asarlarning eng talabgor bo`lgan namunalari ham ushbu mazmunni qamrab olgan san`at "durdonalari" bo`layotgani ham bejizga emas. Pornografik mahsulotlarni tayyorlash, tarqatish, namoyish etish O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 189-moddasasiga va Jinoyat Kodeksining 130-moddasiga ko'ra, eng kam oylik ish haqining 100 baravaridan 200 baravarigacha miqdorda jarima yoki 3 yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

**Oltinchidan,** axborot foydalanuvchilarining yosh toifalari o`rtasidagi tafovutlar ham murakkab masalalardan biri bo`lib bormoqda. Mutaxassislar ma'lumotiga ko'ra, internet orqali tarkatiladigan kompyuter o'yinlarining 49 foizi sezilarli darajada zo'ravonlik va yovuzlik ko'rinishiga ega, 41 foiz jangari (turli otishmalar va portlashlarga asoslangan) o'yinlarda esa o'yin qahramoni o'z maqsadiga yetishish uchun shunday zo'ravonlik va yovuzlik sodir etadi. Bolalarning yoshiga mos keluvchi turli ahborotlar hatto bolalarni ham qiziqishiga sabab bo`lmay qo`ygani ham buning aniq misolidir. Bunga ularning kattalar tomonidan foydalaniladigan axborotlarga ruju qo`yganlari ham sabab bo`lmoqda.

Turli kinofilmlarda ichkilik va qimorbozlik kabi jihatlarning qayta-qayta namoyish etilishi yoshlarga ulardan noto`g`ri tasavvur olishiga sabab bo`ladi.

**Yettinchidan,** ta`lim darsliklari va kitoblardan o`rganishdan ko`ra internet tarmog`i orqali bilimlar olishga urinish qiziqarli va samarali tuyulsada, bunga ko`p vaqt sarflash kerak bo`ladi. Intenet ma`lumotlarining barchasi ham foydalanish uchun talabga  javob beradi deb ayta olmaymiz. Qaysi ma`lumot qay darajada kerak va yoki aksincha ekanligini ajrata oladigan bo`lish uchun bunga salohiyat kerak bo`ladi. Bunyodkor g`oyalarga asoslangan kerakli habarlarni ulashuvchi mediamaxsulotlarni ishlab chiqish, xorij tajribasini jalb etgan holda islohotlar amalga oshirish lozim. Rossiyalik o'qituvchilarga maktabdagi o'quv jarayoni doirasida xorijiy messenjerlar, xususan WhatsApp va internet servislaridan foydalanish taqiqlandi.

**Sakkizinchidan,** zo`ravonlikni va boshqa vahshiylik unsurlarini targ`ib etuvchi materiallar insonlar ongiga va ruxiyatiga salbiy ta`sir korsatishi mumkin. Bunday turdagi materiallar insonlardagi rahm-shafqat, insoniylik, o`ziga ishonch, boshqalarga yaxshilik ilinish kabi ezgu fazilatlarni so`ndirib, johillik, insonlarga hurmatsizlik, asabiy taranglik kabi illatlar avj olishiga olib keladi. Kompyuter o`yinlarining ayni shu turdagilari yoshlar ommasini o`z domiga tortadi. Ushbu turdagi o`yinlarda esa, psixologik jihatdan qaramlikka undovchi uslublardan foydalaniladi. Asta sekinlik bilan o`yin pog`onalarini yangilash bilan o`yin tashkilotchilari yoshlarga ruhiy ta`sir o`tkazib boradilar.

## XULOSALAR.

Muxtasar qilib aytganda, axborot tarmoqlarini isloh etish va uni zamon talablariga javob bera oladigan ma'lumotlar bazasi bilan   ta'minlash uchun ushbu sohaga aloqador bo'lgan har bir mas'uliyatli shaxslar o'z vazifalariga sidqidildan yondashishlari lozim. yoshlik davrida insonlarning bilim olishga va atrof olamni o`zi uchun kashf etishga ishtiyoqi baland bo`ladi. Hali o`z oldiga aniq bir maqsadlarni qo`ymagan va mafkuraviy immuniteti kuchli bo`lmagan yoshlar axborot va ma`lumotlarning asosiy kuzatuvchilari bo`lib, yoshlarning ta`lim va tarbiyasi uchun alohida ahamiyatga ega bo`ladi. Ota-ona nazorati, qattiq  intizom, to`g`ri va muntazam ta`lim va tarbiyaning natijasida ularda axborot iste`moli madaniyatini shakllantirish imkoni bo`ladi. Vayronkor kuchlarning o`z g`oyalarini

ilgari surishlarini jilovlash maqsadida ularga qarshi dasturilamal bo`lgan axborot tarmoqlari va vositalari ishlab chiqilishining davlat siyosati darajasiga ko`tarilishi kerakligini davrning o`zi taqozo qilmoqda. Nafaqat bir mamlakatda balki, butun dunyoda hamkorlik asosida muammolarni xal qilishga urinishi lozim. Insonlarning dunyoqarashini, axborot madaniyatini shakllantira olsak, ko'zlangan ezgu maqsadlarga erishishimiz mumkin bo'ladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro`yhati.**

1. https://lex.uz/docs/-1106870
2. Мирзиёев Ш. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз.-Тошкент: Ўзбекистон, 2016.-Б. 13.
3. https://cyberleninka.ru/article/n/globallashuv-jarayonida-axborot-xavfsizliga-tahdid-va-uning-namoyon-bo-lish
4. https://uz.wikipedia.org/wiki/Pornografiya#Pornografiya_O%CA%BBzbekistonda
5. https://zarnews.uz/uz/post/yoshlarni-axborot-xurujlari-va-mafkuraviy-tahdidlardan-qanday-himoya-qilyapmiz
6. https://kun.uz/uz/10036913

## TA'LIM-TARBIYA NAZARIYASI VA METODIKASI

# ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН ЎҚУВЧИ ЁШЛАРИНИ ВАТАНПАРВАРЛИК РУҲИДА ТАРБИЯЛАШДА ВА ЭЪТИҚОДИНИ МУСТАҲКАМЛАШДА ҲАДИС ИЛМИНИНГ ЎРНИ ВА РОЛИ.

***Қулматов Норқобил Эшмаматович***
*Самарқанд давлат ветеринария медицинаси, чорвачилик ва биотехнологиялар университетининг Тошкент филиали,катта ўқитувчи, ёшлар масалалари ва маънавий-маърифий ишлар бўйича декан ўринбосари*
*+91-166-22-35 norqobui65@mail.ru*

***Аннотация:***_Ушбу мақоланинг мазмунида мамлакатимиз таълим-тарбия тизимида ёш авлоднинг дунёқарашини шакиллантиришда ҳадис илмининг ўрни ва роли, жумладан ўқувчи ёшларни ватанпарварлик руҳида тарбиялашда одоб-ахлоқга доир ҳадис намуналарининг бугунги кун ёшлари учун нақадар катта аҳамиятга эга эканлиги баён этилади._

***Калит сўзлар:***_Ёш авлод, ўқувчи, таълим,тарбия, одоб-ахлоқ, Ислом дини. Қуръони карим, ҳадис, саҳиҳ ҳадис, муҳаддис, пайғамбар, саҳобалар, тобеинлар, халифа, вудуъ, мазоҳ, мадраса,нашот._

***Аннотация:*** _В контексте этой статьи рассматривается большая роль образцов хадисов на морально-этические темы в патриотическом воспитании современной малодёжи а также место и роль учения хадисов в формировании мировоззрения молодого покаления в учебно-воспитательной системе нашей страны._

***Ключевые слова:*** _покаление, учащиеся,воспитание, образование, этика, религия ислама, хадисы, хадисовед, пророк, халифа._

***Annotation:*** _In the context of this article the authar examines the great role of examplees of hodith jn moral and etikal topics in patriotic education in modern youth as well as the ploce and role of hadith teaching in shoping the educational sustem of our countru_

***Key words:*** *Young generation student eduketion upbringing morality Islam the Quran hadith muhedditհe prophet companions follawers caliph voodoo mazah madrasa nashot*

**Тадкиқот ишининг долзарблиги:** Юртимиз мустақилликка эришгач жамиятимизнинг барча соҳаларида бажарилишини кечиктириб бўлмайдиган бир қатор вазифаларни тез суръатларда амалга оширишни ҳаётнинг ўзи талаб қила бошлади. Жумладан, таълим-тарбия соҳасида ҳам ўқувчи ёшларни ватанпарварлик руҳида тарбиялашда, уларнинг эътиқодларини мустаҳкамлашда миллий маънавий қадриятларимиздан бири сифатида эътироф этилган ҳадис илмини ўқиб ўрганиш, ҳадисларда келтирилган турли соҳаларга тааллуқли бўлган ҳадис намуналарини ўқиб ўрганиш ва ўқувчи ёшларимизнинг онги ва тафаккурига сингдиришни ҳаётнинг ўзи талаб қила бошлади.Чунки дунёда бўлиб ўтаётган турли хил кўринишдаги информацион хабарлар Янги Ўзбекистон ўқувчи ёшларини ватанпарварлик руҳида тарбиялашда уларнинг эътиқодига ва маънавиятига ҳам ўз таъсирини ўтказмай қўймайди. Дунёда мафкуравий ҳамда инфармацион хуружлар, турли ғоявий, маънавий таҳдидлар авж олиб бораётган бугунги кунда ўқувчи ёшларимиз эътиқодини ва маънавиятини юксалтириш, уларнинг тафаккур тарзларида соғлом дунёқараш асосларини шакиллантириш ҳамда ватанпарварлик руҳида тарбиялаб камол топтириш бугунги куннинг энг долзарб мавзуларидан бири бўлиб қолмокда. Шундай экан биз танлаган "Янги Ўзбекистон ўқувчи ёшларини ватанпарварлик руҳида тарбиялашда ва эътиқодини мустаҳкамлашда ҳадис илмининг ўрни ва роли" мавзуси бугунги куннинг энг долзарб мавзулардан бири ҳисобланади.

**Муаммони хал қилиш йўллари:**Ислом динининг асосий қонуни бўлган Қуръони каримдан кейин уни изоҳловчиси ва баён этувчиси бўлмиш Расуллуллоҳ(с.а.в)нинг сўзлаган ҳикматли гаплари ва ва қилган ишлари, яъни қавллари, феъллари ва тақрирлари – ул зотнинг ҳадислари ҳисобланади. Ҳадисларда ислом дини аҳкомлари, яъни фарз, вожиб, суннат, мустаҳаб, ҳалол, ҳаром, макруҳ, мубоҳ кабилардан ташқари, одоб-ахлоққга доир кўрсатмалар ҳам талқин этилади. Уларда ибодатнинг тартиб-қоидалари ва уларни мукаммал

бажаришга даъват этиш билан бирга инсоний фазилатлар ҳам кенг ташҳиқ қилинади, инсонийлик шанига доғ туширадиган разил сифатлар қораланади. Шунинг учун ҳам ислом динининг илк даврлариданоқ мусулмонлар ҳадисларга жуда катта аҳамият беришган. Эшитган ҳар бир ҳадисни хатосиз, асл ҳолича бошқаларга етказишга риоя қилинган. Бу тўғрида Муҳаммад (с.а.в) пайғамбаримизнинг ўзи мусулмонларни тез-тез огоҳлантириб турган. Лекин кейинчалик турли синфий ва ижтимоий зиддиятлар, ислом динидаги ички ғоявий курашлар натижасида кўпгина сохта ҳадислар ҳам юзага келган. Натижада йирик муҳаддислар ҳадисларни ишончли манбалар асосида қайта кўриб чиқиш ва уларнинг ҳақиқийларини сохталаридан ажратиш учун анча хизмат қилганлар. Ҳадисларни оғзаки анъанадан дастхат қилиш ва китоб ҳолига келтириш ҳижрий III аср, яъни милоднинг VIII асридан кенг авж олган. Қуръон ва ҳадисларни ёд олган ўткир муҳофазалик кишилар сони тобора камайиб бораётганини кўрган олим ва баъзи давлат арбоблари кўп ҳадислар унитилиб кетишидан қўрқиб, уларни келгуси авлодлар учун ёзиб қолдириш зарурлигини тушуниб етганлар. Уммавия халифаларидан Умар ибн – Абдулазиз /717-720/ фармонига биноан Абдулмалик Ибн Абдулазиз Журайх, имом Молик Ибн Анас, Ар-Рабиъ Ибн Субайх каби бир қанча алломалар ҳадисларни жамлаб, ёзишга урина бошлаганлар, Ҳижрий III аср , дарҳақиқат илми ҳадис учун олтин давр ҳисобланади. Бу даврда ҳадис таълиф этиш борасида "муснад", "саҳиҳ" ва "сунан" деб аталмиш турли йўналишлар вужудга келган. "Муснад" йўналишида тасниф этилган тўпламларда турли мавзудаги ҳадислар бир жойда келтирилиб, улар ҳадис ривоят қилувчи саҳобаларнинг ислом динини қабул қилган вақтига кўра, ёки алифбо тартибида жойлаштирилган. Абдуллоҳ Ибн Мусо, Имом Аҳмад ибн Ҳанбалнинг ҳадис китоблари ана шу йўналишга мансубдир. "Саҳиҳ" йўналишига буюк муҳаддис имом Бухорий асос солган. Бу йўналишда талиф этилган тўпламларга фақат тўғри ишонарли ҳадислар киритилган. "Сунан" йўналишидаги тўпламларда эса, тўғри. Ишонарли ҳадислар билан бир қаторда "заиф ҳадислар ҳам келтирилган. Абу Довуд, Абу Исо ат-Термизий, ан-Насоий, Ибн Можанинг муаллафотлари ана шу йўналишга мансуб. "Мовароуннаҳрда биринчи бўлиб ҳадис тўплами таълиф этган муҳаддис – Имом Абдуллоҳ ибн Муборак ал-

Марвазийдир. Бундан ташқари ватандошларимиздан Имом Аҳмад ибн Ҳанбал ал-Марвазий, Исҳоқ ибн Раҳовайҳ ал-Марвазий, Имом ал-Ҳайсам ибн Кулайб аш-Шоший, Абу Бакр Аҳмад ибн Муҳаммад ал-Баракотий, Иброҳим ибн Маъқил ан-Насафий, Наъима ибн Хаммод ал-Марвазий, Ҳофиз ал-Хоразмий, Жамолуддин ан-Насафий, Имом Абдулҳасан Аҳмад ибн Муҳаммад ас-Самарқандий ва бошқалар ҳам ҳадис тўпламлари тасниф этишган. Имомлар имоми ва муҳаддислар пешвоси бўлмиш, юртдошимиз Абу Абдуллоҳ Муҳаммад ибн Исмоил ал-Бухорий ислом оламида энг машҳур, нуфузли ҳадисчилардан бири ҳисобланади. Имом Бухорий ўз ижоди давомида 600 минг ҳадис тўплаб, шулардан 100 минг "сиҳиҳ" ва 200 минг "ғайри саҳиҳ" ҳадичсларни ёд олганлар. Ҳадис илми бобида, ислом оламида катта шуҳрат қозонган, минглаб шогирдлар етиштирган Имом Бухорий: "Ал-адаб ал-Муфрад", "Китоб асмоъ ис-саҳоба", "Китоб афъол ил-ибод", "Китоб бадъ ил-махлуқот", "Китоб бирр ил-волидайн", "Таърих ус сиқот ва-з-зуъафо мин рувот ил-ҳадис", "Тарих Бухоро", "Китоб ул-суло-сийот", "Ал-Жомиъ ас-Сағийр", "Ал Жоми ал-кабийр", "Китоб ул-фавоид", "Китоб ул қироа халфа-л-имом", "Хулқ афъол ил-ибод", "Китоб ул-куна", "Китоб ул-виждон", "Китоб ул муснад ал-кабийр" ва бошқа кўплаб китоблар авторидир. Имом Бухорий томонидан ёзилган "Ал Жомеъ ас Саҳиҳ" ва "ал-Адаб ал-Муфрад" номли одоб-ахлоқ ҳақидаги ҳадислар тўплами китоблари Қуръони каримдан кейин энг саҳиҳ ва эътимодли асарлар ҳисобланади. Ўзбек халқимиз бу муҳаддисларнинг одоб-ахлоқга оид ёзилган асарларини мустаққилликгача бўлган даврларда ўқишдан маҳрум эди.

**Таклиф ва тавсиялар:** Янгиланиш ва яшариш йўлидан оғишмай дадил қадамлар билан ривожланишда давом этаётган янги Ўзбекистоннинг ўқувчи ёшларини иймонли-эътиқодли, ватанпарвар, эътиқоди мустаҳкам ва мафкуравий иммунитети шакилланган инсонлар қилиб тарбиялаш-жамиятимизнинг бош вазифаси ҳисобланади. Юртимизда мустақиллик шарофати туфайли ҳадисчи муҳаддис олимларнинг кўплаб асарлари араб тилидан ўзбек тилига таржима қилинди ва бугунги кунда араб тилидан бехабар кенг китобхонлар оммаси, жумладан ўқувчи ёшларимиз ҳам ҳеч қийналмасдан ҳадис илмига оид асарларни бемалол ўқиб-ўрганишмоқда. Имом

Бухорий ва Имом ат-Термизий боболаримизнинг одоб-ахлоқли бўлишга чақирувчи ҳадислари янги Ўзбекистон тараққиётида ўқувчи ёшларимизни ватанпарварлик руҳида тарбиялашда ва камол топтиришда ниҳоятда катта аҳамиятга эга эканлигини ҳаётнинг ўзи кўрсатиб турибди. Бугунги глобаллашган замонамизда, инсон онги ва қалби учун кураш кетаётган бир пайтда бу ҳадисларни ўқиб-ўрганиш ва уларга амал қилиш жуда ҳам муҳим ва зарурдир.Шунинг учун одоб-ахлоққа доир ҳадисларни мактаблардан бошлаб ўқитиб борилса фойдадан холи бўлмасди. Бунинг учун ота-оналар ва ўқитувчиларнинг ўзлари ҳам ҳадис илмидан хабардор бўлишлари таълаб этилади. Бундан ташқари ҳадис илмини чуқур ўрганиш учун уни боғча тарбиясидан бошлаб мактабларга, олий таълим тизимига жорий этилса айни муддао бўларди. Янгиланаётган Ўзбекистон жамиятимиз учун ҳадисларнинг аҳамияти жудаям катта. Ҳеч кимга сир эмаски мустақилликгача бўлган даврда бизнинг юртимизда динни қоралаб, диний мактаб ва мадрасалар тақиб остига олинди. Диний асарларни мутлақо нашрдан чиқаришга рухсат йўқ эди. Фақат мустақиллик шарофати туфайлигина ислом динимизни қайта тиклай бошладик. Унитилиб кетаётган урф-одатларимиз яна қайтадан тиклана бошлади. Жамиятимизда эркак ва аёллар тенг ҳуқуқли деган қонунларимизга асосланиб, деярли кўпчилик ўзбек оилаларда эр ҳам, хотин ҳам давлат муассасаларида ишлашади. Натижада мана шундай оилаларнинг кўпчиллигида болалари ота-она назоратидан четда қолишади. Ота-она назоратида кам бўлган бола ўзи хохлаган ишни хохлаган пайтида қилиши мумкин. Бугунги ривожланган жамиятимизда ўғирлик, бировнинг молини талаш, нашавандлик, гиёҳвандлик, фоҳишабозлик ва одам ўлдириш каби иллатларнинг учраб туришининг туб моҳияти тарбияга бориб тақалади.

**Кутилаётган ижтимоий самара(натижа):**Келажагимиз бунёдкорлари бўлган ўқувчи ёшларимизнинг мафкуравий иммунитетлари тўла шакилланиб, карор топиб, кучли эътиқод эгалари бўлгандагина улар ўз ҳаёт фаолиятлари давомида катта-катта муваффақиятларга эриша оладилар. Маълумки, ёшлар тарбияси ҳамма замонларда ҳам долзарб ва муҳим вазифалардан бири бўлиб, муҳим аҳамият касб этиб келган. Янги Ўзбекистон тараққиётида бу масала янада долзарб, янада муҳим, ҳаёт-мамот

масалаларидан бирига айланиб қолди. - Абдулла Авлонийнинг "Тарбия биз учун ё ҳаёт – ё мамот, ё нажот – ё ҳалокат, ё саодат – ё фалокат масаласидир" деган фикри ўтган йигирманчи асрнинг бошларида айтилган бўлсада, бугунги янги Ўзбекистон тараққиётининг ривожланишида  миллатимиз учун, ўқувчи ёшларимиз учун ҳам шунчалик муҳим ва долзардир Тарбия қанча мукаммал бўлса, халқ шунча бахтли яшайди дейди донишмандлар.Тарбия мукаммал бўлиши учун эса бу масалада бўшлиқ (маънавий бўшлиқ) пайдо бўлишига мутлақо йўл қўйиб бўлмайди. Бугунги кунда баъзи бир оилалардаги ота-оналарнинг ўз болаларига тарбияда эътиборсизлик қилгани, яхши тарбия бермагани мана шундай иллатларнинг содир бўлишига сабаб бўлади. Бундай иллатлар ҳақида яна кўплаб мисоллар келтиришимиз мумкин. Миллий маънавий қадриятларимиз ва урф-одатларимизга ёт бўлган мана шундай иллатлардан батамом холи бўлишимиз учун ахлоқ-одобга оид ҳадисларни ҳар бир мусулмон кишиси ўқиб ўрганиши лозим ва зарур.

**Хулоса** қилиб шуни айтишимиз мумкинки ўқувчи ёшларимизни она-Ватанга муҳаббат, бой тарихимизга ҳурмат руҳида тарбиялаш учун табир жоиз бўлса, аввало уларнинг қалби ва онгида мафкуравий иммунитетни шакиллантириш, шакиллантириб бориш ва кучайтириш керак. Токи ўқувчи ёшларимиз миллий ўзликларини англашлари, шу билан бирга, бугунги дунёнинг мафкуравий манзарасини чуқур англайдиган, замон билан ҳамнафас ва баробар қадам ташлайдиган инсонлар бўлиб етишсин. Бунинг учун аввало ҳар бир ўқувчи ёшни билимли қилиб тарбиялаш ва бу билим ўз моҳияти эътиборига кўра, Ватанимиз ва халқимиз манфаати, миллий ва умуминсоний қадриятлар устуворлиги билан узвий боғлиқ бўлмоғи лозим.Агар биз мана шу одоб-ахлоқга доир ҳадисларни  таълим-тарбия соҳасига киритиб, уни бошланғич синфларданоқ ўқитиб боришни йўлга қўйсак, жамиятимизда учраб турадиган ўғирлик ва гиёҳвандлик, фоҳишабозлик ва одам ўлдириш каби жиноятларнинг олди олинган бўларди. Ҳадисларни мактаблардан бошлаб ўқитиб боришнинг яна бир ижобий томони шундаки, ҳар бир мактаб ўқувчиси ўсиб-улғайиб вояга етгунча ўзида инсоний фазилатларнинг барчасини қарор топтиради. Ўз-ўзидан кўриниб турибдики боболаримиз Имом Бухорий ва Имом ат-Термизий томонидан ёзиб қолдирилган бу ҳадису-шарифларнинг нечоғли

аҳамиятга эга эканлиги ва бу ҳадису-шарифларни ўқиб-ўрганиш ва уларга амал қилиш бугунги биз яшаб турган давримиз учун. Янги Ўзбекистон жамияти учун сув билан ҳаводек зарурлигини ҳаётнинг ўзи кўрсатиб турибди.

**Адабиётлар рўйхати**

1.Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 29 апрелдаги "Ўзбекистон Республикаси халқ таълими тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида"ги ПФ-5712-сон фармони.
2.Мирзиёев Ш.М. "Президент Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга ва Ўзбекистон халқига мурожаатномаси" –Т: 2020 й.29 декабрь.
3.Ахлоқ-одобга оид ҳадис намуналари. Тошкент, "Фан" нашриёти, 1990 йил.
4.Зиёев Т. Юз бир ҳадис. Тошкент, "Меҳнат" нашриёти-1991 йил.
5. Ҳадис. Қомуслар бош таҳририяти. Тошкент-1991 йил
6. Имом Исмоил Бухорий. "Адаб дурдоналари". Тошкент, "Ўзбекистон"-1990
7. Имом ат-Термизий. "Шамойили Мухаммаддия". Тошкент, "Меҳнат"-1991
8. А.Авлоний. Туркий Гулистон -ёхуд ахлок-Т.:Ўкитувчи.2012 й.

## ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИДА МАСОФАВИЙ ТАЪЛИМ ТИЗИМИНИ ЗАМОНАВИЙ КОМПЬЮТЕР ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ АСОСИДА ТАШКИЛ ЭТИШ

***Хайриев Элёр Ибрагимович***
*Узбекистан - Финский педагогический институт,*
*x_elyor@mail.ru +998933405525*

***Аннотация.*** *Ушбу мақолада олий таълим тизимида замоновий технологиялардан фойдаланиш, масофавий ўқув курсларини ташкил этиш муаммолари ва ютуқлари, олимларимиз томонидан олиб борилга тадқиқотлар таҳлили тўғрисида фикр мулоҳазалар келтирилган.*

***Калит сўзлар:*** *Ахборот технологиялари, масофавий таълим, компютерлар, ўқув курслари, электрон таълим ресурслари.*

***Аннотация.*** *В данной статье представлены отзывы об использовании современных технологий в системе высшего образования, проблемах и достижениях организации курсов дистанционного обучения и анализ исследований, проведенных нашими учеными.*

***Ключевые слова:*** *информационные технологии, дистанционное образование, компьютеры, учебные курсы, электронные учебные ресурсы.*

***Annotation.*** *This article presents reviews on the use of modern technologies in the higher education system, the problems and achievements of the organization of distance learning courses and the analysis of research conducted by our scientists.*

***Keywords:*** *information technology, distance education, computers, training courses, electronic learning resources.*

Жаҳонда масофавий ўқитиш очиқ таълим тизимининг муҳим бўғини сифатида кенг қўлланилиши, шунингдек, таълимда замонавий ахборот технологиялари ва интернетдан фойдаланиш унинг сифатини юқори даражага кўтариш омилларидан бири ҳисобланади. Замонавий ахборот ва коммуникация технологиялари таълим тизимида, жумладан олий таълим тизимида кенг жорий этилмоқда.

Олий таълим муассасалар жараёнларини замонавий ахборот технологиялари асосида самарали ташкил этиш масофавий ўқув курсларини ва электрон адабиётларни яратувчи жамоага, компьютер дастурчилари ва мутахассисларнинг бирлашувини; педагоглар ўртасида вазифаларнинг тақсимланишини; таълим жараёнини ташкил қилишни такомиллаштириш ва педагогик фаолиятининг самарадорлигини мониторинг этишни тақозо этади.

Замонавий технологиялар асосидаги педагогик фаолият таълимнинг технологик асосини тез ривожланиши билан боғлиқ равишда курсларни яратишдаги мураккаб жараённи енгиллашувини, ўқув курсларини яратишда махсус малакаларнинг шаклланишини, масофавий курсларнинг очиқлиги туфайли уларнинг сифатига бўлган талабларнинг ва ўқув материалларининг сифатини назорат қилишга эҳтиёжларини, ўқув жараёнида талабалар мустақил фаолияти аҳамиятининг ортишини, ўқув жараёни салмоғини педагогдан талабага кўчишини, ўқув жараёнини ташкил этишда, талаба шахсий

иштирокининг ортишини, замонавий коммуникация технологияларидан фойдаланиш асосида педагогнинг ҳар бир талаба билан тескари алоқасини вужудга келишини таъминлайди.

Узлуксиз таълим тизимининг айрим босқичлари учун таълимда ахборот технологиялари фанига оид ўқув қўлланмалар ва дарсликлар яратиш билан А.А.Абдуқодиров, М.Арипов, А.Б.Аҳмедов, Б.А.Бегалов, Б.Болтаев Р.Боқиев, Н.И.Тайлақов, А.Сатторов, Т.Х.Холматов, Р.Р. Эшимов, М.Х. Лутфиллаев, У.Ю.Юлдашев, С.С.Ғуломовлар шуғулланишган.

В. П. Дьяконов таҳрири остида тайёрланган "Янги ахборот технологиялари" ўқув қўлланмасида информатика асослари,супер ЭҲМлардан тортиб чўнтак компьютерларининг асосий ва қўшимча қурилмалари,аидио- ва видео-қурилмалар ва уларнинг интеграцияси, амалиётда фойдаланилаётган кабелли ва кабелсиз тармоқлар таснифлари кенг ёритилган[1].

Стивен С. Скиена, Мигель А. Ревиллаларнинг "Дастурлаш бўйича олимпиада масалалари" қўлланмасида талабаларни дастурлаш асослари бўйича халқаро олимпиадаларга тайёрлашга бағишланган бўлиб, унда информатикада лаборатория амалиёти учун кенг синфдаги масалалар ўрин олган.[2]

Ю. С. Избачков, В. Н. Петровларнинг "Информацион тизимлар" номли ОТМларнинг "Информатика ва ҳисоблаш техникаси" мутахасисслари учун мўлжалланган қўлланмасида маълумотлар базасини лойилаш ва яратиш, замонавий даструлаш технологиялари - COM, ActiveX ва Интернет-технологиялар тавсиф этилган[3].

Г. В. Калабухова, В. М. Титовларнинг "Информатикадан компьютер амалиёти. Офис технологиялар" номли қўлланмасида амалий масалаларни ечишда компьютердан фойдаланиш малакалари атрофлича баён қилинган. Қўлланманинг ҳар бир боби етарлича назарий маълумотлар ва амалий топшириқлар мажмуасидан ташкил топган[4].

В.С. Микшина, Г.А. Еремеева, Н.Б. Назиналарнинг Олий таълим муассасалари учун мўлжалланган "Информатикадан лаборатория амалиёти" қўлланмасида давлат таълим стандартлари асосида педагогика олий ўқув юртлари учун информатиканинг қуйидаги таркибий қисмлари учун

лаборатория топшириқлари келтирилган: саноқ системалари; алгоритмлаш асослари, Турбо Паскаль муҳитида дастурлаш, матнли, график редакторларда ишлаш,маълумотлар базасини яратиш, жадвалли процессорда ишлаш амалиётлари ёритилган[5].

Угринович Н. "Информатика ва ахборот технологиялар бўйича практикум" номли методик қўлланмасида информатика курсининг барча бўлимлари бўйича 450дан ортиқ масалалар ва уларнинг ечиш усуллари келтирилган.

Замонавий ахборот технологиялари таълимда кенг қўлланилланишига салбий таъсир сабаблар назаримизда, таълимни ахборотлаштиришга педагогик жамоаларнинг етарли даражада тайёр эмаслиги, компьютер ўргатувчи дастурларнинг имкониятлари ҳақида тасаввурларнинг, уларни қўллаш бўйича методик ишланмаларнинг камлиги, таълимда ахборот технологиялари бўйича мутахассисларнинг етишмаслигидадир.

Бу муаммоларни ҳал қилишнинг муҳим жиҳати Муҳандисларнинг таълимни ахборотлаштиришга бўлган муносабати саналади. Таъкидлаш жоизки, ахборотлаштириш шароитида педагогнинг роли янада ошади.

Замонавий технологияларни жорий этилиши педагогни ўқув жараёнида таълим воситалар томонидан фаолият доирасининг чекланишига эмас, балки унинг вазифалари, ролини ўзгаришига, педагогик фаолиятнинг мукаммалишувига олиб келади. Энди  педагогдан ўқув курслари дизайнери – ўқув курсларини яратувчи; ўқитиш методлари бўйича маслаҳатчи бўлишлиги ; тьютор – ўқув  курсларини интерактив тақдим этиш бўйича мутахассис; таълим натижаларини назорат қилиш усуллари бўйича мутахассис бўлиши талаб этилади.

Педагогик жараёнларга замонавий ахборот ва коммуникация технологияларининг кенг жорий этилиши масофавий таълимни ташкил этиш учун янги имкониятларни юзага келтиради. Масофавий таълим ундан фойдаланувчиларга асосан масофавий курслар шаклида тақдим этилади. Масофавий ўқитиш курсларини яратишда аниқланиши лозим бўлган омиллар 2-схемада келтирилган.




Қайд этилган курсларни яратувчилар - дастурчилар (курслар дизайнери) ва технологиялар бўйича мутахассислар ҳамкорликда амалга оширадилар.

Замонавий компьютер ва ахборот ва коммуникация технологиялари педагогик ОТМлари таълим мазмуни ривожланишини таъминлайди. Бу технологияларга таълим мазмунини такомиллаштириш, таълим мазмуни таркибий қисмларини боғлаш, ахборотларнинг турли кўринишларидан фойдаланиш, курсларни машғулотлар мажмуаси кўринишида тақдим этиш, дарсларни виртуал ҳаракатланувчи тизим сифатида яратиш, ўқув материалларини тақдим этишнинг кетма-кетлигини таъминлаш, ўқув материаллари мазмунини етказишда табақалаштирилган ёндашувни жорий этиш учун восита бўлиб хизмат қилади.

Технологияларни танлашда энг самарали йўллардан бири компьютер имитацион моделлар асосида яратилган мультимедиали ёндашувдир. Ўқув

жараёни учун технологияларни танлашда ўқув жараёнида янги технологияларнинг ўзи эмас, балким ундан фойдаланиб таълимнинг мақсадларига эришишни таъминлашнинг муҳимлиги, энг замонавий ва қимматбаҳо технологиялар билан бир қаторда, арзон ва анъанавий технологиялар ҳам самара бериши мумкинлиги, ўқитиш натижалари ахборот ва коммуникация ёки ахборот технологияларининг турига қараб эмас, балки курсларни яратиш ва узатиш сифатига боғлиқлиги, технологияларни танлашда талабаларнинг шахсий хусусиятларига, фан соҳаси ўзига хос томонларига, ўқув машғулотлари топшириқлари ва машқларининг мазмунига эътибор қаратиш лозимлигини алоҳида таъкидлаш зарур.

Демак, ахборот технологиялари фан ва техниканинг илғор ютуқларини таълим тизимига татбиқ этишнинг назарий асосларини яратилиши, ахборот технологиялари соҳасида эришилган илм-фан ютуқларини педагогик амалиётга, ўқув-тарбиявий жараёнларни ривожлантиришга, янги сифат кўрсаткичларига эришишга қаратилган имкониятларни яратади.

**Фойдаланилган адабиётлар рўйхати**

1. Новые информационные технологии. Под редакцией В. П. Дьяконова. - М.: Солон-Пресс. Библиотека студента.

2. Стивен С. Скиена, Мигель А. Ревилла. Олимпиадные задачи по программированию. Руководство по подготовке к соревнованиям. -М.: КУДИЦ-Образ.

3. Избачков Ю. С., Петров В. Н. Информационные системы. Питер. Учебник для вузов.

4. Калабухова Г. В., Титов В. М. Компьютерный практикум по информатике. Офисные технологии. Форум, Инфра-М. Высшее образование.

5. Микшина В.С., Еремеева Г.А., Назина Н.Б. и др. Лабораторный практикум по информатике: Учебное пособие для вузов. Под ред. В.А. Острейковского. -М.: Высш. шк. 2013. -376 с.

6. Eshimov R. R. Создание учебной литературы для инклюзивного образования на основе компьютерных имитационных моделей // Eastern European Scientific Journal (ISSN 2199-7977) DOI 10.12851/EESJ201805. Vol.10.2018. –№ 3. – P. 287-292.

http://www.auris-archiv.de/mediapool/99/990918/data/DOI_10_1_.12851_EESJ201805_5_.pdf

7. Eshimov R. R. Improvement of technology creation of multimedia electronic textbook on "Informatics and information technology" for schools // A Multidisciplinary peer reviewed Journal (ISSN 2581-4230) Journal impact factor: 7.223. Vol.10.2021. –№ 3. – P. 718-721. https://repo.journalnx.com/index.php/nx/article/view/3034

# O'QISH DARSIDA INTERFAOL USLUBLARDAN FOYDALANISHNING TA'LIMIY AHAMIYATI

***Ubaydullyev Ilxomjon Sayfullayevich***

*Andijon davlat pedagogika instituti Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)* Gmail: ilxomjon68@gmail.com

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada o'quvchilarni darsga bo'lgan qiziqishlarini oshirish Interfaol metodlardan foydalanish o'quvchilar o'rtasidagi faollikni oshirish orqali ularning shaxsiy sifatlarni rivojlanishiga xizmat qiladi.*

***Kalit so'zlar :*** *Interfaollik, savodxonlik axloqiy-ta'limiy kreativ suhbat - dars jarayonini erkin bayon etish nutq o'stirish.*

***Аннотация:*** *В этой статье повышение интереса учащихся к уроку использование интерактивных методов способствует развитию у них личностных качеств за счет повышения вовлеченности учащихся.*

***Ключевые слова:*** *Интерактивность, грамотность этико-воспитательная креативная беседа - свободное изложение процесса урока развитие речи.*

***Annotation:*** *In this article, increasing students ' interest in the lesson the use of interactive techniques serves to advance their personal qualities by increasing activity among students.*

***Keywords:*** *Interfaith, literacy moral-educational creative conversation-Free description of the course process speech cultivation.*

Boshlang'ich sinflarda o'tiladigan ona tili, matematika, o'qish, odobnoma, tabiatshunoslik darslari o'z mohiyati, maqsad va vazifalariga ko'ra ta'lim tizimida alohida o'rin tutadi. Negaki ularning zaminida savodxonlik va axloqiy-ta'limiy tarbiya asoslari turadi. Shuning uchun ham boshlang'ich ta'lim darslariga o'quvchilar qiziqishini oshirishga alohida e'tibor berish lozim.

Chunki bolalar boshlang'ich sinflardanoq «dars» degan muqaddas so'zdan bezib qolmasliklari lozim. Bugungi kunda o'quvchilarni darsga bo'lgan qiziqishlarini oshirish uchun tajribali o'qituvchilar turli didaktik o'yinlardan foydalanishmoqda. Interfaol metod - ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi faollikni oshirish orqali ularning o'zaro harakati ta'sir ostida bilimlarni o'zlashtirishni kafolatlash, shaxsiy sifatlarni rivojlanishiga xizmat qiladi.Ushbu usullarni qo'llash dars sifati va samaradorligini oshirishga yordam beradi. Uning asosiy mezonlari - norasmiy bahs-munozaralar o'tkazish, o'quv materialini erkin bayon etish, mustaqil o'qish, o'rganish, seminarlar o'tkazish, o'quvchilarni tashabbus ko'rsatishlariga imkoniyatlar yaratilishi, kichik guruh, katta guruh, sinf jamoasi bo'lib ishlash uchun topshiriq, vazifalar berish, yozma ishlar bajarish va boshqalarda iborat. Interfaollik, bu - o'zaro ikki kishi faolligi, ya'ni, bundan o'quv-biluv jarayoni o'zaro suhbat tariqasida dialog shaklida (kompyuter aloqasi) yoki o'qituvchi - o'quvchilarning o 'zaro muloqotlari asosida kechadi. Interfaollik - o'zaro faollik, harakat, ta'sirchanlik, o'quvchi - o'qituvchi, o'quvchi - o'quvchi suhbatlarida sodir bo'ladi. Interfaol metodlarning bosh maqsadi - o'quv jarayoni uchun eng qulay muhit va vaziyat yaratish orqali o'quvchining faol, erkin, ijodiy fikr yuritish, uni ehtiyoj, qiziqishlari, ichki imkoniyatlarini ishga solishga muhit yaratish. Bunday darslar shunday kechadiki, bu jarayonda bironta ham o'quvchi chetda qolmay, eshitgan, o'qigan, ko'rgan bilgan fikr mulohazalarini ochiq oydin bildirish imkoniyatlariga ega bo'ladilar. O'zaro fikr almashish jarayoni hosil bo'ladi. Bolalarda bilim olishga havas, qiziqish ortadi, o'zaro do'stona munosabatlar shakllanadi. Interfaol ta'lim o'z xususiyatiga ko'ra didaktik o'yinlar orqali evristik (fikrlash, izlash, topish) suhbat - dars jarayonini loyihalash orqali muammoli vaziyatni hosil qilish va yechish orqali kreativ - ijodkorlik asosida axborot

kommunikatsion texnologiyalar yordamida amalga oshirish metodlarini o'z ichiga oladi.

Axborot kommunikatsion texnologiyalar asosida ta'lim o'z navbatida kompyuter dasturlari yordamida o'qitish, masofadan o'qitish, internet tarmoqlari asosida o'qitish, media - ta'lim metodlaridan iborat. Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning yosh hususiyatlari, savodxonlik darajalari, shaxsiy tabiatlariga ko'ra didaktik o'yinlar orqali evristik suhbatlar loyihalashtirish asosidagi metodlar keng qo'llanilmoqda. Agar o'qitish jarayonida har bir o'quvchi o'zining o'zlashtirish imkoniyati darajasida topshiriqlar olib ishlaganida u yuqori sifat va samaradorlikni ta'minlagan bo'lar edi. Bunday holatni faqat tabaqalashtirgan ta'lim orqaligina amalga oshirish mumkin. Endi ta'lim jarayonlarini didaktik o'yinlar orqali amalga oshirish haqida fikr yuritamiz: Interfaol o'yinli metodlar o'quvchi faoliyatini faollashtirish va jadallashtirishga asoslangan. Ular o'quvchi shaxsidagi ijodiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish va rivojlantirishning amaliy yechimlarini aniqlash va amalga oshirishda katta ahamiyatga ega. Interfaol o'yinlarning asosiy turlari: intellekual (aqlli) va harakatli hamda aralash o'yinlardan iborat. Bular o'quvchilarda aqliy, jismoniy, axloqiy, ma'naviy, ma'rifiy, psixologik, estetik, badiiy, tadbirkorlik, bunyodkorlik, mehnat, kasbiy ko'nikmalarni rivojlanishiga yordam beradi. Bu metod o'quvchini ichki imkoniyatlarini ishga tushishiga, o'ylashga, erkin fikr yuritishga, muloqotga, ijodkorlikga yetaklaydi.

Ta'lim - tarbiya jarayonida asosan o'quvchilarda ta'lim olish motivlarini, ularni turi yo'lanishlardagi qobiliyat va qiziqishlarini oshiradigan, biror kasbga moyilliklarini ko'rsatadigan, interfaollikkka asoslangan didaktik o'yinlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Interfaol o'yinlar nazariy, amaliy, jismoniy, rolli, ishchanlik va boshqa yo'nalishdagi turlarga ajratiladi. Ular o'quvchilarda tahlil qilish,hisoblash, o'lchash, yasash, sinash, kuzatish, solishtirish, xulosa chiqarish, mustaqil qaror qaabul qilish, guruh yoki mustaqil jamoa tarkibida ishlash,nutq o'stirish, til o'rgatish yangi bilimlar olish faoliyatlarini rivojlantiradi.

O'quvchi matnni to'g'ri, tez, tushunib o'qish, mazmunini o'zlashtirish bila. Men ilk bor o'qish darslarida yuzlashadi. O'qish darslari orqali o'quvchilarning Davlat ta'lim standarti (DTS) talablari bo'yicha o'zlashtirishlari ko'zda tutilgan o'quv-biluv ko'nikma-malakalari hamda bilimlarni egallashlariga yo'l ochiladi. Shu

maqsadda "O'qish kitobi" darsliklariga ona tabiat, atrofimizni o'rab turgan olam, Vatanimiz tarixi va bugungi qiyofasi, kattalar va bolalar hayoti, mehnatsevarlik, istiqlol va milliy-ma'naviy qadriyatlar, xalqlar do'stligi va tinchlik kabi turli mavzular bo'yicha atroflicha tushunchalar berishga mo'ljallangan badiiy, axloqiy-ta'limiy, ilmiy-ommabop asarlar kiritiladi. O'qish darslari savod o'rgatish davrida o'quvchilarni bo'g'in, so'z va gaplar bilan tanishtirish va ularni o'qish, rasmlar asosida hikoya qilish tarzida uyushtirilsa, o'qish texnikasi egallangandan so'ng o'qish muayyan mavzular bo'yicha tanlangan badiiy, ilmiyommabop matnlar yuzasidan olib boriladi.

Uzluksiz ta'limning boshqa bosqichlaridan farqli o'laroq, boshlang'ich sinflarning o'qish darslarida o'quvchilarning o'qish malakalarini shakllantirish, asar matni ustida ishlash ta'limning didaktik maqsadi hisoblanadi. U turli mavzudagi matnlar ustida ishlash orqali ma'naviy-ahloqiy, adabiy-estelik tarbiya bilan chambarchas bog'lab olib boriladi. Darsliklardagi har bir mavzu uchun tanlangan matnlarning janriy rang-barangligiga, poetik mukammalligiga, o'quvchilarning bilim darajasi va yosh xususiyatlariga mos kelishiga alohida e'tibor qaratiladi. O'quvchilar darsliklar yordamida o'zlashtiriladigan bilim, ko'nikma va malakalarining kelajak hayotda zarur bo'lishini tushunib yetishishlariga erishish o'qituvchilar oldidagi muhim vazifalardandir.

Umuman olganda, o'qish darslari oldiga qo'yiladigan didaktik vazifalar quyidagilardan iborat:

1. O'quvchilarda yaxshi o'qish sifatlari: to'g'ri, tez, ongli, ifodali o'qishlarini shakllantirish.

2. O'quvchilarni kitobdan foydalanishga, undan kerakli bilimlarni olishgao'rgatish, kitobga muhabbat uyg'otish; ularni oddiy kitobxondan chuqur mulohaza yiirituvchi, ijodkor kitobxon darajasiga ko'tarish.

3. O'quvchilarning atrof-muhit haqidagi bilimlarini kengaytirish va boyitish hamda ilmiy dunyoqarashlarini shakllantirish.

4. O'quvchilarni axloqiy, estetik jihatdan yetuk va mehnatga muhabbat ruhida tarbiyalash

5. O'quvchilarning bog'lanishli nutqini va adabiy-estetik tafak-kurini o'stirish.

6. O'quvchilarning xayolot olamini boyitish.

7. Elementar adabiy tasavvurlarini shakllantirish.

Shuni unutmaslik kerakki, har bir ta'limiy vazifani bajarishning aniq va ilmiy metodik usullari mavjud bo'lib, ular zamonaviy o'qitish usullari bilan boyitib borilmoqda. Bu vazifalar boshqalari bilan o'zaro bog'Iiq holda va sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlari jarayonida hal qilinadi.

O'qish inson xayotida muhim ahamiyatga ega. O'qish orqali inson borliq, jamiyat haqida bilimga ega bo'ladi, o'qishni bilmagan odamning ko'zi ojiz kishidan farqi yo'q. Boshlang'ich sinfda o'qish faoliyati barcha predmet darslarida amalga oshiriladi. Lekin o'qishga o'rgatishning yo'l-yo'riqlarini oqish metodikasi ishlab chiqadi.

O'qish darslarida o'quvchilar tabiat, jamiyat, unda yashovchi, kishilar hayoti, ularning o'tmishi, hozirgi yashash tarzi, mashhur kishilari haqida, vatanning tabiati, ob-havosi, boyliklari, hayvonot dunyosi va boshqalar haqidagi bilimlarni egallaydilar. Bilim olish jarayonida ularga nisbatan munosabat uyg'onadi. Bilim berish bilan o'quvchi shaxsi tarbiyalanib boradi. V.A.Suxomlinskiy bu haqida shunday deydi: «Bolalar dunyoni va o'z-o'zini bila borish bilan birga katta avlodlar yaratgan moddiy va ma'naviy boyliklar uchun o'zining mas'ulligini oz-ozdan bila borishlari kerak. ...bolaga yaxshilik va yomonlikni to'gri ko'rish imkonini berish kerak. Yaxshilik unda quvonch, zavq, hayajon, ma'naviy go'zallikka ergashish ishtiyoqini hosil qiladi; yomonlik qahr-g'azab, murosasizlik uyg'otadi, haqiqat va adolat uchun kurashga chorlovchi ma'naviy kuchga to'ldiradi. (1-4 sinf "O'qish kitobi" da berilgan asarlar misolida ochib beriladi). O'qish darslarida qo'llaniladigan metodlar. "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi"da ta'lim berishning iig'or pedagogik texnologiyalarini, zamonaviy o'quvuslubiy majmualarini yaratish kabilar umumiy o'rta ta'limning asosiy vazifalaridan biri sifatida ta'kidlangan. ilg'or pedagogik texnologiya usullaridan foydalanish o'qituvchi va o'quvchi faoliyati doirasini aniq belgilab beradi. Inson hayotida muhim ahamiyatga ega bo'lgan o'qish faoliyati barcha predmet darslarida amalga oshiriladi. Lekin o'qishga o'rgatish yo'l-yo'riqlarini o'qish metodikasi ishlab chiqadi.

O'qish metodikasi kichik yoshdagi o'quvchilarning umumiy rivojlanishi, psixologiya, xususiy metodika sohasidagi yutuqlar asosida takomillashtirilib

boriladi. O'qish darslarining samaradorligi ko'p jihatdan ta'lim metodlarining to'g'ri tanlanishiga bog'Iiq. Binobarin, fanning o'zi kabi o'qitish metodlari ham doimiy rivojlanishda bo'ladi. Masalan, eski maktablarda o'qish quruq yod olish metodi asosida o'rgatilgan bo'lsa, hozir izohli o'qish asosida olib boriladi. Yod olish metodida matndagi so'zlarga izoh berishga, ma'nosini tushuntirishga, o'qilganni qayta hikoyalashga, umuman olganda, o'qishning ongli bo'lishiga mutlaqo e'tibor berilmagan. Ularda ko'proq to'g'ri talaffuz, qiroat bilan o'qish, ifodali o'qish nazarda tutilgan. Hozir maktablarda o'qish izohli o'qish metodi asosida olib borilayotgan ekan, quyidagicha savol tug'iladi: Izohli o'qish nima? Izohli o'qishga XIX asrning 60-70- yillarida rus pedagogi K.D.Ushinskiy asos solgan, u o'qishda o'quvchilarni "ongli, tushunib, o'ylab o'qishga" o'rgatishni alohida ta'kidlaydi va uni "Izohli o'qish" deb nomlaydi. Izohli o'qish metodiga K.D.Ushinskiy ishining davomchilari yangiliklar kiritdilar. Korf va Vaxterev izohli o'qish o'quvchilarga real bilim berish vositasi desa, Vodovozov va Bunakov o'quvchilarga o'qish jarayonida bilim badiiy asar tahlili va asarning tarbiyaviy xarakteri bilan bog'liq holda beriladi, degan fikrni ilgari suradilar. Izohli o'qish quyidagi tamoyillarga toliq amal qilingandagina muvaffaqiyatli bo'ladi: O'qishni hayot bilan bog'liq holda tashkil etish.

O'qishning ongli va ta'sirchan bo'lishi uchun o'quvchilarning hayotiy tajribalariga, taassurotlariga asoslanish. O'qishni ko'rgazmali tashkil qilish, tabiatga, tarixiy joylarga ekskursiyalar uyushtirish, hayvonot olami va o'simliklar dunyosini ku- zatish, rasmlar, jadvallar, predmetlar bilan tanishtirish hamda matnni o'quvchining ifodali o'qishi tarzida olib borish. Boshlang'ich sinf o'qish darslarida asosan she'rlar, masallar, ertaklar, hikoyalar, afsonalar, maqol va topishmoqlar, ilmiy-ommabop asarlar o'qib o'rganiladi. Tabiiyki, ularning har biri o'ziga xos shakl, uslub va mazmunda yaratiladi. Shuning uchun ham har bir janrga mansub asarlarni o'ziga xos usulda o'qib o'rganish taqozo qilinadi.

Ko'rinadiki, ijodiy o'qish izohli o'qishdan farqli oiaroq, to'g'ridan-to'g'ri matn mohiyatini ochishga ijodiy yondashishni taqozo etadi. Masalan, 4-sinfda A.Oripovning "Dehqonbobo va o'n uch bolakay qissasi" asarini ijodiy o'qish metodi asosida o'rganish jarayonida matn mazmuni va shoir g'oyaviy niyatidan kelib chiqib Vatanimiz hudud-laridagi aholining yashash tarzi bilan bog'liq milliy xususiyatlar haqida ham atroflicha tushuncha beriiadi. 2-sinfda "O'tinchi yigit", 3-sinfda O'tkir

Hoshimovning "Xazonchinak", 4-sinfda S.Anorboyevning "Qo'rqoq" asarlarini ham ijodiy o'qish metodi asosida o'qitish ijobiy samaralar beradi. Ifodali o'qish. Boshlang'ich ta'lim tizimida mantiqiy o'qish (matnni to'g'ri, tushunib, tez (me'yorida) o'qish) va adabiy o'qish mukammal o'zlashtirilganidan so'ng ifodali o'qishga o'tiladi. U yod olingan she'riy asarlarni ifodali o'qishni ham o'z ichiga oladi. Ifodali o'qishning muvaffaqiyati o'quvchilarning asar mazmuni, g'oyaviy-badiiy xususiyatlari haqida muayyan tushunchaga ega bo'lishi bilan bog'liq. Ohang va intonatsiya she'riy asarlarni ifodali o'qishda qay darajada muhim bo'lsa, nasriy asarlarni o'qishda ham muhim talablardan biridir. Nasriy asarlarni ifodali o'qishdan oldin unda qanday g'oya ilgari surilayotganini aniqlash zarur. Masalan, 4- sinfda X.To'xtaboyevning "Xatosini tushungan bola" hikoyasini ifodali o'qishdan oldin o'quvchilarga xatosini tushungan bola kirn ekanligi, lining xatosi nimalardan iborat bo'lganligi, maqtanchoqlikning illat ekanligi to'g'risida tushuncha beradi.

O'qish darslarida reproduktiv metod keng qo'llaniladi. Masalan, o'qituvchi dastlabki darslarda o'zi asar matnini qismlarga bo'ladi, yozuvchi yoki shoirning aytmoqchi bo'lgan muhim fikriga o'quvchilar diqqatini jalb qiladi, uni aniqlab ko'rsatadi, o'quvchilar bilan birga tasvir vositalariga yuklatilgan ma'noni ochib, o'quvchilarga ko'maklashadi. Bularning bari o'quvchilar uchun bir ko'rsatma vazifasini o'taydi. Shundan so'ng o'quvchilar o'qituvchining ko'rsatmalari yordamida yuqorida ko'rsatib o'tilgan vazifalarni o'zlari mustaqil ravishda bajaradilar. Yuqorida ta'kidlangan metodlardan tashqari, boshlang'ich sinf o'qish darslarida zamonaviy pedagogik texnologiya usullaridan "Aqliy hujum", "Tarmoqlash", "Guruhlar bilan ishlash", "Blis texnologiyasi" kabilardan ham foydalanish yaxshi samara beradi. Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, har bir darsda qanday metoddan foydalanish, darsda qanday usullarni qollash o'qituvchi tomonidan oldindan belgilab olinishi va puxta ishlab chiqilishi kerak.

**Фойдаланилган адабиётлар**

1. Abdullayeva Q. va boshqalar "O'qish ktobim" 2- sinf,T. 2006 yil
2. Abdullayeva Q., va boshqalar "Savod o'rgatish darslari" T, "O'qituvchi"1996 yil.
3.Abdullayeva Q. va boshqalar "2- sinfda o'qish darslari", T., 2004 yil.
4. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnolofiyalar va pedagogik mahorat. Toshkent. 2006. 5. Abdullayeva Q., va boshqalar "Ona tili" T., "O'qituvchi "1999 yil.

6. Bo'ri Ziyamuhammedov, Mamarajab Tojiyev. Pedagogik texnoloyazamonaviy o'zbek milliy modeli. Toshkent. 2009.

7. «Kitobim-oftobim» Toshkent. «O'qituvchi» nashriyoti, 2008 yil. References 1. Abdullayeva Q. and others "My reading book" 2nd grade, T. 2006

8. Gapparova T., Shodmonov E., Eshturdiyeva G. Ona tili . 1-sinf uchun. T .: ―O'qituvchi‖, 1999-yil

9. Gulomova X. Gafforova T. 1- sinfda ona tili darslari. T.: ―Sharq‖, 2003-yil

10 Kosimova K. Fuzailov S. Ne'matova A. Ona tili., 2- sinf uchun T.: ―Cho`lpon‖, 2005-yil

## ASSESSMENT OF PHYSICAL ACTIVITY AND PEDAGOGICAL CHALLENGES IN ELEMENTARY SCHOOL STUDENTS

***Sanjar Ruzmatovich Uraimov***

*Head of the Department of Exact and Natural Sciences of Fergana State University Ph.D., Associate Professor*

*Email. uraimov-sanjar@mail.ru*

***Abstract.*** *Assessment of physical activity among elementary school students revealed a positive trend of growth of strength abilities assessed by quarters. However, during the pedagogical experience with the 1st-2nd graders, it was found that the children could not achieve the initial results, did not fulfill the requirements of the material and social functions of the program for all-round development. Mandatory basic physical education classes offered by the school system were not enough to reduce the hypodynamia factor, and it was difficult to implement physical exercise or mass sports sessions outside of school. Current state education standards stipulate a limit of at least 4 academic hours per week for physical education, which does not meet the established standards of physical activity of the WHO.*

***Keywords****: sociological research, monitoring, physical condition, preparation for action, comparative analysis, maturity, pedagogical control, development, mass sports, physical training, physical activity, physical exercise, physical activity.*

## Introduction

The success of the school education system is determined by the problem of continuity, which is a significant factor according to the monitoring of local and foreign literary sources. The pedagogical system of continuous education requires the continuity of the structural hierarchy, unity of purposeful pedagogical relations, meaningful integration relations, and a comprehensive approach to their implementation. It is challenging to maintain continuity in the pedagogical process, particularly for the continuous education system, which must maintain self-sufficiency and the unity of all levels to achieve general and specific pedagogical goals. [1-2] The physical education of young students has gained attention in recent years, and this is due to the fact that the World Health Organization (WHO) recognizes physical inactivity as a social disadvantage affecting the health of the younger generation. Experimental studies of physical condition, according to the method of pedagogical verification of movement ability, have shown that factors of physical inactivity in 17% of young students have a tendency for its further development. Therefore, the article aims to determine the dynamics of motor performance of elementary school students during the annual educational cycle and evaluate the results using mathematical statistics.

## Methods

The monitoring of local and foreign literary sources was analyzed to investigate the continuity of the school education system and its impact on successful operation. The pedagogical system of continuous education, which assumes the continuity of the structural hierarchy, unity of purposeful pedagogical relations, meaningful integration relations, and a comprehensive approach to their implementation, was examined. The implementation of continuity in the pedagogical process was found to be challenging, as the continuous education system must maintain the unity of all levels and self-sufficiency to achieve general and specific pedagogical goals. Ensuring continuity in the pedagogical process was determined to be an important component of coherence.

A group of researchers from our country and abroad conducted an experimental research on the attention paid to school physical education, especially in the development of the young generation. The sensitivity of physical education

teachers to the age factor, which serves the intensive development of physical education, was studied in the junior contingent of general education schools. Individual physical abilities were found to be ignored by the teachers, which could negatively manifest in later stages of heterochronic development of their own motor abilities. The analysis of scientific research revealed that comprehensive scientific research was not carried out in the years of independence in the republic to determine the physical condition of the children's contingent of students in the school education system. The revision of the structure and content of the school education process in accordance with the priority tasks set for public education by the state in solving global problems related to the development of the young generation was identified as the most important task of the science of pedagogy and education.

The World Health Organization (WHO) has officially recognized physical inactivity as a social disadvantage affecting the health of the younger generation. The monitoring analysis of the results of experimental studies of the physical condition according to the method of pedagogical verification of movement ability showed that the factors of physical inactivity in 17% of young students have a tendency for its further development. It is natural to emphasize that it is impossible to evaluate the results of targeted methods of pedagogical influence and build prospects for planning the development process without experimentally based on preliminary indicators of the physical capabilities of the growing body of children in the school education system. To improve the movement ability of the studied contingent and the physical education teacher of the general education school should be well versed in innovative methods of pedagogical control and their analysis, which allows them to solve the tasks in an integrated manner. In order to determine the continuity of the normative content of the school curriculum on physical education, the condition of children's physical condition at the initial stage of education was studied. In order to determine the situation of this issue in the school education system, a sociological study was conducted, in which 24 physical education teachers working in primary classes took part. In the process of processing the questionnaire material, it was found that the main contingent of physical education teachers working with children of primary school age has a

higher special pedagogical education, work experience in the school system is up to 5 years - 37.4%, from 6 to 10 years -36.7% , from 11 to 14 years old - 15.3%, from 16 to 20 years old - 7.8%, over 20 years old - 2.8%.

## Results

The material and sports base as a factor of the success of the physical education process was satisfactory conditions in 57.4% of school educational institutions, good conditions - 20.0%, and conditions meeting the necessary requirements - 3.4%. do not have the necessary conditions for conducting physical education and health activities with children - 17.8%. It was found that 28.7 percent of schools in the Fergana region have complete sports equipment, and the rest have only their individual elements. This allows us to conclude that there are no qualified sports and recreational activities for children of primary school age in the studied school institutions. Control tests, followed by mathematically competent processing of the results of pedagogic testing of students' movement abilities is an important part of this process. Mathematical logic in the field of physical education provides a theoretical basis for conducting a unified scientific approach to the evaluation of complex research results. To determine the physical fitness of children, a set of tests from the state programs of "Health" school physical education and health tests was selected, in which pedagogical control of the studied characteristics was carried out during the annual cycle of children's education. Taking into account the relevance of the selected research problem of studying the dynamics of motor skills of children of primary school age, a pedagogical experiment lasting one academic year was conducted, in which the results of testing physical qualities were determined, the final results of each quarter were recorded. The indicators of the conducted pedagogical examination of the physical abilities of primary school children were evaluated by an authorized commission, and all the obtained experimental materials were processed by the method of mathematical statistics and are listed in Table 1.

Table 1

Dynamics of motor performance of elementary school students by Quarter during the annual educational cycle

| | Test | QUARTERS | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | I | | II | | % | III | | % | IV | | % |
| | | $\bar{X}$ | p | $\bar{X}$ | p | | $\bar{X}$ | p | | $\bar{X}$ | p | |
| | 30 ms run | 6,6 | 0,6 | 6,5 | 0,4 | 1.6 | 6,4 | 0,2 | 3,1 | 6,3 | 0,3 | 4,,6 |
| | Running 3x10 m.s | 9,9 | 1,3 | 9,8 | 1,4 | 1.1 | 9,6 | 1,8 | 3.1 | 9,4 | 1,8 | 5.,1 |
| | long jump s/m cm | 105,1 | 16,7 | 107.4 | 16.3 | 2.2 | 118,2 | 16.6 | 2.,7 | 120.8 | 16.1 | 5.,2 |
| | Hanging drawers | 11,7 | 2,3 | 12,3 | 2,2 | 4.9 | 13,8 | 1,9 | 15,3 | 15,2 | 3,2 | 22.1 |
| | Throwing a tennis ball, m. | 14.1 | 4,0 | 14,7 | 4,2 | 4.1 | 15,9 | 4,3 | 11.4 | 16,8 | 6,1 | 16.,1 |
| | Flexion and extension of the arms in the supine position, once | 6,9 | 1,9 | 7,1 | 1,6 | 2.9 | 8,4 | 1,4 | 17,9 | 8,5 | 1,9 | 18.,9 |

The analysis of the initial indicators of pedagogical studies before the start of the experiment showed that the speed ability of boys studying at a distance of 30 m in grades 1-2 was on average 6.6 ± 0.6 sec. At the end of the second quarter, repeated studies showed that the indicator increased to 6.5 ± 0.4 seconds with a difference of 1.6%. At the initial stage of physical education and sports training, children's coordination ability is evaluated by the 3 x 10 m distance running test as the most important factor. children were found to have an average change of 9.9 ± 1.3 seconds, and when retested seven weeks later, the increase result was 9.8 ± 1, with a difference of 1.1%. It was 4 seconds. According to the leading national experts in the field of physical education and children's sports [3-4], the speed-strength qualities of children show that this motor test is an important component of children's physical development at a tender age, and it is recommended to pay special attention to this component. will be done. According to the results of the

speed-strength test of the children evaluated by the standing long jump test, the average result was 105.1 ± 16.7 cm, resulting in a slight increase of 2.2%. reached, the average value is 107.4 ± 16.3 cm. Based on the study of the mobility of children of primary school age, found that the sensitive age stage in their life is a period of increased flexibility and emphasized that during this period the structure and functions change and the body shows its ability to change in accordance with the external conditions.

## Conclusion

In conclusion, the assessment of the physical activity of elementary school students showed positive trends in the growth of strength during the quarter. However, during the pedagogical experiment with the 1st-2nd graders, it was found that the children did not achieve the initial results obtained at the beginning of the training, which indicates a gap in the physical education system. Compulsory basic physical education lessons held in schools are not enough to eliminate the factor of hypodynamia, and it is difficult to engage in physical exercises outside of school or to conduct sectional training in mass sports. According to WHO standards, the minimum time allocated for organized physical exercises is not enough to fully develop the functional readiness of students. It is necessary to update the content of physical education for primary school students and make adjustments to the educational process based on the capabilities of the students. A methodologically competent approach to the construction of physical education classes with optimal dosing of the size and intensity of physical activity, taking into account the capabilities of children, is necessary. Modernization in the field of school physical education should be aimed at differentiating the content of the pedagogical process based on the physical development, mobility, and functional capabilities of primary school students.

In addition to the positive trend in the growth of strength abilities assessed by quarters, the study showed delays in some physical condition indicators of readiness for movement of 7-8-year-old children. This indicates a possible defect in the existing system of physical education for primary school students. Current state standards of physical education may not fully consider the functional readiness of students, assuming a minimum limit for the amount of physical activity. In

addition, mandatory basic physical education classes introduced in schools are not sufficient to mitigate the factor of hypodynamia, providing physical exercises outside of school or conducting mass sports section training is difficult for this age group. Therefore, it is necessary to update the content of physical education for elementary school students and introduce it methodically, taking into account the physical development, mobility, and functional capabilities of each student. By modernizing the field of school physical education, it is possible to establish a more differentiated and adapted pedagogical process to effectively stimulate the physical activity and all-round development of elementary school students.

**References**

1. Strong, W. B., Malina, R. M., Blimkie, C. J., Daniels, S. R., Dishman, R. K., Gutin, B., ... & Trudeau, F. (2005). Evidence-based physical activity for school-aged youth. Journal of Pediatrics, 146(6), 732-737.
2. McKenzie, T. L., Sallis, J. F., & Broyles, S. L. (2012). Physical activity in childhood: A comprehensive review and integration of family influences. Journal of Physical Activity and Health, 9(6), 789-793.
3. Каримов И. А. Миллий армиямиз - мустақиллигимизнинг, тинч ва осойишта ҳаётимизнинг мустаҳкам кафолатидир. - Т.: Ўзбекистан, 2003. - Б.3-7.
4. Усмонходжаев Т.С. Научно-педагогические основы физического совершенствования детей в связи с их двигательной активностью. Автореф.дисс…докт. пед. наук. Ташкент. - 1995 – 50 с.

## "STORYTELLING" МЕТОД В ИЗУЧЕНИИ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА

***Тошматова Мадинахон Кодировна***

*Наманганский государственный педагогический институт, студентка 1 курса факультета методики преподавания социально-гуманитарных наук, кафедры иностранного языка и литературы*

***Tel:*** *+998936406051* ***E-mail:*** *mtosmatova123@gmail.com*

***Аннотация.*** *В статье предложена методика сторителлинг на уроках иностранного языка. Эффективное преподавание английского языка*

*будет способствовать лучшему общению и пониманию на будущих уроках английского языка. Исследования доказали эффективность сторителлинга в обучении детей словарному запасу английского языка, а также то, как рассказывание историй можно сочетать с другими образовательными инструментами. Кроме того в статье особое внимание уделяется характеристике использование сторителлинг, эффективность рассказывания и варианты использовании краткий историй на уроках иностранного языка. Обобщается положительный эффект от применения данного метода.*

***Ключевые слова:*** *Сторителлинг, метод, истории, развитие, эффективность, педагог, языковая практика, процесс обучения.*

***Annotatsiya.*** *Maqolada chet tili darslarida hikoyadan foydalanish usuli taklif qilingan. Hikoyadan foydalanish xususiyatlari, hikoyadan foydalanish samaradorligi va chet tili darslarida qisqa hikoyalardan foydalanish variantlariga alohida e'tibor beriladi. Ushbu usulni qo'llashning ijobiy ta'siri umumlashtiriladi.*

***Kalit so'zlar:*** *Hikoya aytish, metod, hikoyalar, rivojlanish, samaradorlik, o'qituvchi, til amaliyoti, o'rganish jarayoni.*

***Annotation.*** *The article proposes a method of storytelling in foreign language lessons. Particular attention is paid to the characteristics of the use of storytelling, the effectiveness of storytelling and options for using short stories in foreign language lessons. The positive effect of the application of this method is summarized.*

***Keywords:*** *Storytelling, metod, stories, development, effectiveness, teacher, language practice, learning process.*

## Введение

Сторителлинг (англ. Storytelling) или «рассказывание историй» — это изучение языка с помощью небольших историй на разные темы. Истории позволяют использовать аутентичный материал, помогают отработать грамматику и лексику, способствуют развитию воображения, говорения, аудирования, письма. Этот прием отлично подходит самыми разными

возрастными группами, детям, а также подросткам и взрослым. Атмосфера на таких занятиях самая непринужденная.

Впервые этот метод был представлен Дэвидом Армстронгом, руководителем корпорации «Armstrong International». Он использовал сторителлинг для улучшения показателей компании и ускорения обучения персонала. При разработке метода Армстронг учёл распространённый психологический фактор: истории являются более выразительными, увлекательными и интересными, их легче запомнить, легче ассоциировать с личным опытом и, как следствие, они оказывают на поведение слушателей более сильное влияние. Результаты применения сторителлинга оказались настолько эффективными, что он поделился своим опытом в книге Managing by Storying Around.

При использовании этого метода мы часто ищем разные источники как книга, статьи или же собственные рассказы. Книги играют большую роль в изучении языка. При чтении литературы мы узнаем новые слова, усваиваем конструкции. Конечно, значимости устной языковой практики никто не отменял, но в разговоре мы только оттачиваем то, что получили ранее, переводим теорию в практику. В беседе у нас нет времени проработать лексику, а при чтении есть возможность обратиться к словарю, во всем разобраться и при необходимости перечитать непонятное.

Литература развивает хороший вкус и формирует у нас представление о правильном языке. К тому же, через книги на английском вы погружаетесь в иноязычную культуру, начинаете лучше понимать носителей языка.

На начальном этапе, когда словарный запас совсем небольшой, очень помогают разобрать лексику специальные истории на английском для начинающих. Их также называют адаптированными. В таких книгах информация разбита по определенным тематикам, и приложены словарики употребленных в тексте слов. Адаптированные тексты упрощены по лексике и по построению предложений, их можно читать тем, кто недавно начал обучение. Но в них теряется то, что дает неадаптированная литература — язык носителей, который не подстраивается под уровень владения иностранцев.

Кроме того, использование историй помогает учащимся приобретать и развивать индивидуальные вкусы чтения, навыки и креативность. Истории в классе служат не только для обучения языку и для выполнения поставленных задач, они так же могут принести гораздо больше пользы учащимся. Рассказы читают нам на нашем родном языке с тех пор, как мы маленькие, и они так же являются способом бессознательно обучая нас и развития нашего кругозора.

**Важность рассказывания историй.**

Истории могут сделать процесс обучения ребенка забавным, занимательным и в то же время полезным. Как заявил Гонсалес (2009: 98), «Рассказывание историй дает учащимся возможность творчески говорить на иностранном языке, интегрировать информацию и знания, которые они узнают из других источников, и стать более уверенными в способности спонтанно выражать свои мысли» [1], уроки с помощью истории помогут ребенку стать частью собственного учебного процесса, не осознавая этого, что он может быть расслабленным и не подвергаться никакому давлению, поможет ему стать более уверенным на уроках английского языка. Кроме того, Мартинес (2007) продолжает утверждать, что:

"Детям нравится слушать истории на своем родном языке, и они с большей вероятностью перенесут это желание при прослушивании книг, прочитанных на втором языке. Поэтому мотивация и интерес возрастают. Кроме того, рассказы — отличный способ представить, попрактиковаться, пересмотреть и улучшить навыки произношения и культура преподавания с использованием целевого языка". [2]

Рассказывание историй можно использовать для улучшения грамматики или словарного запаса, но помимо этого необходимо использовать для интенсификации и усиления мотивации и интереса учащихся. Нужен мотив, чтобы хотеть выучить английский язык, и истории могут быть инструментом для поощрения этих аспекты. Когда ученики впервые начинают изучать иностранный язык им приходится очень тыжело понимать все информации на другом языке, поэтому проведение уроков с помощью рассказа это очень продуктивный способ изучения иностранного языка, потому что с помощью этого метода у учеников улучшается словарный запас, понимание

ситуации, рассуждение, кроме того урок становится более интересным и эффективным.

Изучение нового языка определенно не должно быть сосредоточено исключительно на словарный запас и грамматика, изучение языка включает в себя гораздо больше вещей, чем зная о «правилах» и «положениях». Во время изучения языка дети должны быть показаны аспекты новых культур и то, как принимать и наслаждаться разнообразием что второй язык может принести. Как сказали Иоанну-Георгиу и Вердуго (2011):

«Истории — это окна, открытые в мир. Они приносят взгляды о разных людях, новые страны и разнообразные культурные ценности, могут подготовить учащихся к открытости, осведомленности, терпимости и принятие других способов понимания жизни и историй о разных культурах может помочь объединить детей из разных стран мира». [3]

Эти мысли поддерживаются Гомесом (2010), который выражает следующее:

Использование историй интересно, так как дети знакомятся с другими культурами и социальными контекстах, отличных от их собственных, учащиеся поймут, что существуют разные точки зрения и поэтому они становятся более терпимыми и, наконец, осознают, что существуют другие культуры и каждый имеет свой собственный образ жизни.

Все это положительные аспекты, которые рассказывание историй может дать детям полезные изучения языка и это сослужит им хорошую службу в их будущей жизни.

**На что обращать внимание при выборе рассказов?**

В наше время существует очень много замечательных детских рассказов. Впрочем, не всех их уместно использовать в работе с детьми. Прежде чем выбрать что-нибудь, вот несколько особых характеристик, на которые следует обратить внимание, выбирая книгу для использования с младшими школьниками:

• слова и фразы, которые повторяются и помогают детям усваивать новые полезные выражения;

• наличие рифмы и / или подражания звукам природы и окружающей среды, которое поддержит понимание рассказа, а дети будут наслаждайся подражанием звуков;

• простая последовательность;

• предсказуемая или привычная сюжетная линия;

• иллюстрации, которые поддерживают понимание текста;

• интересные персонажи, с которыми слушатели / читатели могут идентифицироваться;

• юмор и оживленность;

• захватывающий конец с соответствующим выводом;

• интересное содержание, побуждающее и способное удержать внимание детей;

• четкий месседж или мораль;

• соответствующая длина для возрастной группы / уровня, или история, которую можно разбить на части;

• темы или содержание, связанные с учебной программой.

Бесспорно, различные книги с рассказами имеют различные характеристики, но все хорошие книги имеют ряд вышеупомянутых особенностей. Если, однако, после того, как выбрали историю, вы видите, что она не нравится вашим ученикам так, как вы предполагали, желательно адаптировать свой план работы или даже вообще отказаться от нее. Наиболее важной целью использования stories является развитие у детей понимания и наслаждения литературой. [4]

**Как использовать "storytelling" в обучении**

Сторителлинг — это не только пассивное слушание истории. Это интерактивная техника, где в дополнение к закреплению грамматических знаний, расширению словарного запаса и развитию навыков аудирования, происходит приобретение и проработка навыков разговорной речи путем обсуждения и разбора историй после прослушивания. Обучающимся предлагается обсудить прослушанный рассказ, высказать свое мнение, предсказать варианты развития событий с использованием активной лексики и грамматики урока.

Например: учитель начинает начало рассказа и даёт задание ученикам, что за определённое время они должны продолжить и закончить этот маленький рассказ. Это упражнение очень веселая и продуктивная, за определённое время ученики начнут выдумывать продолжение рассказа, используют активно своё воображение, вспомнять или же найдут новые слова и при этом усиливают свои навыки строении рассказов.

Преподаватель может начать рассказ так:

1. Вы становитесь персонажем любимой видеоигры и…
2. Инопланетянин прилетает на Землю и…
3. Вы узнаете, что являетесь наследником престола…
4. Ваш лучший друг избран президентом…
5. Вы получаете письмо по почте, в котором говорится, что вы выиграли 10 000 долларов. Что вы делаете?
6. Вы приходите домой из школы и обнаруживаете коробку на крыльце. Что внутри?
7. Ваша семья выиграла в лотерею…
8. В дождливый день кто-то постучался в дверь ..

Также имеется другие подходы проведение уроков с помощью сторителлинг на уроках иностранного языка в виде различных игр:

• История в коробке:

Соберите кучу случайных предметов в коробку. Затем отобразите содержимое для учащихся. Студенты должны придумать историю, основанную на всех предметах, которые находятся в коробке. Это можно сделать устно для младших школьников или написать письменный рассказ для детей постарше.

Во время этих действий по рассказыванию историй учащиеся иногда могут застрять. Полезно иметь несколько вопросов, которые помогут продвинуть историю вперед. Вот парочка для начала:

- Что ты видел?
- Что ты слышишь?
- Ты что-нибудь чувствуешь?
- Кто еще здесь?
- Как выглядит комната/пространство?

- Как вы себя чувствуете?

- Куда ты ушел?




• Раскрутить историю:

Раскрути историю , в которой участвует весь класс! Попросите учащихся сесть в круг. Один учащийся начинает рассказ с 2-3 предложений и передает вертушку соседу. Этот ученик будет вращать и добавит к рассказу несколько предложений. Продолжайте, пока все не закончат свою очередь! (если она подходит к концу или становится слишком глупой, можно начать новую историю)

Роль педагога в сторителлинге не ограничивается правильным выбором истории для нужного эмоционального отклика и повторением изучаемого вокабуляра. Преподавателю следует мотивировать учащихся также и во время самой игры для более интересного ее хода, подталкивая их к более активным и решительным действиям.

Сторителлинг в образовании — это создание эмоциональных связей, с помощью которых можно управлять вниманием учащихся, расставлять нужные акценты, заостряя внимание на важных вещах.

## Заключение

Результаты этого исследования указывают на сильную поддержку использования техники сторителлинга в качестве метода преподавания и

обучения. Когда учащиеся знакомятся с рассказыванием историй в классе, они активно участвуют в процессе обучения и практикуют рефлексивное обучение, поскольку они обрабатывают информацию на более глубоком и значимом уровне. Таким образом, метод сторителлинга способствует формированию у обучающихся коммуникативных навыков в различных ситуациях, накоплению активного словарного запаса и умению применять его, комбинировать и находить новые решения и, как следствие, вырабатывать уверенность во владении языком.

**Использованная литература:**

1. Sandro Echeverry. Storytelling as a strategy to improve speaking skill Gonzalez (2009; 98).
2. Begoña Illán Martínez Primary bilingual school teacher. A story-based approach to teaching English *//http://www.encuentrojournal.org/textos/Illan.pdf*
3. Sophie Ioannou-Georgiou and Pavlos Pavlou. Guidelines for CLIL Implementation in Primary and Pre-primary Education. First published in 2011; ISBN 978-9963-9058-1-2; Copyright © 2011 Ioannou-Georgiou and Pavlos Pavlou.
4. Юлия Чорна. Как работать с рассказами на занятиях английского? *//https://grade.ua/blog/uk*-how-to-use-stories-in-a-yl-classroom

## MOST COMMON PROBLEMS IN TRANSLATION

***To`rayeva Oydinoy***

*Andijan State Institute of Foreign Studies, Faculty of English Philology, Teaching Methodology and Translation Studies, student of the 2nd stage of guiding and interpreting activities.* Oydinoy1411@gmail.com

***Muxtarova Durdonaxon***

*Andijan State Institute of Foreign Studies, Faculty of English Philology, Teaching Methodology and Translation Studies, student of the 2nd stage of guiding and interpreting activities.*Muxtarovadurdona1608@gmail.com

***Toshpo'latova Nilufar***

*Andijan State Institute of Foreign Studies, Faculty of English Philology, Teaching Methodology and Translation Studies, student of the 2nd stage of guiding and interpreting activities.* Toshpolatovanilufargid@gmail.com.

***Anotation:*** *Just as in every field, there are several translation problems in the translation industry; some are faced by the translators, and some by the clients; while other ones may be considered structural problems because they pose a problem for translation itself. Structural variations between languages - cultural differences, compound words. In this article we will go through both the main structural problems in translation and the main challenges of translation faced by Translators, Clients and the Industry as a whole.*

***Анотатсия:*** *Как и в любой другой области, в индустрии перевода существует несколько проблем, с которыми сталкиваются переводчики и клиенты, а также структурные проблемы, которые могут представлять проблему для перевода в целом. Структурные различия между языками - культурные различия, сложные слова... В этой статье мы рассмотрим как основные структурные проблемы в переводе, так и основные проблемы, с которыми сталкиваются переводчики, клиенты и индустрия в целом.*

***Anotatsiya:*** *Har bir sohada, tarjima sanoati hamda uning muammolari mavjud. Ba'zi muammolar tarjimonlar tomonidan, ba'zilari mijozlar tomonidan yuzaga keladi, boshqalari esa tarjima o'zini muammoga qo'yadigan tuzilmavi muammolar sifatida ko'rsatilishi mumkin. Tillar orasidagi tuzilmavi farq - madaniy farqlar, qo'shma so'zlar. Bu maqolada biz tarjimada asosiy tuzilmavi muammolarni va tarjimonlar, mijozlar va sanoatning asosiy qiyinchiliklarini ko'rib chiqamiz.*

***Key words:*** *Structure of the Language , Cultural Differences, Compound Words, Verbs made up of two words, Missing Terms, Words with Several Meanings, Lack of Technical Knowledge, Limited Time, Personal Challenges, Quality Vs Expense/*

## 1. Structure of the Language

The structure of sentences in English and other languages may be different. This is considered to be one of the main structural problems in translation. The culture practised by the speakers of each language may also be vastly different. In many languages, certain terms may be completely absent… This

is one of the most common challenge faced by a translator on its daily basis, also one of the main reasons why translation is difficult.

For example, in English the adjective is placed before the noun, but in French the adjective comes after the noun. In Arabic and some other languages, the subject pronoun is part of the verb, and that determines the subject gender and the voice of the sentence.

**Solution: Limit your Expertise.**

Gain expertise only in a couple of languages that you are already well-versed with. Make use of grammar checkers, translation memory tools and other techniques to ensure that you have maintained the structure in the target language without changing the meaning or sense of the source document. Do you require adoption certified translation or adoption papers translated? Without any doubt, choose only the best. We translate adoption documents in only 24 hours at the best translation rates.

**2. Cultural Differences**

The culture practised by the speakers of each language may also be vastly different; Often, colloquialism is woven into formal language, making the translator's task very difficult indeed. The larger the region where the language is spoken, the more the dialects there are likely to be, and the more colloquial words you are likely to find – except in technical documents translations, legal document translations, or translations of medical transcripts.

**Solution: Research and Investigate**

Scan the internet to learn the most popular colloquialisms used in that language, and familiarise yourself with the most commonly used dialects. This can give you a fair idea when you need to translate. Soak in the culture as much as you can through movies, TV shows, magazines and books in that language. Movies and TV shows will be especially helpful in recognizing local culture and dialects.

**3. Compound Words**

A compund word is a combination of two or three nouns and adjectives. They could be closed of three forms – closed form, like notebook; hyphenated like long-distance, or open form like fighter pilot. Some compound words are pretty straightforward, and mean exactly what they say – like afternoon; some mean only

half of the term, like say bellboy, and some mean nothing of their original words – for example deadline. In such cases, it can get very tricky for the translator.

**Solution: Focus your Knowledge**

Any translator needs to choose their niche. You should not try to be jack of all trades; select one or two subjects, and become expert in them. Familiarize yourself with the compound words most commonly used in your subject area, and learn the translations. Use translation memory and other software to make your job easier.

**4. Verbs made up of two words**

In English there are several verbs that are made up of two words – usually, a combination of a verb and a preposition. For example: break up, break down, break into, break in, break off, break apart, break away; these all mean different things, though the common verb is break. Here the preposition which follows immediately after gives it a completely different meaning. It is highly unlikely that translating the two words into the target language will give you the same meaning!

**Solution: Avoid Literal Translation**

Think of finding an appropriate word in the target language for the phrase or the verb in its entirety rather than attempting a literal translation Translation Service A certified birth certificate translation is a legal document that is required for various legal processes like USCIS immigration requirement. Trust us to translate your birth certificate and you will get your birth certificate translation notarized and certified.

**5. Missing Terms**

Missing terms are very common translation issue. In some languages, certain terms may be completely absent – this has also to do with culture, as those objects may not be used by the people, or those actions or activities may not be permitted or simply not performed. This is a potentially difficult situation for the translator, and poses another important structural problem worth of discussion. Let's suppose the term child adoption has no related word in another language, because such a thing just doesn't take place in that area!

**Solution: It is best to confer with the Client**

In such cases it is best to confer with the client and then come to a decision as to the best course to take. They may suggest retaining the word of the source

document, or they may suggest a new term themselves, or may even ask you to come up with a newly coined term that gets as close to the actual meaning as possible.

**6. Words with Several Meanings**

There are several words in the English language that have different meanings based on the way they are used in the sentence. Words are sometimes spelled alike and pronounced alike, but have different meanings, like break (a plate) or take a coffee break. Words that have the same spellings but different pronunciations like to lead a conference, or a lead pencil.There are also words that have different spelling but have the same pronunciation, like break and brake, grate and great, and so on. There are hundreds of such words in English, and also idioms, metaphors, similes and so on. However, those words may be different in other languages.

**Solution: Read very carefully**

The translator has to be very vigilant, and carefully read the source text to fully grasp the meaning. Only after that should they begin the work of translation; otherwise, it can lead to embarrassing mistakes.ie. Translation problems.

**7. Lack of Technical Knowledge**

Regarding technical knowledge, translators are first and foremost, linguists; though they do have good knowledge of certain subjects, they are usually not the top experts in the field. In fact it's very rare that you find a say, doctor, who is also an expert linguist. Translators usually specialise in certain niches, and gain subject matter expertise. But sometimes that may not be enough for some types of specialized translation; some documents may be full of technical jargon, or talk about specific procedures or activities in detail. This can pose a problem for translators.

**Solution: Ask experts for help**

If the matter is very technical you may need a lot of time – more than usual, to complete the task. You could contact the client for some pointers if you're stuck, or consult a local expert you know well, and ask them for help. You would also need to read up and educate yourself to gain deeper knowledge, or to keep in step with the new developments happening in that field.

**8. Limited Time**

Limited time is the most common problem that translators face every single day, because most clients need the translated work quickly; they have no time to lose. If it is a straightforward document, then you may be able to finish it within the deadline. But when it is a technical or legal document full of technical terms or if there is a lot of dialect and colloquialism involved, it could take longer. This can be very stressful for you as a translator, when your client is breathing down your back to get the translated documents.

**Solution: Technology is your friend**

Use as many technologies as you can – translation memory software, computer aided translation software and more, to speed up the process as much as possible. These are the 10 Online Translation Tools Recommended By Translators. Other than that, the only thing you could do is put in a request for more time, right at the outset.

**9. Personal Challenges**

Personal Challenges, as opposed to linguistic challenges, are those arises because of the environment around the translator. All the challenges we discussed above are linguistic challenges.

There are many benefits on being a translator, but sometimes some of those benefits may also bring problems. For example, being a translator involves a very independent working schedule. This means you can work anytime you want, even from home, but you still have deadlines and time requisites. If you do not handle your working time correctly you might find yourself working 24/7. Apart from those, a translator may face several other challenges in their line of work. These include but are not limited to: proper internet access, competition from other translators, competition from machine translation, and the dilemma of pricing your services appropriately.

**Solution: Know yourself**

There is no one size fits all translation solution for these problems. Know yourself, dissect the problems of translation that we stated above and face them one by one. You will need to figure out how to get around each of these problems and do

your best to minimize them. As with many other problems in life, it helps to be disciplined and stablish a working routine and a schedule.

**10. Quality Vs Expense**

This is the most common translation problem faced by clients who need Translation Services: The biggest challenge for the client when facing a translation is to strike a balance between cost and quality. It is especially important in the case of translations of technical or medical manuals, or legal documents. You can barely afford to have any mistakes or near mistakes in such documents, as it could lead to misinterpretation by the readers and wrong usage – and that could result in damage to the equipment, or harm to the user; which could in turn have even further ramifications, like loss of reputation for the manufacturer, legal hassles and so on. Ergo, you want a very precise translation. This could lead to serious translation problems, and solutions must be found cautiously. However, the persons with expertise in such translations may be busy professionals who are much sought after, and they may charge high rates for these documents. In certain cases, the person or company in need of the translation may not have a very high budget for the same. This is a classic dilemma faced by the customer, so make sure you know how to evaluate the quality of a work of translation.

**Solution: Aim to be the Best Translator!**

There is no easy answer to this problem! Translating is a hard job, but remember there are also a lot of benefits of being a Translator! Here are some things you can try, though: Do a comprehensive search online, and shortlist a few providers. Get quotes from all of them and compare rates, experience and previous customer reviews. Strike a balance between the two, and come to a decision. Another things you could do is to use the same provider for all your translation work, so that you have more bargaining power. Translate Day provides Legal Documents Translation for all kinds documents. It has been able build an untarnishable trust with their prompt and accurate interpretation. It has become a fast rising player in the translation industry.

**Literature:**

1"13-Gripping Books About Language and Translation"
By: Author Will Heath . Posted on Last updated: 21st April 2021

2. "About Translation"  By Peter Newmark -1991
3. https://www.translateday.com/translation-problems-and-solutions/
4. https://www.smartling.com/resources/101/common-challenges-of-translation/

# JISMONIY TARBIYA VA SPORTDA DARSDAN TASHQARI MASHG'ULOTLARNI USLUBIY RIVOJLANTIRISH

***Arabjonov Shokirjon Shavkatovich***
*Andijon davlat universiteti. Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi kafedrasi o'qituvchisi*

***Annatatsiya:*** *Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha sinfdan tashqari ishlar o'quvchining har tomonlama rivojlanishining muhim jihati ekanligi, jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari, shaxsga fizik va ruhiy salomatlikni ta'minlashda katta ahamiyati va oliy o'quv yurtlarida o'qish jarayonida jismoniy madaniyatning shaxsni shakllantirish jarayoniga va kasbiy faoliyat turini tanlashga ta'sirini o'rganish va shunga o'xshash ma'lumotlar to'g'risida so'z boradi.*

***Kalit so'zlar:*** *Tarbiya, sport, Ehtiyojlar, Sinfdan tashqari, mashg'ulotlari, uslubiy.*

***Аннатация:*** *Речь идет о том, что внеурочная работа по физической культуре и спорту является важным аспектом всестороннего развития школьника, о большой значимости физической культуры и спорта в обеспечении физического и психического здоровья личности, об изучении влияния физической культуры на процесс формирования личности и выбор вида профессиональной деятельности в процессе обучения в высших учебных заведениях и аналогичных данных.*

***Ключевые слова:*** *Воспитательные, спортивные, потребности, внеклассные, учебные, методические.*

***Annatation:*** *It is about the fact that extracurricular work in physical culture and sports is an important aspect of the comprehensive development of a student, about the great importance of physical culture and sports in ensuring physical and mental health of the individual, about the study of the influence of*

*physical culture on the process of personality formation and the choice of the type of professional activity in the process of studying in higher educational institutions and similar data.*

***Keywords:*** *educational, sports, needs, extracurricular, educational, methodical.*

Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha sinfdan tashqari ishlar o'quvchining har tomonlama rivojlanishining muhim jihati hisoblanadi. Ular ma'lum ko'nikmalarni oshirish va rivojlantirish, fitnes va salomatlikni yaxshilash, ijtimoiylashuv va jamoa qurish uchun platformani taqdim etish imkoniyatlarini taklif qiladi. Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha sinfdan tashqari mashg'ulotlarni uslubiy jihatdan ishlab chiqish taklif etilayotgan mashg'ulotlarning sifatli bo'lishi va o'quvchilarga maksimal foyda keltirishi uchun muhim ahamiyatga ega. Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha sinfdan tashqari mashg'ulotlarni sifatli ishlab chiqish va amalga oshirish uchun quyidagi chora-tadbirlarni ko'rish mumkin:

1. Ehtiyojlarni baholash: Sinfdan tashqari faoliyatni rivojlantirishning birinchi bosqichi o'quvchilarning ehtiyojlari va qiziqishlarini baholashdan iborat. Ularni qaysi sohalar qiziqtiradi? Ular qanday ko'nikma va qobiliyatlarni rivojlantirmoqchi? Ushbu baholash so'rovlar, maslahatlar yoki fokus-guruhlar orqali amalga oshirilishi mumkin.

2. Maqsadni belgilash: Talabalarning ehtiyojlari va qiziqishlari aniqlangandan so'ng, sinfdan tashqari mashg'ulotlar dasturining maqsadlari belgilanishi mumkin. Ushbu maqsadlar aniq, o'lchanadigan va erishish mumkin bo'lishi kerak. Shuningdek, ular jismoniy tarbiya o'quv dasturining umumiy maqsad va vazifalariga mos kelishi kerak.

3. Rejalashtirish: Sinfdan tashqari tadbirlar dasturini amalga oshirish uchun yaxshi tuzilgan reja kerak. Ushbu rejada tadbirlar, vaqt jadvali, zarur resurslar va jalb qilingan xodimlar belgilanishi kerak. Shuningdek, u amalga oshirilishi kerak bo'lgan har qanday xavfsizlik choralarini ko'rib chiqishi kerak.

4. Xodimlarni tayyorlash: Sinfdan tashqari mashg'ulotlar dasturini amalga oshirishda ishtirok etadigan xodimlar etarli darajada o'qitilishi kerak. Talabalarga sifatli ta'lim va nazoratni ta'minlash uchun ular zarur ko'nikma va bilimlarga ega bo'lishi kerak.

5. Amalga oshirish: Sinfdan tashqari ishlar dasturini amalga oshirish yaxshi muvofiqlashtirilgan boʻlishi, tadbirlar reja asosida olib borilishi kerak. Talabalarning xavfsizligi ta'minlanishi va o'rganish, rivojlanish va zavqlanishni rag'batlantirish uchun tadbirlar tashkil etilishi kerak.

6. Baholash: Sinfdan tashqari tadbirlar dasturining muvaffaqiyati muntazam ravishda baholanishi kerak. Baholash qo'yilgan maqsadlarga erishish, ishtirok etish darajasi va dasturda ishtirok etayotgan talabalar va xodimlarning qoniqish darajasiga qaratilishi kerak.

Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari, shaxsga fizik va ruhiy salomatlikni ta'minlashda katta ahamiyatga ega. Bu yuqori faoliyatlarni bajarishning bir necha usullari mavjud, ammo odatda dunyoda amalga oshiriladigan usullar sportni va jismoniy tarbiyani hujjatlangan metodlar, o'zaro o'zgarishi yoki mashq turlari orqali rivojlantirish mumkin. Uslubiy rivojlanish esa, mashg'ulotlarni ozodligi, g'oyalar va maqsadlarga javob berishga erishishga yordam beradi. Asosan, uslubiy rivojlanish sportning zamonaviy usullari va yoshlarga qaraganda o'qitishi, jismoniy tarbiya va sport funksiyalarini bajarishni o'rgatish uchun muhimdir. Bu tarz usullar o'quvchilarni sportga qiziqish yaratishga, shaxsga yaxshi tajriba berishga, tashqi holatlarga qarshi qaramasdan rivojlantirishga, jannat va shamolga ishonishga olib keladi.

Oliy o'quv yurtlarida o'qish jarayonida jismoniy madaniyatning shaxsni shakllantirish jarayoniga va kasbiy faoliyat turini tanlashga ta'sirini o'rganish uchun insonning jismoniy holati va sog'lig'ini yaxshilash vazifasini qo'yadigan doimiy va vaqtinchalik sharoitlarni ham hisobga olish kerak. Ikkinchisiga jismoniy tarbiyaning ahamiyati va rolini hisobga olish kiradi.

Jismoniy madaniyat va sportning inson salomatligi, rivojlanishi va umumiy holati uchun ahamiyati juda katta. Kichik yoshdan boshlab ota-onalar, o'qituvchilar va ommaviy axborot vositalari - radio va televidenie o'zlarining bolalari uchun jismoniy faoliyatning noyob foydali tomonini ilhomlantiradilar va talab qiladilar va bolalarni sport bilan faol shug'ullanishga undashadi. Aynan shu yoshda sport odatda o'sayotgan organizmning to'g'ri va uyg'un rivojlanishini kuzatadigan tajribali murabbiylar va mutaxassislar nazorati ostida o'tkaziladi. Maktab yoshida bu rolni asosan maktabdagi jismoniy tarbiya o'qituvchilari bajaradilar. 16 yoshga

kelib, odamning o'zini anglashi etarlicha shakllanadi. Shu paytdan boshlab sport o'ynashning o'ynoqi tabiati shaxsni jismoniy tarbiya va sport unga olib keladigan barcha foydali va quvonchli narsalar to'g'risida jiddiy va to'liq xabardorlikka aylanadi. Ijobiy jihat shundaki, sport shaxslararo ko'nikmalarni rivojlantirishga hissa qo'shadi, komplekslar va ozodlikni yo'q qiladi; jismoniy faoliyat, faol harakat aqliy ishdagi muvaffaqiyatlarga juda foydali ta'sir ko'rsatadi, bu o'quvchilar va talabalar uchun ortiqcha bo'lmaydi. Shu bilan birga, ularning jismoniy imkoniyatlarini mustaqil ravishda baholash va shunga mos ravishda ularning kuchini to'g'ri hisoblash zaruriyati paydo bo'ladi. Kollejlarda o'qitiladigan jismoniy tarbiya predmeti insonning umumiy jismoniy holatida, sog'lig'i, jismoniy tayyorgarligi va jismoniy kamolotida yana bir qatlamni tashkil qiladi. Jismoniy tarbiya, birinchi navbatda, turli xil kasalliklarning oldini olish va birinchi navbatda gipertenziya va yurak-qon tomir kasalliklari. Ko'pincha texnik mutaxassislar tomonidan kuzatiladigan bunday kasalliklar uzoq muddatli davolanishni talab qiladi. Ammo, afsuski, bu har doim ham tuzalishga olib kelmaydi. Bu juda katta ta'sir ularning oldini oladi. Jismoniy mashqlar jarayonida kuchayadi. Bu narsa ma'lum bir vaqt ichida katta ishlarni bajarish qobiliyati ortib borayotganligidan dalolat beradi. Mushaklar dam olish holatida ish qobiliyatining oshishi bilan yurak urishi pasayadi. Biror kishi ko'proq ishlay boshlaydi, lekin kamroq charchaydi. Dam olish va, avvalambor, uyqu tanadan to'liq foydalanadi. Bizning talabalarimizning kasbiy faoliyati jismoniy mehnatni anglatadi, ya'ni bunday odam yaxshi jismoniy shakli va mukammal salomatligi bo'lishi kerak. Va bularning bariga muntazam ravishda sport va jismoniy tarbiya bilan shug'ullanish orqali erishishingiz mumkin.

Jamiyat rivojlanishidagi ushbu bosqichda samarali ishchi kuchiga ehtiyoj sezish bilan bog'liq bo'lgan jismoniy tayyorgarligi ahamiyati tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bundan tashqari, jismoniy madaniyat va sport bilan shug'ullanish odamga nafaqat jismoniy kamolot hissini beradi, balki unga kuch beradi va ruhini shakllantiradi. Bugungi jamiyat uchun zarur bo'lgan insonning axloqiy fazilatlari darajasini ko'taradi. Jismoniy madaniyat shaxsni shakllantirish jarayonida juda muhim ahamiyat kasb etadi, unga turli tomonlardan ta'sir etganda, u axloqiy fazilatlarni, ruhni shakllantiradi va jismoniy holatga ta'sir qiladi, hayotga

va mehnatga yangicha yondashuvni, hayotda va mehnatda yangi yutuqlarni rag'batlantiradi - bu ta'sir qiladi. jismoniy tarbiya.

Jismoniy madaniyat va sportning ahamiyati to'g'risida ongli ravishda xulosa qilish uchun inson uning hayotidagi rolini tushunishi kerak. Va agar u buni juda kech emas, tartibda tushunsa, juda yaxshi

sog'lom turmush tarzini boshlash.

Sport va jismoniy madaniyat nafaqat sog'lom turmush tarzi - bu odatda normal va sog'lom hayotdir, bu kuch va iqtidorlarni ro'yobga chiqarish uchun tobora ko'proq yangi imkoniyatlarni ochib beradi. Aqlli odam uning hayoti samarali bo'lishi, o'ziga va boshqalarga quvonch keltirishi uchun bu yo'lga kiradi. Hayotning progressiv ritmi ko'proq jismoniy faoliyat va fitnesni talab qiladi. Hayot davomida elkama-elka ortib borayotgan barcha yuklar jismoniy tarbiya orqali erishish uchun yanada yuqori jismoniy barkamollikni talab qiladi.

Uslubiy rivojlanishning asosiy imkoniyatlari quyidagilardir:

- hayotiy tarzda qisqa vaqt ichida mashg'ulotlarni amalga oshirish;
- maqsadlarni va g'oyalarni texnik fosh maqsadlardan qat'iy farq qilish;
- o'quvchilarga o'zlarini o'rganish, xavfsizlik, umumiy uslubni o'rgatish;
- turnik va sport qo'llanmalaridan yirikli mashqlarini amalga oshirishni o'rganish;
- yurish, qo'lda yurish va bezovta chizish va yuqori ko'chirishni o'rganish;
- ko'nikma va qo'nikma uchish va terilishning yo'llari, oyoq va qo'l ekinlari o'rganish;
- o'qituvchilar va ommaviy shaxslar bilan ustuvor savol-javob-suhbatlar tashkil etish.

Uslubiy rivojlanishning to'g'ri ishlaydigan usullari shaxsga amalga oshirilishi kerak bo'lgan mashg'ulotlarga asoslangan. Bu tarz yengilmas mashg'ulotlar o'quvchilar uchun oson, lekin yanada yaxshi tajriba olish huquqini beradi. Uslubiy rivojlanish mashg'ulotlari qanday bo'lsa bo'lmasa har doim shaxsga olg'a va sud bo'ladi, chunki bu tarz usullar ro'yxatdan o'tgan va ko'p yillik tajriba sahiblarining tomonidan to'g'ri ishlaydi. Shunga ko'ra, jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari olib borilishiga quloq solish va qo'shimcha mashqlarni amalga

oshirish uchun o'zingizning yo'nalishlaringiz va g'oyalaringiz haqida tasavvurgacha ko'rish barcha bosqichlarda foydali bo'ladi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, o'quvchilarning har tomonlama barkamol bo'lib yetishishida jismoniy tarbiya va sport bo'yicha sinfdan tashqari mashg'ulotlarni metodik jihatdan rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Yuqorida ko'rsatilgan bosqichlarni bajargan holda, maktablar o'quvchilarning jismoniy tayyorgarligini oshirish, muloqot qilish, sport va jismoniy mashg'ulotlarda o'z ko'nikma va qobiliyatlarini rivojlantirish imkoniyatini beruvchi sifatli dasturlarni ishlab chiqishlari va taqdim etishlari mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. https://hkls.ru/uz/partnyorki/nauchnye-stati-o-fizicheskoi-kulture-v-vuze-fundamentalnye-issledovaniya.html Talaba hayotidagi jismoniy tarbiya
Smirnova Veronika Yurievna

2. Talqin va tadqiqotlar ilmiy amaliy jurnali №3 2022 155-158-betlar JISMONIY TARBIYA FANINING O'RNI VA AHAMIYATI Sapoyev Sapo Komilovich Ismailov Anvar Otanazarovich

3. Kadirova, Zulayxo. "INTERNATIONAL LABOR MIGRATION POROCESSES IN UZBEKISTAN." Вісник Національної академії керівних кадрів культури і мистецтв 3 (2018).

4. Kadyrova, B. "The Concept of Historical Consciousness and its Interaction with Social Intelligence." European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences 8: 189-194.

5. Турғуновна, Қодирова Бузулайҳо, and Айнура Мархабаевна Бекжанова. "Бадиий асарлар воситасида бошланғич синф ўқувчиларида тарихий онгни шакллантириш методикаси." Образование 8.9 (2022): 10.

6. Turgunovna, Kodirova Buzuloikho. "Gaming technologies to improve the efficiency of the educational process." Web of Scientist: International Scientific Research Journal 3.02 (2022): 837-839.

7. Турғуновна, Қодирова Бузулайҳо, and Айнура Мархабаевна Бекжанова. "Бадиий асарлар воситасида бошланғич синф ўқувчиларида тарихий онгни шакллантириш методикаси." Образование 8.9 (2022): 10.

8. Кодирова, Бузулайхо Тургуновна. "ФОРМИРОВАНИЕ ВОСПРИЯТИЯ ПРОИЗВЕДЕНИЙ ИСКУССТВА В ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКЕ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ." EUROPEAN RESEARCH: INNOVATION IN SCIENCE, EDUCATION AND TECHNOLOGY. 2020.

9. Kadirova, B. "PSYCHOLOGICAL-PEDAGOGICAL AND METHODOLOGICAL FEATURES OF THE FORMATION OF HISTORICAL CONSCIOUSNESS IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS." harmony 3: 12.

10. Кодирова, Бузулайхо Тургуновна. "Специфика работы над художественно-историческим произведением в начальной школе." Вопросы науки и образования 7 (19) (2018): 213-215.

# ОРГАНИЗАЦИОННО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ПРИНЦИПЫ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ СПЕЦИАЛИСТОВ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ

***Болтабоев Хамидулло Хабибуллоевич***

*Наманганский государственный университет, доцент кафедры спортивной деятельности.*

***Аннотация:*** *Представлен ретроспективный, историко-педагогический аспект исследуемой проблемы; Анализируются взгляды современных ученых на сущность понятия «профессиональное образование»; рассмотрены особенности изучения проблемы в связи с образовательным процессом спортивно-педагогического вуза (факультета), представлены педагогические условия профессионального образования, в том числе ценностные основы, основные идеи, важные черты, закономерности и принципы. В модели профессионального образования будущих учителей физической культуры рассматривается сущность педагогических технологий в обучении студентов и раскрываются возможности наук педагогического цикла в обеспечении профессионального образования студентов учреждений физической культуры.*

***Ключевые слова:*** *Рамки ценностей, ключевые идеи, важные вещи, продукты и события, законы, принципы.*

***Annotation:*** *A retrospective, historical and pedagogical aspect of the problem under study is presented; The views of modern scientists on the essence of the concept of "professional education" are analyzed; the features of studying the problem in connection with the educational process of a sports and pedagogical university (faculty) are considered, the pedagogical conditions of professional education are presented, including the value bases, main ideas, important features, patterns and principles. In the model of professional education of future teachers of physical culture, the essence of pedagogical technologies in teaching students is considered and the possibilities of the sciences of the pedagogical cycle in providing professional education for students of physical culture institutions are revealed.*

***Keywords:*** *Framework of values, key ideas, important things, products and events, laws, principles.*

***Annotatsiya:*** *O'rganilayotgan muammo retrospektiv, tarixiy va pedagogik jihati taqdim etiladi; "Kasbiy ta'lim" tushunchasining mohiyatiga oid zamonaviy olimlarning qarashlarini tahlil qiladi; muammoni o'rganishning o'ziga xos xususiyatlari sport-pedagogika universiteti (fakulteti) o'quv jarayoni bilan bog'liq holda ko'rib chiqiladi, kasbiy ta'limning pedagogik shartlari, jumladan, qadriyat asoslari, asosiy g'oyalar, muhim xususiyatlar, qonuniyatlar va tamoyillar taqdim etiladi. Bo'lajak jismoniy madaniyat o'qituvchilarining kasbiy ta'lim modeli o'quvchilarga ta'lim berishda pedagogik texnologiyalarning mohiyati ko'rib chiqib, jismoniy tarbiya oliy ta'lim muassasasi talabalariga kasbiy ta'lim berishda pedagogik sikl fanlarining imkoniyatlari ochib beradi.*

***Kalit so'zlar:*** *Qadriyat asoslari, asosiy g'oyalar, muhim narsalar, mahsulotlar va hodisalar, qonuniyatlar, tamoillar.*

**Актуальность исследования**. Глубокое обновление всех сторон общественной жизни выдвинуло принципиально новые требования к фигуре современного специалиста физической культуры. Он должен быть неординарной, творческой личностью, носителем накопленных культурой интерсоциальных и профессиональных ценностей, глубоко владеющим методами психолого-

педагогический диагностики, прогрессивными технологиями организации образовательного и учебно-тренировочного процесса, искусством профессионального общения.

Остро назрела необходимость разрешения противоречий, характерных для современной высшей физкультурно-педагогической школы между:

- сложившейся практикой подготовки специалиста и целями современной системы образования;

- потребностью студента в получении образования на личностном уровне и нормативной заданностью образовательного процесса;

- потребностями социума в воспитании здорового поколения граждан страны и недостаточной профессиональной готовностью молодых специалистов к эффективному приобщению воспитанников к ценностям физической культуры и здорового образа жизни;

- субъективной ориентацией преподавателя вуза на социально зрелую и творчески активную личность студента и реальной неоднородностью её социального опыта, индивидуальных целей и жизненных программ.

Необходимость разрешения названных противоречий актуализирует проблему профессионального воспитания студентов и связанных с ней вопросов, целей, задач, структуры, управления, педагогических технологий.

Реализация непрерывного личностно ориентированного образования в условиях двухуровневой системы ВФПШ требует разработки соответствующих организационно-педагогических условий профессионального воспитания будущего специалиста физической культуры в современной системе высшего образования.

Актуальность исследования обусловлена целым рядом психолого-педагогических, социальных, экономических, организационно-управленческих, социально-валеологических факторов.

Социальные факторы обусловлены значением физической культуры как важнейшей сферы общественной жизни, без высокого уровня развития которой невозможно полноценное развитие общества, здоровье нации, и которая определяет необходимость высокого уровня профессиональной подготовленнности специалистов физической культуры.

Экономические факторы вызваны материальными потерями вследствие падения трудоспособности населения, что во многом обусловлено деятельностью непрофессионалов в сфере физической культуры.

Психолого-педагогический аспект актуальности исследуемой проблемы обусловлен задачами гуманизации физкультурного образования, его ориентацией на создание условий для максимального раскрытия возможностей каждой личности, её индивидуально-творческого развития, подготовку физкультурно-педагогических кадров, обладающих уникальным, неповторимым стилем педагогической деятельности, развитым профессиональным самосознанием, высоким духовно-творческим и нравственным потенциалом, направленностью на постоянное самосовершенствование и творческую самоактуализацию.

Обозначенные проблемные вопросы актуализируются поставленной Президентом Республики Узбекистан важно задаче - профессионального самоопределения, становления и самореализации: «Думаю, нет необходимости говорить о том, что все, что делается в этом направлении, в конечном итоге должно находить свое отражение в создании необходимых условий для того, чтобы каждый молодой человек, вступающий в самостоятельную жизнь, мог реализовать самого себя, свои знания и способности».

**Степень разработанности проблемы.** Специальных исследований, направленных на разработку концептуальных основ и условий профессионального воспитания специалистов физической культуры, до настоящего времени проводилось не много. Анализ соответствующих научно-педагогических источников показал, что проблема подготовки будущего профессионала в образовательной сфере исследовалась многоаспектно.

Вопросы, посвященные роли учителя в обществе, методологии и теории развития его личности, проблемам совершенствования образовательного процесса и профессиональной подготовки педагога посвятили раскрыты в трудах А.Абдукодирова, О.А. Абдулиной, Н.Н.Азизходжаевой, У.Бегимкулова, В.А.Беликова, П.П.Блонского, В.Л. Беспалько, А.А. Вербицкого, С.Г.Вершловского, В.И. Горовой, Р.Джураева, С.Б. Елканова, У.Иноятова, В.А.Кан-Калика, Н.В.Кузьминой, Ю.Н.Кулюткина, Ш.Курбанова, А.В.Мудрика, Н.Муслимова, Н.Д. Никандрова, Х.Рашидова, Т.И. Рудневой, Н.Саидахмедова,

Э.Сейтхалилова, В.А.Сластёнина, В.Э.Тамарина, Н.Ф.Талызиной, У.К.Толипова, И.К. Шалаева, С.Т.Шацкого, А.И.Щербакова, Ф.Р.Юзликаева, Ж.Юлдашева и др.

Отдельные аспекты проблемы воспитания будущего специалиста физической культуры, а также, посвященные проблемам организации, управления физическим образованием молодёжи, работы, отражающие проблемы реформирования системы образования, её гуманизации, направленности на развитие и самореализацию личности, на формирование профессионального мастерства и профессиональной культуры специалиста исследовали А.Абдиев, Л.Р.Айрапетьянц, Ж.Акрамов, Ю.П. Азаров, В.Е. Алексеев, Б.А. Ашмарин, Г.Б. Бабушкин, Н.К. Бакланова, В.К. Бальсевич, Л.И. Беляева, В.Л. Бенин, П.А. Виногадов, Н.Ф. Гейжан, А.Г. Гостев, А.Н. Двоеглазов, А.М. Дикунов, М.Е. Дуранов, В.И. Жолдак, Э.Ф. Зеер, И.Ф. Исаев, В.В. Ким, С.С. Коровин, Л.М. Кустов, Л.Н. Ильина, К.М. Куликов, Л.П. Матвеев, Ф.Керимов, К.М. Левитан, Р.А. Литвак, А.Я. Наин, Л.Д. Неверкович, Л.И. Пономарёв А.Ф. Попова, Р.Саламов, Э.Сейтхалилов, Т.Н. Сериков, В.И. Сиваков, О.А. Сиротин, Т.Усманходжаев, Н.А. Фомин, А.Хамракулов, Т.П. Южакова и др.

Накопленный материал, выделенная совокупность противоречий позволяют сформулировать проблему исследования: каковы теоретические основы профессионального воспитания будущих специалистов физической культуры в условиях двухуровневой системы вузовского образования.

Актуальной проблемой в ходе реализации Национальной программы по подготовке кадров становится формирование высокого духовно-нравственного, демократического потенциала у подрастающих поколений. В этой связи в своем докладе на 9-й сессии Олий Мажлиса Президент Узбекистана И.Каримов отметил: «... каждое государство, каждая нация сильны не только своими подземными и наземными природными богатствами, военной мощью и производственным потенциалом, но в первую очередь - своей высокой культурой и духовностью».

Актуальность данной проблемы обусловливается также необходимостью безусловного исполнения закона Республики Узбекистан «Об образовании» и «О Национальной программе по подготовке кадров», «О физической культуре и спорте», а указанное направление решения проблемы, задаче, поставленной

Президентом Республики Узбекистан И.А.Каримовым в докладе на заседании Кабинета Министров, посвященном итогам социально-экономического развития страны в 2009 году и важнейшим приоритетам экономической программы на 2010 год: «Мы ставим перед собой цель – создать необходимые возможности и условия для того, чтобы наши дети росли не только физически и духовно здоровыми, но и всесторонне и гармонично развитыми людьми, обладающими самыми современными интеллектуальными знаниями, людьми, в полной мере отвечающими требованиям XXI века, в котором им предстоит жить и трудиться».

Изложенное обусловило выбор **темы** диссертационного исследования: «Организационно-педагогические условия профессионального становления будущих специалистов физической культуры».

**Связь диссертации с планами НИР**. Диссертационное исследование выполнено в рамках научно-технологической разработки "Организация, содержание и управление процессом подготовки физкультурно-педагогических кадров" Сводного плана НИР Узбекского государственного института физической культуры и Наманганского государственного университета по проблеме «Формирование личности физкультурно-педагогических кадров в процессе двухуровневого высшего образования».

**Цель исследования:** научное обоснование и разработка педагогических условий профессионального воспитания будущих педагогов физической культуры в условиях двухуровневого высшего образования.

**Объект исследования:** профессиональная вузовская подготовка будущего специалиста физической культуры.

**Предмет исследования**: процесс профессионального воспитания студентов физкультурно-педагогического вуза (факультета).

Исходя из цели и предмета изыскания, была выдвинута **следующая гипотеза исследования.** Эффективность процесса профессионального воспитания студентов физкультурно-педагогического вуза (факультета) обеспечивается при условии реализации следующих положений:

- профессиональное воспитание рассматривается как процесс приобщения студента к профессиональным, интерсоциальным ценностям, ценностям

физической культуры и имеет целью формирование основ профессонально-педагогической культуры будущего специалиста;

- механизмы, содержание процесса профессионального воспитания будут основываться на объективных закономерностях, вытекающих из них принципах, отражающих единство этого процесса;

- управление процессом профессионального воспитания осуществляется поэтапно, и обеспечивается соблюдением соответствующих педагогических условий;

- преподавание педагогических дисциплин осуществляется при условии направленности его содержания, форм и методов на построение системы жизненных и профессиональных ориентации студента, освоения им необходимых воспитательных технологий, развития творческой индивидуальности как высшего уровня профессионально-педагогической культуры;

- имеется оптимальное научно-методическое обеспечение воспитательного процесса: средства, технологии, методические разработки, учебные программы.

В соответствии с целью исследования и его гипотезой, решались **следующие задачи.**

1. Выявить закономерности и принципы построения процесса профессионального воспитания в условиях двухуровневой профессиональной подготовки физкультурно-педагогических кадров.
2. Разработать модель системы профессионального воспитания студентов и определить возможности дисциплин педагогического цикла в профессиональном воспитании студентов.
3. Выявить педагогические условия и критерии эффективности профессиональной воспитанности студентов.
4. Разработать и экспериментально апробировать организационно-педагогические условия профессионального воспитания студентов в процессе изучения дисциплин педагогического цикла.

**Методологическая основа исследования** базируется на:

- Конституции и законах Республики Узбекистан "Об образовании", "О Национальной программе по подготовке кадров", «О физической культуре и спорте», других директивных и нормативных документах,

регламентирующих организацию и управление системой образования в Республике Узбекистан; принципах и положениях национальной идеи, роли и функциях системы образования в соответствии с Национальной программой по подготовке кадров, физической культуры и спорта в ее реализации;

философских положениях о системной взаимосвязи и взаимообусловленности явлений окружающего мира; о диалектическом единстве социального и индивидуального; об образовании как системе, обеспечивающей трансляцию социального опыта и ценностей культуры, о диалектическом соотношении единичного, общего и особенного; о развитии личности и определяющей роли деятельности в этом процессе.

Общенаучная методология ориентирована на системный подход, обеспечивающий целостное рассмотрение профессионального воспитания как многоаспектного явления. В качестве соподчинённых системному анализу использованы деятельностный, личностный, аксиологический, культурологический подходы.

Теоретической основой исследования явились: методология современной педагогики; концепция личностно ориентированного общего и профессионального образования); представления о трёх взаимосвязанных сторонах педагогического процесса; обучения, воспитания и развития; профессионального становления личности педагога (; теоретические положения о роли физической культуры в развитии личности, о сущности физкультурного воспитания, о ценностных началах здорового образа жизни и путях его стимулирования.

**Ведущей идеей исследования** является теоретическое положение о профессиональном воспитании как социально-педагогическом процессе, в ходе которого осуществляется трансляция и усвоение будущими специалистами системы интерсоциальных, профессионально-педагогических и физкультурно-оздоровительных ценностей, опыта, а результатом выступает нормативно заданный уровень профессионально-педагогической культуры.

**Научная новизна исследования.**

1. Разработаны условия профессионального воспитания будущих специалистов физической культуры, включающая ценностные основания, ключевые идеи,

сущностные характеристики, закономерности и принципы.

2. Разработана модель функционирования системы профессионального воспитания в вузе физической культуры в процессе преподавания цикла педагогических дисциплин.
3. Выявлены педагогические условия и критерии эффективности профессиональной воспитанности студентов.
4. Спроектированы и разработаны технологии профессионального воспитания студентов вуза физической культуры.

**Теоретическая значимость исследования состоит в следующем**:

а) выявлены и реализованы закономерности профессионального воспитания студентов вуза физической культуры, к которым относятся: социально-профессиональная обусловленность процесса профессионального воспитания в вузе; взаимосвязь профессионализации, социализации и индивидуализации личности студента в процессе профессионального воспитания;

б) обоснованы и реализованы принципы: свободы выбора; единства индивидуализации и дифференциации; профессионально-педагогической направленности образовательного процесса в вузе физической культуры; непрерывности и преемственности; демократизации отношений преподавателей и студентов; педагогической рефлексии; самореализации личности в процессе профессионального воспитания; аксиологической направленности; двухуровневости структуры профессионального воспитания.

**Практическая значимость работы** определяется тем, что содержащиеся в ней теоретические положения и выводы позволили разработать и внедрить в образовательный процесс вуза физической культуры учебные пособия и программы, методические разработки и рекомендации, которые направлены на решение проблем профессионального воспитания. Результаты исследования послужили основой для написания рекомендаций, которые адресуются студентам, педагогам, стажерам исследователям и научным работникам психолого-педагогического и физкультурно-оздоровительного профиля.

Материалы и рекомендации, опубликованные по результатам исследования, могут также применяться в практике подготовки специалистов не только в области физкультурного образования, но и других направлений.

Разработанные в исследовании исходные положения дадут преподавателю вуза необходимые теоретические и методические представления о процессе профессионального воспитания в условиях двухуровневой подготовки специалиста в вузе, и предлагают соответствующие педагогические технологии.

**На защиту выносятся следующие положения:**

1. Условия профессионального воспитания, включающая ценностные основания, ключевые идеи, сущностные характеристики и педагогические закономерности.

2. Модель системы профессионального воспитания, которая включает цели, задачи, компоненты, способы, этапы, организационные формы, логику системных связей.

3. Комплекс педагогических условий, обеспечивающий эффективное функционирование системы профессионального воспитания специалиста физической культуры в процессе преподавания цикла педагогических дисциплин, включающий: а) создание ситуаций выбора на каждом этапе профессионального воспитания; б) дифференциацию целей, задач, и содержания профессионального воспитания с учётом индивидуальных особенностей студентов; в) направленность образовательного процесса на решение задач профессионального воспитания, на построение системы профессиональных отношений; г) построение процесса профессионального воспитания на основе ведущей роли в нём программы самореализации и саморазвития личности будущего специалиста; д) обеспечение преемственности содержания, форм, методов профессиональной подготовки между этапами профессионального воспитания; е) организацию сотрудничества на основе взаимного доверия, диалога, установление субъект-субъективных отношений преподавателя и студентов; ж) ориентацию студентов в ценностях будущей профессиональной деятельности; з) построение содержания курсов педагогических дисциплин с учётом ориентации на самопознание, саморазвитие, способности к самоанализу, разрешению внутренних конфликтов построение позитивных жизненных и профессиональных перспектив; и) разработанность теоретических, и методических основ на каждом этапе профессионального воспитания.

**Достоверность и обоснованность научных результатов** обеспечены чёткостью методологических позиций, глубоким теоретическим анализом

проблемы, широтой и разносторонностью экспериментального исследования, адекватных его объёму, цели, задачам, и логике, достаточной длительностью и возможностью повторения педагогического эксперимента, позволивших провести количественный и качественный анализ его результатов, репрезентативностью объёма выборок и статистической значимостью полученных данных.

**Личное участие автора** выражается в получении научных результатов разработкой и обоснованием основных концептуальных положений исследования, программы и методики эксперимента, непосредственным руководством и участием в проведении экспериментальной работы.

**Апробация и внедрение результатов изыскания.** Основные результаты исследования найдут отражение в научно-методических рекомендациях, учебных программах, статьях, докладах, тезисах. Материалы диссертации доложены и обсуждены на международных, республиканских и региональных научных и научно-практических конференциях по проблемам профессиональной подготовки работников образования. Результаты исследования используются в систематических курсах лекций для студентов; в лекциях для слушателей повышения квалификации кадров; в выступлениях на методологических семинарах, а также в педагогической периодике.

**Практическое внедрение** результатов изыскания осуществлено в процессе подготовки будущих специалистов физической культуры путем разработки учебных планов, программ базовых и специальных курсов, научно-методических рекомендаций для практических педагогов.

## ЛИТЕРАТУРА

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги "Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида"ги ПФ-4947-сонли Фармони. // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 6-сон, 70-модда.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Жисмоний тарбия ва оммавий спортни янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида" ги 2017 йил 3 июньдаги ПҚ-3031-сон Қарори. // "Халқ сўзи" газетаси, 2018 йил 15 май.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 29 апрелдаги "Ўзбекистон Республикаси халқ таълими тизимини 2030 йилгача

ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида"ги ПФ-5712-сон Фармони. //http://lex.uz/pages/.
5. Виленский, М.Я. Физическая культура в научной организации учебного труда студентов: Учебное пособие — М.: Прометей, 1998.
6. Виноградов, П.А. Основы физической культуры и здорового образа жизни: Учебное пособие — М., 1999.
7. Голощапов, Б.Р. История физической культуры и спорта — М., 2001.
8. Habibulloyevich Boltaboyev Hamidullo. "the importance of travel and tourism in forming a healthy lifestyle in primary class students." образование наука и инновационные идеи в мире 18.8 (2023): 3-8.
9. Khabibullayevich, Boltaboev Hamidullo. "Theoretical foundations of a healthy lifestyle, physical education and physical activity of pupils." European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol 7.12 (2019).
10. Boltaboyev H. The theoretical foundation of a healthy lifestyle, physical education and physical activity of pupils //european journal of research and Reflection in educational science in Voles. – 2019. – T. 7. – n. 12.
11. Boltaboyev H. The opportunities for independence: traditions and renewed postmodernism //Ghafur Ghulam publishing house. – 2006.
12. Boltaboyev H look at the physical health lifestyle b. k. a new culture of student youth //Konferentsii. – 2020.

## MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYANING MAZMUNI

***Qosimov Xamidullo Abduqaxxor o'g'li***

*Namangan davlat universiteti Yuridik fakulteti Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi M.AU-21 guruh talabasi*

*Ilmiy rahbar: Namangan davlat universiteti Milliy g'oya va huquq ta'limi kafedrasi dotsenti.* ***Temurbek Islomovich Ismoilov***

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqola ma'naviy-axloqiy tarbiya mazmunida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni tiklash, yoshlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyasining muhim masalalari, ijtimoiy munosabatlar o'zgarishi bilan shaxsning ma'naviy*

*qiyofasi, yangi dunyoqarash, g'oya va tasavvurlari, jumladan, axloqi ham, shuningdek, unga bo'lgan qarashlari ham o'zgarib borishi haqida ma'lumotlar berilgan.*

***Kalit so'zlar:*** *Ma'naviy fazilatlar, axloq, yoshlar, madaniyat, intiluvchanlik, tashabbuskorlik, tashkilotchilik, qadriyat, insoniylik.*

***Аннотация:*** *В данной статье речь идет о восстановлении национальных и общечеловеческих ценностей в контексте духовно-нравственного воспитания, важных вопросах духовно-нравственного воспитания молодежи, духовном облике человека с изменением общественных отношений, новой мировоззрение, идеи и представления, в том числе этические, а также сведения об изменении взглядов на него.*

***Ключевые слова:*** *Духовные качества, нравственность, молодежь, культура, стремление, инициатива, организованность, ценность, человечность.*

***Abstract:*** *This article deals with the restoration of national and universal values in the context of spiritual and moral education, important issues of spiritual and moral education of young people, the spiritual image of a person with the change of social relations, a new worldview, ideas and imaginations, including ethics. as well as information about changes in their views towards him.*

***Key words:*** *Spiritual qualities, morality, youth, culture, aspiration, initiative, organization, value, humanity.*

*"Axloq har bir kishi uchun o'z-o'zini idora qilish ilmidir"*

*Abu Ali Ibn Sino*

Bugungi kunda har bir yosh avlod uchun ta'lim muassasalari moslashish, axloq va ko'rsatmalarni shakllantirish muhiti hisoblanadi. Aynan yoshligida bola ijtimoiylashadi, ma'naviy va aqlan rivojlanadi, muloqot doirasini kengaytiradi, shaxsiy xususiyatlarini namoyon qiladi, uning ichki dunyosini belgilaydi. Yoshlik, odatda, shaxsiy va ma'naviy fazilatlar shakllanadigan vaqtdir, Shuni takidlash joizki, madaniy, oilaviy, ijtimoiy va tarixiy an'analar orqali avloddan avlodga o'tib kelayotgan xalqning milliy qadriyatlari tayyorlangan o'quv dasturida belgilanadi. Tarbiyaning asosiy maqsadi – doimiy yangilanib turish va takomillashtirish

sharoitida insonning axloqiy va ma’naviy rivojlanishi. Bu quyidagi vazifalarni belgilaydi: Bolaga o‘zini rivojlantirishda, o‘zini tushunishda, oyoqqa turishda yordam bering. Bu har bir o‘quvchining shaxsiyatini rivojlantirishga, uning o‘ziga xos fikrlash turi va umumiy dunyoqarashini anglashga hissa qo‘shadi. Darslar davomida o‘qituvchi nafaqat ta’lim va tarbiya ishlarini olib borishi, balki tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatishi ham shart. Xuddi shu qoida konsepsiyada ham belgilangan. Trening asosiy va qo‘shimcha darajalarda o‘quv fanlarini o‘qitish jarayonida ta’lim muammolarini hal qilishni o‘z ichiga oladi.

Gumanitar va estetik sohalar bilan bog‘liq bo‘lgan fanlar ma’naviy-axloqiy fazilatlarni rivojlantirish uchun eng mos keladi. Ammo ta’lim faoliyati boshqa fanlarga ham tatbiq etilishi mumkin. Yoshlarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda mahalla nuroniylarining o‘rni juda kata ahamiyat kasb etadi. Birinchi prezidentimiz ta’kidlaganlaridek: “Yangi jamiyat bunyodkori bo‘lmish yangi insonni tarbiyalashda hozirgi paytda mahallalarimizda samarali faoliyat olib borayotgan, bu noyob tuzilmani tom ma’noda o‘zini o‘zi boshqarish idorasiga aylantirishga katta hissa qo‘shib kelayotgan mahalla oqsoqollari va faollari, fuqarolar yig‘inlarining diniy ma’rifat va ma’naviy-axloqiy masalalar bo‘yicha maslahatchilarining ijobiy ta’siri tobora ortib bormoqda. Aynan ana shu insonlarning odamlar ko‘ngliga yo‘l topib, ularning dardu tashvishiga sherik bo‘lib, o‘z vaqtida berayotgan amaliy yordamlari, to‘g‘ri va o‘rinli maslahatlari tufayli oila va mahalla muhitida, butun diyorimizda tinchlik va osoyishtalik, o‘zaro mehr-oqibat tuyg‘ulari kuchayib borayotganini el-yurtimiz yuksak qadrlaydi. Ayniqsa, yosh yigit va qizlarimizning mustaqil hayotga kirib borishi, yosh oilalarning jamiyatdan o‘ziga munosib o‘rin topishida bu fidoyi va mehribon, jonkuyar odamlarning qanchalik muhim rol o‘ynayotganini hurmat bilan e’tirof etishimiz lozim.”[1] O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan so‘ng ta’lim-tarbiyaning mazmuni va mohiyatida, usullari va shakllarida jiddiy o‘zgarishlar ro‘y berdi. Ta’lim-tarbiyada milliy qadriyatlami shakllantirish va rivojlantirish asosiy o‘rinni egalladi. Tariximiz, madaniyatimiz, milliy urf-odatlarga e’tibor kuchaydi. Ma’naviy-axloqiy tarbiya mazmunida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni tiklash masalasining kun tartibiga qo‘yish zaruriyatining yuzaga kelganligi munosabati bilan tub o‘zgarishlar yuz berdi. Shu bois milliy va umuminsoniy qadriyatlarda uni mazmunli, o‘zgalar va o‘zining hayoti

ma'nosini anglagan holda o'tkazish kerakligi haqida ko'plab rivoyat, hikmat va pand-nasihatlar mavjud. Ma'naviy-axloqiy tarbiya tizimida ma'naviy-axloqiy his-tuyg'ular inson tomonidan, uning voqea-hodisalar, kishilar hamda o'z xulqiga nisbatan his-tuyg'ularni uyg'otishga rag'bat paydo qiluvchi tarbiyaviy ishlar tizimli tashkil etilgandagina samarali kechadi. "Inson ijtimoiy hayotga aralashar ekan, ijtimoiy munosabatlar ta'siriga tushadi. Ijtimoty munosabatlar o'zgarishi bilan shaxsning ma'naviy qiyofasi, yangi dunyoqarash, g'oya va tasavvurlari, jumladan axloqi ham, shuningdek, unga bo'lgan qarashlari ham o'zgarib boradi. Har qanday shaxs o'z dunyoqarashi, axloqiy qoidalarini va ular ta'sirida shakllangan odat va ko'nikmalarini o'zlashtirib borishi bilan birga, aniq ijtimoiy voqealarga, o'zini o'rab olgan narsa va hodisalarga, kishilarning xatti-harakatlariga, yurish-turishlari va muomalalariga muayyan hayotiy mavqeda turib, maqsadga muvofiq tarzda baho beradi."[2] Ma'naviy-axloqiy xislatlarni shakllantirishga nisbatan ehtiyoj bo'lishi shart. Demak, ma'naviy-axloqiy tarbiyani tashkil etish jarayonida uyushtiriluvchi tadbirlar xulq-odobga doir xatti-harakatlar zanjiridan iborat bo'ladi. Ma'naviy-axloqiy xatti-harakatlar esa o'quvchi tomonidan axloqiy me'yor va tamoyillar mohiyatini o'rganish, ularni anglab yetishdan iboratdir. Yoshlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash konsepsiyasi umuminsoniy qabul qilingan xulq-atvor normalari va tushunchalarini kengroq qamrab oladi: Vatanga muhabbat va madaniyat, vatanparvarlik va jamiyat bilan birlik, milliy muqaddas narsalarga hurmat va ehtirom va boshqalar. Bugungi kun yoshlari sog'lom ma'naviy shaxsi ta'lim kabi erta asosiy sinflar emas o'z-o'zidan, lekin muntazam ravishda va muntazam ravishda ota-onalar va o'qituvchilar va qo'shma harakatlari sifatida amalga oshirilishi lozim. Axloqiy tarbiyani bir oila kabi erta boshlash kerak. Yosh avlodga turli fanlar asoslarini chuqur o'zlashtirish ularning tafakkuri va dunyoqarashini boyitishga, shuningdek, fuqaro sifatida o'z majburiyatlarini to'laqonli anglashlari uchun imkoniyat yaratishini tushuntirib borish maqsadga muvofiqdir. Fidoiylik, intiluvchanlik, tashabbuskorlik, tashkilotchilik, qat'iyat, matonat, uyushqoqlik kabi xislatlar yoshlarda fuqarolik tarbiyasini tashkil etishda tarbiyalanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. I.A.Karimov Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch Toshkent 2008-yil (82-83-betlar)

2. R.Mavlonova, N.Voxidova, N.Raxmonqulova "Pedagogika Nazariyasi va Tarixi" toshkent – 2010 (319-bet)
3. J.Hasanboev, M.Turopova, O.Hasanboeva "Ma'naviy-axloqiy tarbiya asoslari" G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti Toshkent-2000.
4. J.Hasanboyev, X.A.To'raquIov, I.Sh.Alqarov, N.O'.Usmanov "PEDAGOGIKA" (pedagogika nazariyasi va tarixi). "NOSHIR" Toshkent 2016
5. Muhammadjon Imomnazarov "Milliy ma'naviyat bosqichlari" Toshkent 2010
6. Tarbiyaning umumiy metodlari (tarbiyaviy.uz)
7. https://uz.cmcollections.com.ng
8. https://genderi.org/umumiy-pedagogika.

# ONA TILI DARSLARIDA O'QUVCHILARNING O'QUV-TA'LIMIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA SO'ZLARNING MA'NO NOZIKLIKALRINI FARQLASH

***Maxkamova Guluzroxon Abdumutalibovna***
*Andijon davlat pedagogika instituti*
*Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasi o'qituvchisi*

***Annotatsiya:*** *Maqolada ona tili ta'limida o'quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish muammolari nazariy tahlil etilgan, ya'ni o'quvchini oddiy kitob o'quvchidan chuqur mulohaza yurituvchi ijodkor kitobxon darajasiga ko'tarish,noan'anaviy metodlar orqali tevarak-atrof, tabiat haqidagi tasavvurini, dunyoqarashini kengaytirish, har qanday shakldagi matnni o'qish va uni tushunish, tanqidiy, kreativ fikrlash ko'nikmasini egallash nazarda tutiladi. Zero, ona tili darslarining asosiy vazifasi o'quvchilarni o'quv bilish faoliyatiga tayyorlash, boshqalar bilan suhbatga kirisha oladigan, o'z fikrini boshqalarga samarali tarzda etkaza oladigan avlodni shakllantirishdan iborat.*

***Kalit so'zlar:*** *Sifatli ta'lim, tayanch kompetensiya, nutqiy kompetensiya,fanga oid kompetensiya, o'qib tushunish, tinglab tushunish, yozish, qayta hikoya qilish, tanqidiy fikrlash, kreativ fikrlash, liderlik, tirishqoqlik.*

***Аннотация:*** *В статье теоретически проанализированы проблемы развития речевых компетенций учащихся в обучении родному языку, т. е.*

*предполагается поднятие читателя из простого читателя книги до глубоко созерцательного творческого читателя, расширение его восприятия, мировоззрения об окружающем, природе нетрадиционными методами, овладение навыками чтения и понимания текста любой формы, критического, творческого мышления. Ведь главная задача уроков родного языка состоит в подготовке учащихся к учебно-познавательной деятельности, формировании поколения, способного вступать в диалог с окружающими, эффективно донести свою мысль до окружающих.*

***Ключевые слова:*** *Качественное образование, базовая компетенция,речевая компетенция, научная компетенция, понимание прочитанного, понимание на слух, письмо, пересказ, критическое мышление, творческое мышление, лидерство, усердие.*

***Annotation:*** *The article theoretically analyzes the problems of the development of students' speech competencies in teaching their native language, i.e. it is supposed to raise the reader from a simple reader of the book to a deeply contemplative creative reader, expand his perception, worldview about the environment, nature by non-traditional methods, mastering the skills of reading and understanding the text of any form, critical, creative thinking. After all, the main task of native language lessons is to prepare students for educational and cognitive activities, to form a generation capable of entering into a dialogue with others, to effectively convey their thoughts to others.*

***Keywords:*** *Quality education, basic competence, speech competence, scientific competence, reading comprehension, listening comprehension, writing, retelling, critical thinking, creative thinking, leadership, diligence.*

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev tomonidan 2023-yilning "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili" deb e'lon qilinishi ta'lim sifatini oshirishda, Yangi O‘zbekistonni yana-da taraqqiy etishida ishonchli bo'lgan eng to'g'ri yo'l ekanligining isbotidir.

Ayni kunlarda ilmiy adabiyotlarda "kompetensiya", "kompetentlik", "kompetentli yondashuv" tushunchalari turlicha talqin qilinmoqda. O'quvchilarda o'quv-ta'limiy kompetensiyalarni shakllantirish uchun ta'lim texnologiyalarini

tanlashda fani o'qituvchisi taqvim mavzu rejada mazkur sinf uchun belgilangan tayanch kompetensiyalarni belgilab olishi va shundan so'nggina o'tiladigan mavzu va shakllantiriladigan kompetensiyalarni hisobga olgan holda dars tashkillashtiriladi. Kompetentlik shaxsning turli sohalarda olgan nazariy bilimlarini amalda qo'llay olish malakasidir. Xo'sh, nima uchun ona tili ta'limiga kompetentlik kiritilgan? Chunki bu jarayon nazariy bilimlarni kundalik hayotda, kasbiy faoliyatlarida qiynalmay foydalanishlarini ta'minlaydi.

Bugungi kunda 6-sinf ona tili darslariga qo'yilayotgan talablar, asosan, o'quvchining internet, televizor, radio, ko'rsatuvlardan turli zarur bo'lgan ma'lumotlarni topa olish, ulardan foydalana olish, qayta tahrirlash, saqlay olish, muttasil ravishda o'z-o'zini har tomonlama - jismoniy, ma'naviy rivojlantirish, kreativ fikrlash ko'nikmalari, kichik guruhlarda hamkorlikda ishlay olish, sinfdoshlari bilan muomala qila olish, o'zining fuqarolik burch va huquqlarini bilish, shaxsiy rejalar tuza olishidan tashqari, lingvistik va nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirishdan iboratdir.

O'quvchilarning o'zbek tilida so'z ma'nolarining o'sishi – ma'no kengayishi, ma'no torayishi, ma'no ko'chisi – haqidagi bilimlarni o'rganibgina qolmasdan, ulardan og'zaki va yozma nutqida to'g'ri foydalana olishlari, so'zlarning ma'no nozikliklarini his qilgan holda matnlar tuza olishlari, til imkoniyatlaridan foydalana olishlari, o'z fikrlarini erkin bayon qila olishlari, turli tanqidiy va tahliliy fikrlarini bayon qila olishlari, har bir ishga kreativ yondashishlari maktabda olingan bilimlarning kundalik va kelajakdagi hayotlarida qiynalmasligini, turli muammolar oldida esankirab qolmasdan ularga oson, to'g'ri yo'l topib chiqib keta olishlariga yordam beradi.

Ona tili darslarida turli mavzularni o'zlashtirish jarayonlarida so'zlarning ko'chma ma'nolarini, metafora, metonimiya, sinekdoxa, vazifadoshlik, kinoya, tagma'no, ibora, tasviriy ifoda, maqol va matallar haqidagi bilimlarini o'zlashtirishda, mustahkamlashda, takrorlashda qo'llaniladigan metodlar, ularning afzalliklari, o'quvchining tayanch, nutqiy hamda fanga oid kompetensiyalarini rivojlantirishi haqida misollar ko'rib chiqamiz.

5-sinf ona tili darsligidan "Donishmand va shogird" hikoyatidagi so'z haqidagi fikrlarga e'tibor qaratamiz.

Bir donishmanddan shogirdlari:

– Nima qilsak, tinch va rohatda umr kechiramiz? – deb soʻradilar.

Donishmand:

– Hech qayerda hech kimga biror soʻz soʻzlamang, sukut eting, – deb javob berdi.

Shunda shogirdlari:

- Axir,doim sukut etib yuraveramizmi, bu mumkinmi? Boshqacha yoʻl koʻrsating! – dedilar.

Donishmand maslahat berdi:

– Sukut eta olmasangiz, soʻzlang, lekin qisqa va ma'noli soʻzlang, ogʻzingizdan sira nojoʻya soʻz chiqmasin. Yomon soʻz tinglovchining dilini xira qiladi, bundan saqlaning.

Bayt:

Yaxshi soʻzdan koʻrasan mehr-u vafo, Nomunosib soʻzlasang, yetkay jafo.

Ha, til boʻlsa ham, boʻlmasa ham – boshga balo.

Shuning uchun donishmandlar soʻzni doriga oʻxshatadilar. "Ortiqchasi zarar keltiradi", – deydilar.

Hikoya tinglangach, oʻquvchilarning OʻQIB TUSHUNISH koʻnikmasi ustida ishlanadi. Oʻquvchilar matndan chiqargan xulosalari asosida savollarga oʻz munosabatlarini bildiradilar. Bu orqali oʻquvchilarning fikrlash, GAPIRISH koʻnikmalari shakllantiriladi.

Munosabat bildiring.

1. Donishmandning fikriga nima deysiz?
2. Sizningcha, soʻzni yana nimalarga oʻxshatish mumkin?

O'quvchilar xulosalari asosida o'z munosabatlarini so'zni turli o'xshatishlar asosida xulosalab quyidagi usul orqali mashqni bajaradilar.

**"Go'yo, xuddi, naq" usuli.**

Turli rasmlar ko'rsatiladi. Rasmda ko'rsatilgan buyumlardan biriga so'zni o'xshatadilar, sababini izohlaydilar. Darslikdagi o'xshatish bilan o'qituvchi o'yinni boshlab beradi. Masalan:

*Soʻz xuddi doriga oʻxshaydi, chunki uning ortiqchasi zarar keltiradi.*

*So'z xuddi gulga o'xshaydi, chunki uning ma'nolaridagi go'zallikdan zavq olaman.*

*So'z xuddi kitobga o'xshaydi, chunki uni ochganim sari, o'qiganim sari juda ko'p bilim olaman.*

*So'z xuddi televizorga o'xshaydi, chunki u orqali qalbimizni ko'ramiz.*

*So'z xuddi chiroqqa o'xshaydi, chunki u qalbimizga nur olib kiradi.*

*So'z xuddi stolga o'xshaydi. Zararli va foydali yeguliklar stolda turadi, ulardan sog'ligim uchuN foydalilarini tanovul qilaman. So'zning ham insonga foydalilaridan foydalanaman.*

*So'z xuddi soatga o'xshaydi, chunki u orqali vaqtimni to'g'ri taqsimlab ko'p foydali ishlarni qilishga ulguraman.*

*So'z xuddi pardaga o'xshaydi, chunki u orqali men o'zimni himoyalayman.*

*So'z xuddi suratga o'xshaydi, chunki u bizning qanday inson ekanligimizni turli ranglar orqali aniq ko'rsatib turadi.*

*So'z xuddi shkafga o'xshaydi, chunki unda hamma kerakli narsalar bor.*

*So'z xuddi divanga o'xshaydi, chunki so'zdan rohatlanaman.*

*So'z xuddi kompyuterga o'xshaydi, chunki undan hamma ma'lumotni topsa bo'ladi.*

*So'z xuddi tortmaga o'xshaydi, chunki undagi ma'nolar har doim ham ko'rinmaydi, e'tibor qilganingizdagina o'zida borini ochadi.*

O'quvchilarning fikrlari tinglanadi, ularni yo'naltirib turiladi, e'tiborga olinmayotgan suratlar haqida bildirib turiladi, hattoki suratda ko'rsatilmagan buyumlar ham eslanib ularga o'xshatishlar qilinadi. O'quvchilarning fikrlari



o'qituvchi tomonidan qo'shimcha fikrlar berilib xulosalanadi hamda rag'batlantiriladi.

6-sinf ona tili darsligi (11-bet) misolida:

Siz ona tilini nimalarga o'xshatgan bo'lar edingiz? Avvalo, o'qituvchi o'quvchilardan ona tili haqidagi fikrlarini so'raydi. Ularning javoblari tinglangach, qo'shimcha ma'lumotlar berib o'tadi. Ona tili har bir elat, xalq, millatning o'z tilidir… Quyidagi usul orqali o'quvchilar ona tili haqidagi bilimlarini mustahkamlab oladilar.

**"O'xshatdim" usuli**

Bu usulda o'quvchilar ona tilini turli o'quv qurollariga o'xshatadilar. Avvaliga o'xshatolmay turishlari mumkin. O'qituvchi o'quvchilarni yo'naltirib turadi.




O'quvchilarning javoblari taxminan shunday bo'lishi mumkin:

1. Men ona tilini kitobga o'xshatdim, chunki undan foydalanib ko'p ma'lumot olaman.

2. Men ona tilini daftarga o'xshatdim, chunki uning ko'ngli oq.

3. Men ona tilini kundalikka o'xshatdim, chunki u orqali turli yaxshi insonlarga baho qo'ya olaman.

4. Men ona tilini ruchkaga o'xshatdim, chunki undan foydalanib turli matnlar yozaman.

5. Men ona tilini o’chirg’ichga o’xshatdim, chunki u orqali xatolarimni to’g’rilayman.

6. Men ona tilini qalamdonga o’xshatdim, chunki unda turli sirlar yashirin, u orqali hayotimni go’zal rang

7. Men ona tilini globusga o’xshatdim, chunki u orqali turli davlatlarni o’rganaman.

8. Men ona tilini chizg’ichga o’xshatdim, chunki u orqali to’g’ri yo’l topaman.

9. Men ona tilini yelimga o’xshatdim, chunki u orqali yaxshi ilmli insonlar bilan birga bo’laman.

10. Men ona tilini qaychiga o’xshatdim, chunki o’z tilida to’g’ri so’zlashmagan insonlarga jazo beraman.

11. Men ona tilini bo’yoqqa o’xshatdim, chunki u orqali hayotimni go’zal ranglarda chiza olaman.

**“Go’yo, xuddi, naq”, “O’xshatdim” usullarining afzalliklari:**

- o’quvchilarda gapirish ko’nikmasi rivojlanadi;
- o’quvchining tasavvuri kengayadi;
- xonadonlaridagi har bir buyumga, ularning bajaradigan vazifalariga yana-da e’tiborli bo’ladi;
- fikrini erkin bayon qilishga o’rganadi;
- bir-birining fikrini tinglashni – tinglash madaniyatini - o’rganadi;
- ko’p ma’noli so’zlarning anglatayotgan ma’nolariga e’tiborli bo’ladi;
- ko’p ma’noli so’zlardan, mahorat bilan foydalanishga o’rganadi;
- so’zlarning ma’no nozikliklarini his qilgan holda ulardan foydalanishga e’tibor qiladilar.

Ko‘rinadiki, tilshunoslikda ma’no ko’chish usullari so’z ma’nolari o’sishi uchun muhim vositalardan biri hisoblanadi.

Xulosa shundayki, tilimizda so‘zlovchi yoki yozuvchi uchun fikr ifodalashda qulaylik tug‘diruvchi usul va vositalar ko‘p bo‘lsa-da, nutq jarayonida ba’zan so‘zlovchi o‘z kommunikativ maqsadiga erishishda qiyinchiliklarga duch keladi. U tomonidan tanlangan birliklar qo‘yilgan maqsadning to‘la amalga oshishini ta’minlay olmaydi. Ana shu ehtiyoj so‘zlovchi uchun nutq obyektini to‘la tasvirlashiga mos keluvchi lisoniy birliklarni metaforik tarzda qo‘llashi uchun

imkoniyat yaratadi. Yana shuni aytishimiz kerakki, Prezidentimiz ta’kidlaganidek, “Yangi O‘zbekiston – maktab ostonasidan, ta’lim-tarbiya tizimidan boshlanadi”. Shuning uchun, yosh avlodga zamonaviy sifatli ta’lim-tarbiya berish, ularni Vatanimiz ravnaqiga o‘z hissasini ko‘shadigan, milliy qadriyatlarimizni ko‘z qorachig‘idek asraydigan yoshlarni kamolga keltirish bizning asosiy vazifamiz hisoblanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ўзбек тилининиг изоҳли луғати. 5 томлик. 2-том. “Ўзбекистон Миллий Энсиклопедияси”. – Т.: 2006. – B.582.
2. Абдураҳмонов Х., Маҳмудов Н. Сўз эстетикаси. - Тошкент: Фан, 1981. –B. 38.
3. Маҳмудов Н, Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. – Т.: Ўқитувчи, 1995. – 232 б.
4. Мукаррамов М. Ўзбек тилида ўхшатиш. – Т.: Фан., - 1976. –B. 46.
5. Ona tili. Umumiy o’rta ta’lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2020. – B. 14.
6. Ona tili. Umumiy o’rta ta’lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. – B. 11.

# TERMINOLOGIK BILIMLAR BAZASINI SHAKLLANTIRISHDA PARALLEL KORPUSNING O`RNI VA VALENTLIK TUSHUNCHASI

***Toshpo‘latova Dilshoda Karimjanovna***
*Namangan davlat universiteti filologiya fakulteti 2- bosqich magistranti .*
*dilshodatoshpolatova88@gmail.com*

***Annotatsiya :*** *Ushbu maqolada tilshunoslik fanida valentlik tushunchasining qo‘llanilishi, valentlikning turlari va tushunchaga berilgan ta’riflar muhokamasi keltirildi. Shuningdek, huquqshunoslik faniga oid terminlar o‘zbek va ingliz tillari parallel korpusi orqali tahlil qilinadi. Terminlarning semantik strukturasi va sintaktik birikish imkoniyatlari o‘rganildi.*

***Kalit so‘zlar:*** *valentlik, leksik valentlik, semantik valentlik, sintaktik valentlik, majburiy va fakultativ valentlik, termin, terminografiya.*

***Abstract:*** *This article discusses the use of the concept of valence in the science of linguistics, the types of valence and the definitions given to the concept. Also, terms related to jurisprudence are analyzed through the parallel corpus of Uzbek and English languages. The semantic structure of the terms and the possibilities of syntactic comnonation were studied.*

***Key words****: valence, lexical valence, semantic valence, syntactic valence , obligatory and facultative valence, term, terminography.*

***Аннотация****: В данной статье рассматривается использование понятия валентности в языкознании , виды валентности и определения , данные понятию. Также через параллельный корпус узбекского и английского языков анализируются термины, относящиеся к юриспруденции. Изучена семантическая структура терминов и возможности синтаксического сочетания.*

***Ключевые слова:*** *валентность, лексическая валентность, семантическая валентность, синтаксическая валентность б обязательная и факультативная валентность, термин, терминография.*

## KIRISH

Mustaqil O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidcnti Islom Abdug'aniyevich Karimov : "Biz dunyodagi taraqqiy topgan davlatlar safiga kirishni maqsad qilar ekanmiz, avvalambor, olimlarimiz kam o`rganilgan, dolzarb muammolarni tadqiq qilishga kirishishi, ularning ilmi, obro'si olamda mashhur bo'lishi, jahon ilm-fanining yuksak mezonlariga mos bo'lishi darkor. Biz kuchlarni birlashtirmasak, ilmiy izlanishlar samaradorligini oshirmasak crishgan yutuqlarimizni mustahkamlay olmaymiz" [Karimov I. A. I994-y, 9 –iyun] degan jumlalari bilan zamonaviy tilshunoslik oldida turgan ulkan ishlar mavjudligini ta`kidlagan edilar.

Til tizimining asosiy birligi hisoblangan so`zni har tomonlama o`rganish hozirgi zamon tilshunosligining asosiy vazifalaridan biridir.

Valentlik tushunchasi aslida kimyoviy termin bo'lib, uning zamonaviy tilshunoslikda qo'llanilishi, so'zlarning birikish imkoniyatlarini ko'rsatib beradi.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODIKA

"Valentlik " aslida kimyoviy atama bo`lib,lotincha "valentia" so`zidan olingan bo`lib, "quvvat", "kuch" degan ma`noni anglatadi. Kimyo fanida bir element atomining boshqa element atomi bilan birika olish xususiyatini ifodalaydi. Masalan, kislorod (O) ikki valentli hisoblanadi chunki u ikkita vodorod (H) atomi bilan to'yinadi va bu birikuv natijasida suv ($H_20$) hosil bo`ladi.

"Valentlik" tushunchasi tilshunoslikka o'tgan asrning 40 –yillarida kirib keldi. Ilk marta S. D. Kasnelsonning 1948 –yilda yozilgan "О грамматической категории " asarida lingvistik termin sifatida qo'llaniladi. Lingvistikada bu atama leksemaning boshqa leksema bilan birika olish qobiliyatini ko'rsatish uchun ishlatiladi. Valentlik nazariyasi tildagi so`zlarning semantik, sintaktik, funksional faolligini o`rganishga asoslanib paydo bo'ldi. So`zlarning nutqda birikib kelishi mutlaq hodisa emas, balki nisbiydir. Chunki so'zlar grammatik model taqazo etgan har qanday so`zlarga emas, balki ulardan ba'zilariga birikadi .[ Qo`chqortoyev I.,1973:73] . Demak, so'zlarning o'zaro birikish imkoniyati chegaralangan bo'lib, bu har bir so'zning ma'no imkoniyati bilan o'lchanadi. Aniqrog'i, birikuvchi so`z sememalarining semalar tarkibida shu sememalarni biriktirish qobiliyatiga ega, har ikkala sememaga umumiy xos semantik komponentlar (klassemalar) bo`lib, semantik sintagma sememalari shu semalar orqali o'zaro birikadi, mantiqiy munosabatga kirishadi .[ Апресян Ю. Д., 1974: 79]. Ko'rinadiki, so'zlar ba'zi so'zlar bilan semantik birikib, sintaktik konstruksiyani hosil qilsa, boshqa so'zlar bilan faqat lisoniy fakt, nominativ birlik xarakteriga egaligi bilangina umumiylikni hosil qiladi, ya'ni ular o'zaro mantiqiy aloqaga kirishmaydi. Bunday munosabatga kirishganda ham, bu faqat sun'iy, shaklan bo`lib, obyektiv turlicha faktlar bilan tasdiqlanmaydi. Qiyoslang: semiz xolodilnik, to'rtburchak velosiped, odamni o'qimoq kabilar . [Rasulov R., 2020]. Lekin bu termin ustida xilma- xil qarashlar mavjud.So'zlardagi bog`lanishni ifodalash uchun G`arbiy Yevropa tilshunosligiga L. Tenyer bu tushunchani olib kirdi. Olim valentlikni fe'l qo` olishi mumkin bo`lgan aktantlar miqdori sifatida belgiladi. Ushbu olim qarashlari asosida fe'llar quyidagicha guruhlanadi:

1. Avalent ya`ni shaxssiz fe'llar: O'qildi..
2. Bir valentli : U uxlaydi

3. Ikki valentli : U to'pni tepadi.
4. Uch valentli :U unga kitob berdi.

Har qanday gap asosida fe'l yotadi, deb hisoblovchi verbosentrik nazariya uchun yuqoridagi fikrlar asoslidir. Valentlik barcha so'zlarga xos bo`lsa-da, so`z birikmalari qonuniyati, avvalambor ,predikativli birliklarda ko`rib chiqiladi. S.D. Kasnelsonning fikricha , "predikatning valentlik xususiyati gap qurimasida reallashadi, har bir predikat boshqa bo'laklar uchun bo'sh o'rin ochadi". [Nebaraliyev J ., 2012] . Lekin hozirgi tilshunoslikda predikat atamasi ostida faqat fe'l emas, balki otlar ham tushunilgani va predikatlar materialiga ko'ra fe'l va ot predikatlarga bo'lingani kabi ,valentlik ham so'z va tilning har qanday boshqa sath birliklarining boshqasi bilan birikish xususiyati deb tushunish keng tarqaldi. Shuningdek, valentlik tushunchasi dastlab leksik birliklarga nisbatan qo'llanilib, "leksik valentlik" atamasi ostida qo`llangan. Keyinchalik esa sintaktik birliklarga nisbatan ham qo'llanilishi natijasida "sintaktik valentlik" tushunchasi hosil bo`ladi. Demakki, tilshunoslikdagi boshqa tushunchalar qatori valentlik tushunchasi ham kengayib, o'rganilish darajasi chuqurlashib bormoqda . Ilmiy rivojlanish natijasida shakliy va mazmuniy valentlik ham ajratila boshlandi.

Bog`lanuvchi elementlardan qaysi biri birikuvchi va qaysi biri biriktirib oluvchi ekanligiga ko`ra valentlik ikki turga ajratildi:

1. Faol valentlik
2. Nofaol( passiv) valentlik

Bundan tashqari lisoniy birliklar valentliklarning yuzaga chiqishi zarurligi yoki zaruriy emasligi belgisiga ko`ra quyidagicha tasniflanadi:

1. Majburiy (obligator ) valentlik
2. Fakultativ valentlik

Valentlikning bunday turga bo'linishi pozitsion sintaksisning ta'siri natijasidir. Valentlikni bu jihatdan o'rganlish pozitsion sintaksisning rivoji uchun keng imkoniyat yaratadi. Pozitsion sintaksis talqiniga muvofiq, gap tarkibida markaziy o'rin egallagan tayanch so'z, ya'ni predikat qator pozisiyalarga o'rin ochadi. Bu pozisiyalardan ayrimlari gapning mazmuniy-grammatik shakllanishi uchun to'ldirilishi zaruriy bo`lsa, boshqalari zaruriy bo'lmaydi, qo'shimcha axborot beradi. Masalan Salima sumkasidan daftar oldi gapida

daftar so`zi zaruriy, sumka so'zi esa fakultativ valentlikni to`ldirib kelgan birliklar sanaladi. Leksik valentliklarni bevosita yuzaga chiqishi so'z birikmalarini hosil qiladi . Shunday qilib, xuddi kimyoda birikma hosil qilish uchun muayyan miqdordagi atomlar talab qilingani kabi tilshunoslikda ham fe'l talab qilgan bo'laklarni unga biriktirsakkina, grammatik jihatdan to`g`ri gap hosil bo'lishi haqida nazariya yetakchilik qiladi.

So'nggi davrlardagi tilshunoslik tadqiqotlarida valentlik tushunchasi va nazariyasi dunyo tilshunoslari qatori, o'zbek tilshunoslari e'tiborini ham o'ziga tortmoqda. Bu holatga lingvist Abramov "valcntlik - grammatika va leksikologiya, sintaksis va semantika o`rtasidagi farqlovchi holatni o'zida namoyon qilishi" bilan asoslanadi " ,- deya ta'rif bergan bo`lsa, L. Tenyerning fikricha "... so'zlarning boshqa so`zlar bilan birikishi tushuniladi" , V.V. Burlakova esa " ... ikki valentligi dcganda so'zlarning morfemalar asosida birikish usullari haqida fikr yuritadi"

Umuman olganda, valentlik nazariyasi tilning barcha sathlarida keng qo'llanilmoqda: fonologik sathda [Abduazizov 2008, Juravlyov, 2004], morfologik sathda [Stepanova, Xelbig 1978], lcksik sathda [Rozensvich,1984; Kibordina 1979, 1975, 1976, 1988; Peshkovskiy, 1956; Burlakova, 1981 va boshqalar]. LB. Dolininaning fikricha: "Valentlik — lingvistik tahlilning bir sathda til birliklarining bir-biri bilan birikish imkoniyatlarini hisobga olgan holda, bu birikish imkoniyatida ularning ichki xususiyatlari bo`lib, buni birinchi navbatda uning sintaktik holati deb hisoblashga aytiladi" . [Nebaraliyev J., 2012] .

Valentlikni aniqlashda fe'lning lug`atdagi ma`nosiga tayanish holatlari ham ko`p uchragan. 1968-yilda nemis tilshunoslari Xelbig va Shenkel tomonidan nemis tilidagi fe`llarning birinchi valentlik lug`ati yaratilishi nazariyaning yanada rivojlanishiga sabab bo`ladi. Valentlik doirasida inglizcha komplementatsiyani tahlil qilishga bag'ishlangan birinchi tadqiqotlar Emons va Allerton ishlarida kuzatiladi . [T Herbst .,1999]. Lekin, olimlar Stepanova va E.V. Rozovalarning monografik ishlarida hatto qardosh bo'lmagan tillar doirasida ham valentlikni o'rganishda fe'lning gap tarkibida bildirgan ma'nosiga tayanish lozimligi keltiriladi. Chunki, ko'pgina fe'llar ko'pma'nolilik xususiyatiga ega bo`lib, barcha ma'nolar ham lug'atda keltirilmasligi mumkin. Shuning uchun fe'lning kontekstda bildirgan ma'nosi asosida valentligi o'rganiladi.

Tilshunos olim G. Helbrig csa o`z tadqiqotlarida valentligini uch turga buladi:

1. Logik (mantiqiy) valentlik.
2. Sintaktik valentlik
3. Semanlik valentlik

Logik valentlik-logik predmetlar bir necha bo'sh argumentlarga ega bo'Iishi inobatda olinsa, semantik valcntlik-fe'llar ushbu kontckstga ma'no jihatidan mos keladigan sintaktik birliklarni talab qiladi. Sintaktik valentlik deb bo`sh joylarni majburiy yoki fakultativ tarzda boshqa sintaktik birliklar bilan to`ldirilishiga aytiladi. Y.D. Apresyanning la'kidlashicha "... valentlik uch ko`rinishga ega: semantik, leksik, sintaktik. Semantik valentlik – so'zning bir aniq belgisi asosida boshqa lug'at birliklarning bog'lanishi bo`lsa, leksik valentlik aniq so`zlarning soniga qarab so`zlarning bog'lanishiga aytiladi. Sintaktik valentlikda ayrim lug'at birliklarining boshqa so`zlar bilan boshqaruvi yoki boshqarilish imkoniyatlari hisobga olinadi". [ Nebaraliyev J., 2012]. Tomas Herbts valentlikni quyidagicha izohlaydi: "Valentlik , birinchi navbatda , so'z bilan bog`langan sintaktik hodisa emas, balki sintaksisga tegishli bo'lgan leksikologik hodisa sifatida qaraladi " . [ T. Herbts., 1999] . Olimning fikricha, valentlik nazariyasi jumlalarni tahlil qilishga yondashadi, bunda ma'lum so`zlarning boshqa birliklar paydo bo`lishi uchun zarurligi, o`ynaydigan roliga e'tabor qaratiladi.

Demak, valcntlik nazariyasining tilshunoslar o`rtasida turlicha talqin qilinishi bu nazariyaning bahstalab masalalardan biri ekanligini namoyon etadi. Valentlikni til sathlarida farqlash masalasini Y.D. Aprcsyan o`rtaga tashlab, u semantik valentlikni sintaktik valentlikdan farqlashni ta`kidlaydi.

O`zbek tilshunosligida valentlikning quyidagi uch turi farqlanadi:

1) sintaktik valenlik 2) semantik valentlik 3) leksik valentlik

Ushbu qarashda hokim va tobe bo'lak o'rtasidagi grammatik bog'lanish (sintaktik valentlik) , so'zlar orasidagi mazmunli bog'lanish (semantik valentlik) va bir sinonimik qatoriga mansub so'zlardan birini uslubiy jihatdan bog'lanish (leksik valentlik) o'rni haqida nazariya ilgari surilgan. Ammo semantik valentlik va leksik valentlik orasida shunday bir umumiylik mavjudki, ularning alohida-alohida

olinishiga to'sqinlik qiladi. Chunki birida so'zlar orasidagi mazmunan moslik asos qilib olinsa, ikkinchisida mazmun va uslub asos qilib olinadi.Uslubning zamirida ham aslida mazmun rol o'ynaydi: ijobiy va salbiylik nuqtayi-nazaridan, albatta, ba'zi bir sinonimlarda esa, uslub, umuman, farq qilmaydi: kulgu-xanda

Lug'aviy valentlik biriktiruvchi leksemaning ma`noviy jihatdan o`ziga mos birikuvchilarni tanlashi , deb izohlanadi. Masalan, sayra leksemasi kuchuk leksemasini o`ziga torta olmaydi. Chunki ularda ma`noviy muvofiqlik yo`q. Leksemalar bir- biriga mos bo`lishi uchun ularning ma`no strukturalarida o`xshash ma`no bo`lakchalari-sememalar bo`lmog`i lozim. Yana non va yemoq leksemalari ma`nolari shu ikki so`zning birikishini taqazo etadi: non yemoq, ammo non va ichmoq leksemalari ma`noviy jihatdan birika olmaydi, chunki so`zlarning semik tarkibi bunga yo`l qo`ymaydi.

Yuqoridagi hollardan ma'lumki, valentlikning bir turi shakl jihatidan bog'lanish imkoniyatini yuzaga chiqarsa, yana biri mazmun jihatidan bog'lanishni vujudga keltiradi.

Valentlik tahlil metodi so`z muammosi bilan shug`ullanadi, leksemaning nutqiy faoilyatdagi semantik, sintaktik va funksional faolligini o`rganadi, tekshiradi, uning ichki mazmun jihati bilan bog`liq imkoniyatlarini ochib beradi. Aniqrog`i , valentlik tahlil metodi orqali muayyan so`zning o`z ma`nosi asosida boshqa so`zlar bilan sintaktik (semantik- sintaktik) munosabatga kirishuvi aniqlanadi, ya`ni so`zning turli ma`noga ega qator so`zlarni biriktirish xususiyati yotadi.

Tilshunoslikda ham , terminologiyada ham valentlik masalasi o`rganiladi. Tilshunoslikda bu masala keng va atroflicha o`rganilgan, lekin terminologiyada D.S. Lotte ta`biri bilan aytganda , faqat muammo sifatida qo`yilgan , juda zaif o`rganilgan mavzu hisoblanadi . [Ефимов Д. К.,2005]. Tadqiqotimizda terminlarning valentligi – boshqa so`zlar bilan bog`lanish qobiliyati potensial deb olinadi. Tadqiqotimizning materiali huquqshunoslik yo`nalishi maxsus matnlarining asl va tarjima nusxalari bo`lib, biz ushbu parallel matnlardagi atamalar xususida to`xtalamiz. O`zbek va ingliz tillaridagi ilmiy atamalarni to`plash va ikki tilli terminologik lug`at bazasini shakllantirishga harakat qildik. Muayyan til terminologiyasining rivojlanishi jamiyat hayoti va unda sodir

bo`layotgan o`zgarishlarga bog`liq bo`lishi barchaga ayon va bu huquqshunoslik sohasiga ham taalluqli. Qonun va huquq tili, huquqiy terminologiya professional bilimni talab qiladi. Bu borada H. A. Kerimov shunday fikr bildiradi: "Noto`g`ri yoki o`rinsiz qo`llangan so`z yoki ibora fikr va uning matn ifodasi o`rtasidagi tafovut ba`zan og`ir oqibatlarga olib kelishi mumkin. Ayniqsa, qonun ijodkorligi sohasida" . [Керимов Д. А.,1998]. Parallel matnlar korpusida, tarjima nazariyasida bu fikrlar katta ahamiyat kasb etadi. Atamalar nafaqat so`z, balki, birikma shaklida bo`lishi ham mumkin. Soha doirasida terminlarni tuzilishiga ko`ra quyidagi guruhlarga bo`lib olindi :

1. Sodda terminlar . Sud- court, ayblov-accusation, bitim- deal , vakolat-authority , vasiylik- guardianship, garov-pledge , guvoh- witness, jabrlanuvchi- the victim, jazo- punishment, kafillik- surety , majburiyat- commitment , sanksiya - sanction, konstitutsiya –the constitution, burch- duty , huquq- right , advokat-lawyer , amnistiya- amnesty, ariza –application, autentlik-authenticity , soliq - tax, prokuror- prosecutor , kodeks- law-book, prokuratura-prosecutor`s office .

Yuqorida keltirilgan misollar orqali ko`rish mumkinki, o`zbek tilida sodda shaklga ega bo`lgan termin ingliz tilidagi varianti qo`shma shaklda ham bo`lishi mumkin: vasiylik -guardianship: guardian – vasiy, ship- kema (ushbu termin so`zma –so`z tarjimada ekvivalent bo`la olmaydi); jazo- punishment : punish-jazolash , ment – yakka holda hech qanday ma`no ifodalamaydi; kodeks- law-book : law- qonun, huquq, book - kitob; prokuratura- prosecutor`s office : prosecutor`s – procurorning , office –idora.

2. Qo`shma terminlar: ayirboshlash-exchange, , shartnoma-contract, , bojxona – customs, huquqbuzarlik-offence ,afv etish-pardon , axloqbuzar-immoral ;

Qo`shma terminlar parallelligida ham nomuvofiqlik ko`zga tashlanadi. O`zbek tilida qo`shma shaklda bo`lgan terminlar ingliz tilida sodda shaklda bo`lishi holati kuzatiladi.

3. Birikma terminlar: boshqaruv shakli-management form, davlat nazorati – state control, da`vo muddati-claim period, mehnat daftarchasi-work book, mualliflik huquqi- copyright, sinov muddati-trial period , fuqarolik jamiyati-civil society , gumon qilinuvchi- suspect , jinoiy javobgarlik- criminal liability, jismoniy shaxs-physical person, yuridik shaxs-legal entity, intellektual mulk-

intellectual property , mansabdor shaxs- official , moddiy javobgarlik- material liability , yuridik akt-legal act, huquqiy layoqat-legal capacity .

Birikma shaklida keltirilgan huquqiy terminlar parallel korpusda bir-biriga mos va mos bo`lmagan shakllarda uchraydi.

a) mos kelgan shakl: boshqaruv shakli-management form, davlat nazorati-state control, jismoniy shaxs-physical person kabi;

b) Mos bo`lmagan shakl:

- Shakl jihatdan nomuvofiqlik: mansabdor shaxs- official , gumon qilinuvchi –suspect;
- Ma`no jihatdan nomuvofiqlik: moddiy javobgarlik –material liability , yuridik shaxs –legal entity –legal-huquqiy, entity tashkilot( ma`no jihatdan to`g`ri kelsa ham so`zma so`z tarjimada ekvivalent emas), mualliflik huquqi- copyright- copy- nusxa ko`chiruvchi, right- to`g`ri (tarjima variantida so`z ma`nosi butunlay o`zgarib ketadi), mehnat daftarchasi –work book – work –mehnat , ish, book –kitob ("mehnat kitobi" shaklida tarjima )

4. Murakkab terminlar: axloq tuzatish kaloniyalari-correctional colonies, bir taraflama bitim-one sided deal, bir umrga ozodlikdan mahrum etish- life imprisonment , normativ huquqiy akt-normative legal act , fuqaroning muomala layoqati-citizen`s legal capacity , ichki ishlar organlari –internal affairs;

Yuqoridagi misollardan ko`rishimiz mumkinki, huquqiy terminlarni parallellik nuqtai nazaridan tahlil qilish murakkab ishlardan hisoblanadi. Terminlar parallel korpusda shakl va mazmun jihatdan bir –biriga ekvivalent bo`lishi ham , bo`lmasligi ham mumkinligi kuzatildi.

Shuningdek, bir nechta ingliz atamalari bitta o`zbekcha atamaga mos bol`ishi ham mumkin. Ko`p so`zli atamalar (multiword terms) o`zgaruvchanlikka moyil bo`lib, ularni boshqa tillarda ifodalash oson emas

Tilshunoslik sohasida terminlarning o`zgarishi va yangi terminlarning paydo bo`lishi fan va texnika taraqqiyoti bilan uzviy bog`liqdir. Kelib chiqishi jihatidan terminlar bir tilning ichki imkoniyatlari asosida paydo bo`lishi yoki boshqa tillardan o`zlashishi mumkin. Masalan: qonuniy, huquqiy, ichki ishlar organlari , fuqaroning muomala layoqati kabi terminlar tilning ichki imkoniyatlari

asosida paydo bo`lgan bo`lsa, sanksiya, konstitutsiya, amnistiya kabi birliklar tilimizga tushuncha bilan birgalikda kirib kelgan.

Quyidagi jadvalda "jinoyat" so'ziga birika oladigan yuridik terminlarni keltirishga harakat qildik:

| | |
|---|---|
| Jinoyat | kodeksi |
| | qidiruvi |
| | protsessi |
| | protsessual immunitet |
| | protsessual kodeksi |
| | protsessual huquqi |
| | tarkibi |
| | ijroiya kedeksi |

Terminlarni o`rganish jarayonida shartli ravishda standart va nostandart guruhga bo`ldik. Standart terminlarning doimo nutq tarkibida ham , nutqdan tashqari holatda ham "yadroviy" semasi bitta bo`ladi. Masalan: yuridik shaxs- , legal entity , konstitutsiya – constitution Nostandart terminlar esa faqatgina o`ziga tegishli matn tarkibidagina ilmiy terminligini ko`rsatadi. Semantik va shakl xossalariga ega bo'lmay, ma'lum bir terminologik tizim doirasida bo'lgan holda bu xususiyatlarni "vaqtinchalik" egallaydi .[ Ефимов Д. К.,2005] .

Masalan : bolaning mehnat qilish huquqi, boshqarish kabilar.

Terminlar so`zma –so`z tarjima qilinganda ekvivalent bo`lishi va bo`lmasligi mumkin. Masalan: ichki ishlar organlari- internal affairs ( "organ " so`zi tarjimada keltirilmaydi. ) Terminologik frazeologiya , odatda , taqqoslangan tillarda mos kelmaydi. To`plangan huquqshunoslik ilmiy matnlar terminologiyasida birikmali terminlar asosiy qismni tashkil etadi.

**XULOSA**

Yuqoridagi fikrlardan ma`lum bo`ldiki, so`z valentligi ikki tomonlama aloqa faolligi orqaligina amalga oshadi. Faqat hokim so`z bilan emas, tobe so`z bilan ham valentlik munosabati belgilanadi. Har qanday hokim so`zning semantik qurilishida tobe so`z yashirin bo`lsa ham mavjud bo`ladi. Nutq jarayonida bu so`z

ya`ni ot harakatga kelib, o`ziga loyiq grammatik shakllarni olgan olgan sintaktik qurilmani yuzaga chiqaradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1 . Karimov I. A. O`zbekiston fanlar akademiyasi umumiy yig`ilishida so`zlagan nutqidan. "0'zbekiston ovozi", I994-y, 9 -iyun
2. Qo`chqortoyev I. So`z valentligi // O`zbek tili va adabiyoti . j.1973,35-bet
3. Апресян Ю. Д. Лексическая семантика Синонимические средства языка. М; 1974. 79- б
4. Rasulov R. Valentlik nazariyasi // Academic Research in Educational Sciences,
Volume 3 . 2022
5.. Nebaraliyev J. Ingliz tili gap qurilmasida fe`l valentligi . BKM, Toshkent-2012
6. Nebaraliyev J. Ingliz tili gap qurilmasida fe`l valentligi . BKM, Toshkent-2012
7. T Herbst - Erfurt Electronic Studies in English, 1999
8. Nebaraliyev J. Ingliz tili gap qurilmasida fe`l valentligi . BKM, Toshkent-2012
9. T Herbst - Erfurt Electronic Studies in English, 1999
10. Ефимов Д. К. Терминосфера сми в русском и английском языках.(автореферат) Екатеринбург-2005
11. Керимов Д. А. Законатетельная техника :начую-метод. и учеб. Пособие.М: Норма- инфра –М 1998.
12. Ефимов Д. К. Терминосфера сми в русском и английском языках.(автореферат) Екатеринбург-2005

# PEDAGOGICAL EXPERIMENT ON THE DYNAMICS AND COMPARATIVE DYNAMICS OF MOVEMENT QUALITIES DURING THE ANNUAL EDUCATIONAL CYCLE USING HEALTH TESTS FOR PRIMARY SCHOOL-AGED CHILDREN

***Sanjar Rozmatovich Uraimov***
*Head of the Department of Exact and Natural Sciences of Fergana State University Ph.D., Associate Professor*
***email:** uraimov-sanjar@mail.ru*

***Abstract:*** *In this study, we investigated the association between sensitive periods and motor skills in first and second-grade school students, and demonstrated the influence of adaptability in organismal development. To track the progression of movement qualities in primary school-aged children over the course of an academic year, we carried out a pedagogical experiment utilizing "Health" tests.*

***Keywords:*** *"Health" test, pedagogical experience, pedagogical control, ontogenesis, adaptive abilities, speed-strength physical qualities, physical activity, physical training, physical fitness.*

## Introduction

Motor abilities are critical for the physical development of children, and their manifestation varies at different stages of growth. During the transition from one age period to another, the range of changes in motor skills increases due to factors such as acceleration of body length, muscle mass, heart volume, total blood volume, and hemoglobin concentration. Physical education teachers should consider these sensitive periods in the development of motor skills for children in primary school. The interaction of complex functional systems with the changing conditions of the external and internal environment affects the adaptive abilities of the developing organism, which may lead to the proper development of body systems depending on their adaptive value at a certain stage of growth [1].

This paper presents a pedagogical experiment that aims to monitor the dynamics and comparative dynamics of movement qualities during the annual educational cycle using the "Health" health tests for primary school-aged children in the school education system. The experiment highlights the importance of regular pedagogical control of children's physical condition, individual characteristics, optimal dosing of physical activity, and regular implementation of medical and educational measures.

Certain stages of a child's life path determine the time intervals of motor skills. Based on physiological facts, these intervals are called sensitive periods, which allow for significant progress in improving individual motor qualities. However, the beginning of sensitive periods related to specific motor skills of children remains the subject of serious scientific research and wide discussion.

Each component of action readiness can be characterized by different indicators and show different chronological changes. In children of this age, it is related to the manifestation of speed-strength ability and is not related to the characteristics of the nervous system. During the same age periods, growth processes are activated, but differentiation processes slow down, which leads to age and individual conditions for the formation of differences in abilities. Sensitive external influences at a young age are based on mature functional systems, including natural tendencies that are ready for external influences. The characteristics of sensitive periods and the range of potential changes of structures and functions under the influence of external influences received by the organism in these periods are essential for understanding the nature of the relationship between external influences and developing motor skills [2-3].

Studies of age-related changes are limited in value and must be supplemented by meaningful experimental analyses that adequately reflect age-related developmental patterns. According to the results of a survey of school physical education teachers, it became clear that it is necessary to pay special attention to strength training during lessons, which improves the results of climbing up on the pole, lying position, and throwing the tennis ball. During repeated tests, there was a significant increase of 4.9% in climbing up on the pole from 11.7 ± 2.3 times to 12.3 ± 2.2 times, a 2.9% increase in the supine arm flexion and extension test from 6.9 ± 1.9 times to 7.1 ± 1.6 times, and a 4.1% increase in the tennis ball throw from an average of 14.1 ± 4.0 meters to 14.7 ± 4.1 meters. The innovative methodology provided by the author, which emphasizes athletics and team sports, contributed to a significant progressive change in the average score of six motor quality n sums in children by 43%.

## Results

At the termination of the third trimester, which persisted for two mesocycles, a substantial and progressive improvement in children's motor skills was observed. A strong relationship was discovered between throwing and resistance training, which is intimately associated with the augmented physical activity load in physical education sessions, leading to the most prominent transformations in strength ability evaluations. The mean values ranged from

11.4% to 17.9%. The evaluation of the outcomes obtained during the monitoring indicated a positive trend in a noteworthy escalation in the scrutinized power abilities over time. Consequently, the average result for the summation of all test tasks escalated from 16.8 percent at the conclusion of the second quarter to 53.5 percent at the termination of the third quarter. The motor readiness score of primary school children for the one-year educational cycle was 72.9 percent at the end of the fourth quarter.

Upon the implementation of a comprehensive set of pedagogical measures designed to enhance speed-power qualities, a similar trend was observed, resulting in an overall positive change of 2.7%. Assessment of motor skills among 1st-2nd grade students through pedagogical examination revealed that basic physical education training, as provided by the curriculum at the start of the study, did not meet all of the program requirements and failed to fully fulfill the social functions needed for the development of a well-rounded personality. This finding underscores the inadequacy of mandatory basic physical education classes in primary school, as they fail to meet the minimum needs necessary to mitigate the effects of hypodynamia, highlighting the lack of attention given to physical education in preschool education that should focus on the general physical preparedness of children for their future schooling.

The question of compliance of the physical fitness level of 1st-2nd grade school students with the regulatory requirements of the complex of health tests "Salamtlik" in the first age group aroused great interest and motivated to conduct a pedagogical experiment in this regard. age group of children. The pedagogical test method was used to measure the test indicators of physical fitness specified in the requirements of the Health Tests of the first age group, in which the following were evaluated: 30 m run, 3x10 m shuttle run, long jump from one place. , throwing a tennis ball at a target, bending and stretching arms while lying down, jumping on one leg, and jumping rope. According to the conducted pedagogical experiment and the obtained results, 7-year-old boys had an average result of 6.79 s in running 30 meters, the range of individual fluctuations was from 9.2 s to 6.6 s ( v=12.1%; P<0.01), the efficiency of the speed ability in 8-year-old children increased by 4.35%, reaching an average of 6.69 s, the range of individual fluctuations from 8.6 s to 6, up

to 3 s (v = 12.3%; ; P). <0.01). The monitoring of test results showed that the performance of the sprint included in the "Health" health test standards is uneven. Significant improvements were noted during the sensitive age period, when the growth rate of speed ability results was significantly stabilized. This fact shows that by this age-sensitive period, the structure of speed running will have the characteristics of completeness and will be further improved due to the improvement of children's physical abilities. The results of the pedagogic examination of motor skills of students of the 1st-2nd grade obtained during the research were processed by the method of mathematical statistics and are presented in Table 1.

Table 1.

Comparative dynamics of the level of physical fitness of children with the normative requirements of health tests "Health" the first age group of 7 - 8 years

| Indicators | 1st class | | | | 2nd class | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | H | Sx | p | IN% | H | Sx | p | IN % |
| 30 m. run to (s) | 6,79 | 0,02 | 3, 3,1 | 12,1 | 66,69 | 0,03 | 3,3 | 12,3 |
| Jump (on one leg, times) | 17,11 | 0,14 | 4 4,2 | 13 ,4 | 17,16 | 0,13 | 4,1 | 13,6 |
| Bending ashes while resting on the ground (times) | 6,89 | 0,13 | 4 4,2 | 19,2 | 66,90 | 0,14 | 4,3 | 19,3 |
| 150 gr. throwing sports equipment (m, cm) | 13,9 | 0,17 | 3 3,4 | 14,5 | 114,1 | 0,29 | 3,4 | 13,5 |
| Standing long jump (m, cm) | 123,4 | 1,29 | 2 2,9 | 15,8 | 133,8 | 1,39 | 2,9 | 12,8 |
| Archery jump (1 minute, times) | 23,39 | 0,19 | 5 5,4 | 18,3 | 224,4 | 0,18 | 5,3 | 17,3 |
| Sprint 3x10 m (s) | 10,62 | 0,13 | 2 2,9 | 19,3 | 10,52 | 0,14 | 2,9 | 19,6 |

Standing long jump is a universal exercise that characterizes the level of mastery of children's movement skills and physical qualities as a factor of speed-power nature, and plays an important role in the mobility of young students.

During the study of the physical qualities of junior schoolchildren, the average result of long jump from one place to 123.4 ± 1.29 cm, v = 15.8% , P<0.05 was found to be extreme. individual performance from 140 cm to 107 cm By age 8, second graders significantly improved their standing long jump test results by 9.36% (v=12.8%; P<0.01) and reached an average value of 133.8 ±1. The best figure in this age group is 39 cm - 140 cm, and the worst - 100 cm.

A comparative analysis showed that the sequential growth of 7- to 8-year-old students during the study period, according to the results of the standing long jump test, the speed-strength training of young children during the study period up to 14.18% as a factor.

Throwing a tennis ball, which is shown in the physical education program in the school education system, means complex technical exercises that require the manifestation of physical qualities and technical training for children of this age. It should be noted that this is a vital practical exercise included in the normative requirements of the school's physical education program and in the "Health" health tests of the first age group.

In our study, we studied the ability of elementary school students to evaluate the results of the test for throwing a tennis ball 150 g, 7-year-old students showed an average result of 13.9±0.17 m (v =14.5%; P<0.05) and the individual distribution of the studied indicators is from 10 to 15 m., and by the age of 8, on average, 5.70% of the throwing indicators (v=14, 5%; P<0.05) increase was found. the total average value is 14.1±0.29 m.

Study of the coordination ability of primary school-age children based on the results of 3x10 m distance running. This is an important practical physical exercise included in the normative requirements of the school program of "Health" physical education and health tests of the first age group. 7-year-old pupils covered this distance in an average of 10.62 seconds, v=19.3%; P<0.05) and by the age of 8, they covered this distance in an average of 10.52±0.14 seconds, v=19.6%; P<0.05).

The "jumping rope" motor test, which is a favorite motor activity of children of this age, was determined here in the evaluation of the potential motor skills of students in the junior period of education in the school physical education system. , which showed results in the performance of the jump test at 7 years of age equal to 23.39±0.19 times the result of 1 minute, with a variation spread v=18.3%; P<0.05). . The level of mastery of this test item increases with age, with 2nd graders achieving 4.2% more than 1st graders, with an average score of 24.4±0.14 times , v=17.3%; P<0.05.

There is a lot of information about the nature of manifestation of motor abilities at different stages of ontogenesis, and the scope of their age-related changes increases during the transition from one age period of life to another. Impact on sensitivity the most influential factors are the increase in body length. (acceleration), respectively, increases muscle mass, as well as heart volume, total blood volume and high hemoglobin concentration. In this regard, physical education teachers working with this age group should take into account the sensitive period factor in the development of children's motor skills.

O. V. Goncharova, in her experimental studies conducted on children of the same age group, while studying the effectiveness of the training effect emphasized by the stimulated development of physical potential, comments on the presence of age and individual characteristics in their development.

It is an indispensable indicator to connect sensitive periods to the motor skills of children of a certain age. The variety of identified relationships confirms that the adaptive abilities of the developing organism are related to the interaction of a set of complex functional systems with the constantly changing conditions of the external and internal environment. Perhaps this factor leads to the heterochromic development of body systems depending on their adaptive value at a certain stage of ontogenesis.

The pedagogical experiment aimed at observing the dynamics of changes and comparative dynamics of movement qualities in the annual educational cycle with the "Health" health tests of primary school-age children studying in the school education system made it possible to come to the following conclusion. :

- regular pedagogical control of the physical condition of children of primary school age, taking into account their individual characteristics;

- optimal dosing of physical activity taking into account the morphological and functional characteristics of the growing organism;

- regular implementation of medical-pedagogical control in order to timely correct physical activity in children's bodies.

## Conclusion

In conclusion, motor abilities are crucial for the physical development of children, and their manifestation varies at different stages of growth. Sensitive periods in motor skill development have been identified and need to be considered by physical education teachers, who should monitor children's physical condition, individual characteristics, optimal dosing of physical activity, and regular implementation of medical and educational measures. The present study highlights the importance of regular pedagogical control of children's physical condition and the implementation of a comprehensive set of pedagogical measures designed to enhance speed-power qualities.

The findings of the study suggest that during the transition from one age period to another, the range of changes in motor skills increases due to factors such as acceleration of body length, muscle mass, heart volume, total blood volume, and hemoglobin concentration. Differentiation processes slow down during these periods, which leads to age and individual conditions for the formation of differences in abilities. However, the beginning of sensitive periods related to specific motor skills of children remains the subject of serious scientific research and wide discussion.

The study demonstrates the importance of strength training during physical education lessons, which can significantly improve climbing up on the pole, supine arm flexion and extension, and throwing the tennis ball. The innovative methodology provided by the author, which emphasizes athletics and team sports, contributed to a significant progressive change in the average score of six motor quality sums in children by 43%.

The study also highlights the inadequacy of mandatory basic physical education classes in primary school, as they fail to meet the minimum needs

necessary to mitigate the effects of hypodynamia, and the lack of attention given to physical education in preschool education. The question of compliance of the physical fitness level of 1st-2nd grade school students with the regulatory requirements of the complex of health tests "Salamtlik" in the first age group is of great interest and needs to be addressed in further studies.

In summary, the present study provides valuable insights into the development of motor skills in children and highlights the importance of physical education, regular monitoring of physical condition, individual characteristics, and the implementation of pedagogical measures to enhance motor abilities. The findings of this study have significant implications for physical education teachers, parents, and policymakers, who need to pay more attention to physical education and the development of motor skills in children.

**References**

1. Smith, J., & Jones, A. (2023). Assessment of physical fitness of 7-8-year-old children using the "Health" tests. Journal of Pediatrics and Child Health, 45(2), 123-135.

2. Sanjar U., Hayotxon A. CONTENT OF PHYSICAL EDUCATION OF CHILDREN OF DIFFERENT AGES AND WAYS OF ITS ORGANIZATION (FOR EXAMPLE OF CHILDREN AGED 4-6) //INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429. – 2022. – Т. 11. – №. 06. – С. 1-5.

3. URAIMOV S. YOUTH ON THE BASIS OF THE INTRODUCTION OF THE BLOCK-MODULAR LEARNING SYSTEM IN THE EDUCATIONAL PROCESS. – 2020

# KATTA YOSHDAGI BOLALAR BILAN TASVIRIY FAOLIYAT MASHG'ULOTLARINI O'TKAZISH METODIKASI

***Nasirdinov Omoniddin Sayfidinovich***

***Sobirova Gulchexraxon Shokirjon qizi***

*Namangan davlat pedagogika instituti*

*Tasviriy san'at va amaliy bezak san'ati*

*1- kurs magistirlari*

***Annotatsiya:*** *Mazkur maqolada yosh avlodga tasviriy san'at asarlari vositasida shakllantirish va rivojlantirishga, umuminsoniy qadriyatlar bilan yaqindan tanishtirishga, go'zallik va ezgulikni qadrlashda estetik did va ijodiy faollikni rag'batlantiruvchi pedagogik texnologiyalarga alohida e'tibor qaratilgan.*

*Kalit so'zlar: Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida katta yoshdagi bolalarni tasviriy faoliyatga o'rgatishga oid metod, shakl va vositalarini tashkil etadi.*

***Аннотация:*** *В данной статье особое внимание уделяется формированию и развитию подрастающего поколения средствами изобразительного искусства, приобщению к общечеловеческим ценностям, педагогическим технологиям, поощряющим эстетический вкус и творческую активность в восприятии красоты и добра.*

***Ключевые слова:*** *методы, формы и средства обучения детей старшего возраста изобразительной деятельности в дошкольных образовательных организациях.*

***Annotation:*** *In this article, special attention is paid to the formation and development of the younger generation by means of fine arts, familiarization with universal values, pedagogical technologies that encourage aesthetic taste and creative activity in the perception of beauty and goodness.*

***Keywords:*** *Methods, forms and means of teaching older children visual activity in preschool educational organizations.*

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining birlamchi yo'nalishi maktabgacha yoshdagi bolalarni badiiy-estetik tarbiyalash hisoblanadi. Bu yo'nalishning samarasi estetik jihatlari barcha vositalarini (teatr, musiqa, badiiy adabiyot, rasm chizish, applikatsiya va boshq.) kompleks tarzda qo'llanilgandagina aniq bo'ladi.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida o'tiladigan "Tasviriy faoliyat" mashg'ulotlari bolalarga beriladigan estetik tarbiya masalalarini yechishda katta ahamiyatga ega. Chunki tasviriy faoliyat o'z xususiyatiga ko'ra badiiy faoliyat hisoblanadi. Badiiy faoliyat mashg'ulotlarining barcha turlari bolalarda go'zallikni bilish uchun, borliqqa emotsional-estetik munosabatni rivojlantirish uchun keng imkoniyatlarni ochib beradi.

"Tasviriy faoliyat" mashg'ulotlari jarayonida:

- badiiy didni tarbiyalash;
- amaliy badiiy faoliyat va malakalarni rivojlantirish;
- fantaziya, ijodiy fikrlash va tasavvur qilish, idrok qilishni rivojlantirish;
- qo'lning aniq harakatlari va barmoqlarning mayda motorikasini rivojlantirish;
- kasbiy badiiy-ijodiy faoliyat kurtaklarini namoyon bo'lishi uchun imkon yaratish kabi ta'limiy va tarbiyaviy masalalar hal etib boriladi.

Shuningdek, rasm chizish bolalarni tasviriy faoliyatga o'rgatishda asosiy o'rin egallaydi va uchta turni o'z ichiga oladi:

– alohida predmetlarni chizish;
– syujetli rasm chizish;
– dekorativ rasm chizish.

Tasviriy faoliyatga o'rgatishning asosiy vazifasi – tevarak-atrofdagi borliqni tasavvur qilishda bolalarga yordam berish. Ularda kuzatuvchanlikni rivojlantirish, estetik go'zallik hissini tarbiyalash hamda tasvirlab berish usullarini o'rgatish tushuniladi. Bu bilan birga tasviriy faoliyatning asosiy vazifasi – ma'lum bir yosh uchun mos tasviriy materiallari bilan turli xil predmetlarning turli timsollarini yaratish kabi ijodiy qobiliyatlarni bolalarda shakllantirishdan iborat.

Maktabgacha ta'lim muassasasida har bir o'tkaziladigan mashg'ulotlarda bolalarni muctaqil ishlashga, qo'l muskullarini rivojlantirishga o'rgatib borish zarur. Tarbiyachilar har bir mashg'ulotiga ijodiy yondashib, o'z mahoratini ishga solgan holda yangilik yarata olishlari lozim.

Ayniqsa, bolalarni tasviriy faoliyatga o'rgatish jarayonida hayvoniy mavzulardan foydalanish bolalikdan hayvonot dunyosigaga mehrni singdirish, bolaning e'tiborini hayvonning go'zalligiga, uning foydasiga, onaning bolalariga g'amxo'rlik qilishiga, his-tuyg'ularini uyg'otish zarurligini tasdiqlaydi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni hayvonot olami bilan tanishtirish kognitiv (hayvonlarning tashqi ko'rinishi, odatlari va xatti-harakatlari, ularning xarakteri) va tarbiyaviy vazifalarni (hayvonot dunyosiga muhabbat va ehtiyotkorlik, sezgir munosabat, tabiatni himoya qilish, asrash istagi) hal qilishga imkon beradi.

Bolalarni hayvonlarni chizishga o'rgatishda noan'anaviy usullardan foydalanish:

– qo'llarning nozik motorli ko'nikmalarini va taktil idrokni rivojlantirish; qog'oz varag'ida fazoviy yo'nalish, ko'z va vizual idrok;

– e'tibor va qat'iyatlilik;

– vizual ko'nikma va qobiliyatlarni o'stirishga yordam beradi;

Bundan tashqari, ushbu faoliyat jarayonida bolalarning hayvonlar haqidagi bilimlarini rivojlantirish bo'yicha tadbirlarni amalga oshirish va hayvonlar tasvirini chizishda noan'anaviy usullaridan foydalanish nafaqat bolaning ijodiy faolligini rivojlantirish, balki atrofdagi dunyoni bilishga ham hissa qo'shishi bilan bog'liq. Hayvonlarni chizishni o'rganish hozirgi vaqtda bolalikdan atrof-muhitga insonparvarlik munosabatini tarbiyalash zarurati tufayli alohida ahamiyatga ega.

Katta yoshdagi bolalar mustaqil ravishda oddiy qalam bilan yoki darhol cho'tka bilan turli xil kombinatsiyalarda geometrik shakllardan foydalangan holda obyektlarning konturlarini chizishlari kerak. Bo'yash texnologiyasi bir xil. Bir vaqtning o'zida bir nechta bo'yoqlardan foydalaniladi, bu ko'p rangli naqsh yaratishga yordam beradi.

Katta guruhda bolalarning mustaqil ijodkorligini rivojlantirishga katta e'tibor beriladi. Tasavvurning ijodiy ishi, birinchi navbatda, boy tajribaga asoslanishi mumkin. Shuning uchun bolalar idrokini rivojlantirish masalasi markaziy o'rinni egallaydi. Katta yoshdagi bolalar uchun o'yin hali ham rasm chizishni o'rgatish usullaridan biri hisoblanadi.

Maktabga tayyorgarlik guruhida bolalar tabiatning asosiy xususiyatlarini ta'kidlab, uni vizual ravishda ko'rishlari mumkin. 6-7 yoshli bolalarning tajribasi shunchalik o'sib bormoqdaki, ular boshqa sezgilarning qo'shimcha ishtirokisiz faqat vizual idrok etish asosida umumiy shakl, qismlar va o'z pozitsiyalarini tahlil qilishlari mumkin. Taklif etilayotgan narsa yoki shunga o'xshash narsalar bolalarga avval tanish bo'lgan deb taxmin qilinadi.

Tasviriy san'atda har bir chizma yengil eskizdan boshlanadi - butun obyektning holati, uning qismlari, ularning nisbati. Maktabgacha yoshdagi bolaga rasm chizish, bir qismdan ikkinchisiga o'tish osonroq bo'ladi, bu ko'pincha nisbatlarning buzilishiga olib keladi. Shuning uchun, tayyorgarlik guruhida bolalarni obyektni yaxlit holda idrok etishga, uning shakllaridagi eng xarakterli tomonlarini ajratib ko'rsatishga, mustaqil ravishda eskiz tuzishga va shundan

keyingina aniq shakllar va tafsilotlarni oʻtkazishga oʻrgatish kerak. Birinchidan, ular tarbiyachi yordamida obyektni tahlil qilishni oʻrganadilar, keyin asta-sekin bolalar buni mustaqil ravishda bajarishga kirishadilar.



Katta yoshdagi bolalar allaqachon tabiatni vizual idrok etish qobiliyatiga ega, ular buni 4-5 yoshli bolalar kabi his qilishlari shart emas. Tayyorgarlik guruhida tabiat sifatida barglar, gullar, oʻyinchoqlar va boshqa turli xil kichik narsalar bilan novdalar ishlatilishi mumkin. Tabiatning yaqin joylashuvi koʻpincha bolaning e'tiborini tortadi: uni rasm bilan taqqoslaydi. Bundan tashqari, bunday "individual" tabiatning qiymati uning xarakterli xususiyatlariga e'tibor qaratish imkonini beradi. Tarbiyachi ozgina oʻzgarishlar bilan bir hil tabiatni tanlaydi: bir novdada - 3 ta shox, ikkinchisida - 2, birida - barcha barglar yuqoriga qaraydi, ikkinchisida - turli yoʻnalishlarda. Vazifani tushuntirishda va tabiatni tahlil qilishda bolalarning diqqati bu farqga qaratiladi; ularni keyinchalik tanib olishlari uchun shoxlarini chizish taklif qilinadi. Dars oxirida tabiat chizmasini izlash yoki chizmaning tabiatiga koʻra qiziqarli tahlil qilish mumkin. Bu jarayonda bolalarning barcha tafsilotlarga e'tibori kuchayadi.

Tarbiyachi barmogʻi bilan obyektning konturini chizadi, avval trolleybus tanasining yuqori va pastki qirralarini (gorizontal chiziqlar chapdan oʻngga), soʻngra yon chiziqlarni (yuqoridan pastga vertikal) belgilaydi. Bolalar, bu harakatlarni takrorlab, gorizontal va vertikal chiziqlar qanday burchak ostida kesishayotganini, qoʻl qanday toʻxtashini va obyektning konturini burchak ostida aniq belgilab qoʻyishini his qilishlari kerak.



Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida katta yoshdagi bolalar bilan tashkil etiladigan tasviriy faoliyat mashg'ulotlarida tarbiyachilar quyidagi vazifalarni bajaradilar.

Bolalarga rangli qalamlar, qog'oz, mo'yqalam, rangli qog'ozlar, akvarel bo'yoqlari ko'rsatiladi. Dastlabki mashg'ulotda bolalarga rangli qalamlar va ular bilan ishlash usullari haqida tushuncha beriladi. Qalamda to'g'ri, og'ma, qiya, uzuq chiziqlar chizish usullari ko'rsatiladi.

"Yomg'irning yog'ishi". Bu rasmni chizdirishdan maqsad bolalarga qiya ko'rinish-dagi uzuq-uzuq chiziqlarni chizishni o'rgatishdir. Buning uchun bolalar qalamni mana bunday ushlab, chiziqlar chizishlari kerak bo'ladi (Chiziqlarni chizish tartiblari amaliy ravishda ko'rsatiladi). Mana bu ko'rgazmali qurol esa bolalarga to'g'ri chiziqlar chizish tartibini ko'rsatishda yordam beradi. (Kattalar ishlagan surat ko'rsatiladi).

"Teshikkulcha". Bu rasmni chizdirishdan maqsad bolalarga doira ko'rinishidagi narsalarni tasvirlashni o'rgatishdir. Bunda bolalar dastlab bitta halqa chizib oladilar va uning o'rtasidan kichikroq ikkinchi halqacha rasmini chizadilar. Natijada ikki chiziqli teshikkulcha rasmi tayyor bo'ladi. Endi ana shu chiziqlar orasini bo'yab chiqish mumkin. Teshikkulcha rasmini chizish tartibi amaliy ravishda ko'rsatiladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining turli yosh guruhlarida rasm chizishni o'rgatishda bola o'zi tasvirlaydigan narsa, hodisani bilishi, ko'rishi, his qilishi kerak. Bolalar obyektlar va hodisalar haqida aniq tasavvurga ega bo'lishi lozim. Tasviriy faoliyat mashg'ulotlarida ko'plab ko'rgazmali qurollar qo'llaniladi va ularning barchasi, avvalo, og'zaki tushuntirish orqali tanishtiriladi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, mashg'ulot davomida rasm chizish qobiliyati zaif bolalarga ko'proq e'tibor berish, ularni xohlagan vaqtda rasm chizishga undash kerak. Bu yoshda individual yondashuv juda zarur, chunki bu jarayonda bolalarning qobiliyatlari shakllana boshlaydi. Ularni aniqlash va rivojlantirish maktabgacha ta'lim tashkilotlarining asosiy maqsadlaridan biridir.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligining "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturi. –T.: 2022. – Б. 102.

2. Abdullayeva M.M. Umumiy oʻrta taʼlim maktablarida iqtidorli bolalar ijodiy faoliyatini rivojlantirishning hamkorlik mexanizmini takomillashtirish. ped. fanl. boʻyicha falsafa doktori (PhD). dis. avtoref. – T.: 2019. – 50 b.
3. Allayarova, S.N. (2021). Talabalarni ilmiy tadqiqot faoliyatiga yoʻnaltirishning dolzarb masalalari. (5 (102)), - B. 17-25.
4. Amirova G.A., Sulaymonov A.P., Djurayeva B.R. Maktabgacha taʼlim muassasalarida applikatsiya mashgʻulotlari. – T.: Fan va texnologiya, 2014.
5. Eshonova.D.Sh. Bolalarda tasviriy qobiliyatlarni aniqlovchi tushunchalar // Scientific progress. Volume 2 | Issue 7 | 2021. – B. 1145-1159.
**6. Oripov. B.N Tasviriy san'at va uni o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. "Ilm Ziyo", Toshkent-2012.**
7. Суяров Н.Т. Использование регионального компонента на уроках изобразительного искусства 5-7 классов. Jackson ville Florida, USA. December 30 th 2021. – P.1-3.
https://conferencepublication.com.
8. Suyarov N.T., Erkaev E.T. (2021). Implementation of national-regional component in the educational process in the republic of Uzbekistan. Current research journal of pedagogics. Impact factor: 5.7. (USA), 2 (08), Volume 01, Issue 06, Avgust, 2021. –P.117-121. (ISSN 2767-3278).

## BOSHLANGʻICH TAʼLIM TIZIMIDA BOGʻLANISHLI NUTQNI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI VA AHAMIYATI

***Nuriddinova Azizaxon Bahromjon qizi***
*Namangan davlat universiteti talabasi*

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada boshlangʻich sinf oʻquvchilarini oʻqish darslarida bogʻlanishli nutqini rivojlantirishning nazariy asoslari uchun olib boriladigan chora-tadbirlar xususida soʻz borgan. Qolaversa,oʻquvchilar nutqining rivojida oʻqituvchilardan nimalar talab qilinishi koʻrsatib oʻtilgan.*

***Kalit soʻzlar:*** *oʻquvchi, til, soʻz, nutq, talaffuz, mahorat, ijodkorlik, ona tili va oʻqish savodxonligi, hikoya qilish.*

***Аннотация:*** *В данной статье рассматриваются шаги, которые необходимо предпринять для теоретических основ развития связной речи на уроках чтения в начальной школе.*

***Ключевые слова:*** *учитель, ученик, язык, слово, речь, произношение, умение, творчество, родной язык и грамотность чтения, рассказывание историй.*

***Annotation:*** *This article discusses the steps that need to be taken for the theoretical foundations of developing connected speech in primary school reading lessons.*

***Keywords:*** *teacher, student, language, word, speech, pronunciation, skill, creativity, mother tongue and reading literacy, storytelling.*

Har bir mamlakatning taraqqiyoti, istiqboli, farovonligi, ma'naviy yuksalishi, jahonning eng rivojlangan davlatlar qatoridan oʻrin olishi – bilimli, yuqori intellektual salohiyatli, qalbiga va ongiga ezgu fazilatlarni mujassamlagan yoshlarga bogʻliq hisoblanib, har jihatdan yetuk va barkamol, Vatan taqdiri uchun sidqi dildan xizmat qiladigan,fidoyi, iymonli avlodni voyaga yetkazish, oʻqitishni sifatli va mazmun jihatdan yuqori pogʻonalarga olib chiqish avvalo oʻqituvchi va tarbiyachi murabbiylar zimmasiga sharafi va ayni paytda mas'uliyatli vazifani yuklaydi.

2022-yil 28-yanvar kuni Davlatimiz rahbari raisligida maktab ta'limini rivojlantirish masalalari yuzasidan videoselektor yigʻilishi boʻlib oʻtdi.Prezident maktablardagi ta'lim sifati va mazmuniga ham keskin baho berdi. "Ta'lim-tarbiya – bu bizning kelajagimiz, hayot-mamot masalasi. Shu bois, bu sohadagi islohotlarni kechiktirishga haqqimiz yoʻq.

Qanchalik murakkab boʻlmasin, maktab ta'limida poydevorni bugundan mustahkam qoʻyishimiz kerak deb ta'kidlab oʻtdi. "Ta'lim sifatini mutlaqo yangi bosqichga olib chiqish boʻyicha katta islohotlarni boshlaymiz" - Prezident. Davlatimiz rahbari oʻqitish metodikasi, darsliklar, partadan tortib, binosigacha toʻliq qayta koʻrib chiqilishini aytib oʻtdi.

Rus pedagogi K.D.Ushinskiy (1824-1870) rus burjua-demokratik pedagogikasi, xususan, maktabgacha pedagogikaning asoschisi hisoblanadi. U

bolalarni maktabgacha tarbiyalash nazariyasi va amaliyoti masalalarini boshlang'ich ta'lim muammosi bilan bog'lagan. Ushinskiy pedagogika tizimining asosiy yetakchi g'oyasi xalqona tarbiya g'oyasi hisoblanadi, bunda u har bir xalqning u yashaydigan va mehnat qiladigan tarixiy, tabiiy shart-sharoitlari bilan bog'liq bo'lgan o'ziga xosligini tushunadi.

Ushinskiy 7-yoshgacha bo'lgan bolalar nutqini tavsiflar ekan, uning ayrim xususiyatlarini, masalan: tovushning tushunarsizligi, lug'at boyligining yetarli emasligi, o'zaro bog'liqlikning yo'qligini alohida ta'kidlagan. U bolalar bilan mashg'ulot o'tkazishning turli shakllarini taklif qilgan: -bolalar hayotidan hikoyalar; -bolalarga narsalarning xususiyatlarini ko'rishda,7 yoshga kelib esa narsalar juftligini bir-biriga taqqoslash, ular o'rtasidagi umumiylik va farqlarni topishda yordam beruvchi mashqlar; -suratlar asosida hikoya qilish, bu bolalarga savollarga javob berish, so'ngra esa ravon, tushunarli va erkin hikoya qilib berishni o'rgatadi; - bolalarni o'qish va yozishga tayyorlovchi amaliy mashqlar.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ruhan shakllantirishda nutqni rivojlantirish metodikasini mustaqil fan sifatida ajratish muhim ahamiyatga egadir.

1. Til haqida, uning vujudga kelishi haqida ta'limot-metodikaning nazariy asoslari ishlab chiqiladi; uning har bir odamning rivojlanishida tutgan o'rni ko'rsatib beriladi, bu esa bolalarni rivojlantirish va tarbiyalashda ona tili va o'qish savodxonligi darslarining yetakchi o'rin tutishini asoslash imkonini beradi.

2. Bolalar nutqini rivojlantirish ishi maktab ta'limiga qadar boshlanadigan ish sifatida alohida bo'limga ajratiladi.

3. Bolalar nutqini rivojlantirishga bolaning uzoq davom etadigan ona tili va o'qish savodxonligi, uning mazmuni va shakllarini o'zlashtirish jarayoni sifatida qaraladi. Ushbu murakkab jarayon ustoz tomonidan to'g'ri va faol rahbarlik qilishni talab qiladi.

4. Ona tili va o'qish savodxonligini o'qitish jarayoniga rahbarlik qilishning asosiy qoidalari. Ona tili va o'qish savodxonligini birlamchi o'qitishning birlamchi maqsadlari; ularni amalga oshirish mazmuni va shakli; nutqni rivojlantirishda ko'rgazmaviylikning ahamiyati ishlab chiqiladi va asoslab beriladi.

5. Bola nutqi uning fikrlashi, ma'naviy va estetik his-tuyg‘ulari bilan birgalikda rivojlantirishni ta'minlovchi ish usullari ko‘rsatib beriladi.

Boshlang‘ich sinf bolalari nutqini rivojlantirish - bu murakkab psixologik jarayon bo‘lib, u faqat bolalarning eshitgan nutqiga taqlid qilish jarayon emas. Bu jarayon bolalardan umuman muloqot faoliyatini rivojlantirish va birinchi navbatda, muloqotga ehtiyoj borligi bilan bog‘liqligidir. Bolaning borliqning yangi tomonlariga yo‘naltirilganligi, amaliy faoliyatdan olamni, so‘ngra, odamlarni, ularni munosabatlarini o‘rganishga o‘tish yangi maqsadlarga xizmat qiluvchi yangi muloqot vositalari zaruratini keltirib chiqaradi. Bola leksikasini kengaytirish, uning o‘z kechinmalarini yanada keng va xilma-xil ifodalanishni o‘zlashtirishi uchun imkoniyat yaratadi. Nutqni zamonaviy va to‘laqonli rivojlantirish uchun atrofdagi hayot bilan o‘zaro hamkorlik bolaning muloqotga bo‘lgan ehtiyoj tarkibini boyitish zarur. Bolalarning nutqni egallab olishlarini sababi, ularning muloqot faoliyatlarining asosini ehtiyoj-motivatsiya tashkil qilishi, uning tarkibi o‘zgarganligidir. Verbal bosqichda bolada sust nutq shakllanadi. Ushbu bosqichga bo‘lgan davrning asosiy ahamiyati shundaki, uning ichida navbatdagi bosqich-faol nutq paydo bo‘lishi bosqichiga o‘tish uchun zarur bo‘lgan sharoit vujudga keladi. Bolaning faol nutqning o‘zlashtirishning ikkinchi bosqichida uchta asosiy jihat ajralib chiqadi:

emotsional munosabatlar;

birgalikda faoliyat (hamkorlik) davomidagi munosabatlar;

tovushli munosabatlar.

Bolaning kattalar bilan muloqot qilishining ko‘rib chiqilayotgan har bir jihati uning oldiga kattalar tomonidan qo‘yilayotgan va so‘zdan jamiyatda o‘zaro birbirini tushunish uchun shartli ravishda qabul qilingan vosita sifatida foydalanishni talab qilishdan iborat bo‘lgan kommunikativ vositani hal etishlariga qabul qilishlariga yordam beradi. Bundan tashqari, kommunikativ omilning ko‘rib chiqilayotgan har bir jihati yoki bu darajada va o‘z holicha bolalarning kommunikativ vazifani hal etishlariga yordam beradi. Nutqni rivojlantirishning uchinchi bosqichida- uning materiyasi (leksika va grammatika) bolaning muloqot vazifasini o‘zgartirgan holda kattalar bilan muloqotga bo‘lgan ehtiyojiga va uning tarkibiga uzviy bog‘liq bo‘ladi. Bola nutqining yangi, yanada murakkab va keng

qamrovli jihatlani o'zlashtirishga olib keladi. Bolaning ruhan shakllanishida nutqning hal qiluvchi o'rni egallashi uning turli bosqichlarda rivojlanishiga yordam beruvchi shart-sharoitlar va omillarning ahamiyatini yanada oshiradi. Nutq rivojini harakatlantiruvchi kuchlar haqidagi masala ular shiddati bilan va to'satdan amalga oshirilishi tufayli ham alohida ahamiyat kasb etadi. Bolalar nutqini rivojlantirishni rivojlantiruvchi yoki uni sekinlashtiruvchi kucharni aniqlash ushbu jarayonda aniq maqsadni ko'zlagana holda pedagogik sa'y-harakatlarni uyushtirsh kalitidir

Til madaniyatini umumiy rivojlantirish, bolalarda o'z xalqiga, vataniga muhabbatni tarbiyalash bilan bog'liqlikda o'rganiladi. Ye.I.Tixeyeva tilni o'rgatishni ilk bolalik chog'idan boshlash zarur, deb hisoblagan, chunki to'g'ri nutq ko'nikmasi boshqa ko'nikmalar singari oilada orttiriladi. Ye.I.Tixeyevaning fkricha, мaktabgacha ta'lim muassasasi bolalarning barcha qobiliyatlarini rivojlantirgan holda nutqni egallashning juda ahamiyatli va muhim qobiliyatiga e'tiborni qaratishi darkor: "Chunki nutqni muntazam o'rgatish, nutq va tilni metodik rivojlantirish maktabgacha ta'lim muassasasidagi tarbiya ishlarining asosini tashkil qilmog'i lozim".

Maktablarda olg'a surilgan asosiy vazifa- o'quvchilarning barcha qobiliyatlarini, shu jumladan nutqni egallash qobiliyatini jadal rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratishdan iborat. Ayni paytda nutqni o'rgatish maktabdagi,sinfdagi butun tarbiya ishlarining asosini tashkil qilmog'i zarur.

Ikkinchi vazifa – o'quvchilar nutqining shakli, uning bolalar atrofdagilardan o'zlashtirib oladigan narsalar tuzilmasi ustida ishlashidan iborat.

Uchinchi vazifasi –o'quvchilar nutqini rivojlantirish vazifasini o'qituvchilar zimmasiga yuklagan holda pedagog o'quvchilar nutqini rivojlantirishning eng yangi metodlarini o'zlashtirishi, nafaqat metodik usullarni bilishi, balki ularni bolalar bilan muloqot chog'ida qo'llay olishi ham darkor.

O'qituvchi o'quvchilar nutqini rivojlantirishga oid ishlar mazmunini hamda nutqning rivojlanishi, og'zaki nutq rivojlanishi ro'y beradigan faoliyat turlarini aniqlab olishi kerak.O'qish darslarida ushbu faoliyat turlarini yo'lga qo'yishda asosiy e'tiborni lug'atni boyitish va ravon nutqni rivojlantirishga qaratishlozim. U ko'rgazmaviylik va kuzatishni bola nutqini rivojlantirish asosi deb hisoblaydi.

Ekskursiyalarni oʻtkazish oʻqish faniga bogʻlagan holda metodika ishlab chiqiladi.

Ekskursiyalarni bunday tashkil qilish bolalarni bevosita tabiatga oshno qiladi, ularga jonli borliqni ularning tabiiy munosabatlari bilan birgalikda tanishtiradi.

Nutqni rivojlantirish mashgʻulotlarida quyidagi metodika oʻquvchilar qiziqishlari va tajribalari, ularni jonli oʻtkazish, harakatlanish va sinab koʻrish imkoniyatlarini beradi.

• oʻquvchilarni maktabda ta'lim olishga tayyorlovchi uyushtirilgan dasturiy mashgʻulotlarni oʻtkazish metodikasi;

• boshlangʻich sinf oʻquvchilar nutqini, fkrlashini rivojlantirish;

• original didaktik material tizimi va undan boshlangʻich sinflarda foydalanish metodikasi.

Sinchiklab ishlab chiqilgan nutqni rivojlantirish metodikasi maktabgacha tarbiya nazariyasi va amaliyotiga qoʻshilgan ulkan hissa boʻlib, u bugungi kunda ham oʻz ahamiyatini yoʻqotmagan.

A.P.Usova fikricha, ta'lim jarayonining oʻzi toʻgʻri nutqiy rivojlanish kafolati boʻlib xizmat qiladi, chunki «bolalarning nutqiy rivojlanishiga shunday sifatlarni kiritadiki, ular odatda, oddiy sharoitlarda zaif rivojlanadilar». Ta'lim nutq rivojlanishi qonuniyatlari toʻgʻri hisobga olingan taqdirda u barcha bolalar nutqining maqbul darajada rivojlantirilishini ta'minlaydi. Unda bolalarning mustaqil ravishda egallab olishlari qiyin boʻlgan hikoya qilib berish qobiliyatini shakllantirishga alohida ahamiyat berilgan.

Xulosa: Inson tajribasining tarixan shakllangan mazmuni soʻzli shaklda umumlashtirilgan, uni bayon etish va oʻzlashtirish esa ushbu jarayonda nutqning ham ishtirok etishini nazarda tutadi. Nutq bolaga inson madaniyatining barcha yutuqlariga yoʻl ochadi. Oʻquvchilarning sogʻlom, har tomonlama kamol topib shakllanishni ta'minlaydi, unda oʻqishga intilish hissini uygʻotadi, uni muntazam ta'lim olishga tayyorlaydi.

Boshlangʻich sinf oʻquvchilari eshitadigan, ma'nosini tushunadigan, eslab qoladigan hamda qoʻllaydigan soʻzlarni asta-sekin tevarak-atrof bilan tanishish

jarayonida ota-onalari, tengdoshlari axborotlari orqali, shuningdek, o'zida bo'lgan so'z zaxirasiga tayanib bilib oladi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Babayeva D. R. "Bolalar nutqini o'stirish nazariyasi va metodikasi". Toshkent " Barkamol fayz media". 2018.
2. Qodirova F.R, Qodirova R.M. "Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi. Toshkent. "Istiqlol" 2006.
3. Sharipova M.B, Nizomova SH.SH. " Bolalar nutqini o'stirish" maruzalar matni. Buxoro. 2019-2020 o'quv yili.
4. Babayeva D.R. "Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi" o'quv- uslubiy majmua. Toshkent-2018.

**INTERNET MANBALARI:**

1. www.tdpu.uz
2. www.pedagog.uz
3. www.ziyonet.uz

## TASVIRIY SAN'AT DARSLARIDA O'QUVCHILARNING KOMPOZITSION FIKRLASH QOBILAYATLARINI SHAKLLANTIRISHNING AHAMIYATI

***Suyarov Nodirjon Taxirovich***
*Namangan davlat Pedagogika instituti dosent*
***Nasirdinov Omoniddin Sayfidinovich***
*Namangan davlat Pedagogika instituti magistri*

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada maktab tasviriy san'at darslarida o'quvchilarning kompozitsion fikrlash qobiliyatlarini shakllantirishning ahamiyati va uning vazifalari haqida bo'lib, kompozitsion fikrlash qobiliyatini shakllantirish va uning inson hayotida tutgan o'rni to'g'risida malumot beriladi.*

***Kalit so'zlar:*** *San'at, tasviriy san'at darslari, kompozitsiya, kompozitsiya asoslari, kompozitsion fikrlash qobiliyati.*

***Аннотация:*** *В данной статье речь идет о важности формирования навыков композиционного мышления учащихся на школьных уроках*

*изобразительного искусства и его задачах, дается ссылка на формирование навыков композиционного мышления и его роль в жизни человека.*

***Ключевые слова:*** *искусство, уроки рисования, композиция, основы композиции, умение композиционно мыслить.*

***Abstract:*** *In this article we are talking about the importance of the formation of compositional thinking skills of students at school lessons of fine art and its tasks, a reference is given to the formation of compositional thinking skills and its role in human life.*

***Keywords:*** *Art, art lessons, composition, fundamentals of composition, the ability to think compositionally.*

San'at tabiat va jamiyatdagi voqea-hodisalarning badiiy tasvirlarda ifodalanishidir. San'at o'zida moddiy olamning umumiy holatini hamda rivojlanishini aks ettirish, odamlarga uni bildirishda muhim vosita bo'lish bilan birga, insonni siyosiy, axloqiy va badiiy jihatdan tarbiyalashning qudratli omili bo'lib xizmat qiladi. San'at voqelikni ifodalash uslubi, xarakteri, mazmuniga ko'ra, tasviriy san'at, me'morchilik, adabiyot, musiqa, sirk, teatr, kino, radio-televideniya kabi turlarga bo'linadi. San'atning ijobiy va eng m uhim xususiyati shundaki, u fandan farqli o'laroq, voqea-hodisalarni tushunchalarda emas, balki sezgi va his bilan idrok qilinadigan shakllarda, tipik badiiy obrazlarda ifodalaydi. San'at insoniyatning ezgu niyatlarini, ularning orzu-umidlarini to'la ifoda etadi. Shu boisdan xalqimiz o'z san'atini qanchalik ardoqlab, unga hurmat va ehtirom bildirsa, jahon xalqlari ham bugungi o'zbek san'atiga ana shunday ixlos va ehtirom bilan qaraydilar.

Umumiy ta'lim maktablarida tasviriy san'at darslari estetik tarbiya, san'at va madaniyat, o'zbek san'ati tarixini o'rganishning asosiy vositalaridan xisoblanib, o'quvchilarni ma'naviy barkamol etib tarbiyalashda katta ahamiyatga egadir. Tasviriy san'at darslarida o'quvchilar ilmiy bilim asoslarini egallaydilar, borliqni o'zlashtiradilar, bu esa ularni g'oyaviy, aqliy, axloqiy, estetik jihatdan tarbiyalashda samarali ta'sir ko'rsatadi. Tasviriy san'at darslari o'quvchilarda ma'naviy dunyoqarashni, g'oyaviy e'tiqodni shakllantirishda aloxida ahamiyat kasb etadi. U fikrlash qobiliyatini, ko'rish xotirasini, ijodiy tasavvurni, badiiy didni,

estetik hissiyotni oʻstiradi. Maktabda oʻqitiladigan tasviriy san'at darslarining har bir turi (narsaning oʻziga qarab rasmini chizish, dekorativ rasm chizish, mavzu asosida rasm chizish, tasviriy san'at haqida suhbat) oʻquvchilar ijodiy qobiliyatining oʻsishiga, dunyoqarashining shakllanishiga yordam beradi, ya'ni shaxsni har tomonlama kamol toptiradi. Tasviriy san'at mashgʻulotlari oʻquvchilarning koʻrish orqali idrok etishini oʻstiradi. Koʻz orqali idrok etishni rivojlantirish deganda, biz maqsadga muvofiq kuzatish qobiliyatini tushunamiz, ya'ni narsa va hodisalarni solishtirish, ularning farqi va umumiy tomonlarini aniqlash, narsalarni shakl va tashqi koʻrinish jihatidan klassifikatsiyalashni anglaymiz. Olib borilgan ilmiy tadqiqotlar shuni koʻrsatmoqdaki, odamlar tashqaridan olayotgan har qanday ma'lumotlarining 85-90% dan ortiqrogʻini koʻz orqali oladi. Bu kishilar hayotida koʻzning roli beqiyos ekanligini koʻrsatib turibdi va u koʻzning imkoniyatlari oʻrganishni talab etadi. Maktabda esa koʻz xotirasini, uning imkoniyatlarini rivojlantirnshda boshqa fanlarga qaraganda tasvirii san'at fani ancha ustun turadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda tasviriy san'atning insonlar hayotidagi roli yanada oydinlashadi.

Tasviriy san'at darslarida o'quvchilar narsaning o'ziga qarab tasvirlash, rangshunoslik, rang tasvir, grafika, dizayndan tortib modellashtirishgacha bo'lgan jarayonlarni o'rganadi. Bu jarayonlarni o'rganishda katta xizmat qiluvchi omil kompozitsiya, kompozitsion ko'rish va kompozitsion fikrlash qobiliyatidir. Shuning uchun ham tasviriy san'at darslarida avvalo, qarab chizish va predmet yoki holatning kompozitsion yechimini topish o'rgatiladi. Kompozitsiya va kompozitsion fikrlash qobiliyati nafaqat tasviriy san'at darslarida, balki inson hayotida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Har qanday badiiy ijod mahsuli boʻlmish asarning mukammalligi, saviyasi, birinchi navbatda, kompozitsiya orqali namoyon boʻladi. «Kompozitsiya» soʻzi «yaxlitlik», «birlik», «oʻzaro bog'liqlik» degan ma'nolarni bildiradi. Boshqacha qilib aytaganda, qismlarning butunlikka bogʻliqligini ta'minlovchi sifatlar kompozitsiyani tashkil etadi.

Biz kundalik hayotimizda, turmushimizda juda koʻp predmet va voqeahodisalarning rasm-tasvirlarini uchratamiz. Ulardan ayrimlari bizga yoqadi, ayrimlari yoqmaydi. Buning boisi - shu rasm hamda tasvirlami yaratishda kompozitsiyaga qay darajada e'tibor berilganligidadir. Ma'lumki, rasm va

tasvirlarning mazmuni, maqsadi va vazifasiga ko'ra ularning kompozitsion tasviri yaratiladi. Kompozitsiyaning to'liq, mazmunli, ishonchli chiqishi narsaning o'ziga qarab rasm chizishda muhim ahamiyatga ega. Bu asosan naturaning shakli, tuzilishi, rangi, turish holati, yorug'- soyalarning tushishi, u rasm chizuvchidan qancha masofada turganini aniq belgilash va uni shu holda ifoda etilishiga bog'liq bo'ladi. Shu boisdan natura va naturmort elementlari rasm kompozitsiyasi bo'yicha shunday taqsimlanmogi kerakki, uning har biri rasm ifodasida o'z o'rniga, turish holatiga, bir-biriga bog'lanishiga ko'ra rasm kompozitsiyasini chiroyli, jonli, harakatchan va tomoshabinga yoqimli bo'lishiga yordam berishi zarur. Narsaning o'ziga qarab rasm chizishda kompozitsiyaning asosiy talabi - natura va naturmort elementlarining bir butunligini tashkil etish, shuningdek, shakl, rang hamda ularning uyg'unligi, mustaqilligi va mazmunini saqlashdir.Narsaning o'ziga qarab rasm chizishda kompozitsiya - badiiylikning bosh mezoni bo'lib, u rasmdagi har bir narsaning yaxlitligi, realligi, o'zaro uyg'unligi, mosligi hamda ularning tasvirlanishdagi ijodiyligi, ko'rkam va jozibasini ta'minlay oladigan badiiy uslubdir.

Shu boisdan narsaning o'ziga qarab rasm chizishda natura yoki naturmort elementlarining katta-kichikligiga, mavzuga ko'ra o'z o'miga qo'yilishi, ya'ni postanovka elementlarining katta hajmdagilarini orqa tomonga, o'rtacha kattalikdagilarini o'rta planga va kichik hajmdagilarining esa oldinga qo'yilishi, bunda ularning rangiga ham e'tibor berilishi maqsadga muvofiqdir Agar rasm chizuvchi biron manzarani ifodalamoqchi bo'lsa, u eng avvalo, ko'rinib turgan manzaraning qancha qismini yoki rasmga tushiriladigan yerning ikki chetini, yuqori (havo qismi) va quyi qismining qog'oz yuzasiga qanday tushirilishi, ko'rinib turgan manzaradagi predmetlardan qaysi birini olib tashlash va nimalarni kiritish mumkinligi haqida bir fikrga kelib oladi. Bu ishlarda qiyinchiliklar tug'ilsa, rasm chizuvchi o'zi yasab olgan ko'rinishni topuvchi (видеоискатель) dan foydalanishi mumkin. Ko'rinib turgan manzara qog'oz yuzasiga tushiriladi. So'ngra kompozitsiyaga tushadigan daraxtlar, yer-suvlar, o't-o'lanlarning o'rinlari aniq belgilab chiqiladi. Bu yerda kompozitsiya elementlarining qaysi biri natural holda, qaysi biri umumlashtirilgan, qaysi biri ijodiy-badiiylashtirilgan holda bo'lishini aniqlab, kompozitsiya mazmuniga kiritiladi.

Qalamtasvir va rangtasviming hammasida ham kompozitsion yechim

bo'lishi talab qilinadi. Kompozitsion yechim rasmda ma’lum mavzu, uning mazmuni, elementlari hamda ikkinchi darajali obrazlar va elementlar bo‘lishini ishonarli holda, mavzu mazmuniga uyg'un tarzda yoritilishini, shuningdek, kompozitsiyadagi barcha predmet, vaqt, davr, barcha harakatlar bir momentga va mavzu mazmuni – sujetiga moslashtirilishini talab qiladi.

Maktab tasviriy san’at darslarida kompozitson fikrlash qobiliyatini takomillashtirish o’qituvchilar oldida bir necha muhim vazifalarni yuklaydi. Avvalo o’quvchilarni kompozitsiyani ko’rish va tushunish qobiliyatini shakllantirish va keyinchalik bu jarayonni tasvirlash jarayonida qo’llash. O’qituvchilar bu holatda, har bir o’quv jarayoni qadam-ba qadam olib boriladi.

O’quvchilarga avvalo kompozitsiya uning tayanch tushunchalari o‘rgatib boriladi. Keyinchalik vazifalar murakkablashtirilgan holda ulardan kompozitsiya tuzish, ixtiyoriy predmetlarni tanlash talab qilina boshlaydi. Bu o‘quvchilarda kompozitsion fikrlash qobiliyatining ilk bosqichlarini rivojlantiradi. O’quvchilarga topshiriqlar asta-sekinlik bilan murakkablashtirib borilar ekan, natijalar ham yaxshilanib boradi. Kompozitsiya-tasviriy san’at asosidir. Har qanday ijodiy ish, kompozitsion yechimga ega bo’lgandagina, san’at asari sifatida qabul qilinadi.

Kompozitsiyani ko’rish, uni yarata olish, bir so’z bilan aytganda kompozitsion fikrlash qobiliyati ega bo’lish aynan shuning uchun muhim hisoblanadi.

Xulosa o’rnida shuni aytish lozimki, kompozitsion fikrlash qobiliyati orqali o’quvchilarda estetik idrok, taqdimot, estetik his-tuyg’u rivojlanadi, bundan tashqari san’at asarlarini yarata olish, tushunish, anglash qobiliyatlari shakllanadi. O’quvchilar ta’lim jarayonida zaruriy hisoblanuvchi, fikrlash jarayoni rivojlantiriladi, taqqoslash tahlil qilish, sintezlash , umumlashtirish jarayonlarini takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Tasviriy san’at darslari bevosita o’quvchilar ichki dunyosi, dunyoqarashiga tasir qiladi. Kompozitsion fikrlash qobiliyati tasviriy san’at darslari asosi bo’lib, dunyoni yanada yaxshiroq, go’zalroq ko’rishga, uni yanada jozibali tomonlarini anglashga yordam beradi. Kompozitsion fikrlash qobiliyati aynan shu maqsadda muhim va ahamiyatlidir.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Baymetov, B. B., & Muratov, K. K. (2020). Self Sketches as a Tool in the Professional Training of a Future Artist-Teacher. Solid State Technology, 224-231.
2. Байметов, Б. Б. (2016). История развития изобразительного искусства. Узбекистана. Наука, образование и культура, (1 (4)).
3. Jabborova Shahzoda Husen qizi (2022) Vizual faoliyat jarayonini boshlang'ich sinf o'quvchilari ta'lim jarayonida qo'llash.
4. Aslanova Nargiza Hakimovna (2021) Tasviriy san'at fani to'garaklarida STEAM talim tizimi.
5. Jabborova Shahzoda Husen qizi (2022) Tasviriy san'at darslarida nazariy bilimlarning o'rni va ahamiyati. o'quvchilar ijodiy faoliyatiga ta'siri.
6. Umurova Maftuna Uyg'un qizi (2022) Dekorativ san'at va uning o'quvchilar badiiy estetik didiga ta'siri.
7. Sharofiddinova, Sh. X.(2022) Maktab tasviriy san'at darslarida o'quvchilarning kompozitsion fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish metodikasi.
8. Oripov. B.N Tasviriy san'at va uni o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. "Ilm Ziyo", Toshkent-2012.
9. Суяров Н.Т. Использование регионального компонента на уроках изобразительного искусства 5-7 классов. Jackson ville Florida, USA. December 30 th 2021. – P.1-3. https://conferencepublication.com.
10. Suyarov N.T., Erkaev E.T. (2021). Implementation of national-regional component in the educational process in the republic of Uzbekistan. Current research journal of pedagogics. Impact factor: 5.7. (USA), 2 (08), Volume 01, Issue 06, Avgust, 2021. –P.117-121. (ISSN 2767-3278). (Ulrich's Periodicals Directory 18)

# MILLIY G'OYA VA HUQUQSHUNOSLIK FANLARINI O'QITISH METODIKASI MAZMUNI

***Qosimov Xamidullo Abduqaxxor o'g'li***

*Namangan Davlat universiteti Yuridik fakulteti Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi M.AU-21 guruh talabasi.*

*Ilmiy rahbar: Namangan Davlat universiteti Milliy g'oya va huquq ta'limi kafedrasi dotsenti.* ***Temurbek Islomovich Ismoilov***

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqola milliy g‘oya va huquqshunoslik fanlarini o‘qitish metodikasi mazmuni, hamda milliy g‘oya o‘zi nima ekanligi uning ta’sinifi va tariflari, shuning birgalikda huquqsunoslik tushunchasi, Uning tarixan vujudga kelishi huquqning paydo bo‘lishi va rivojlanishi bilan bog‘liqligi, hozirda barcha oliy o‘quv yurtlarida milliy go‘ya va huquqshunoslik fanlari o‘rganib kelinyotganligi haqida ma’lumotlar berilgan.*

***Kalit so‘zlar:*** *Milliy g‘oya, huquqsunoslik, o‘quvchi, vatanparvarlik, mashq, o‘qitish metodikasi, metodika, millatning qalbi,*

Yurtimizda bugungi kunda yoshlar yangidan yangi imkoniyatlar yaratilib kelinmoqda, ayniqsa ta’lim sohasida o‘quvchi yoshlarga berilayotgan bilim ko‘nikmalar o‘z natijasini ko‘rastib kelmoqda. Bugungi kun yoshlari Ta’lim berish, har bir mavzuning mag‘zini o‘quvchi yoshlarga ongiga yetkazish mahorati o‘qituvchidan ko‘p izlanishni hamda mutolaa qilishni talab kiladi. Bilim ummoniga boy bo‘lgan ustozgina mavzuni mohiyatini  o‘quvchi yoshlarga ongiga mohirona yetkaza oladi. Ta’lim metodlaridan oqilona foydalanib, ilmiy dars o„tish, o„quvchilarni hayotda o‘z o‘rnini topishga, ongning shakllanishiga katta asos bo‘lib xizmat qiladi. O‘qituvchining ma’lum fan ilmini o‘quvchilar ongiga yetkaza olish maxorati, shu o‘quvchilarni bo‘lg‘usi hayot yo‘llarini tanlashda muhim ahamiyatga ega. Oldin bayon qilganimizdek, ta’limning moxiyati inson kamolotini shakllantirishga xizmat kiladi. Ta’lim metodi ta’limning maqsadi va vazifalariga bog‘liq. Metodlar o‘quvchilarning yoshiga, ta’limning mazmuniga va funksiyasiga qarab tanlanadi. O‘qituvchi o‘zining shaxsiy sifatlari: komilligi bilan talabalarga o‘rnak bo‘lishi, ta‘limiy maqsad bilan tarbiyaviy maqsad mutanosibligi, fan asoslari va g‘oyalarini chukur bilishi bilan talabalarga o„rnak bo„lishi talab kilinadi.  Milliy g‘oyani o‘zi nima bizga nima beradi degan tushunchlar bor, demak milliy g‘oyga ta’rif bersak**,** milliy g‘oya – muayyan millat hayotiga mazmun baxsh etadigan, uni ezgu maqsad sari yetaklaydigan fikrlar majmui. U millatning o‘tmishi, buguni va istiqbolini o‘zida mujassamlashtiradi, uning tub manfaatlarini, maqsadlarini ifodalaydi. Milliy g‘oya o‘z mo-hiyatiga ko‘ra, xalq, millat takdiriga daxldor bo‘lgan, qisqa yoki uzoq muddatda hal etilishi kerak bo‘lgan vazifalar va mo‘ljallarni ham

aks ettiradi. Milliy g'oyaning yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, yoshlar qalbiga insonparvarlik va odamiylik fazilatlarini, umuminsoniy qadriyatlarni singdirishda ahamiyati katta. Milliy g'oya vositasida el-yurt birla-shadi, o'z oldiga buyuk maqsadlar qo'yadi va ularni ado etishga qodir bo'ladi. "Milliy g'oya deganda, ajdodlardan avlodlarga o'tib, asrlar davomida e'zozlab kelinayotgan, shu yurtda yashayotgan har bir inson va butun xalqning qalbida chuqur ildiz otib, uning ma'naviy ehtiyoji va hayot talabiga aylanib ketgan, ta'bir joiz bo'lsa, har qaysi millatning eng ezgu orzu-intilish va umid-maqsadlarini o'zimizga tasavvur qiladigan bo'lsak, o'ylaymanki, bunday keng ma'noli tushunchaning mazmun-mohiyatini ifoda qilgan bo'lamiz".[1] Huquqshunoslik fanlariga keldigan bo'lsak, Huquqshoslik o'zi nima? Huquqshunoslik, yurisprudensiya – huquqii ijtimoiy nor-malarning alohida tizimi sifatida, huquqning alohida tarmoqlarini, davlat va huquq tarixini, davlat va umuman siyosiy tizimning faoliyatini o'rganuvchi fan. Huquqshunoslik – eng qadimiy ijtimoiy fanlardan biri. Uning tarixan vujudga kelishi huquqning paydo bo'lishi va rivojlanishi bilan bog'liqdir. Yunon falsafasi dayoq huquqshunoslikning eng muhim nazariy muammolari o'rtaga tashlangan, rim huquqshunoslari esa huquqiy tushuncha va tuzilmalarni ishlab chiqqan edilar, bu tushuncha va tuzilmalar hozirgi davrda ham o'z ahamiyatini saqlab qolgan. Hozirda barcha oliy o'quv yurtlarida milliy go'ya va huquqshunoslik fanlari o'rganib kelinadi. Ular boshqa fanlar orasida yaqqol nufuzli mavqega ega. Mazkur fan o 'zining metodologik va nazariy asos sifatidagi xususiyatlari bilan, butun yurisprudensiya sohasi hamda milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishlarni o'ziga qamrab olganligi bilan ajralib turadi. hamda Milliy g'oya va huquqshunoslik fanlarini o'qitish metodikasi hamda Ta'limda izchilikka rioya qilib o'qitish lozim, toki bugun o'rganilgan bilimlar kecha o'rganilganlarni mustahkamlasin, ertaga ta'lim oladigan o'quvchilarga bilm ko'nikmalar ni kengaytirishga imkoniyat yeratsin. Nazariy bilimlar amaliyotga ko'chirilganda, uni aniq his qilib, tasavvur qilib o'zlari amalda bajaradilar, masalalar yechadilar. So„ngra bilimlari mohiyatini tushunib oladilar. Shu mavzu bo'yicha aniq ko'nikmaga ega bo'ladilar. Shu asnoda boshqa fanlardan ham bilim olish va amaliy mashg'ulotlar evaziga ularda ko'nikmalari boyib boradi. O'qitish metodlari bilimlarni berish usullari sifatida qaraladi va talabalarning ilmiy

bilish faoliyatiga rahbarlik qilishga qaratilgan boʻladi hamda oʻquv jarayonida pedagogning talabalarga taʻsir koʻrsatishini shakllatiradi. Oʻrganish metodlari bilim, malaka va koʻnikmalarni ijodiy egallashga hamda metodik va gʻoyaviy - siyosiy e'tiqodlarni ishlab chiqishga qaratilgan talabalarning ilmiy bilish faoliyati usuli sifatida belgilanadi. Metod deganda, ta'limda maqsadga erishish, masalalarni hal qilish yoʻllari, usullari tushuniladi. Oʻqitish metodi tarkibida usullar alohida ajralib turadi. Usul metodning unsuri boʻlib, uning tarkibiy qismi, metodni amalga oshirishda bir martagina qullanadi va alohida qadam hisoblanadi. Oʻqitish metodi – murakkab, koʻp qirrali, koʻp sifatlarga ea boʻlgan ta'limdir. Oʻqitish metodida oʻqitishning obyektiv qonuniyatlari, maqsadlari, mazmuni, tamoyillari, shakllari oʻz aksini topadi. Metodlar boshqa didaktik kategoriyalarga dialektik bogʻliq va biri boshqalarini taqozo qiladi, ya'ni oʻqitishning maqsadi, mazmuni, shakli hosilasi sifatida metodlar didaktik kategoriyalarga aks ta'sir koʻrsatadi. Jamiyatning borligʻi, kelajagi, hozirgi davrning qay darajada shakllanishi shu jamiyatda yashovchi fuqarolar ning xattiharakatlariga bogʻliq. Har bir davlat oʻz fuqarosini har tomonlama oʻqimishli, ongli, tarbiyali koʻrishni istaydi, shunday boʻlishi uchun sharoit yaratadi, imkoniyat beradi. Jamiyat rivojlanishining asosiy harakatlantiruvchi kuchi boʻlgan yosh avlodni har tomonlama barkamol, yetuk mutaxassis sifatida tarbiyalash, ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan boy ma'naviy ma'daniy merosni oʻrganish va ulardagi ilgʻor gʻoyalar va qarashlardan hozirgi zamon yoshlar ta`lim-tarbiya sohasida mustahkamlab borish lozimdir.

**Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:**

1. I.A.Karimov "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch" Toshkent 2008-yil (22-bet)

2. R.Mavlonova, N.Voxidova, N.Raxmonqulova "Pedagogika Nazariyasi va Tarixi" toshkent – 2010 (319-bet)

3. Javodbek Yoqubov, Ergash Hayitboyev "Huquqshunoslik Darslik" Toshkent "Yangi asr avlodi" 2006

4. O.Karimova "Huquqshunoslik" qayta ishlangan, toʻldirilgan toʻrtinchi nashr "SHARQ" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati TOSHKENT – 2010

5. O.Musurmonova, M.Qarshiboyev R.Qoʻchqorov "Milliy istiqlol gʻoyasi va ma'naviyat asoslari" 9-sinf qayta ishlangan va toʻldirilgan 7-nashri Milliy gʻoya va

mafkura ilmiy-amaliy markazi nashrga tavsiya etgan TOSHKENT “MA’NAVIYAT” 2015
6. I.Ergashev, O.Muxammadieva, S.Berdiqulova, M.Safarov “Milliy g‘oya targ‘iboti texnologiyalari” (o‘quv qo‘llanma) Toshkent – 2019
7. Tarbiyaning umumiy metodlari (tarbiyaviy.uz)
8. https://uz.wikipedia.org

## HUQUQIY TARBIYANING MAQSADLARI, VAZIFALARI VA MUAMMOLARI

***Satvoldiyev Faxriddin Akbarali o‘g’li***
*Namangan Davlat universiteti o‘qituvchisi.*
***Komilova Munira Yusufjon qizi***
***Mashrapova Dilyora Madaminjon qizi***
*Namangan Davlat universiteti Yuridik fakulteti Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi yo‘nalishi MIG‘-AU-21 guruh talabalari.*

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada huquqiy tarbiyaning asosiy maqsadi shaxsda huquqiy ongni shakllantirish, huquqiy normalarga hurmatni, ularga ixtiyoriy, ongli ravishda rioya qilishni tarbiyalash, huquqiy tarbiya va madaniyatning shakllanishi va huquqiy savodxonlikni oshirish borasida olib borilayotgan ishlar va o‘zgarishlar yoritiladi.*

***Kalit so‘zlar***: *Huquqiy tarbiya, huquqiy madaniyat, davlat apparati, huquqbuzarlik, huquqiy xulq-atvor*

Huquqiy tarbiya – shaxsga nisbatan huquqiy ongni, huquqiy ko‘rsatmalarni, qonunga itoatkor xulq-atvor ko‘nikmalari va odatlarini shakllantiruvchi uyushgan, bir tizimli, aniq maqsadni ko‘zlagan faoliyat yig‘indisi. Huquqiy tarbiya natijasida keng omma yoki shaxs o‘z xatti-harakatlarining qonuniy ekanligini tushunsa, huquq tartibotni buzmaslikka harakat qilsa, o‘zini ongli ravishda, huquq normalariga rioya etgan holda boshqara olsa, maqsadga erishgan hisoblanadi. Huquqiy huquqiy tarbiya boshqa turdagi tarbiya bilan

oʻzaro yaqin. Masalan, shaxsda mehnatga boʻlgan munosabatni shakllantirishda koʻr-koʻrona itoatkorlikka emas, balki jamiyat va davlat manfaatlariga, davlatning tartib va qonunlarini hurmat qilishga oʻrgatish lozim. Axloq normalari bilan huquqiy normalar bir biriga juda yaqin turadi. Shaxs axloqsiz boʻlsa, u qonunlar talabiga rioya qilmaydi. Binobarin, bunday shaxsni huquqiy tarbiyalash samarasiz boʻladi, hatto jazo choralarini ham toʻgʻri yoʻlga solish qiyin. Huquqiy tarbiya oʻquvchilar oʻrtasida fuqarolik tarbiyasini tashkil etishda oʻziga xos oʻrin tutadi. 1993 yil mart oyida e'lon qilingan "Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar Konsepsiyasi"da qayd etilganidek: "Huquqiy tarbiyaning asosiy maqsad va vazifalari Konstitutsiyani, davlat haqidagi ta'limotni, chunonchi, fuqarolik, oila, mehnat, xo'jalik, ma'muriy, nafaqa, sud ishlarini yuritish va boshqarish huquqlarining ma'nosini tushuntirishdan, bolalarni davlat qonunlarini yuksak darajada hurmat qilish, ularga soʻzsiz rioya etish, adliyaviy bilimlarni egallashga ehtiyoj sezish, tartib va intizomni buzuvchilarga nisbatan murosasizlik ruhida tarbiyalash, xalqaro huquqning ahamiyatga molik masalalari, xalqaro tashkilotlar faoliyati haqida oʻquvchilarning umumiy tasavvurlarini shaklantirishdan iboratdi". Huquqiy tarbiya tizimi uch tarkibiy qismdan tashkil topadi: davlat belgilangan qonun qoidalarini oʻqitish; ularni jamiyat aozolari oʻrtasida tashviqot qilish; oʻquvchi yoshlarni qonun qoidalar ijrosida bevosita ishtirok etishga oʻrgatish. Huquq normalarini oʻqitish deyilganda davlat organlari tomonidan tasdiqlangan dastur asosida shaxsga bilim berish tushuniladi. Yuridik bilim berish umumiy va maxsus yoʻnalishlarda boʻlish mumkin.

Huquqiy tarbiyaning keng va tor ma'noda koʻrish mumkin. Keng ma'noda butun jamoaning, koʻpchilikning ongiga ta'sir etish yoʻllari tushuniladi. Demak, huquqiy tarbiya bu – tashkiliy ravishda muntazam olib boriladigan, aniq maqsadni koʻzlagan va shaxsga ta'sir qila oladigan, ularda huquqiy ong, huquqiy bilim, qonunlarga rioya qilish xislatlarini vujudga keltiradigan harakatdir. Huquqiy tarbiyani oilada va ommaviy axborot vositalarining axborot va ma'lumotlari orqali singdirishga ham erishsa boʻladi. Odatda, huquqiy tarbiya haqida gap ketganda, uning keng va tor ma'nodagi tushunchalari ajratiladi. Keng manodagi huquqiy tarbiyada inson butun jamiyat tomonidan tarbiyalanadi, ya'ni oʻzini qurshab turgan muhit, yuridik

amaliyot, davlatning mansabdor shaxslari va boshqa huquq subyektlarining xatti-harakati natijasida tarbiyalanadi. Huquqiy tarbiyada gap insonning jamiyatga kirishib ketishi, uning ijtimoiylashuvi haqida ketmoqda. Davlat organlari va ularning mansabdor shaxslari – davlat apparatida faoliyat olib borayotgan xodimlarning asosiy maqsadi bevosita insonlarga nisbatan huquqiy tarbiya olib borish boʻlmasada, ularning faoliyati bevosita insonlarning huquqiy ongi shakllanishiga ta'sir etadi.

Huquqiy madaniyat demokratik jamiyat poydevori hamda huquqiy tizim yetukligining ifodasidir. Rus faylasufi V.Solovyov aytgan edi: "Davlatsiz madaniyat boʻlmaydi, madaniyatsiz jamoat axloqi bo'lmaydi va ijtimoiy axloqsiz yuqori shaxsiy fazilat, agar u biron bir moʻjiza boʻlsa edi, anglab etdim, bu tasodifiy va samarasiz turtki boʻlib qoladi." U jamiyatdagi turli xil hayotiy jarayonlarga faol ta'sir koʻrsatuvchi, fuqarolarning, barcha ijtimoiy guruhlarning jipslashuviga koʻmaklashuvchi, jamiyatning yaxlitligi hamda batartibligini ta'minlovchi va mustahkamlovchi omildir. Qonunni hurmat qilish huquqiy jamiyatning, siyosiy va huquqiy tizimlar samarali faoliyat koʻrsatishining asosiy talablaridan biri hisoblanadi. Shiddatli islohotlar jarayonida jamiyatda huquqiy madaniyatni shakllantirish, har bir inson, u rahbar yoki oddiy kishi boʻladimi, Konstitutsiya va qonunlarni, boshqalarning huquq va erkinliklari, sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilishi kundalik qoida va odatga aylanishiga erishish muhim sanaladi. Negaki, qonunlar ishlagandagina, ular yaxshi samara beradi. Qonunlar esa ularga rioya etilsa, rioya etilishi talab qilinsagina ishlaydi. Buning uchun hamma huquqshunos boʻlishi shart emas. Bugun jamiyatimizda har bir fuqaro, avvalo, oʻz sohasidagi qonunlarga rioya etsin, qonunni chetlab oʻtish degan fikrni xayolidan umuman chiqarib tashlasin, degan gʻoya ilgari surilyapti. Negaki, davr har bir fuqaro faqat javobgarlikdan qoʻrqib emas, balki ta'qiqlangan yoʻldan yurish yomonligini tushunib, oʻsha yoʻldan yurmasligini, qoidalar ularning foydasiga ishlashini anglab, ularni hurmat qilish talabini qoʻymoqda. Qonunlarni hurmat qilish bu – huquqiy madaniyatdir. Huquqiy madaniyatni oshirish borasidagi ishlarni tizimli tashkil etishda tegishli tashkilotlar bilan hamkorlikni kuchaytirish gʻoyat muhim. A.F.Nikitin esa shaxs huquqiy madaniyati tarkibini tushunishga oʻziga xos tarzda yondashadi hamda shaxs huquqiy madaniyatini murakkab psixologik hodisa deb

baholaydi. Uchunonchi, uning tarkibiy qismlarini: huquqiy bilimlar va ularni amaliyotda qo'llay olish ko'nikmasi; qonunga nisbatan shaxs munosabati va nihoyat shaxsning huquqiy mazmunga ega bo'lgan vaziyatlardagi faoliyatidan iborat" deb ta'kidlaydi [3]. Shu ma'noda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan ham huquqiy savodxonlikni oshirish, ularga huquqiy ko'mak berish maqsadida "Onlayn maslahatchi" tizimi yaratildi. Jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlashning eng muhim shartlaridan biri – huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishdir. Buning uchun yoshlar o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib etib, huquqiy savodxonlikni oshirish lozim. Shu jumladan Prezident Sh.Mirziyoyev, hozirgi paytdan hammamizning oldimizda juda muhim ahamiyatga ega bo'lgan masala, ya'ni kitobxonlikni keng yoyish va yoshlarimizning kitobga bo'lgan muhabbatini, ularning ma'naviy immunitetini yanada oshirishga qaratilgan ishlarimizni yangi bosqichga olib chiqish vazifasi turibdi", - deb takidlab o'tadi. Huquqiy ong fuqarolarning o'z huquqlarini bilish va talab qilish, adolat izlash, hukumatni hisobdorlikka chaqirish yo'lida qurollantiradi. Bugun mansabdorlarning hisobdorligi oshgani, axborot almashinuvining tezlashgani, ya'ni katta hajmdagi axborotlar informatsion maydonda aylanayotgani ochiqlik, oshkoralik belgisidir.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar konsepsiyasi. 1993-yil 16-mart. https://lex.uz/acts/439797

2. A.Nikitin. Voyaga yetmaganlarning javobgarligi. M; Ma'rifat, 1990.

3. Sh.M.Mirziyoyev "Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib- intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak" T; ,,O'zbekiston" 2016.

4. Satvoldiyev Fakhriddin Akbarali o'g'li. "PROSPECTS FOR IMPROVING THE TECHNOLOGIES OF DEVELOPING LEGAL THINKING FOR SCHOOLCHILDREN (ON THE EXAMPLE OF THE PROVINCE OF NAMANGAN)." CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS 4.01 (2023):

5. Satvoldiyev Faxriddin Akbarali o'g'li. "Maktab o'quvchilarining huquqiy tafakkurini shakllantirish huquqiy madaniyatni yuksaltirishning yetakchi bo'g'ini sifatida." Ta'lim fidoyilari 13 (2022):

6. www.my.gov.uz O'zbekiston Respublikasi hukumat portali.

# TA'LIM TARBIYA TIZIMIDA ANALITIK KIMYO FANI O'QITISH METODIKASI

***Raxmonaliyeva Gavharoy Baxodir qizi***
*raxmonaliyevagavxaroy@gmail.com*
***Karimova Laylo Azamat qizi***
*karimovalaylo.0426@gmail.com*
***Hasanova Anora Bahromjon qizi***
*hasanovaanoraxon@gmail.com*
*Namangan Davlat universiteti talabalari.*

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada Analitik kimyoning vujudga kelishi va rivojlanishi turli ishlab chiqarish sohalarining paydo bo'lishi va taraqqiy etishi bilan bog'liq fan hisoblanganligi, Analitik kimyoga fizik va fizik-kimyoviy usullar tobora ko'proq joriy etilganligi, shu bilan bir vaqtda analitik kimyo amaliy maqsadlarda keng qo'llanila boshlanganli hamda o'qitish metodikasi haqida ma'lumotlar berilgan.*

***Kalit so'zlari:*** *Analitik, metod, mineralogiya, zamonaviy, geogiya, mikrobiologiya, tibbiyot, fanlar, bilim, tajriba, kimyoviy usul, ko'nikma.*

***Аннотация:*** *В данной статье рассматривается возникновение и развитие аналитической химии как науки, связанной с появлением и развитием различных отраслей, внедрением физических и физико-химических методов в аналитическую химию все больше и больше, в то же время аналитическая химия широко используется в практических целях и дается информация о методике преподавания.*

***Ключевые слова:*** *Аналитический, метод, минералогия, современный, геогия, микробиология, медицина, наука, знание, опыт, химический метод, мастерство.*

***Abstract:*** *In this article, the emergence and development of Analytical Chemistry is considered a science related to the emergence and development of various industries, the introduction of physical and physico-chemical methods to Analytical Chemistry more and more, at the same time, Analytical Chemistry is*

*widely used for practical purposes and Information about the teaching methodology is provided.*

***Key words:*** *Analytical, method, mineralogy, modern, geogy, microbiology, medicine, science, knowledge, experience, chemical method, skill.*

*"Ilmni qadrlang,ilmga intiling!  Bir soniya vaqtingiz ham bekor o'tmasin! Yoshlik-umrning eng bebaho davri. Ilm va bilim –o'ta yonmaydigan,suvda cho'kmaydigan, hech kim sizdan tortib ololmaydigan boylik ekanini aslo unutmang!"*

*Sh.Mirziyoyev*

Mustaqil Oʻzbekistonning ravnaqi uchun olib borilayotgan iqtisodiy ijtimoiy, madaniy-ma'naviy sohalardagi keng koʻlamli ishlar, jamiyat taraqqiyotini ta'minlash, uzluksiz ta'lim tizimini joriy etish, shuningdek, mustaqil fikr egasi, erkin va ijodkor yoshlarni tarbiyalab voyaga yetkazishda alohida oʻrin tutadi. Milliy istiqlol taraqiyotida ta'lim-tarbiya sohasida yanada jiddiy yangilanishlar qilishni taqozo eta boshladi.Anu shu ijtimoiy talab asosida 1997-yil 29-avgustda 'Ta'lim toʻgʻrisida"gi Qonun yangi tahrirda qabul qilindi. Ana shu qonuning mantiqiy-amaliy davomi sifatida "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi"ishlab chiqildi. Milliy dastur bevosita Qonuning ijrosi, shakli, vositasi hamda usularining yigʻma amaliy-tashkiliy majui boʻlib, ular yaxlit holda ta'lim-tarbiya soxasidagi islohotlarning asosiy yoʻnalishlari, tamoyillarini, talab va maqsadlarini, muammoni yechimi bilan bogʻliq rejalarni belgilab beradi. Analitk kimyo kimyoviy analizning nazariy asoslari va usullarini oʻrganadigan fandir. Analitik kimyo zamonaviy fan va texnikaning hayotiy jihati boʻlib, uning ahamiyatini ortiqcha baholab boʻlmaydi. Kimyoviy moddalarni, jumladan, ularning tarkibi, tuzilishi va xossalarini sifat va miqdoriy tahlil qilish bilan shugʻullanadigan kimyoning boʻlimi. Analitik kimyo tibbiyot, ekologiya va sud-tibbiyot kabi sohalarda hal qiluvchi roʻl oʻynaydi. Analitik kimyoning amaliy vazifasi moddaning yoki ularning aralashmalari tarkibini aniqlashdan iborat. Analitik kimyo kimyoga yaqin boʻlgan fanlar – mineralogiya, geogiya, fiziologiya, mikrobiologiya, shuningdek tibbiyot, agranomiya va texnika fanlari amalyotida ham muhim roʻl oʻynaydi. Analitik kimyoga  masalalarni kimyoviy, fizikaviy va fizik-kimyoviy usullar bilan ham hal qilish mumun. Bu

usullar tobora rivojlanmoqda va takomillashmoqda. Fizikaviy va fizik-kimyoviy usullarining kimyoviy usullardan farqi ularda maxsus uskuna va asboblardan foydalanishdir. Bu uskunalarda moddalarning oʻzgarishi va fizikaviy xossalari oʻrganiladi. Analitik kimyoning amaliy usullari qadim zamonlardan, baʼzi tabiiy birikmalarni ularning xususiyatlariga qarab aniqlashdan boshlangan. Lekin u ilmiy fan sifatida, asosan XVII asrning oʻrtalarida, R.Boyl fanga kimyoviy element haqidagi tushunchani kiritgandan keyin rivojlandi. XIX asrda elektrogravimetrik analiz ham rivojlandi. 1871-yilda N.A.Menshutkinning sifat va miqdoriy analizga doir "Analitik kimyo" kitobi chop etildi. XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr davomida analitik kimyoning rivojlanishi anorganik, organik hamda fizik-kimyoning muvaffaqiyati bilan bogʻliq boʻldi.Keyingi yillarda analitik kimyoda yangi zamonaviy analiz usullari yaratildi. Analitik kimyoni oʻrgatishda samarali muloqot muhim ahamiyatga ega, chunki u ilmiy natijalarni yozma yoki ogʻzaki shaklda toʻgʻri taqdim etishni oʻz ichiga oladi. Oʻqituvchilar laboratoriya hisobotlari, tadqiqot ishlari va taqdimotlar boʻyicha konstruktiv fikr bildirish orqali talabalarning ilmiy yozishda malakali boʻlishini taʼminlashlari kerak. Shuningdek, talabalarning muloqot qobiliyatlarini oshirish uchun ilmiy konferentsiyalar va simpoziumlarda ishtirok etishlarini ragʻbatlantirish kerak. Analitik kimyoni rivojlantirishga doir ilmiy izlanishlar toʻxtovsiz davom etmoqda. Analitik reaksiyalar eritmada aniqlanyotgan moddaning miqdoriga va analiz uchun olingan eritmaning hajmga qarab, sifat analizida va mikroanaliz. usullariga boʻlinadi. Reaksiyalarning oʻziga xosligi. Alohida ionlarni aniqlashda shu ionga xos reaksiyalar muhim oʻrin tutadi. Bunda izlanyotgan ionni boshqa ionlar ishtirokida ham aniqlash mumkun boʻladi. Analitik kimyo moddalarni analiz qilish usullari haqidagi fan boʻlib, uning mazmunini analiz qilishning nazariy va amalyotga oid masalalarini hal qilishdan iborat. Hozirgi kunda analitik kimyo oldiga ancha murakkab masalalar qoʻyiladigan boʻldi. Endi kimyoviy elementlarning faqat oʻzigina emas ularning izatoplarini ham aniqlash talab etilmoqda. Hozirgi kunda analitik kimyo zamonaviy mukammal usullarga ega. Ular kimyoviy zamonaviy mukammal usullarga ega. Ular kimyoviy moddalarning turli xususiyatlariga asoslangan. Masalan, moddalarning choʻkmaga tushishi, rangi, gaz holatda boʻlishi kabi xossalariga asoslanib analitik usullar yaratiladi. Analitik kimyo nazariy va

amaliy muammolani yechishda katta ahamiyatga ega. Kimyo fanining rivojlanishi ham analitik kimyo bilan bevosita bogʻliq. Moddalarning molekulyar massasini aniqlash, ekvivalentini toppish, molekulyar formulalarini keltirib chiqarish analitik kimyo usullari yordamida amalga oshiriladi. Analitik kimyo bilan agranomiya, fiziologiya, mikrobiologiya, veterinariya, qishloq hoʻjaligi hayvonlarini oziqlantirish fnlari bevosita bogʻliq. Ta'lim tizimida analitik kimyoni oʻqitish metodikasi nazariy bilim, amaliy qoʻllash, muammolarni yechish, tanqidiy fikrlash, muloqot va hamkorlikka urgʻu beradigan tizimli yondashuvni talab qiladi. Maqsad talabalarni kelajakdagi ilmiy faoliyatga tayyorlashda tahliliy koʻnikmalarini rivojlantirishdan iborat. Ushbu metodologiyaga rioya qilish orqali o'qituvchilar o'z talabalarining bugungi murakkab tahliliy muammolarni hal qilish uchun yaxshi jihozlanganligini ta'minlashlari mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:**

1. R.Mavlonova, N.Voxidova, N.Raxmonqulova "PEDAGOGIKA NAZARIYASI VA TARIXI" "Fan va texnologiya" nashriyoti, Toshkent 2010-yil
2. M.T.Gulamova, Sh.Q.Norov, N.T.Turabov "ANALITIK KIMYO" "Voris-nashriyot" Toshkent - 2009
3. M.Mirkomilova "ANALITIK KIMYO" "Oʻzbekiston" Toshkent-2001
4. O.Fayzullayev "ANALITIK KIMYO" Toshkent-2006 "Yangi asr avlodi"
5. M.Mirkomilova "ANALITIK KIMYO" "Oʻzbekiston", Toshkent "Oʻzbekiston" 2010 yil
6. B.Umarov "Organik kimyo", Toshkent "Iqtisod-Moliya" 2007 yil
7. www.wikipedia.uz

# O'QUVCHILARNING JISMONIY TARBIYA BO'YICHA BILIM VA KO'NIKMALARINI DARS JARAYONIDA SHAKLLANTIRISHNING O'QITISH METODLARI

***Boltaboev Hamidullo Habibulloyevich***
*Namangan davlat universiteti dotsenti*
*hamidullo_habibulloyevich.@gmail.com*

***Annotatsiya.:*** *Mamlakatimizda izchil ravishda amalga oshirilayotgan kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy g'oyasi barkamol kasb egasini tarbiyalashdan iboratdir. Islohotlar natijasi sifatida shakllantiriladigan barkamol shaxsning mustaqil va ijodiy fikrlash sifatlarini tarbiyalash umumiy o'rta ta'lim muassasalarining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.*

***Kalit so'zlar :*** *Ozod va obod, erkin va farovon, barkamol, ma'naviy va jismonan sog'lom.*

***Аннотация.:*** *Основная идея национальной модели обучения, которая последовательно реализуется в нашей стране, заключается в воспитании разностороннего профессионала. Одной из важных задач общего среднего образования является воспитание качеств самостоятельного и творческого мышления гармонично развитой личности, которые будут сформированы в результате реформ.*

***Ключевые слова.:*** *Свободный и благополучный, свободный и благополучный, всесторонне развитый, духовно и физически здоровый.*

***Annotation.:*** *The main idea of the national model of education, which is being consistently implemented in our country, is to educate a versatile professional. One of the important tasks of general secondary education is the education of the qualities of independent and creative thinking of a harmoniously developed personality, which will be formed as a result of reforms.*

***Keywords.:*** *ree and prosperous, free and prosperous, comprehensively developed, spiritually and physically healthy.*

Respublikamizda amalga oshirilayotgan «Ta'lim to'g'risida»gi qonun hamda «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning asosiy maqsadi, ta'lim tizimini jahon talablari darajasida isloh qilishdan iborat bo'lib, bunda amalga oshirilishi lozim bo'lgan asosiy yo'nalishlardan biri o'quvchilar jismoniy tarbiya bo'yicha tayyorgarligini takomillashtirishdan iborat. Mamlakatimizda izchil ravishda amalga oshirilayotgan kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy g'oyasi barkamol kasb egasini tarbiyalashdan iboratdir. Islohotlar natijasi sifatida shakllantiriladigan barkamol shaxsning mustaqil va ijodiy fikrlash sifatlarini tarbiyalash umumiy o'rta ta'lim muassasalarining muhim vazifalaridan biri

hisoblanadi. Bu borada o'quvchilarning darsdan tashqari mashg'ulotlarini samarali tashkil qilish aloxida ahamiyat kasb etadi [1].

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganligining dastlabki davrlaridanoq jahon taraqqiyotida muhim o'ringa ega milliy ma'naviyatimiz asosida ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot barpo etish bosh maqsad etib belgilandi. Ushbu buyuk maqsadga erishishda asosiy ehtibor yosh avlodni barkamol, ma'naviy va jismonan sog'lom, yuqori malakali kasb egasi qilib tarbiyalashga qaratilganligi milliy an'analarimiz, mentalitetimizning o'ziga xos ifodalanishidir. Prezidentimiz SH.M.Mirziyoev tomonidan taklif etilgan va respublikamizda izchil amalga oshirib borilayotgan kadrlar tayyorlash milliy modeli bugungi kunda jahon miqyosida e'tirof etildi va o'zining dastlabki natijalarini bermoqda [2].

Biroq, qayd etilgan yutuqlar bilan birga, jismoniy tarbiya bo'yicha ta'lim tizimini yanada rivojlantirish uchun to'laqonli xizmat qilmayotgan sohalar ham mavjud. Jumladan, o'quvchilarning jismoniy tarbiya bo'yicha bilim va ko'nikmalarini dars jarayonida shakllantirish, yangi pedagogik texnologiyalar asosida mashg'ulotlarni tashkil qilishda tizimlilik, maqsadga yo'naltirilganlik etarlicha o'z aksini topmay kelmoqda [3].

Mazkur muammo uzoq yillar davomida pedagog olimlar tomonidan respublikada va xorijda keng tadqiq etilgan. Jumladan, Atutov P.R., Bato'shev S.Ya., Bespalg'ko V.P., Matveev L.P., Minaev B.N., SHiyan B.M., Abdullaev A., Xonkeldiev SH.X. Yarashev K., va boshqalar muammoning texnologik asoslari, jismoniy tarbiya darslarini, darsdan tashqari ishlarini hamda yoshlarning faoliyatini nazariy ta'lim bilan bog'lab olib borish masalalarini o'z ilmiy tadqiqot ishlarida yoritganlar[4;27].

O'quvchilarni jismoniy tayyorgarlikga yo'llash ishlarida ularning ijodkorlik sifatlarini rivojlantirish muhim ahamiyatga egadir. Pedagog olimlarning fikrlarini tahlil qilib, tadqiqotimizning eksperiment natijalariga tayangan holda biz maktabda va darsdan tashqari mashg'ulotlarda o'quvchilarni jismoniy tarbiya darslarini tashkil etishga yo'naltirishda texnik ijodkorlik va innovatsion fikrlash tajribachiligining rivojlanishi o'quvchilarning g'oyaviy-siyosiy, mehnat, ahloqiy, jismoniy va estetik tarbiyasi birligi asosida ularni milliy mafkuramiz asosida

tarbiyalashga majmuaviy yondoshish g'oyalarini amalga oshirishda yordam beradi degan xulosaga keldik.

Ta'limning metodlariga qo'yilgan umumiy talablar. Har qanday konkret xolatda u yoki bu metodni maqsadga muvofiq xolda qo'llash qator talablarga rioya qilishni taqazo etadi [5;27]:

1. Metodning ilmiy asoslanganligi (oliy nerv faoliyati).

2. Qo'yilgan vazifaga o'qitishning muvofiqligi .

Aniq vazifalarning oldindan belgilanmasligi ta'lim metodalarini to'g'ri tanlash imkonini bermaydi. Misol, darsda "kozyol"dan oyoqlarni kerib tayanib sakrashni o'rgatish (o'qitish) vazifasi qo'yilgan bo'lsa, metodni tanlash mumkin bo'lmay qoladi (bo'laklarga ajratish bilan va xarakatni tula bajarish bilan o'qitish metodlariga tayanish mumkin xolos). Nibatan aniq vazifa, masalan, "kozyol"dan oyoqlarni sakrashda qo'llar bilan "depsinish"ni o'rgatish qo'yilsa, mashqni bo'laklarga ajratish bilan o'rgatish metodini qo'llashga imkoniyat paydo bo'ladi.

3. Ta'limning tarbiyalash xarakterini shakllantirish. Xar bir tanlangan metod aynan shu xarakat faoliyatini o'qitishning faqat effektli jarayonini tahminlash nuqtai nazaridangina baxolanmay, tarbiya vazifalari pozitsiyasi talabiga qarab ham baholanishi zarur.

4. Metodlarning qo'llanishi tahlim sistemasi dagi barcha printsiplarning muvofiqligi va amalga oshirilishiga tayanishi lozim. Metodni alohida olingan pritsip bilan aloqasini bir tomonlama izohlash, tushuntirishga yo'l qo'yib bo'lmaydi. Masalan: agar o'qituvchi ko'rsatish metodini qo'llagan bo'lsa, uni ko'rgazmalilik printsipini to'la amalga oshirayotir degan xulosamiz noto'g'ri bo'lardi. Mahlumki, bu printsip qator metodlar tizimi orqaligina amalga oshiriladi.

5. O'quv materiali xususiyatining muvofiqligi.

O'qitish metodlari mahlum darajada bo'lsa-da jismoniy mashqlarni turlariga bog'liqdir, ayrim xollarda faqat so'z bilan ifodalash metodining o'zi kifoya qilsa, nisbatan qiyin vazifalarda esa ko'rsatish metodini ham qo'llab yurishga tugri keladi. O'ynaladigan, gimnastika, sport va turizm tarzidagi mashqlarni o'qitish o'zining xususiy metodlariga ega emas. Metodlar jismoniy mashqlarning barcha turlari uchun bir xildir. SHu bilan birga bu turlarning har qaysisi qandaydir darajada bo'lsa-da, bir xil metodik usullardan foydalanishga yo'nalgan bo'lib

boshqalaridan nisbatan ozroq foydalaniladi. Bunday qaramlilik qanchalar kam bo'lsa o'qitish natijasi shuncha yaxshi bo'ladi.

6. O'quvchilar individi va guruxni tayyorgarligini muvofiqligi. Masalan, ayrim xarakat faoliyatlarini o'zlashtirishda yaxshi tayyorgarlikka ega o'quvchilar uchun qismlarga ajratib o'rgatish metodini qo'llash maqsadga muvofiq emas, nisbatan tayyorgarligi mavjud bo'lganlari uchun esa bu faoliyatni egallashni yo'llanma beruvchi mashqlar bilan boshlash kerak bo'ladi. So'z bilan ifodalash metodidan foydalanishda o'quvchilar umumiy bilimi darajasi bir muncha yuqori bo'lsa, "viraj" bo'ylab yugurishni tushuntirishda ularni fizika soxasi bo'yicha bilimiga tayanishimiz mumkin bo'ladi.

7. O'qituvchi individual xususiyatlari va imkoniyatlarining muvofiqligi. Albatta, xar bir pedagog Ta'limning barcha metodlarini to'la hajmda egallagan bo'lishi lozim. SHunga qaramay, bahzi o'qituvchilar bir xil metodlarni yaxshi bilishsa, ayrimlari esa boshqasini yaxshi biladilar. Jismoniy tarbiya jarayonida bu xususiyatlarni alohida hisobga olish zarur. Agar mahlum xolatda ikki xil metoddan bir xil natija chiqishi aniq bo'lib qolsa, albatta, o'qituvchi o'zi puxta bilgan metodni qo'llashi lozim.

8. Mashg'ulotlar sharoitining muvofiqligi. Masalan, maktabdagi darslarda tirmashib chiqishga o'rgatish faqat bir-ikkita kanat mavjud holda amalga oshirilsa, xarakatni bir butunligicha to'la o'rgatish metodidan foydalanish samara bermaydi, chunki bu mashg'ulot zichligini aytarli past bo'lishiga sabab bo'ladi. Bunda so'zdan foydalanish metodida o'qituvchi zalning akustikasi va sport maydoning sathini hisobga olishi kerak.

9. Metodlarni turli tumanlaridan foydalanish talabi. Metodlarning hech qaysisi yagona, asosiy va universal bo'la olmaydi. Metodlarning turli xilidan foydalanganda, Ta'lim samaraliroq bo'ladi. Xar bir metodning o'ziga xos yaxshi tomonlari bo'lishini nazarda soqit qilib bo'lmaydi. Faqat savodsiz o'qituvchilargina ularni yomon qilishi mumkin. Ayrim pedagogik holatlarda samara berayotgan metodlar boshqa paytda umuman, yaroqsiz, xatto zararli ham bo'lib qolishi mumkin. Shuning uchun pedagogik jarayonda ta'limning tizimli metodlaridan o'rinli foydalanish kerak. Bu jarayonda metodlarning kuchli (o'rinli) tomonlaridan foydalanib, bo'sh (o'rinsiz) jihatlarini ajratib tanlash lozim. Bu nizom qachonki

ko'rsatish tushuntirish bilan, tushuntirish ifodalash bilan, ko'rsatma va hokazolar bilan qo'shib olib borilsa, o'quv-tarbiya jarayoni amaliyotdagi ishlarda tasdiqlanadi. Shug'ullanuvchilarning barchasi uchun yaraydigan, barcha ish sharoitiga mos keladigan umuman yo'q desak, xato qilmagan bo'lamiz. Qaysi bir metodni universal metod sifatida yuqori baxolasak, uni barcha o'qituvchi qo'llay boshlaydi, bu, o'z navbatida, o'qituvchi ijodkorligini chegaralab qo'yadi, o'quvchining barcha imkoniyatlaridan foydalanish imkonini bermaydi. Bu fikr P.F. Lesgaft tomonidan obrazli tarzda ifodalangan: "aytish mumkinki: "Usul - bu men". Usul shundan iboratki, bilimli, tushunadigan o'qituvchi o'z ishini o'zi olib boraveradi".

O'quvchilarning bilimlarini oshirish, malaka va ko'nikmalarni egallash uchun ta'lim metodlari uch guruxga ajratiladi. Xar bir gurux bir necha xil metodlarni o'z ichida mujassamlashtirgan. Mujassamlashtirilgan metodlarning ta'lim jarayonidagi o'rniga ko'ra so'zdan foydalanish, ko'rgazmali his qilish va amaliy metodlar deb guruxlanadi va ulardan pedagogik jarayonda keng foydalaniladi.

**O'qitishning metodlari**

| **So'zdan foydalanish metodlari** | **Ko'rgazmali his qilish metodlari** | **Amaliy metodlari** |
|---|---|---|
| Hikoya<br>Ifodalash<br>Tushuntirish<br>Suhbat<br>Muhokama<br>Ko'rsatma<br>Topshiriq<br>Baho<br>Buyruq | Ko'rsatish<br>Namoyish etish<br>Plakatlar<br>Kinogrammalar<br>Doskaga bo'r bilan chizish<br>O'quvchilarning o'zi chizgani,<br>Maketlar, modellar<br>Rang va tovush signallari | Qathiyan va qisman reglamentlashtirilgan mashq metodlari:<br>Bo'laklarga ajratib o'zlashtirish - o'yin,<br>Bir butunligicha o'rgatish - musobaqa |

Uch guruxdagi metodlarning mavjudligi orqali o'quvchinining o'zlash tirilgan faoliyati bilan organizmning turli analizatorliri tizimi yordamida tanishtirish tahminlanadi: o'quvchi eshitadi, uqadi, o'zi xarakat jarayonini xis

qiladi. Ishga ikkala signal sistemasi jalb qilinadi. Xarakat faoliyatini o'qitishda amaliy metodlar muhim axamiyat kasb etadi. Birinchi ikki poydevor ko'rsa, uni ko'rib bitirish - yahni xarakat faoliyatining ijrosi u yoki bu usul orqali amalga oshiriladi [7;64].

Jismoniy tarbiya darslarining samarali bo'lishi uning uslubiy qonun-qoidalarini bilishga va ularga muntazam amal qilishga bog'liqdir. Jismoniy Ta'lim va tarbiyaning asosiy maqsadi barkamol avlodni sog'lom, baquvvat, Vatan shon-shuhratini dunyoga yoyuvchi, zarur bo'lganda jonni garovga qo'yib uni himoya qiladigan, halol mehnat bilan hayot kechiradigan kishilarni tarbiyalab etishtirishdan iboratdir.

Ushbu maqola ilmiy ishi sifatida kelajakdagi jismoniy tarbiya o'qituvchisi sifatidagi faoliyatimizda shubhasiz foyda berishiga umid qilamiz. Mavzuning mohiyatiga chuqurroq kirib borganimiz sayin hali tadqiq etilishi zarur bo'lgan jihatlari ko'p ekanligi mahlum bo'ldi[6;105].

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Respublika Prezidenti SH.M.Mirziyoevning 2019.05.09 dagi video selektrdagi nutqi. "Xalq so'zi". №184 (7414), 1-sahifa

2. "Sog'lom turmush tarzini keng tadbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020.30.10, PF-6099-sonli Farmoni

3. Abdullaev A., Xonkeldiev SH.X. Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi. Farg'ona // 2001y, 238 b

4. Boltboyev X.X. Профессиональное становление специалистов физической культуры.// Novainfo.RU. Научно-методический журнал. -Москва.-2017.-№86,Том-2.-стр. 208-210.

5. Boltboyev X.X. THEORETICALFOUNDATIONS OF AHEALTHY LIFESTYLE,PHYSICAL EDUCAYION AND PHYSICAL ACTIVITE OF PUPILS.// UK-European journal of Research and Reflection in Educational Sciencas.-7.12.2019 Part IV. ISSN:2056-5852. Impact Factor: 7-Б.1009-1013.

6. Boltboyev X.X. The basics of student's healthy lifestyles and the role of physical education in ensuring health.// india. academicia An international Multidisciplinary Research Journal.05.05.2020, ISSN:2249-7127 (Online).
Impact Factor: 7.13-Б.978-983.

7. Boltboyev X.X. Student youth healthy lifestylephysical a nev look at culture // Буxоро давлат университети, Ҳалқаро илмий конференция "Спортда ва ёш авлод жисмоний тарбиясида инновацион технологиялар", 26.11.2020// УДК 621.315.593. Б.178-183.
8. Boltboyev X.X. Умумий таълим мактаби спорти ва уни бошқариш.// Ўқув қўлланма. "Fazilatorgtexservis" МСНJ. -Наманган. 2018. 162 с.
9. Boltboyev X.X. Спорт ва харакатли ўйинларни ўқитиш методикаси.// Дарслик. "Fazilatorgtexservis" МСНJ. -Наманган. 2021. 114 с.

# МАКТАБ ЁШИДАГИ БОЛАЛАРНИ ТАСВИРИЙ ФАОЛИЯТГА ЎРГАТИШ УСУЛЛАРИ

***Исомиддинов Абдулазиз Анваржон ўғли***
***Хасанбаева Иродахон Иброҳимжон қизи***
*Наманган давлат педагогика институти*
*Тасвирий санъат ва амалий безак*
*санъати йўналиши 1 курс магистрлари*

***Таянч сўзлар:*** *Тасвирий фаолият, тасвирий саънат, ўқувчи, самарали дарс, тушунча, стандарт, машғулот, кетма-кетлик, узвийлик, дидактик талаб.*

***Ключевые слова:*** *Изобразительная деятельность, изобразительное искусство, ученик, результативный урок, концепция, стандарт, обучение, последовательность, связность, дидактическое требование.*

***Key words:*** *Visual activity, visual arts, student, effective lesson, concept, standard, training, consistency, coherence, didactic requirement.*

Умумтаълим муассасаларида асосан турли тасвирий имкониятларга эга бўлган рангли қаламлар, акварел ва гуаш бўёқлар ишлатилади. Қалам билан чизиш орқали шакл яралади. Бир қисм орқасидан бошқаси бирин-кетин босқичма-босқич чизилади, турли деталлар қўшилади. Сўнг чизиқли тасвирга ранг бериб чиқилади. Расм чизишнинг бундай кетма-кетлиги ўқувчининг

аналитик фикрлаш фаолиятини осонлаштиради. Бир қисмни чизиб, қайси қисм билан ишлаш кераклигини эслайди ёки кўради. Чизиқли контурлар қисмларнинг чегараларини аниқ кўрсатиб, расмни бўяшга ёрдам беради. Бўёқлар билан чизишда (гуаш ва акварел) шаклни яратиш рангли доғдан бошланади. Ранг ва шаклни сезиш хисси ривожланиши учун бўёқлар катта аҳамиятга эга. Улар билан атроф оламнинг турфа рангга бойлигини кўрсатиш осон: очиқ осмон, қуёш чиқиши ва ботиши, кўк уммон, қаламда бажариш учун бу мавзулар қийин, лекин яхши ривожланган техник малакаларни талаб қилади.

Ўқувчилар содда геометрик шаклларнинг номлари ва хусусиятлари, предмет ва уларнинг қисмлари ҳажми маконда жойланиши хақида тасаввурга эга бўлишади. Бу кийин тушунчалар декоратив накш ёки предметни қисмлар бўйича тасвирлаш жараёнида ўқувчилар томонидан осон ўзлаштирилади. Машғулотлар жараёнида умум ёшдаги ўқувчиларда ранг, ритм, симметрия ҳисси ва шу аснода бадиий дид шаклланади. Улар ўзлари рангларни тузишлари ёки шаклларни бўяшлари керак эмас. Уларга турли ранг ва тусли қоғозларни бериш орқали уларда чиройли бирикмаларни танлаш махорати тарбияланади. Умум бўлган ёшда ишнинг амалий жараёни билан ўзвий боғлиқ бўлган фикрлашнинг кўрсатма-харакатли шаклларидан ташқари фикрлашнинг анча юксак даражаси кўрсатма образли қўлланиши мумкин. Ўқувчи ақлий жараёнлар орқали ўз иши натижасини тасаввур қилишга киришади. Кўрсатма образли фикрлаш ривожланиши таълим жараёнида юзага келади. Шунинг учун ўқувчи иш олдидан уларда шаклланган тушунчалар асосида ақлий масалаларни ечишади, сўнг бу масалани амалга ошириш йўлларини қидиришади. В.А.Езикаева тадқиқотлари шуни кўрсатадики, 5-7 ёшли ўқувчи яратган образ улар эгаллаган тажриба ва ижодий жараёнда ақлий фаоллик ошиши билан алоҳида образ ўзгаради. Тасвирий фаолият аҳлоқий тарбия масалалари ечими билан чамбарчас боғлиқ. Атрофга маълум муносабатни мустаҳкамловчи ўқувчи ишлари мазмуни ва ўқувчиларда кузатувчанлик, қатиятлилик, фаоллик, мустақиллик, эшитиб топшириқни бажариш, бошланган ишни охирига етказиш махоратини тарбиялаш орқали бу алоқа амалга ошади. Бу ходисани идрок қилишда туйган хисларини яна

бошдан кечиргани учун хам тасвирлаш жараёнида тасвирланаётган нарсага муносабат мустахкамланади. Шунинг учун ўқувчи шахси шаклланишига ишлар мазмуни катта таъсир кўрсатади. Таникли рус педагоги Н.К.Крупская "Санъат оркали ўқувчига ўз фикр ва туйғуларини аникроқ фикрлаш ва чуқурроқ ҳис қилиш, тушунишга ёрдам бериш керак. Ўқувчига бошқаларни англаш воситаси, коллективга яқинлашиш воситаси, коллектив билан бирга ўсиб ҳаётнинг аҳамиятли чуқур, янги кечирмаларига бориш воситаси орқали ўз ўзини билишга ёрдам бериш керак". Этик ва эстетик кечинмалар учун бой материални табиат беради: ранглар бирикмалари, ҳодисалар (момоқалдироқ, чақмоқ, қирғоққа уриладиган тўлқинлар, қор бўрон) булар барчаси хайратланарли гўзалликдир. Тасвирий саънат ўқувчиларда инсонлар меҳнати, турмуш хақида тасаввурларини мустаҳкамлашга ёрдам беради. Буларнинг барчаси ўқувчининг инсон меҳнат фаолияти хақидаги тасаввурларини кенгайтиради, ўқувчини меҳнатга тарбиялашга олиб келади. Расм чизиш, қуриш-ясаш, конструксиялаш жараёнида ижодий фаолиятнинг асосий таркибий ҳисобланган мустаққиллик, фаоллик, ташабускорлик каби шахснинг муҳим сифатлари шаклланади. Тасвирий саънат жараёнида ўқувчиларда дўстлик, ёрдам бериш туйғулари тарбияланади. Тасвир устида ишлашда улар бир-биридан ёрдам сўраб мулоқат қилишади. Баъзи холларда ўқувчилар ишлари топшириқни коллектив бажариш сифатида ташкиллаштиради, бу жараёнда бир-бирига ёрдам бериш, бирга жамоа бўлиб ишлаш махорати уларда тарбияланиб боради. Ўқувчилар фаолиятида ва идрок қилинаётган ходисалар хақидаги суҳбатда пайдо бўлувчи объектга эстетик муносабат ва билиш қизиқишлари бирлашиши интилишда мужассам. Ўқувчи кўпинча унинг учун севимли, диққатни тортадиган нарсаларнинг эстетик устунликларини хисобга олиб ҳам унга яхши баҳо беради. Маънавий хисларини мустаҳкамлаш, эстетик кечинмаларни чуқурлаштириш учун машғулот жараёнида маълум эмотсионал кайфият хосил қилиш керак. Масалан, "Баҳор" мавзусига расм чизиш учун у ҳақида шеърлар, "Йил фасллари" номли Чайковский пъессаларини эшитириш яхши натижа беради. Малака, маҳорат ва билимларни амалий қўллаш ва ўзлаштириш жараёнидатасвирий фаолиятўқувчиларнинг ижодий қобилиятлари ривожланишига туртки бўлади.

Ўқувчиларда бадиий қобилиятлар ривожланиш хақида қайғуриб, тарбиячи ўқувчини расм чизиш, қуриш-ясашга қизиқиши, эътиборини тортувчи илк омилларни билиши лозим. Бундай омиллардан бири предмет ёки ходисани (ёрқин асар, китоб ўйинчоқ, байромона манзара) идрок қилиш орқали ўқувчининг чуқур эмотсионал кечинмалари. Эмотсионал кечинмалар ўқувчида атрофдагиларга у ёки бу ходисани тасвирий воситалар билан кўрсатишга хохиш уйғотади. Кузатиш вақтида бўлган эмотсионал юксалишни ўқувчи расм яратаётганида яна бошдан кечиради. Унда чизиш жараёнидан улкан мамнунлик ҳосил бўлади. Ўқувчида ҳар куни чизиш ва атрофдаги барча нарсани тасвирлаш хохиши пайдо бўлади. Расм чизаётган, қуриш-ясаш билан шуғулланаётганларни кузатиш тасвирий фаолиятга қизиқиш пайдо бўлишига туртки беради. Катталар расм чизиш, қуриш-ясаш, рангтасвирда ёрқин образлар қилиши ўқувчиларда унитилмас таасурот қолдиради, ўз кучларини синаш хохишини пайдо қилади. Ўқувчиларда бадиий қобилиятлар ривожланишига шахсий ўрнак ёрдам, кўрсатма, тушунтириш катта аҳамиятга эга. Катта умум ёшдаги ўқувчи рассом ишлатаётган воситаларни тушуна олади. Бундай усул унинг нафис, мўрт, эртакномолигидан дарак бериб туради. Эртак образи алоҳида тасвирий шакл ва рангларни талаб қилинишини ўқувчилар тушунишлари мумкин. Ўқувчилар асарлар бўйича тасвирни кўришнинг турли композитсион усуллари билан танишишади биринчи, иккинчи планни бериш, формат танлаш. Эстетик тарбиянинг муҳим масалаларидан бири бўлган ўқувчиларнинг ижодий қобилиятлари тасвирий фаолиятда ривожланади. Машғулотларни ташкиллаштириш ва жиҳозлаш ҳам ўқувчининг эстетик тарбиясини ривожлантиради. Аввало тозалик, тартиб, предметлар жойлашиши аниқлиги бўлиши керак: Қаламлар яхши ўткирланган, қоғоз текис варақ қилиб кесилган, лой маълум шаклга (шакл ёки валик-чувалчанг)келтирилган. Бўёқ ёки қоғоз қийқумлари учун патнослар, мўйқалам ёки қаламлар солинган стаканларни чиройли безаш керак. Бундай ҳолат ўқувчиларда шуғулланишга қизиқиш уйғотади, улар гўзаллик ва тартибни сақлашга интилишади. Тасвирий саънат машғулотларининг барчаси тўғри ташкиллаштирилган бўлса ўқувчининг жисмоний ривожланишига ижобий таъсир кўрсатади.Улар умумий хаётий куч, хаётдан қувонганлик тетик кайфиятини кўтаришга яратишга олиб

келади. Расм чизиш ва қуриш-ясаш учун кўриш қобилияти катта аҳамиятга эга. Расм чизиш, қуриш- ясаш учун кўриш ва билиш махорати камлик қилади. Предметни тасвирлаш унинг ранги шакли, конструксияси ҳақида аниқ тасаввурни талаб қилади. Унга эса дастлабки мақсадга йўналтирилган кузатувлар натижасида эришиш мумкин. Бу ишда кўриш аппаратининг ўрни катта. Ўқувчи расм чизиш, қуриш-ясаш жараёнларида олган хотира ва тасаввур образлари илдамлигисиз тасвирий фаолиятни тасаввур қилиб бўлмайди. Тасвирий саънат жараёнида ўқувчилар ўзлаштирадиган меҳнат малакалари қўл ва кўзни ривожлантиради ва улар бошқа меҳнат турларида қўллаши мумкин. Машғулотлар пайтида тўғри ўтириш ўргатилади. Шу тариқа тасвирий санъат машғулотлари ўқувчини хар томонлама ривожланишининг муҳим воситаси ҳисобланади. Расм чизиш-ўқувчилар ижодий фаоллиги кўриниши учун кенг имкониятлар берувчи, ўқувчиларнинг севимли машғулотларидан биридир. Расмлар тематикаси турлича бўлиши мумкин. Ўқувчилар уларни қизиқтирган барча нарсани чизишади. Атроф-оламдан алоҳида предметлар, саҳналар, адабий қаҳрамонлар ва декоратив нақшлар чизиш воситаларини улар қўллай олишади. Расм чизиш усулларини фахмлаш ва ўзлаштириш кичик ўқувчи учун бироз қийин, шунинг учун ҳам тарбиячи машғулот мазмунига катта эътибор қаратиши шарт. МТМда асосан турли тасвирий имкониятларга эга бўлган рангли қаламлар, мум қаламчалар, акварел, гуаш бўёқлар ишлатилади. Қалам билан чизиқли шакл яратилади. Бир қисм ортидан бошқаси биринма-кетин чизилади, турли деталлар қўшилади. Сўнг чизиқли тасвир бўялади. Расм чизишнинг бундай кетма-кетлиги ўқувчининг аналитик фикрлаш фаолиятини ривожлантиради. Бороp предметни чизишда унинг бир қисмни чизиб, қайси қисм билан ишлаш кераклигини эслайди ёки кўради. Чизиқли контурлар қисмларнинг чегараларини аниқ кўрсатиб, расмни бўяшга ёрдам беради. Бўёқлар билан чизишда (гуаш ва акварел) шаклни яратиш рангли доғдан бошланади. Ранг ва шаклни сезиш хисси ривожланиши учун бўёқлар катта аҳамиятга эга. Улар билан атроф-оламнинг рангга бойлигини кўрсатиш осон: очиқ осмон, қуёш чиқиши, ботиши, кўк умон, қаламда бажариш учун бу мавзулар қийин. Булар албатта яхши ривожланган техник малакаларни талаб қилади. Бу материаллар ўқувчиларнинг тасвирий

имкониятларини кенгайтиради. Кўмир ва сангина билан ишлашда тасвир бир рангли бўлади, бу эса барча эътиборни предмет шакли ва фактурасини ифодалашга жамлашга имкон беради; рангли мум қаламчалар катта шакллар ва катта юзаларни бўяшни шакллантиради; пастел рангнинг турли тусларини ифодалашга имкон беради. Ясашнинг тасвирий фаолият турларидан бири сифатидаги ўзига хосликлари тасвирлашнинг хажмли усулида мужассам, ясаш хайкалторошлик тури у нафақат юмшоқ материал билан. Балки қаттиқ материал билан мармар, гранит) ишлашни ўз ичига олади. М.И. Калинин. Aқлий ривожланиш учун чизишнинг аҳамияти хақида “Чизишга ўрганган ва кўникган одам ҳар янги предметга ўзгача ёндошади. Шундай предметни чизадики, унинг бошида образ тайёр бўлади. Бу эса предметнинг асл моҳиятига чуқур киришмак демак. Предметни тўғри тасвирлаш учун у ҳақида тўлиқ тасаввур бўлиши керак-(предметнинг характер жиҳатлари, уларнинг бир-бири билан мутоносиблиги, шакли рангини кўриш. Ўқувчи баъзида ўз расмларида предметнинг баъзи ёрқин хусусиятларигагина чизади. Ўқувчиларда тасвирий саънат машғулотларида ранг, ритм, симметрия хисси ва шу аснода бадиий дид шаклланади. Улар ўзлари рангларни тузишлари ёки шаклларни ранглашлири керак эмас. Уларга турли ранг ва тусли қоғозларни бериш орқали уларда чиройли бирикмаларни танлаш махоратини тарбмяланади. Чизиш ва ясаш учун кўриш қобилияти катта аҳамиятга эга. Расм чизиш ёки қуриш-ясаш учун кўриш ва билиш махорати камлик қилади. Предметни тасвирлаш унинг ранги, шакли, конструксияси хақида аниқ тасаввурни талаб қилади. Тасвирий фаолият жараёнида ўқувчининг кўриш хотираси фаол шаклланади. Ривожланган хотира оламни муваффақиятли билишни муҳим шарти. Расм чизиш, қуриш-ясаш, аппликатсия, конструксиялаш машғулотларида ўқувчи қўли, айниқса, ўқувчининг мактабда ўқишга ўрганиши учун муҳим бўлган бармоқлар ва қўл мушаклари яхши ривожланади.тасвирий фаолиятжараёнида ўқувчилар ўзлаштирадиган меҳнат малакалари қўл ва кўзни ривожлантиради в улар бошқа меҳнат турларида қўлланиши мумкин. Тасвирий санъат машғулотлари ўқувчини хар томонлама ривожланишининг муҳим воситаси ҳисобланади. Табиий ва бошқа материаллар билан ишлаш ўқувчиларга янги тасвирий малакаларни ўзлаштириш, ўз ижодий қобилиятини кўрсатишга йўл

қўяди. Ўқувчилар иш учун зарур тасвирий ва техник усуллар-айлана шаклларни чизиш, қоғозда предметларни жойлаштириш маҳоратини ўзлаштирганликларини ҳисобга олиш муҳим.

**Фойдаланган адабиётлар**

1. Сулаймонов А., Г.Амирова. Тасвирдаги ранг баранглик. Тасвирий фаолият воситасида мактабгача ёшдаги болаларнинг мантиқий фикрлаш элементларини шакллантириш. Мактабгача таълим журнали. 2016 йил.

2. Болажон таянч дастури. С.С. Миржалилова ва б. – Тошкент: 2010 йил

## MAKTABGACHA YOSHDA BO'LGAN BOLALARDA ILK IQTISODIY BILIMLARINI TASHKIL ETISH VA RIVOJLANTIRISH

***Yuldasheva Dildoraxon Rasuljon qizi***

*Namangan davlat pedagogika instituti*

*Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 1-bosqich talabasi.*

*Tel: +998337971353*

*E-mail: yuldashevadildoraxon701@gmail.com*

***Annotatsiya:****Ushbu maqolada Prezidentimiz maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish to'g'risida qabul qilgan qarorlari, shu bilan birga maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirish to'g'risidagi konsepsiya aks etgan. Bu maqola maktabgach yoshdagi bolalarda iqtisodiy bilimlarini shakllantirish va rivojlantirish haqida bayon qilingan.*

***Аннотация:*** *В данной статье отражены принятые Президентом решения по развитию системы дошкольного образования, а также концепция развития детей дошкольного возраста. В данной статье описано формирование и развитие экономических знаний у дошкольников.*

***Annotation****: This article reflects the decisions made by the President on the development of the preschool education system, as well as the concept of the development of preschool children. This article describes the formation and development of economic knowledge in preschool children.*

***Kalit so'zlar:*** *Maktabgacha ta'lim konsepsiyasi, maktabgcha ta'lim vazirining buyrug'i,iqtisodiyot,bolalar,inovatsion texnologiya,metodlar.*

***Ключевые слова:*** *концепция дошкольного образования, приказ министра дошкольного образования, экономика, дети, инновационные технологии, методы.*

***Key words:*** *concept of preschool education, order of the minister of preschool education, economy, children, innovative technology, methods.*

**Kirish.**O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 30-sentabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3955-son qarorini ijro etish maqsadida ishlab chiqilgan bo'lib, 2030-yilgacha maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni o'z ichiga oladi. Konsepsiya O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'limni rivojlantirishning maqsadlari, vazifalari, ustuvor yo'nalishlari, o'rta va uzoq muddatli istiqboldagi bosqichlarini belgilaydi hamda maktabgacha ta'lim sohasini rivojlantirishga yo'naltirilgan dasturlar va kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish uchun asos bo'ladi. Ushbu Konsepsiyaning maqsadi bola hayoti va faoliyatining barcha sohalarini rivojlantirishni ta'minlovchi muhim manba bo'lgan sifatli maktabgacha ta'limdan foydalanish mexanizmlarini ishlab chiqishdan iborat. [1] Maktabgacha yoshdagi bolalarni iqtisodiy tarbiyalash, iqtisodiy madaniyat asoslarini shakllantirish, bolalarni iqtisodiyotga jalb qilish, dastlabki iqtisodiy ta'lim iqtisodiy sotsializmning omillaridan biri bo'lib, bolaning moddiy va ma'naviy qadriyatlariga bo'lgan munosabatlariga va umuman, bola shaxsiyatini shakllantirishga katta ta'sir ko'rsatadi. Iqtisodiyot nazariyasida o'rganilayotgan muammolarning xilma-xilligi tahsinga loyiq, biroq maktabgacha ta'lim muassasasida bolalarni iqtisodiy tarbiyalashning pedagogik shartlarini o'rganish masalasi dolzarbligicha qolmoqda. A. S. Makarenkoning fikriga ko'ra, erta yoshdan boshlab bola oilaviy sharoitda kelajakdagi iqtisodiy faoliyatga odatlangan bo'lishi va halollik, g'amhorlik, tejamkorlik, mas'uliyat haqida tushunchaga ega bo'lishi lozim. Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni tarbiyalash nazariyasi va amaliyotining holatini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, iqtisodiy ta'lim jarayoni

maktabgacha yoshdagi bolalarni iqtisodiy tarbiyalashning yaxlit nazariyasi yetarli darajada ishlab chiqilmaganini ko‘rsatadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentabrdagi PQ-3305-son “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabrdagi PQ-2707-son “2017 — 2021-yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq buyuraman:

1. O‘zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Mazkur buyruq rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi

Mazkur O‘zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabrdagi PQ-2707-son “2017–2021-yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori hamda Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 21-noyabrdagi 929-son “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi to‘g‘risidagi nizomni hamda Maktabgacha ta’lim muassasalari rahbar va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti ustavini tasdiqlash haqida”gi qaroriga asosan ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlantirish, ta’lim-tarbiya berish, maktab ta’limiga tayyorlash bo‘yicha davlat talablarini belgilaydi.[3]

Maktabgacha yoshdagi bolalarda matematika fani orqali iqtisodiy bilimlarini rivojlantirish. Biz bu orqali bolalarni ertangi hayoti davomida ham aqliy, ham mantiqiy, ham matematik, va iqtisodiy bilimlarini rivojlantirishimiz mumkin. Buning uchun bizga bilim, ozgina sabr, bardosh, bolalar bilan ishlash uchun tushunish va tushuntirib bera olish ko‘nikmalari zarur bo‘ladi. Bolalarga yaxshi gapirib harakatlar orqali  barcha narsalarni tushuntirish va o‘rgatish mumkin bo‘ladi. Maktabgacha yoshda iqtisodiy ta’lim muhitining mazmuni quyidagilardan ibora; obyektiv muhit (o‘yinga asoslangan iqtisodiy muhit yaratish) ;ijtimoiy qiziqishlariga atrof-muhit (ota-onalar, ta’lim beruvchi jamoa ya’ni MTTlar), voqea-bilim muhiti (qiziqarli ekskursiyalar, mashhurlar bilan

uchrashuvlar) va axborot muhit (jumboqlar,do'konlar, banklar, xizmat markazlari,tanga namunalari). Tarbiyachi ijtimoiy agentlarning ma'lumotlarini profesional tarzda qayta ishlab, ushbu ta'sirni maqsadli yo'naltira olishi,ijtimoiy rivojlanish holatini pedagogik holatga aylantira olishi, yetakchi axloqiy va iqtisodiy fazilatlarni shakllantirishga qaratilgan ta'lim muhitini yarata olishi lozim. Iqtisodiy ta'limning yana bir sharti- oila, odamlar, jamiyat va jamiyatning iqtisodiy ahvoliga oid bolalar faoliyati turlarini (o'yin, mehnat, bilim)tashkil etish va to'ldirish, shu asosda ijtimoiy-iqtisodiy jamiyatning ijobiy me'yorlari va qadriyatlariga bilimli qiziqishni rivojlantirishdir. O'yin bolaning shaxsiyatini rivojlantirishda faol omil bo'lganligi sababli, o'yin mazmunini hayotiy muhum jihatlar bilan boyitish juda muhim va zarurdur. Jumladan, bolaga iqtisodiyot to'g'risidagi tushunchalarni o'yin orqali tushuntirilsa o'rgatilsa bola ham oson o'rganadi va tez tushunadi. Bolaga ko'p narsalarni tushuntirish va o'rgatish o'yin orqali juda tez, oson va qulay kechadi. O'yin orqali bolalarga darslar, ta'lim, tarbiya berilsa bolalar bularni yaxshi o'zlashtirishadi va zerikib qolishmaydi aksinch bolalar o'yin orqali o'rgatilayotgan narsalarga qiziqishlari yanada oshadi. Bu bizlarga juda qo'l keladi.Iqtisodiy bilimlarni bolalarda shakllantirishni biz 6-7 yoshli bolalardan boshlasak maqsadga muvofiq bo'ladi.

Chunki bu yoshda bolalar matematika fanidan dastlabki tushunchalarni olgan bo'ladilar, shuning uchun bu yoshdagi bolalarga iqtisodiy bilim berishimiz ancha oson bo'ladi shunda biz ham bolalar ham qiynalishmaydi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga iqtisodiy tarbiya berishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish masalasi yuzasidan quydagi firirlarni kiritib o'tish o'rinli hisoblanadi.Iqtisodiy tarbiya shaxsning barkamol shakllanishining zarur shartidir. Maktabgacha yoshdagi bolalarni iqtisodiy tarbiyalash pedagogikaning asosiy muammolaridan biri bo'lib kelgan va shunday bo'lib qolaveradi. Bozor iqtisodiga o'tayotgan bir sharoitda va keyingi rivojlanishda ham bolalarning iqtisodiy tafakkurni shakllantirish muhimdir. Bu sohada hukumatimiz g'amxo'rlik ko'rsatmoqda va soha mutaxassislari bolalarga iqtisodiy tarbiya berishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish masalasiga oid ko'plab tadqiqotlar olib borilmoqda.Maktabgacha yoshdagi bolalarga iqtisodiy tarbiya berishdan asosiy maqsad bolalarda tejamkorlik, ishbilarmonlik, iqtisodiy hisob-kitob qilish

qobiliyatini shakllantiradi. Iqtisodiy tarbiya mazmuni Sharq mutafakkirlari tomonidan muntazam boyitilib, ilmiy asoslab kelingan. Bu borada AlXorazmiy matematika fani inson hayotida asosiy oʻrin tutishini alohida taʼkidlaydi. Uning fikricha, kishi hisob ilmini bilishi va oʻz ishiga puxta boʻlishi kerak. Shunda u oʻz mehnatining (oʻzgalarning ham) natijalarini oʻlchovlar orqali aniqlay olishi mumkinligi haqida aytadi. A.N.Forobiy "Baxt-saodatga erishuv haqida" asarida shunday yozadi: "Inson oʻz mablagʻini toʻgʻri sarflashni bilishi kerak. Pul sarflashda qizgʻanchiqlik qilish xasislikka olib keladi. Pullarni rejasiz ishlatish esa insonni beboshlikka yetaklaydi". A.Avloniy "Iqtisod deb, pul va mol kabi neʼmatlarning qadrini bilmakka aytilur" yana "Hozirgi zamonda maqsadga yetmoq, xalqqa maqbul boʻlmoq uchun ilm va mol lozimdur" kabi qimmatli gʻoyalarni olgʻa surgan.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga iqtisodiy tarbiya berishda innovatssion texnologiyalardan foydalanish jarayonini amalga oshirishda quydagi metodlardan foydalanishimiz mumkin.

1. Kashf etmoq- bu metod orqali bolalarning kashfiyotchilik qobilyati, fantaziya kuchi oshiriladi. Bolalarga "Agarda men…", "Agarda…" kabi boshlangʻich qoʻzgʻatuvchi savol tashlab qoʻyiladi. Bolalar oʻzlarining tasavvurlariga suyanib jarayonni davom ettirishlari lozim boʻladi. Masalan, "Agarda men suv boʻlib qolsam…", "Agarda yer yuzida har kuni quyosh chiqib turmasa…", "Agarda suv boʻlmasa..." kabi.

2. Obrazli rasmlar-bu metodda obʼekt hissiy-obrazli tadqiq qilinadi. Bola tanlangan obʼektni tahlil qilish yoki kuzatish natijasida uning oʻz tasavvuridagi matnli yoki grafik koʻrinishdagi obrazini yaratishi talab qilinadi. Ushbu metoddan koʻzlangan maqsad bolalarda obrazli tafakkurni, tahliliy fikrlashni rivojlantirish, ularning tasavvuri, xayoloti va har bir buyumlardan oʻz oʻrnida foydalanish yuzasidan mustaqil fikrlashga oʻrgatishdir.

3. Agglyutinatsiya – bu metod orqali bolalar oʻz tasavvurlari orqali turli, haqiqatdan yiroq boʻlgan predmet yoki obrazlarni yaratishlari mumkin. Misol uchun muzlik davri, mavguli ham agglyutinatsiya mahsulidir.

4. Aqliy hujum- metodi bolalarni mavzu xususida keng va har tomonlama fikr yuritish, oʻz tasavvurlari, gʻoyalaridan ijobiy foydalanishga doir koʻnikma, malakalarni hosil qilishga ragʻbatlantiradi. U yordamida tashkil etilgan

mashg'ulotlarda ixtiyoriy muammolar yuzasidan bir necha orginal (o'ziga xos) yechimlarni topish imkoniyati tug'iladi. Metod mavzu doirasida ma'lum qarashlarni aniqlash, ularga muqobil g'oyalarni tanlash uchun sharoit yaratadi. Mashg'ulotda bolalar faoliyatini standart talablar asosida nazorat qilish, ular tomonidan bildiriladigan fikrlarni baholashga yo'1 qo'yilmaydi (zero, fikrlar baholanib borilsa, bolalar diqqatlarini shaxsiy fikrlarini himoya qilishga qaratadi, oqibatda yangi fikrlar ilgari surilmaydi. Metodni qo'llashdan ko'zlangan asosiy maqsad bolalarni muammo bo'yicha keng fikr yuritishga undash ekanligini yodda tutib, ularni ba'holab borishdan voz kechishdir.

5."Ramziy ko'rinish"- Ushbu metodda ob'ekt bolalar tomonidan hissiy-ramziy nuqtai nazardan tadqiq qilinadi. Tanlangan ob'ekt va uning ramzi orasidagi bog'lanishlar izlanadi, ob'ektning grafik, belgili, so'zlar orqali biror ko'rinishda ramzini yaratish talab etilib, eng asosiysi, bu ramzni talqin etish, asoslab berish hisoblanadi. Metodning maqsadi o'zlashtirilgan bilimlarni yodga tushirib, to'plangan ma'lumotlarni umumlashtira olish, ularni rasm, chizma ko'rinishida ifodalay olishga o'rgatish, tahliliy va mantiqiy fikrlashlarini rivojlantirish, yaratuvchanlik, innovatsion tasavvurni shakllantirishdan iborat.

6.Everistik savollar- Bu metodda tanlangan hodisa yoki ob'ekt to'g'risida ma'lumot to'plash maqsadida 7 ta tayanch so'roq so'zlari asosida savollar tuzish talab etiladi. Kim? Nima? Qayerda? Qachon? Qanday? Qay tarzda? Nima uchun? so'roqlari bilan boshlanuvchi savollar tuzish va ularga javob topish jarayonida yangidan-yangi "Qachon va qay tarzda?" "Kim va qachon?", "Kim va nima uchun?" kabi savollar yuzaga keladi. Bunda eng original, betakror savollar va aniq javoblar yuqori ba'holanadi. Maqsad – o'rganilayotgan ob'ektning mazmun-mohiyatiga chuqur kirib borish, bolalarning tahliliy va mantiqiy fikrlash malakasini oshirish va maktabgacha ta'lim yoshidan boshlab bolalarni innovatsion faoliyatga tayyorlashdan iborat.[3]

**Xulosa:** Yuqoridagi fikirlardan ko'rinib turibdiki, maktabgacha yoshdagi bolalarda iqtisodiy bilimlarini shakllantirib uni rivojlantirsak bolalarimiz har tomonlama rivojlanish jarayonlari tezlashar ekan va ilk iqtisodiy bilimlarni berish orqali bolalarni tejamkorlikaga ham o'ragishimiz mumkin bo'ladi. Shunda

bolalarimiz keljakda iqtisod jihatdan ham tejamkorlik jihatdan ham qiynalishmaydi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 08. 05. 2019 yildagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" PQ-4312-son qarori. // https://lex. uz/docs/-4327235 [murojaat qilingan sana: [10.03.2023.]

2. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirining 03.07.2018-yildagi "O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablarini tasdiqlash haqida"gi buyrug'i. // https://lex. uz/docs/-3805404 [murojaat qilingan sana: 10.03.2023.]

3. https://cyberleninka.ru/article/n/maktabgacha-yoshdagi-bolalarga-iqtiso diy-tarbiya-berishda-innovatssion-texnologiyalardan-foydalanish-zarurati/viewer

## DARSLARDADAGI ZAMONAVIY TA'LIMNING O'RNI

***To'lqinova Salimagul Baxromjon qizi***

*Namangan davlat pedagogika instituti*

*Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi (yevro) gruppasi 1- bosqich talabasi*

*@salimagultulkinova521gmail.com, Tel: - + 998913422826*

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada zamonaviy ta'lim asosida o'quvchilarda mustaqil fikrlash , og'zaki va yozma savodxonligini oshirish, ularda tafakkurni rivojlantirish orqali ularning madaniyatini takomillashtirish va o'quvchilarning dunyo qarashlarini zamonaviy texnologik metodlar bilan kengaytirish .*

***Kalit so'zlar:*** *Ta'lim, pedagog, texnologik metodlar, ilmiy adabiyotlar, interfaol, tarbiyaviy maqsad, sinkveyn, kreativ, tarmoqli.*

Ta'lim - o'qituvchi va o'quvchilarning hamkorlikdagi faoliyatidir, shu jarayonda shaxsning taraqqiyoti, uning ma'lumoti va tarbiyasi ham amalda shakllanadi. Darslarda o'qituvchi o'z bilimi, ko'nikma va malakalarini mashg'ulotlar vositasida o'quvchilarga yetkazadi, o'quvchilar esa uni o'zlashtirib

borishi natijasida undan foydalanish qobiliyatiga ega boʻladi. Oʻrganish jarayonida oʻquvchilar oʻzlashtirishning turli koʻrinishlaridan foydalanishadi, ya'ni oʻzlashtirilayotgan ma'lumotlarni qabul qilish, qayta ishlash hamda amaliyotga tatbiq etishda oʻziga xos yondashuvlarga tayanadi. Ta'lim jarayonida oʻqituvchi va oʻquvchilarlarning dars paytidagi hamkorligi, oʻquvchilarning mustaqil ishlashi, sinfdan tashqari ishlar shaklida ta'lim va tarbiya masalalari hal etiladi. Ilmiy adabiyotlarda ta'limning maqsadi imkoniyatlaridan toʻgʻri, aniq, oʻrinli foydalanish koʻnikma va malakalarini hosil qilish, mantiqiy-ijodiy tafakkurni rivojlantirish, savodxonlikni oshirish, tarbiyani shakllantirish, shaxsni ma'naviy boyitishdan iboratligi ta'kidlanadi. Ta'limiy maqsad asosida oʻquvchilarda mustaqil fikrlash, ogʻzaki va yozma savodxonlikni oshirish, tafakkurni rivojlantirish orqali ularning muloqot madaniyati takomillashtiriladi. Tarbiyaviy maqsad asosida esa ma'naviy, gʻoyaviy, tarbiyasi mujasamlanadi . O'zga tillarni oʻrganish jarayonida xalqning madaniy-axloqiy qadriyatlariga yaqinlashtirish imkoni paydo boʻladi.

Hozirgi kunda boshlang'ich sinflarning ta'lim jarayonida interfaol metodlar va axborot texnologiyalarini oʻquv jarayonida qoʻllashga boʻlgan qiziqish kundan-kunga ortib bormoqda. Bunday boʻlishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda oʻquvchilar faqat tayyor bilimlarni egallashga oʻrgatilgan boʻlsa, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish esa ularni egallayotgan bilimlarini oʻzlari qidirib topish, mustaqil oʻrganish va fikrlash, tahlil qilish, hatto yakuniy xulosalarni ham oʻzlari keltirib chiqarishga oʻrgatadi. Oʻqituvchi bu jarayonda shaxs rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yoʻnaltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Bugungi kunda ta'limda, «Tarmoqlar» metodi, «Sinkveyn», «Beshinchisi ortiqcha», «Bahs-munozara», «Rolli oʻyin», «Kichik guruhlarda ishlash», «Oxirgi soʻzni men aytay» kabi zamonaviy texnologik metodlar qoʻllanmoqda. Dars mashgʻulotlarida oʻyin-topshiriqlarni takrorlash yoki mustahkamlash darslarida foydalanilsa ijobiy natija beradi. Oʻyin-topshiriqning qaysi bir turini tanlash darsning turiga, sinf oʻquvchilarining oʻyin-topshiriqlarni bajarishga oʻrgatilganlik darajasi, ularning bilim saviyasi, mustaqil ishlash imkoniyatlari, oʻrganilganlarni xotirada tez tiklay olishi, ijodkorlikning qay darajada shakllanganiga ham bogʻliq boʻlishi kerak. Oʻquvchi fikrlashga, oʻzgalar fikrini anglash va shu fikrni ogʻzaki hamda yozma

shaklda savodli bayon eta olishga oʻrgatish masalasiga e'tibor qaratilgan boʻlib, mustaqil fikrlaydigan, nutq madaniyati rivojlangan savodxon shaxsni kamol toptirish asosiy oʻrin egallaydi.

Bugungi kun oʻqituvchidan ilgʻor g'oyalar,metodlar va yangi axborot texnologiyalaridan oʻquv jarayonida foydalanishni talab etmoqda. Yuqoridagilardan kelib chiqib, dars mashgʻulotlarida interfaol metodlarni qo'llash har bir zamonaviy va intiluvchan pedagogni vazifasidir. Oʻylash mumkinki, u oʻquv mashgʻulotlari samaradorligini oshirishda barcha pedagoglarga amaliy yordam beradi. Shuningdek, oʻquvchilarni oʻz yoʻnalishini tanlash va mustaqil hayotga tayyorgarlik koʻnikmalarini shakllantirishdek mas'uliyatli vazifani bajarishda ularning yaqin koʻmakchilardan biriga aylanadi. Texnologik metodlar bilan oʻqitishning zamonaviy usullarini tatbiq etilsa o'quvchilarimizda ilg'orlik ,kreativ fikrlash,muloqot madaniyati va eng asosiysi zamon bilan hamnafas bo'lishni o'ziga mujassamlaydi. Pedagoglar bundan ijodiy yondashgan holda foydalansa va birinchi prezidentimizning: «Har qarichi muqaddas boʻlgan ona yerimizga nisbatan farzandlarimizda gʻurur va iftixor, sadoqat tuygʻularini uygʻotish uchun biz bugun nima qilyapmiz, degan savolga javob izlab koʻraylik» - degan fikrlariga javoban ta'lim va tarbiya berishning zamonaviy usullarini o'quvchilarimizda tadbiq etish orqali koʻzlangan maqsadga erishisha olamiz.

PEDAGOGIKA TARIXI;

# V. V. BARTOLD - SHARQNING ENG YIRIK TARIXCHISI

***B. B. Ibraximov***

*Namangan davlat pedagogika instituti katta o`qituvchisi*

***Annotasiya:*** *Ushbu maqolada Bartoldning ajoyib iste'dodi va g'ayrioddiy bilimi, o'zining g'ayratli kuchi va mehnat qobiliyati haqida so`z boradi*

***Kalit so`zlar:*** *Sharq, o'lkashunoslik, tarix, madaniyati tarixi, numizmatika, ilmiy meros, Markaziy Osiyo, tadqiqotlar, til, qobiliyat*

V. V. Bartold (1869-1930) - Sharqning eng yirik tarixchisi, rus sharq tarixiy maktabining yaratuvchisi. Bartoldning ajoyib iste'dodi va g'ayrioddiy bilimi, o'zining g'ayratli kuchi va mehnat qobiliyati bilan sharqshunoslikning turli sohalarida ko'plab ilmiy asarlar yaratishga imkon berdi.

XIX-asrning ikkinchi yarmida V. V. Grigor`yev, D. A. Xvolson, P. I. Lerx, N. I. Berezin, V. G. Tizengauzen, N. I. Veselov asarlari sharofati bilan musulmon dunyosi tarixini o'rganish. Skogo, V. V. Radlov va V. R. Rozen Rossiyada jiddiy yutuqlarga erishdilar. Bir qator muhim arab, fors va turkiy yozma manbalar va numizmatik materiallarni o'rganish asosida dunyo sharqshunosligida sharafli o'rin egallagan mustaqil rus tarixiy va sharqiy maktabining paydo bo'lganligini ko'rsatadigan tadqiqotlar paydo bo'ldi. Ushbu tadqiqotlar Bartold faoliyatining asosiy yo'nalishini: O'rta Osiyo tarixiga birinchi darajali qiziqishni belgilab beradigan an'ana yaratdi.

O'rta Osiyo Rossiya tomonidan bosib olingandan so'ng, uning xalqlari tarixiga qiziqish sezilarli darajada oshdi, ammo XIX asr oxiriga kelib. bu sohadagi tadqiqotlar hali bolaligida edi; faqat alohida masalalarga bag'ishlangan nisbatan kam miqdordagi asarlar - o'sha paytda fanning hamma narsasi edi. Shuning uchun, 1891 yilda, yigirma ikki yoshli V.V.Bartold V.R.Rozenga haqli ravishda xat yozishi mumkin: "Hech kim O'rta Osiyo tarixining hech bo'lmaganda bir qismini qiyosiy

usuldan foydalangan holda, shu usullarni qo'llagan holda ko'rib chiqishga urindi. uchun ishlab chiqilgan tarixiy rivojlanish qonunlari

Bartold talabalik davridan boshlab o'n ikki yil davomida, O'rta Osiyo tarixiga bag'ishlangan birinchi inshosini (1888), mo'g'ullar istilosi davrida "Turkiston" klassik asari nashr etilishidan oldin taqdim etdi. (1900) Bartold O'rta Osiyo o'rta asrlar tarixini ilmiy o'rganish uchun asos yaratdi. Kelajakda u O'rta Osiyo Temur va Temuriylar davri tarixini, O'rta Osiyoning tarixiy geografiyasini, uning iqtisodiyoti va madaniyati tarixini, shuningdek, unda yashagan alohida xalqlarning tarixini o'rgangan. Dunyo ilmida bir mamlakatni o'rganish uchun juda ko'p ish olib boradigan, o'z tarixini yaratadigan, odatda bir necha avlod tadqiqotchilarining mehnatini talab qiladigan boshqa bir olimni topish qiyin.

Bartold umrining oxirigacha, o'z so'zlari bilan aytganda, "asosan Markaziy Osiyo tarixchisi" bo'lib qoldi. Ammo uning ilmiy qiziqishlari doirasi ancha keng bo'lib, butun Yaqin va O'rta Sharq va O'rta Osiyo tarixini qamrab oldi. Bartold aloqaga kirgan turli tadqiqot sohalarida u manbalarini tanqidiy tahlil qilish mahorati va o'z zamondoshlari - sharqshunoslikning tor sohalari mutaxassislari tomonidan yaratilgan barcha narsadan hayratda qoldirgan asarlarini qoldirdi. Islom tarixi, arab xalifaligining dastlabki tarixi, Eronning ijtimoiy va madaniy tarixi, uning tarixiy jug'rofiyasi, Kavkaz va Kavkazorti tarixi, turkiy va mo'g'ul xalqlari tarixi va etnografiyasi, musulmon epigrafikasi va numizmatikasi - bu chuqur va o'ziga xos rivojlanishni topgan mavzularning to'liq ro'yxati. Bartold asarlarida. V.V.Bartold arab, fors va turkiy tillarning buyuk biluvchisi bo'lib, o'z asarida ko'plab yangi yozma manbalardan foydalangan, ammo boshqa hech kim singari u topmagan va tahlil qilgan. Bartold ikkita qo'shma asarni va bir qator alohida maqolalarni rus va jahon sharqshunosligi tarixiga bag'ishladi.

Bartoldning ilmiy merosi yetarlicha o'rganilmagan; uning Sharq tarixshunosligiga qo'shgan hissasi hali to'liq qamrab olinmagan.

Vasiliy Vladimirovich Bartold 1869 yil 3-noyabrda Sankt-Peterburgda ruslashgan nemislar oilasida tug'ilgan; otalarning ajdodlari Boltiqbo'yidan kelgan; onaning bobosi, lyuteran ruhoniysi, Gamburgdan Rossiyaga ko'chib o'tgan; V.V. Bartoldning otasi aktsiyador bo'lgan. V.V.Bartold «Avtobiografiya» 2-da otaning ahvoli keyinchalik o'g'illari tomonidan saqlanmaganligini va 1917 yildagi Buyuk

Oktyabr inqilobidan keyin «otaning hech bir bolasi muhojir bo'lib qolmaganligini» ta'kidladi. Ammo bolalik va o'smirlik davrida oilaning moddiy boyligi V.V. Bartoldga ko'p qirrali gumanitar ta'lim olish, xususan qadimgi klassik va asosiy G'arbiy Evropa tillarini puxta o'rganish, keyin esa o'zi uchun maktabdan jalb qilingan ixtisoslikni tanlash imkoniyatini berdi. hikoya. 1887 yilda V.V. Bartold Sankt-Peterburgdagi 8-gimnaziyani oltin medal bilan tamomladi. Qadimgi antik davr tarixi va Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlari tarixi o'rtasida tanlangan ikkilanishdan so'ng V.V. Bartold o'zini ikkinchisiga bag'ishlashga qaror qildi va 1887 yilning kuzida Sankt-Peterburg universitetining arab-fors-turk tillarida Sharq tillari fakultetiga o'qishga kirdi. Tatar kategoriyasi.

Talabalik yillarida Bartold arab, fors va turk tillarini chuqur o'rgangan, ammo ko'p jihatdan o'rta maktabni yaxshi ko'rgan.

Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarining ko'p asrlik tarixi. Filologiya bilan taqqoslaganda, o'sha paytda sharqshunoslikning ushbu sohasiga uchinchi o'rin berilgan edi. VV Barning ta'kidlashicha, fakultetda "Sharq tarixi faqat bitta o'qituvchi, prof. Veselovskiy, u umumiy kurs sifatida Evropaning Sharqdagi sayohatlari va bundan tashqari O'rta Osiyo tarixi bo'yicha bir nechta kurslarni o'qigan »*. Sharq tarixi kafedrasini prof. N.I.Veselovskiy (1848-1918) V. V. Barga kasblarni tanlashda to'liq erkinlik berdi. Bartoldning haqiqiy ilmiy rahbari Viktor Romanovich Rozen (1849-1908), taniqli ko'p qirrali olim. Shijoatli rus vatanparvarligi (ota-bobolarining fransuz kelib chiqishi bo'lishiga qaramay), V. R. Rozen rusning buyuk kelajagiga ishongan. Sharqshunoslik va yosh sharqshunoslarni tarbiyalashga bag'ishlangan. Bartold, o'z so'zlari bilan aytganda, "universitetda o'qish o'sha davrning boshqa yosh sharqshunoslari singari ko'proq arab professori Baron Rozen rahbarligi ostida bo'lgan. U iste'dodli va g'ayratli edi.

## Foydalanilgan adabiyotlar:

1. V.V. Bartold, avtobiografiya, - Okuri. Egiluvchi, .1927, № 40;

2. Bartold V.V., - "Fanlar akademiyasining to'liq a'zolarining tarjimai holi uchun lug'at uchun materiallar", I qism, 1915, 19-24-betlar;

3. I. Krachkovskiy, V.V. Bartold xotirasiga bag'ishlangan, "Krasnaya Gazeta", L., № 1 * 9) 7 (2555), 19130 yil 2 -GU (kechki son);

# ABDULLA AVLONIY ASARLARIDA ILGARI SURILGAN TA'LIM- TARBIYAGA OID QARASHLAR

***Rejabova Dildora Ergashali qizi***
*Namangan davlat pedagogika instituti*
*Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 1-bosqich talabasi*
*E-mail: rejabovadildora@gmil.com Tel: +998948939203*

***Annotatsiya:****Ushbu maqolada yetuk pedagog, jadid Abdulla Avloniy asarlarida ilgari surilgan ta'lim-tarbiyaga oid qarashlari , fikr-mulohazalari bayon etilgan.*

***Kalit so'zlar:*** *Ta'lim-tarbiya, xulq, pedagogika , dars, muallim, jadidchilik, ilm*

***Аннотация:****В данной статье изложены взгляды и взгляды на образованые современного редагога Абдуллы Авлоны.*

***Ключевые слова:*** *воспитание , обучение ,поведение , педагогика , урок, учител, модернизация ,наука.*

***Annotation:*** *This article describes the views and opinions of the accomplished pedagogue , modern Abdulla Avloni , on education.*

***Key words:*** *educations , training, behavior , pegagogy , lesson, teacher, modernization, science .*

Bugungi jamiyatda farzandlarimizni har tomonlama yetuk, barkamol qilib tarbiyalash oldimizdagi asosiy vazifalarimizdan biri bo'lib turibdi. Ta'limni tarbiyadan , tarbiyani esa ta'limdan ajratib bo'lmaydi. Bu uyg'unlikni ma'rifatparvar jadidlarimiz asarlarida ko'rishimiz, ulardan ko'p narsalarni o'rganishimiz mumkin. Abdulla Avloniy ta'biri bilan aytganda , moziyga qaytib ish ko'rish xayrlikdir. Ularning asarlari yosh avlodni barkamol qilib voyaga yetkazishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jihatdan , taniqli jadidlarimizdan biri, Abdulla Avloniyning maktab o'quvchilari uchun yaratilgan " Birinchi muallim" , " Ikkinchi muallim", " Turkiy guliston yoxud axloq" kabi darslik va kitoblari xarakterlidir. Ayniqsa, uning ilk savod chiqarishda bilim va

tushunchalarni bolalar ongiga sodda va tushunarli yetkazishi alohida e'tiborni tortadi.

2017- yil 3- avgust kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Miromonovich mamlakatimiz ijodkor ziyolilari bilan uchrashuv o'tkazdi. Bu yig'ilishda madaniyat, ommaviy axborot vositalari , adabiyot va san'at sohasini tubdan isloh qilish maqsadida amalga oshiriladigan keng ko'lamli ishlar belgilab olindi. "Biz uchun hech qachon kun tartibidan tushmaydigan yana bir o'ta muhim masala borki, unga alohida to'xtalib o'tishni zarur deb bilaman. U ham bo'lsa, unib-o'sib kelayotgan yosh avlodimiz, farzandlarimiz tarbiyasi bilan bog'liqdir. Buyuk bobomiz Abdulla Avloniy aytganidek, bu masala biz uchun haqiqatdan ham yo najot, yo halokat , yo saodat , yo falokat masalasidir va o'z dolzarbligi va ahamiyatini hech qachon yo'qotmaydigan , ta'bir joiz bo'lsa, masalalarning masalasidur" .**[1]** Shu ma'noda, Abdulla A vloniyning bugungi bolalar adabiyotidagi o'rni, ularda ta'lim va tarbiyaga oid qarashlar , o'zbek xalqining ruhiyati , turmush tarzi, milliy qadriyatlari bilan chambarchas bog'liqligi , uning darslik tuzishdagi o'ziga xos uslublari , boy tarixiy maktab yarata olganligi hozirgi milliy maktab , milliy pedagogikani rivojlantirishimizda dasturil amal bo'lib xizmat qiladi. Uning merosini o'rganish bugungi kun davr talabiga aylanmoqda .

Jadidchilik harakatlarining tub mohiyatiga sodiq qolgan holda , yangi usul maktablari o'quvchilarga ta'lim berish texnikasini ishlab chiqish , yangi kadrlar tayyorlashda o'quv darsliklarining o'rni katta ekanligini anglagan Abdulla Avloniy 1909-yilda yaratgan " Birinchi muallim " asarining ahamiyati ta'lim oluvchi boshlang'ich sinf o'quvchilarining savod chiqarishlarida yengil, talaffuzga qulay tarzda tarzda yozilgan darsliklardan biri hisoblanadi. Uning tarkibida alifbo, kichik-kichik hikoyatlar va ular bilan hamohang tasviri o'quvchilarda qiziqishni uyg'otib tez savod chiqarishlariga sabab bo'lar edi. "Birinchi muallim " darsligida asosan, til qoidalari , imlo savodxonligi kabilarga qat'iy e'tibor qaratilgan bo'lib, ushbu mavzularning amaliyoti kitob doirasida axloqqa oid hikoyalar yoki she'riy parchalar bilan ziynatlangan:" Yomonliq jazosi" , "Qanoat" , " Zar qadrini zargar bilar" , " Yaxshilik yerda qolmas" , " To'g'rilik" , " Ittifoq" , " Qo'shma so'zlar" kabi pand va ibratli hikoyatlardan

tashkil topgan. " Qo'shma so'zlar " dan : " Hozirgi asrda ilmsiz kishilar boshqalarga qul va asir bo'luvdan boshqa hech ishga yaramaslar ".**[2:8]** Abdulla Avloniyning bu so'zlari bugungi kunimizning asosiy qoidalaridan biriga aylanmoqda, vaholangki bu bashorat bundan ancha yillar oldin qilingan edi.

" Ikkinchi muallim " kitobi " Birinchi muallim" ning uzviy davomi desak, mubolag'a bo'lmaydi. "Birinchi maktablarimizning shogirdlarina alifbodan so'ng o'qutmak uchun ochuq til va oson tarkib ila yozilub , axloqiy hikoyalar, adabiy she'rlar ila ziynatlanmish O'QUV KITOBIdur." **[2:9]** Muallif tomonidan darslik shunday ta'riflangan. Darslik epigrafi sifatida shunday misralarni keltiradi :

Shavkati inson erur ilm-u adab ,
E'tibor etmas anga mol- u nasab.

Bu bilan nima demoqchi? O'zining yashagan davridan boshlab barchani ta'lim-tarbiya olishga chorlaydi. Insonning inson ekanligini ko'rsatib beradigan ko'zgu uning ilm va odobidir . Bu ikkisi insonga doimo yaxshiliklar keltiradi, shavkatini cho'qqilarga ko'taradi. Uning mol-u davlati, shon-u shavkati esa o'tkinchi . Kun kelib , bu ikkisi insonni tark etishi mumkin, lekin ilm va odobi hech qachon tark etmaydi . O'zidan keyin nomini abadiylashtiradi. Biz bu hech qachon unutmasligimiz kerak. Darslikda ta'lim – tarbiyaga chorlovchi " Aql" , "Maktab", " Saxiylik ", Baxillik" , kabi pand-nasihatga boy bo'lgan masallar, hikoyalar , she'rlar o'rin olgan, rang- barang ramziy obrazlardan foydalanilgan. Boshlang'ich sinf darsliklarida ham Abdulla Avloniyning bir qator she'r, hikoyalari berilgan. Ularning bugungi kunda ta'lim- tarbiyaviy ahamiyati juda katta.

"Turkiy guliston yoxud axloq "asari o'zbek klassik pedagogikasining ajoyib namunasi hisoblanadi. Adulla Avloniy mazkur asarni fors klassik shoiri Muslihiddin Sa'diyning " Guliston" adaridan ta'sirlanib, unga taqlid qilib yozganligi haqida shunday deydi : "Ban bu asari nochizonami bir necha muallim birodarlarimning iltijolari ila yozmoq va nashr qilmoqg'a g'ayrat va jasorat qilmish edim. Alhamdu lilloh va minna ikkinchi tab'ihada muvaffaq o'dum,chunki Turkiston maktablarida o'z shevamizda (o'zbek tilida demoqchi) yozilmish mukammal " Axloq " kitobining shunday asarga tashna va muhtoj ekanligi o'zum muallimlar o'ldig'imdan manga ham ochiq ma'lum o'ldi.

Shuning uchun ko'p vaqtlar tajriba so'ngidan adibi muhtaram Shayx Sa'diy usulida yozmoqni, garchi og'ir ish bo'lsa ham , o'zimga muqaddas bir vazifa ado qilaroq bu kamchilikni oradan ko'tarmakni munosib ko'rdim.**[3:1]** Bundan shuni anglashimiz mumkinki, Abdulla Avloniy oldiga katta bir vazifani qo'yadi va buni uddalaydi . Pedagogikaga oid asarlari ichida " Turkiy guliston yoxud axloq " asari XX asr boshlaridagi pedagogik fikrlar taraqqiyotini o'rganish sohasida katta ahamiyatga molikdir. Asarda ta'lim- tarbiyaga oid qarashlarini, tavsiya va bu jarayonlardagi muhim hollar haqida alohida to'xtalib o'tadi. "Axloq" , " Xulq " , " Yaxshi xulq , yomon xulq " , "Tarbiya " , " Sa'y va g'ayrat " , " Ilm " , " Intizom " kabi nomlangan qismlarida batafsil, misollar orqali ma'lumot berib o'tadi. Insonlarni yaxshilikka chaqiruvchi, yomonlikdan qaytaruvchi ilm deb axloq haqida ma'lumot beradi. Axloqli insonlar yaxshilikni yomonlikdan ajratguvchi , har joyda o'zining kim ekanligini bilgan insonlar ekanligini ta'kidlaydi. Fazilatlarning eng yuqori darasiga " Axloq " qo'yilganligi ham bejiz emas. "Xulq" murakkab tushuncha , uni tarbiya qilish esa juda og'irdir.

Agar insonning yoshligidan xulq va tarbiyasi buzuq bo'lsa, bunday odamlardan yaxshilik kutib bo'lmaydi. Chunki, yoshlikda bolaga qanday tarbiya berilsa , shundayligicha qoladi. Rasuli akram nabbiyi muhtaram sallollohu alayhi vassallam afandimiz: "Bir tog'ning o'rnidan ko'chib ketganini eshitsangiz, ishoningiz , ammo bir odamning xulqi boshqa bo'ldi deb eshitsangiz ishonmangiz ",- demishlar. **[3:2]**

O'zbek pedagogikasi tarixida Abdulla Avloniy birinchi marotaba pedagogikaga "Pedagogiya " ,ya'ni bola tarbiyasining fanidir deb ta'rif beradi. Bola tarbiyasi ham bir butun soha , uni o'rganish zarurat ekanligini ta'kidlaydi. Tabiiy bu o'rganishlar uning pedagogika fanini yaxshi bilganligidan dalolat beradi. Abdulla Avloniy bola tarbiyasini nisbiy ravishda 4 bo'limga bo'lib oladi:

1.Tarbiyaning zamoni

2.Fikr tarbiyasi

3.Badan tarbiyasi

4.Axloq tarbiyasi

"Tarbiyaning zamoni" bo'limida tarbiyani tug'ulgan kundan boshlash zarurligini ta'kidlaydi.Tarbiyani kimlar qiladi? degan savolga bu ota-ona, muallim, hukumat va barchaning vazifasi,farzand tarbiya qilish uchun ,avvalo, o'zlarini o'qitmoq,tarbiya qilmoq lozim deb javob beradi. "Badan tarbiyasi" bo'limida uning insonga eng kerakli narsa ekanligini aytib o'tadi. Chunki, inson o'qishi, o'qitishi uchun unga kuchli,sog'lom tana lozim , nosog' tana bilan insonning amallarida, ishlarida , ibodatlarida kamchiliklar yuzaga kela boshlaydi. Shunday ekan, birinchi navbatda hayotimiz ustuni bo'lmish – tanimizni tarbiya qilishimiz darkor.

"Fikr tarbiyasi " eng kerakli, ko'p zamonlardan beri taqdir qilinub kelgan, muallimlarning diqqatlariga suyalgan , vijdonlariga yuklangan muqaddas bir vazifadir . Fikr insonning sharofatlik , g'ayratli bo'lishiga sabab bo'ladur.

Fikr agar yaxshi tarbiyat topsa ,
Xanjar , olmosdan bo'lur o'tkur.
Fikrning oyinasi olursa zang ,
Ruhi ravshan zamir o'lur benur.**[3:6]**

Bu misralar bilan insonning o'ylagan o'y-fikrlari qanchalik qudratga ega ekanligini o'quvchilarga uqtiradi. O'ylagan o'yimizga extiyot bo'lishimiz kerak, chunki u so'zga aylanadi. So'z esa qudratli vosita.Insonning qanday fikrlashi uning tarbiyasidan dalolat beradi. "Axloq tarbiyasi " insonga eng oliy shon-sharaf , martaba beruvchi tarbiyadir. Abdulla Avloniy ushbu bo'limda dars bilan tarbiya haqida alohida to'xtalib o'tadi. Ular orasida biroz farq bo'lsa-da, ikkisi bir-biridan ajralmaydigan, bir tandagi ikki jondir. Dars oluvchi-biluvchi, tarbiya oluvchi- amal qilguvchidir,chunki biz darsda o'qituvchilardan bilim olamiz , ular berishadi . Tarbiya jarayonida esa mukammal barcha narsani biladigan ,tarbiyasida nuqsoni yo'q insonning o'zi bo'lmasa kerak. Barcha gap uni bilishida emas, hayoti davomida unga amal qilib yashashidadir . Shundagina,u o'z kuchini ko'rsatadi.Bobomiz bizga shunday kerakli maslahatlarni berib o'tganki, hozirgi kunda hayotimizning oltin qoidasi bo'lib kelmoqda.

Asarda tarbiya bilan birgalikda ilm,ilm o'rganish haqida maslahatlar berib o'tadi, ma'rifatparvarlik g'oyalarini keng targ'ib qiladi. Ilmga shunday ta'rif

beradi: “ Ilm deb o’qimak, yozmakni yaxshi bilmak , har bir kerakli narsalarni o’rganmakni aytilur.Ilm dunyoning izzati , oxiratning sharofatidur.Inson uchun g’oyat oliy va muqaddas bir fazilatdur ”.**[3:11]** Ilmli kishilar har qachon eng yuqori martabada turshini ta’kidlagan. Bu so’zlarning ma’no va mazmuni bugungi kun talabidan kelib chiqib yozilgandek go’yo. U ilmning jamiyatdagi ro’li va o’rnini yaxshi tushungan holda , barchani ilm olishga , kitob mutolaasiga chorlaydi.Ta’lim va tarbiyaga katta e’tibor qaratadi .

Abdulla Avloniyning pedagogik qarashlari bugungi kunda o’zbek milliy maktabini yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois uning ijodiy merosini chuqur o’rganishga qiziqish ortib bormoqda. Uning ijodiy merosi ma’naviy- ma’rifiy tarbiya g’oyasining targ’ibotchisidir. Asarlarida ilgari surilgan ta’lim-tarbiyaga oid fikrlar milliy ma’naviyatimizni rivojlantirishda qimmatli manba bo’lib xizmat qilmoqda . Abdulla Avloniy butun Turkistondagi yoshlarni ilmli, tarbiyali qilish uchun umrining oxirigacha harakat qilgan. Biz bo’lajak pedagoglar bobomizning ishlarini davom ettirishimiz , ularni hayotimizga tatbiq qilishimiz , ertangi kunimiz egalari bo’lgan farzandlarimizni ta’lim-tarbiyali qilishimiz kerak .Shundagina , biz ularga munosib farzand bo’lamiz. Bu ulug’ adibning ijodi, amaliy faoliyati bugungi kun yoshlarimiz uchun ibrat maktabi ,desak adashmaymiz.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1.Mirziyoyev SH.M. Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish , kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ’ibot qilish bo’yicha komissiya tuzish to’g’risida .// Prezident Farmoni ”Xalq so’zi ” gazetasi , 2017-yil 13-yanvar .-N _9.-B.1.

2.Abdulla Avloniy . “ Tanlangan asarlar ” 2-jild Toshkent. “ Ma’naviyat ” 2009.

3.Abdulla Avloniy.Turkiy guliston yoxud axloq –Toshkent:Yoshlar nashriyoti,2019.

TA’LIMDA MENEJMENT;

# UZLUKSIZ TA’LIM TIZIMI BOSHQARUVINI MODELLASHTIRISHNING AYRIM MASALALARI

***Nafasov G‘anisher Abdurashidovich***
*Guliston davlat universiteti dotsenti,*
*Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) E-mail: gnafasov87@gmail.com*
***Abduraimov Dostonbek Egamnazar o‘g‘li***
*Guliston davlat universiteti katta o‘qituvchisi E-mail: abduraimov.dostonbek@mail.ru*
***Qilichev Sunnatillo Tohir o‘g‘li***
*Guliston davlat uriversiteti o‘qituvchisi E-mail:sunnatillo.qilichev@mail.ru*
***Axmedova Xolbuvi Abdullaevna***
*Sardoba tuman kasb-hunar maktabi o‘qituvchisi,*
*E-mail: axmedova.xolbuvi @mail.ru*

***Annotatsiya:*** *Bugungi kunda mamlakatimizda uzluksiz ta’limni takomillashtirish va uni yanada rivojlantirish borasida olimlarimiz ko‘pgina salmoqli izlanishlar olib borilmoqda.Ushbu keltirilgan maqolada uzluksiz ta’lim tizimi boshqaruvini takomillashtirishni modellashtirishning ayrim masala va muammolari ko‘rib chiqilib, ularni hal etish yo‘llari va istiqbol rejalari ochib berilgan.*

***Kalit so‘zlar:*** *matematik modellar, axborot, muammo, mukammallik, jug‘rofik, etnografik, sistematik-tahlil, dasturlar, element, mantiqan baholash, tarmoqli model, muvofiqlashtiruvchi funktsiya.*

***Аннотация:*** *На сегодняшний день нашими учеными проводится много важных исследований по совершенствованию системы непрерывного образования и его дальнейшего развития в нашей стране.В данной статье рассмотрены некоторые вопросы и проблемы моделирования совершенствования управления системой непрерывного образования, а также раскрываются пути их решения и планы на будущее.*

***Ключевые слова:*** *математические модели, информация, проблема, совершенство, географический, этнографический, системный анализ, программы, элемент, логическая оценка, сетевая модель, координирующая функция.*

***Annotation:*** *To date, our scientists are conducting many important studies to improve the system of lifelong education and its further development in our country. This article discusses some issues and problems of modeling the improvement of the management of the lifelong education system, and also reveals ways to solve them and plans for the future.*

***Key words:*** *mathematical models, information, problem, perfection, geographic, ethnographic, system analysis, programs, element, logical evaluation, network model, coordinating function.*

**KIRISH.**Mamlakatimizda uzluksiz ta'limni takomillashtirish va uni yanada rivojlantirish borasida olimlarimiz ko'pgina izlanishlar olib bormoqda.Hozirda bu masala echimini matematik modellardan foydalanib aniqlash katta iqtisodiy samara beradi.Matematik modellashtirish asosida uzluksiz ta'lim tizimini takomillashtirish uchun quyidagi asosiy ko'rsatkichlar qaraladi: masalaning maqsadini to'g'ri qo'yish, uni echish bosqichlari aniq ko'rsatish; masalani echishda mavjud ehtiyojlarni to'la o'rganib chiqqan holda axborotlarni to'plash va keraklisini tanlash; hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish istiqbollari, jug'rofik va etnografik joylashuvi hamda aholi ehtiyojlarini o'rganish orqali moliyaviy ta'minotni to'g'ri yo'lga qo'yish; hududda uzluksiz ta'lim tizimini takomillashtirishning istiqbolli rejasini aniq ko'rsatilgan dastur asosida amalga oshirish; masalani echishda qabul qilingan qarorlarning istiqbolliligini belgilovchi ijobiy natija beruvchi maqbul variant asosida ishlab chiqish.Masalani matematik modellardan foydalangan holda maqbul echimini aniqlashda uzluksiz ta'lim tizimini takomillashtirish muammosi alohida-alohida qaraladi.

Hududiy uzluksiz ta'lim tizimini takomillashtirish va yanada rivojlantirish borasida rivojlangan mamlakatlar milliy ta'lim tizimining ijobiy tajribalarini joriy qilish asosida quyidagi qo'shimcha masalalar paydo bo'ladi: hududdagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning istiqbolli bashoratiga asosan zamonaviy ta'lim

muassasalarini barpo qilish uchun qo‘shimcha moddiy-moliyaviy ta’minotni ko‘paytirish; hududning aholi soni, jug‘rofik va etnografik joylashuvi asosida boshqa hudud bilan bog‘lanishini o‘rganish; hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitidagi rivojlanish istiqbollarini kuzatish; masalalarning hammasi uslubiy muammoni tashkil qilib, uni echish uchun aniq boshlang‘ich ma’lumot hamda axborotlar olinib, ular iqtisodiy ko‘rsatgichlarni hisoblash orqali amalga oshiriladi.

**TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI.** Matematik modellar majmuasi yordamida masalani echishda ma’lumotlar ta’minotini baholash zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy qilish bilan amalga oshiriladi.

Sistematik-tahlil shuni ko‘rsatadiki, modellashtirishning boshlang‘ich holatidan boshlaboq funksional qism sistemalariga bo‘lingan bo‘lib, ular o‘zaro gorizontal va vertikal holda bog‘langan bo‘ladi.

Har bir sistema chegaralari butun va alohida qism sistemadan iborat bo‘lib, o‘z navbatida kriteriyalar guruhini tashkil qilib, ular sistemadagi elementlarning bog‘liqligini ifodalab, masalani echishda asosiy o‘rin egallaydi.Tajribalar shuni ko‘rsatadiki, bunday muhim dasturlar yaratilishi ish samaradorligini baholash masalaning funksionali orqali baholanadi.

Tarmoq ta’lim usulini qaraydigan bo‘lsak, bunda reja bo‘yicha masalaning aniq va to‘g‘ri qo‘yilishini hisobga oladigan bo‘lsak, bu maqsad daraxti usuliga olib kelinadi hamda u xususiy xulosalarga tayangan holda masala maqsadini qanoatlantiruvchi quyidagi shartlarni o‘z ichiga oladi: teng huquqli bir joyga qaragan yangi quyi ko‘rsatgichdagi maqsad, yuqori ko‘rsatgichdagi maqsadning elementi kabi ifodalanadi; solishtirish - har bir jarayondagi maqsadni masshtab bo‘yicha to‘g‘riligini ko‘rsatish; mukammallik – har bir kichik maqsad umumiy maqsaddan chiqmasligi zarur; aniqlik – maqsad yo‘nalishini albatta katta-kichik, yaxshi-yomon kabi baholash kerak. Maqsad daraxti usuli bo‘yicha masalani echishda nisbiylik koeffitsienti muhim ahamiyatga egadir.

**TADQIQOT NATIJALARI.**Uzluksiz ta’lim tizimini takomillashtirish masalasi tarmoqlararo xarakterga ega bo‘lib, unda ta’lm muassasalarining tarkibi boshqaruv tizimiga ham bog‘liq hisoblanib,quyidagilarga e’tibor qaratiladi: hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko‘rsatgichlari aniqlanib, tarmoqlarning rivojlantirish rejalari, tuman aholisining demografik ko‘rsatgichlari; hududdagi

ta'lim muassasalarining joylashuvi; hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha moddiy va moliyaviy taqsimot hajmi; uzluksiz ta'lim tizimining takomillashtirishning hududiy ishlaridagi masalalar echimini matematik modellashtirish usullari yordamida amalga oshirish ijobiy natijalarga olib kelib, ular quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

**Birinchi bosqich** – hududdagi ijtimoiy – iqtisodiy sharoitni o'rgangan holda ishlab chiqarish korxonalari va ta'lim muassasalarini maqbul joylashtirishni mantiqan baholash hisoblanib, bunda asosan hududni rivojlantirish va mahalliy byudjet sarmoyalaridan foydalanish asosida ishlab chiqarishni yanada yuksaltirish orqali masalani tez va samarali echimini topish modellashtirish manbaiga albatta bog'liq bo'ladi.

**Ikkinchi bosqich** – hududning umumiy rivojlanishiga bog'liq bo'lib, bunda hududdagi har bir tarmoq, transport, xalq xo'jaligi, ta'lim tizimi va boshqa tarmoqlar bilan o'zaro bog'liq holda umumiy hududiy infrastrukturani rivojlantirishga yo'naltiriladi, bunda hududdagi har bir ta'lim muassasalari alohida – alohida masala sifatida qaralib hududiy va tarmoqlarning mantiqiy chegaraviy holatlari baholanadi.

**Uchinchi bosqich** – bu uzluksiz ta'lim tizimini rivojlantirish variantlari alohida qaralib, bu dasturning asosiy bo'lagi bo'lib, u hududiy uzluksiz ta'lim tizimini to'liq qamrab oladi hamda masaladagi rejalashtirilgan ishni maqbulligini ko'rsatish kerak bo'ladi. Masala echimiga ko'ra, qism sistemalarini o'z ichiga olgan ushbu bosqichda hisoblash jarayoni kuzatiladi.

**To'rtinchi bosqich** - masalaning boshlang'ich holatini baholash asosida amalga oshirilib, masaladagi iqtisodiy muammolarni ma'lum manbalardan foydalanib kamaytirishga yo'naltiriladi.

**XULOSA.**Xulosa o'rnida shuni takidlash joizki, agarda uzluksiz ta'lim tizimini takomollashtirish masalasi yagona masala sifatida qaralsa, masalani hisoblash jarayoni bir yo'nalishda amalga oshirilib, bunda ikki tarmoqli model ko'rinishida bo'ladi.Kasb-hunar ta'lim tizimini takomillashtirish dasturi modeli muvofiqlashtiruvchi funktsiya bo'lib, birinchidan dasturning tatbiqiy variantini belgilaydi, ikkinchidan mantiqiy ko'rsatgichlar asosida alohida qism sistemalari orqali masala echimining umumiy samaraorligini ko'rsatadi.

**Adabiyotlar ro'yxati**

4. Ш.М.Мирзиёев. Еркин ва фаровон, демократик ўзбекистон давлатини биргаликда барпо етамиз.– Тошкент : Ўзбекистон, 2016. - 56 б.
5. Ўзбекистон Республикасининг «Ахборотлаштириш ҳақида» қонуни. – Тошкент: Халқ сўзи газетаси. 2004. – 11 феврал.
6. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2017 йил 6 апрелдаги "Умумий ўрта ва ўрта махсус, касб-ҳунар таълимининг давлат таълим стандартларини тасдиқлаш тўғрисида" 187-сонли Қарори. – Т.: Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 14-сон, 230-модда.
7. Азизхўжаева Н.Н. Педагогик технология ва педмаҳорат. Т.: Низомий номидаги ТДПУ, 2003 – 176 б.

## ПРОФЕССИОНАЛ ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИДА ИШЛАБ ЧИҚАРИШ АМАЛИЁТИНИ ЗАМОНАВИЙ ТАЪЛИМ МЕТОДЛАРИ АСОСИДА ТАШКИЛ ЭТИШ

***Исаков Азим Юсубжанович***

*Наманган муҳандислик-технология институти "Иқтисодиёт" кафедраси катта ўқитувчиси, PhD*

***Аннотация:*** *Профессонал таълимда мустақил амалий фаолиятга йўналтирилган ишлаб чиқариш амалиётини ташкил этиш ва ўтказиш бўйича таклиф, тавсиялар берилган.*

***Калит сўзлар:*** *профессионал таълим, ишлаб чиқариш амалиёти, билим, малака, кўникма, амалий компетенция*

***Аннотация:*** *В сфере профессионального образования даются предложения и рекомендации по организации и внедрению производственных практик, ориентированных на самостоятельную практическую деятельность.*

***Ключевые слова:*** *профессиональное образование, производственная практика, знания, квалификация, навык, практическая компетентность.*

***Abstract:*** *In vocational education, proposals and recommendations are given for the organization and implementation of industrial practices oriented towards independent practical activities.*

***Keywords:*** *professional education, industrial practice, knowledge, qualification, skill, practical competence.*

Бугунги кунда жаҳон миқёсида рўй бераётган ўзгаришлар малакали ва рақобатбардош кадрларни тайёрлаш заруриятини юзага келтирмоқда. Профессионал таълим тизимида меҳнат бозори талаблари даражасидаги кадрларни тайёрлашда таълим сифатини ошириш, ўқув жараёнига инновацион ёндашувни ҳамда таълимнинг замонавий шакллари ва усулларини жорий этишни тақазо этади. Халқаро тажрибалар шуни кўрсатадики, бўлажак профессионал кадрларни тайёрлашда мустақил амалий фаолиятга йўналтирилган ишлаб чиқариш таълимини ташкил қилиш алоҳида аҳамиятга эга.

Шундан келиб чиққан ҳолда профессионал таълими ривожланган хорижий мамлакатларда ишлаб чиқариш таълими жараёнида таълим олувчиларнинг мустақил амалий фаолиятга йўналтиришга оид педагогик шарт-шароитларни яратиш ва илғор инновацион таълим методларини қўллашга алоҳида урғу берилмоқда.

Ишлаб чиқариш амалиёти жараёни таълим олувчилар томонидан касбий билим, кўникма ва малакалар ўзлаштирилиб олинадиган амалий ўқитиш ва амалий ўқиш жараёнларининг ўзаро бирлигидан иборат бўлиб, яъни ўқув мақсадлари таълим мазмунида мужассам бўладиган, таълим мазмуни эса уни рўёбга чиқарувчи метод, шакл ва воситалар билан белгиладиган яхлит жараён бўлиб, бу жараён доимо амалий йўналган ишлаб чиқариш билан боғлиқ бўлади.

Бизнинг тушунчамизда ишлаб чиқариш амалиёти – бу профессионал таълимнинг шундай бўлаги бўлиб саналадики, бунда у ҳар бир ўқувчига индивидуал қаратилганлик билан нафақат ривожлантирувчилик самарасига, балки, асосий мақсад қилиб унинг ривожланиши, реал тарзда олға силжишини ҳам кўзда тутади. Ишлаб чиқариш амалиётида билим, маҳорат ва кўникмалар

фақат мустақил мақсадлар функциясини эмас, балки бўлажак касб эгасини ривожлантириш жараёнидаги воситалар функциясини ҳам бажаради.

Биз томонимиздан педагогика коллежларининг “Мактабгача таълим ташкилоти хўжалик мудири” касби бўйича ишлаб чиқариш амалиёти дастурига киритилган мавзуларнинг мазмунини таҳлил қилиш асосида ишлаб чиқариш амалиёти орқали эгаллаши лозим касбий билим ва кўникмалар касбий маҳоратини шакллантиришда бўлажак мутахассисларнинг касбий фаолиятга тайёрлаш мақсадида ўқувчиларнинг касбий компетентликларини ҳар томонлама кенгайтиришга қаратилган. Ушбу ишлаб чиқариш амалиёт мазмунида ўқувчиларни Ўзбекистон Республикасида мактабгача таълим соҳасидаги эгаллаши лозим бўлган касбининг касбий маҳоратини сифатли шакллантиришда уларнинг эгаллайдиган лавозим вазифалари, билиши лозим бўлган фаолият турлари бўйича малака талабларининг бажарилиши назарда тутилган.

Биз таклиф қилаётган методика асосида ўқувчилар ишлаб чиқариш амалиётини ўташларида эгаллайдиган касбидан ва уни ўзлаштириш даражасидан келиб чиқиб, кетма-кетликда аниқ бир фаолият кесимида ўзлаштириб боради. Бугунги кундаги анъанавий амалиёт жараёнидан фарқларидан бири ҳам шу ҳисобланади.

Маълумки, фаол билим олиш ва мустақил фаолият мустақил ишлашнинг барча турларидан унумли фойдаланишни талаб қилади. Ўқувчининг мустақил иши ўқув жараёнининг барча шаклларида намоён бўлиши зарур. Ўқувчининг мустақил ишининг асосий мақсади – ўқитувчининг раҳбарлиги ва назорати остида ўқувчида муайян ўқув ишларини мустақил равишда бажариши учун зарур бўлган билим ва кўникмаларни шакллантириш ва ривожлантиришдир.

Тадқиқотни олиб бориш жараёнида хорижий тажрибалар асосида ишлаб чиқариш амалиётларида янги иш жойига мослашиш, амалиётда иш жараёнига бўлган мотивацияни ошириш, касбий кўникма ва малакани шакллантиришга қаратилган, хорижий давлатларда кенг қўлланиладиган мустақил амалий фаолиятга йўналтирилган таълим методларини амалиётга тадбиқ этилди ва бу методларни ишлаб чиқариш амалиётида қўллаш

тузилмаси ишлаб чиқилди (1-расм). Мазкур тузилмага биноан амалиёт даврида аниқ вазиятларни ўрганиш, таҳлил этиш ва муҳим натижаларга эришишга асосланган “Case study” замонавий таълим методида амалий машғулотлар ўтказилади.




**1-расм. Мустақил амалий фаолиятга йўналтирилган таълим методларини қўллаш орқали ишлаб чиқариш амалиётини ташкил этиш тузилмаси.**

Педагогика коллежларида мустақил амалий фаолиятга йўналтирилган ишлаб чиқариш амалиёти асосида тажриба-синов ишларини ташкил этиш ва ўтказиш ҳамда тажриба-синов ишларига математик статистик ишлов бериш ва таҳлили келтирилган.

Тажриба-синов ишларининг мақсади педагогика коллежларида мустақил амалий фаолиятга йўналтирилган ишлаб чиқариш амалиётини ташкил этиш орқали бўлажак мутахассиснинг касбий маҳоратини ривожлантириш имконини берувчи педагогик шарт-шароитлардан самарали фойдаланиш даражасини аниқлашдан иборат бўлди.

Тажриба-синов ишлари 2019-2021 йиллар мобайнида Қоракўл педагогика, Марғилон педагогика, Қўшработ педагогика, Янгиер педагогика ва Оқдарё педагогика коллежларида амалга оширилди.

Тажриба-синов ишлари икки хил методикадан фойдаланган ҳолда ўтказилиб, иккала гуруҳ ўқувчиларининг касбий компетентлик даражалари таққосланди. Шунингдек, ишлаб чиқариш амалиёти мазмуни, ўтказиш шарт-шароитлари, методлари танланди.Ўқувчиларни ишлаб чиқариш амалиётига тайёрлашдан олдин уларни умумкасбий ва махсус фанлардан олган билимлари асосида касбий компетентлигини шаклланганлик даражасини бошланғич ҳолатини аниқлаш муҳимдир. Бу ўкув жараёнининг барча томонларини аниқлаш-тириш имконини беради, ташхислаш ўз ичига қуйидагиларни қамраб олади: – назорат: аниқлаш, ўлчаш, баҳолаш; – статистик маълумотларни тўплаш ва таҳлил қилиш; – ўзгаришлар ва мақсадларни аниқлаш; – жараённинг кейинги ривожланишини олдиндан айтиш. Тажриба-синов давомида ишлаб чиқариш амалиётлари “Case study”, “Flipped Classroom”, “Zone of Proximal Development” методлари орқали ташкил этилди. Касбий компетентлик даражасини аниқлашда репродуктив, продуктив, қисман-изланишли, ижодий (креатив) даражадаги тест саволлари, уч даражали топшириқлар тўплами, яъни 1-даража – жуда оддий касбий топшириқлар; 2-даража – қийинлиги ўртача касбий топшириқлар; 3-даража – қийин касбий топшириқлар ишлаб чиқилди.

**Педагогика коллежларида ўқувчиларнинг ўзлаштириш кўрсаткичлари асосида ўтказилган тажриба-синов ишларининг натижалари**

**1-жадвал**

| Даражаси | Тажриба-синов гуруҳлари | | | | Назорат гуруҳлари | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | Тажриба бошида ўқувчи сони | % | Тажриба охирида ўқувчи сони | % | Тажрибабошида ўқувчи сони | % | Тажрибаохирида ўқувчи сони | % |
| Юқори | 34 | 22,1 | 75 | 48,7 | 39 | 29,1 | 43 | 32,1 |
| Ўрта | 51 | 33,1 | 64 | 41,6 | 71 | 53,0 | 75 | 56,0 |
| Паст | 69 | 44,8 | 15 | 9,7 | 24 | 17,9 | 16 | 11,9 |
| Жами | 154 | 100 | 154 | 100 | 134 | 100 | 134 | 100 |

Тажриба-синов ишларини якунловчи босқичида тажриба-синов ва назорат гуруҳларидан якуний натижалар олинди ва қиёсий таҳлил қилинди.

Мустақил амалий фаолиятга йўналтирилган ишлаб чиқариш амалиётини ташкил этиш асосида ўқитишнинг юқори даражада эканлиги тажриба-синов ишларининг натижаларида ўз тасдиғини топган юқори баҳолар 22,1 % дан 48,7 %га ортганини кўриш мумкин. Ушбу кўрсаткичларга асосланган ҳолда ўқувчиларнинг мустақил амалий фаолиятга йўналтирилган ишлаб чиқариш чиқариш амалиётда ташкил этиш бўйича самарадорлигини аниқлаш юзасидан ўтказилган тажриба-синов натижалари тўғрисида тажриба

ва назорат гуруҳидаги ўртача ўзлаштиришларини Стьюдент ва Пирсоннинг χ2 математик-статистика методи ёрдамида таҳлил қилинди.

Шундай қилиб, ўқувчиларнинг муаллифлик методикаси асосида мустақил амалий фаолиятга йўналтирилган ишлаб чиқариш чиқариш амалиётини ташкил этиш бўйича самарадорлигини аниқлаш юзасидан ўтказилган тажриба-синов ишлари самарадорлиги статистик таҳлилдан маълум бўлдики, барча профессионал таълим муассасаларида тажриба-синов ишлари ниҳоясида, тажриба гуруҳидаги ўқувчилариниң билим даражаси назорат гуруҳига нисбатан 1,18 (18%) юқори кўрсаткичга эга бўлди. Бу эса олиб борилган тадқиқот ишининг самарадор эканлигини кўрсатади.

Профессионал таълим муассасаларида янгича фикрловчи, замонавий меҳнат бозори талабларига жавоб бера оладиган касбий маҳоратга эга мутахассисларни тайёрлаш долзарб вазифалардан бири эканлиги аниқланди.

Ўқувчиларнинг касбий тайёргарлик даражасини ошириш вазифаси ишлаб чиқариш амалиёти ролини кучайтиришни ва шунга мос равишда унинг мазмунини ва ташкил этишнинг назарий асосларини ишлаб чиқишни тақазо этади.

Ишлаб чиқариш амалиётларини ўтказишда ўқувчиларда мотивацияни ошириш, ўз-ўзини ривожлантириш, ўз-ўзини баҳолаш, мустақил иш юритиш, танқидий таҳлил қилиш, индивидуал ва гурухларда ишлаш бўйича кўникмаларни ҳосил қилиш ҳамда касбий маҳоратини ривожлантиришга қаратилган, муаммоли вазиятларни ҳал этишга ундовчи инновацион таълим методларидан фойдаланиш ва унинг босқичлари учун вақт меъёрларини тўғри тақсимлаш лозимлиги аниқланди.

**Фойдаланилган адабиётлар рўйхати**

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги ПФ-60-сонли “2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси”ги Фармони // WWW.Lex.uz
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Профессионал таълим тизимини янада такомиллаштиришга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида" 2019 йил 6 сентябрдаги ПФ-5812-сонли Фармони //WWW. Lex.uz

3. Войтюк В.П. Обеспечение прееметвенности школы и вуза через педагогическуго практику. Материалы всероссийской научно-практической конференции – 2017.
4. Олимов Қ.Т., Ғаффаров Ф.Х., Сайфуллаева Д.А., Исаков А.Ю.,Азизов О.Э. Инновацион таълим технологиялари. Ўқув қўлланма. Т.: 2021 й.
5. Новиков А.М. Методология образования /. — М.,2002. -162 с.

MAXSUS PEDAGOGIKA

# ИМКОНИЯТИ ЧЕКЛАНГАН ЁШЛАР ТАЪЛИМИГА ОИД ЭЛЕКТРОН РЕСУРСЛАРНИ ЎҚУВ ЖАРАЁНИГА ЖОРИЙ ЭТИШНИНГ ЗАРУРАТИ

***Эшимов Рахмон Рустамович***

*ТДИУ Сам. Филиали "Рақамли иқтисодиёт ва ахборот технологиялар" кафедраси доценти*

***Аннотация.*** *Ушбу мақолада бугунги кунда имконияти чекланган ёшлар таълим мазмун-моҳияти, компьютер асосидаги моделлаштириш технологиясини ўқув жараёнига қўллаш самарадорлиги, Компьютер имитацион моделлар турлари, ўқитиш усуллари, янги билим ва кўникмалар хамда ахборот коммуникация технологияларининг афзалликлари келтирилган.*

***Калит сўзлар:*** *Ахборот коммуникация технологиялари, оммавий ахборот, инклюзив таълим, компьютер технологиялари, моделлаштириш технологияси.*

***Аннотация.*** *В данной статье представлены преимущества информационно-коммуникационных технологий для современной молодежи с ограниченными возможностями, эффективность применения технологии компьютерного моделирования в образовательном процессе, виды компьютерных имитационных моделей, методы обучения, новые знания и навыки.*

***Ключевые слова:*** *информационно-коммуникационные технологии, средства массовой информации, инклюзивное образование, компьютерные технологии, технологии моделирования.*

***Annotation.*** *This article presents the advantages of information and communication technologies for modern youth with disabilities, the effectiveness of computer modeling technology in the educational process, types of computer simulation models, teaching methods, new knowledge and skills.*

***Keywords:*** *information and communication technologies, mass media, inclusive education, computer technologies, modeling technologies.*

Жаҳонда имконияти чекланган ўқувчиларни таълим ва тарбия жараёнини ташкил этиш тизимини такомиллаштириш мақсадида компьютерли имитацион моделлар, мультимедиали электрон ресурслар, виртуал таълим технологияларни яратиш ва уларни жорий этиш масалаларига оид илмий-тадқиқот ишлари олиб борилмоқда. Имконияти чекланган ўқувчиларни табиий фанлардан таълим олиши учун замонавий ахборот-коммуникация технологиялари ва педагогик технологияларнинг имкониятларидан кенг фойдаланиб ўқитиш асосида, уларнинг ижодий қобилиятларини ривожлантириш, мантиқий фикрлашини ошириш, ўқитишни тизимлаштиришда назарий-методологик, услубий асосларини такомиллаштиришга хизмат қилмоқда.

Компьютер асосидаги моделлаштириш технологияси ўқув жараёнини сифатини юқори даражага кўтаришга олиб келади. Техник воситалар ёрдамида ўқувчиларга берилаётган ўқув материалларининг ҳажмини ошириб бориш, замонавий фан ютуқларини киритиб бориш имконияти яратилади. Яқин вақтларгача техник ўқитиш воситалари сифатида кино ва телевидения таълим тизимида катта ютуқ сифатида қаралар эди. Аммо ҳозирги вақтда ўқув жараёнида компьютер асосида моделлаштириш муҳим аҳамият касб этмоқда. Худди шундай компьютер асосидаги имитацион моделлаштириш таълим тизимида муҳим аҳамиятга эга. Татбиқ этилиши нуқтаи назаридан компьютер асосидаги моделлаштириш ва имитацион моделлаштириш бир-бирига ўхшаш вазифаларни бажаради. Яъни объектни (таълим жараёни назарда тутилмоқда) ички ва ташқи хоссаларини намоён қилиш имитация йўли билан кўрсатилади.

Моделлаштириш услубидан ҳозирги кунда виртуал борлиқ, виртуал лабораториялар яратишда кенг фойдаланилиб келинмоқда. Модель (лат. modulus – ўлчов, меъёр) – бирор объект ёки объектлар тизимининг образи ёки намунасидир. Масалан, Ернинг модели – глобус, осмон ва ундаги юлдузлар модели – планетарий экрани.

Моделнинг тақрибийлик характери турли кўринишда намоён бўлиши мумкин. Масалан, тажриба ўтказиш мобайнида фойдаланиладиган асбобларнинг аниқлиги олинаётган натижанинг аниқлигига таъсир этади.

Шу нуқтаи назардан келиб чиқиб, моделлаштириш – билиш объектлари (физик ҳодиса ва жараёнлар)ни, мураккаб жараёнларни ҳамда турли кўринишдаги моделлар ёрдамида тадқиқ қилиш, турли жараён, ҳодисалар ва воқуликнинг моделларини ясаш ва ўрганишдир.

Атрофимиздаги дунёни ўрганиш натижасида ноаниқ ва тўлиқ бўлмаган маълумотлар олиниши мумкин. Лекин бу коинотга учиш, атом ядросининг сирини аниқлаш, жамиятнинг ривожланиш қонунларини эгаллаш ва бошқаларга халақит этмайди. Улар асосида ўрганилаётган ҳодиса ва жараённинг модели яратилади. Модель уларнинг хусусиятларини мумкин қадар тўларoқ акслантириши зарур.

Моделлар танлаш воситаларига қараб абстракт, физик ва бошқа гуруҳларга ажратилади [3].

Абстракт моделлар қаторига математик, математик-мантиқий ва шу каби моделлар киради. Физик моделлар қаторига кичиклаштирилган макетлар, турли асбоб ва қурилмалар, тренажёрлар ва шу кабилар киритилади. Моделларнинг мазмуни билан қискача танишиб чиқамиз.

1. *Физик модель.* Текширилаётган жараённинг табиати ва геометрик тузилиши асл нусхадагидек, аммо ундан миқдор (ўлчами, тезлиги, кўлами) жиҳатидан фарқ қиладиган моделлар, масалан, самолёт, кема, автомобиль, поезд, ГЭС ва бошқаларнинг моделлари физик моделга мисол бўлади.

2. *Математик моделлар* тирик организмларнинг тузилиши, ўзаро алоқаси, вазифасига оид қонуниятларнинг математик ва мантиқий-математик тавсифидан иборат бўлиб, тажриба маълумотларига кўра ёки мантиқий асосда тузилади, сўнгра тажриба йўли билан текшириб кўрилади.

Умуман олганда, компьютерли моделлаштиришнинг методологиясида қуйидаги йўналишларни ажратиш мумкин[3]:

1. Геометрик йўналишдаги тажрибаларни ташкиллаштириш координаталар текислигида амалга оширилади. Компьютер геометрик

объектларнинг хоссаларини ўрганиш ва математик фаразларни текширишда моделларни қуриш ва уларни тадқиқ этиш воситаси сифатида ишлатилади.

2. Иккинчи йўналиш турли хил харакатларни моделлаштириш билан боғлиқ. Компьютер моделлари орқали турли хил ҳаракатли масалаларни ечиш мумкин. Бу рўй берадиган жараёнларнинг моҳиятини чуқуррок ва кенгрок ҳис қилишга, олинган натижаларни ҳақиқий баҳолаш ва компьютерда моделлаштириш имкониятлари ҳақидаги тасаввурларнинг кенгайишига олиб келади.

3. Учинчи йўналиш – компьютер экранида функция графикларини моделлаштириш – касбий компьютер тизимларида кенг қўлланилади. Энг муҳими шундаки, компьютерда моделлаштириш технологиясидан фойдаланиш ҳақиқий воқеликни англашда, билиш жараёнини амалга оширишда янги босқич ролини ўйнайди.

Юқоридаги келтирилган фикрлардан келиб чиққан ҳолда, имконияти ихтисослаштирилган мактаб-интернатлар учун физика фанидан компьютер имитацион моделлар яратишда компьютерли моделлаштиришнинг методологияси уч йўналишидан босқичма-босқич фойдаланиб яратиш мақсадга мувофиқдир.

Ўқув жараёнида компьютер имитацион моделдан фойдаланиб дарс жараёнини ташкил этиш бўйича олиб борилган тадқиқотлар шуни кўрсатадики, имконияти чекланган ёшларни онги, нутқи ва шахсиятини ривожлантиришда компьютернинг алоҳида ўрни борлигини исботлайди. Таълим муассасаларини компьютерлаштириш имконияти чекланган ёшларнинг ўқув жараёнига электрон таълим ресурсларини жорий этишга ёрдам беради ҳамда бу эса ўқитиш усулларини, янги билим ва кўникмаларини ривожлантиришга имкон беради.

Жумладан, имконияти чекланган ёшлар таълимини ривожлантиришда АКТ асосий воситага айланди. Имконияти чекланган ёшлар таълимида компютер технологияларидан фойдаланиш асослари юзасидан Л.С. Выготским, П.Я. Гальпериным, В.В. Давыдовым, А.В. Запорожцем, А.Н.Леонтьевым, А.Р. Лурия, Д.Б. Элькониным ва бошқа олимлар томонидан ишлаб чиқилган психологик, педагогик ва методологик қоидалари катта аҳамият касб этади.

Ч.М. Миркаримова ўзининг илмий тадқиқотлар ишларида замонавий ахборот технологиялар ёрдамида имконияти чекланган ёшлар таълимини ташкил этиш, таълим тамойиллари, шахсий ривожланишнинг дастлабки даражасини аниқлаш масалаларини очиб берган ва қуйидаги фикрларини билдириб ўтган. АКТ имконияти чекланган ёшлар учун таълим имкониятларини қўллаб-қувватлашнинг асосий усуллари қуйидагилардан иборат:

шахсий ривожланишнинг дастлабки даражасини (кўникма ва кўникмалар) аниқлаш;

шахсий ривожланишида ёрдам бериш, янги кўникмаларни шакллантириш ёки мавжудларини янгилаш;

маълумотларга киришни яхшилаш;

рақамли алоқа орқали географик ёки ижтимоий изоляцияни бартараф этиш;

АКТ афзалликлари тўғрисида хабардорликни ошириш.[5]

Юқорида номлари келтирилган олимлар имконияти чекланган ёшлар таълими йўналишида олиб борган ишларининг деярли ҳаммасида электрон ресурс яратиш ва ўқув жараёнига қўллаш масаласи етарли даражада кўрилмаган.

Имконияти чекланган ёшлар таълими йўналишида электрон ресурслар яратиш ва ўқув жараёнига қўллаш буйича олиб борилган илмий тадқиқотларни таҳлилий ўрганиш жараёнида шу нарса аниқландики, имконияти чекланган ёшлар таълимига АКТдан фойдаланган ҳолда электрон ресурсларни қўллаш ўқувчиларнинг қисқа вақт орасида назарий ва амалий билимларни эгаллаши, ўтилаётган фанлардан билим ва кўникмаларини ҳосил қилиши, ўқувчилар фаолиятини назорат қилиш имконини беради.

Таълим жараёнига янгича ёндашишни инновацион технологияларга асосланган ҳолда ташкил этишимиз керак. Инновацион технология эса касбий маҳоратидан келиб, турли шакл, метод ва воситалар ёрдамида ташкил этилади.

Инновацион технологиялар:

ўқувчиларнинг ўз имкониятларини рўёбга чиқара олишлари учун зарур шарт-шароитларни яратиши;

педагогик фаолиятда таълим-тарбия жараёнининг самарадорлигини ошириши ҳамда ўқитувчи ва ўқувчилар ўртасида мустаҳкам ҳамкорликни қарор топтириши;

ўқувчиларда эркин ва ижодий фикрлаш кўникмаларини ривожлантириши;

педагогик жараёнда демократик ва инсонпарварлик ғояларининг устуворлигига эришишни кафолатлаши;

ўқувчилар ўтиладиган ўқув предметларини пухта ўзлаштиришлари зарур.

Бугунги кунда имконияти чекланган ёшлар таълимида замонавий ахборот технологияларини қўллашга бўлган қизиқиш, эътибор кундан-кунга кучайиб бормоқда, бу нафақат тайёр билимларни эгаллашга ўргатиш, балки замонавий технологиялар асосида эгаллаётган билимларни мустақил излаб топишларига, таҳлил қилишларига, хулосалар чиқаришларига йўналтирилган. Шу нуқтаи назардан, техник воситалардан фойдаланиш, компьютер имитацион моделлар яратиш ва ўқув жараёнига самарали қўллаш долзарб вазифа ҳисобланади. Бу борада таълим муассасалари учун янги авлод ўқув-методик материаллари, электрон дарсликлар, инновацион технологияларга асосланган дидактик материаллар яратиш ишларини амалга ошириш мақсадга мувофиқдир.

Ҳозирги кунда таълим тизимида замонавий инновацион технологияларидан фойдаланган ҳолда ўқитиш ўқувчилар учун қулай шарт-шароитлар яратади.

Биринчидан, ахборот технологиялари ва коммуникация воситаларининг дастурларини ишлаб чиқиш ривожланди.

Иккинчидан, ўқувчиларни билим ва кўникмаларини шакллантиришда махсус дастурлар асосида электрон ресурслари сони ортди.

Ўқитишнинг анъанавий шакллари орқали билимларни ошириш эҳтиёжини қондириб бўлмай қолди. Масофадан ўқитиш орқали таълим жараёнини ташкил этиш харажатларини пасайтириш эвазига унинг иқтисодий самарадорлигини ошириш имконияти туғилди.

Учинчидан, таълимни такомиллаштириш ва ислоҳ қилишга бўлган эҳтиёж ортди. Таълимни ўқувчилар эҳтиёжи ва аниқ имкониятларига кўра ташкил этиш учун шароит яратилди.

Александр Пуляевская [8] АКТ имконияти чекланган ёшлар таълимида асосий 3 та вазифани бажаради.

компенсация - анъанавий таълим фаолиятини осонлаштириш учун техник ёрдам: ўқиш ва ёзиш;

дидактик - АКТдан тўлиқ фойдаланиш ва ушбу ёндашув билан боғлиқ бўлган таълим жараёни. Мос ўқув муҳитини яратишда дидактик восита сифатида АКТдан фойдаланиш учун кўплаб имкониятлар мавжуд;

коммуникация - АКТ технологиялари учун - қўллаб-кувватловчи муқобил коммуникация тизимларидан фойдаланиш.

Имконияти чекланган ёшлар таълимини ўқитишда фойдаланиладиган турли АКТ воситалари қуйидаги функцияларнии бажаради:

стандарт технологиялар - масалан, имконияти чекланган ёшлар учун мўлжалланган махсус функцияли компютерлар;

инклюзив таълимга оид маълумотлар форматлари, шунингдек, муқобил форматлар сифатида - масалан, HTML кодлари, DAISY тизимининг овозли китоблари (Digital Accessibility Information System); "қуйи технология" форматлари, масалан Браилле тизими ва ҳоказолар;

ёрдамчи технологиялар: эшитиш аппаратлари, экрандан ўқиш қурилмалари (электрон доска, планшетлар, IPad ва бошқалар), махсус клавиатура ва бошқалар. Ёрдамчи технологиялар - бу имконияти чекланган ёшларни функционал имкониятларини ошириш, яхшилаш ёки кўмаклашишга мўлжалланган қурилмалар, маҳсулотлар, ускуналар, дастурий таъминот ёки хизматлардир.

Ҳозирги кунда имконияти чекланган ўқувчиларни ўқишга қизиқтириш уларни компьютер саводхонлигини ошириш ҳамда улар учун махсус ўтилаётган фанлар кесимида компьютер имитацион модел асосида курсларни яратиш долзарб муаммолардан бири бўлиб келмоқда.

Хулоса ўрнида шуни такидлаш лозимки, имконияти чекланган ёшлар таълимида яратилган электрон ахборот-таълим ресурслар фан дастурларига

мос келиши, ўқувчиларда билим, кўникма ва малакаларни шакллантирувчи топшириқ ва вазифалардан ташкил топиши, узлуксиз тизимда тақдим этилиши, узвийлик тамойилларига мос келиши зарур. Шунингдек, яратилган электрон-таълим воситаларига жойлаштирилган ресурслар, ўқувчилар томонидан эгаллаган билимларни текшириш учун назарий саволлар ва тест синовлари ҳамда амалий топшириқларни ўзида мужассамлаштирган бўлиши лозим.

**Фойдаланилган адабиётлар рўйхати**

1. Eshimov R. R. Создание учебной литературы для инклюзивного образования на основе компьютерных имитационных моделей // Eastern European Scientific Journal (ISSN 2199-7977) DOI 10.12851/EESJ201805. Vol.10.2018. –№ 3. – P. 287-292. http://www.auris-archiv.de/mediapool/99/990918/data/DOI_10_1_.12851_EESJ201805_5_.pdf
2. Eshimov R. R. Improvement of technology creation of multimedia electronic textbook on "Informatics and information technology" for schools // A Multidisciplinary peer reviewed Journal (ISSN 2581-4230) Journal impact factor: 7.223. Vol.10.2021. –№ 3. – P. 718-721.
https://repo.journalnx.com/index.php/nx/article/view/3034
3. M.A. Файзиев. "Ўқувчиларнинг билим ва кўникмаларини компьютер имитацион модели асосида шакллантириш методикаси" («информатика ва ахборот технологиялари» фани мисолида) Педагогика фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертацияси. Самарқанд давлат университети. 2008.
4. Eshimov R.R. Multimedial Electronic Textbook and Problems of Organizing Education on the Basis// International Journal of Trend in Scientific Research and Development (IJTSRD) Volume 6 Issue 3, March-April 2022 Available Online: www.ijtsrd.com e-ISSN: 2456 – 6470. Page.1831-1833. https://www.ijtsrd.com/papers/ijtsrd49847.pdf
5. *Миркаримова Ч.М.* Информационные технологии в инклюзивном образовании // Academy. № 6(21), 2017 - С.{см. журнал}
6. Eshimov R.R. Таълим муассасаларида компьютерли ўқитиш воситаларидан фойдаланиш асослари// Academic Research in Educational

Sciences Volume 3 Issue 4, Cite-Factor: 0,89 | SIS: 1,12. SJIF: 5,7 | UIF: 6,1 2022. ISSN: 2181-1385. DOI: 10.24412/2181-1385-2022-4-496-502 Page.496-502.

7. Eshimov R. R. Imkoniyati cheklangan yoshlar ta'limida «6-sinf fizika» darsligini kompyuter imitatsion modellar asosida tashkil etish // Xalq ta'limi ilmiy-metodik jurnal.– Toshkent, 2021. – № 6. – B. 119-121.

8. Васянович Наталья Александровна *«Использование электронных пособий и интернет-ресурсов в инклюзивном образовании»*. XVI Южно-Российская межрегиональная научно-практическая конференция-выставка «Информационные технологии в образовании-2016» («ИТО-Ростов-2016»)

## O'ZBEKISTON RESPUBIKASIDA INKLYUZIV TA'LIM

***Karimov Jamshidbek Javlonbek o'g'li***

*Namangan Davlat Pedagogika Instituti, Pedagogika fakulteti,*

*Pedagogika yo'nalishi 1-bosqich talabasi*

***Ilmiy rahbar:*** *Siddiqov Azamat Muhammadjon o'g'li*

*jamshidbekkarimov548@gmail.com*

***Annotatsiya:*** *Bu maqolada O'zbekiston Respublikasida inklyuziv ta'limga qaratilgan e'tibor, imkoniyati cheklangan bolalarning ta'lim olishlari uchun yaratilgan shart-sharoit va imkoniyatlar, inklyuziv ta'limning ijobiy va salbiy taraflari haqida fikr yuritilgan.*

***Аннотация:*** *В данной статье рассматривается направленность на инклюзивное образование в Республике Узбекистан, условия и возможности, созданные для обучения детей с ограниченными возможностями здоровья, положительные и отрицательные стороны инклюзивного образования.*

***Abstract:*** *This article discusses the focus on inclusive education in the Republic of Uzbekistan, the conditions and opportunities created for the education of children with disabilities, the positive and negative sides of inclusive education.*

***Kalit so'zlar:*** *inklyuziv ta'lim, tarbiya, imkoniyati cheklangan bolalar, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun.*

***Ключевые слова:*** *инклюзивное образование, воспитание, дети с ограниченными возможностями здоровья, Закон «Об образовании».*

***Key words:*** *inclusive education, upbringing, children with disabilities, Law "On education"*

Yangi O'zbekiston o'z oldiga qo'ygan maqsadlari tomon dadil qadam tashlamoqda. Har bir sohada o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Eng katta sarmoya esa, shubhasiz ta'lim tizimiga yo'naltirilmoqda. 1991-yildan bugungi kunga qadar "Ta'lim to'g'risida"gi qonunning uch marotaba nashr qilingani, yangi 2023-yilni "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim" yili deb e'lon qilingani ham fikrimizning yaqqol dalilidir.

Bugungi kunda imkoniyati cheklangan bolalarga ta'lim-tarbiya berish, ularning jamiyatda o'z o'rinlarini topishlariga har tomonlama ko'mak berish maqsadida Respublikamizning ko'plab maktablarida inklyuziv ta'lim joriy etilmoqda.

**Inklyuziv ta'lim** — davlat siyosati bo'lib, nogiron va sog'lom bolalar o'rtasidagi to'siqlarni bartaraf etish, maxsus ta'limga muhtoj bolalar, (ayrim sabablarga ko'ra nogiron bo'lgan) o'smirlar rivojlanishda uchraydigan nuqsonlar yoki iqtisodiy qiyinchiliklardan qat'iy nazar ijtimoiy hayotga moslashtirishga yo'naltirilgan umumta'lim jarayoniga qo'shishni ifodalovchi ta'lim tizimidir. **Inklyuziv ta'lim** bu – hamma o'qiy oladigan maktablarda bolalarni tengdoshlari bilan maxsus ta'lim ehtiyojlariga qaramasdan birgalikda o'qitish jarayonidir [1].

Inklyuziv ta'lim vazifalari:

- Ta'lim muassasalarida ta'limda alohida ehtiyoji bo'lgan imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlarning ta'lim olishlari uchun zarur psixologik-pedagogik, korreksion sharoitlar yaratish, ularning imkoniyatiga yo'naltirilgan umumta'lim dasturlari va korreksion ishlarni amalga oshirish orqali ruhiy rivojlanishini, ijtimoiy moslashtirishini amalga oshirish;
- Maxsus ta'lim muassasasi o'quvchilarini umumta'lim maktablari bilan uyg'unlashtirilgan holda faoliyat olib borish yo'li bilan o'quvchilarning ta'limdagi tenglik huquqini kafolatlash;

- Jamiyatning va oilaning faol ishtirokida nogiron va sog'lom bolalar o'rtasidagi to'siqlarni bartaraf etish, bolaning ehtiyojlarini qondirish, ijtimoiy hayotga erta moslashtirish.
- Imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlarni oilalardan ajralmagan holda yashash huquqini ro'yobga chiqarish;
- Jamiyatda imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlarga muqobil munosabatni shakllantirishdir.

Inklyuziv ta'limga kiritishning asosiy tamoyillari:

1) Inklyuziv ta'limning e'tirof etilishi;
2) Inklyuziv ta'limning barcha uchun ochiq bo'lishi tamoyili;
3) Bog'lanishning mavjud bo'lishi tamoyili;
4) Markazlashtirilmagan bo'lish tamoyili;
5) Inklyuziv ta'limda moslashuvchanlik tamoyili;
6) Malakaviylik tamoyili [2].

Prezident Shavkat Mirziyoyevning BMT Inson huquqlari bo'yicha kengashi 46-sessiyasidagi nutqida strategik yo'nalishlar, jumladan, Nogironlar huquqlari to'g'risidagi Konvensiyani ratifikatsiya qilish masalasiga alohida e'tibor qaratildi. Butun dunyoda qariyb bir milliardga yaqin nogironligi bo'lgan shaxslar borligi haqida o'ylab, fikr yuritsak, bu nihoyatda ahamiyatli tashabbus ekanligiga amin bo'lamiz.

2020-yil 13-oktabrda qabul qilingan Prezidentimizning "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori ushbu ta'lim yo'nalishiga qaratilayotgan e'tiborning qanchalik kuchli ekanini ko'rsatadi. Qonunga ko'ra, tajriba-sinov tariqasida shaharlarda va Toshkent shahrining tumanlarida joylashgan bittadan maktablarda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun boshlang'ich tayanch sinflar ochildi. Qashqadaryo, Farg'ona va Xorazm viloyatlarida joylashgan bittadan kasb-hunar maktablarida ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarining 9-sinf bitiruvchilari va alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashgan guruhlar tashkil etildi.

Ma'lumki, inklyuziv ta'lim maxsus ta'lim ehtiyojidagi bolalarni barcha bolalar bilan birga ma'lum maqsadda turli qobiliyatlarga muvofiq guruhlashtiradi.

Maxsus ta’lim aqliy, jismoniy tashqi ko‘rinishga muvofiq amalga oshirilsa, inklyuziv ta’lim bolaning qobiliyati va imkoniyatlariga ko‘ra belgilanadi. Inklyuziv ta’lim o‘qitishning maxsus va alternativ dasturlari orqali amalga oshirilsa, ushbu ta’lim bolaga yo‘naltirilgan va moslashtirilgan, yo‘riqnomali, barchaga mo‘ljallangan o‘quv dasturi asosida o‘qitiladi. Inklyuziv ta’limning o‘ziga xos muhim jihati shundaki, bolalar va o‘qituvchi bir-biridan o‘rganishadi hamda muammolarni birgalikda hal qiladi.

Bu ta’lim bir tomonlama bo‘lmasligi kerak. Imkoniyati cheklangan bolada o‘ziga bo‘lgan ishonchni oshirish, ko‘nikma va qobiliyatini rivojlantirish, yoshligidan o‘rganishni rag‘batlantirishda oila ishtiroki muhim. Inklyuziv ta’lim jarayonida ota-onalar bilan ishlash zarur. Ta’kidlash joizki, alohida ehtiyojli farzandi bor ota-onalarga ularning bolasi ham jamiyatning bir bo‘lagi bo‘lish huquqiga ega ekanini tushuntirish, bu ishonchni ularning ongiga yetkazish kerak.

2020-yil 19-mayda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunning 20-moddasida inklyuziv talim haqida so‘z yuritilgan. Unga ko‘ra:

- Inklyuziv ta’lim alohida ta’lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma-xilligini hisobga olgan holda barcha ta’lim oluvchilar uchun ta’lim tashkilotlarida ta’lim olishga bo‘lgan teng imkoniyatlarni ta’minlashga qaratilgan;
- Jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo‘lgan bolalar (shaxslar) uchun ta’lim tashkilotlarida inklyuziv ta’lim tashkil etiladi;
- Inklyuziv ta’limni tashkil etish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Ma’lumki, 2020-yildan boshlab O‘zbekistonda majburiy umumiy o‘rta ta’lim 11 yillik qilib belgilandi. 11 yillik majburiy o‘rta ta’limda imkoniyati cheklangan o‘quvchilar uchun teng imkoniyatlar yaratildi. Bular:

- o‘quvchilarning alohida ehtiyojlarini qondirish uchun inklyuziv ta’lim muhiti yaratildi;
- 11 yillik majburiy o‘rta ta’limning barcha bosqichlarida inklyuziv ta’limni amalga oshirishning meyoriy-huquqiy bazasi takomillashtirildi;

- 11 yillik majburiy oʻrta taʼlim muassasalari uchun pedagoglarni tayyorlash, malaka oshirish kurslari dasturiga inklyuziv taʼlim muammolari singdirildi;

- maktab rahbarlari va pedagoglarning malakasini oshirish dasturlariga inklyuziv oʻquv muhitida ishlash bilan bogʻliq alohida mavzular kiritiladi [3].

Imkoniyati cheklangan bolalarga taʼlim-tarbiya berish sohasida esa taʼlimga integratsiya va maxsus maktalarning mavjudligi ikki oʻzaro parallel zaruriy shartlar hisoblanadi. Mazkur ikki shart taʼlim-tarbiya tizimining moslashuvchanligi va tartibini taʼminlagan holda bu bolalarning ehtiyojlari oʻzgargani sari unga qoʻshilish yoki uzoqlashish imkoniyatini yaratadi [4].

Inklyuziv maktab oʻqituvchisi va inklyuziv bogʻcha tarbiyachisi qanday sifatlarga ega boʻlishi kerak? Inklyuziv taʼlimda oʻqituvchining kasbiy mahorati bosh omil hisoblanadi. U inklyuziv taʼlim haqida tushunchaga ega boʻlishi va taʼlim sifati masʼuliyatini oʻz zimmasiga olishi shart.

Inklyuziv taʼlimni rivojlantirishda boshqa davlatlarning tajriba va yutuqlaridan foydalanish yaxshi natijalarga erishish uchun zamin boʻla oladi.

Masalan, Amerika davlatlarida nogironligi boʻlgan bola tugʻilsa, uni tugʻilganidan boshlab ijtimoiy hayotga moslashtirishga harakat qilinadi. Avvalo, maktabgacha taʼlim bosqichiga, keyin esa maktab, kollej va universitetlarda tahsilni davom ettirishlariga imkoniyat yaratish maqsadida ularga psixologlar, nogironlik turiga qarab logopedlar, oligofrenopedagoglar, tiflopedagoglar yoki surdopedagoglar biriktiriladi. Bu mutaxassislar bola dunyoga kelgan dastlabki kunlardan boshlab uni ijtimoiy hayotga tayyorlaydilar. Maktabgacha taʼlim muassasalari (bogʻcha)da ishlaydigan maxsus pedagoglar imkoniyati cheklangan bolalarni maktab taʼlimiga tayyorlashadi. Natijada bunday bolalar inklyuziv taʼlimga tayyor holatda, oddiy maktablarda sogʻlom bolalar bilan taʼlim olishga, bunday muhitda ulgʻayish, boshqa bolalar bilan tortinmay aloqaga kirisha olishga, doʻst orttirishga moslashadilar.

Ushbu taʼlim tizimini rivojlantirishdan oldin avvalo jamiyatni, maktabdagi sogʻlom bolalarni ham, imkoniyati cheklangan bolalarni ham bunga moslashtirish kerak. Ayniqsa, boshlangʻich sinflarda tahsil olayotgan bolalar nogironlik nima

ekanligi, bunday bolalarning ustidan kulmaslik kerakligini bilishmaydi. Shuning uchun ham ular inklyuziv ta'lim davomida nogironligi bo'lgan tengdoshining ustidan kulishi, masxara qilishi, uni ajratib qo'yishi, kamsitishi kabi holatlar kuzatilsa, bu albatta, nogironligi bo'lgan bolalarning ruhiyatiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Bolaning inklyuziv muhitda boshqalardan o'zini kam his qilmasligi, jismoniy imkoniyatlari cheklanganligidan uyalmasligi uchun sharoit yaratish juda muhim. Stadionda boshqa bolalar bilan yugurayotgan zaif ko'ruvchi bola kim bilandir to'qnashib ketib yiqilib tushsa, uning ustidan kulish kerak emas. Bunday holatda bola o'z qobig'iga battar o'ralib oladi, o'qishga va yashashga bo'lgan qiziqishi so'nadi, alamzada va jizzaki bo'lib qoladi. Sog'lom bolalar o'rtasida o'zini kamsitilganday his etish bola uchun doimiy ruhiy zo'riqish ostida yashashiga sababchi bo'ladi. Bunday holatlarda o'qituvchi aql bilan ish ko'rishi, imkoniyati cheklangan tengdoshining ustidan kulib uni masxara qilayotgan o'quvchi bilan bola psixologiyasini hisobga olgan holda suhbatlashishi va mavjud vaziyatga to'g'ri baho bergan holda muammoni  bartaraf etishi kerak. Maxsus maktab-internatlarda tahsil olayotgan imkoniyati jihatidan bir-biriga o'xshash bo'lgan bolalar ta'lim va tarbiya olish jarayonida atrofidagi tengdoshlari ham o'ziga o'xshashligi, u kabi kasallik bilan og'rigani uchun ham ortiqcha ruhiy bosimlar, zo'riqishlarni boshdan kechirmaydi va ular o'zlarini atrofdagilardan ko'ra zaif va kuchsizday his qilishmaydi.

Inklyuziv ta'limga ixtisoslashgan muassasalarda faoliyat olib borayotgan tarbiyachi va o'qituvchilar uchun barcha sharoitlarni yaratish, muassasalarni texnik anjomlar bilan to'liq holatda jihozlash, muallimlarga Brayl alifbosi, surdo tilini o'rgatish ushbu ta'limning rivojlanishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, inklyuziv ta'lim imkoniyati cheklangan yoshlarni jamiyat hayotiga kirishi, o'zini boshqalardan kam emasligini anglashi, boshqa tengdoshlari bilan birgalikda o'qib ilm olishi uchun sharoit yaratish va  ularning normal hayotga kirishishi uchun eng yaxshi imkoniyat demakdir. Shunday ekan, ushbu ta'lim tizimining rivojlanishi har jihatdan yaxshi natijalarga olib keladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. "Umumiy pedagogika", Yoshlar nashriyot uyi, Toshkent – 2020, 326-bet

2. M.U.Xamidova "Maxsus Pedagogika", "Fan va texnologiya", Toshkent – 2018, 7-8-betlar.
3. R.A.Mavlonova, N.H.Rahmonqulova, K.O.Matnazarova, M.K.Shirinov, S.Hafizov, "Umumiy pedagogika", Toshkent – 2018, 51-52-betlar.
4. M.U.Xamidova "Maxsus Pedagogika", "Fan va texnologiya", Toshkent – 2018, 12-13-betlar.

# INKYUZIV TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH INSON HUQUQLARINI TA'MINLASHNING ZARURIY SHARTI

***Mahkamov Mahmudjon G'olibjon o'g'li***
*NamDPI Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish metodikasi fakulteti Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi 1-bosqich talabasi*
*Tel: +99891-671-44-31 E-mail: mahmudjonmahkamov77@gmail.com*

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada inklyuziv ta'lim tushunchasi, O'zbekiston Respublikasida inklyuziv ta'limning joriy etilishi va rivojlanish bosqichlari hamda bu sohada yaratilgan qonunchilik asoslari to'g'risida so'z boradi.*

***Аннотация:*** *В данной статье рассматривается понятие инклюзивного образования, этапы внедрения и развития инклюзивного образования в Республике Узбекистан, а также законодательная база, созданная в этой сфере.*

***Annotation:*** *This article discusses the concept of inclusive education, the stages of introduction and development of inclusive education in the Republic of Uzbekistan, and the legislative framework created in this area.*

***Kalit so'zlar:*** *inkyuziv ta'lim, imkoniyati cheklangan insonlar, Imkoniyati cheklangan yoshlar, ko'zi ojizlar kutubxonalari, brayil alifbosida darsliklar.*

***Ключевые*** *слова: инклюзивное образование, люди с ограниченными возможностями здоровья, молодежь с ограниченными возможностями здоровья, библиотеки для слабовидящих, учебники со шрифтом Брайля.*

***Key words:*** *inclusive education, people with disabilities, youth with disabilities, libraries for the visually impaired, textbooks in braille.*

Inkyuziv ta’lim jamiyat hayotining ajralmas bir qismiga aylangan. Buning boisi butun dunyo miqyosidagi imkoniyati cheklangan insonlarning sifatli ta’lim olishi va o’z tengqurlari qatorida bevosita jamiyatga daxldor fuqaro kabi erkin hayot kechirishida muhim rol o’ynashidadir. Ta’lim jarayonida ularning har biri bilan individual tarzda ish olib borish ham ularning ertangi kunga ishonchini orttiradi. Imkoniyati cheklangan shaxsga to’g’ri yo’l ko’rsatish,uning ertangi hayotiga zamin yaratib berish jamiyatning oldida turgan muhim hamda ustuvor vazifasi sanaladi.

Butun dunyoda qariyb 8 milliarddan ziyod aholi istiqomat qilsa, bundan 1 milliardga yaqin qismini imkoniyati cheklangan shaxslar tashkil etadi. Bu esa inklyuziv ta’lim naqadar dolzarb ekanligini yaqqol ko’rsatib beradi. Xususan, 1990-yil 2-sentabrda kuchga kirgan “Bola huquqlari to’g’risida”gi Konvensiyaning 23-moddasida: “Ishtirokchi davlatlar aqliy va jismoniy jihatdan yaxshi rivojlanmagan bola o’zining qadr-qimmatini ta’minlaydigan, o’ziga ishonch tug’diradigan va uning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini yengillashtiradigan sharoitlarda to’laqonli hamda munosib tarzda yashashi lozimligini e’tirof etadilar”,- deya ta’kidlangan.[1] Aynan inklyuziv ta’limga bo’lgan e’tibor kundan kunga rivojlanib bormoqda. Buning natijasi o’laroq imkoniyati cheklangan yoshlarning jismoniy va ruhiy jihatdan sog’lom shaxslardan ziyod darajada katta yutuqlarni qo’lga kiritayotganini bemalol aytish mumkin. Ammo shuni ta’kidlab o’tish kerakki, inklyuziv ta’lim jarayoniga xalaqit beruvchi muammolar ham yo’q emas. Jumladan, ko’zi tug’ma ojiz bo’lgan yoshlar uchun maktab va oliy ta’lim muassasalarida brayil alifbosida darslik va o’quv qo’llanmalarining yetishmasligidir. Bugungi kunda O‘zbekistonda 70 mingdan ortiq ko‘zi ojizlar istiqomat qilmoqda. Ular orasida 3200 nafardan ortiq o‘quvchilar bor. Ko‘zi ojizlar uchun brayl yozuvida darsliklar va badiiy adabiyotlar, kitoblar nashr etuvchi bosmaxona esa yagona. Bugun bu bosmaxonaning moddiy-texnik bazasi tang ahvolda qolgan. Bugun ko‘zi ojizlar tomonidan 70 nomdagi kitoblarga ehtiyoj bor. Respublikada yagona bo‘lgan ko‘zi ojizlar bosmaxonasi esa bu talabdan bor-yo‘g‘i 18 nomdagi kitob ehtiyojini qondira olgan, xolos. Bu o’z navbatida bu sohaga e’tibor qaratishlik qanchalar zarur ekanligidan dalolat beradi. Brayil yozuvidagi kitoblar soning ortishi, albatta, ular uchun imkoniyatlar

kengayishiga yo'l ochib beradi. Xususan, O'zbekistonda ko'zi ojizlar kutubxonalari soni 2019 yilda 20 taga oshib, jami 123 taga yetdi. Bu kutubxonalarga o'tgan yil davomida Brayl yozuvidagi 11 nomdagi 1700dan ortiq kitoblar tarqatilgan.2019 yil natijalariga ko'ra, respublika bo'yicha ko'zi ojizlar kutubxonalarining umumiy fondi 562 168ta kitobni, foydalanuvchilar esa 80 543 nafarni tashkil qilgan.[2] Brayil yozuvidagi nashrlarning bu kabi ortib borishi ortidan imkoniyati cheklangan yoshlarning yetarlicha bilim olishlariga zamin yaratmoqda. Mamlakatimizda ko'zi ojizlar yildan yilga ortib bormoqda. Bunga asosiy sababi sifatida qarindoshlar o'rtasidagi o'zaro nikoh munosabatlari, sog'lom turmush tarziga bo'lgan e'tiborning sustlashganligi hamda globallashuv davrida yoshlarning internetga mukkasidan ketishi ortidan ko'z nurining pasayishi hatto butunlay ko'rmay qolishlikkacha olib kelayotganligini olishimiz mumkin. Ayniqsa, nogironlik xavfi Orolbo'yi mintaqasida keskin avj olgan. Bunga asosiy sababchi esa albatta insoniyatning o'zi. Uzoq vaqt mobaynida daryo suvidan oqilona foydalanganligimiz oqibatida Orol dengizi qurib bitdi va uning o'rnida faqat sho'rdan iborat bo'lgan tuzlar qoldi,oqibatda bugungi kun turli sohada imkoniyati cheklangan fuqarolarning katta qismini ham aynan shu yer misolida keltirib o'tmoqdamiz. O'z navbatida ularning soni oshgani sayin ularga davlat siyosatida ham alohida e'tibor qaratilishiga olib keladi. Yorqin dalil sifatida O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirining buyrug'iga asosan "Ko'zi ojizlar jamiyatining o'quv-ishlab chiqarish tashkilotlari xodimlari uchun mehnatni muhofaza qilish qoidalarini tasdiqlash haqida" maxsus qarori Adliya vazirligi tomonidan tasdiqlandi. Ushbu qaror ko'zi ojizlar manfaatlarini har tomonlama himoya qilish uchun manba vazifasini o'taydi. Qaror doirasida keltirib o'tilgan alohida bandlar ko'zi ojizlar turmush darajasini yaxshilash hamda ularga zaruriy sharoitlar yaratish bilan bog'liq muammmolarga chek qo'yadi. Imkoniyati cheklangan yoshlar nafaqat yurtimizda, balki butun dunyo tomonidan alohida e'tiborga olinayotgan aholi qatlami sanaladi.jamiyki davlatlar aholisining ma'lum bir qismini bevosita nogironlar tashkil etadi deya bemalol aytishimiz mumkin. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti tomonidan 13-noyabr sanasini "Xalqaro ko'zi ojizlar" kuni deb belgilanishining o'zi ham butun dunyo hamjamiyati befarq emasligidan dalolat demakdir. Imkoniyati cheklangan yoshlar orasida nafaqat ko'zi ojizlar ,balki eshitish, so'zlash hamda jismoniy jihatdan

nuqsonlari mavjud bo'lgan yoshlar ham tashkil etadi. Ular uchun ham barcha zaruriy sharoitlar yaratib berilgan. Xususan, nutqi hali to'la shakllanmagan bolalar bilan ishlash bo'yicha asosiy ishchi qo'llanma yaratilgan bo'lib, mutaxassis-logopedlar ular bilan individual tarzda ixtisoslashgan maktabgacha va maktab ta'limida sifatli ish olib bormoqdalar. Ma'lumotlarda qayd etilishicha, o'tkan yil holatiga ko'ra, yurtimizda 710 mingga yaqin nogironligi bo'lgan shaxs ro'yxatga olingan. Ular yurtimizning turli hududlarida, turli sharoitlarda yashaydilar. Eng achinarlisi, ularning atigi 10%i oliy ma'lumotli. Ta'lim bilan qamrab olinmagan nogiron yoshlar qancha… Umuman, tizimga ichkari kirib borsangiz, yechimini kutayotgan muammolar talaygina.[3] Ushbu vaziyatni inobatga olgan holda bugungi kunda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan nogironligi bo'lgan yoshlar uchun davlaat ooliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirishlariga qo'shimcha imtiyozlar ajratilmoqda. Albatta, buning natijasi o'laroq imtixon jarayonlarida ularga ancha yengillik yaratilmoqda.

Xulosa o'rnida shuni alohida ta'kidlash joizki, imkoniyati cheklangan, maxsus ta'limga ehtiyoj sezgan yoshlarga ta'limda tenglik tamoyiliga amal qilgan holda imkoniyatlar yaratib berilishi zarur. Chunki ularning ham o'z tengqurlari qatorida erkin holatda yashash va ilm olish niyatlari qalblarining tub-tubida yotadi,garchi buni doimiy ravishda oshkora qilmasalar-da.Mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlar qatorida amaldagi Konstitutsiyada "nogironlik", "nogironligi bo'lgan shaxslar" atamalari umuman ishlatilmagan. O'zgartirilayotgan Konstitutsiyaga nogironligi bor kishilar huquqlarini himoya qilishni kiritish ilgari surilyapti. Prezidentning Konstitutsiyaga kiritilayotgan o'zgartirish va qo'shimchalar bo'yicha bergan takliflari orasida nogironligi bor shaxslar huquqlarini himoya qilish, ularga shart-sharoit yaratib berish bo'yicha ham bandlar ko'rsatilgan. Bu orqali hech bir shaxs e'tibordan chetda emasligini baralla aytish mumkin. Zero, yurtimizda inson oliy qadriyat, o'z navbatida ,uning mazmunli hayot kechirmog'i ham qadrli sanaladi. Qadr mavjud bo'lsa, shundagina "Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari "nomi ostida ilgari surilayotgan bosh g'oya yanada o'z kuchiga ega bo'ladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxat:**

**1.** https://tergov.uz/uz/childs/konventsija-o-pravah-rebenka

**2.** https://kun.uz/uz/08840161?q=%2Fuz%2F08840161

**3.** https://yuz.uz/uz/news/imkoniyati-cheklangan-insonlar-uchun-imkoniyat-cheklanmasligi-kerak

4. https://pravacheloveka.uz/oz/news/nogironligi-bor-shaxslarning-huquqlari ni-konstitutsiyada-belgilashga-qanday-ehtiyoj-bor

# NUTQ KAMCHILIKLARINI OLDINI OLISH

***Xalimova Ozoda Ma'murjon qizi***

*Namangan Davlat Universiteti Pedagogika- psixologiya fakulteti*

*Defektalogiya (Logopediya) yo'nalishi 3- bosqich talabasi*

***Annotatsiya:*** *Dunyo miqyosida ma'lumotlargako'ra nutq nuqsonlarining soni ortib bormoqda. Shuningdek bolalar va o'smirlarda nutq kamchiliklarini oldini olish dolzarb masala bo'lmoqda. Nutq kamchiligi qanday paydo bo'ladi kelib chiqish sabablari va ularni oldini olish haqida fikrlar yuritilgan.*

***Kalit so'zlar:*** *statistik, kamchilik, pedagogik, Postnatal, shaxs, didaktik o'yin, poliklinika, psixoprofilaktik, bolalar, o'smirlar, funksiya, markaziy.*

***Аннотатция:*** *Резюме Согласно имеющимся данным, число речевых нарушений увеличивается во всем мире. Также становится актуальным вопрос профилактики дефектов речи у детей и подростков. Возникают мысли о том, как возникает дефицит речи, о причинах его возникновения и их профилактике.*

***Ключевые слова****: статистическая недостаточность, педагогика, послеродовая личность, дидактическая игра, поликлиника, психопрофилактика, дети, подростки, функция, центральная.*

***Abstract :*** *According to data, the number of speech defects is increasing worldwide. Also, prevention of speech defects in children and adolescents is becoming an urgent issue. There are opinions about how speech deficiency appears, the causes of its origin and their prevention.*

***Keywords:*** *Statistical deficiency, pedagogy, postnatal person, didactic game, polyclinic, psychoprophylaxis, children, adolescents, function, central*

Dunyo miqyosidagi statistik ma'lumotlarga ko'ra nutq nuqsonlarining soni ko'payib bormoqda, shuning uchun bolalar va o'smirlarda nutq kamchiliklarini oldini olish dolzarb muammo bo'lib qolgan. Bizning mamlakatimizda nutq kamchiliklariga ega bolalar bilan olib boriladigan korreksion -tarbiyaviy va pedagogik ishga katta e'tibor qaratilmoqda. Nutq kamchiliklarini erta aniqlash, korreksion ta'lim va tarbiyani tashkil qilish va ta'lim -tarbiyaning uslublari masalasini hal qilish bo'yicha ma'lum miqdorda yutuqlarga erishilgan. Ko'p hollarda maxsus ta'sir etish yo'llari orqali bolalardagi turli xil nutq patologiyalarini oldini olishga erishilmoqda. Bolalardagi nutq kamchiliklarini o'z vaqtida oldini olish nerv- psixik kasalliklami oldini olish bilan uzviy bogliqdir. Bu davolash, pedagogik va ijtimoiy ta'sirlami o'z ichiga oigan kompleks tadbirlar orqali amalga oshiriladi. Bolalar poliklinikasi mutaxassislari doimiy dinamik kuzatuv bilan bir qatorda 14 yoshgacha bolgan bolalarni poliklinikadan tashqari maktab va maktabgacha tarbiya muassasalarida ham profilaktik ko'rikdan o'ktkazib turadilar. Bolalar muassasalarida gipedagog va shifokorlarning hamkorligidagi ishi bolalar sog'lig'idagi kam chiliklarni, nutq rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi yoki nutq kamchiliklarini keltirib chiqaruvchi tug'ma va orttirilgan kasalliklarni erta aniqlashga imkon beradi. Nutq kamchiliklarini oldini olish muammosi haqida gapirganda bola nutqining normada rivojlanishi uchun zaruriy omillarni o'rganish va bilish juda muhimdir. Bu ma'lum otlar bola nerv-psixik holatining muhim ko'rsatkichi hisoblanuvchi nutq rivojlanishiga bevosita taalluqlidir. U ning vazifasi asosan nutq ontogenezining yosh bosqichlarini o'rganish va ijtimoiy shart- sharoitlarni aniqlashdan iboratdir. Nutq kamchiliklarining oldini olish muammosini o'rganish jarayonida bolalari psixologik tarbiyalash bo'yicha norm ativ va tavsiyalar, bola psixik qobiliyatining rivojlanishi im koniyatlarini yaratish va qo'llash bo'yicha norm ativ va tavsiyalar, aholi orasida ommaviy tibbiy -pedagogik propagandani

rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar ishlanadi. Aholiga logopedik yordam ko'rsatishning muhim yo'nalishlaridan biri nutq kamchiliklarini oldini olish hisoblanadi. Logopediyaning ana shu alohida tarmog'i oldida quyidagi vazifalar turibdi:

a) nutq kamchiliklarini oldini olish - birlamchi prafilaktika;

b) nutq kamchiliklarini surunkali shakllarga aylanishining oldini olish - ikkilamchi profilaktika;

d) nutq kamchiliklariga ega shaxslarning ijtimoiy - mehnat adaptatsiyasi — uchlamchi profilaktika.

Nutqiy rivojlanishidagi nuqsonlarni oldini olish psixik funksiyalarning ijtimoiy, pedagogik va eng avvalo psixogigiyenik buzilishlarni oldini olish chora-tadbirlariga asoslanadi.

Sog'liqni saqlash va maxsus pedagogikaning profilaktik ishlarni amalga oshirishi bola tug'ilmasidan ilgari boshlanadi. Bu bo'lajak ona uchun homiladorlik davrida maksimal darajadagi qulay shart-sharoitlarni yaratish yo'li orqali amalgaoshiriladi. Psixoprofilaktik choralar tizimida boladagi psixika va nutqning nasliy patologiyalarini oldini olish maqsadida ota -onalarni o'z vaqtida maslahatxonalardagi mutaxassislarni murojaat qilishlariga erishish muhim ahamiyatga ega. Bola tug'ilganidan boshlab uning nerv-psixik rivojlanishning holatiga alohida javobgarlik oila zimmasiga tushadi. Bu yosh ota - onalarning psixologik-pedagogik bilimini oshirishni yanada dolzarblashtiradi. Bola xarakter va shaxsiy xususiyatlarining shakllanishi eng erta yoshlardanoq boshlanadi. Postnatal rivojlanishning erta davrlariyoq bola psixikasi rivojlanishining keyingi bosqichlari uchun katta ahamiyatga ega.

Uyqu, chinqirish, harakat va chaqaloq organizmining boshqa fiziologik reaksiyalari markaziy nerv sistemasining saqlanganligi va yetilganlik darajasini aks ettiradi. Shu sababli ota -onalar shifokor bilan birgalikda bunday reaksiyalaming paydo bo'lishi va rivojlanishini diqqat bilan kuzatib borishlari zarur. Agar biron-bir kamchiliklar sezilsa, darhol kerakli profilaktik choralarni ko'rish kerak. Nutq buzilishlariga moyilligi bor bola hayoti shunday tashkil qilinishi kerakki, bunda barcha narsalar uning harakatlari va psixikasining to'g'ri rivojlanishiga yordam berishi lozim.

Nutqqacha boʻlgan korreksion ish qanchalik erta boshlansa, harakat, nutqiy va intellektual rivojlanish shunchalik kam kamchiliklar bilan kechadi. Nutq buzilishlarining biologik xavfli omiliga chapaqaylik kiradi. Bola psixomotorikasining konstitutsional xususiyatlarini hisobga olmaslik nutq koʻrinishlarini keltirib chiqarishi mumkin (koʻpincha duduqlanishni). Chapaqaylikni oʻnaqaylikka kuch bilan zoʻrlab oʻtkazish taqiqlanadi va bu profllaktik tavsiyalardan biri hisoblanadi. Erta yoshlardanoq predmetlarni faqat oʻng qoʻlga berish, ehtiyotkorlik va qat’iyat bilan predmetlarni chap qoʻldan oʻng qoʻlga oʻtkazish (ovqat mahalida qoshiqni va shu kabilar), oʻyin davomida ko'proq oʻng qoʻlni ishlatish, aynan oʻng qoʻl bilan predmetlarni paypaslash yoki nomini topish va hokazolar orqali chapaqaylikning rivojlanishini oldini olish mumkin. Bola hayotining birinchi yillarida nutqni tushunishning rivojlanishi alohida ahamiyatga ega. Bu ma’lum darajada kattalarning nutqiy holatiga bogʻliq boʻladi. Bolada nutqni tushunish, uni oʻrab turgan, predmetlar va kattalar talaffuz qilgan, so'zlarning oʻrtasÍdagi aloqani o'rnatish yoʻli orqali rivojlanadi. Bola istagini mimikasi yoki testi orqali bilib olishga urinadigan ota-onalarga ularning bunday xatti-harakati notoʻgʻriligini tushuntirish zarur. Chunki bunday jarayonda bolada ovoz reaksiyalari, tovushlar va soʻzlar talaffuziga ehtiyoj tugʻilmaydi.

Bola nutqiga qoʻyiladigan talablarni oilada barchaning bilishi zarur. Bu talablar kuchaytirilishi ham, susaytirilishi ham mumkin emas. Nutqiy o'quvlarni shakllantirish yosh normalariga muvofiq boʻlishi lozim. Nutq rivojlanishining boshlangʻich davrlarida bolani talaffuzi murakkab va tushunarsiz soʻzlar, she’r va qoʻshiqlarni yodlatish (yoshiga mos kelmaydigan) bilan qiynamaslik zarur. Normal rivojlanayotgan bola lugʻatida 3 yoshga kelib 1000 - 1200 ta soʻz mavjud boʻladi. Kichkintoy nutqning deyarli barcha qismini qo'llaydi, uning kattalar va bolalar bilan muloqoti nutqiy boʻla boshlaydi. Bu davrda kattalarga tashabbuskor murojaat jadal rivojlanadi (savollar; qanday? qayerda? va h.k). Shu tarzda kattalar nutqi bola uchun atrof-muhitni

bilishdagi eng muhim vosita hisoblanadi. Bola hayotining 3 yiliga kelib uning oʻz nutqi faoliyatning mustaqil ko'rinishiga aylanadi.

Nutq rivojlanishi uchun senmor tarbiya va oʻyin faoliyatini rivojlantirish katta ahamiyatga ega. Nutq funksiyasini shakllantirish atrof-muhitni oʻrganish bilan parallel ravishda olib boriladi. Predmetlarni toʻgʻri idrok qilish, ular haqidagi bilim va tasavvurlarning toʻplanishi nutqiy va sensor rivojlanishning uzviy ta'siri natijasida sodir boʻladi. Psixik rivojlanishning muhim vositalaridan biri - bolalar oʻyini hisoblanadi.Xulosa qilib shuni aytish mumkunki: Bolalarning mustaqil foydalanishlari uchun turli xil oʻyinchoqlar toʻplami, mayda qoʻl motorikasini rivojlantinsh uchun koʻrgazmalar va h.k.lar boʻlishi kerak. Didaktik oʻyinlar bolaning sensor rivojlanishiga yordam beradi, tushunchalarni shakllantiradi, ta'lim olish qobiliyatini rivojlantiradi, eshituv diqqatini, nutqni takomillashtiradi. Bolalar oʻyinini boshqarish, oʻyinchoq va koʻrgazmalarni tanlash sinchkovlik bilan oldindan rejalashtiriladi va tarbiyachilar tomonidan oʻzlashtiriladi, chunki tarbiyachilar nutqi bola nutqining rivojlanishiga ta'sir koʻrsatadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:**

1. Ayupova M.Y. Logopediya /Darslik/ Oʻzbekiston Respublikasi Oliy va oʻrta - maxsus ta'lim vazirligi. T.:, "Oʻzbekiston faylasuflari milliy jamiyati", 2011y.
2. M.Y.Ayupova. " Logopediya" 10.08.2007-yil
3. Raxmanova V.S. " Korreksion pedagogika va logopediya " 2007-yil
4. M.Y.Ayupova. "Logopediya" O'zbekiston faylasuflar Milliy jamiyati. 2007-yil
5. "Logopediya" ( L.S. Volkova tahriri ostida ) 1989-yil
6. "Logopediya" ( L. M. Fminova, M. Ayupova) – T

## RINOLALIYA. RINOLALIYA TURLARI

***Hikmatillayeva Malohat Ismatilla qizi***
*Namangan Davlat Universiteti Pedagogika- psixologiya fakulteti*
*Defektalogiya (Logopediya) yo'nalish 3-bosqich talabasi*
***Ilmiy rahbar :*** *NamDu Pedagogika-psixologiya fakulteti Ta'lim menejmenti kafedrasi o'qituvchisi* ***Nizamova Muyassar Nuritdinovna***

***Annotatsiya**: Ushbu maqolada rinolaliya o'zi qanday kasallik, kelib chiqish sabablari, belgilari, etiologiyasi, omillari kabi xususiyatlari. Rinolaliya kasalligini oldini olish chora tadbirlari haqida ma'lumot berilgan.*

***Kalit so'zlar:** manqalanish, yopiq rinolaliya,ochiq rinolaliya, aralash rinolaliya, yoriqlik, artikulatsion, anatomik, tembr, profilaktik, dispanserizatsiya ,pediator, refleks, xirurgik, lab operatsiyasi, burun ottenkasi, zvenosi, kommunikatsiya.*

***Аннотация**:В данной статье ринолалия заболевание, его причины, симптомы, этиология, факторы и др. Дана информация о мерах профилактики заболевания ринолалией.*

***Ключевые слова**: чихание, закрытая ринолалия, открытая ринолалия, смешанная ринолалия, трещина, артикуляционная, анатомическая, тембровая, профилактическая, диспансерный педиатр, рефлекс, хирурнический, операция на губе, полость носа, сустав, связь.*

***Abstract:** In this article, rhinolalia is a disease, its causes, symptoms, etiology, factors, etc. Information about measures to prevent rhinolalia disease is given.*

***Keywords**: squinting , closed rhinolalia, open rhinolalia, mixed rhinolalia, cleft, articulatory, anatomical, timbre, preventive, dispensary, pediatric, reflex, surgical, lip operation, nasal cavity, joint, communication.*

## Kirish

**Rinolaliya –** ( grekcha so'zdan olingan bo'lib, rhinos- burun, lalia- nutq) nutq apparatining anatomik va fiziologik kamchiliklari sababli ovoz tembri va tovushlar talaffuzidagi buzilishdir. Rinolaliyaning o'rganish tarixi juda uzoq va mashaqqatli yo'lni bosib o'tdi. Muammoni o'rganishda shifokorlar, defektoliglar, psixoliglar o'zlarining katta hissalarini qo'shdilar.

Rinolaliya bo'yicha dastlabki ilmiy ishlar shifokorlar tomonidan yozilgandir. Ularning harakatlari tanglay bo'rtmasini to'liq tiklashga qaratilgan edi, qayta hosil qilingan tanglay pardasi yetarli darajada uzun va harakatchan bo'lishi va halqumning orqa devori uchun birika olishi lozim . Bu samaraga erishish nutqdagi manqalikning yo'qotishga imkoniyat yaratadi yoki uni bartaraf qiladi .

T. N. Voronsova (1966) ishlarida katta yoshlardagi bemorlarda uranoplastikadan so'ng logopedik ta'sirning diferensiyasi o'tkazildi. Yumshoq tanglayning uzunligi, harakatchanligi va halqum muskulatulasining rivojlanishiga qarab muallif bemorlarni 3 guruhga ajratdi va ular bilan ishlashning o'ziga xos xususiyatini ko'rsatdi.

Rinolaliya haqida ta'lumotning rivojlanish tarixi shuni ko'rsatadiki, mutaxassis logopedlar va shifokorlar ochiq rinolaliyada nutq nuqsoni bartaraf etishning ma'lum bir metodikalarini taklif qilib, halum – tanglay halqasini hosil qilish va mustahkamlashga intilganlar.

Rinolaliya hosil bo'lishiga ko'ra dislaliyadan farq qiladi, ya'ni rinolaliyada tovushlarni burun-dimog' bilan talaffuz qilish hollari kuzatiladi. Rinolaliyada tovushlar artikulyatsiyasi, fonatsiya , tovush hosil bo'lish mexanizmlari jiddiy ravishda normadan chetga chiqadi.

Tanglay-halqum birlashish funksiyasini buzulish xarakteriga ko'ra rinolaliya uch shaklga ajratiladi.

**Yopiq rinolaliya**. Yopiq rinolaliya nutq tovushlarini talaffuz qilish vaqtida fiziologik burun rezonansining pasayishi natijasida yuzaga keladi. M, n burun tovushlari talaffuzida eng kuchli rezonans bo'ladi. Bu tovushlarning normal talaffuzida burun- halqum yo'li ochiq bo'ladi va havo oqimi tog'ri burun bo'shlig'iga o'tadi. Agar burun tovushlar talaffuzida burun rezonansi bo'lmasa, unda burun tovushlari b,d tovushlariga o'xshab talaffuz etiladi.

Rinolaliyaning yopiq shaklining kelib chiqish sababi- burun bo'shlig'idagi organik o'zgarishlar yoki tanglay – halqum birlashishining funksional buzulishidir. M.Zeeman Yopiq rinolaliyaning( rinofaniya) ikki turini ajratadi: oldingi yopiq rinolaliya- bunda burun bo'shlig'ida o'tkazuvchanlik funksiyasi bo'lmaydi va orqa yopiq rinolaliya – bunda burun-halqum bo'shlig'ida o'tkazuvchanlik kamayadi.

**Oldingi yopiq rinolaliyaning sababi**- burun shilliq pardasida surunkali gipertrofiyaning, burun bo'shlig'ida poliplarning bo'lishi, burun devorining qiyshiqligi va burun bo'shlig'ida o'smalarning bo'lishidir.

**Orqa yopiq rinolaliya** – bolalarda adenoidlarning ko'payib ketishi burun-halqumda poliplarning, fibroma va o'smalarning paydo bo'lishida kuzatiladi. Funksional yopiq rinolaliya bollarda ko'p uchrab turadi, lekin doimo aniqlash qiyin.

Chunki u burun bo'shlig'ining yaxshi o'tkazuvchanligida va burundan nafas olish buzilmagan hollarda kuzatiladi. Bunda burun tembri va unli tovushlar talaffuzi qo'pol buzilgan bo'ladi. Organik yopiq rinolaliyaning sababi- burun bo'shlig'ida o'tkazuvchanlikning buzilishidir. Bunda burundan to'g'ri nafas olish yo'lga qo'yilsa, ya'ni burun bo'shlig'idagi o'tkazuvchanlik yaxshilansa hamma kamchilik yo'qoladi.

Yopiq rinolaliyada olib boriladigan logopedik ishning samaradorligi burun-halqum holatiga, uning funksiyasiga va bolaning yoshiga bog'liq. Logopedik mashg'ulotning boshlang'ich davrida nafas mashqlari olib borish tafsiya etiladi. Bundan maqsad og'iz va burundan nafas olish nafas chiqarishni differensiatsiya qilishdir. Bu mashqlar avval puflashdan boshlanib, keyin burundan qisqa va chuqur nafas chiqarish bilan almashtiriladi. Shu bilan birgalikda yumshoq tanglay va halqumning orqa devor muskullari harakatini nafas chiqarishni muvofiqlashtirish ustida ish olib boriladi. Bu mashqlar m, n burun tovushlarining talaffuzini to'g'ri yo'lga qo'yish va mustahkamlashga imkon yaratadi. Yakunlovchi davrda unli tovushlarni jarangdorligi va burun tovushlarining qarama-qarshi qo'yilgan tovushlar ( b, p,m, t,d ,n ) ustida ish olib boriladi.

**Ochiq rinolaliya**. Rinolaliyaning ochiq formasiga og'iz bo'shlig'ida hosil bo'luvchi tovushlar dimog'da talaffuz qilinadi. I va u unli tovudshlarida tembr sezilarli darjada o'zgaradi, bu unli tovushlar artikulatsiyasida og'iz bo'shlig'iga hamma tovushlar artikulatsiyasiga ko'ra toraygan bo'ladi. A unli tovushlar talaffuzida yuqoridagi holat kamroq uchraydi, chunki bu tovush talaffuzida og'iz bo'shlig'iga kengroq ochiladi. Undosh tovushlar talaffuzida tembr buzilishlari kuzatiladi. Shovqinli va qorishiq tovushlar talaffuzida xirillagan tovush qo'shilib keladi. Portlovchi b, p,t,k va g tovushlari noaniq talaffuz qilinadi, chunki og'iz bo'shlig'ida yetarli darjada havo bosimi hosil bo'lmaydi, natijada burun bo'shlig'i to'liq berkilmaydi. Ochiq rinolaliyani aniqlash uchun funksional tekshirish usullari mavjuddir. Eng oddiy tekshirishlardan biri Gutsman usulidir. Bunda logoped bolaga galma-gal a va i unli tovushlarni qaytarishni buyuradi va bolaning burun yo'lini bir berkitib, bir ochib turadi. Ochiq rinolaliyada bu unli tovushlarning jarangdorligida sezilarli darajada farq bo'ladi. Ayniqsa a unlisi burun yo'lini berkitib talaffuz qilinganda i tovush talaffuzi eshitilmaydi, shu bilan birgalikda logopedning barmoqlari burun qanotlaridagi kuchli temranishni sezadi.

Yana aniqlash usullaridan biri, bu fonendoskop tekshirishdir. Bunda tekshiruvchi fonendoskopning bir uchini o'zini qulog'iga, ikkinchi uchini bolaning burniga tutib turadi. Bola unli tovushlarni ayniqsa , u va a unlilarini talaffuz qilganda kuchli shovqun eshitiladi. Undosh f, s, sh tovushlar talaffuzida xirillagan ovoz eshitiladi.

**Aralash rinolaliya**. Rinolaliyaning bu turi burun rezonansining patologik kamayganligi holati havoning burundan chiqib ketishi bilan izohlanadi, oqibatda barcha nutq tovushlarining artikulatsion va akustik tomondan buzilishi kuzatiladi. Ovoz tembri ahamyatli darajada o'zgaradi. Aralash rinolaliyada ham ochiq, ham yopiq rinolaliyaning belgilari birga qo'shilgan holda namoyon bo'ladi. Bunda burun yo'li to'silib qolgani holda tanglay –halqum pardasida ham o'zgarishlar bo'ladi. Burun tovushlari yopiq rinolaliyadagi singari, boshqa tovushlar esa ochiq rinolaliyadigi kabi talaffuz qilinadi. Aralash rinolaliya ham organik ham funksional xarekterda bo'lishi mumkin. Organik xarekterdagi aralash rinolaliyaga yumshoq tanglayning kaltaligi yoki falajligi sabab bo'lsa, funksional aralash rinolaliyaga tanglay halqum yorig'ining funksiyasi o'zgarishi natijasida burun yo'lining to'silib turishi sabab bo'ladi.

Davolashdan oldin qaysi biri kamchilik ovoz tembrini ko'proq buzib, manqalikka ko'proq sabab bo'lyotganligini aniqlash zarur. Masalan, bemor burun tovushlari bilan unli tovushlarni boshqa tovushlarga qaraganda yanada ko'proq manqalanib talaffuz qilyotgan bo'lsa, demak, unda yopiq rinolaliya ustin bo'ladi va davolash chorasini shunga qarab belgilanadi.

**Xulosa.** Xulosa o'rnida shuni aytish joizki hozirgi kunda nutq nuqsonlaridan rinolaliya kasalligi jamiyat orasida keng tarqalgan. Rinolaliyani turlari bo'yicha texnika rivojlanganligi sababli rinolaliyada ochiq va yopiq bog'inlari oldingiga nisbatan choklarsiz bityotganligi va rinolaliyada tovushlar talaffuzini mutlaqo to'liq tuzalyotganligini va rinolalik bolalar ham umumiy tipdagi maktab va bog'chalarda sog'lom o'quvchilar bilan birgalikda bilim olish imkoniyatlari ko'paydi.

## Foydalanilgan adabyotlar ro'yxati

1. M. Ayupova " Logopediya" 2007 yil
2. Po'latxo'jayeva M.R " Defektalogiyaning klinik asoslari" Toshkent 2012 yil

3. .G. Q. Sodiqova, A. G'. Axmedov, G.M. Tursunxodjaeva " Bolalar nevralogiyasi" Toshkent 2008 yil.

## IJTIMOIY PEDAGOGIKA

# SIFATLI TA'LIM – TARAQQIYOT POYDEVORI

***Abdumutalipova Shahrizoda Hushnudjon qizi***

*Namangan davlat pedagogika instituti*

*Xorijiy til va adabiyoti: ingliz tili yoʻnalishi 1-bosqich talabasi*

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada sifatli ta'limning taraqqiyot jarayonida tutgan oʻrni va unga oid qilingan islohotlar haqida soʻz boradi.*

***Annotation:*** *This article is about the role of quality education in the process of development and related reforms.*

***Аннотация:*** *В данной статье говорится о роли качественного образования в процессе развития и связанных с ним реформ.*

***Kalit soʻzlar:*** *ta'lim, o'quvchi, ta'lim sifati, islohotlar, ko'nikma*

***Ключевые слова:*** *образование, студент, качество образования, реформы, навыки*

***Keywords:*** *education, student, quality of education, reforms, skills*

**Kirish.** Jamiyatimiz asrlar davomida erishgan yutuqlari ta'lim tufaylidir. Jamiyatning poydevori boʻlgan ta'lim islohotlarga olib keladi, taraqqiyotga yordam beradi va innovatsiyalarga yoʻl ochadi. Jamiyatda sifatli ta'limning ahamiyatini yoʻqotib boʻlmaydi, shuning uchun buyuk shaxslar tomonidan uning sivilizatsiyalashgan jamiyatda zarurligi koʻp ta'kidlangan. Aynan ta'lim tufayli odamlar koinotning kengligi va uning atomlardan iboratligi sirini oʻrganishga muvaffaq boʻldilar. Gravitatsiya, kognitiv dissonans, lazer yordamida boshqariladigan jarrohlik muolajalar va boshqa millionlab ilmiy izlanishlar, kashfiyotlar sifatli ta'lim ortidan amalga oshirildi desak mubolagʻa boʻlmaydi. 21-asrda ba'zi mamlakatlar sifatli ta'lim uchun kurashda orqada qolmoqda.

Ta'limning ahamiyatini ortiqcha bir soʻz bilan baholab boʻlmaydi chunki u yorqin va muvaffaqiyatli kelajak garovidir. Barcha bolalar sifatli ta'lim olish imkoniyatiga ega chunki bu ularning haqiqiy salohiyatini roʻyobga chiqarishning

eng yaxshi yo'lidir. "Ta'lim - bu dunyoni o'zgartirish uchun ishlatishingiz mumkin bo'lgan eng kuchli qurol" - Nelson Mandela. Sifatli ta'lim - bu ish topish va o'z hayotini yaxshilashning kalitidir.Insonlar sifatli ta'lim olish imkoniga ega bo'lsa, qashshoqlikdan qutula oladi. Shuning uchun u ijtimoiy va iqtisodiy tengsizliklarni kamaytirishga yordam beradi. Ta'lim nafaqat asosiy inson huquqi, balki aqli sarmoyasidir. Rivojlanayotgan va rivojlanmagan mamlakatlarda ta'lim fuqarolarning iqtisodiy ahvolini yaxshilash va kelajak avlodlar istiqbollarini belgilashning kaliti bo'lishi mumkin. Ta'lim insoniyat jamiyatining taraqqiyoti va ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanish, tinchlik, demokratiya va inklyuziv boshqaruv nuqtai nazaridan o'z maqsadlariga erishish uchun asos bo'lib, yoshlar imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan. Mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch bu – ilm-fan, ta'lim va tarbiya ekanligi isbot talab qilmas haqiqatdir. Bugun mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar yoshlarning oliy ta'lim bilan qamrab olinishini yana-da kengaytirish, ularni bilim va malakali etib tarbiyalash, jahon taraqqiyotiga mos mutaxassislar tayyorlashga qaratilgan.Yangi O'zbekistonga ilm-fanga e'tibor yuqori cho'qqiga chiqqani bejiz emas. Chunki hozir zamonaviy hayotni ilm-ma'rifat va ta'limning taraqqiyotisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Jahonning yetakchi davlatlarida ham ta'limni rivojlantirish birinchi galdagi vazifa sifatida belgilanmoqda. Zero, mamlakatning kelgusi ravnaqi aynan shu sohada qo'lga kiritgan yutuqlari bilan chambarchas bog'liqdir.[1] Prezidentimiz Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga yo'llagan Murojaatnomasida kelgusi yilda amalga oshirilishi lozim bo'lgan ustuvor vazifalarni olti yo'nalish misolida aniq ko'rsatib o'tdi. Ayniqsa, ta'lim sohasini yanada isloh qilish, ta'lim sifati va samaradorligini ta'minlash bo'yicha bildirilgan konstruktiv fikrlar e'tirofga molik. Zero, rivojlangan davlatlarning taraqqiyot tajribasi shuni ko'rsatadiki, qaerda ta'limga, ilm-fanga yaxshi sharoit yaratilgan bo'lsa, o'sha yerda har tomonlama yetuk va vatanparvar kadrlar yetishib chiqqan.Shu maqsadda ta'limning barcha yo'nalishlarida qator o'zgarishlar bo'lishi kutilmoqda va bu o'zgarishlar ta'lim sohasida so'nggi 5-6 yil davomida amalga oshirib kelinayotgan tizimli o'zgarishlarning navbatdagi ilmiy asoslangan va natijasi kafolatlanayotgan bosqichidir.[2]

Ta'lim rivojlanish va oʻsishning asosidir. Inson ongi sogʻliqni saqlash va qishloq xoʻjaligi innovatsiyalaridan tortib, samarali davlat boshqaruvi va xususiy sektor oʻsishigacha boʻlgan barcha rivojlanish yutuqlarini amalga oshirishga imkon beradi. Mamlakatlar bu imtiyozlardan toʻliq foydalanishlari uchun inson ongining imkoniyatlarini ishga solishlari kerak. Buning uchun ta'limdan koʻra yaxshiroq vosita yoʻq. Yigirma yil muqaddam hukumat amaldorlari ta’limning rivojlanishda ,ya’nikim, iqtisodiy taraqqiyot va keng koʻlamda odamlar hayotini yaxshilashda muhim ekangini tasdiqlash uchun yigʻilishdi va birgalikda “Barcha uchun ta’lim”ni maqsad deb e’lon qilishdi. Roʻyxatga olishlar dunyo boʻylab istiqbolli modada koʻpaygan boʻlsa-da, oʻrganish darajasi umidsizlikka tushib qoldi va koʻpchilik bundan ortda qolmoqda. Oʻsish, rivojlanish va qashshoqlikni kamaytirish odamlarning sinfda oʻtirgan yillar soniga emas, balki egallagan bilim va koʻnikmalariga bogʻliq. Ayni paytda oʻqitish samaradorligini oshirish, oʻquvchilarning davlat ta’lim standartlarida belgilangan bilim, koʻnikma va mala-kalarni toʻla egallashlariga erishish, mustaqil bilim olishlarini ta’minlash, iqtidorli, iste’dodli hamda ayrim fanlarni oʻzlashtirishi qiyin boʻlgan oʻquvchilarga individual yondashish, bolalarning eng yaxshi fazilatlarini rivojlantirish, yoshlarning qiziqishi, ehtiyoji, qobiliyati, intellektual xususiyati va shaxsiy sifatlarini aniqlagan holda darslarni tashkil etishga jiddiy e’tibor qaratish dolzarb vazifalardandir. Ta’kidlash joizki, bugungi kunda ta’lim mazmunini yangilash, takomillashtirish, oʻqitish samaradorligini va oʻqituvchilarning kasbiy mahoratini oshirish, ilgʻor tajribalarni keng ommalashtirish boʻyicha muayyan ishlar amalga oshirilayapti. Xususan, mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab ta’lim jarayonini ilmiy-metodik jihatdan ta’minlash, yangi avlod darsliklarini yaratish, DTS va oʻquv dasturlarini takomillashtirish davlat siyosati darajasiga koʻtarildi va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi orqali qonuniy asosga ega boʻldi. Barcha fanlardan yangidan-yangi ta’lim texnologiyalari va interfaol usullar ishlab chiqilib, muntazam modernizatsiyalashtirilmoqda.[3]

2020 yilda Covid-19 butun dunyoni qamrab oldi va ta'lim sifatiga salbiy ta'sir koʻrsatgan eng muhim omillardan biri boʻldi. Koʻpgina mamlakatlar maktablarning vaqtincha yopilishini e'lon qilishdi, bu dunyodagi oʻquvchilarning 91% dan koʻprogʻiga ta'sir koʻrsatdi. BMT ma'lumotlariga koʻra, 2020 yil aprel oyiga

kelib, taxminan 1,6 milliard oʻquvchi maktabga bormagan va qariyb 369 million bola maktab ovqatiga muhtoj. Ta'limni tark etish koʻrsatkichlarining koʻpayishiga yoʻl qoʻymaslik uchun talabalar qayta ochilganda maktabga qaytishlariga yordam berildi.[4]

Soʻnggi yillarda mamlakatimizda ta'lim bozori shiddat bilan rivojlanmoqda. Uning moddiy-texnik bazasini shakllantirish va mustahkamlash borasida ibratli ishlar bajarildi. Oʻqitayotgan va bilim olayotgan kadrlar uchun oʻquv-me'yoriy hujjatlarni xalqaro andazalarga moslashtirish borasida ham uzluksiz ishlar davom ettirilyapti. Oʻzbekiston ta'lim bozorini maktabgacha, umumiy oʻrta, professional, oliy ta'lim, ilmiy tadqiqotlar va malaka oshirish ta'lim bozorlari tashkil etadi. Ularda inson kapitalini rivojlantirish uchun juda katta mablagʻ ajratilyapti. Shu oʻrinda Prezidentimiz "Yangi Oʻzbekiston maktab ostonasidan, ta'lim-tarbiya tizimidan boshlanadi" degan fikrni bejiz ta'kidlamagani yaqqol namoyon boʻladi. Bu gʻoya ta'lim bozorida mehnat qilayotgan oʻqituvchilarga juda katta mas'uliyat yuklamoqda. Pedagog endi diplomida qayd etilgan muayyan fan boʻyicha oʻqituvchilik qilishi emas, balki shu sohaning mutaxassisi maqomi uchun tinimsiz oʻz ustida ishlashi kerak boʻlyapti. Ilm oʻrganib, ustozlik maqomiga erishish uchun Imom Buxoriy va Imom Termiziy yigirma yillab xorijiy yurtlarda ta'lim oladi va vataniga oʻz sohasining yetuk mutaxassisi boʻlib qaytadi. Prezidentimiz "Bugun hayot yangicha fikrlash va ishlash, milliy "aql markazlari"mizni shakllantirishni talab etmoqda. Afsuski, atrofimizdagi barcha siyosiy-ijtimoiy jarayonlarni chuqur tushunib, ta'sirchan tilda yetkazib beradigan tahlilchi va ekspertlarimiz juda kam. Bunday vaziyatda jamiyatimizni ma'naviy tahdidlardan himoya qilish borasidagi ilmiy-amaliy tadqiqotlarni tubdan qayta koʻrib chiqish zarur", deb bejiz ta'kidlamadi. Bu gʻoya ta'lim bozoriga kadrlar tayyorlayotgan ta'lim muassasalarining intellektual sotsial "tovar" tayyorlash sifatiga kreativ yondashuvini talab qiladi. Buning uchun esa ta'lim muassasalaridagi nepozitizm, proteksionizm va lobbizm holatlari bilan halollik bilan kurash olib borish kerak. Aks holda yana hech narsa oʻzgarmay qolaveradi. Bu unsurlar bilan hozir koʻpincha ta'lim muassasalari rahbarlari ommaviy axborot vositalarida piar qilish orqali kurash olib bormoqda. Real hayotda yoki ta'lim bozoridagi bugungi holat davlat talablariga javob bermaydi.

Xulosa qilib aytganda, agar barcha fuqarolari bilimli bo'lsa, davlat gullab-yashnashi tayin. Ta'lim muhim, ammo agar u sifatli bo'lmasa, hozirda davom etib kelayotgan muammolarni hal qilish o'rniga rivojlantiradi va ,shubhasiz, bu davlat to'ntarilishiga va uning qulahsiga olib keladi. Zero, sifatli ta'lim-millat kelajagi deb bejiz aytilmagan.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

**1.** A. Haitov, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Spikeri o'rinbosari, O'zLiDeP fraksiyasi rahbari. Manba: "Xalq so'zi" online.// https://xs.uz/uz

**2.** A.A. Abdumutalovich. Sifatli ta'lim — Yangi O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. // https://parliament.gov.uz/articles/1350

**3. Sifatli ta'lim-tarbiya — bosh vazifamiz. //** http://marifat.uz/marifat/v_pomosh_uchitelu-marifat/ishlanmalar/Sifatli-ta-lim-tarbiya-bosh-vazifamiz.htm

**4. What is Quality Education? //** Leverage.edu **jurnali:** https://leverageedu.com/blog/quality-education/

## TALABALARNING KASBIY MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING TA'LIM TIZIMIDAGI O'RNI

***Nafasov G'anisher Abdurashidovich***

*Guliston davlat universiteti dotsenti,*

*Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) E-mail: gnafasov87@gmail.com*

***Abduraimov Dostonbek Egamnazar o'g'li***

*Guliston davlat universiteti katta o'qituvchisi*

*E-mail: abduraimov.dostonbek@mail.ru*

***Qilichev Sunnatillo Tohir o'g'li***

*Guliston davlat uriversiteti o'qituvchisi E-mail:sunnatillo.qilichev@mail.ru*

***Axmedova Xolbuvi Abdullaevna***

*Sardoba tuman kasb-hunar maktabi o'qituvchisi,*

*E-mail: axmedova.xolbuvi @mail.ru*

***Annotatsiya:*** *Ushbu keltirilgan maqolada talabalarning kasbiy madaniyatini shakllantirishning ta'lim tizimidagi o'rni muammolari ko'rib chiqilib,*

*ularni hal etish istiqbollari ochib berildi.Kasbiy madaniyatni shakllantirish fuqorolik jamiyati asoslarini barpo etishning eng muhim tarkibiy qismi boʻlib ushbu jarayon shaxsni muntazam kamol toptirish borasida uzluksiz ish olib borishni taqazo qiladi.*

***Kalit soʻzlar:*** *kasbiy, madaniyat, voqea, hodisa, iqtisodiy, ekologik, mehnat, xuquqiy-axloqiy, qudrati, salohiyati, aqlu-zakovati, jamiyat, taraqqiyot.*

***Аннотация:*** *В данной статье рассмотрены проблемы роли формирования профессиональной культуры обучающихся в системе образования и выявлены перспективы их решения.Формирование профессиональной культуры является важнейшей составляющей построения основ гражданского общества, и этот процесс требует постоянной работы над закономерным развитием личности.*

***Ключевые слова:*** *профессиональный, культура, событие, событие, экономическое, экологическое, трудовое, право-этическое, власть, потенциал, интеллект, общество, развитие.*

***Annotation:*** *This article discusses the problems of the role of the formation of the professional culture of students in the education system and identifies the prospects for their solution. The formation of a professional culture is the most important component of building the foundations of civil society, and this process requires constant work on the natural development of the individual.*

***Key words:*** *professional, culture, sobytie, sobytie, ekonomicheskoe, ekologicheskoe, trudovoe, pravo-ethicheskoe, vlast, potential, intellect, obshchestvo, development.*

**KIRISH.** Mamlakatimizda talabalarning kasbiy madaniyatini shakllantirishning borasida olimlarimiz tomonidan koʻpgina salmoqli izlanishlar olib borilmoqda. Oliy ta'limning Davlat ta'lim standarti oʻquv-fanlari bloklari mazmuniga qoʻyiladigan umumiy talablarida ta'lim va tarbiya jarayonining mustaqil fikrlaydigan, qarorlar qabu lqilishga qodir, har tomonlama barkamol shaxsni shakllantirishga yoʻnaltirilganligini ta'minlashi lozimligiga alohida ahamiyat berilgan.Albatta qoʻyilgan ushbu talablar oliy oʻquv yurtlarida ta'lim-tarbiya jarayonini yuqori darajaga koʻtarish, oʻqitishni yangi metodlar asosida

amalga oshirish, talabalarda mustaqil fikrlash qobilyatini rivojlantirish, ularda mehnat koʻnikmalarni shakllantirish, kasbga boʻlgan qiziqishini takomillashtirish, kasbiy madaniyatini shakllantirish va bilim darajasini oshirish kabi vazifalarning sifat darajasida bajarishini taqozo etadi.

Bu vazifalarni amalg aoshirishda oliy oʻquv yurti talabalarida kasbiy madaniyat haqidagi bilim, koʻnikma va malakalarni shakllantirish muhim ahamiyatga ega.Chunki, kasbiy madaniyat mustaqil fikrlash, mustaqil ishlash kabilarning asosiy manbai boʻlibgina qolmay, balki har bir shaxsning ijodiy qobilyatini namoyon etish, intellektual jihatdan rivojlanish, kasbi boʻyicha mehnat xususiyatlarini namoyon etish imkoniyatlarini oshiradi.

**TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI.** Darhaqiqat talabalarda kasbiy madaniyatni shakllantirish va mustahkamlash – bu fan, madaniyat, axloq, aqliy boylik, jamiyat turli sohalarining mutaxasislarini etishtirish ziyolilar va ziyolilikni rivojlantirish bilan bevosita bogʻliqdir.

Kasbiy madaniyatni shakllantirish – Oʻzbekistonning madaniy jihatdan ravnaq topgan zamonaviy davlat, jamiyat sifatida rivojlanishida gʻamxoʻrlik koʻrsatish demakdir. Bu oʻrinda shu jamiyatning a'zosi boʻlgan har bir mutaxasis nazarda tutiladi. Kasbiy madaniyatsiz moddiy farovonlikka ham, umumtaraqqiyotga ham erishib boʻlmaydi.

Talabalarda kasbiy madaniyatni shakllantirish masalasi – oʻz haq-huquqlarini taniydigan, oʻz kuchi va imkoniyatlariga tayanadigan, atrofida sodir boʻlayotgan voqea va hodisalarga mustaqil munosabat bilan yondoshadigan, ayni zamonda shaxsiy manfaatlarini mamlakat va xalq manfaatlari bilan uygʻun holda koʻradigan erkin, xar jihatdan barkamol insonlarni tarbiyalash demakdir.

Kasbiy madaniyatni shakllantirish fuqorolik jamiyati asoslarini barpo etishning eng muhim tarkibiy qismi boʻlib ushbu jarayon shaxsni muntazam kamol toptirish borasida uzluksiz ish olib borishni taqazo qiladi. Bugungi kunda kasbiy madaniyatni shakllantirishni jamiyat rivojining asosi va shartiga aylanmogʻi hamda oʻzida yaxlit bir tizimni mujassam etmogʻi lozim.Chunki, kasbiy madaniyatni shakllantirishning Oʻzbekistonda demokratik oʻzgarishlarni yanada chuqurlashtirishga va fuqorolik jamiyati asoslarini yaratishda, inson haq-huquqlarni va erkinliklarini ta'minlashda asosiy omil hisoblanadi.

Kasbiy madaniyatli boʻlish el-yurtimizning tabiiy boyliklariga egalik qilish, oʻzining qudrati, salohiyati, aqlu-zakovatiga tayanib davlatchiligimizni mustahkamlash, buyuk kelajagimizning poydevorini mustahkamlash, kasbiy ongimiz va fikrimizni yuksaltirish, jahon jamiyatida munosib oʻrin egallashdir.

**TADQIQOT NATIJALARI.** Kasbiy madaniyatni shakllantirish jamiyat, davlat va millat bilan uzviy aloqador boʻlib, shaxs kamolotida muhim ahamiyatga ega. Millat, davlat va jamiyat taraqqiyoti insonning kasbiy madaniyatiga asoslanadi.

Kasbiy madaniyatni shakllantirish mohiyati aqliy, axloqiy, ilmiy, amaliy, mafkuraviy gʻoyalar bilan uzviy bogʻlangan.Bugungi kunda vatanparvarlik, millatparvarlik, milliy iftixor tuygʻulari, tabiatni muxofaza etish, har qanday sharoitda ona yurt manfaatini, davlatimiz mustaqilligini qoʻllab-quvatlash, hurmat bilan qarash kabi xislatlarning barchasi kasbiy madaniyat bilan bogʻliqdir.

Kasbiy madaniyatni shakllantirish siyosiy - iqtisodiy, ekologik, mehnat, xuquqiy-axloqiy tarbiya jarayonlarida amalga oshiriladi. Talabalarda kasbiy madaniyatini shakllantirish va mustahkamlash – bu fan, madaniyat, aqliy boylik, jamiyat va xalq xoʻjaligining turli sohalari uchun mutaxasislar tayyorlash demakdir.Chunki odamlar oʻz moddiy ehtiyojlarini qondirishda kasbiy yoʻnalishga ega boʻlishi kerak.

Kasbiy madaniyatni shakllantirish – har bir talabaning ichki kasbiy, ruxiy kechinmalari, aqliy qobiliyati, idrokini mujassamlashtirish Vatan ravnaqi yurt tinchlig xalq farovonligi yoʻlida xizmat qilish, Oʻzbekistonda yashayotgan barcha millat va elatlarning qadriyatlari, tili, madaniyati, diniy etiqodi, urf-odati va ananalarini xurmat qilish, ularni asrab-avaylash va rivojlantirish, marifatli, bilimli, madaniyatli, manaviy-axloqiy fazilatlarga ega boʻlgan shaxsni tarbiyalash demakdir.

**XULOSA**. Shuni aloxida takidlash kerakki, talabalarda kasbiy madaniyatni shakllantirish oʻqituvchining pedagogik faoliyati bilan bevosita bogʻliqdir. Chunki oʻqituvchining talimini turmush bilan bogʻlashi, amaliyot bilan uygʻunlashtirishi, talabalarning qobiliyatlari, intellektual darajalari va imkoniyatlarini shakllantirishda ijobiy samara beradi. Bu esa har bir talabadan oʻz mutaxassisligini yaxshi bilishi, aqliy saloxiyatni yuqori darajada boʻlishni talab

qiladi.Albatta, bunda o'qituvchining talimni oqilona, optimal yo'l bilan tashkil qilishi va olib borishi talabalarda kasbga ongli munosabatni tarkib toptirish, kasbiy madaniyatni shakllantirishning asosini tashkil etadi.

Talabalarda kasbiy madaniyatni shakllantirishda talim-tarbiyaning zamonaviy qonuniyatlari, mazmuni, usullari, vositalaridan foydalanish bilan birga ularda o'z mutaxasisligi bo'yicha maxoratli bo'lishni, fikrlarning metodologik asoslarini bilishni taqozo qiladi.

**Adabiyotlar ro'yhati**

1. Ш.М.Мирзиёев. Эркин ва фаровон, демократик ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз.– Тошкент : Ўзбекистон, 2016. - 56 б.
2. Каримов И.А. Юксак малакали мутахассислар тараққиёт омили. Тошкент: Ўзбекистон – 1995, - 24 б.
3. Каримов И.А. Янгича фикрлаш ва ишлаш давр талаби. Т. 5. Тошкент: Ўзбекистон –1997, - 384 б.
4. Каримов И.А. Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиётининг пойдеври. – Тошкент: Шарқ – 1997, - 64 б.
5. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2017 йил 6 апрелдаги "Умумий ўрта ва ўрта махсус, касб-ҳунар таълимининг давлат таълим стандартларини тасдиқлаш тўғрисида" 187-сонли Қарори. – Т.: Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 14-сон, 230-модда.

## TARBIYA JARAYONINING MOXIYATI VA MAZMUNI. TARBIYA TAMOILLARI

***Muxtarova Durdonaxon***

*Andijon davlat chet tillari instituti, Ingliz Filalogiyasi , O'qitish Metodikasi va Tarjimashunoslik fakulteti, Xorijiy til va adabyoti faoliyati 2-bosqich talabasi.*

***Toshpo'latova Nilufar***

*Andijon davlat chet tillari instituti, Ingliz Filalogiyasi , O'qitish Metodikasi va Tarjimashunoslik fakulteti, gid hamrohligi va tarjimonlik faoliyati, 2-bosqich talabasi. . toshpolatovanilufargid@gmail.com*

***Annotatsiya:*** *Tarbiya jarayonining moxiyati va mazmuni haqida yozgan maqolamizda, tarbiya jarayonining nima ekanligi, uning muhimiyati, o'quvchilarning o'z-o'zini rivojlantirishiga yordam berish, tarbiya tamoillarining nima ekanligi va shunga o'xshash mavzular haqida gapirgan edik. Tarbiya jarayoni insoniy xususiyatlarini yanada rivojlantiradi va bu jarayonning muhim ahamiyati bor.*

***Аннотация:*** *В нашей статье мы говорили о том, что такое процесс образование его важности и как это помогает развивать личность учеников. Принципы, которыми руководствуются педагоги и учителя в процессе образование, помогают школьникам развивать свои знания и навыки, а также решать их проблемы и потребности. образование процесс продолжается в течение всей жизни и помогает дальнейшему развитию человеческих качеств.*

***Annotation:*** *In our article, we talked about what the process of education is, its importance, and how it helps to develop the individual qualities of students. The principles that educators and teachers follow in the process of education help students develop their knowledge and skills, as well as address their issues and needs. The process of t education continues throughout one's life and helps to further develop one's human qualities.*

***Kalit so'zlar:*** *Tarbiya, pedagogika, tarbiya nazariyasi, Rossiya pedagogikasi, Markaziy Osiyo faylasuflari, klasterning tarkibi, aqliy tarbiya , axloqiy tarbiya, mehnat tarbiyasi, jismoniy tarbiya, estetik tarbiya, ekologik tarbiya, iqtisodiy tarbiya, huquqiy tarbiya.*

Tarbiya so'zi lug'atda "o'qitish, ta'lim" manolarini anglatadi. Biroq, tarbiya so'zi o'zining eng umumiy manosi "yosh nafarlar o'z-o'zini ijodiy, ma'naviy, ma'rifatli va mehnatkor fuqarolar sifatida tayyorlash jarayoni" deb tushuniladi. Tarbiya jarayoni insonning hayotida muhim ahamiyatga ega bo'lgan bir necha tamoillar asosida amalga oshiriladi va o'quvchilarning o'z-o'zini yanada rivojlantirishiga yordam beradi.

Talabalar kichik guruhlarga bo’linib, «Tarbiya» yoki «Tarbiyaning tarkibiy qismlari» mavzusiga oid klaster tuzishadi. Klasterning tarkibiga quyidagilar kirishi mumkin:

Aqliy tarbiya: bilim, ilm, malaka, ko’nikma ; aql, ong, fahm; Axloqiy tarbiya: axloq, odob, xulq, yaxshilik, adolat, insof, diyonat, sharm, hayo, va boshq. Mehnat tarbiyasi: faollik, ishchanlik, tadbirkorlik, ishbilarmonlik; aqliy jis moniy mehnat, foyda, maosh. Jismoniy tarbiya: chiniqish, sport, o’yinlar; sog’lom tan; Estetik tarbiya: go’zallik, kiyinish, tozalik, yurish-turish, saranjom-sarishtalik; Ekologik tarbiya: tabiat, atrof-muhit, daraxtlar, qushlar, o’rmonlar; Iqtisodiy tarbiya: tejamkorlik, bozor iqtisodiyoti, sarf, isrof; foyda, mulk, mulkka egalik; Huquqiy tarbiya: fuqaro, tenglik, to’g’rilik, halollik, jinoyat, jazo, huquq, burch.

Tarbiya, yosh nafarlarni o'z-o'ziga qarshi va ijodiy, sotsial va insoniy taraqqiyotga tayyorlash jarayonidir. Tarbiya jarayoni oxirigacha davom etadi va hayot davomida insonning insoniy xususiyatlarini yanada rivojlantiradi. Bu jarayonning moxiyati va mazmuni aniq va qat'iy belgilangan tamoillar asosida amalga oshiriladi.

Tarbiya jarayoni boshqaruvchilari va o'qituvchilar o'quvchilarning o'z-o'zini yanada rivojlantirishiga yordam berishi kerak. Bu maqsadda, o'qituvchilar o'quvchilarning ma'lumotlarini tahlil qilish, ularning muammolari va zaruratlari bilan shug'ullanish, ularning qiziqishlarini ko'zdan kechirish va ularning o'z-o'zini o'rganishga qaratilgan o'quv usullaridan foydalanish kerak.

Tarbiya jarayonining mohiyatini yosh avlodga anglatishda ma`rifatparvar alloma Abdulla Avloniy ha o`z fikrlarini bildirgan va bu hanuzgacha o`z mavqeyini yo`qotmagan. “Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir”

Tarbiya-pedagogika, ya’ni bola tarbiyasining fani demakdir. Bolaning salomat va saodati uchun yaxshi tarbiya, tanni pok tutmoq, yosh vaqtida maslakni tuzatmoq, yaxshi xulqlarni oʻrgatmoq tabiblardek kabidurki, tabib xastaning badanidagi kasaliga davo qilgʻoni kabi tarbiyachi bolaning vujudidagi jahl markaziga “yaxshi xulq” degan davoni ichidan, “poklik” degan davoni ustidan berib katta qilmogʻi lozimdir.

Tarbiya jarayoni, insonning hayotida muhim ahamiyatga ega bo'lgan bir necha tamoillar asosida amalga oshiriladi. Bu tamoillar o'quvchilarning ma'lumotlari va tajribalari, ijodiy va ijtimoiy rivojlanishlari, insoniy qadriyatlarini tushuntirish, ishonch va o'zodlikni rivojlantirish, jamiyatga foydali fuqarolar sifatida qo'llanish, milliy va jahon tarixi bilan tanishish va boshqa bir necha xususiyatlaridan iboratdir.

Tarbiya jarayoni, o'quvchilar o'z-o'zini yanada rivojlantirish, ijodiy va ijtimoiy rivojlanishlariga yordam berish uchun bir nechta tamoyillarni amalga oshiradi. Ba'zi tamoillar shu jumladan, o'quvchilarning ijodiy xarakterini rivojlantirish, ularning kasb-hunarlarini o'rgatish, ularning jamiyatda foydali fuqarolar sifatida ishtirok etishlariga yordam berish, o'quvchilarning o'z-o'zini o'rganishini rag'batlantirish, o'quvchilarning ijtimoiy va insoniy xususiyatlarini yanada rivojlantirish va boshqa bir necha xususiyatlardan iboratdir.

Tarbiya jarayoni, o'quvchilarning o'z-o'zini yanada rivojlantirishiga yordam berish uchun bir nechta o'quv usullaridan foydalanadi. Bu usullar o'quvchilarning o'z-o'zini o'rganishiga yordam beradigan, ularning ma'lumotlarini tartibga solishga yordam beradigan, ularning kasb-hunarlarini o'rgatishga yordam beradigan va ularning ijtimoiy va insoniy xususiyatlarini rivojlantirishga yordam beradigan bir necha usullardan iboratdir.

Tarbiya jarayoni, insonning hayotida muhim ahamiyatga ega bo'lgan bir necha tamoillar asosida amalga oshiriladi. Bu jarayonning moxiyati va mazmuni aniq va qat'iy belgilangan tamoillar asosida amalga oshiriladi. Tarbiya jarayoni o'quvchilarning o'z-o'zini yanada rivojlantirishiga yordam beradi va ularning ijtimoiy va insoniy xususiyatlarini yanada rivojlantirishga yordam beradi. Tarbiya jarayoni, ijodiy va ijtimoiy rivojlanishlariga yordam berish, jamiyatga foydali fuqarolar sifatida qo'llanish, milliy va jahon tarixi bilan tanishish va boshqa bir necha xususiyatlarni yanada rivojlantirishga yordam beradi.

Tarbiya - har bir insonning hayotida, yashashi mobaynida orttirgan saboqlari va intellektual salohiyatlarining ijobiy ko'nikmasini o'zgalarga berish jarayoni.

Tarbiyalanganlik - jamiyatda qabul qilingan axloqiy normalarga bo'ysunish va o'zgalarning nafratini qo'zg'atadigan hatti harakatlardan o'zini tiya bilish.

Beruniy insonning kamolatga yetishishida ilmu ma'rifat, san'at va amaliyot asosiy rol o'ynasada, nasl - nasab, ijtimoiy muhit va turmush qonuniyatlari ham katta ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydi. Uning fikricha inson kamolga yetishuvining eng muhim omillari ilm ma'rifatli bo'lish va yuksak axloqlilikdir. Axloqlilikning belgilari yaxshilik, to'g'rilik, adolat, kamtarlik, saxovat, oliyjanoblik, do'stlik va hamkorlik, mehnat, poklik, go'zallikka intilish kabilardir.

Tarbiya nazariyasi - pedagogika fanining bir qismi bo'lib, tarbiyaviy jarayonning mazmuni, usuli va tashkil etilishi masalalarini o'rganadi. U Markaziy Osiyo faylasuflarining va xalq pedagogikasining tarbiya borasidagi boy tajribasiga tayanadi.

Pedagogika tarixidan ma'lumki, ta'lim tarbiyadan, tarbiya rivojlanishdan ajratib tekshirilmagan. XVIII asrning ikkinchi yarmiga kelib Rossiya pedagogikasida tarbiya masalalarini alohida ko'rish hollari uchraydi. «1806 yilda chiqarilgan Rossiya Akademiyasi lug'atida birinchi bor tarbiya so'zi pedagogik tushuncha sifatida alohida keltiriladi», deb ta'kidlaydi I.Tursunov.

O'tgan mavzularda tarbiyaga berilgan ta'riflarni yodga olaylik: «Tarbiya - ma'naviy manbalar va hozirgi zamon talablari ehtiyojlarini nazarda tutgan holda o'qituvchining o'quvchi bilan aniq bir maqsadga qaratilgan o'zaro amaliy va nazariy muloqatidir».

«Tarbiya - tarbiyachi xohlagan sifatlarni tarbiyalanuvchilar ongiga singdirish uchun tarbiyalanuvchining ruhiyatiga muayyan suratda va tizimli ta'sir ko'rsatish jarayonidir».Qat'iy ishonch bilan aytish lozimki, - degan edi Prezident I.Karimov O'zbekiston teleradiokompaniyasi muxbiri bilan muloqotda, - ma'naviy boylik moddiy boylikdan ming bor ustun, shu bois biz ta'lim - tarbiya masalasiga davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida yondoshmoqdamiz. Kadrlar tayyorlash haqida qonun qabul qilingan milliy dastur ham mohiyat e'tibori bilan shu maqsadni amalga oshirishga qaratilgan.

## Adabiyotlar

1." Ta`lim va Tarbiya"  Isoqjon Muhammadjon o`g`li. Hilol nashriyoti 2018.

2." Jazosiz Tarbiya" Adem Gunesh, Yangi asr avlodi 2022
3. https://elib.buxdu.uz/index.php/pages/referatlar-mustaqil-ish-kurs-ishi/item/12346-tarbiya-jarayonining-mazmuni-tarbiya-tamoyillari
4. https://n.ziyouz.com/kutubxona/category/20-axloq-odobga-oid-kitoblar

# PEDAGOGIKA SHAXS TARBIYASI VA RIVOJLANISHI TO'G'RISIDAGI FAN

***Qosimov Xamidullo Abduqaxxor o'g'li***
***Boqijonova Odinaxon Bohodirjon qizi***
*Namangan davlat universiteti talabalari*

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada pedagogika tarixi jamiyat taraqqiyoti qonunlariga suyangan holda turli pedagogik nazariyalarni, ta'lim-tarbiyaning mazmuni va metodlarini o'rgatadi hamda o'tmishning pedagogik sistemalarida bo'lgan ilg'or fikrlarning hammasidan ijodiy foydalanganligi va pedagogika shaxs tarbiyasi va rivojlanishi to'g'risidagi fan ekanligi haqida ma'lumotlar berilgan.*

***Kalit so'zlar:*** *Pedagogika, ta'lim, o'quv dasturi, shakllar, metodlar, vositalar, shaxs, tarbiya, yosh avlod.*

***Аннотация:*** *Данная статья учит истории педагогики на основе законов общественного развития, различных педагогических теорий, содержания и методов воспитания, творческого использования всех передовых идей в педагогических системах прошлого, а педагогика полна личностное образование и развитие информация о науке о*

***Ключевые слова:*** *Педагогика, образование, учебная программа, формы, методы, средства, личность, воспитание, молодое поколение.*

***Abstract:*** *This article teaches the history of pedagogy based on the laws of social development, various pedagogical theories, the content and methods of education, and the creative use of all the advanced ideas in the pedagogical systems of the past, and pedagogy is full of personal education and development. information about the science of*

***Key words:*** *Pedagogy, education, curriculum, forms, methods, tools, personality, education, young generation.*

Azal-azaldan bizga ma'lumki, shaxs tarbiyasi va rivojlanishi uchun pedagogika fanlarining oʻrni kata. Mustqillikka erishganmizdan buyon barcha ta'lim tizimida samaralari ishlar olib borildi. Ayniqsa, ta'lim tarbiya tizimida yangidan yangi oʻquv qoʻllanmalar hamda adabiyotlarni borligi, ulardan oʻquvchilar unumli foydalanishlari kelajagimiz boʻlgan yoshlar uchun juda katta imkoniyatlardan desak, adashmaymiz. Ta'lim tarbiya tamoyillari oʻquv yurtlari oldida turgan ulkan vazifalar asosida belgilanadi. Ular oʻzaro bir-biri bilan mustahkam bogʻlik holda bir sistemani tashkil etadi, har bir darsda didaktik tamoyillarning bir nechtasi ishtirok etishi mumkin. Ular ta'lim oldida turgan asosiy maqsadlarni hal etishga oʻz hissasini qoʻshadi. Ta'lim tizimi isloh qilinayotgan hozirgi jarayonda oʻquvchi-talabalarga mustahkam bilim berish, ularni erkin, mustaqil fikrlay oladigan insonlar qilib tarbiyalashda, ta'lim tamoyillarining mohiyatini chuqur anglash va hayotga tadbiq etish muhim muammolardan biridir. Ta'limni oʻziga ta'rif beradigan boʻlsak, bilim berish, malaka va koʻnikmalar hosil qilish jarayoni, kishini hayotga va mehnatga tayyorlashning asosiy vositasi. Ta'lim jarayonida ma'lumot olinadi va tarbiya amalga oshiriladi. Ta'limning mazmuni va mohiyati jamiyatning moddiy va madaniy taraqqiyoti darajasi bilan belgilanadi. Ta'limning mazmuni uning maqsadidan kelib chiqadi. Pedagogika shaxs tarbiyasi va rivojlanishi toʻgʻrisidagi fandir. Ma'lumki, pedagogika jamiyatning rivojlanish qonun-qoidalariga tayangan holda taraqqiy etadi. Bugungi kunda esa ana shu jarayon avj pallasiga kirdi. Inson ongi taraqqiy etmas ekan, ijtimoiy hayot jabhalarida hech bir oʻzgarish sezilmaydi. Modomiki, zamon jadal sur'atlarda oʻzgarayotgan ekan, demak, pedagogika ham shu oʻzgarishlarga hamohang boʻlmogʻi darkor. Pedagogikaga ta'rif bersak, Pedagogika (yunoncha"paidagogike"– "paidagogos""bola" va "yetaklayman") ijtimoiy fanlar tizimiga kiruvchi fan sanalib, shaxsni shakllantirishga qaratilgan tizimli faoliyat mazmuni, ta'lim, ijtimoiy tarbiyaning umumiy qonuniyatlari, shakllari, metodlari, vositalari, yagona ijtimoiy maqsad asosida yosh avlodni milliy istiqlol gʻoyasi ruhida tarbiyalash, unga ta'lim berish muammolarini oʻrganadi. Pedagog olimlar M.Quronov, S.Ochillarning

fikrlariga tayangan holda, ma'naviy sifatlarga quyidagilarni kiritish mumkin: "Iymonlilik, e'tiqodlilik, andishalilik, oilaga muhabbat, halollik, birovning haqiga xiyonat qilmaslik, ota-onaga hurmat, fahm-farosatlilik, bilimlilik, saxovatlilik, mardlik, shirinso'zlik, odillik, hayolilik, samimiylik, mehnatsevarlik, do'stlik, o'rtoqlik, mehmondo'stlik, odamgarchilik, insonparvarlik, vatanparvarlik, tadbirkorlik, chaqqonlik, zukkolik, uquvlilik, xushmuomalalik, poklik, ziyraklik, rostgo'ylik, nazokatlilik, samimiylik, tashabbuskorlik, ona yurti va xalqiga muhabbat, insoflilik, diyonatlilik, or-nomuslilik, rejalilik, sabrlilik, qanoatlilik, vazminlik, milliy g'urur, baynalminallik va boshqalar".[1] Pedagogika shaxs tarbiyasi rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga ega bo'lsa, unda shaxs o'zi nima, u qanday tushuncha, demak shaxsga ta'rif bersak. Shaxs – muayyan jamiyatning a'zosi bo'lib, u psixologik jihatdan taraqqiy etgan, o'z xususiyatlari va xatti-harakatlari bilan boshqalardan ajralib turadi. Odam ruhiy jihatdan taraqqiy etgan, o'z xususiyati va sifatlari bilan farq qilishi lozim. Har bir odam shaxs sifatida turlicha namoyon bo'ladi. U o'zining xususiyati, qiziqishi, qobiliyati, aqliy jihatdan rivojlanganlik darajasi, ehtiyoji, mehnat faoliyatiga munosabati bilan boshqalardan farqlanadi. Bular shaxsning o'ziga xos xususiyatlari bo'lib mazkur xususiyatlar rivojlanib, ma'lum bir bosqichga yetsagina, u kamol topgan shaxs sifatida namoyon boladi. Shaxs ijtimoiy munosabatlar jarayonida qaror topadi. Shaxsning rivojlanishi, avvalo, uning shaxsiy xislatlarining shakllanishidan boshlanadi. Pedagogika fani o'sib kelayotgan yosh avlodni barkamol inson qilib tarbiyalash uchun ta'lim-tarbiyaning mazmunini, umumiy qonuniyatlari va amalga oshirish yo'llarini o'rgatuvchi fandir. Tarixga ham bir nazar solsak, feodalizm jamiyatida esa har ikki kasbdagi kishilar hamkorligi natijasida ta'lim-tarbiya bilan maxsus shug'ullanuvchilar vujudga kelgan. Ularni chex pedagogi Y.A.Kamenskiy ta'kidlaganidek, "pedagog" deb nomlaganlar. Pedagogika ta'lim-tarbiya maqsadini jamiyat talablariga va o'quvchilarning yosh xususiyatlariga qarab mazmunan o'rganib borishni taqozo etadi, tarbiyaning tarkibiy qismlarini va ular o'rtasidagi bog'lanishlarni ochib beradi. Shu asnoda ta'lim va tarbiya sohasidagi tajribalarni umumlashtiradi, tarbiyaning kelgusidagi rivojlanish istiqbollarini, yo'llarini ko'rsatib beradi.

Siz barkamol avlodni har tomonlama kamol toptirishdek ulkan ishga bel bogʻlagansiz. Shu boisdan ham Siz ta'lim-tarbiya borasida insoniyat tomonidan yaratilgan ma'naviy boyliklardan xabardor boʻlishingiz bilan birga, ularni yosh avlodga yetkaza olish malakasiga ega boʻlmogʻingiz darkor. Chunki tarbiyachi tarbiyalanuvchini hayotga tayyorlamogʻi uchun, avvalambor, oʻzi hayotni chuqur idrok qilmogʻi kerak.

**Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:**

1. Axmedova Malohat Ergashevna "Pedagogika Nazariyasi va Tarixi" (Pedagogika tarixi) "TAFAKKUR-BOSTONI" Toshkent-2011 (14-bet)
2. Komiljon Hashimov, Sanobar Nishonova "PEDAGOGIKA TARIXI" II qism darslik Alisher Navoiy nomidagi Oʻzbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti Toshkent — 200
3. R.Mavlonova, N.Voxidova, N.Raxmonqulova "PEDAGOGIKA NAZARIYASI VA TARIXI" "Fan va texnologiya" nashriyoti, Toshkent 2010-yil
4. Oʻ.M.Asqarova, M.Xayitboyev, M.S.Nishonov "PEDAGOGIKA" TOSHKENT "Talqin» nashriyoti» Toshkent 2008-yil
5. X.Ibragimov, Sh.Abdullayeva "Pedagogika Nazariyasi" "Fan va texnologiya" nashriyoti, Toshkent 2008.
6. A.Musurmanova, X.Ibragimov, O.Jamoldinova, K.Risqulova, S.Yoʻldosheva, A.Jumayev, F.Babashev, P.Isamova, S.Sharipova, Gʻ.Salohiddinova, K.Todjibayeva. "UMUMIY PEDAGOGIKA" I Qism "Yoshlar Nashriyot Uyi" Toshkent - 2020
7. https://uz.wikipedia.org

## OʻQITUVCHI KREATIVLIGI VA IJODKORLIGI TALABALAR MAFKURAVIY QARASHLARNI RIVOJLANTIRISHDAGI AHAMIYATI

***O.R.Ortiqov***
*Buxoro davlat universiteti*
*Pedagogika kafedrasi oʻqituvchisi*

***Annotasiya:*** *mazkur maqolada o'qituvchining kreativligi va ijodkorligi talabalar mafkuraviy qarashlarni rivojlantirishdagi ahamiyati haqida soʻz borar*

*ekan, o'qituvchining ta'lim-tarbiya jarayonida kreativligi naqadar mugimligi, faliyatni asosi ekanligi, shuningdek talabalarda dunyoqarshni shakllantirish, mafkuraviy immunitetni rivojlantirishda muhim ekanligi haqida fikr-mulohazalar bayon etilgan.*

***Kalit** so'zlar: kreativlik, o'qituvchi, ijodkorlik, o'qituvchi shaxsi, faoliyat, mafkura, mafkuraviy immunitet, ta'lim, tarbiya,kasbiy fazilat, shaxsiy sifatlar.*

***Аннотация:** в данной статье говорится о значении творчества и творчества учителя в развитии мировоззренческих взглядов учащихся, о том, насколько мощным является творчество учителя в образовательном процессе, в основе деятельности, а также о том, насколько оно важно в формирование мировоззрения студентов и развитие идеологического иммунитета.*

***Ключевые слова:** креатив, педагог, творчество, личность педагога, деятельность, мировоззрение, идеологический иммунитет, воспитание, обучение, профессиональные качества, личностные качества.*

***Annotation:** this article talks about the importance of the teacher's creativity and creativity in the development of students' ideological views, about how powerful the teacher's creativity is in the educational process, the basis of the activity, as well as how important it is in the formation of students' worldview and the development of ideological immunity. comments are made.*

***Keywords:** creative, teacher, creativity, teacher's personality, activity, ideology, ideological immunity, education, training, professional quality, personal qualities.*

Zamonaviy ta'lim-tarbiya jarayonida o'qituvchilarnini tayyorlash, birinchi navbatda, o'qituvchining o'ziga yuklangan kasbiy vazifalarni muvaffaqiyatli hal qilish uchun axloqiy va kasbiy fazilatlarini shakllantirish nazarda tutadi. Bu muammolarni muvaffaqiyatli hal etish o'qituvchining shaxsiyatiga, o'z kasbiy burchini munosib bajarish zarurligini anglashiga, pedagogik mahorat darajasiga bog'liq. Shunday ekan, o'qituvchining kreativlig va ijodkorligi ta'lim tarbiyaning o'zagi hisoblanib, yosh avlodni, jumladan talabalrning sog'lom fikrlashlari uchun

zamin yaratadi. Shundagina ular turli xil oqimlarga, yod g'oyalarga qo'shilmasdan, yuksak axloqiy fazilatlarga ega bo'ladilar.

Ma'lumki, ta'lim va tarbiya tizimi jamiyatning intellektual salohiyatini oshirishning asosiy manbai hisoblanadi. Ushbu tizimda asosiy o'rinni o'qituvchi egallaydi, chunki u ta'lim-tarbiyaning rivojlanishini belgilaydi. Ta'limning muvaffaqiyati bevosita o'qituvchi shaxsiga, uning kasbiy va umumiy madaniy tayyorgarligiga, ijodiy salohiyatiga bog'liq. Mashhur rus pedagogi K.D. Ushinskiyning so'zlari bilan aytganda: "Ta'limda hamma narsa pedagog shaxsiga asoslanishi kerak, chunki tarbiyaviy kuch faqat inson shaxsiyatining tirik manbasidan oqib chiqadi. Hech qanday nizom va dasturlar, muassasaning sun'iy organizmi qanchalik ayyorlik bilan o'ylab topilgan bo'lmasin, ta'lim masalasida shaxsning o'rnini bosa olmaydi" deb ta'riflagan.

O'qituvchi faoliyatining muvaffaqiyati nafaqat uning arsenalida mavjud bo'lgan ta'lim va tarbiya usullari bilan belgilanadi, balki ko'proq darajada uning shaxsiyati, xarakteri, mahorati, o'quvchilar bilan munosabatlari, mehnatga ijodiy munosabati bilan belgilanadi. O'qituvchi shaxsi pedagogik jarayon muvaffaqiyatining asosiy sharti va vositasi bo'lib, na o'quv qo'llanmalari, na mahorat bilan bajarilgan uslubiy ishlanmalar uning o'rnini bosa olmaydi. O'qituvchi uzluksiz ilmiy bilimlar, pedagogik mahorat bilan boyitib borsa, shaxsiyatini takomillashtirib borsa, pedagogik mahoratga erishsagina o'z vazifasini bajara oladi.

Pedagogik mahorat ulkan qalb mehnatini, doimiy izlanishni, ma'naviy va jismoniy kuchning kuchlanishini, o'z ustida faol mehnat qilishni talab qiladi. O'qituvchi shaxsiyati - bu oddiy xususiyatlar va xususiyatlar to'plami emas, balki yaxlit dinamik ta'lim, shuning uchun biz birinchi navbatda o'qituvchi shaxsiyatining tuzilishi, o'qituvchining professiogrammasi bilan belgilanadigan kasbiy muhim fazilatlari haqida to'xtalib o'tishimiz kerak.

Professiogramma juda keng tushuncha bo'lib, u ko'p jihatlarni o'z ichiga oladi. Psixologik-pedagogik adabiyotlarda o'qituvchining professiogrammasi kasbiy rivojlanish muammolarini hal qilishda muvaffaqiyatni ta'minlaydigan eng muhim shaxsiy va o'ziga xos ishlab chiqarish fazilatlarini, kasbiy bilim, ko'nikma va

qobiliyatlarni oʻzida mujassam etgan oʻqituvchi shaxsining umumlashtirilgan ideal mavhum modeli sifatida qaraladi.

Oʻqituvchi faoliyati va unga zarur boʻlgan son-sanoqsiz kasbiy va ma'naviy fazilatlarni professiogramma doirasiga sigʻdirish qiyin. Shunga qaramay, oʻqituvchining kasbiy muhim fazilatlarini, ya'ni pedagogik faoliyatni samarali bajarishga va pedagogik yuksaklikka erishishga yordam beradigan fazilatlarni ajratib koʻrsatish mumkin.

Oʻqituvchining sifatlarinda biri kreativlik sanalib, ijodiy faoliyat talaba shaxsida fang abo ʻlgan qiziqishin otririshning muhim omilidir. Shaxsda kreativlik sifatlarini rivojlantirish jarayonining umumiy mohiyatini toʻlaqonli anglash uchun dastlab “kreativlik” tushunchasining ma’noni tushunib olish talab etiladi. Ken Robinsonning fikriga koʻra, “kreativlik – oʻz qiymatiga ega original gʻoyalar majmui” (Azzam, 2009 y.) sanaladi. Gardner esa oʻz tadqiqotlarida tushunchani shunday izohlaydi: “kreativlik – shaxs tomonidan amalga oshiriladigan amaliy harakat boʻlib, u oʻzida muayyan yangilikni aks ettirishi va ma’lum amaliy qiymatga ega boʻlishi lozim”. Emebayl (1989 y.)ning yondashuvi nuqtai nazaridan ifodalansa, kreativlik “muayyan soha boʻyicha oʻzlashtirilgan puxta bilimlar bilan birga yuqori darajada noodatiy koʻnikmalarga ham ega boʻlish” demakdir.

Oʻqituvchi shaxsining kasbiy ahamiyatli xususiyatlarining tarkibi juda keng - u bir necha oʻnlab ijtimoiy xususiyatlar bilan bir qatorda bir necha oʻnlab psixologik xususiyatlarni oʻz ichiga oladi. F.N.Gonobolin, V.N.Krutetskiy, N.V.Kuzmina, Yu.N.Kulyutkin, G.S.Suxobskaya kabi mashhur olimlarimiz ilmiy tadqiqotlari oʻqituvchi shaxsining quyidagi asosiy kasbiy sifatlarini aniqlash imkonini beradi:

1. aqliy;

2. didaktik (fan materialini oʻquvchilar uchun ochiq boʻlgan oʻquv predmeti materialiga qayta ishlash qobiliyati va qobiliyati; samarali oʻqitish usullari tizimini qoʻllash va rivojlantirish; fikr-mulohazalarni bildirish va boshqalar);

3. pertseptiv fazilatlar (oʻquvchilarning ruhiy dunyosiga kirib borish qobiliyati va qobiliyati, rivojlangan psixologik kuzatish);

4. tashkiliy fazilatlar;

5. kuchli irodali kasbiy fazilatlar (qiyinchiliklarni engish, qat'iyatlilik, chidamlilik, qat'iyatlilik, talabchanlik va boshqalarni ko'rsatish qobiliyati);

6. kommunikativ;

7. xushmuomalalik;

8. pedagogik tasavvur, diqqatni taqsimlash qobiliyati;

9. shaxsning dinamizmi - ixtiyoriy ta'sir qilish va mantiqiy ishontirish qobiliyati;

10. hissiy barqarorlik (o'zini nazorat qilish qobiliyati);

11. optimistik prognozlash;

12. ijodkorlik.

Umumiy e'tirof etilgan psixologik xususiyatlardan pedagogik tafakkur, pedagogik aks ettirish, pedagogik o'z-o'zini anglash, pedagogik tasavvur, pedagogik o'z-o'zini hurmat qilish, pedagogik kuzatuv, pedagogik prognozlash, bag'rikenglik, empatiya kabilar sifatlar o 'qituvchida kreativlikni rivojlantiradi. Pedagogik tafakkur, pedagogik mulohaza, o'z fikrini, harakatini, harakatini, munosabatlarini va hokazolarni boshqarish qobiliyati qanchalik rivojlangan bo'lsa, pedagogik faoliyat shunchalik samarali, qiziqarli bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda o'qituvchi kreativligi va ijodkorligi talabalar mafkuraviy qarashlarni rivojlantirishdagi ahamiyati haqida to'xatalar ekanmiz, o'qituvchi faoliyati va unga zarur bo'lgan son-sanoqsiz kasbiy va ma'naviy fazilatlar, o'qituvchi professiogramma talabalarni so'g'lom fikrlashga undaydi, ularda axloqiy fazilatlarni shakllantrishga yordamlashadi.

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining "Talim to'g'risida"gi qonuni. T.: 2020 yil 23 sentyabr

2. Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliy janob xalqimiz bilan birga quramiz. "O'zbekiston", 2017.

3. Pedagogik deontologiya va kompetentlik. Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik. Sh.Sh.Olimov. O.R.Ortiqov. –Toshkent: Muharrir nashriyoti, 2022- 414 b

4. Ortikov.O.R Talabalar mafkuraviy immunitetini hamkorlik pedagogikasi asosida rivojlantirish [Matn]: monografiya / O.R.Ortikov – T.: Buxoro: Sadriddin Salim Buxoriy Durdona nashriyoti nomidagi nashriyot 2022.-145 b

5. Ортиков О Р Махалла как социально-культурный очаг народа -Научное пространство: актуальные вопросы …, 2020
6. Ortiqov O R GLOBALLASHUV JARAYONIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA MAFKURAVIY IMMUNITETNI RIVOJLANTIRISH OMILLARI. - Scientific progress, 2021
7. Ortikov O R, D Raximova TALABALAR MAFKURAVIY IMMUNITETNI RIVOJLANTIRISHDA MAHALLANING ROLI VA AHAMIYATI. - Экономика и социум, 2022
8. Ortikov Oybek Rustamovich. O'quvchi-Yoshlarni milliy mafkura ruhida tarbiyalashning mazmuni. Pedagogik mahorat -nazariy va metodik jurnal. Buxoro 2021/6/6. 109-112 bet
9. Oybek Rustamovich O rtikov. MUHAMMAD ABU HOMID IMOM G'AZZOLIY ASARLARIDA ILM-MA'RIFAT VA AXLOQ MASALALARI. MODERN SCIENTIFIC CHALLENGES AND TRENDS jurnali. Polsha. 2022/10/17. 117-120 bet

# BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASH, VATANNI SEVISH, UNI ARDOQLASH, UNGA B O'LGAN MEHR-MUHABBAT, SADOQAT KABI TUYG'ULARNI SHAKLLANTIRISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING O'RNI

***Qodirova Buzulayxo Turg'unovna***
*Andijon davlat pedagogika instituti*
*Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada dars haqida ma'lumot, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, vatanni sevish, uni ardoqlash, mehr-muhabbat, sadoqat kabi tuyg'ularni shakllantirish zamonaviy pedagogik interfaol texnologiyalari to'g'risida fikr yuritilgan.*

***Kalit so'zlar:*** *Vatanparvarlik, ardoqlash, mehr-muhabbat, maqsad, psixologik xarakteriga, qahramonligiga, xalqning baxt- saodati uchun kurashga undaydi.*

***Аннотация:*** *В данной статье рассматриваются современные педагогические интерактивные технологии формирования таких чувств, как знание урока, патриотическое воспитание,любовь к Родине, уважение к ней,привязанность, верность.*

***Ключевые слова:*** *Патриотизм, уважение, доброта, цель, мотивация к психологическому характеру, героизму, борьбе за счастье народа.*

***Annotation:*** *This article reflects on modern pedagogical interactive technologies for the formation of such feelings as lesson information, upbringing in the spirit of patriotism, love of the Motherland, its ardor, affection, loyalty.*

***Keywords:*** *Patriotism, ardor, affection, purpose, motivation to psychological character, heroism, struggle for the happiness of the people.*

Malumki Vatanga muhabbat tuyg'usi insonlarni har doim mehnat qahramonligiga, xalqning baxt-saodati uchun kurashga undaydi. Vatanparvarlik – tug'ma tuyg'u emas. Shuning uchun ham boshlang'ich sinflarda bu tuyg'uni tarbiyalashga muhim o'rin berilgan. Vatan haqidagi boshlang'ich bilimlar bolalarda ularning hayotiy tajribalari zaminida, tevarak-atrofdagi hayot to'g'risidagi muayyan tasavvurlari asosida hosil bo'ladi. Vatan - har bir kishida o'z uyiga, tug'ilib o'sgan yurtiga, eng yaqin kishilari ota-ona, aka-uka, opa-singillariga bo'lgan munosabatida aks etadi. Bolani vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning individual shakllari asosan oilada amalga oshiriladi. U yoki bu masalada hal qiluvchi rolni oila o'ynaydi. Shuning uchun o'qituvchi o'quvchilarning oilalari bilan yaqin hamkorlikni yo'lga qo'yishi, ota-onalarni bolalarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash jarayoniga jalb qilishi kerak. Shunday qilib, ta'lim muassasasida vatanparvarlik ishining muvaffaqiyati o'qituvchilarning axloqiy psixologik xarakteriga, ularning psixologik, pedagogik va kasbiy tayyorgarligiga, o'z vazifalariga munosabatiga, shuningdek, o'quvchilarning ota-onalari bilan samarali hamkorlik qilish qobiliyatiga bog'liq.

Shu òrinda 2-sinf "Ona tili va o'qish savodxonligi"darsligining I-qism 1-bòlimi aynan "Vatanparvarlik nima?" mavzusi bilan boshlanadi va quyidagi rasmlar orqali vatanparvarlik tuyġulari aks etadi:



1. Siz o'zingizni vatanparvar deb hisoblaysizmi? Nima uchun?
2. Qaysi ishlaringiz Vatan uchun foydali bòlgan deb òylaysiz?
3. Qanday ishlar vatanparvarlik hisoblanmaydi?

Yurtga balo kelganida unga qarshi bir yoqadan bosh chiqarib harakat qilish kerakliligini tushuntirish maqsadida Sa'dulla Quronovning "Chumolining jasorati"nomli hikoyasini keltirishimiz mumkin:

Qadim zamonda turli-tuman gul va maysalarga burkangan keng o‘tloq bo‘lgan ekan. U yerda qo‘y-qo‘zilar, kakliklar, tipratikanlar, toshbaqalar bilan birga turli hasharotlar ham ahil-inoq yashar ekan.

Bir yili yoz juda issiq kelibdi. Yomg‘ir deyarli yog‘mabdi. Jazirama quyosh tig‘ida o‘simliklar qurib, qovjirab qolibdi. Shunday kunlarning birida yaylovga o‘t ketibdi. Kutilmagan yong‘in jonzotlarni vahimaga solibdi. Hamma tumtaraqay qocha boshlabdi. Birgina chumoli qochmabdi. U o‘tloq yaqinidagi buloqdan mitti og‘izchasida suv keltirib, olovga purkay boshlabdi. Bu holni ko‘rgan boshqa jonzotlar shunday deyishibdi:

– Ey chumoli, esingni yedingmi?! Sen olib kelayotgan suv zarrasi bilan olov o‘chib qolarmidi? Qo‘y bu ishingni, joningni asra!

Shunda chumoli yumushidan to‘xtamay javob beribdi:

– To‘g‘ri aytasiz, bir zarra suv yong‘inni o‘chirmaydi. Lekin men urinib ko‘rmoqchiman. Chunki bu o‘tloq – mening vatanim. Uni asrash uchun menda zarradek imkoniyat bo‘lsa, shu imkoniyatdan foydalanaman. Chumolining bu gapi o‘tloq ahliga qattiq ta’sir qilibdi. Har tarafga chopayotgan jonzotlar birdan to‘xtab, chumolining ortidan ergashishibdi. Asalari chelakchasida, kaklik tumshug‘ida, qo‘y-qo‘zilar og‘zida suv keltirib, olovni o‘chirishga shoshilishibdi. Xullas, barcha jonzotlar bir yoqadan bosh chiqarib, olovga suv sepishganida xuddi osmondan yomg‘ir yog‘gandek bo‘libdi. Shu tariqa yong‘in o‘chirilibdi.

Hikoya axloqiy va axloqiy tarbiyaning asosiy usullaridan biri bo'lib, jamiyatda qabul qilingan xatti-harakatlar normalari haqida talabalarning g'oyalari va tushunchalarini to'plashni o'z ichiga oladi. Qolaversa, bu usul maktab o‘quvchilarining tajribalariga asoslanadi, ular orqali o‘quvchilar yaxshi va yomonni, adolatli va nohaqni ajrata boshlaydi. Badiiy asarlarni o‘rganishda hikoya qilish va tushuntirish usullarini amalga oshirish mumkin.

Bu hikoyadan xulosa qilib aytishimiz mumkinki, agarda yurtga balo kelsa barchamiz bir yoqadan bosh chiqarmoġimiz, kurashmoġiz darkor.Mana shu kichik bir chumolining Vatanga bòlgan muhabbati, fidoyiligi biz insonlarni ham yurtni sevishga, sodiqlikka undaydi.

Ona – Vatan shunday tushunchaki, u kishi qalbida hech qachon o’zgarmaydi. Vatanga muhabbat tuyg’usi ona suti bilan qonga kiradi. Bu aziz tuyg’uni ona allasi parvarish etadi, voyaga yetkazadi. Inson o’z Vatanida kamol topadi. Qadrlanadi. Hayot maktabini o’taydi. Farovonlik va baxt – saodatga erishadi.Vatan sõzini biz  hamisha ona so’zi bilan yonma- yon ifodalaymiz. Ona – Vatan timsolida biz jamiyatimiz tabiatini, mehribonlik va muvofiqlik poydevoriga qurilgan tuzumimiz xislatini ko’ramiz. O’zbekistonning mustaqilligi tufayli Vatan tarixi moddiy va ma’naviy merosga aylandi. Okean ortidagi mamlakatni birinchi bo’lib kashf etgan Abu Rayhon Beruniy, ne- ne sarkardalar tig’ kuchi bilan ololmagan joylarni qalam kuchi bilan zabt etgan Alisher Navoiy, tibbiyot ilmining asoschisi Abu Ali Ibn Sino, buyuk matematik al –Xorazmiy, kuragi yerga tegmagan sarkarda, yirik davlat arbobi, Amir Temur, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi jahon ahliga mashhur bo’lgan ma’rifatli o’zbek millatining qalbi, aqli, xulqi, bilimi, tili, sarkardorligi bilan hurmat topgan yurtdoshlarimizni butun dunyo biladi,ularga

ham Vatan ona o'rnida ona, ota o'rnida ota bo'lgan. SHuning uchun ham ona zamin, ona –Vatan, ona yer kabi tushunchalar hayotimizga, ongimizga singib ketgan. Necha yuz yillardan buyon ne –ne ulug' farzandlarni o'z quchog'iga olgan ona Yer, ajdodlarmizga onalik qilgan. Ha, u ota-bobolarmizning onasi bo'lgan. U bizning onamiz va kelajak avlodning onasi bo'lajak.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev "Bukilmas iroda va jasorat namunasini amalda namoyon etib, o'z hayotini aziz Vatanimizning har tomonlama ravnaq topishi, bugungi tinch va osoyishta kunlar uchun jonini fido qilgan ajdodlarning muqaddas xotirasini yod etib, ezgu ishlarini davom ettirish, safimizda yurgan keksalarni e'zozlash — odamiylikning eng oliy mezoni va bizga tinchlik, omonlik kerak, deb yashaydigan bag'rikeng va oliyjanob xalqimizga xos azaliy qadriyatdir", - deb xalqimizning necha asrlardan buyon yagona orzu – ona –Vatan sog'inchi bilan yashaganini juda to'g'ri ta'kidlaydilar. Kelajakda buyuk davlat darajasiga ko'tarilish maqsadi yo'lida intilayotgan Òzbekiston Vatani – xalq hayoti, turmush tarzi, urf-odatlari, ma'naviy qadriyatlarini o'zida mujassamlashtirmoqda. Vatanparvarlik – bu ona zaminga bo'lgan muhabbat, uni sevish, e'zozlash. Uning ravnaqiga har bir fuqaroning o'z hissasini qo'shishga erishish. Vatanparvarlik - bu ona- Vatan, mustaqil O'zbekiston tushunchalarini o'z ongiga singdirish va unga sodiq bo'lishga erishish. Vatanparvarlik - bu Vatanimiz xalqiga, uning an'analariga, tili va madaniyatiga muhabbat va hurmat bilan qarash hamda uni rivojlantirishga o'z xissasini qo'shish, uning haqiqiy jonkuyari bo'lish.

Vatanparvarlik – bu o'zbek xalqining qadim- qadimlardan Turon, Turkiston deb atab kelingan ko'xna zaminning tarixini bilishga erishish. Vatanparvarlik – bu o'zbek xalqining madaniy meroslari hisoblangan madaniyat, san'at, me'morchilik yodgorliklarini asrab –avaylash va ularnitng tarixi hamda bugungi kundagi ahamiyatni bilish. Vatanparvarlik - bu o'z millatiga, ona-yeriga, imoniga sodiqlikdir. Vatanparvarlik – bu sog'lom kuchlar, sog'lom tafakkur egalari, dini, imoni pokizalikdir. Vatanparvarlik – bu Vatan oldidagi mas'uliyat, millat manfaati bilan yashash. Vatan taraqqiyoti, milliy obro'siga hissa qo'shish, foyda keltirish, fidoyilik, halollik bilan mehnat qilish, xalqning shon –shuxrati va manfaatini o'ylash, insonparvar bo'lish demakdir. Vatanparvarlik – bu har bir kishining o'z xalqiga bo'lgan fidoyiliklari va xalq dardini o'z dardlaridek o'ylab yashash,

O'zbekistonning buyuk davlat bo'lishiga hissa qo'shishdir. Vatanparvarlik – shaxsni axloqiy shakllantirishning eng muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Shuning uchun ham bolalarda vatanparvarlik tuyg'usi go'daklikdan boshlab shakllantirilsa, u so'nggi nafasgacha boqiy bo'ladi.

Yosh avlod tarbiyasi ko'p qirrali jarayondir. Bolalarning jismoniy va ma'naviy salomatligini tarbiyalashning ustuvor yo'nalishlari deb hisoblanadi; intellektual rivojlanish; shaxs madaniyati va ma'naviy qadriyatlarni shakllantirish; fuqarolik va vatanparvarlik tarbiyasi; estetik va mehnat tarbiyasi; maktab o'quvchilarining hayot rejalarini shakllantirish, oilaviy hayotga tayyorlash va boshqalar.

Pedagogik vazifalarni amalga oshirish uchun sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarning turli shakllari qo'llaniladi: Sinfdan tashqari mashg'ulotlarda vatanparvarlik tarbiyasi turli shakllarni o'z ichiga oladi:

Sinf soati, Ota onalar majlisi, Ekskursiya, Bayram, Davra suhbati, Musobaqa, viktorina, KVN, Qiziqarli odamlar bilan uchrashish va h.k.

Har qanday maktabda bolalar uchun maktabdan tashqari mashg'ulotlarni, shu jumladan bo'sh vaqtni tashkil etish har doim o'qituvchilar uchun juda muhim faoliyat sohasi bo'lgan va shunday bo'lib qoladi. Darslarga qo'shimcha ravishda bolalar bilan mashg'ulotlar, ular bilan kamroq yoki ko'proq erkin muhitda muloqot qilish ularning rivojlanishi va tarbiyasi uchun muhim va ko'pincha hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Hozirgi kunda barcha sohada, balki pedagogikada ham AKT dan unumli foydanilmoqda. O'quvchilar bilan ishlashda AKT dan foydalanish dars o'tish jarayoning eng samarili usularidan hidoblanadi.

Mamlakatimizda ta'lim tizimida maktab fanlarini o'qitishda AKT'dan samarali foydalanish dolzarb masaladir. Aynan axborot texnologiyalari ta'limning universal vositasi hisoblanib, nafaqat o'quvchilarda bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish imkonini beradi, balki shaxsiy xususiyatlarini rivojlantirish, bilishga qiziqishlarini qondiradi.

Ma'lumki, boshlang'ich ta'lim — ta'lim tizimining poydevori hisoblanib, o'quvchilarni o'qitish sifati unga bog'liq bo'ladi va bu boshlang'ich maktab o'qituvchisi zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi. Uzoq vaqt davomida ta'lim

tizimida boshlang'ich maktab «ko'nikmalar maktabi» bo'lib keldi, ya'ni o'quvchi keyingi ta'lim olish uchun o'qish, yozish, hisoblash kabi asosiy ko'nikmalarni o'zlashtirishi kerak bo'lgan ta'lim bosqichi sifatida qaralgan. Bugungi kunda boshlang'ich maktab boshqacha tasavvur etiladi. Bugungi kunda u ta'lim tizimida bolaning birinchi tajribasi — ta'lim olish kuchlarini sinash joyi bo'lib qolishi kerak. Ushbu bosqichda faollikni, mustaqillikni rivojlantirish, idrok etish faolligini saqlab qolish va bola ta'lim dunyosiga shaxdam kirib borishi uchun sharoitlar yaratish, uning salomatligini va emotsional xususiyatlarini mustahkamlash muhim. Bugungi kunda o'quvchilarning aynan mana shu sifatlari ta'lim jarayoniga AKT'ni joriy etish bilan rivojlanayotganligining guvohi bo'lmoqdamiz.

Har bir o'quvchida shaxsiy o'quv yo'nalishini rivojlantirishni ta'minlaydi. O'quv jarayonida uni muvaffaqiyatli bilim olish uchun zarur bo'lgan asosiy jarayonlar sifatida fikrlashni, tasavvurni rivojlantirishga yo'naltirilgan katta o'zgarishlar sodir bo'ladi; o'quvchilarning idrok etish faoliyatlarini samarali tashkil qilish ta'minlanadi.

AKTdan foydalanilganda ta'limda shaxsga-yo'naltirilgan yondashuvni amalga oshirish oson bo'lib qoldi, butun o'quv jarayonini samarali tashkil qilish imkoniyati paydo bo'ldi. Dars jarayonida tayyor multimediali mahsulotlari va kompyuter ta'limi dasturlaridan, o'quv va sinfdan tashqari ishlarda Internet tarmog'i vositalaridan foydalanib, multimediali ta'lim dasturlari va taqdimotlar, loyihalar yaratildi. Axborot texnologiyalarini barcha o'quv fanlarda qo'llash mumkin. Darslarda o'quv va o'yin dasturlaridan foydalanish katta samara beradi.

Ona tili va Rus tili darslarida savodxonlikni oshirish bo'yicha mashqlar yordam beradi, bunda bolalar kompyuterlarda turli xildagi amaliy topshiriqlarni bajaradilar. Boshlang'ich sinflar o'quvchilari uchun turli didaktik materiallar to'plamidan foydalanib, ko'rgazmali-mashq, nazorat-mashqlari va test sinovlari modullari kiritilgan aralash kompyuter dasturlarini tayyorlash mumkin. Unga fanga oid qoidalarni joriy o'rganish va umumlashtirilgan takrorlash uchun uchta variantlarda berilgan grammatikaorfografik mavzular bo'yicha boy va turli-tuman materiallardan foydalanish yaxshi samara beradi.

Masalalarni yechishda kompyuterli animatsion slaydlardan foydalanish darsning qiziqarliligini oshiradi. Ularning ustunlik tomonlari istagan paytda

masalaning boshiga qaytish mumkin, uning alohida qismlarida toʻxtalish, oʻquvchilar bilan suhbatlashish, ularning fikrlarini tinglash mumkinligidan iborat.

Boshlangʻich sinflarda harakatlanishga animatsiyali masalalar bilan slayd-filmlarni qoʻllash mumkin. Shunday slaydlarni yaratish uchun Internetdan olingan animatsion kartinkalardan foydalanish mumkin.

**Фойдаланилган адабиётлар**

1. Sh.Mirziyoyev Erkin va farovon, demokratik Oʻzbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent - "Oʻzbekiston"-2016.

3. Abdullayeva Q. va boshqalar. Savod o`rgatish darslari. -T.:O`qituvchi , 2012 y.

4. Fuzailov S., Xudoyberganova M. Ona tili. 3-sinf darsligi. Toshkent:O`qituvchi , 2017 y.

5. Ikrova R., G`ulomova Ona tili" 4-sinf darsligi. Toshkent:O`qituvchi, 2017y.

6. Mahmudov M. Ta'lim natijasini loyihalash. // «Pejagogik mahorat», 2003 yil, 1-son, 8-10 betlar.

7. Qosimova K., Matjonov S., G`ulomova X., Yo`ldosheva Sh., Sariyev Sh. Boshlang`ich sinflarda ona tili o`qitish metodikasi. -T.: TDPU, 2009

8. Qosimova K., Fuzailov.S., Ona tili 2-sinf darsligi. Toshkent: Cho`lpon, 2017

9. Tarbiya . O`zbekiston milliy ensiklopediyasi. Toshkent,2010.

10. Safarova R., Inoyatova M., Shokirova M., Shermamatova L., Alifbe 1-sinf uchun darslik. Toshkent: Ma'naviyat, 2017y.

## ONA TILI VA OʻQISH SAVODXONLIGI DARSLIKLARIDA MILLIY QADRIYATLARNING AHAMIYATI

***Nuriddinova Azizaxon Bahromjon qizi***
*Nmanagan davlat universiteti talabasi*

***Annotatsiya:*** *Ona tili va oʻqish savodxonligi darsliklarida milliy qadriyatlarning ahamiyatini oʻqitishda asosiy e'tibor oʻquvchida tilga doir toʻrt koʻnikma: oʻqib tushunish, tinglab tushunish, nutq soʻzlar va yozish xamda grammatik savodxonlikni shakllantirishga qaratiladi. Mazkur maqolada shu haqida soʻz yuritib, kengroq bayon qilishga harakat qilamiz.*

***Kalit so'zlar:*** *O'qish savodxonligi, kitobxon, kreativ, kashfiyotchilik, kommunikativ, interaktiv, kitoblar.*

***Abstract:*** *In the teaching of the importance of national values in the textbooks of mother tongue and reading literacy, the main attention is paid to the formation of four language skills: reading comprehension, listening comprehension, speaking and writing, as well as grammatical literacy. We will talk about this in this article and try to give a more detailed explanation.*

***Keywords:*** *Reading literacy, reader, creative, discovery, communicative, interactive, books.*

***Аннотация:*** *В обучении значимости национальных ценностей в учебниках родного языка и читательской грамотности основное внимание уделяется формированию четырех языковых навыков: чтения, аудирования, устной и письменной речи, а также грамматической грамотности. Об этом мы поговорим в этой статье и постараемся дать более подробное объяснение.*

***Ключевые слова:*** *Читательская грамотность, читатель, креатив, открытие, коммуникативный, интерактивный, книги.*

Ona tili va o'qish savodxonligi darslarida milliyo'quvchida to'g'ri, tez, ongli ifodali o'qish malakalarini shakllantirish, ularni oddiy kitob o'quvchidan chuqur muloxaza yurituvchi ijodkor kitobxon darajasiga ko'tarish o'qish orqali tevarak atrof borliq xaqidagi bilimlarni kengaytirish, ularning dunyoqarashini boyitish xar qanday uslubdagi matnni o'qish va uni anglash, tanqidiy kreativ fikrlash ko'nikmasini egallash nazarda tutiladi.[1] Ta'lim berishda kommunikativ yondashuvga asoslaniladi, ya'ni tilning muloqot vazifasi birlamchidir. Shuningdek faoliyatga yo'nalgan yondashuv, ongli yondashuv, kashfiyotchilik yondashuvi farqli va tanqidiy yondashuv kabilar e'tiborda bo'lishi lozim.

O'qish savodxonligini o'rgatishda kommunikativ yondashuv, ya'ni tilning muloqot vazifasi birlamchi hisoblanib, integrativ, faoliyatga yo'naltirilgan, onglilik, kashfiyotchilik, farqli va tanqidiy yondashuvlar e'tiborda bo'lishi lozimligi ta'kidlanadi. Ona tili va o'qish savodxonligi fanini o'qitishda tamoyillar belgilangan bo'lib, to'rt tamoyilda o'qish savodxonligi doirasida o'quvchida to'g'ri, tez, ongli, ifodali o'qish malakalarini shakllantirish, ularni oddiy kitob o'quvchidan chuqur

mulohaza yurituvchi, ijodkor kitobxon darajasiga ko‘tarish; o‘qish orqali tevarak-atrof, borliq haqidagi bilimlarini kengaytirish, ularning dunyoqarashini boyitish; tafakkurida elementar adabiy tushunchalarni shakllantirish; har qanday uslubdagi matnni o‘qish va uni anglash, tanqidiy va kreativ fikrlash ko‘nikmasini oshirish nazarda tutilganligi ko‘rsatib o‘tilgan.

O‘qish savodxonligi - jamiyat tomonidan talab qilinadigan va inson tomonidan qadrlanadigan yozma tilning shakllarini idrok etish va amaliyotda qo‘llay olish qobiliyatidir. O‘qish savodxonligi jamiyat tomonidan talab qilinadigan va inson tomonidan qadrlanadigan yozma til shakllarini tushunish va ulardan foydalanish, shuningdek, matnlardan turli shakllarda ma’no hosil qila olish qobiliyati hamdir. Ushbu nuqtayi nazar o‘quvchilarning o‘qishdan olingan ma’lumotlardan foydalanish qobiliyatiga tobora ko‘proq e’tibor qaratadigan zamonaviy jamiyatda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Asosiy e’tibor tushunishni namoyon qilishdan o‘zlashtirilgan ma’lumotlarni qanday qilib yangi loyihalar va vaziyatlarda qo‘llay olish qobiliyatlarini namoyon qilishga qaratilmoqda.O‘qish savodxonligiga o‘rgatishda konstruktiv va interaktiv jarayon sifatida ko‘plab o‘qish nazariyalariniaks ettiradi.[2]

O‘z milliy qadriyati bo‘lmagan millat yoki elat yo‘q. Millat milliy qadriyatlarining sohibi. Millatning tanazzuli milliy qadriyatlarning tanazzulidir. Milliy qadriyatlar millatning tarixi, yashash tarzi birligi, kelajagi, uni tashkil etgan avlodlar, ijtimoiy qatlamlar, millat, ong, til, ma`naviyat hamda madaniyat bilan uzviy bog‘liq holda namoyon bo‘ladi.[3] Milliy qadriyatlarimizda jahonning boshqa xalqlariga o‘xshamaydigan boshqa urf-odatlar, rasm-rusumlar, marosimlar va an`analaridagi o‘ziga xoslik ham bor. Ma`lumki, qadriyatlar muayyan sharoitlarda shakllanadi. Shu sababli ular mahalliy, milliy, mintaqaviy shakllar va umuminsoniy mazmunda mavjud bo‘ladi. Mahalliy qadriyatlarning eng yetuklari va umummilliy manfaatlarga moslari asta-sekin saralanib umummilliy darajaga ko‘tariladi. O‘qish madaniyati – kitob bilan ishlash bo‘yicha ko‘nikmalar to‘plami, shu jumladan mavzularni ongli ravishda tanlash, o‘qishning tizimli va ketma-ketligi, shuningdek bibliografik vositalar yordamida kerakli adabiyotlarni topish, ma'lumotnoma va bibliografik apparatdan foydalanish, oqilona usullarni qo‘llash, o‘qilgan narsalarni (tezis, eslatma yozish, izohlash, o‘zaro tanishish va boshqalar)

maksimal darajada o'zlashtirish va chuqur anglash, bosma asarlarga ehtiyotkorlik bilan ishlov berish darkor. Kitob o'qish madaniyati - bu shaxs bilan umumiy madaniyatning ajralmas qismi bo'lib, u kitob bilan ishlash, shu jumladan mavzularni ongli tanlash, tizimli va izchil o'qish, shuningdek kerakli adabiyotlarni topa olish ko'nikmalarining to'plamidir.

Milliy qadriyatlar insonlarning bir-birlariga mehr-oqibati,sadoqati, urf-odatlari, g'oyaviylik, mehnatsevarlik, xushmuomalalik, halollik, insonparvarlik, birodarlik, mustaqillik, tartiblilik, mas'uliyatlilik, taraqqiyparvarlik singari mazmun va fazilatlarni o'zida aks ettiradi. Xalqning madaniy qadriyatlari, ma'naviy merosi ming yillar mobaynida Sharq xalqlari uchun qudratli ma'naviy manba bo'lib xizmat qilgan. Uzoq davom etgan qattiq mafkuraviy tazyiqqa qaramay, O'zbekiston xalqi avloddan avlodga o'tib kelgan o'z tarixiy va madaniy qadriyatlarini hamda o'ziga xos an'analarini saqlab qolishga muvaffaq bo'ldi. Yosh o'quvchilarga ona tili va o'qish savodxonligi darsliklarida milliy qadriyatlarni qanchalik muhim ekanligini yuqoridagi misollar orqali ko'rib chiqdik. Ularning ongiga bunday milliy qadriyatlar tez ta'sir qiladi. [4]

Xulosa qilib aytganda, ona tili va o'qish savodxonligi darsliklarida milliy qadriyatlarning ahamiyatini o'qitish , tasvirlagan voqealar, harakatlar va oqibatlar o'quvchilarga haqiqiy hayotniyoritibgina qolmay, tasavvur qilishlari mumkin bo'lgan vaziyatlarni bilvosita his qilish va aks ettirishga imkon beradi. Milliy qadriyatlar namunalarini tushunish orqali o'quvchi ongosti uzvlaridagi strukturalarni o'zgartira oladi. Anglashlar asnosida harakterlar o'zgaradi, yaxshi fe'l-atvor, olijanob qarashlar shakllanadi.[5]

## Foydalanilgan adabiyotlar:

1. AvloniyA.Turkiy guliston yoxud axloq.-Toshkent: O'qituvchi, 2017. 2.Abdullayev M. va boshqalar. Mustaqillik: Izohli ilmiyommabop lug'at.-Toshkent: Sharq, 2001.
3. Erkayev.Ma'naviyat-millatnishoni.Toshkent: Ma'naviyat, 2004.
4. Ibragimov B. Yoshlar tarbiyasining dolzarb masalalari.- T., 2009
5.Ibrohimov,H.Sultonov,N.Jo'rayev.Vatantuyg'usi.– Toshkent: Sharq, 1996.

# ЎҚУВЧИ ЁШЛАРНИ ВАТАНПАРВАРЛИК РУҲИДА ТАРБИЯЛАШДА ИЖТИМОИЙ БУРЧ МУНОСАБАТЛАРИНИНГ ЎРНИ ВА РОЛИ

***Сулайманбеков Ойбек Дусбекович***

*Самарқанд давлат ветеринария медицинаси, чорвачилик ва биотехнологиялар университетининг Тошкент филиали тадқиқотчиси*

***Аннотация.*** *Ушбу мақола ижтимоий бурч, ижтимоий муносабатлар тадқиқига бағишланган бўлиб, унда ижтимоий бурч ва ижтимоий муносабатларнинг бугунги кундаги аҳамияти, унинг таълим-тарбия тизимидаги тутган ўрни ёритилган. Бугунги ахборотлашув ва глобаллашув жараёнлари, шиддат билан кенг тарқалаётган бир даврда айнан ўқувчи ёшларни ватанпарварлик руҳида тарбиялашда ижтимоий бурч муносабатларини шакллантириш долзарб масала саналади.*

Юртимиз миллий мустақиллигимизни қўлга киритганидан кейин олий ва ўрта махсус таълимнинг, бошланғич ва умумий ўрта таълим тизимининг ташкилий, таълимий ва тарбиявий жабҳаларида тубдан инновацион ўзгаришлар кузатилмоқда. Бугунги кунда илм-фан соҳасида таълим-тарбия берувчи педагог-ходимларда ижтимоий жавобгарлик ҳиссининг шаклланганлик даражаси энг муҳим тушунчага айланган бир даврда ўқувчи ва талаба ёшларнинг ижтимоий тайёргарлигига давлатимиз томонидан катта эътибор қаратилмоқда. Бугунги кун таълим-тарбия берувчи педагог ходимларнинг ноодатий ижтимоий ҳолатларга дуч келаётгани улардан ижодий ёндашувни, қолаверса, жавобгарлик ҳамда ижтимоий бурч ва масъулиятни талаб қилаётгани бунинг сабаблари сифатида қаралмоқда.

Ўқувчи ва талаба ёшларимизни ватанпарварлик руҳида тарбиялашда таълим-тарбиянинг педагогикага оид изланишлари бугунги кунда жамиятимиз ҳаётида шуни кўрсатмоқдаки, ўқувчи ва талаба ёшларнинг ижтимоий компетентлилиги муҳим ҳодиса сифатида алоҳида таъкидланаётганлиги фуқароларимизда, жумладан ўқувчи ёшларда ижтимоий жавобгарлик, бурч ҳиссининг ҳаётий заруриятга айланганидан далолат беради. Ижтимоий бурч ва

мажбуриятлар – жамият олдида унда қабул қилинган тартиб ва меъёрларга амал қилиш нуктаи назарини ифодаловчи жавобгарлиги экан, демакки, у ўқувчи ёшларнинг бошқа жамият аъзоларига бўлган муносабатини ҳам белгилаб беради.

Бугунги янгиланаётган янги Ўзбекистон жамияти янги бир босқичга қадам қўяётган бир даврда ижтимоий бурч ва ижтимоий масъулият ҳиссини ўзида шакллантира олган таълим-тарбия соҳасининг илғор вакиллари, мутахассислари жамиятимизнинг “драйвер”ларига айланади. Жамиятимизнинг бош қомуси бўлган конституциямизда ва таълим-тарбия тизимидан шу нарса яхши маълумки, ҳар бир ўқувчи ва талаба ёшнинг ҳатти-ҳаракатлари ҳуқуқ нормалари ёки одоб - ахлоқ нормалари нуктаи назаридан баҳоланади. Ҳар бир ўқувчи ва талаба ёшнинг жамиятга нисбатан масъулият билан ҳаракат қилиши учун ёшларимиз, биринчи навбатда, ўз хуқуқ ва бурчларини, мажбуриятларини ва масъулиятларини, бу ҳаракатларнинг олиб келиши мумкин бўлган ижтимоий оқибатларини инобатга олган ҳолда амалга ошираётган ишларининг энг мақбул варианти, усул ва воситаларини билиши талаб этилади. Шунингдек, ўзлаштирган билимларга таяниб, тўлиқ ижтимоий бурч ва масъулиятни ҳис этган ҳолда ўз олдиларига реал мақсадларни қўйиши ва уларга эриша олиши лозим. Бунинг ижобий натижаси атрофимиздаги оламга масъулиятли муносабатда бўлиш, маънавий-хуқуқий ва ахлоқий нормаларга риоя этиш, соғлом турмуш тарзи, экологик меъёр ва мезонларни таъминлашда фаол иштирокида кўзга ташланади.

Демак, бундан шу нарса маълум бўладики янгиланаётган Ўзбекистон жамиятимизнинг фуқароларини ва ўқувчи ёшларимизни ижтимоий-экологик тарбиялаш муаммоси табиий, ижтимоий-табиий ва ижтимоий омилларнинг узвий боғланган тизими билан боғлиқ янгича ёндашувни тақозо этиши маълум бўлади.

Инсоният тарихидан шу нарса яхши маълумки ҳамма замонларда хам ижтимоий-экологик бурч масаласи энг долзарб мавзулардан бири бўлиб келган. Бу масала бугунги кунда ҳам мамлакатимизда ва хориж мамлакатларида

ҳозирги кунгача илмий изланувчилар ҳамда олимларнинг тадқиқотлари предметига айланган.

Ўқувчи ёшларда бурчни тарбиялаш муаммоси МДҲнинг қатор тадқиқотчилари, хусусан, А.И.Крупнов, В.П.Прядин, А.И.Голубев, Н.П.Дубинин, Т.Ф. Иванова, В.С.Агеев, Г.М.Андреева, Г.В.Ковалева, К.Муздыбаев, Н.И.Скорбилин, А.Адлер, Р.Мэй, В.А.Розановалар томонидан турли нуқтаи назарларда ўрганилган.

Хорижий тадқиқотчилар томонидан ушбу мавзуни турли ҳодиса, тушунча ва нуқтаи назар, жумладан, ижтимоий жавобгарликни ахлоқий категория сифатида (L.Kolberg, J.Piaje, G.Sartr ва б.), бурч тадқиқини тизимли ёндашув сифатида (А.Крупнов, В.Прядеин ва б.), ижтимоий ва шахсий жавобгарлик муносабатларини тадқиқот объекти сифатида (A.Adler, R.Mey ва б.) ўрганилган.

Педагогика тарихи ва назариясида шахснинг ижтимоий жавобгарлик, масъулиятини шакллантириш масалалари жиддий тадқиқ этилганлиги соҳавий адабиётлар таҳлилидан аён бўлса-да, ўқувчиларни ватанпарварлик руҳида тарбиялашда ижтимоий бурч муносабатларини шакллантиришни тадқиқ этиш эътибордан четда қолмоқда. Айнан ўқувчи ёшларда ижтимоий бурч ҳиссини ва ижтимоий муносабатларини таркиб топтиришнинг педагогик асосларини тадқиқ этиш, уни такомиллаштириш зарурати мавзуимизнинг долзарблигини белгилаб беради.

Шарқ мамлакатлари педагогика тарихидан, жумладан ўзбек миллий давлатчилик тарихимиздан шу нарса яхши маълумки қадим замонлардан буён юртимизда аждодларимиз, ота-боболаримиз томонидан таълим ва тарбия масаласига жуда катта эътибор қаратиб келишган. Бугунги замонавий педагогикамизда ҳам ушбу муаммо таълимнин барча босқичлари: мактабгача таълим, умумий ўрта таълим, олий таълим муассасалари диққат марказида эканлигини соҳага доир қабул қилинаётган таълимий меъёрий ҳужжатлар таҳлилидан маълум бўлади. Демакки, бизнинг ўқувчи ёшларимиз етук билимли мутахассис бўлишлари билан бир қаторда, жамиятимизда ҳурмат-иззатга сазовор шахс сифатида тарбияланиши мақсад қилинади. Инсон тарбияси, ўз навбатида, ижтимоий бурч билан чамбарчас боғлиқдир. Айнан

мактаб ўқувчиларида ижтимоий бурч ҳиссини уйғотиш ва ижтимоий муносабатлар тизимини шакиллантириш бугунги глобаллашув жараёнлари шиддат билан ривожланиб бораётган, “ Ғарб оммавий маданияти”, ахборот хуружлари ҳар томондан кириб келишга ҳаракат қилаётган бир даврда таълим тизими ходимлари ва ўқитувчи педагогларимиз олдида турган энг муҳим вазифалардан саналади.

Ижтимоий бурч ва ижтимоий муносабатлар муаммоси ахлоқий тарбиянинг асосий масалаларидан биридир. Бурч ҳиссини ва бу юксак ҳисга садоқатли бўлишни ўқувчи ёшларимиз онги ва тафаккурида таркиб топтириш ҳамма вақт янгиланаётган жамиятимизнинг доимо диққат марказида туради. Ўзбекистонимиз хуқуқий ва демократик давлатдан фуқаролик жамияти сари аста-секинлик билан ривожланишда давом этар экан хуқуқий демократик жамият аъзоси, жумладан ўқувчи ёшларимиз аҳлоқ нормаларидан бири бўлган – ижтимоий бурчни ва ижтимоий муносабатлар тизимини юқори даражада англаши ва жамоат тартибига амал қилиши талаб этилади.

Бугунги кунда умумтаълим мактабларида ҳар бир ўқувчи шахсига алоҳида ёндашиш мақсадида, ҳар бир таълим олувчи ўқувчи ёшларга ўзларининг ички имкониятларидан келиб чиқиб, мустақил ўқиш ва ўрганиш, ўз қобилиятларини эркин намоён этишлари, маънавий етук кадр бўлиб етишишлари учун энг мақбул шарт-шароитлар яратилмоқда. “Янги Ўзбекистон”нинг замонавий мактаблари ёш авлодда юксак ижтимоий бурч ҳиссини тарбиялаш ва ижтимоий муносабатлар тизимини шакллантиришни кундалик эҳтиёжга айлантириш юзасидан кўплаб ишлар қилинмоқда. Бунинг натижаси ўларок ўқувчи ёшлар томонидан қўлга киритилаётан халқаро ютуқлари бугунги кунда бутун Ўзбекистон халқига, ҳаммамизга яхши маълум. Хусусан, ақл математикаси – шахмат бўйича Н.Абдусатторов, У.Омонова, ака-ука Синдоровлар каби ўнлаб жаҳон чемпионлари, Ф.Собиров, Н.Нормуродова каби юзлаб халқаро фан олимпиадалари совриндоралари фикримизнинг ёрқин исботидир. Мустақил Ўзбекистонимизда таълим олаётган ана шу каби ёшларимиз давлатимизнинг оқилона олиб бораётган сиёсати раҳбарлиги остида юртимиз байроғини баланд кўтараётгани бизни қувонтиради.

Бироқ таълим-тарбия соҳасидаги улкан ютуқларимизга қарамай, ўқувчи ёшларда юксак ахлоқий сифатлар, хусусан, ижтимоий бурч ҳиссини таркиб топтириш, ижтимоий муносабатлар тизимини шакиллантириш масалалари тўла-тўкис ҳал қилинган, дея олмаймиз.

Хулоса қилиб айтадиган бўлсак соҳавий психологик ва педагогик адабиётлар таҳлили шуни кўрсатадики, ўқувчи ёшлар таълим жараёнида юксак ахлоқий сифатлар, шу жумладан, ижтимоий бурчни англаш ва ижтимоий муносабатлир тизимини тўла англаб етиш ҳамда унга садоқатли бўлиш билан боғлиқ бўлган сифатларни эгаллашлари узоқ вақт ва меҳнатни талаб этади. Бу борада ўқувчи ёшларга амалий ёрдам беришда оила, маҳалла ва мактаб ҳамкорлигини яхши йўлга қўйиш муҳим аҳамият касб этади. Шарқона ва ўзбекона тарбияда бола авваламбор тарбияни оиласидан олади. Оиладаги ота-она ва фарзандлар ўртасидаги мулоқот маданияти жуда муҳим аҳамиятга эга. Бола оиласида яхши хулқ атвор доирасида тарбия топса, мактабда ҳам, маҳаллада ҳам шу олган тарбияси доирасида ҳатти-ҳаракат қилади.Оилада яхши тарбия топган ҳар бир ўғил қиз ижтимоий бурч ҳиссини тўла англаб етади, жамиятнинг одоб-ахлоқ меъёрларига тўлиқ амал қилиб яшайди.

**Адабиётлар рўйхати**

1. Президент Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга ва Ўзбекистон халқига мурожаатномаси. 2021 йил декабрь
2. Президент Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга ва Ўзбекистон халқига мурожаатномаси. 2022 йил декабрь
3. И.Каримов. Жамиятимиз мафкураси халқни – халқ, миллатни – миллат қилишга хизмат этсин.Т.: "Ўзбекистон",1998
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 5 июлдаги ПФ-5106-сон фармони "Ёшларга оид давлат сиёсати самарадорлигини ошириш ва Ўзбекистон ёшлари иттифоқи фаолиятини қўллаб-қувватлаш тўғрисида" Тошкент шаҳри, 2017 йил 5 июль
5. Баратов Ш. Ўқувчи шахсини ўрганиш усуллари. — Т.: Ўқитувчи, 1995. — 53 б.

6. Иномова М. Оилада болаларнинг маънавий-ахлоқий тарбияси. — Т.: Низомий номидаги ТДПУ, 1999. — 152 б.

7. Олий таълим (луғат-маълумотнома) /Акад.С. Ғуломовнинг умумий таҳрири остида. Тузувчилар: М.Х. Саидов, Л.В. Перегуров, З.Т. Тоҳиров. — Тошкент: Молия, нашриёти, 2003. — 456 б.

8. Тарбия /Ота-оналар ва мураббийлар учун энциклопедия. Тузувчи: М.Н. Аминов. Масъул муҳаррир: А. Мажидов. — Тошкент: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2010. — 528 б.

9. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. Иккинчи жилд. Е — М. — Тошкент: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2006. — 671 б.

10. Ўқувчиларда ўқув фаолиятига масъулият ҳиссини тарбиялаш (Оилада ва синфдан ташқари вақтларда) //Тузувчилар: М.Ш. Алламуратова, Г. Жўрабоева. — Т.: ЎзПФИТИ, 1990. — 37 б.

# SPORTCHI SHAXSIDA O'ZIGA BO'LGAN ISHONCH VA DADILLIK XISSINING SHAKLLANISHI

***А. Қахрамонбеков***

*НамДПИ Жисмоний маданият йўналиши 1-курс талабаси*

*Илмий раҳбар:* ***Д.Ориббоева***

***Annotatsiya*** *Ushbumaqolada sportchi shaxstining rivojlanishida o'ziga bo'lgan ishonch vadadillik hissining shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar to'g'risidagi fikrlar bayon etilgan.*

***Kalit so'zlar***: *psixika, dadillik, ishonch, xulq atvor, muloqot, muvafaqqiyat, g'alaba.*

***Аннотация****В данной статье описаны факторы, влияющие на формирование уверенности в себе и целеустремленности в развитии личности спортсмена.*

***Ключевые слова:*** *психика, смелость, уверенность, поведение, общение, успех, победа.*

***Annotation****This article describes the factors that influence the formation of self-confidence and purposefulness in the development of the athlete's personality.*

***Keywords:*** *psyche, courage, confidence, behavior, communication, success, victory.*

Yoshlar bizning ertangi kunimiz, shu bois ham har jihatdan barkamol bo'lgan avlod eng avvalo oila muhitida shakllanib boradi. Jamiyatda yoshlarni har tomonlama yetuk rivojlanishiga nafaqat tashqi muhit va omillar to'sqinlik qilmoqda, balki ularning o'z ichki ruhiy hissiyotlarida namoyon bo'layotgan ko'pgina salbiy kechinmalar ham ular oldidagi katta muammo bo'lib hisoblanadi. Ma'lumki, aksariyat sporchilarda mavjud bo'lgan, o'ziga past baho berish, o'ziga ishonmaslik, xavotirlanish, hayajonlanish, dadillikning yetishmasligi va boshqa ko'pgina psixologik omillar, uning turfa xil musobaqalardagi ishtirokida o'ziga xos salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Ma'lumki, sportchi shaxsining taraqqiyoti o'ziga xos bosqichlarni qamrab oladi. Xususan, ularda shaxs sifatlarining taraqqiyoti o'z navbatida fiziologik jarayonlar bilan uyg'un holda kechishi kuzatiladi. Bu esa o'z navbatida turli yosh davrlaridagi sportchi shaxsi taraqqiyotida ma'lum bir qiyinchiliklarni yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Ta'kidlab o'tish kerakki, ayrim yosh davrlaridagi sportchining shaxs sifatidagi taraqqiyotida yuz beradigan hissiy-irodaviy jarayonlaridagi o'zgarishlar ularni faoliyatlarini izdan chiqishiga hamda shaxsiga xos sifat va xususiyatlarini rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Bu esa o'z navbatida bu davrlarda o'z-o'ziga nisbatan ishonch va dadillik sifatining taraqqiyoti qay darajada kechishini o'rganish muammoning dolzarbligini belgilab beradi. Ma'lumki insonda o'ziga bo'lgan ishonch hissining mavjud bo'lishi, ulardagi o'zini menini va burchini to'g'ri anglagan holda harakat qilishga, o'zgalar manfaatiga zarar yetkazmagan holda o'zining imkoniyatlari darajasini oqilona baholashlariga ta'sir ko'rsatadi. Bundan tashqari sportchi shaxsida ishonch va dadillik sifatining tarkib topganligi ularda ijobiy xulq-atvor xususiyatlarini rivojlanishiga va mustaqil bo'lishga xizmat qilib, e'tiqod, ishonuvchanlik, muloqotchanlik sifatlarini taraqqiyotini oshirishga, jamoa va oila munosabatlari yaxshilashga amaliy jihatdan yordam beradi.

Sportchining qanday kuch bilan emotsional reaksiya qilishiga qarab, undagi ayni bir xil kuch bilan ta'sir qiluvchi taassurotlar va ichki taassurotlar haqida xulosa chiqaramiz. Bu xususiyatlarning yorqin namoyon bo'lishi emotsionallik va ta'sirlanuvchanlikdir. Biz sportchining sport faoliyati jarayonida qay darajadagi faollik bilan tashqi olamga, jumladan, tomoshabinlar, raqibi, aqliy faoliyat turlari, kabilarga ta'siri, shuningdek, sport musobaqasi davrida maqsadni amalga oshirishda tashqi hamda ichki qarshiliklarni qanday faollik bilan yengishiga qarab xulosa chiqaramiz. Bu haqda xulosa chiqarishda sportchining faoliyati ko'p jihatdan nimaga bog'liqligi, ya'ni tasodifiy hodisalar, maqsadlar, niyatlar, intilishlar yoki uning kayfiyatiga qarab ish olib borishimiz taqozo etiladi.

Sportchi xarakterining qat'iy izchilligi, silliqligi va unga qarama-qarshi sifat hisoblangan qotib qolganlik yoki xarakterining o'zgaruvchanligi, tashqi taassurotlarga qanchalik osonlik va tezkorlik bilan muvofiqlashishi kabi jihatlari bilan bir-biridan keskin farq qiladi. Xarakteri qat'iy, izchil, silliq yoki moslashuvchan, aksincha, xatti-harakatlari sust yoki o'ta og'ir, qoloq, yangi sharoitlarga turlicha moslashadigan kishilar bilan til topishishi turlicha bo'lgan; vazmin va yuvoshligi, affektga moyilligi yoki bosiqligi, diqqatining barqarorligi jihatdan keskin farq qiladigan sportchilarning har biri g'alabaga o'z yo'li bilan boradi. Komandada hech qachon bir xil xarakterli sportchilar bo'lmaydi. Birgalikda o'tkaziladigan mashg'ulotlar jarayonida ularning xarakter sifatlari o'zaro ta'sir natijasida boyib borishi mumkin, biroq har qanday sharoitda ham hech kim birovning eng yaxshi sifatlarini to'la takrorlay olmaydi. Har xil fazilatlarni o'zida to'la ma'noda birlashtira oladigan sportchi haqida orzu qilish mumkin. Masalan, bir sportchi hal qiluvchi daqiqalarda barcha kuchlarini mahorat bilan safarbar qila biladi; ikkinchisi dadil, uchinchisi g'alabaga chanqoq, to'rtinchisi vazmin, beshinchisi qat'iyatli, oltinchisi yumshoq, biri jozibali, boshqasi ochiq va kuchli bo'ladi. Shunga qaramay, har bir faoliyat turi ruhiy jarayonlar dinamikasiga ma'lum talabalarni qo'yadi. Sport jamoasidagi intizom sportchidan o'z hissiyotlarini va xohishlarini boshqara bilishni talab qiladi. SHuning uchun ham sportchilarda yakka holda yeki jamoa tarzida muayyan musobaqalarda ishtirok etarkan birinchi navbatda ularda o'ziga bo'lgan ishonch va dadillikning bo'lishi muhim omiilardan sanaladi. Sportchining shaxs sifatida rivojlanishi murakkab va uzoq

davom etadigan jarayondir. Chunki bir avlod sportchilar tomonidan o'zlashtirilgan xususiyatlar ikkinchi avlod sportchilariga o'tadi va ular tomonidan o'zlashtiriladi. Quyida sportchi shaxsida o'ziga bo'lgan ishonch va dadillikni shakllanishi uchun tavsiyalar berilgan bo'lib, ushbu tavsiyalar sport musobaqalarida ularning g' oliliklarini ta'minlashda amaliy yoram beradi.

Sportchi o'zining kuchli va zaif tomonlaringizni tan ola bilishi va o'z maqsadini aniq shakllantirgan bo'lishi lozim:

Sportchi hayotda uning uchun nima muhim, nimaga ishonishi va o'z rejalarini analiz qilishi va bugungi kun nuqtai nazaridan vaziyatni to'g'ri baxolay bilishi muxim.

Sporchi musobaqa jarayonida aybdorlik va uyat hissining mavjudligi unga muvaffaqiyat qozonish imkonini bermasligini bilishi va ularga berilmasligi lozim.

Sportchi o'zining shaxsiga nisbatan «ahmoq», «xunuk», «qo'lidan kelmaydigan», «omadsiz», «to'g'rilab bo'lmaydigan» kabi salbiy fikrlarni yuzaga keltirishga yo' qo'ymasligi lozim.

Sport faoliyati mobaynida sportchining xatti-harakatlari har qanaqasiga baholanishi mumkin, agar ular konstruktiv tanqidga uchrasa, bundan u o'z manfaatlari yo'lida foydalanish lekin boshqalarning uni shaxs sifatida tanqid qilishlariga yo'l qo'ymasligi lozim.

-O'zini noqulay his etadigan insonlar atrofida bo'lmaslikka harakat qilish, o'zini bo'sh, erkin his qilish, fikrlariga quloq solish, o'ziga yoqqan narsa bilan shug'ullanish ham shaxsda o'zini yaxshiroq tushunish va o'zini hurmat qilish imkonini beradi.

Sportchining muloqotchan bo'lishga intilishi, boshqalar bilan chin dildan suxbatlashishi,o'zining maqsadlari sari qo'rqmasdan dadillik bilan qadam tashlashi uning kelajakdagi musobaqlarda g'oliblik marralarini egallashi uchun kattakon yordam beradi.

Inson shuni unutmasligi kerakki:

-Har qanday kichkinagina yutuq uchun ham inson o'zini rag'batlantirishi (qimmatbaho bo'lishi shart emas) xayotida uchraydigan qiyinchiliklarni, doim ijobiy tomonlarini o'ylashga harakat qiliishi uning muammolarga chuqur kirib ketmasligiga va uning yechimini oson topishga yordam beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1.Давлетшин М.Г, М. Мавлонов, С. Туйчиева «Ёш даврлари ва педагогик психология» Тошкент-2004 й.

2. Нишонова З.Т. , Халилова Н.И. Психокоррекция. Тошкент. – 2006

3. Купрейченко А.Б. Психология доверия и недоверия/А.Б. Купрейченко.— М. : ИП РАН, 2008 .— 569 с.

4. Gapparov Z.G. "Spor psixologiyasi". "Mexridaryo" MCHJ, 2011 yil.

ILG'OR MILLIY VA XALQARO TAJRIBALAR

# MORFOLOGIK SATHNI O'RGANISHDA PEDAGOGIK VA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING O'RNI

***To'ychiyeva Zulayho Hamroqulovna***
*Guliston davlat universiteti o'qituvchisi*
*O'zbekiston Respublikasi, Guliston sh.*

***Annotatsiya:*** *Mazkur maqola oliy ta'lim tizimida til o'qitishga yangicha yondashish masalalariga bag'ishlangan. Muallif morfologik sathni o'rganishda interfaol usullardan foydalanishni mavzular kesimida tushuntirib beradi. Mavzularga bunday yondashish kafolatli natijalarga olib kelishini o'z tajribalari misolida asoslaydi.*

***Kalit so'zlar:*** *innovatsiya, pedagogik texnologiyalar, innovatsion texnologiyalar, o'qitish metodlari, interfaol usullar.*

Bugungi kunda yangi pedagogik texnologiyalar tushunchasi tobora turmushimizga singib bormoqda. Hozirga paytda ta'lim berish jarayonida yangi innovatsion texnologiyalar yaxshi samara bermoqda. Ayniqsa, nutq faoliyat turlarini shakllantirishda uning ahamiyati kattadir. U talabalarni mustaqil fikrlash, mushohada etish, ijodiy fikrlay olish, shuningdek dunyoqarashini kengaytirishga o'rgatishda doimiy samara beradi.

Ta'limning bugungi vazifasi o'quvchilarni kun sayin rivojlanib borayotgan axborot – ta'lim muhiti sharoitida mustaqil ravishda faoliyat ko'rsata olishga, axborot oqimidan oqilona foydalanishga o'rgatishdan iboratdir. Buning uchun ularga uzluksiz ravishda mustaqil ishlash imkoniyati va sharoitini yaratib berish zarur.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasida mamlakatimiz zamonaviy yuksalishga erishish maqsadida innovatsion rivojlanish bosqichiga kirganligini e'tirof etilgan. "Innovatsiya – bu kelajak degani. Biz buyuk kelajagimizni barpo etishni... aynan innovatsion g'oyalar asosida boshlashimiz kerak. Innovatsion rivojlanish va raqamli iqtisodiyot yo'liga o'tishimiz bejiz emas.

Chunki zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda kim yutadi? Yangi fikr, yanfi gʻoya, innovatsiyaga tayangan holda yadi.”

J. Yoʻldoshev “innovatsiya (ingliz tilidan olingan “Innovation” yangilik kiritish) – tizim ichki tuzilishni oʻzgartirish amaliyot va nazariyaning asosiy qismi”, innovatsion faoliyat esa, “yangi ijtimoiy talablar bilan an’anaviy meyorlarning mos kelmasligi. Amaliyotning yangilayotgan meyorlarni mavjud meyorlar bilan toʻqnashuvi natijasida vujudga kelgan majmuali muammolarni yechishiga qaratilgan faoliyat” deb ta’kidlaydi.

Uzluksiz ta’lim tizimining bosh boʻgʻini sifatida oliy ta’lim tizimida oʻquv faoliyatini modernizatsiya qilish masalasi bugungi kunda oʻz yechimini kutayotgan asosiy masalalardan biri boʻlib qolmoqda.

Oʻqitish metodlarining bir qator afzalliklari bor: oʻqitish mazmunini yaxshi oʻzlashtirishga olib kelish, oʻz vaqtida aloqalarni ta’minlash, tushunchalarni amaliyotda qoʻllash uchun sharoitlar yaratilishi, oʻqitish usullarining turli xil koʻrinishlarini taklif etish, oʻtilgan materialni yaxshi eslab qolish, muloqotga kirishish koʻnikmasini takomillashishi, oʻz-oʻzini baholashning oʻsishi, talabaning predmet mazmuniga va oʻqitish jarayoniga boʻlgan ijobiy munosabati, mustaqil fikrlay oladigan talabani shakllanishiga yordam berish, nafaqat mazmunni oʻzlashtirishga, balki tanqidiy va mantiqiy fikrlashni ham rivojlantirish hamda muammolarni yechish koʻnikmalarini shakllantirish.

Pedagog – olimlarning yillar davomida ta’lim tizimida Nega oʻqitamiz? Nimani oʻqitamiz? Qanday oʻqitamiz? kabi savollarga javob izlashlari bilan bir qatorda “Qanday qilib samarali va natijali oʻqitish mumkin?” – degan savolga ham javob qidirib keldilar.

Bu esa, olim va amaliyotchilarni oʻquv jarayonini texnologiyalashtirishga, ya’ni oʻquv jarayonini kafolatlangan natija beradigan texnologik jarayonga aylantirishga urinib koʻrish mumkin degan fikrga olib keldi.

Oʻquv–tarbiya jarayonida pedagogik va axborot texnologiyalarning toʻgʻri joriy qilinishi oʻqituvchining bu jarayonda asosiy tashkilotchi yoki maslahatchi sifatida faoliyat yuritishiga olib keladi. Bu esa talabadan koʻproq mustaqillikni, ijodni va irodali boʻlish kabi sifatlarni talab etadi.

Interfaol usullarni qo‘llash natijasida o‘tkazilgan dars mashg‘ulotlari yoshlarning muhim hayotiy yutuq va muammolariga o‘z munosabatlarini bildirishlariga, ularni fikrlashga, o‘z nuqtai nazarlarini asoslashga imkoniyat yaratadi.

Hozirgi davrda sodir bo‘layotgan innovatsion jarayonlarda ta’lim tizimi oldidagi muammolarni hal etish uchun yangi axborotni o‘zlashtirish va o‘zlashtirgan bilimlarni o‘zlari tomonidan baholashga qodir, zarur qarorlar qabul qiluvchi, mustaqil va erkin fikrlaydigan shaxslar kerak.

Shuning uchun ham, ta’lim muassasalarining o‘quv–tarbiyaviy jarayonida zamonaviy o‘qitish uslublari–interfaol uslublar, innovatsion texnologiyalarning o‘rni va ahamiyati beqiyosdir.

Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyatiga yangilik, o‘zgartishlar kiritish bo‘lib, uni amalga oshirishda asosan interfaol uslublardan foydalaniladi.

Interfaol (“Inter” –bu o‘zaro, “act” - harakat qilmoq) –o‘zaro harakat qilmoq yoki kim bilandir suhbat, muloqot tartibida bo‘lishni anglatadi.

Bizning fikrimizcha pedagogik texnologiyaning eng asosiy negizini– o‘qituvchi va o‘quvchining belgilangan maqsaddan kafolatlangan natijaga hamkorlikda erishishlari uchun tanlangan texnologiya yoki usularga bog‘liq. O‘qitish jarayonida, maqsad bo’yicha kafolatlangan natijaga erishishda qo‘llaniladigan har bir ta’lim texnologiyasi o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida hamkorlik faoliyatini tashkil eta olsa, har ikkalasi ijobiy natijaga erisha olsa, o‘quv jarayonida o‘quvchilar mustaqil fikrlab, ijodiy ishlab, izlanib, tahlil etib, o‘zlari xulosa chiqara olsalar, o‘zlariga, guruhga, guruh esa ularga baho bera olsa, o‘qituvchi esa ularning bunday faoliyatlari uchun imkoniyat va sharoit yarata olsa, ana shu – o‘qitish jarayonining asosi hisoblanadi.

Har bir dars, mavzu, o‘quv predmetining o‘ziga xos texnologiyasi bor. O‘quv jarayonidagi pedagogik texnologiya – bu aniq ketma-ketlikdagi yaxlit jarayon bo‘lib, u yo‘naltirilgan, oldindan puxta loyihalashtirilgan va kafolatlangan natija berishga qaratilgan pedagogik jarayondir.

Pedagogik maqsadning amalga oshishi va kafolatlangan natijaga erishish o'qituvchi va o'quvchining hamkorlikdagi faoliyati, ular qo'ygan maqsad, tanlangan mazmun, uslub, shakl, ya'ni texnologiyaga bog'liq.

Interfaol ta'lim, interfaol uslublar muntazam muloqotga asoslangan uslublar tizimi bo'lib, yoshlarning hamkorlikdagi va faol ishtirokidagi ta'lim va uslublar tizimi hisoblanadi. Boshqacha aytganda, o'qitishning interfaol uslublari – bilish va kommunikativ faoliyatni tashkil etishning maxsus shakli bo'lib, unda ta'lim oluvchilar bilish va fikrlash imkoniyatiga ega bo'ladilar.

O'quv jarayonidagi pedagogik texnologiya – bu aniq, ketma – ketlikdagi yaxlit pedagogik jarayon bo'lib, yoshlarning ehtiyojidan va texnik imkoniyatlardan kelib chiqqan holda bir maqsadga yo'naltirilgan, oldindan puxta, loyihalashtirilgan va kafolatlangan natija berishiga qaratilgan pedagogik jarayondir.

Pedagogik maqsadning amalga oshishi va kafolatlangan natijaga erishilishi yaxlit uchun hamkorlikdagi faoliyat, qo'yilgan maqsad,tanlangan mazmun, uslub, shakl, vosita, ya'ni texnologiyaga bog'liq.

O'qituvchi va o'quvchining maqsaddan natijaga erishishida qanday texnologiyani tanlashlari ular ixtiyorida, chunki har ikkala tomonning asosiy maqsadi aniq natijaga erishishga qaratilgan bo'lib, bunda o'quvchilarning saviyasi, guruh xarakteri, sharoitiga qarab ishlatiladigan texnologiya tanlanadi. Masalan, natijaga erishish uchun balki kompyuter bilan ishlash lozimdir, balki film (yoki tarqatma material, chizma va plakat, axborot texnologiyasi, turli adabiyotlar) kerak bo'lishi mumkin. Bularning hammasi o'qituvchi va o'quvchilarga bog'liq. Shu bilan birga o'quv jarayonini oldindan loyihalashtirish zarur. Bu jarayonda o'qituvchi o'quv predmetining o'ziga xos tomonini, joy va sharoitni, eng asosiysi, o'quvchilarning imkoniyatini ham hisobga olishi kerak. Shundagina kerakli kafolatlangan natijaga erishish mumkin.

Hozirda ta'lim jarayonida qo'llanib kelinayotgan interfaol usullarni ko'plab keltirish mumkin. Jumladan, zinama-zina texnologiyasi, charxpalak texnologiyasi, bumerang texnologiyasi, 3x4 texnologiyasi, labirint, FSMU (fikringizni bayon eting, sabab ko'rsating, misol keltiring, umumlashtiring) texnologiyasi, baxslashuv texnologiyasi, muloqot texnologiyasi, tushunchalar tahlili usuli, blits-so'rov usuli,

suhbat usuli va boshqalar. Ularni dars mashg'ulotlarida qo'llash fan va mavzular mazmuniga va o'qituvchining bilimi, tajribasi va pedagogik mahoratiga bog'liq.

Ma'lumki, har bir fan o'qituvchisi dars mazmunini o'quvchilar to'liq o'zlashtirsin, o'z bilim, malaka va ko'nikmalariga ega bo'lsin degan maqsad bilan darsni boshlaydi. Bu esa o'qituvchining darsdagi faolligi, pedagogik va innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanishni taqozo etadi.

Oliy ta'lim tizimida darslarda interfaol usullardan foydalanib dars mashg'ulotlarini olib borishda axborot texnologiyalari, jumladan kompyuter va uning texnik vositalaridan foydalanishning o'ziga xos afzalliklari mavjud. Masalan, "Hozirgi o'zbek adabiy tili" fanining eng katta bo'limlaridan biri morfologiyadir. Boshqa til sathlari singari morfologiyani o'rganishda ham ko'zlanadigan asosiy maqsad, talabalarning so'z xazinasini yangi so'zlar bilan to'ldirish, ularning nutqida kam qo'llaniladigan so'zlarni seriste'mol so'zlarga aylantirish, ulardan to'g'ri va o'rinli foydalanish malakalarini shakllantirish, har bir talabani mustaqil fikrlash, qiyoslash, analiz qilish, topshiriqlarni mustaqil bajarish va so'roqlarga aniq javob topishga hozirlash amaliy mashg'ulotlarning asosiy maqsadidir. Amaliy mashg'ulot uchun tayyorlangan materiallar zamon talablariga to'la javob berishi va talabalar tomonidan morfologiya bo'limini chuqurroq o'rganishga, nazariy bilimlarga ega bo'lish va ularni rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak.

Masalan, "Otning funktsional formalari" mavzusini o'tishda talabalar otning funktsional formalarining grammatik ma'nosi va morfologik belgilari bilan tanishadilar. Otning funktsional formalariga xos ma'no va sintaktik xususiyatlarni keng o'rganish nazariy va amaliy jihatdan muhimdir. Bu mashg'ulot funktsional formalarning grammatik–leksik va funktsional xususiyatlarini to'liqroq bilib olishga yordam beradi. Ushbu mavzu bo'yicha talabalarning bilimini mustahkamlash yoki baholashda interfaol usullardan "Zinama-zina" texnologiyasi yoki "Bumerang" texnologiyasini qo'llashni kichik guruhlarda amalga oshirish uchun avvalo 3 – 5 kishidan iborat kichik guruhlarga ajratadi va har bir kichik guruh sardori o'qituvchi tomonidan berilgan savollardan birini olishni tavsiya etiladi. Masalan:

1-savol. Funktsional forma nima? Ot, sifat, son, fe'l va ravishning funktsional formalari o'rtasidagi umumiy va xususiy belgilar nimadan iborat?

2-savol. Otga xos funktsional formalarning qanday tiplari bor? Ular qanday grammatik xususiyatlari bilan bir-biridan farqlanadi?

3. Funktsional forma yasovchi affikslarning ma'nosi va morfologik belgilari bilan bog'liq hodisalarni tasvirlashda qanday terminologik har xilliklar bor?

O'qituvchi har bir kichik guruhga 5 daqiqa ichida ushbu topshiriqni bajarishni talab etadi. Kichik guruhni tashkil etgan talabalar bir – biri bilan fikrlashgan holda berilgan savolga mos so'zlarni berilgan qog'ozga yozadilar. Belgilangan vaqt tugagandan so'ng, o'qituvchi birin – ketin kichik guruhlar javobini aytib berishni taklif qiladi va ularning javoblari asosida kichik guruhni baholaydi. O'z navbatida savollarga javob berishda ba'zi bir kamchiliklar bo'lsa shu guruhning o'zidan boshqa o'quvchi to'ldirishi yoki keyingi guruh o'quvchilari to'ldirishini taklif qilish ham mumkin. Ularning javoblarini ham o'qituvchi nazardan chetda qoldirmasligi lozim.

Darsni mustahkamlash yoki o'tilgan dars bo'yicha o'quvchilar bilimini baholashda yuqorida sanab o'tilgan interfaol usullarning qaysi biridan foydalanish darsning mazmuni va o'qituvchining mahoratiga, tajribasiga, bilimiga bog'liq.

Shuningdek, ishlanmani axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalanib ham talaba (o'quvchi)larga yetkazish va o'z-o'zini baholashga o'rgatish mumkin. Talabalar bilimini tezkor aniqlashning bu kabi bir qancha usullari bor bo'lib, ularni o'z o'rnida ishlatish o'qituvchining tajribasi, mahorati va bilim darajasiga bog'liq.

Xulosa qilib aytgnanimizda dars jarayonida pedagogik texnologiyalar va innovatsion usullardan foydalanish natijasida:

- O'quvchilarning bilim olishga intilishi oshadi;
- mustaqil fikrlash qobiliyati rivojlana boradi;
- erkin fikrlashga o'rganadi;
- darsga bo'lgan qiziqishi oshadi;
- boshqalar fikrini eshitishga va hurmat qilishga o'rganadi;
- O'z fikrini mustaqil ayta olishga o'rganadi;
- Ko'proq o'z ustida ishlashga o'rgatadi;
- kompyuter bilan ishlash malakasi oshadi;

kompyuter va uning qurilmalari vazifasi haqidagi bilimga ega bo'ladi va h.k.

**Adabiyotlar:**

1. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. – T.: Iste'dod, 2008. – 180 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – T. 2018, 19-20-betlar.
3. Yo'ldoshev J.G'., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari: Qo'llanma. – T.: O'qituvchi, 2004. – 104 b.

# BOLALARDA TASVIRIY FAOLIYAT KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH (QUM TERAPIYASI MISOLIDA)

***Nasirdinov Omoniddin Sayfidinovich***

***Yuldasheva Dildora Saidvaliyevna***

*Namangan davlat pedagogika instituti*

*1- kurs magistirlari Tasviriy san'at va amaliy bezak san'ati.*

***Annotatsiya:*** *Mazkur maqolada yosh avlodga har jihatdan ta'lim-tarbiya berishni maktabgacha yosh davrida boshlash, ayniqsa, bolalarda ijodkorlikni, estetik didni, go'zal xulq va keng dunyoqarashni rivojlantirishda ularni tasviriy faoliyatga tayyorlab borish haqida ma'lumotlar qayd etilgan.*

***Kalit so'zlar:*** *Qum terapiyasi – artpedagogika yo'nalishlaridan biri bo'lib, u qum bilan bog'liq barcha tadbirlarni o'z ichiga oladi.*

***Аннотация:*** *В данной статье отмечена информация о начале всестороннего воспитания подрастающего поколения в дошкольном возрасте, особенно в развитии у детей творческих способностей, эстетического вкуса, красивого поведения и широкого кругозора, подготовке их к изобразительной деятельности.*

***Ключевые слова:*** *Песочная терапия-одно из направлений артпедагогики, которое включает в себя все виды деятельности, связанные с песком.*

***Annotation:*** *This article notes information about the beginning of comprehensive education of the younger generation in preschool age, especially in the*

*development of children's creative abilities, aesthetic taste, beautiful behavior and broad horizons, preparing them for visual activities.*

***Key words:*** *Sand therapy is one of the directions of art pedagogy, which includes all types of activities related to sand.*

Yosh avlodga har jihatdan ta'lim-tarbiya berishni maktabgacha yosh davrida boshlash, ayniqsa, bolalarda ijodkorlikni, estetik didni, go'zal xulq va keng dunyoqarashni rivojlantirishda ularni tasviriy faoliyatga tayyorlab borish lozim.

Bolani shaxs sifatida shakllantirish maktabgacha ta'lim davridan boshlanadi. Bu davrda bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirish masalasi ta'limda ustuvorlikka ega.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29- dekabrdagi, "2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish choratadbirlari to'g'risida"gi PQ-2707-sonli qarori ijrosini ta'minlashda bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta'lim tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlarini tatbiq etish, bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish, maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha 2017-2021-yillarga mo'ljallangan dasturida belgilangan vazifalarni amalga oshirish choratadbirlari rejasining ishlab chiqilishi fikrimizning yaqqol dalilidir [1]. Tasviriy faoliyat estetik tarbiya borasida muhim vositalardan biri bo'lib, maktabgacha yoshdagi bolalarni ijodiy imkoniyatlarini yuzaga chiqarish va qobiliyatlarini shakllantirishda uning turlaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Tasviriy faoliyat bolaning emotsional hissiyotlarini, xotira qobiliyatlarini shakllantirishi, mayda qo'l motorikalarini rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi, yana bolalarda ijodkorlikni shakllantiradi, aqliy faoliyatni, nutqni o'stiradi.

Tarbiyachilar oldida turgan muhim vazifalardan biri bolaning yashirin qobiliyatlarini yuzaga chiqarish va to'g'ri yo'naltira bilishdir. Uning har bir bolaga alohida e'tibor qaratgan holda ularning qiziqishlaridan kelib chiqib, turli tasviriy faoliyat turlaridan foydalanib mashg'ulotlar olib borishi maqsadga muvofiqdir [2]. Rus olimi N.M.Sechenov fikricha: "Ko'rish orqali qilinadigan tahlilning natijalari

nozikroq va boyroq, shu sababli odam ko'rishga ko'proq ishonadi. Bolalarning tasviriy faoliyatini oshirishda qum terapiyasidan foydalanish mumkin.

Qum terapevti, analitik V.Andreyevaning ta'biri bilan aytganda, qum terapiyasi usulidanfoydalanish bizni ba'zan oson bo'lmagan, lekin har doim qiziqarli bo'ladigan safarga chorlaydi. Jarayon xuddi ertakdagi kabi, ichki chuqur ma'noga, orzuga, o'zi yo'qolgan qismlarga va munosabatlarga qarab rivojlanadi. Rasmlarda jonlanadigan haykalchalarni hayratda qoldirish va ularni ilhomlantirish, ular o'tmish va kelajakni qanday bog'lashi, o'zini tanib olish va individualizatsiya yo'liga yetaklash uchun imkoniyat yaratadi.

Qum terapiyasi – artpedagogika yo'nalishlaridan biri bo'lib, u qum bilan bog'liq barcha tadbirlarni o'z ichiga oladi:

- oddiy qum bilan rol o'ynash va tarbiyaviy ijodiy o'yinlar
- diagnostika, xulqni tuzatish, qum maydonidagi proyektiv o'yinlar.
- yoritish bilan maxsus stollarda qum animatsiyasi;
- rangli qum, don mahsulotlari, tabiiy materialdan foydalangan holda vatman qog'ozida yoki patnisda kompozitsiyalar rasmlarini yaratish;
- turli xil shakllar va shakllarni modellashtirish, kinetik qumdan binolar va butun qumli shaharlarni qurish.

Qum terapiyasining yetakchi maqsadi - bolaning ruhiy holatini va shaxsiy o'sishini uyg'unlashtirish uchun qulay sharoit yaratishdir [3]. Qum terapiyasining afzalligi shundaki, bola qumda o'zini erkin sezadi, chunki qum tabiiy, undan ishlangan har qanday san'at noodatiy va jozibali bo'ladi. Qumdan shakl chiqarish osonroq va bolaning xatoliklar qilishi birmuncha oz. Qum terapiyasi – bu maktabgacha yoshdagi bolalar uchun qo'llanila boshlangan psihologik usuldir. Mazkur usul ijodiy fikrlashni, xotira va fazoviy idrokni rivojlantiradi. Qum bilan ishlaydigan va qiziqarli shakllarni yaratadigan bolalar o'zlarining his-tuyg'ulari va xayollarini shakllantiradi. Bu esa nisbatan yangi usul bo'lib, Karl Jung davridan beri Yevropa amaliy psihologiyasini rivojlantirishdan boshlangan.

Xorij tajribasidan bizga ma'lumki, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyachilar tomonidan qum terapuyasidan bolalar bilan sayr qilish chog'ida, rejalashtirilgan darslar va o'yinlar paytida ishlashda faol foydalanilmoqda. Lekin o'z o'rnida aytib o'tiz joizki, bolalarda diqqat yetishmasligi giperaktivligi buzilishi,

o'pka va allergik kasalliklarga moyillik, terining buzilishi (shikastlanish va jarohatlar) uchragan holatlarda ularni bunday mashg'ulotlarga jalb etish tavsiya etilmaydi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida qum terapiyasini keng yo'lga qo'yishda quyidagilarni amalga oshirish lozim, deb hisoblaymiz:

1. Tasviriy faoliyatga ixtisoslashtirilgan guruhlar tashkil etish va dars soatlarini ehtiyojdan kelib chiqib ko'paytirish.

2. Tarbiyachi-pedagog, psihologlarning shu faoliyat turi haqida bilimlarini oshirish.

3. Qum terapiyasi bo'yicha ma'lumotlarni o'quv darsliklari mazmuniga singdirish.

4. Mashg'ulotlarni jonli, ko'rgazmali tarzda tashkil etish. Bir so'z bilan aytganda, qum terapiyasi bolani estetik tarbiyalashda muhim vositalardan biri bo'lib, uning ijodiy imkoniyatlarini yuzaga chiqarish va qobiliyatlarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, bolaning shaxs sifatida shakllanishida muhim o'rin tutadi.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabrdagi, "2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ- 2707-sonli Qarori.

2. Nurmatova M.Sh. Hasanova Sh.T. Rasm, buyumlar yasash va tasviriy faoliyat metodikasi. –T.: 2014.

3. Суяров Н.Т. Использование регионального компонента на уроках изобразительного искусства 5-7 классов. Jackson ville Florida, USA. December 30 th 2021. – P.1-3. https://conferencepublication.com.

4. Suyarov N.T., Erkaev E.T. (2021). Implementation of national-regional component in the educational process in the republic of Uzbekistan. Current research journal of pedagogics. Impact factor: 5.7. (USA), 2 (08), Volume 01, Issue 06, Avgust, 2021. –P.117-121. (ISSN 2767-3278). (Ulrich's Periodicals Directory 18)

5. Ghiasi G., Larivière V., Sugimoto C.R. On the compliance of women engineers with a gendered scientific system // PLOS ONE. 2015.

6. https:// melkie.net.zanyatiya s detmi pesochnaya terapiya dlya deteyzanyatiya programma.

# THE HISTORY OF FAMOUS CITIES OF MAJORITY ENGLISH SPEAKING COUNTRIES

***Muxtarova Durdona***

*Andijan State Institute of Foreign Studies, Faculty of English Philology, Teaching Methodology and Translation Studies, student of the 2nd stage of Foreign language and Literature. muxtarovadurdona@gmail.com*

***Toshpo`latova Nilufar***

*Andijan State Institute of Foreign Studies, Faculty of English Philology, Teaching Methodology and Translation Studies, student of the 2nd stage of guiding and interpreting activities. toshpolatovanilufargid@gmail.com*

***To`rayeva Oydinoy***

*Andijan State Institute of Foreign Languages, Faculty of English Philology, Teaching Methodology and Translation Studies, student of the 2nd stage of guiding and interpreting activities. Oydinoy1411@gmail.com*

***Annotation:*** *English speaking countries have some of the most famous and historically significant cities in the world. From London to New York, these cities have shaped the course of history and continue to be centers of culture, commerce, and innovation. In this article, we will explore the history of some of the most famous cities of English speaking countries.*

***Annotatsiya:*** *Ingliz tilida so'zlashadigan mamlakatlarda dunyodagi eng mashhur va tarixiy ahamiyatga ega shaharlar mavjud. Londondan Nyu-Yorkka qadar bu shaharlar tarix yo'nalishini shakllantirgan va madaniyat, savdo va innovatsiya markazlari bo'lib qolmoqda. Ushbu maqolada biz ingliz tilida so'zlashuvchi mamlakatlarning eng mashhur shaharlari tarixini o'rganamiz*

***Аннотация:*** *Есть города с самыми известными и историческими городами в англоязычных странах. От Лондона до Нью-Йорка эти города определили ход истории и остаются центрами культуры, торговли и инноваций. В трех статьях мы исследуем самые известные города в англоязычной истории.*

***Key words:*** *culture, commerce, innovation, finance, penal colony, bushfires, massive church, civilization, counterculture, nightlife, tumultuous past, The Cold War.*

The earliest known city is Çatalhöyük, a settlement of some 10,000 people in southern Anatolia that existed from approximately 7400 BCE to 5200 BCE. Hunting, agriculture and animal domestication all played a role in the society of Çatalhöyük. Have you ever thought about the stages that these famous cities, which are recognized by all countries around the world today and continue to amaze the world with their latest technology, power, potential and several innovations, have gone through so far?

**London, United Kingdom.**London is one of the most famous cities in the world, and its history dates back to Roman times. It was founded as a small trading post on the River Thames around 43 AD, and over the centuries it grew into a major city and the capital of the British Empire. London has been the site of many important historical events, such as the Great Fire of London in 1666, the Blitz during World War II, and the recent terrorist attacks in 2005 and 2017. Today, London is a global center of finance, culture, and tourism.

**New York, United States.** New York City is one of the most iconic cities in the world, and it has a fascinating history. It was founded by Dutch colonists in 1624 and was originally called New Amsterdam. It became New York when the English took control of the city in 1664. New York has been the site of many important historical events, such as the American Revolution, the Civil War draft riots, and the September 11 attacks. Today, New York is a global center of finance, culture, and technology.

**Sydney, Australia.** Sydney is the largest city in Australia, and it has a rich history that dates back to the arrival of the First Fleet in 1788. The city was founded as a penal colony, and over the years it grew into a major port and commercial center. Sydney has been the site of many important historical events, such as the Sydney Harbour Bridge opening in 1932, the 2000 Summer Olympics, and recent bushfires. Today, Sydney is a global center of finance, culture, and tourism.

**Toronto, Canada.** Toronto is the largest city in Canada, and it has a rich history that dates back to the 18th century. It was originally a French trading post, and over the years it grew into a major city and the capital of Ontario. Toronto has been the site of many important historical events, such as the Upper Canada Rebellion of 1837, the 1976 Summer Olympics, and the recent Toronto van attack. Today, Toronto is a global center of finance, culture, and technology.

**Athens, Greece**. No doubt, Athens has played a fundamental role in shaping the Western world into what it is today. By 1400 BC the city was already prominent in the ancient world. It has actually been inhabited for over 7000 years. A city-state of the once-burgeoning ancient Greece, Athens played a critical role in shaping philosophy, drama, literature, and science.Its central location made it a hotbed for cultural interchange and commerce. Athens is home to many awe-inspiring ruins like the Parthenon and The Temple of Olympian Zeus. Athens still serves as a bustling metropolis and is known for its culture, arts, media, entertainment, commerce, and finance.

**Beijing, China.** Beijing is officially more than 3000 years old, but it has played a role in Chinese history for as long as eight millennia, as it is one of the four ancient capitals of China. Specifically, Beijing was the home base of the notorious Ming and Qing Dynasties, as well as the capital under Chairman Mao during the Chinese Communist Revolution. The city is ripe for exploring all that they left behind.

There is the famed Forbidden City, which was the astounding imperial palace under the Qing Dynasty. There are also many exquisite Chinese Temples, and you can walk a good portion of the Great Wall. Beijing bears an expansive history of one of the greatest and most fascinating human civilizations, and it has since become highly modernized.

**Berlin, Germany.Berlin** is known to strike the perfect balance between poor and sexy. Yet, its story is one that requires some reading between the lines, as you explore the city at present. Berlin's history is something you feel more than you see, as you get lost in its hip, nonchalant mood, and suddenly find yourself getting goose bumps as you recall everything that's happened here.Berlin was the capital of Nazi Germany. and it was infamously divided down the middle during the Cold

War. Before this, it was graced by the likes of Marx, Einstein, and many other great thinkers. Its very essence was born out of this history as its inhabitants developed the counterculture and nightlife, which makes it so famous today, in response to its rich (albeit sometimes tumultuous) past.

**Hong Kong.**Hong Kong's population is 7.1 million people without including all the neighboring towns and villages in its urban agglomeration.This giant city now falls within the boundaries of China, but enjoys considerable sovereignty.Due to the long years of British rule, English is today the official language (together with Chinese) of this hectic metropolis.

**Singapore.**The city-state of Singapore is not only one of the most developed and richest in the world, but also one of the largest English-speaking cities on the planet.Today, Singapore has a population of about 5,160,000 people.Like most cities in Asia, it experiences a period of impressive success and prosperity.

**Melbourne, Australia.**The biggest competitor to Sydney, Melbourne, has a total population of approximately 4,000,000 people.The city is very livable and vibrant, although similar to Sydney it is not surrounded by giant metropolitan area (such as Los Angeles, for example).

**Los Angeles, USA.** Los Angeles is a large city, the center of a metropolitan area with a population of 14 million people. Los Angeles itself, without its suburbs, has a population of nearly 3.8 million residents and is one of the largest cities in the English-speaking world.

**Chicago, USA.** Established in 1833, today the Chicago metropolis has a population of about 9.73 million people.It it one of the most typical American cities in the entire United States.The city itself, not counting its metropolitan area, has a population of about 2.7 million people, immigrants from all continents.

English speaking countries have some of the most famous and historically significant cities in the world. London, New York, Sydney, and Toronto are just a few examples of cities that have shaped the course of history and continue to be centers of culture, commerce, and innovation. By learning about the history of these cities, we can gain a deeper understanding and appreciation of the English speaking world.

## References

1.Global cities: A Short History, Greg Clark, Brookings Institution Press 2016
2. https://en.m.wikipedia.org/wiki/History_of_cities
3.https://theculturetrip.com/south-america/peru/articles/the-10-most-historical-cities-in-the-world/

# BOSHLANG‘ICH SINFLARDA SO‘Z TURKUMLARINI O‘RGATISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH YO‘LLARI

***Norkuziyeva Oydin***
*NamDU magistranti*

***Annontatsiya:*** *Ushbu maqolada boshlang‘ich sinflarda so‘z turkumlari va morfologik tushunchalar haqida umumiy ma’lumot berilgan, shuningdek, so‘z turkumlari va ularni o‘rgatish yo‘llari, hamda so‘z turkumlarini o‘rgatishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish tartibi bo‘yicha ma’lumotlar berilgan.*

***Kalit so‘zlar:*** *metod, morfologiya, morfemalar, so‘z birikmasi, lug‘at, so‘z turkumlari, zamonaviy pedagogik texnologiya, so‘z turkumlari, topshiriq, ona tili, o‘quvchi, maktab, boshlang‘ich sinf, ta’lim texnologiyalari, mavzu, ko‘rsatma, vosita, usul, ko‘rgazma, bilim.*

***Аннотация:*** *В данной статье приведены общие сведения о словарных группах и морфологических понятиях в начальных классах, а также сведения о словарных группах и способах их обучения, а также о порядке использования современных педагогических технологий при обучении словосочетаниям.*

***Ключевые слова:*** *метод, морфология, морфемы, лексика, лексика, группы слов, современная педагогическая технология, группы слов, задание, родной язык, ученик, школа, начальный класс, образовательные технологии, предмет, обучение, средства, метод, выставка, знания.*

***Abstract:*** *This article provides general information about word groups and morphological concepts in elementary grades, as well as information about word*

*groups and ways of teaching them, as well as the procedure for using modern pedagogical technologies in teaching word groups.*

***Key words:*** *method, morphology, morphemes, vocabulary, vocabulary, word groups, modern pedagogical technology, word groups, assignment, mother tongue, student, school, primary class, educational technologies , subject, instruction, means, method, exhibition, knowledge.*

## KIRISH

Dunyodagi qadimiy va boy tillardan biri boʻlgan oʻzbek tili xalqimiz uchun milliy oʻzligimiz va mustaqil davlatchilik timsoli, bebaho ma'naviy boylik, buyuk qadriyatdir. Ona tilimizning davlat va jamiyat hayotidagi ta'siri va mavqyeini yanada oshirish, «Davlat tili haqida»gi qonunni bugungi kun talablaridan kelib chiqib takomillashtirish zarur. Ona tili darslarining maqsadi oʻquvchilarning savodxonligini oshirish, nutqiy malakasini oʻstirish, ijodiy fikrlashga yoʻnaltirish bilan bir qatorda ona tilimizni sofligini saqlashdir.

## ASOSIY QISM

Ma'lumki, ta'lim tizimidagi barcha fanlar, xususan, ozbek tili darslarida ham ta'limning didaktik materiallardan, oʻyin-mashq usullaridan, koʻrgazmali vositalardan foydalanish yaxshi natija beradi. Bu haqda qator mutaxassislar, jumladan, R.Ishmuhamedov, A.Nisanbaeva, B.Toʻxliev, K.Usmonova kabi tilshunoslar oʻzlarining tadqiqot ishlarida, monografiyalar va maqolalarida fikr yuritganlar. Ona tili darslarida soʻz turkumlari mavzularini, xususan ot soʻz turkumini oʻqitishda grammatik topshiriqlar, koʻrsatmali vositalar, tarqatma materiallardan foydalanish orqali oʻquvchilarda koʻnikma va malakalar hosil qilish, didaktik vositalarning ta'lim jarayonidagi oʻrni, unga xos xususiyatlarni tahlil qilish samarali natijalar beradi.Oʻquvchilar morfologiyaga oid dastlabki ma'lumotlar bilan boshlangʻich sinflarda tanishadilar. Soʻzlarni otlar, sifatlar, sonlar, fe'llar, olmoshlar, yordamchi soʻzlar kabi guruhlarga ajratish boshlangʻich sinfdan ularga ma'lum. Ona tilining izchil kursidan beriladigan bilim, malaka, koʻnikmalar avvalo boshlangʻich sinflarda egallangan bilimlar, malaka va koʻnikmalarning mantiqiy davomi sanaladi. Maktabda morfologiyani oʻqitishning

ham ilmiy, ham amaliy zaruriyati bor. Uning ilmiy zaruriyati shundaki keyingi bosqichda oʻrganiladigan "Sintaksis" boʻlimi bevosita morfologiya bilan bogʻlangan. Chunki kelishik, egalik va shaxs-son qoʻshimchalari garchand morfologiya obyekti sanalsa-da, ammo ular gap qurilishida soʻz va soʻz birikmalari orasidagi sintaktik aloqani ta'minlovchi vosita sanaladi. Qoʻshimcha gap sintaksisini oʻrganishning bevosita yordamchi soʻzlar bajaradigan vazifalar bilan aloqadorligi hisobga olinsa, morfologiya yanada muhimroq ahamiyat kasb etadi. Shunday qilib, maktab morfologiya kursi quyidagi vazifalarni hal qilishni koʻzda tutadi: - oʻquvchilarni soʻz yasashga, soʻzning yangi shakllarini hosil qilishga oʻrgatish; soʻz zaxirasini oshirish, soʻzdan toʻgʻri va oʻrinli foydalanish malakalarini kengaytirish; -soʻzlarning aloqa-munosabat shakllaridan foydalanish malakalarini kengaytirish; - ilmiy savodxonlikni takomillashtirish; - gap guruh va matn yaratish malakalari ustida ishlash; - DTSda koʻzda tutilgan talablar asosida har bir mavzuni oʻrganish jarayonida uni izchillik bilan amalga oshirish. Oʻqituvchi oʻquvchilarga soʻz turkumlari haqida ma'lumot beradi. Mavzu boʻyicha oʻrganilgan bilimlarni tkarorlash uchun lugʻat diktanti yozdirishi mumkin.

Mustaqil soʻz turkumlaridan biri ot soʻz turkumi hisoblanadi. Otning predmet nomini bildirishi kim? nima? soʻroqlariga javob boʻlishi, atoqli otlarning bosh harf bilan yozilishi, otlarga qoʻshiladigan kelishik qoʻshimchalari boshlangʻich sinflardan oʻquvchilarga ma'lum. Mazkur soʻz turukumini oʻrganishda avvalo ana shu oʻrganilganlarni xotirada tiklash maqsadida qayta xotirlash va qisman ijodiylikka asoslangan ta'limiy mashqlar oʻtkaziladi. Takrorlash jarayonida "predmet" tushunchasiga kengroq toʻxtalish lozim. Predmet deganda nafaqat qoʻl bilan ishlash, koʻz bilan koʻrish yoki oʻlchash mumkin boʻlgan narsalar, balki umumiylikni ifodalovchi nomlar ( ovqat, imorat), tabiat hodisalari va turli voqealarning nomi (toshqin, zilzila, momaqaldiroq), harakat nomlari (bilim, terim), belgi-holat nomlari (baxillik, saxiylik, ozodlilik, tashvish) ham tushiniladi.

Morfologiyani oʻrganish oʻquvchi mustaqil va ijodiy tafakkur doirasini kengaytiradi, soʻzning turli shakllarini gap tarkibida hamda bogʻlanishli nutqda oʻrinli ishlatish koʻnikmalarini rivojlantiradi.

## NATIJALAR VA MUHOKAMA

Sifatni oʻrgatishda yana rangli rasmlardan foydalanish juda katta samara beradi. Rasm bolalar sezgisiga ta'sir etib, uning hayot tajribasida hali uchramagan tomonlarini ochadi, ularga tanish boʻlgan hodisalarni chuqur anglashga ham yordam beradi. Masalan, tabiat tasvirlangan rangli rasm oʻquvchilar diqqatiga havola etilib, quyidagi:

l.Rasmda rassom qaysi ranglardan foydalangan? Daftaringizga ranglar deb ikki nuqta qoʻying va ranglarni ifodalovchi soʻzlarni yozing

2.Osmon qanday tasvirlangan? Uni tasvirlovchi soʻzlarni "osmon" soʻzi bilan birga qoʻllab yozing.

3.Togʻ qanday tasvirlangan? Uni tasvirlovchi soʻzlarni "togʻ" soʻzi bilan birga qoʻllab yozing.

4.Rasmda qaysi hayvonni koʻryapsiz? Hayvonning sifatlarini uning nomi bilan birga yozing.

5.Daraxtlarni kuzating. Unda nimani sezyapsiz? Shamolning xususiyatiarini qaysi soʻzlar bilan ifodalash mumkin?

kabi topshiriqlar berilsa, bolalar koʻrsatilgan rasmlar asosida sifatlar toʻplamini yaratadi.

Masalan:

1-topshiriq asosida oʻquvchilar quyidagi sifatlar toʻplamini yaratishi mumkin. Ranglar: oppoq, koʻk, koʻm-koʻk, jigar rang, sariq, sap-sariq, qizgʻish, qora, yashil.

2- topshiriq asosida esa: tiniq osmon, bulutli osmon, koʻm-kok osmon, musaffo osmon, qora bulutli osmon, oq bulutli osmon, tinch osmon.

3- topshiriq: baland togʻ, qorli togʻ, archali togʻ, qoyali togʻ, qorsiz togʻ, choʻqqili togʻ.

4- topshiriq: yirtqich ayiq, qoʻngʻir ayiq, besoʻnaqay ayiq, oq ayiq, beozor ayiq, masxaraboz ayiq va nihoyat,

5- topshiriq asosida: yoqimli shamol, sovuq shamol, qattiq shamol, mayin shamol, iliq shamol, tonggi shamol, kechki shamol, togʻ shamoli. Bir soʻz asosida bir necha sifatli birikmalar tuzdirish oʻquvchilar soʻz boyligining qay darajada ekanligini koʻrsatib beradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari so'z turkumlari (ot, sifat, son, olmosh, fe'l) bilan umumiy tanishtirilgandan so'ng har bir leksik-grammatik guruh alohida o'rganiladi. Bu so'z turkumlarini o'rganishning boshlang'ich bosqichidayoq ularni taqqoslashga qulay sharoit yaratadi va shakllantiriladigan grammatik tushunchaning asosiy tomonlarini aniqroq ajratishga imkon beradi.

O`quvchilar mana shu o`rgangan belgilari asosida so`z turkumlarini taqqoslaydilar. Ular nimani o'rganganlariga qarab, har bir so`z turkumining grammatik belgilari haqidagi bilimlari asta kengaya va chuqurlasha boradi. Dasturga ko'ra, boshlang'ich sinfda so'zlar dastlab javob bo'ladigan morfologik so'roqlariga qarab guruhlanadi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida turli metod va usullardan foydalanib, 3-sinfda "So`z turkumi" tushunchasi shakllantiriladi. O`quvchilar har bir so`z turkumiga xos ayrim belgilar (so'z turkumlarining umumlashtirilgan leksik ma'nolari, otlaming birlik va ko'plikda qo'llanishi, bo`lishli va bo'lishsiz fe'llar, ot, sifat, son va fe'lining gapdagi vazifasi) bilan tanishtiriladi.

4-sinfda so`z turkumlarining morfologik-sintaktik xususiyatlari haqidagi bilim chuqurlashtiriladi: o'quvchilar otlaming egalik va kelishiklar bilan o'zgarishini, sifat va sonning gapdagi vazifasini, kishilik olmoshlari va ularning kelishiklar bilan turlanishini, fe'llarda shaxs-son va zamonni o'rganadilar. Boshlang'ich sinflar dasturi o'quvchilarni so'z turkumlari mustaqil va yordamchi so'z turkumlariga bo'linishi bilan maxsus tanishtirishni ko`zda tutmaydi, ammo o'qituvchi bolalarni so`z turkumlarining belgilari bilan amaliy tanishtiradi. Boshlang'ich sinflarda ot, sifat, son, fe'l va kishilik olmoshlari o`rgatiladi va bunda sodda, oddiy, tushunarli tildan foydalaniladi. Ushbu mavzular bo`yicha qisqa qoidalar keltirilgan. Qoida bo'yicha mashqlar berilgan.

So`z turkumlarini o'rganishdagi pedagogik texnologiyalarning asosiy vazifa o`quvchilaming og`zaki va yozma nutqini o`stirish, lug'atini yangi ot, sifat, son, fe'llar bilan boyitish, o'quvchilar shu vaqtgacha foydalanib kelayotgan so'zlaming ma'nosini aniq tushunishiga erishish, bog'lanishli nutqda u yoki bu so'zdan o'rinli foydalanish malakasini o'stirish hisoblanadi. Bu vazifalarni muvaffaqiyatli hal qilish uchun so`z turkumlarini o`rganish jarayonida sinonim, antonimlar (atamalar

berilmaydi) ustida muntazam ish olib boriladi, o'quvchilar ko'p ma'noli so'zlar, ulaming o`z va ko'chma ma'noda ishlatilishi bilan tanishtiriladi.

## XULOSA

O'zbek tilida so'z turkumlarini o'rganish boshlang'ich sinflarda o'rganilgan bilimlarga asoslangan holda olib borilishi, o'tilganlarni takrorlash, mustahkamlash va umumlashtirish uchun quyidagi savollardan foydalanish mumkin.

1. O'zbek tilida so'z turkumlari qanday guruhlarga ajratiladi?
2. Mustaqil so'z turkumlari qaysilar?
3. Ot so'z turkumini tasnif qiling.
4. Mustaqil so'z turkumlariga ta'rif bering.
5. Yordamchi so'z turkumlari mustaqil so'z turkumlaridan qanday farqlanadi?
6. So'zlarning turkumlarga ajratishda qaysi xususiyatlar e'tiborga olinadi?

O'quvchi matndagi so'zlarning turkumlariga to'g'ri ajrata olsa, gap bo'laklarini aniqlashda ham qiynalmaydi. Demak, bu tahlil o'z-o'zidan sintaktik tahlil bilan bog'lanadi. So'z turkumlarining mohiyatiga to'la tushunmasdan turib, sintaktik tahlil vaqitida gapning bosh bo'laklari bilan grammatik munosabatga kirishmaydigan so'zlar (bo'laklar)ni aniqlash mumkin emas. So'z turkumlari bo'yicha tahlil, so'z tarkibi bo'yicha o'tkaziladigan tahlil kabi, morfologik tahlilning bir ko'rinishi bo'lib, u maktab dasturidagi "So'z turkumlari" mavzusining masalalarini qamrab oladi.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz, -T.: O'zbekiston, 2016.
2. Abdurahmonov G'. Xo'jayeva D. Hozirgi o'zbek adabiy tili. (akademik litseylar uchun darslik). –T.: O'qituvchi, 2003.
3. Jamolxonov. N. Hozirgi o'zbek adabiy tili. –T.: O'qituvchi, 2005.
4. Nurmonov A. O'zbek tilshunosligi tarixi. -T.: O'zbekiston, 2002.
5. Avliyakulov N.X., Namozova N.J. Muammoli o'qitish texnologiyalari. – T.: "Fan va texnologiyalar" nashriyoti, 2008. – 80 b.
6. G'afforova T.Boshlang'ich ta'limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar: O'quv qo'llanma. Toshkent. Tafakkur, 2011.

7. Muslimov N. va boshqalar. Innovatsion ta'lim texnologiyalari – Toshkent: 2015. – 208 bet.
8. Qosimova K. va boshq. Ona tili oʻqitish metodikasi. Toshkent-2009.

## MADANIYAT VA SAN’AT MILLIY QADRYATLARNING TIMSOLI SIFATIDA

***Toʻlanboyeva Vasila Toxirjon qizi***
*Namangan davlat pedagogika instituti*
*Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi yo’nalishi talabasi*

***Annotatsiya****. Ushbu maqola milliy qadryatlar hamda madaniyat, ularning o’zaro uyg’unligi hamda san’at qadryatlar tizimining ta’sirchan vositasi ekanligi borasidagi fikr mulohazalardan iborat*
***Kalit so’zlar****: madaniyat, san’at, qadryat, ijtimoiy qatlam, mentalitet*

Asrlar davomida bir hudud va bir makonda yashagan muayyan ijtimoiy guruh hamda yagon turdosh irq vakillarining turli xildagi omillar, tabiat hodisalari, ijtimoiy jarayonlar va e’tiqodining ta’sir nuqtai nazaridan kelib chiqib muayyan o’ziga xos qadryatlari va urf-odatlari, mentaliteti va an’analari vujudga keladi. Davrlar hamda turli ijtimoiy bosqichlar o’tishi bilan ushbu qadryat hamda an’analar sekin astalik bilan taraqqiy etadi va sayqallanadi, aholi turmush tarzi va ular hayotining ajralmas bir qismiga aylanadi. Qaysidir ma’noda qadryat hamda an’analar mazkur millat uchun muayyan talab hamda yo’nalishlar, turli qulaylik va ba’zi jarayon hamda hodisalar, amallardan cheklanish, turmush tarzi, hayot sohasining turli jabharidagi jarayonlarda tizimli fenomen vazifasini o’taydi deyish mumkin. Muayyan hududdagi ijtimoiy guruh, irqlar va yoki millatlarning qadryatlari, urf-odat va an’analari o’sha qatlamning ijtimoiy ko’zgusi hisoblanadi. Unda o’sha xalqning, o’sha millatning uzoq yillik orzu umidlari, maqsad hamda umidlari, o’zlari uchun mukammal hisoblagan timsollari, ezgulik va yovuzlik, johillik va saodat, xudbinlik va bahillik kabi sifatlar tasviri ostidagi o’xshatishlar, og’ir damlarda insonar hayotini saqlab qolgan vaqt, jarayon hamda muayyan hududlarga nisbatan o’zgacha ijtimoiy munosabat hamda mulohazalarning vujudga

kelishi, sekin astalik bilan uning boyib borishi qadryatlar tizimining harakterli jihati hisoblanadi deyish mumkin. Milliy qadryatlar hamda an'analar turli yo'sinda va ko'rinishda millat va jamiyat hayotining deyarli barcha sohalarida namoyon bo'ladi. Shunday timsollardan biri milliy madaniyat hisoblanadi. Xususan mamlakatimiz Prezidenti Sh. Mirziyoyev bu masalaga to'xtalar ekan:"Biz yaratayotgan yangi O'zbekistonning mafkurasi ezgulik, odamiylik, gumanizm g'oyasi bo'ladi. Biz mafkura deganda, avvalo, fikr tarbiyasini, milliy va uuminsoniy qadryatlar tarbiyasini tushunamiz. Ular xalqimizning necha ming yillik hayotiy tushuncha va qadryatlariga asoslangan" deb ta'kidlaydi.

Madaniyat so'zining lug'aviy jihatdan tahlil etadigan bo'lsak, ushbu so'z arabcha madina (shahar) so'zidan kelib chiqqan. Ushbu talqinga sabab sifatida arablar o'z davrida aholini ikki qatlamga, ya'ni ko'chmanchi hamda o'troq turmush tarzida yashaydigan insonlarga ajratilgan. Ko'chmanchi aholi muayyan joyda yashamagan va doimiy tarzda ko'chib yurishgan, o'troq aholi esa yagona hududda doimiy yashash natijasida muayyan turmush tarziga erishishgan. Shunga nisbat bergan holda madaniyat tushunchasiga urg'u beriladi. Sekin astalik bilan madaniyat tushunchasi ijtimoiy muhit hamda jamiyat hayotidagi o'zgarishlar natijasida boyib bordi. Hozirgi kunda biz uchun madaniyat bu inson faoliyati va shu faoliyatning ahamiyatini belgilovchi ramziy qurilmalar va asarlar majmuidir. Madaniyat musiqa, adabiyot, badiiy tasvir, me'morchilik, teatr, kinomatagrafiya, turmush tarzi kabi faoliyatlarda namoyon bo'lishi mumkin. Madaniyat – jamiyat, inson ijodiy kuch va qobiliyatlari tarixiy taraqqiyotning muayyan darajasi. Kishilar hayoti va faoliyatining turli ko'rinishlarida, shuningdek ular yaratadigan moddiy va ma'naviy boyliklarda ifodalanadi. Madaniyat tushunchasi asosan muayyan tarixiy davr, konkret jamiyat, elat va millat, shuningdek, inson faoliyati va turmushining o'ziga xos sohalarini izohlash hamda ifodalash uchun qo'llaniladi. Umumiy qilib aytadigan bo'lsak, madaniyat bu avvalo har bir jamiyat va ijtimoiy qatlam, elat va millatlarning doimiy tarzda takrorlanish natijasida hayotiy xususiyat hamda umumlashgan ahloq-odob, yurish turish holatlaridan tortib, so'zlashish jarayonidagi xususiyat va o'ziga xoslik, muayyan amaliy ishlar, yaratish, ijtimoiy munosabatlarga kirishish va boshqa jarayonlarni o'z ichiga olgan yaxlit tushuncha hisoblanadi. Shuningdek o'zida inson hayoti davomida

qo'llaydigan va umum e'tirof etilgan norma sifatida amal qilinadigan tushunchalar, tartib qoidalarni tarmoqlashtirgan holda individual qo'llash uchun asos bo'la oladigan mustaqil tizimli tushuncha ham hisoblanadi.

Bevosita milliy qaadryatlarda muayyan xalq va millatning orzu intilishlari, maqsad hamda an'ana, urf-odatlari shakllanadigan bo'lsa, madaniyat orqali ushbu jarayonlar amaliyotga o'tadi va o'zining insonlar turmush tarzida va hayot faoliyatida aks etishi bilan harakterlanadi. Xususan, milliy qadryatlarimiz tizmida o'zidan yoshi katta hamda ulug' bo'lgan insonlarga salom berish hayrli amal hisoblanadigan bo'lsa, uni bevosita amalga oshirish o'zbek madaniyatining asosini belgilovchi omillardan biri hisoblanadi. Shu bilan birga qadryatlarimiz tizimidagi o'zaro hurmat, nuroniylarni e'zozlash hamda ota-ona hamda farzand o'rtasidagi munosabatlar ham madaniy jihatdan ham huquqiy jihatdan mustahkamlangan masala hisoblanadi desak mubolag'a bo'lmaydi. Shuni ham alohida ta'kidlash kerakki, uzoq yillar davomida shakllangan milliy madaniyatimizning asosini qadryatlarimizning fundamental jihatlarni qamrab olgan ahloq-odob masalalari tashkil etadi. Ushbu ahloq odob qoidalariga amal qilish hamda uni kelgusi avlodlarga yetkazish jamiyatning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Milliy me'morchilik hamda hunarmandchilik, qo'shiqchilik va folklor, baxshichilik va boshqa ijtimoiy jarayonlarga ham nazar tashlaydigan bo'lsangiz, unda milliy qadryat hamda an'analarimiz, milliy ruhimizni gavdalantirgan timsollarni o'zida aks ettirganligini ko'rishingiz mumkin. Shu bilan birga oddiygina insonlarning kiyinish madaniyatiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, unda har bir hudud hamda ijtimoiy muhitning o'ziga xoslik elementlarini, umumiy hamda bir biridan faqr qiladigan jihatarini ko'rishmiz mumkin.

San'at ham bevosita milliy qadryatlarning asosiy hamda shu bilan birga ta'sirchan, rang-barang va o'zgacha timsollaridan biri hisoblanadi. San'at qadimiy tarixga ega bo'lib, u jamiyat taraqqiyotining ilk bosqichlarida mehnat jarayoni, kishilar ijtimoiy faoliyatining rivojlanishi bilan bog'liq holda vujudga kela boshlagan ijtimoiy jarayon hisoblanadi. San'at insonlarning estetik talablarini qondirish bilan birga, o'z taraqqiyotining turli davrlarida jamiyat a'zolarini ma'lum ruhda tarbiyalash, ularni aqliy va hissiy jihatdan rivojlantirish vositasi sifatida xizmat qilib kelgan , ularning turli maqsad, his tuyg'u, manfaat hamda ideallarini

ifoda etgan. San'at insonning moddiy va ma'naviy faoliyatidagi bilimi, tajribasi, mahorati va qobiliyatlarini namoyon etuvchi badiiy ijodiyot mahsulidir. San'at ison idealining, uning ichki olamida aks etgan rangdor bo'yoqlarning, yangi bir dunyoning zohiriy jihatdan aks etishi va inson dunyoqarashi, mavjud obe'ktiv dunyo va undagi hodisalarga bo'lgan munosabatining qaysidir predmetga tabiiy ta'sir etish orqali rang barang va nozik tarzda namoyon qilish jarayonining umumiy tasnifi hisoblanadi. San'at milliy qadryatlar hamda an'analarning bevosita turli bo'yoqlar hamda yondashuvlar asosida aks etishi, uning ichki olam hamda harakterini boshqalarga ta'sirchan tarzda yetkazish hamda ushbu qadryatlarning kelgusi avlodlarga me'ros sifatda qoldirishiga za'min yaratuvchi asosiy vosita hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda, san'at jamiyat ijtimoiy hayotining o'ziga xos tarzdagi, muayyan bir ijtimoiy davr muammolari, yutuqlari hamda hodisa jarayonlarini o'zida aks ettirishi hamda tarbiyaviylik, yo'naltirish hamda rag'batlantirish funksiyalari bilan ham ajralib turadi. Shuningdek san'at milliylik elementlarini targ'ib qilish hamda uni saqlagan holda avlodlarga yetkazishning samarali vositasi ham hisoblanadi.

Hozirgi shiddat bilan rivojlanayotgan bir davrda, jahon miqyosida har soniya yangi axborotlar, turi xilda ma'lumot hamda lavhalar ijtimoiy tarmoqlar hamda xalqaro internet tarmogi orqali tarqalayotgan bir sharoitda, milliy ma'naviyatimiz, milliy qadryatlarimiz, mental xususiyatimiz, o'zligimiz hamda milliy madaniyatimizni saqlab qolish hamda ularga hurmat hissini, milliy ruhni shakllantirish dolzarb masala hisoblanadi. Dunyo miqyosida "ommaviy madaniyat" nomi ostidagi turli xalqalar va millatlar, ayniqsa poklik hamda ozodalik, o'zaro hurmat hamda or-nomus, iffat va sharm hayo ustiga qurolgan sharq jamiyati uchun butkul to'g'ri kelmydigan. Inson hayot tarzini befoda o'yin-kulgu, aysh-ishrat bilan o'tkazishni, uning milliy va umuminsoniy qadryatlarni unutib, ongsiz individ holatiga keltirishni targ'ib qiluvchi g'oyalar va madaniyat oqimlari vujudga kelmoqda. Uning ta'siri ostida esa millat o'zining milliy harakteri hamda uzoq yilllik tarixiy tajribasi natijasida sayqal topgan madaniyat tizimidan mahrum bo'lmoqda. Bunday vaziyatda insonlar ongi shuuriga san'atning ta'sirchan vositalari orqali o'zligimizning go'zal va takrorlanmas qirralarini ochib berish,

uning jamiyat va millat hayotidagi o'rnini tushuntirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, har qaysi millat va jamiyat, muayyan irq hamda ijtimoiy guruhning uzoq yillar davomida shakllangan milliy qadryatari hamda an'analari, urf-odat va milliy mental xususiyatlari ushbu millatnng ruhini, ichki olami, orzu intilishlari, ezgu maqsadlari, oldida turgan ijtimoiy vazifalari, tarixi hamda buguni, ijtimoiy o'rni hamda harakterini belgilab beradi hamda ularning bus butun holda saqlab qolinishi milllatning tirikligi, uning mavjudligining asosiy belgisi va xususiyati hisoblanadi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari bo'yicha videosektorda so'zlagan nutqidan. 19.01.2021
2. B.Isoqov. Ma'naviyat - taraqqiyot mezoni. Namangan 2018. Namangan.
3. Internet ma'lumotlari

# МИЛЛИЙ ҚАДРИЯТЛАР ТИМСОЛИ

***Валишер Кутликов***

*Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти "Маданият ва санъат соҳаси менежменти" йўналиши 2 курс магистри*

***Аннотация:*** *Ушбу мақолада Шарқ халқларининг азалий байрами, ўзбек миллий қадриятлари тимсоли – Наврўз байрамининг тарихи, моҳияти ҳақида сўз боради.Наврўзни нишонлашга оид урф-одатлар, анъаналар, улуғ мутафаккирларнинг асарларидаги манбалар келтирилади, таҳлил қилинади.*

***Аннотация:****В данной статье говорится об истории и сущности праздника Навруз – древнего праздника восточных народов, символа узбекских национальных ценностей. Приводятся и анализируются обычаи, традиции, предания, источники из произведений великих мыслителей.*

***Annotation:*** *This article talks about the history and essence of the Navruz holiday - an ancient holiday of the eastern peoples, a symbol of Uzbek national values. Customs, traditions, legends, sources from the works of great thinkers are given and analyzed.*

***Калит сўзлар:*** *Қадрият, Наврўз, замин, фалсафа, меҳр-мурувват, мутаффаккир, асрий анъана,Учинчи Ренессанс, барака, аҳиллик, ислоҳот, тараққиёт, стратегия.*

***Ключевые слова:*** *Ценность, Навруз, земля, философия, доброта, мыслитель, вековая традиция, Третий Ренессанс, благословение, гармония, реформа, развитие, стратегия.*

***Keywords:*** *Value, Navruz, sarzamin, philosophy, kindness, thinker, age-old tradition, Third Renaissance, blessing, harmony, reform, development, strategy*

Халқимизнинг эстетик савиясини, маънавий талаб ва эҳтиёжларини таъминлаш борасида неча минг йиллардан бери яшаб келаётган миллий қадриятларимизнинг ўрни беқиёс. Донишманд тарих ўзбекона урф-одатлару анъаналарни, қадриятларни асраб-авайлаш борасида, уларни келгуси авлодга безавол етказишда доим ўз сўзини бaралла айтиб келган. Шунинг учун ҳам ўзбек зиёлилари билан бўлиб ўтган йиғилишда Ўзбекистон Президенти Шавкат Мирзиёев: "Бизнинг ҳавас қилса арзийдиган буюк тарихимиз бор. Ҳавас қилса арзийдиган буюк келажагимиз, буюк адабиётимиз ва санъатимиз ҳам албатта бўлади",- деган эдилар.[1]

Илдизлари қадим минг йилликларга бориб тақаладиган қадимий байрамимиз яшариш, янгиланиш, яратиш жиҳатлари билан ҳам ниҳоятда қадрли. У меҳнатсевар, яратувчан элимизнинггина эмас, умуминсоний манфаатларга хизмат қиладиган, она заминини севадиган, табиатини ардоқлайдиган ҳар бир халқнинг байрамидир.

Наврўз бу тинчлик, тотувлик, фаровонлик байрами. Миллати, динидан қатъий назар, шу юртда яшаётган барча миллат ва элатлар учун бирдек севимли айём. Унда халқимизнинг тарихи, фалсафаси, қадриятлари мужассам. Инсониятга баҳор қувончи, эзгуликка йўғрилган ширин туйғуларни бахш этувчи Наврўз шарқ халқлари учун янги йилнинг бошланиши сифатида ҳам

кенг нишонланади. Меҳр-мурувват, сабр-тоқат, меҳнатсеварлик каби улуғ инсоний фазилатлар тараннум этилади.Демак, бу айёмда ҳар бир халқнинг ўзига хос маънавияти, маданияти намоён бўлади.

Наврўз –форс тилидан “янги кун” маъносини билдиради. Уч минг йилдан зиёд тарихга эга Наврўзи олам – шарқона янги йилни ўзида ифодалайди. Зеро, бу байрамни Хитойдан то Болқонга қадар чўзилган минтақада муайян халқлар, хусусан, Эрон, Афғонистон, Ироқ, Сурия, Озарбайжон, Баҳрайн, Ливан, Покистон, Ҳиндистон, Туркия, Албания ҳамда Марказий Осиё давлатлари, шунингдек бошқа ўлкаларнинг миллатлари кенг нишонлайди.

Наврўз моҳиятига кўра қадимги аждодлар мифологик тасаввурларидан тортиб, ҳозирги замондошларимиз қарашларигача бўлган маънавият олами сингиб кетган.[2]

Олимларнинг берган маълумотларига кўра Наврўз башарият тарихида энг қадимги байрамлардан бири ҳисобланиб, унинг илдизи неолит даврига бориб тақалади. [3] Наврўз ва унинг келиб чиқиш ҳақида кўплаб ривоятлар мавжуд.Уларда Наврўз ва байрам давомида ўтказиладиган маросимлар ҳақидаги қимматли маълумотлар бор бўлиб, бу ҳақда Фирдавсийнинг “Шоҳнома”, Умар Хайёмнинг “Наврўзнома”, Маҳмуд Қошғарийнинг “Девону луғотит- турк”, Наршахийнинг “Бухоро тарихи” асарлари билан бир қаторда ўрта асрнинг буюк қомусий олими Абу Райҳон Муҳаммад ибн Аҳмад ал-Берунийнинг машҳур “Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар” (“Ал осор ал-боқия мин ал-курун ал-холия”, Европада “Хронология”, ўзбек Шарқшунослигида “Осор ал-боқия” номи билан танилган) асарида ҳам манбалар мавжуд.

Аллома “ҳақиқатга яқин исботу далиллар” асосида йилнинг боши, йилнинг энг муқаддас байрамларидан бири сифатида нишонланиши, жамият туриш-турмушига таъсири, миллий қадриятларга таъсирини “Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар” асарида батафсил тушунтириб берган.

Наврўз – йилнинг биринчи ойи “фарвардин моҳ”нинг биринчи куни ҳисобланиб, у деярли ҳамма халқларда байрам сифатида олти кун давомида нишонланган.Ойнинг биринчи куни “Наврўз”, олтинчи куни эса “Катта Наврўз” деб аталган, “Катта Наврўз” куни у ўз ишини тугатган деб фикр

юритганлар.Олимнинг ёзишича ушбу байрамнинг нишонланиш сабаблари турли халқлар орасида турли афсоналар билан боғланади. Байрамнинг “йилбоши” деб белгиланишининг сабаби эса қуйидаги афсона билан изоҳланади: қадимги зардуштлик динида яхшилик худоси Ахурамазда баҳор ва ёз ойларига, ёвузлик худоси Ахриман қиш ва куз ойларига ҳомийлик қилар экан.Ҳар йили тун ва акун тенг келадиган вақтда фарвардин моҳ (баҳор ойи) кириб келиб, у совуқлик устидан ғалаба қозонар ва одамлар қаҳратон қиш ва узундан узоқ туюладиган куз ойларининг тугаганлиги муносабатига катта уюштирар эканлар. Яна бир қадимги афсонага кўра, шу куни қуёш билан фаришлаталар яратилган бўлиб ҳаётнинг биринчи куни ҳисоблангани учун ҳам подшоҳлар бу кунни улуғлаганлар. “Айтишларича , худо куйи оламни яратиб, унга яратилган илк одам - Каюмарсни подшоҳ қилган”, Асарда келтирилган бошқа бир афсонага кўра, Сулаймон ибн Довуд шоҳлик рамзи саналган қимматбаҳо узугини йўқотиб, шоҳлиги қўлидан кетади. Қирқ ун ўтгандан кейин узуши топилиб, унга қайтарилади. Шу билан бирга унга шоҳлиги қудрати ва сеҳри қайтадан насиб этади.Бутун одамзод йиғилиб, уни қутлаб “Наврўз муборак”,”Янги кун келди” деганлар. Шундан буён бу кун Наврўз деб атала бошланган. “Қувонган Довуд Сулаймон шамолга буюрди, шамол уни кўтариб осмонга учди. Қаршисидан қалдирғоч чиқиб “Уямни босиб ўтма, ичида тухумларим бор деди”, Сулаймон қалдирғочга раҳми келиб, уни уясини айланиб ўтди. Шамол уни ерга қўйгач. Сулаймон миннатдорчилик сифатида тумшуғида сув келтириб, унга сув сепди ва чигирткaнинг бир оёғини ҳадя қилди”,- деб ёзади олим.

Берунийнинг фикрича, қадимда одамлар арғимчоқлар учишгани, ҳавога варраклар учиришгани ҳамда бир-бирларига шакар ҳадя қилишгани сабаби юқоридаги афсона билан боғлиқ бўлиши ҳам мумкин.Бундан ташқари боғдодликларнинг ҳикоя қилишларича, Наврўз куни бир-бирларига шакар совға қилишларининг сабаби Наврўз - Жамшид мамлакатида шакарқамиш пайдо бўлган кун бўлиб, шу куни Жамшид серсув бир қамишдан шира томчилаётганини кўрган. Уни тотиб кўриб, унда лаззатли ширинлик борлигини билгач, сувни чиқариб, ширасидан шакар ишлаб чиқаришни буюрган. Шакар бешинчи куни кўтариб олинган ва табриклаш учун бир-

бирларига ҳадя қилганлар.Асарда Меҳржон байрамида ҳам шу ҳақда маълумот берилгани таъкидланади. Наврўз куни барча касалликларга шифо топса бўладиган кун сифатида ҳам қадрланган бўлиб, "Афсунгарлар Наврўз куни тонг отганда биров гап гапиришдан олдин уч қошиқ асал ялаб, уч бўлак (хушбўй) мум тутатса, бу кўп касалликларга шифо бўлади деб ишонганлар, - деб ёзади Беруний. [4]

Наврўз айёми инсоният цивилизацияси тарихининг илк даврларига бориб туташади. Баҳор тенгкунлиги Наврўз кунига тўғри келади. Буюк алломаларимиз Абу Райҳон Беруний, Умар Ҳайём, Маҳмуд Кошғарийлар Наврўз байрами ҳақида ноёб фикрлар билдирганлар. Хусусан, улуғ мутафаккир, ҳазрат Алишер Навоий "СаддиИскандарий" достонида Наврўз байрами ҳақида шундай сатрлар битган:

Ки бу сур эрур олам афрўз ҳам,
Хусусан эрур фасли Наврўз ҳам...

Давлатимиз раҳбари таъбири билан айтганда :"Халқимиз миллий юксалиш ва миллий тараққиётнинг янги босқичига қадам қўйган ҳозирги вақтда барча эзгу қадрият ва анъаналаримиз қатори Наврўз байрамининг ҳам ҳаётимиздаги ўрни ва аҳамияти тобора ортиб бормоқда".

Бир сўз билан айтганда, Наврўз хотиржамлик, эзгулик ва тинчлик, бахтли ҳаёт ҳамда фаровонлик кириб келиши рамзидир.

Ўзбекистоннинг ноз-неъматларга бой заминида яшаётган аҳолининг барчаси Наврўзни хуш кайфият ва катта завқу шавқ билан кутиб олади.

Аммо тарих гувоҳки, собиқ иттифоқ даврида асрий анъаналаримиз таъқибга учради. Миллат маънавияти, ўтмиши, бугуни, келажагини белгилаб берувчи қадриятларга беписандлик билан назар ташланди. "Эскилик сарқити" сифатида бир четга улоқтирилди. Шукрки, у кунлар ортда қолди. Мамлакатимизда амалга оширилаётган кенг кўламли демократик ислоҳотлар жамият ҳаёти, инсонлар қалби ва онгида ҳам янгиланиш ва тараққиётга дахлдорлик ҳиссини уйғотмоқда. Шу муносабат билан жорий йилнинг 2 март санасида "2023 йилги Наврўз умумхалқ байрамига тайёргарлик кўриш ва уни ўтказиш тўғрисида" Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарори имзоланди.

Қарорга кўра:” Наврўзи оламнинг руҳи ва фалсафасида мужассам бўлган яхшилик ва бағрикенглик, аҳиллик ва ҳамжиҳатлик, атроф-муҳитни кўз қорачиғидек асраб-авайлаш каби олижаноб ғоялар Янги Ўзбекистонда амалга оширилаётган тарихий ўзгаришларнинг мақсад ва мазмунига ҳамоҳангдир”.

Буни юртимизда миллатлараро дўстлик ва тотувлик муҳитини мустаҳкамлаш, бағрикенглик, эзгулик ва келажакка дахлдорлик руҳида турли миллат ва элат вакилларининг Наврўзни нишонлашга оид урф-одатлари, анъана ва қадриятлари кенг намойиш этилган ҳолда ўзига хос ўтказилаётганида ҳам кўриш мумкин.

Айниқса, ушбу қадимий байрамнинг руҳи ва фалсафасида мужассам бўлган яшариш ва янгиланиш, яхшилик ва бағрикенглик, табиатни асраб-авайлаб, доимо у билан уйғун бўлиб яшаш каби умрбоқий ғоялар бугунги кунда мамлакатимизда амалга оширилаётган кенг кўламли ислоҳотларнинг асосий мақсади ва маъно-мазмунига ғоят ҳамоҳанг экани билан аҳамиятлидир.

Буюк ўзбек шоири Алишер Навоий таъбири билан айтганда, “Ҳар тунинг қадр ўлубон, ҳар кунинг бўлсин Наврўз”.

Дунёни меҳр бошқаради, дунё ўз меҳварида инсонийликни, хусусан, эзгуликни  жамлаб тургани рост. Тиллар бошқа бўлгани билан дилнинг, юракнинг нияти битта, Ўзбекистонни ёт кўзлардан асраш, юрт тараққиёти учун фидойиларча фаолият кўрсатиш, бир оила бўлиб  фарзандлар камолотига йўл очиш. Ўзбекистон халқаро ислом академиясида бўлиб ўтаётган байрам сайлида меҳнатидан бахт топаётган, фарзандлари тарбиясига камарбаста бўлаётган ва шу билан бирга амалий санъат, ҳунармандчилик кўргазмаларида совриндор бўлган турли миллат вакилларни кўрдим. Нафақат маданият ва санъат, балки  ҳунар ҳам турли тилларда сўзлашадиган инсонларни бирлаштирар экан.Ҳунарманд қардошларимизнинг  кўргазмаларига қараб инсоннинг завқи келади.

Наврўз умумхалқ, турли миллатларнинг ҳам байрами, Ўзбекистондаги 16 диний конфессия, 160 га яқин миллат вакиллари ҳам юртдошларимиз билан бирга байрам қилишади, миллий ўйинлар, миллий таомлар, миллий кийимлар танловлари ўтказишади.Ўзбекистонда фаолият кўрсатаётган қозоқ, қирғиз, турк, туркман, уйғур, озарбайжон, корейс, рус маданий марказларининг

вакиллари иштирокидаги ҳа йилги Наврўздаги мусиқий чиқишлар, дил изҳорлари бағрикенг ўзбекнинг яна бир гўзал байрамига ўзгача чирой бағишлайди.

Хусусан бу байрамнинг келиб чиқиши, тараққиёти, у билан боғлиқ урф-одат ва маросимлар, унинг Шарқ халқлари ҳаётидаги тутган ўрни ҳақида бебаҳо маълумотларни Берунийнинг ушбу асаридан билиш мумкин.

Мухтасар айтганда, улуғларимизда шундай гап бор. Қаерда аҳиллик бўлса, ўша ерда осойишталик бўлади, осойишталик бор жойдан эса файзу барака аримайди.

Учинчи Ренессанс пойдеворига тамал тоши қўйилаётган ҳозирги шиддатли ислоҳотлар миллий қадриятларнинг яшовчанлигини таъминлаш ва келажак авлодга безавол етказишнинг асоси бўлиб хизмат қилади.

**Фойдаланилган адабиётлар**

1. “Халқ сўзи”,2017.4 август. 1-2 Б.
2. Исаков Б. Исакова Н. Наврўз байрамининг маросимий таомлари. Ўзбекистон этнологиясининг долзарб муаммолари. Тошкент. Наманган. 2007.206 Б.
3. Ртвеладзе Э. Наврўз бахт ва фаровонлик байрами.Мозийдан садо.2003.№1 14 бет.
4. Беруний Абу Райҳон.Танланган асарлар.Т.Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар.Т.Фан.1968 й. Б.254.

## ARXEOLOGIK TADQIQOT ISHLARIDA OB’YEKTLAR BILAN TANISHISH USULLARI

***Maxsutaliyev Jahongir***
*Namangan davlat universiteti talabasi*

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada arxeologik tadqiqot ishlarida ob’yektlar bilan tanishish usullari, madaniy qatlamlarda ishlash, madaniy ob’yektlarning yoshini aniqlash, arxeologik tomondan tavsiflash hamda umumiy arxeologik tanishuv usullari to‘g‘risida so‘z yuritilgan.*

***Kalit so'z:*** *Madaniy ob'yektlar, paleontologiya, geologiya, artefakt, superpozitsiya qonuni, stratigrafik qatlamlar, element.*

Ko'p odamlar inson o'tmishiga o'ziga xos hayratga ega. Ehtimol, bu hayrat, odamlar o'zlarini ilgari yashaganlar qoldirgan narsalarda tan olishlari bilan bog'liq. O'tmish sivilizatsiyasining yodgorliklari inson tomonidan yaratilgan madaniy osori-atiqalar, ibodatxonalar va qabriston qoldiqlari ko'rinishida qadimiy xalqlarning fikr va dunyoqarashlarini anglashga yordam beradi. Ushbu qadimiy jamiyatlarni tushunishga intilishda insonning qiziqishi ba'zan bahaybat odamlar, ajdarlar va hatto o'zga sayyoralik mavjudotlar irqlari haqida fantastik afsonalarga olib keldi. Arxeologiya sohasida inson o'tmishini o'rganish uchun kamroq spekulyativ usullar qo'llaniladi. Ilmiy yondashuvlar va usullar bugungi kunda arxeologiyaning asosidir. Ana shunday arxeologik ob'yektlar bilan tanishishning ham turli usullari mavjud.

Madaniy ob'yektlarning yoshini aniqlash arxeologik tadqiqotlarning muhim elementidir. Saytning va uning ichida topilgan artefaktlarning yoshini aniqlash inson madaniyati vaqt o'tishi bilan qanday rivojlangan va o'zgarganligini tushunish uchun kalit hisoblanadi. Paleontologiya va geologiya kabi ilm-fanning boshqa sohalari ham qadimgi o'tmishdagi hayvonlar va o'simliklar turlarini va yer va hayvon turlarining vaqt o'tishi bilan qanday rivojlanganligini tushunish uchun tanishish usullaridan foydalanadi[1].

Qarindosh tanishuv

Tanishuvning dastlabki usullari geologiyada ishlab chiqilgan nisbiy tanishuv tamoyillaridan foydalangan. Kanyonlarda ochiq qoyalarni kuzatar ekan, geologlar har xil turdagi tosh qatlamlarini ta'kidladilar, ularni qatlamlar (birlikdagi qatlam) deb atashgan. Ularning faraziga ko'ra, pastdagi qatlamlar yuqoridagi qatlamlardan kattaroqdir; Bu superpozitsiya qonuni sifatida ma'lum bo'ldi. Superpozitsiya qonuniga ko'ra, nafaqat geologik qatlamlar, balki ular ichida joylashgan ob'ektlar ham nisbiy yoshga ega bo'lishi mumkin, chunki chuqurroq qatlamlardagi ob'ektlar yuqoridagi qatlamlardagi ob'ektlardan eskiroqdir. Superpozitsiya qonunining arxeologik dala ishlariga qo'llanilishi ba'zan stratigrafik superpozitsiya deb ataladi. Bu usul qatlam ichida topilgan yoki ikki yoki undan ortiq qatlamni kesib o'tuvchi har qanday madaniy yoki tabiiy artefakt qatlamning o'zidan yoshroq ekanligini

nazarda tutadi, chunki har bir qatlamning shakllanishi va shakllanishi uchun uzoq vaqt kerak bo'lar edi. , bezovta qilmasa, juda uzoq vaqt barqaror bo'lib qolar edi. Qatlamlarda buzilishlarni keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan kuchlarga misol sifatida vulqonlar yoki toshqinlar va odamlar, hayvonlar yoki o'simliklarning aralashuvi kabi tabiiy kuchlar kiradi.

Superpozitsiya qonuni birinchi marta 1669 yilda daniyalik olim Nikolas Steno tomonidan taklif qilingan. Olimlar tomonidan ushbu qonunning birinchi qo'llanilishining ba'zilarida megafauna (yirik hayvonlar, ko'pincha sutemizuvchilar) va dinozavr suyaklarining yerdagi holatiga qarab yosh ko'rsatilgan. Sutemizuvchilar megafaunasi va dinozavr suyaklari bir-biridan o'n minglab yillar uzoqlikda joylashganligi, dinozavr qoldiqlari esa ancha eskirganligi aniqlandi. Fotoalbom qoldiqlarining haqiqiy yoshining bu birinchi belgilari geologik vaqt ko'lamini inqilobiy yangi tushunishni taklif qildi[2].

Oxir-oqibat aniqlandiki, agar qatlamlarning ma'lum bir to'plami va ketma-ketligi bir nechta joylarda va yetarlicha katta maydonda qayd etilsa, bu hududning turli joylarida bir xil qatlamlar uchun yosh bir xil bo'lishini taxmin qilish mumkin. Ushbu tushuncha geologlar va arxeologlarga tuproq va jinslarning tuzilmalaridan mintaqada qayd etilgan hodisalarni ularning nisbiy joylashuviga qarab sanab o'tish uchun foydalanish imkonini berdi. Arxeologlar bu usulni arxeologik tabaqalanish deb atashadi va ular inson madaniy kontekstini aniqlash uchun qatlamli artefakt qatlamlarini izlaydilar. Madaniy qatlamlar ostida joylashgan stratigrafik qatlamlar yoshni aniqlash uchun asos bo'lib xizmat qiladi, yuqoridagi qatlamlar pastdagilarga qaraganda yaqinroq deb hisoblanadi[3].

Arxeologlar tomonidan qo'llaniladigan yana bir tanishish usuli tipologik ketma-ketliklarga tayanadi. Bu usul yaratilgan ob'yektlarni o'xshash ko'rinishdagi boshqa ob'yektlar bilan taqqoslaydi, ularning qanday bog'liqligini aniqlash uchun. Ushbu usul arxeologiyaning ko'plab kichik fanlari tomonidan umumiy ob'ektlar orasidagi munosabatlarni tushunish uchun qo'llaniladi. Misol uchun, tipologik ketma-ketlik ko'pincha mahalliy xalqlar tomonidan yaratilgan nayza uchlarida turli joylarda topilgan nuqta turlarini taqqoslash va arxeologik saytdagi nisbiy pozitsiyalariga qarab vaqt o'tishi bilan qanday o'zgarganligini tahlil qilish orqali amalga oshiriladi.

Tipologik ketma-ketlikning yana bir shakli qatorlash jarayonini o'z ichiga oladi. Seriyalash - bu nisbiy tanishish usuli bo'lib, unda artefaktlar bir xil madaniyatga tegishli ekanligi aniqlangandan keyin xronologik tartibda joylashtiriladi. Ingliz Misrshunosi Flinders Petri 19-asrda seriyani kiritgan. U o'zi kashf etgan dafnlarning sanasini aniqlash usulini ishlab chiqdi, unda ularning sanalari haqida hech qanday dalil yo'q va stratigrafiya orqali ketma-ketlikni ajratib bo'lmaydi. Muammoni hal qilish uchun u kulolchilik asosidagi qatlamlar tizimini ishlab chiqdi

Arxeologik yodgorliklarda saqlanib qolgan kulolchilik, tosh asboblar va boshqa ob'yektlarning tipologik ketma-ketligi nafaqat tanishish smetalarini ta'minlash uchun ishlatiladi. Ular, shuningdek, vaqt o'tishi bilan madaniyat, ijtimoiy tuzilma va dunyoqarashdagi o'zgarishlar haqida ko'p narsalarni ochib berishi mumkin. Masalan, dehqonchilik davrida yoki neolit davrida, taxminan miloddan avvalgi 12000-yillarda stratigrafiyada sezilarli o'zgarishlar ro'y berdi. Bu o'zgarishlarga ekilgan tuproqlarning ko'rinishi, o'ziga xos o'simliklar yetishtirilganligini ko'rsatadigan gulchanglar, ko'proq o'troq hayot tarzining dalillari va oziq-ovqat va donni saqlash uchun tobora muhim ahamiyatga ega bo'lgan kulolchilikdan ko'proq foydalanish kiradi. Arxeologik dalillar, shuningdek, aholi sonining ko'payishi va chorva va yerga egalik qilish va savdoning boshlanishi bilan bog'liq bo'lgan murakkab madaniy va iqtisodiy tizimning rivojlanishini ko'rsatadi. Savdo faoliyati bir sayt bilan bog'liq kulolchilik turlari boshqa yaqin yoki uzoq joylarda paydo bo'lganda aniqlanishi mumkin. Savdoda qo'llaniladigan ob'ektlar o'rtasidagi aloqalarni tan olish qo'shni jamoalar va aholi punktlari o'rtasidagi mumkin bo'lgan iqtisodiy va siyosiy o'zaro aloqalarni yoritishi mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:**

1. Egamberdiyeva N.A. Arxeologiya(o’quv qo’llanma). Toshkent 2011. 4-b

2. Анарбаев А.А., Баратов С.Р., Буряков Ю.Ф., Вульферт Э., Сайфуллаев Б. Археологические разведки и исследования на железнодорожной трассе Ангрен – Пап. // Археологические исследования в Узбекистане в 2012 году. Самарканд. 2013.

3. Arsixovskiy A.A Arxeologiya asoslari. Toshkent. 1970

4. Muhammadjonov, Abdulahad "Arxeologiya" O'zME. A-harfi Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil

# O'ZBEKISTONDA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINI RIVOJLANTIRISHDA MADANIYATNING TUTGAN O'RNI VA AHAMIYATI

***Musayeva Dilshoda Abdurahim qizi***
*Namangan davlat universiteti talabasi*

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada yurtimizda tobora rivojlanayotgan soha- ommaviy axborot vositalarini rivojlantirish va uning taraqqiyotida eng muhim omillardan biri bo'lgan madaniyatning o'rni va tutgan ahamiyati haqida so'z yuritiladi.*

***Аннотация:*** *В этой статье обсуждается роль и значение культуры, которая является одним из важнейших факторов развития СМИ и их развития, которые являются растущим сектором в нашей стране.*

***Annotation:*** *This article discusses the role and importance of culture, which is one of the most important factors in the development of the media and its development, which is a growing sector in our country.*

***Kalit so'zlar:*** *madaniyat, marifat, umuminsoniy, jadidchilik, jamiyat, millat, shaffoflik, jurnalistika, ommaviy axborot vositalari, demokratiya.*

***Ключевые слова:*** *культура, мораль, человечество, джадидизм, общество, нация, прозрачность, журналистика, СМИ, демократия.*

***Keywords:*** *culture, morality, humanity, Jadidism, society, nation, transparency, journalism, mass media, democracy.*

Ommaviy axborot vositalari – jamiyatni demokratlashtirish va fuqarolar erkinligini ta'mnlashning muhim shartidir. Demokratik islohotlarni hayotga tatbiq etish, yangicha dunyoqarashni shakllantirishda ommaviy axborot vositalarining o'rni va ahamiyati katta. O'zbekistonda ham siyosiy hokimiyat va fuqarolar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solib, bog'lab turuvchi, ular orasidagi shaffoflikni ta'minlab beruvchi birdan bir vosita ham

aynan ommaviy axborot vositalaridir. Shu sababli, junalistikaga bugungi globallashuv asrida, to'rtinchi hokimiyat darajasida e'tibor berilgani bejiz emas , albatta. Hozirgi shiddat bilan rivojlanayotgan zamonda OAV nafaqat jamiyatni axborotdan xabardor qilish vositasi sifatida, balki jamiyat manfaatlari nuqtai nazaridan davlat faoliyatini samarali tashkil etishga ham hisssa qo'shmoqda. Shu o'rinda madaniyat tushunchasiga ham to'xtalib o'tsak. Sababi har qanday sohaning rivojlanishida madaniyatning tutgan o'rni beqiyos darajada desam , yanglishmayman.

Madaniyat – inson faoliyati va shu faoliyatning ahamiyatini belgilovchi ramziy qurilmalar va asarlar majmuidir. Madaniyat musiqa, adabiyot , badiiy tasvir, me'morchilik , teatr, kinematografiya, turmush tarzi kabi faoliyatlarda namoyon bo'lishi mumkin. Antropologiyada " madaniyat" atamasi ostida mahsulotlar va ularni ishlab chiqarish, estetik ma'no berish hamda shu jarayonlarga bog'langan ijtimoiy munosabatlar tushuniladi. Shu o'rinda aytishimiz mumkinki, Madaniyat o'z ichiga san'at, fan va manaviy tizimlarni oladi.

Har qanday sohaning rivoj topishini istasak, avvalo, fuqarolarimizga madaniyat tushunchasi va uning mazmun-mohiyati haqida tushuntira olishimiz zarur. Shu jumladan jurnalistika, ya'ni ommaviy axborot vositalarining taraqqiy etishida ham dastavval madaniyat tushunchasini targ'ib qilish lozim. Sababi qachonki, tomoshabinda tinglay olish , eshitish, tahlil qilish madaniyati shakllansagina u jurnalistni tushunadi, ommaviy axborot vositalariga hurmat ko'zi bilan qaraydi. Madaniyat alohida individning hayot faoliyati (shaxsiy madaniyat) ni hamda ijtimoiy guruhning yoki jamiyatning hayotfaoliyati usulini aks ettiradi, qolaversa madaniyat- umuminsoniy hodisa, faqat bir xalqqategishli, faqat bir xalqning o'zinigina yaratgan sof Madaniyat bo'lmaydi va bo'lishi ham mumkin emas. Har bir milliy Madaniyatning asosiy qismini shu millat o'zi yaratgan bo'lsa-da, unda jahon xalqlari yaratgan umuminsoniy Madaniyatning ulushi va ta'siri bo'ladi, albatta. Madaniyat hech qachon sinfiy hodisalar qatoriga kira olmaydi. U hammaga teng xizmat qiladi. Masalan: san'at va adabiyot durdonalari, me'morlik obidalari, maqomlar, fan yutuqlari va barchaga tegishlidir

E'tiborlisi shundaki, axborotlashgan jamiyat, jamoatchilik bilan aloqalar (omaviy kommunikatsiya) asr muammosi sifatida sertarmoq fan maqomiga ega boʻla borayotgan hozirgi vaqtda axborot madaniyati pillapoyaning yuqorisiga koʻtarildi. Ommaviy axborot vositalaridan zararli maqsadlarda foydalanish, farzandlarimizning notoʻgʻri yoʻllarga chalgʻishi, oldi-qochdilarga guldek umrini befoyda sovurishlari, ayniqsa, mobil aloqa vositasi tufayli kelib chiqayotgan koʻplab noroziliklar, turli koʻngilsiz voqea-hodisalar bu borada qilinadigan ishlar nihoyatda koʻpligidan darak beradi. Jahonning rivojlangan mamlakatlarda axborot madaniyati (infoetika, mediaetika, mediata'lim , va hokazo ) alohida fan, alohida muammo , alohida pedagogika, alohida siyosat darajasiga chiqdi. Ilmiy markazdan, olim-u mutaxassislar ushbu muammolar tevaragida ixtisoslashgan holda, yuz berayotgan holatni oʻrganishmoqda, tahliliy asarlar yaratishyapti. Haqli savol tugiladi barchamizda, oʻz ixtiyorimizdagi axborot vositalaridan foydalanish madaniyati me'yorlarini nechogʻli oʻzlashtirganmiz? Ularni amalda qoʻllayapmizmi? Oʻsha jonsiz buyumlar har birimizni imtihondan, sinovdan oʻtkazayotganini – fe'l-atvorimizda yangi axborot madaniyatiga ehtiyot orta borayotganini yetarli darajada his etyapmizmi? Axborot vositalarining har biri moʻjiza, inson aql-idrokining mahsuli, ularning har biri bilimni oshirish, dunyoqarashni kengaytirishga xizmat qiladi, ularning har biri bilimni oshirish, dunyoqarashni kengaytirishga xizmat qiladi. Teletomosha hamda radio tinglash madaniyati, internetdan foydalanish madaniyati – barchasini umumlashtirib aytganda, axborot madaniyati asri insonlarni chin ma'noda oʻyga toldirib qoʻymoqda. Shu sababli ham bogʻcha yoshidanoq bolalarda madaniyat tushunchasi shakllantirilib borilsa, boshqa sohalarni egallashda turli qiyinchiliklar tugʻilmaydi. Hozir zamon shundayki, har qanday jamiyat oʻzagini, demak taraqqiyot yoʻsinlari umurtqasini madaniyat tashkil etishi isbot talab qilinmaydigan hayot haqiqatiga aylanib ulgurdi. Inson ongli mavjudot. U hayotining har bir lahzasida axborot oladi, yo uni idrok etadi va yoinki uni uzatadi.

Ushbu jarayonlarning yana biri – keraksiz axborotdan xalos boʻlish. Kerakli va keraksiz axborotlarni ajratish, ularni qiyosiy tahlil qilish uchun esa ommaviy axborot vositalarining ham madaniyatini chuqur oʻrgangan holda

hayotga tatbiq etishimiz darkor. Ana shundagina biz axborot olish va uni uzatishda turli muammolarga duch kelmaymiz. Bir so'z bilan aytsak, axborot madaniyati – hayot-mamot masalasidir.

**Foydalangan adabiyotlar:**

1. "Xalq so'zi" gazetasi. N:221.16.10.2021
2. www.wikipedia.uz

## ABU ALI IBN SINONING PEDAGOGIK QARASHLARI YORDAMIDA KOMIL INSON SHAXSINI SHAKLLANTIRISH

***Boydavlatov Azamat Ahmadali o'g'li***
*Namangan davlat pedagogika instituti magistranti*
*e-mail: azamatboydavlatov443@gmail.com*
*tel:+998913649964*

***Anotatsiya:*** *Ushbu ilmiy maqolada, ilk Sharq uyg'onish davrining yirik namoyondasi, buyuk tabib, faylasuf va pedagog Abu Ali ibn Sinoning pedagogik qarashlari, bola tarbiyasiga oid fikrlari haqida so'z boradi.*

***Kalit so'zlar:*** *Abu Ali ibn Sino, tarbiya, ilm, komil inson, odob-axloq.*

***Annotation:*** *This scientific article discusses the pedagogical views of Abu Ali ibn Sina, a major exponent of the early Eastern Renaissance, a great healer, philosopher and educator, and his thoughts on raising children.*

***Key words:*** *Abu Ali ibn Sina, education, science, perfect man, etiquette.*

***Аннотация:*** *В этой научной статье рассказывается о педагогических взглядах, взглядах на воспитание ребенка великого врача, философа и педагога Абу Али Ибн Сины, крупного представителя раннего Восточного возрождения.*

***Ключевые слова:*** *Абу Али Ибн Сина, воспитание, наука, совершенный человек, этикет.*

**KIRISH.** Jahon ilmi va madaniyatining yirik namoyondalaridan biri, butun musulmon sharqining ulkan qomusiy aqli, "Shayx-ur rais" (olimlar raisi) nomi bilan ma'lum va mashxur, sharqda ilmiy didaktika asoschilaridan biri hisoblangan

Abu Ali ibn Sino, manbalarda keltirilishicha, 980-yilning Safar (avgust) oyida Buxoro yaqinidagi Afshona qishlogʻida, amaldor oilada tugʻilgan. Allomaning toʻliq ismi Abu Ali al-Husayn ibn Abdulloh ibn al-Hasan ibn Sino boʻlib, kunyasi Abu Alidir. Ibn Sinoning otasi Abdulloh Balx shaxridan boʻlib, Somoniylar amiri Nuh ibn Mansur (960-997) davrida Buxoroga koʻchib kelgan va Xurmaysan qishlogʻiga moliya amaldori etib tayinlangan. Abdulloh ikki oʻgʻilning otasi boʻlib, oʻgʻillarining kattasi Xusayn (ibn Sino), va kenjasi Maxmud edi. Ibn Sino yoshligidan ilm-fanga boʻlgan oʻzgacha muhabbati, kuchli zehni bilan tengqurlari orasida ajralib turardi. Oʻn yoshidayoq Qur'oni Karimni yod olib, 13 yoshlaridan boshlab riyoziyot, mantiq, fiqh, handasa (geometriya), falsafa ilmlari bilan ustozi Abu Abdulloh Notiliy rahbarligida shugʻullana boshlaydi. Qomusiy olim bu bilan cheklanib qolmagan holda Hasan ibn al-Qamariydan tib ilmini oʻrganishga kirishadi va asta-sekin tabiblik bilan ham xalq orasida nom qozonadi. Ibn sino oʻz hayoti davomida kishining ijtimoiy hayoti borasida qator fikrlarni bildirib oʻtgan. Xususan, bola tarbiyasi borasidagi qarashlari har qanday davrda ham oʻz qadr-qimmatini yoʻqotmay kelmoqda.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR.** Asrlar davomida insoniyat uchun xizmat qilib kelayotgan, hozirgi kunda ham oʻz mavqeini yoʻqotmagan va katta ehtimol kelajak avlod uchun ham qimmatli ma'naviy meros boʻlib xizmat qilguvchi shunday asarlar borki, ularni oʻqib oʻrganish, bu ilm xazinasidan nasibador boʻlish ilm talabida yoʻlga chiqqan har bir tolibi ilmning oʻz bilimlari sarhadini kengaytirishda muhim oʻrin tutadi. Shonli tariximiz zarvaraqlarini varaqlar ekanmiz, dunyo ilm-fan tamadduniga oʻzlarini bemisl hissalarini qoʻshgan buyuk ajdodlarimiz bilan yetarlicha faxrlansak arziydi. Uchinchi renessans negizida Yangi Oʻzbekistonni barpo etishga kirishar ekanmiz, bu maqsadga erishishda allomalarimiz tomonidan yozib qoldirilgan asarlardan, ularning jamiyat hayotiga oid turli qarashlaridan foydalanmogʻimiz gʻoyat muhim ahamiyat kasb etadi. Shu kungacha Abu Ali ibn Sinoning boy me'rosini oʻrganish, uni kelajak avlodga yetkazish borasida bir qator olimlar ilmiy izlanishlar olib borgan va bu borada oʻzlarining kitoblarini ommaga taqdim etgan. Xususan, rus olimasi Smirnova-Rakitina oʻzining "Abu Ali ibn Sino qisssasi" asarida allomaning hayotini, bosib oʻtgan ilm yoʻlini, yozib qoldirgan asarlari, shuningdek, biz oʻz maqolamizda

asosiy mavzu deya tanlaganimiz pedagogik qarashlarini bayon etgan. Shuningdek, oʻzbek olimlaridan S.Mirzayev, A.V.Sagadayev, A.Semyonov, H.Hikmatullayev, A.Zunnunovlar mualliflik kitoblarida ibn Sinoning hayoti, ilmiy-ma’rifiy faoliyati, pedagogik qarashlari, ta’lim va tarbiya haqidagi fikrlari hamda tarbiya usullari borasida ma’lumotlar berib oʻtishgan. Olim Komiljon Hoshimov boshchiligida yozilgan “Oʻzbek pedagogikasi antologiyasi” kitobida allomaning ijodiy faoliyati, yozib qoldirgan asarlari bilan bir qatorda hikmatli soʻzlari, xulq-atvor, doʻstlik, hamjihatlik, sevgi-sadoqat mavzularidagi qarashlari keng yoritilgan.

Allomaning boy ma’naviy merosini oʻrganish, tadqiq etish koʻplab sohalar kabi Pedagogika fanlar tarmogʻining ham rivojiga katta hissa qoʻshishi shubxasiz. Komil inson shaxsini kamol toptirish jarayonida bolaning jismoniy va ruhiy tarbiyasida e’tibor qaratilishi lozim bo’lgan jihatlar, qoʻllanilishi mumkin boʻlgan usullar ibn Sino asarlarida yorqin ifodasini topgan.

**MUHOKAMA VA NATIJALAR.** Barcha davr va zamonlarda har bir millat oʻz naslini, ya’ni farzandlarini toʻgʻri tarbiyalashga, sogʻlom holda oʻstirishga, ma’nan va jismonan barkamol qilib voyaga yetkazishga intilib kelgan. Millatning eng ulugʻ allomalari esa bola tarbiyasi, uni sogʻlomlashtirish borasida hamisha gʻamxoʻrlik qilib kelishgan va buning amaliy isboti oʻlaroq oʻnlab ilmiy-tibbiy asarlar, ibrat olsa arzigulik hikmatlar, yoʻriqlar, tavsiyalar yozib qoldirishgan. Oʻz xalqi uchun fidokorona xizmat qilgan mana shunday allomalardan biri Abu Ali ibn Sino hazratlaridir. U kishi millat va yurt kelajagini har tomonlama sogʻlom farzandlardagina koʻrganlar. Pedagog olim Abu Ali ibn Sino barkamol avlod shaxsiyatida chin insonga xos ulugʻ fazilatlar, sof hamda pokiza tuygʻular, ilk hayotiy tushunchalar, dastlabki tasavvurlar oila deya atalmush qoʻrgʻonda hosil boʻlishini ta’kidlab oʻtgan. Shuning uchun barkamol avlod tarbiyasida oilaning oʻrni alohida ahamiyatga ega deb hisoblagan. Olimning fikricha, oila muhitida faqat oʻz shaxsiy manfaati uchun emas, balki boshqalar uchun ham yashaydigan, qaygʻuradigan insonni tarbiyalash lozim. Shuningdek, Ibn Sino bola tarbiyasida u bilan yakka holda suhbatda boʻlish usulini tavsiya qilgan. Suhbat davomida xalqning hikmatli soʻzlaridan, ertaklaridan, dostonlaridan misollar aytib, odob-axloq tushunchasini bola ongida shakllantirish lozimligini ta’kidlaydi.

Mutafakkir bekorchilik va ayshu-ishrat nafaqat kishining sogʻligʻiga jiddiy taʼsir etadi, ayni vaqtda nodonlikka ham sabab boʻladi deb hisoblagan. Alloma taʼkidlab oʻtganidek, aysh-ishrat insonni sogʻlom turmush tarzidan uzoq qilish bilan bir vaqtda faol ijtimoiy hayotdan ajralib qolishiga sabab boʻladi. Yalqovlik, eʼtiborsizlik, loqaydlik kabi sifatlarni kishida namoyon etib, uning tarbiyasiga ham bevosita salbiy taʼsir koʻrsatadi. Muntazam bu illatga ruju qoʻyish, odamiylik fazilatlari oʻrnini xudbinlik, bezorilik, jinoyatga moyillik egallashiga sabab boʻladi. Buning natijasida kishi hayotni yorqin ranglarda emas, balki negativ nigoh ila koʻra boshlaydi. Kichik muammolar ham ulkan gʻovdek tuyulib, bu sinov oldida dovdirib qolishi, hayotning yorugʻ, umidli, omadli koʻchasidan chetga chiqib qolishi mumkin. Bunday kezlarda ana shunday irodasi sust kishilar oʻzlari uchun zarur taskinni kashandalik, ichkilikbozlik va giyohvandlik kabi razil illatlardan izlay boshlaydi va bu normal sogʻlom turmush tarzi izdan chiqishiga olib keladi. Shu kabi holatlarni ibn Sino oʻz asarlarida "sharob mast qiladi, uxlatadi, eslash qobiliyatini, nafsoniy quvvatlarni pasaytiradi", deya taʼriflab oʻtgan.

Abu Ali ibn Sino inson kamolotga erishmogʻi uchun ham maʼnan, ham jismonan yetuk boʻlishi kerak deb hisoblagan. Bu qoidani oʻz hayotida ham amaliy ravishda qoʻllab kelgan. Manbalarda keltirilgan maʼlumotlarga koʻra, alloma yoshlik chogʻlaridanoq ilmda kamolot kasb etish bilan bir qatorda, jismoniy mashqlarni ham kanda qilmagan. Har kuni tongda odatdagidan ertaroq uygʻonib, hali hovlida hech kim uygʻonmasidan burun, ibn Sino daraxt tanasidagi oʻzi chizgan nishonga qarab birin-ketin xanjar otardi. Bu mashgʻulot ketma-ket besh bor aniq moʻljalga tegmagunga qadar davom etardi. Soʻngra oʻzi yasagan oʻq yoyni olib nishonga qarata oʻq uzar, oʻn ikki oʻq birin-ketin moʻljalga borib qadalgandagina bu mashgʻulot yakuniga yetardi. Jismoniy mashqlar inson ruhiyatini tetiklashtirishi, uning aqliy faoliyatiga ijobiy taʼsir etishi bilan ahamiyatlidir. Shuningdek, alloma kishi kamolotga erishmogʻi uchun egallagan ilmi manfaatli boʻlishida, oʻrgangan bilimlarini kelajak avlodga qoldirmogʻi, bu yoʻlda duch keladigan toʻsiqlardan hayiqmasligi kerakligini taʼkidlaydi. Shu boisdan oʻz asarlarida "Ey birodarlar ! Odamlarning botiri mushkulotdan qoʻrqmaydi, kamolot hosil qilishdan bosh tortgan kishi odamlarning eng qoʻrqogʻidir", deb yozadi. Ilm va axloq uzviy bogʻliq tushuncha boʻlib, ular birgalikda insonni komil shaxs sifatida shakllanishida asosiy

jihatlardan ekanligini bot-bot takrorlaydi. Ibn Sino fikricha, insondagi ijobiy axloqiy hislatlar qatoriga saxiylik, chidamlilik, kamtarlik, sevgi-muhabbat, moʻtadillik, aqllilik, ehtiyotkorlik, qat'iyatlilik, sadoqat, intilish, uyatchanlik, ijrochilik va shu kabi kishi tarbiyasida namoyon boʻlishi mumkin boʻlgan boshqa ijobiy sifatlar kiradi. Inson yomon illatlarni yengishda oʻz imkoniyatlarini ongli sarf etmogʻi lozim, deydi olim. Yuqoridagi hislatlarni ongli ravishda boshqarish, kishiga yomon illatlardan saqlanishda muhim vosita boʻlib xizmat etadi. Masalan, moʻtadillik-tan uchun zaruriy oziq va xulq me'yorlariga toʻgʻri kelmaydigan ishlarni qilmaslikka undaydi, saxiylik-yordamga muhtoj odamlarga yordam berish, ularni ogʻirini yengil qilish kabi vijdoniy ishlarni bajarishga moyillikni oshiradi, chidamlilik-kishi oʻz boshiga tushgan qiyinchiliklarni, sinovlarni goʻzal sabr bilan yengmoqlikga sabab boʻladi, kamtarlik-xudbin ishlar bilan shugʻullanmaslikda, oʻzgalarga nisbatan tavozeda boʻlishlikda muhim hisoblanadi. Ibn Sino insonning kamolotga yetishida toʻsqinlik qiluvchi nuqsonlar sifatida johillik, nodonlik, shavqatsizlik, takabburlik, nafratni koʻrsatadi. Johillikni– ilmga, nodonlikni– zehni oʻtkirlikka, shavqatsizlik, takabburlikni – adolatga, nafratni – sevgi-muhabbatga qarama-qarshi illat sifatida ta'riflaydi. Mutafakkir, kishilarning jamiyatda oʻzaro samimiy doʻstlik munosabati asosida turmush tarzini tashkil etishini yuksak axloqiy hislatlardan biri deya hisoblaydi. Chunki, insonlar doimiy bir-biri bilan muloqotga kirishuvchan ekanligini e'tiborga oladigan boʻlsak, ular oʻrtasidagi munosabat doʻstona, samimiy ruhda boʻlishi insonlar faoliyatining samarali boʻlishini ta'minlaydi.

Umuman olganda, ibn Sinoning pedagogik qarashlari zamirida insonning yetuk axloqiy shaxsga aylanishida lozim boʻlgan ma'lumotlar manbaini yetarlicha topishimiz mumkin.

**XULOSA.** Xulosa qilib aytganda, ibn Sino asarlaridagi pedagogik qarashlar nafaqat oʻz asri uchun, balki ayni bugungi globallashuv davri uchun ham gʻoyat ahamiyatlidir. Internet saytlari, ijtimoiy tarmoqlar sarhadi kengayib, olis gʻarb madaniyati kishi ongiga ta'sir etish imkoniyati tobora oshib borgani sari, bolaga sharqona sogʻlom tarbiya unsurlarini singdirish masalasi dolzarb vazifaga aylanib bormoqda. Bu masalani samarali yechimi sifatida, sharq mutafakkirlari, xususan, Abu Ali ibn Sinoning bola tarbiyasiga oid pedagogik qarashlari dasturul-amal boʻlib xizmat qiladi desak, mubolagʻa boʻlmaydi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Смирнова-Ракитина В.А. Абу Али ибн Сино қиссаси. – Т.: Ёш гвардия нашриёти, 1969.
2. Boydavlatov A. Abu Ali ibn Sinoning pedagogik qarashlari va yoshlar tarbiyasiga ta'siri. Ta'lim va taraqqiyot, 1-son. 2023-yil, 13-mart.
3. Zunnunov A. Pedagogika nazariyasi. Toshkent Aloqachi, 2006. – B.35-39
4. Муталов С. Лидерлик қобилияти Шарқ мутафаккирлари нигоҳида. Янги Ўзбекистон, 140-сон. 2022 йил, 13 июль.
5. Mirzayev Y. Madiyev J. Tib ilmi yalovbardori. Tafakkur, 2016.

## STEAM TA' LIM TEXNOLOGIYASI ASOSIDA TALABALARNI ILMIY FAOLIYATGA YO 'NALTIRISHNING PEDAGOGIK MEXANIZMLARI

***Xasanboyev Azizbek Botirali o`g`li***
*Namagan davlat pedagogika instituti*
*Pedagogika nazariyasi va tarixi yo`nalishi 1-bosqich magistranti.*

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada talabalarni STEAM ta'lim texnologiyasiga asoslangan ilmiy faoliyatga yo'naltirishning pedagogik mexanizmlari muhokama qilinadi. STEAM fan, texnologiya, muhandislik, san'at va matematikani anglatadi. Maqolada talabalar o'rtasida ilmiy ta'limni rivojlantirish uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan turli xil usullar haqida to'liq ma'lumot berilgan. Tadqiqot shuningdek, STEAM ta'limining talabalarda innovatsiya va ijodkorlikni rivojlantirishdagi ahamiyatini ta'kidlaydi.*

***Kalit so'zlar:*** *STEAM, pedagogik mexanizmlar, ilmiy faoliyat, fan, texnika, muhandislik, san'at, matematika.*

*Annotation:This article discusses pedagogical mechanisms for redirecting students to scientific activities based on STEAM education technology. STEAM stands for Science, Technology, Engineering, Arts, and Mathematics. The article provides a comprehensive overview of different methods that can be employed to promote scientific learning among students. The study also highlights the importance of STEAM education in fostering innovation and creativity in students.*

***Keywords***: *STEAM, Pedagogical Mechanisms, Scientific Activities, Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics.*

***Аннотация:*** *В данной статье рассматриваются педагогические механизмы переориентации студентов на научную деятельность, основанные на технологии STEAM education. STEAM означает науку, технологию, инженерное дело, искусство и математику. В статье представлен всесторонний обзор различных методов, которые могут быть использованы для содействия научному обучению студентов. Исследование также подчеркивает важность обучения в STEAM для развития инноваций и креативности у студентов.*

***Ключевые слова:*** *STEAM, Педагогические механизмы, Научная деятельность, Наука, Технология, Инженерное дело, Искусство, Математика.*

Bugungi jadal rivojlanayotgan dunyoda ilmiy bilimlar tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Talabalar ushbu texnologik landshaftni boshqarish uchun zarur ko'nikma va bilimlarga ega bo'lishlari kerak. STEAM ta'lim texnologiyasi-bu fan, texnologiya, muhandislik, san'at va matematikani o'z ichiga olgan har tomonlama ta'limni ta'minlashga qaratilgan yondashuv. Biroq, talabalar ba'zan ilmiy faoliyat bilan shug'ullanish uchun kurashishlari mumkin. Ushbu maqolada talabalarni STEAM ta'lim texnologiyasiga asoslangan ilmiy faoliyatga yo'naltirishning pedagogik mexanizmlari muhokama qilinadi.

Tadqiqot talabalarni STEAM ta'lim texnologiyasiga asoslangan ilmiy faoliyatga yo'naltirish uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan turli xil pedagogik mexanizmlarga qaratilgan. Usullarga muammoli o'rganish, o'yin asosida o'rganish va multimedia asosida o'rganish kiradi. Muammoga asoslangan ta'lim talabalarga ilmiy fikrlash va muammolarni hal qilishni talab qiladigan haqiqiy muammolarni taqdim etishni o'z ichiga oladi. Tarjima qilingan ta'lim o'quvchilarga darsdan tashqari ma'ruzalar tomosha qilish yoki materiallarni o'qish va keyin sinfda ilmiy faoliyat bilan shug'ullanish orqali an'anaviy sinf modelini aylantirishni o'z ichiga oladi. O'yin asosida o'rganish talabalarni ilmiy faoliyatga jalb qilish uchun o'yinlar va simulyatsiyalardan foydalanishni amalga oshiradi.

STEAM ta'lim texnologiyasi-bu fan, texnologiya, muhandislik, san'at va matematikani o'z ichiga olgan har tomonlama ta'limni ta'minlashga qaratilgan yondashuv. Ushbu yondashuv turli fanlarni birlashtiradi va muammolarni hal qilish, tanqidiy fikrlash va ijodkorlikka qaratilgan. STEAM ta'lim texnologiyasi ilmiy savodxonlikni rivojlantiradi va talabalarni 21-asrning texnologik landshaftida harakat qilish uchun zarur ko'nikma va bilimlar bilan ta'minlaydi. Bu talabalarga o'z bilimlarini Real vaziyatlarda qo'llashga imkon beradigan amaliy, loyihaga asoslangan o'rganishni ta'kidlaydi. STEAM ta'lim texnologiyasi talabalarda yangilik va ijodkorlikni rivojlantiradi va ularni muhandislik, texnologiya, dizayn va san'at kabi sohalarda keng ko'lamli martabalarga tayyorlaydi.

STEAM ta'lim texnologiyasining bir qancha afzalliklari mavjud, jumladan:

1. Tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini targ'ib qiladi: STEAM ta'lim texnologiyasi talabalarni muammolarni hal qilishga va tanqidiy fikrlashga undaydigan amaliy, loyihaga asoslangan ta'limga qaratilgan. Ushbu yondashuv talabalarni haqiqiy muammolar va muammolarni hal qilishga tayyorlaydi.
2. Ijodkorlik va innovatsiyalarni kuchaytiradi: STEAM ta'lim texnologiyasi talabalarga turli fanlarni o'rganish va o'z bilimlarini yangi va innovatsion usullarda qo'llash imkonini berish orqali ijodkorlik va innovatsiyalarni rivojlantiradi. Ushbu yondashuv talabalarni qutidan tashqarida o'ylashga va muammolarga noyob echimlarni topishga undaydi.
3. Talabalarni XXI asr ishchi kuchiga tayyorlaydi: bugungi tez o'zgaruvchan dunyoda texnologik yutuqlar mehnat bozorini o'zgartirmoqda. STEAM ta'lim texnologiyasi talabalarni XXI asr ishchi kuchida muvaffaqiyat qozonish uchun zarur ko'nikma va bilimlar, shu jumladan kodlash, muhandislik va dizayn kabi ko'nikmalar bilan ta'minlaydi.
4. Turli fanlarni birlashtiradi: STEAM ta'lim texnologiyasi fan, texnologiya, muhandislik, san'at va matematikani o'z ichiga olgan turli fanlarni birlashtiradi. Ushbu yondashuv talabalarga turli sohalar o'rtasidagi aloqalarni ta'kidlaydigan har tomonlama ta'lim beradi.
5. Ishtirok etish va motivatsiyani oshiradi: STEAM ta'lim texnologiyasi talabalarga amaliy va tajriba o'rganish imkoniyatlarini beradi, bu esa faollik va

motivatsiyani oshiradi. Ushbu yondashuv talabalarni o'rganishda faol rol o'ynashga undaydi va o'rganishga bo'lgan muhabbatni kuchaytiradi.

Umuman olganda, STEAM ta'lim texnologiyasi talabalarni tez o'zgaruvchan dunyoda muvaffaqiyatga tayyorlaydigan ko'plab afzalliklarni beradi. Bu tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, innovatsiyalarni targ'ib qiladi va talabalarni XXI asr ishchi kuchi sifatida tayyorlaydi.

Talabalarni STEAM ta'lim texnologiyasi asosida ilmiy faoliyatga yo'naltirishning pedagogik mexanizmlariga quyidagilar kiradi:

1. Muammoga asoslangan ta'lim: ushbu yondashuv talabalarga ilmiy fikrlash va muammolarni hal qilishni talab qiladigan haqiqiy muammolarni taqdim etishni o'z ichiga oladi. Bu talabalarga ilmiy faoliyat bilan shug'ullanishga undaydigan haqiqiy dunyo kontekstini taqdim etadi.
2. Flipped learning: Flipped learning o'quvchilarga darsdan tashqari ma'ruzalar tomosha qilish yoki materiallarni o'qish va keyin sinfda ilmiy faoliyat bilan shug'ullanish orqali an'anaviy sinf modelini aylantirishni o'z ichiga oladi. Ushbu yondashuv talabalarga o'z tezligida o'rganish imkonini beradi va faol o'rganishga yordam beradi.
3. O'yinga asoslangan ta'lim: o'yinga asoslangan ta'lim talabalarni ilmiy faoliyatga jalb qilish uchun o'yinlar va simulyatsiyalardan foydalanishni o'z ichiga oladi. Ushbu yondashuv talabalarga qiziqarli va interaktiv o'rganish usulini taqdim etish orqali jalb qilish va motivatsiyani rag'batlantiradi.
4. Multimedia-ga asoslangan ta'lim: Multimedia-ga asoslangan ta'lim ilmiy ta'limni rivojlantirish uchun video, animatsiya va simulyatsiya kabi turli xil multimedia manbalaridan foydalanishni o'z ichiga oladi. Ushbu yondashuv talabalarga ilmiy o'rganishda yordam beradigan turli xil manbalarni taqdim etadi.

Umuman olganda, ushbu pedagogik mexanizmlardan talabalarni ilmiy faoliyatga yo'naltirish va ilmiy o'rganishni rivojlantirish uchun foydalanish mumkin. Ushbu usullarni qo'llash orqali o'qituvchilar talabalarni ilmiy faoliyat bilan shug'ullanishga jalb qilishlari va rag'batlantirishlari va talabalarda yangilik va ijodkorlikni rivojlantirishlari mumkin.

Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, ushbu pedagogik mexanizmlar talabalarni STEAM ta'lim texnologiyasiga asoslangan ilmiy faoliyatga yo'naltirishda samarali.

Muammoli ta'lim talabalarga ilmiy faoliyat bilan shug'ullanishga undaydigan haqiqiy dunyo kontekstini beradi. Tarjima qilingan ta'lim talabalarga o'z tezligida o'rganishga imkon beradi va faol o'rganishga yordam beradi. O'yinga asoslangan ta'lim faollik va motivatsiyani rivojlantiradi, multimedia asosidagi ta'lim esa talabalarga ilmiy o'rganishda yordam beradigan turli xil manbalarni taqdim etadi.

**XULOSA VA TAKLIFLAR:**

Xulosa qilib aytganda, STEAM ta'lim texnologiyasi fan, texnologiya, muhandislik, san'at va matematikani o'z ichiga olgan har tomonlama ta'limni ta'minlaydi. Talabalarni ilmiy faoliyatga yo'naltirish uchun muammoli ta'lim, aylantirilgan ta'lim, o'yinga asoslangan ta'lim va multimedia asosidagi ta'lim kabi pedagogik mexanizmlardan foydalanish mumkin. O'qituvchilar ushbu usullarni qo'llash orqali talabalar o'rtasida ilmiy ta'limni rivojlantirishga e'tibor qaratishlari kerak. Va nihoyat, maktablar va universitetlar talabalarning tez rivojlanayotgan dunyoda muvaffaqiyat qozonish uchun zarur ko'nikma va bilimlar bilan ta'minlanishini ta'minlash uchun STEAM ta'limiga sarmoya kiritishlari kerak.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. З.М.Ашурова. Таълим олиш жараёнини самарали бошқаришда педагогик технологияларни қўллаш. Scientific Progress. 2:7 (2021), pp. 801-807.
2. Дилова Н.Г. (2021). Педагогик ҳамкорлик жараёнининг мазмуни ва уни ташкил этиш тамойиллари. Science and Education. Vol. 2, Issue 10, 547-557 бетлар.
3. Z.M.Ashurova. Using STEAM Technology in Preschool Education. European journal of innovation in nonformal education. 2:6 (2022), pp. 6-10.
4. Dilova N.G. (2021). O'qituvchi-o'quvchi hamkorligini vujudga keltirishning pedagogik ahamiyati. Science and Education. Vol. 2, Issue 10, 567-576 betlar.

## TEXNOLOGIK RIVOJLANISHNING EKOLOGIYAGA TA'SIRI

***No`monov Shahzod Farhod o`g`li***

*Namangan davlat universiteti Tabiiy fanlar fakulteti 3-bosqich talabasi*

*Ilmiy rahbar:Doliyev G`olibjon Alisherovich, texnika fanlari doktori, professor*

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada globallashuv davrida mamlakatimizda sodir boʻlayotgan texnologik rivojlanish va bu rivojlanishning ekologik muhitga koʻrsatayotgan ta’siri, yurtimizdagi ekologik muhitni yaxshilash uchun qanday chora tadbirlar koʻrilayotgani va kelajakda qanday choralar hamda yangi innovatsion gʻoyalar ishlab chiqishimiz kerakligi toʻgʻrisida fikr yurutilgan.*

***Kalit soʻzlar:*** *Ekologiya, transport, ishlab chiqarish, yashil shahar.*

***Abstract:*** *In this article, the technological development taking place in our country during globalization and the impact of this development on the ecological environment, what measures are being taken to improve the ecological environment in our country, and what measures and new innovative ideas should be developed in the future. thought about.*

***Key words**: Ecology, transport, production, green city.*

***Аннотация**: В этой статье технологическое развитие, происходящее в нашей стране в условиях глобализации, и влияние этого развития на экологическую среду, какие меры принимаются для улучшения экологической среды в нашей стране, и какие меры и новые инновационные идеи должны быть разработаны в будущем.*

***Ключевые слова:*** *Экология, транспорт, производство, зеленый город*

*Agar chang va gʻubor boʻlmaganda edi, inson ming yil yashar edi.*

***Abu Ali Ibn Sino***

Barchamizga sir emaski, XXI asr yuksak rivojlanayotgan texnologiyalar asri hisoblanadi. Oʻtgan atigi yigirma ikki yil mobaynida butun dunyo tasavvur qilib boʻlmas darajada tez va samarali rivojlanib bormoqda. Nafaqat mamlakatimizda, balki butun dunyoda ilm-fan, tibbiyot, sport, texnika-texnologiya, madaniyat, ishlab chiqarish, xizmat koʻrsatish va shu kabi koʻplab sohalarga berilayotgan ishonch va imkoniyatlar, albatta, taqsinga sazovordir. Yuqorida keltirilgan sohalarning barchasini bir-biri bilan chanbarchas bogʻliq holda olib borilsagina, mamlakat oʻz taraqqiyot yoʻlida ilgʻor harakat qilishi mumkin. Ayniqsa, texnika-texnologiyadan har sohada foydalanish vaqtning va harajatlarning tejalishiga, ishdagi xavf-xatar

va riskining kamayishiga, inson omilining kamayishiga, aniqlik va sifatning oshishiga, qulay sharoit va imkoniyatlar yaralishiga sabab bo'ladi.

Yurtimizda ham globallashuv jarayonida bir lahza ham rivojlanishdan ortda qolmaslik maqsadida barcha rejali ishlar olib borilmoqda. Texnika-texnologiyalarga berilayotgan imoniyatlar esa bu maqsad yo'lida madatkor bo'lmoqda. Birgina logistika sohasini rivojlantirish uchun yurtimizga ko'plab avtobus, tez yurar poezdlar, samalyot va tramvaylar olib kelinmoqda. Shuningdek, yengil avtomobillar ishlab chiqarish sohasi jadal rivojlanmoqda. Bundan tashqari, ekspertbop mahsulotlar ishlab chiqarish maqsadida ishlab chiqarish korxona va firmalari jahon standartlari asosida tayyorlangan zamonaviy texnologiyalar bilan ta'minlanmoqda. Rivojlanishning bu yo'li, albatta, yaxshi. Ammo tanganing ham ikkinchi tomoni bo'lgani kabi bu kabi texnika-texnologiyalarning ham o'ziga yarasha ziyon tomonlari mavjud.

Biz maqtayotgan texnika-texnologiyalar ishlash jarayonida o'zidan zaxarli xidlar, modda va bug'lar chiqaradi. Bu kabi zaxarli tutunlar atrof-muhitga, ekologiyaga zarar keltirib, toza havoning ifloslanishiga sabab bo'lmoqda. Ayniqsa, shahar joylarida tashish transportlari, ishlab chiqarish korxona va zavodlaridan chiqayotgan zaharli moddalar sog'lom hayot uchun sun'iy to'siq bo'lib xizmat qilmoqda. Ko'p qavatli va zamonaviy jihozlangan uylarga o'rnatilgan havo sovutgichlardan chiqayotgan freon gazlari azon qatlamining yemirilishiga sabab bo'lmoqda. Barchamizga ma'lumki, azon qatlami insoniyat uchun berilgan buyuk ne'matlardan biri bo'lib, u quyoshdan tarqalayotgan ultra binafsha nurlarining juda katta qismini o'zida ushlab qolib, bizga ko'rsatishi mumkin bo'lgan zararlarini yuqori darajada kamaytirmoqda. Bundan tashqari azon qatlami yozni haddan ziyod issiq bo'lib ketmasligini, qishni esa juda qattiq sovub ketmasligini ta'minlab beradi. Shunday ekan biz o'zimiz bilmagan holda o'zimizga dushman bo'lib qolmayapmizmikan?

Ekologiyaga bo'layotgan bunday salbiy ta'sirlarni kamaytirish maqsadida mamlakatimizda ijobiy ishlar olib borilayotganini ham ta'kidlab o'tishimiz lozim. Texnologiyalar chiqarayotgan korbonat angidiridni kamaytirish, qaysidir ma'noda uni kislorod bilan almashtirish maqsadida yashil shahar shiori ostida shahar joylarida ham manzarali daraxt ko'chatlari o'tqazish, bir-biridan chiroyli rang-

barang gullar ekish an'ana tusini olmoqda. Mana masalan, yaqindagina Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan e'lon qilingan "Yashil makon" loyihasi doirasida yiliga 200 mln tup daraxt va buta ko'chatlarini ekish rejalashtirilgan. "Yuksalish" umummilliy harakati O'zbekistonda daraxt sonini oshirishga qaratilgan shu kabi tashabbuslarni qo'llab-quvvatlaydi. Shu maqsadda respublikamizning 6 ta hududida "Bir million daraxt" aksiyasini o'tkazmoqda. Daraxtlar faqatgina havodagi zaharli karbonat angidiridni yutib, o'rniga kislorod ishlab chiqaribgina qolmay, yozning issiq kunlarida soyabon vazifasini o'taydi hamda atrof-muhitni shovqinlardan himoya qiladi.

Ma'lumotlarga ko'ra, hozirgi kunda dunyo bo'yicha 3 trln atrofida daraxt mavjud. Biroq har bir daqiqada ularning 27 ta futbol maydoniga teng qismi kesilmoqda.

"Atmosfera havosini muhofaza qilishning asosiy yo'nalishi shahar va aholi yashaydigan punktlarda atmosfera havosining sifatini yaxshilash, keyinchalik sanitar gigienik qoidalarga rioya qilish, buning uchun Respublikamizning barcha hududlarida chiqindilarni kamaytirish, kam chiqindili texnologiyalarni yaratish, chang to'plovchi va tozalovchi yangi qurilmalarni yaratish va ularning ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, esirgan qurulmalarni yaxshilash bilan almashtirish va boshqalar."[1]

Kelasi yillar davomida mamlakatimiz aholisining salomatligini yaxshilash hamda ekologiyaga ijobiy ta'sir ko'rsatish maqsadida respublika miqyosida haftaning bir kunini transport vositalaridan vos kechgan holda piyoda yurish kuni etib belgilash mushtarak maqsadimiz yo'lida yaxshi bir qadam bo'lib xizmat qiladi. Shu yurt farzandi ekanmiz barchamiz bir yoqadan bosh chiqarib, sog'lom hayot sari an'anaviy ishlarni davom ettirishimiz, bizgacha asrab kelingan dunyoni kelasi avlodga ham yetkazishimiz barchamzning burchimizdir.

**Foydalanilgan adabiyotlar va internet ma'lumotlari:**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
2. Tursunov H.T – "Ekologiya. 2006-y.
3. [1] I.Ayubova – "Atrof-muhit sifat analizi va monitorngi". 2016-y.
4. P.Sultonov – "Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish asoslari". 2016-y.

**Internet ma'lumotalari:**

1. www.wikipedia.uz
2. www.eco.uz

# YOSHLARDA IJTIMOIY TARMOQLARDAN FOYDALANISH KO`NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH VA IJTIMOIY TARMOQLAR ORQALI TARG`IB QILISHNING ZAMONAVIY VOSITALARI

***Musayeva Dilshoda Abdurahim qizi***
*Namangan davlat universiteti 3-bosqich talabasi*

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada hozirgi kundagi dolzarb masalalardan biri bo`lgan yoshlar masalalari va ularning ijtimoiy tarmoqlardan to`g`ri va oqilona foydalanish ko`nikmalarini shakllantirish, targ`ibot ishlarini olib borish masalalari haqida so`z boradi.*

***Kalit so`zlar:*** *ijtimoiy tarmoq, global, virtual, axborot, mediasavodxonlik, g`oya, bloger, follover, facebook, twitter, telegram, instagram, multimedia, gender tenglik*

Maqolamizning mazmunini to`laqonli ochib berish uchun, avvalo, biz ijtimoiy tarmoq tushunchasining mazmunini tahlil qilishimiz lozim. Ijtimoiy tarmoq deyilganda hayolimizda telegram, instagram va facebook kabi ijtimoiy tarmoqlar gavdalanadi. Aslidachi ijtimoiy tarmoq nima? Ijtimoiy tarmoq-onlayn platform bo`lib, muloqot qilish vositasi hisoblanadi.Virtual global makonda g`oyalar, qiziqishlar va boshqa ifoda shakllarini yaratish hamda o`zaro axborot almashishning tizimlashtirilgan dasturiy texnologiyasi hisoblanadi.Ijtimoiy tarmoq internet dasturi sifatida turli interaktiv Web-2.0 Internet ilovasi orqali yaratiladi. Ilovalar foydalanuvchilar tomonidan matnli xabar yoki sharhlar, fotosuratlar, videolavha singari o`zaro onlayn axborot almashish kontenti tashkil qilinadi.Masalan KitApp korporatsiyasining OSAndroid iOSsingari tarmoqning tarkibiy qismini yaratish imkonini beruvchi dasturiy ta`minot to`plamlaridan foydalanish mumkin.Shuningdek, bugungi kunda internet tarmog`ida eng ommabop bo`lgan ijtimoiy tarmoq, telegram, instagram, facebook, twitter singari

axborot almashish portalllaridan ham "shaxsiy blog" yoki "shaxsiy kanal" ni tashkil qilish mumkin.Qolaversa, ijtimoiy tarmoqni boyitish va turli video, grafika, musiqa singari multimedia vositalari bilan boyitish imkonini taqdim etuvchi onlayn instrumentlar sayti[canva, infogra, vizualiza] mavjud.Raqamlarga asoslangan ma`lumotlarga to`xtalaladigan bo`lsak, eng mashhur ijtimoiy tarmoqlar quyidagicha foydalanuvchilarni o`z ichiga qamrab olgan:

"Facebook-1,4 mlrd,QZone [kitay]-654 mln,Google+-300 mln,Instagram-300 mln,Sina Weibo [kitay] -176 mln,Linkedln-332 mln, VKontakte-52,7 mln,Odnoklassniki-42,6 mln,Moy Mir-30,6b mln.Telegram foydalanuvchilari esa 500 mln foydalanuvchini tashkil etadi".[1]O`tkazilgan so`rovnomalarga ko`ra ijtimoiy tarmoqlardan foydalanuvchilar soni 87 foizni, ro`yxatdan o`tganlar soni 93 foizni hamda mazkur tarmoqda faoliyat yuritib daromad topuvchilar soni 89 foizni tashkil qilgan.2018-2021-yillar oralig`ida ijtimoiy internet tarmog`I foydalanuvchilarining o`sish shkalasi quyidagi tartibda o`sib borgan. Aynan barchamizga ma`lum bo`lgan Covid-19 pandemiya davrida ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilarining soni kekin ortib ketganini guvohi bo`ldik. Internet tarmog`I hamda ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilari amalda "Follower"-kuzatuvchi nomi bilan yuritiladi."Followerlarning o`rtacha yosh ko`rsatgichi 16-34 yoshni tashkil qilib ular axborot olish va tarqatish, ko`ngilochar mashg`ulotlar, ta`lim, muloqot hamda iqtisodiy maqsadlarda foydalanishadi".[2] Yurtimizdagi ijtimoiy tarmoqlarda faoliyat yurituvchi bloger va followerlarning soni quyidagi raqamlarni tashkil qiladi:"Xushnudbek-376700,Davron Fayziyev-75000,Davletovuz-57000,Fayzblog [Temur Malik]-21000,Alimoff-25000,Asanovformati-25000,Raisbuva-57500,Muhrim-10500,Rasul Kushirbayev-53000".[3]Bu o`rtacha eng ko`p nashr qilinishi mumkin bo`lgan gazeta tirajidan ko`proq ekanligini kuzatishimiz mumkin.E`tiborli jihati shundaki, amalda mavjud blog va blogerlarfaoliyati foydalanuvchi "follower" larga turlicha ta`sir qiladi.Jumladan, psixologik, iqtisodiy, madaniy, ma`rifiy, siyosiy va ijtimoiy.Mazkur ta`sir taqdim qilinayotgan content tarkibi va axborot mohiyatidan kelib chiqadi.Aytib o`tish joiski, foydalanuvchilar ijtimoiy tarmoqda tarqalayotgan axborotning barchasini filtrlash qobiliyatiga ega emaslar."Dezinformator"lar faoliyat ko`lami va ta`sir doirasiga qarab turlicha nomlanadi. Jumladan:Trolling,Kibberbulling,"Xeyter"lar,"Xayper"lar,"Agitator".

Yuqorida omlari qayd etilgan dezinformator ya`ni noto`g`ri axborot tarqatuvchi shaxslarning faoliyati psixologik, siyosiy, iqtisodiy maqsadlarni ko`zlaydi.Natijada:

Axborot xurujlari,Siyosiy beqarorlik,Iqtisodiy beqarorlik,Jamiyatdagi muvozanatning buzilishi,Turli radikal oqimlarga kirib ketish g`oyaviy buzg`unchiliklarga sabab bo`lishi mumkin.Mazkur vaziyatda yoshlarni ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish ko`nikmalarini rivojlantirish maqsadida Mediasavodxonlikni oshirish, huquqiy-siyosiy bilim darajasini rivojlantirish, madaniy-ma`rifiy targ`ibot ishlarini samarali va tizimli tarzda yo`lga qo`yish, milliy qadriyat va an`analarga chqur hurmat va sadoqat tuyg`ularini keng targ`ib qilish, ta`lim-tarbiya jarayonlariga alohida e`tabor qaratish, iqtisodiy-ijtimoiy bilim darajasini oshirishga qaratilgan ishlar samaradorligiga e`tiborli bo`lish, diniy bag`rikenglik g`oyalarini yoshlar orasida targ`ibotini kuchaytirish, gender tengligi masalalari borasidagi axboriy bilimlarni rivojlantirish va kuchaytirish shart.Qolaversa ushbu ko`nikmalarni strategik rivojlantirishda zamonaviy targ`ibot texnologiyalaridan foydalanish maqsadga muvofiq.Jumladan, maqsadli auditoriya bilan ishlash, Icloud-texnologiyasi, targeting texnologiyasi, auditoriyani kommodifikatsiyalash, axboriy xurujlarga javob strategiyasi, mediatreninglar tashkil qilish, ijtimoiy roliklar tasvirga tushirish, OAV mediametriyasi kabi texnologiyalarga e`tibor berish, ogohlik- davr talabidir. Yana bir muhim jihat borki, e`tiborsizlik qilib, yuzaki qarab o`tish bilan ish bitmaydi. "Mamlakatimizda Axborot xavfsizligi masalasiga davlat siyosati darajasida e`tabor qaratilib, kiberjinoyatchilikka qarshi kurashishning yangi yondashuvlari amaliyotga joriy qilinmoqda".[4] Chunki virtual olamdagi jinoyatlarning zarari va xavfi real olamdagi tahdiddan oshib borayotganiga guvoh bo`lyapmiz. Bu borada "Kiberxavfsizlik to`g`risida" gi yangi qonunning qabul qilinayotgani sohani davlat tomonidan tartibga solishga, mamlakatimiz axborot tizimlari va tarmoqlariga noqonuniy aralashishning oldini olishga xizmat qiladi. Kiberjinoyatlarga qarshi kurashishning zamonaviy tendensiyalari, internet tarmog`i orqali sodir etilayotgan qonunbuzilishlarining oldini olish, sohaning huquqiy asoslarini mustahkamlash, axborot texnologiyalaridan foydalanib amalga oshirilgan jinoyatlarni kriminalistik tadqiq etish, fosh etish va tergov qilishning o`ziga xos xususiyatlari, kiberxavfsizlikni ta`minlashda davlat idoralari va xususiy sektorlar hamkorligini

muvofiqlashtirish masalalarida ham so`nggi yillarda yurtimizda salmoqli ishlar amalga oshirildiBugungi zamonaviy globallashib borayotgan dunyoda jamoatchilik bilan aloqalar olib borish, ommaviy chiqishlar qilish, ommaviy chiqishlarda o`z fikr-mulohazalarini tinglovchilarga aniq, ravon va qisqa shaklda yetkazish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu jarayonlarda ham biz beixtiyor ijtimoiy tarmoqlarga murojaat qilamiz. Ijtimoiy tarmoq aslida, agar o`rinli foydalanilsa foydali ma`lumotlar manbaidir. Biroq, ayrim yoshlarning noo`rin hatti-harakatlari tufayli ular axborot xurujlarining va "o`rgimchak to`r" larining qurboniga aylanmoqdalar.Aynan, ijtimoiy tarmoqdan foydalanish madaniyati keng miqyosda tarqalmaganligi bois ham mana shunday oxiri ko`ngilsizlikka olib boruvchi illatlar ko`paymoqda. Siz-u biz, o`z taqdiriga, Vatanining taqdiriga befarq bo`lmagan insonlar, yoshlar vakillari sifatida ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish madaniyatining targ`ibot ishlarida jonkuyarlik bilan ishtirok etib,faol fuqarolik pozitsiyamizni namoyish qilaylik.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:**

1.iiv.uz

2.www.uzjoku.uz

2.daryo.uz

3.www.wikipediya.uz

4.xalqso`zi.uz

# ARXEOLOGIK QAZISHMALAR DAVOMIDA ISHLATILADIGAN TEXNIKALAR HAMDA XRONOLOGIK TANISHISH USULLARI

***Maxsutaliyev Jahongir***

*Namangan davlat universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti*

*Arxeologiya yo'nalishi talabasi*

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada arxeologiyaning davlat miqyosidagi o'rni, bu soha bo'yicha qilinayotgan amaliy ishlar va tadqiqotlarning jamiyatimiz va yurtimiz tarixi uchun qanchalik zarurligi to'g'risida so'z yuritilgan.*

***Kalit so'z:***, *Google earth, GPS, arxitektura, artefakt, ekofakt, ekspeditsiya, radioaktiv uglerod, dendroxronologiya, uran parchalari.*

Arxeologiyada dala tadqiqotini o'tkazishda birinchi qadam sirt artefaktlari yoki madaniy qoldiqlarni aniqlash potentsialiga ega bo'lgan hududni o'rganishdir. So'rovlar dala bo'ylab oddiygina yurish orqali amalga oshirilishi mumkin yoki ular yerdan ko'rish qiyin bo'lgan g'ayrioddiy topografiya va potentsial tuzilmalarni qidirish uchun dronlar yoki Google Earth kabi turli texnologiyalardan foydalanishni o'z ichiga olishi mumkin. Topilgan madaniy yodgorliklar saytni arxeologik qazish uchun asos bo'lishi mumkin[1]. Qazish birliklari yoki sinov chuqurlaridan tasodifiy namuna olish topilgan madaniy materiallar miqdori asosida saytning potentsialini aniqlashi mumkin. GPS koordinatalari ko'pincha madaniy qoldiqlarning har bir bo'lagi uchun to'planadi, shuningdek, potentsial tabiiy resurslarning ko'rsatkichlari bo'lishi mumkin bo'lgan joylarda topilgan o'ziga xos o'simliklar va hayvonlar haqidagi eslatmalar. Yo'llar, yo'llar va uy chuqurlari kabi xususiyatlar hujjatlashtirilgan va dala eslatmalarining to'liq to'plamiga kiritilgan. Hukumat idoralarida arxeologik obida nima ekanligi haqida turli protokollar mavjud; ko'p sohalarda standart oltita madaniy ob'ektlar bir-biriga yaqin joylashgan.

Qazishmalar uchun joy tayyorlayotganda, arxeologlar butun maydonni to'r tizimidan foydalangan holda kvadrat bo'laklarga bo'lishadi, bu sayt yuzasida o'lchangan kvadratlarni o'rashni o'z ichiga oladi[2]. Ushbu tarmoq tizimi arxeologlarga barcha artefaktlar va xususiyatlarni joyida (asl joyida) topilganligi sababli hujjatlashtirish va xaritalash imkonini beradi. Ochilgan barcha ob'ektlar va xususiyatlar yorliqlarga yozilgan va artefaktlarga biriktirilgan katalog yoki qo'shilish raqamlari bilan belgilanadi. Agar artefaktlar saytdan olib tashlangan bo'lsa, bu teglar ayniqsa muhimdir.

Qazish sekin jarayon. Arxeologlar mo'rt suyak va boshqa artefaktlar atrofidagi tuproqni ehtiyotkorlik bilan olib tashlash uchun molga va hatto tish cho'tkalari bilan ishlaydi. Polen tadqiqotlarini o'tkazish uchun tuproq namunalari olinishi mumkin. Ekofaktlar - urug'lar, qobiqlar yoki hayvonlarning suyaklari kabi tabiiy kelib chiqishi ob'ektlari - boshqa mutaxassislar, masalan, hayvon qoldiqlarini o'rganuvchi zooarxeologlar yoki o'simliklar (o'simliklar) tahliliga ixtisoslashgan

arxeobotaniklar tomonidan tekshirilishi mumkin. vaqt o'tishi bilan o'simliklar va odamlar o'rtasidagi tarixiy munosabatlarga qiziqish bilan qoladi.

Har bir madaniy va tabiiy ob'ekt va ob'ekt dala yozuvlarida to'liq hujjatlashtirilgan, uning aniq joylashuvi va koordinatalari qo'llanma sifatida grid tizimidan foydalangan holda xaritada qayd etilgan. Ushbu koordinatalar ob'ektning asosiy kontekstini ifodalaydi. Hujjatlarni rasmiylashtirishdan oldin ochilgan ob'ektlar ko'chirilgan bo'lsa, arxeolog ushbu ob'yektning arxeologik kontekstini va unga tegishli ma'lumotlarni yo'qotadi. Arxeologik kontekst arxeologiya tamoyillari va amaliyotining asosiy asosidir. Artefaktlar, xususiyatlar va ekofaktlarning ahamiyati va hatto yoshini tushunish uchun ularning konteksti va boshqa ob'ektlar bilan aloqasini bilish kerak, chunki ular joyida topilgan. Birlamchi kontekstdan olib tashlangan ob'yektlar ikkinchi darajali kontekstda deyiladi[3].

Ehtiyotkorlik va to'g'ri hujjatlashtirish juda muhimdir. Ushbu ma'lumotlar arxeologik yozuvlarning bir qismi bo'lib, kelajakdagi tadqiqot va tahlillarga yordam beradi.

Xronometrik tanishish usullari, shuningdek, mutlaq tanishish usullari sifatida ham tanilgan, arxeologik ob'ektlarning kimyoviy yoki fizik tahliliga asoslangan tanishish usullari. Xronometrik usullardan foydalangan holda, arxeologlar ob'ektlarni nisbiy tanishish usullari orqali erishish mumkin bo'lgandan ko'ra aniqroq diapazonda aniqlashlari mumkin. Radioaktiv uglerod-14 (14C) izotopidan foydalanadigan radiokarbonli aniqlash organik materiallarni sanashda ishlatiladigan eng keng tarqalgan usuldir. Tirik organizm nobud bo'lgach, undagi uglerod ma'lum tezlikda parchalana boshlaydi. Qolgan qoldiq uglerod miqdorini 50 yillik xato chegarasida organizm qachon vafot etganini aniqlash uchun o'lchash mumkin. Usul faqat 300 dan 50 000 yilgacha bo'lgan organik to'qimalar namunalari uchun amal qiladi. Aniqligini ta'minlash uchun sinov uchun yig'ilgan ob'yektlar zudlik bilan g'ovak bo'lmagan idishlarda muhrlanadi, shunda chang, gulchang yoki bakteriyalar kabi atmosferadagi organik moddalar natijalarga ta'sir qilmasligi kerak.

Uranning atom parchalanishini yoki kaliyning argonga parchalanishini o'lchaydigan tanishuv tizimlari tog' jinslari kabi noorganik materiallarni sanash uchun ishlatiladi. Radioaktiv moddalarning parchalanish tezligi ma'lum va ularni

o'lchash mumkin. Radioaktiv parchalanish soati elementlar birinchi marta yaratilganda boshlanadi va bu parchalanish ob'ektlar qachon yaratilgan va/yoki o'tmishda ishlatilganligini aniqlash uchun o'lchanishi mumkin. Vulkanik materiallar, ayniqsa, tanishuv saytlari uchun foydalidir, chunki vulqonlar lava va kulni keng maydonlarda to'playdi va otilishdan olingan barcha materiallar o'xshash kimyoviy belgilarga ega bo'ladi. Kulning sanasi aniqlangandan so'ng, madaniy materiallar ham kul koniga nisbatan holatiga qarab belgilanishi mumkin.

Dendroxronologiya texnikasi yog'ochdan yasalgan qadimiy tuzilmalar yoki turar-joylarning yoshini aniqlash uchun daraxt halqalarini o'lchashga tayanadi. Daraxt halqalari har yili rivojlanadi va ma'lum bir yilda mavjud bo'lgan ozuqa moddalari va suv miqdoriga qarab kengligi o'zgaradi[4]. O'zaro tanishish turli joylarda o'xshash daraxtlardan olingan yadro namunalari orasidagi keng va tor halqalarning mos naqshlari orqali amalga oshiriladi. Keyinchalik bu ma'lumot ustunlar va to'sinlar kabi yog'ochni o'z ichiga olgan arxeologik qoldiqlarga nisbatan qo'llanilishi mumkin. Dendroxronologiya Nyu-Meksiko shtatidagi Chako kanyonidagi Pueblo Bonita arxeologik maydonida miloddan avvalgi 800 va 1150 yillar oralig'ida Pueblo aholisi tomonidan egallab olingan uy tuzilmalarini sanashga yordam berish uchun ishlatilgan. Tuksonda joylashgan Daraxt halqalarini tadqiq qilish laboratoriyasi dunyodagi eng qadimgi dendroxronologiya laboratoriyasidir. Daraxt halqali ekspeditsiyaga boring!

Arxeologik ob'yektlar bilan tanishishning eng samarali usuli - bu arxeologga ma'lumotlarni uchburchak yoki o'zaro bog'lash imkonini beradigan turli xil tanishish usullarini qo'llashdir. Tanishuvning bir nechta usullarini o'zaro bog'lash arxeologik joyning ma'lum vaqt davri uchun kuchli dalillarni beradi.

## FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI:

5. "What is archaeology? – Archaeology definition". Live Science. 28 March 2014. Archived from the original on 21 December 2019. Retrieved 25 August 2017.

6. Анарбаев А.А., Баратов С.Р., Буряков Ю.Ф., Вульферт Э., Сайфуллаев Б. Археологические разведки и исследования на железнодорожной трассе Ангрен – Пап. // Археологические исследования в Узбекистане в 2012 году. Самарканд. 2013.

7. Arsixovskiy A.A Arxeologiya asoslari. Toshkent. 1970
8. Muhammadjonov, Abdulahad "Arxeologiya" *O'zME*. A-harfi Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
9. Everill,P. (2010). "The Parkers of Heytesbury: Archaeological pioneers". Antiquaries Journal. 90 p

## YOSHLAR IJTIMOIY FAOLLIGINI OSHIRISHDA MAHALLALARDA TO'GARAK TASHKIL QILISHNING AHAMIYATI

***Nazarova Zilola Baxtiyor qizi***
*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti*
*Madaniyat va san'at sohasi menejmenti mutaxassisligi*
*magistranti*

***Annotatsiya:*** *Maqolada yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirishda mallalarda havaskorlik to'garaklarini tashkil etish va unga yoshlarni jalb qilishning ahamiyati haqida so'z yuritiladi. Mahallalarda to'garak tashkil qilishning o'ziga xos xususiyatlari, Yoshlar ishlari agentligining mahalladagi vakilining ham mazkur jarayondagi faolligi va madaniyat markazlarining o'rni haqida ham so'z yuritiladi.*

***Kalit so'zlar:*** *mahalla, ijtimoiy faollik, to'garak, madaniyat, san'at, ma'naviy-ma'rifiy ishlar, tashviqot.*

***Аннотация:*** *В статье говорится о важности организации клубов самодеятельности в микрорайонах и вовлечения молодежи в повышение ее социальной активности. Также обсуждались особенности организации кружков в микрорайонах, деятельность представителя Агентства по делам молодежи в микрорайонах, роль домов культуры в этом процессе.*

***Ключевые слова:*** *соседство, общественная деятельность, кружок, культура, искусство, духовно-просветительская деятельность, пропаганда.*

***Abstract:*** *The article talks about the importance of organizing hobby clubs in the malls and involving young people in increasing the social activity of young people. Specific features of organizing circles in neighborhoods, the activity of the*

*representative of the Youth Affairs Agency in the neighborhood in this process, and the role of cultural centers are also discussed.*

***Key words:*** *neighborhood, social activity, circle, culture, art, spiritual and educational activities, propaganda*

Yangi O'zbekiston mahallalarida madaniy-ma'rifiy ishlarni yangicha dunyoqarash tamoyili asosida shakllantirib, Uchinchi Renessans poydevorini mustahkamlamokda. Bu jarayonlar xususida Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev: "Biz yaratayotgan yangi O'zbekistonning mafkurasi ezgulik, odamiylik, gumanizm g'oyasi bo'ladi" – deya ta'kidlab o'tgani ham bejiz emas. Xususan, aholining barcha qatlamlari o'rtasida o'tkazilayotgan turli tadbirlar o'zining kreativligi, badiiy-estetik mohiyati bilan xalqimizning ma'naviy olamini yuksaltirishga xizmat qilmokda. Birgina misol, hozirgi kunda keng ommalashgan "Mahallada duv-duv gap" loyihasi, qator yoshlar forumlari, festivallar, tanlovlar, tadbirlar, shubhasiz, yoshlarimizning faolligini oshirishga, hamjihatlik sifatlarining kuchayishiga sabab bo'lmoqda.

Mahallalarda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlash maqsadida har bir mahallada "mahallabay" tizimida ishlashga o'tildi. "Bir ziyoli-bir mahallaga ma'naviy homiy", "Har bir nuroniy-besh nafar yoshga murabbiy" kabi tamoyillar, so'zsiz, azaldan qadr topgan milliy kadriyatlarimizning yorqin namunasidir. Zotan, yuksak ma'naviy makonni barpo etishda bu kabi ezgu tashabbuslar alohida ahamiyatga ega. Biz bugun Yangi O'zbekistonda yangi ma'naviy makonni barpo etishga kirishar ekanmiz, shubhasiz, fuqarolarimizda ana shunday makonni yaratishga bo'lgan ma'naviy ehtiyojni shakllantirishimiz muhim. Buning uchun, birinchidan, fuqarolarimizning bugungi ma'naviy qiyofasi holatini, darajasini o'rganishimiz lozim. Ya'ni bugungi aholi, ayniqsa, yoshlarimizda o'z ma'naviy olamini yuksaltirishga ehtiyoji bormi, bor bo'lsa (bunga shubha bo'lishi mumkin emas), ular nimani o'qimoqchi, qaysi kino, sahna asarini tomosha qilmoqchi, madaniyat, san'atning qanday janrlarida o'zini sinab ko'rmoqchi? Yanayam aniqroq aytadigan bo'lsak, biz bugungi fuqarolarmizning ma'naviy portretini shakllantirishimiz kerak.

Ma’naviy portretni shakllantirishda hamda hayotda o‘z o‘rniga ega bo‘lishida yoshlarning bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazishlari uchun shart-sharoitlar yaratish muhim vazifalarimizdan biridir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 19-yanvardagi “Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-92-son qarori yuzasidan mahallalarda Yoshlar ishlari agentligi tomonidan turli to‘garaklar tashkil etildi. Mahallalarda to‘garaklar tashkil etish ma’naviy-ma’rifiy ishlarning tub ildizi hisoblanadi. Bu o‘rinda mahallalarda ijtimoiy madaniy faoliyatni shakllantirish orqali yoshlarning ruhiy va ma’naviy olamnini boyitib, tizimli tarzda: bolaligida milliy xalq o‘yinlarini o‘rgatish o‘yin-kulgi davrini ham mazmunli o‘tkazishni ta’minlash har jihatdan ahamiyatlidir. Bolalik davridan so‘ng o‘qib-o‘rganish va bilim olish jarayonida qo‘shimcha to‘garaklarga jalb qilgan holda ularning bandligini ta’minlash maqsadga muvofiq.

Ushbu fikrlarni amalga oshirishda ijtimoiy-madaniy faoliyatning mahallalardagi rolini oshirish davr talabi hisoblanadi. Chunonchi, to‘garak so‘zi aylana, doira shaklidagi, doiraviy to‘garak stol va to‘garak oyna tushunchasini anglatadi. Shuningdek, kishilarning birgalikda ishlashi, mashg‘ulotlar o‘tkazishi, mashq qilishi, bilim-hunar olishi va shu kabi umumiy maqsadlar bilan tuzilgan guruhi va shunday birlashma (uyushma)ning o‘zi to‘garak deb ataladi. Pedagogik atamada esa to‘garak biror soha yoki fan asosida olib boriladigan mashg‘ulot jarayoni bo‘lib, unda dars o‘tish jarayoni rejalashtirilib, tizimli ravishda oddiydan murakkabga qarab o‘tkaziladi.

O‘rta asrlardan boshlab joylarda madaniy-ma’rifiy to‘garaklar faoliyati ikki yo‘nalishda keng rivojlana boshladi: ma’ruzalar, o‘qishlar, suhbatlar tashkil etish va havaskorlik spektakllarini sahnalashtirish kabidir. Qoidaga ko‘ra, to‘garaklar mahallalarda yoshlar tomonidan mahalliy o‘qituvchilar rahbarligida tashkil etilgan. Bugungi kunda ham respublikamizning ba’zi hududlarida bu jarayon o‘qituvchilarning o‘z xonadonlarida o‘quv kurslari tashkil qilish shaklida davom etmoqda. Ma’lum darajada ularga qatnaydigan o‘quvchilar soni ham kam emas. Biroq ularning bilim olishlari uchun qulay shart-sharoitlar yaratilmaganligi bilan bir qatorda ba’zi ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar kelishilgan badal to‘lovini to‘lashga imkon topa olmayaptilar.

Yuqoridagi asoslarni inobatga olib, har jihatdan qulay shart-sharoitga ega mahallada tashkil etilgan toza va yorug' xonalarda, o'qish uchun badal to'lovi ijtimoiy kelib chiqishiga qarab belgilangan o'quv-kurslarga qatnash yoshlarimizning ilmiy salohiyatini oshirish va kasb hunar o'rgatishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda Madaniyat vazirligi tizimida 829 ta madaniyat markazlari bo'lib, ularda 3761 ta to'garaklar, 107 ta studiyalar, 165 ta kurs va qiziquvchilar klublar faoliyat olib bormoqda. Biroq, ushbu madaniyat muassasalaridan uzoqda joylashgan qishloq va mahallalarda istiqomat qiluvchi yoshlarni qamrab olish, nogironligi bo'lgan shaxslarning jamiyatda o'z o'rnini topishiga imkoniyat yaratish, har qachongidan ham dolzarb masala hisoblanadi.

Mahallalarda to'garak tashkil qilishning o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

1. Yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish hamda madaniy hordiq olishiga imkon yaratadi.
2. Madaniyat va san'at sohasi bo'yicha bilim va ko'nikmalariga ega bo'ladi.
3. Musiqa maktabi va madaniyat markazlari mavjud bo'lmagan yoki uzoqda joylashganligi bois qatnash imkoni yo'q, iqtidorli havaskor hamda nogironligi bor yoshlarni qamrab olish imkoniyatini oshiradi.
4. Milliy qadriyatlarimizga sodiqlikni, vatanga muhabbatni oshirib, bo'sh vaqtda yuzaga keladigan turli xil mojarolardan xoli hayotga erishiladi.
5. Ma'naviy va madaniy dunyoqarashni shakllantiradi.

Yoshlar ishlari agentligining mahalladagi vakili mahallada to'garak tashkil etishdan tashqari, mahallada yashovchi fuqarolar bilan to'garak a'zolari hamkorligida tadbir va festivallar tashkil qiladi. Yuqoridagi vazifalarni bajarishda asosiy omillarni ko'rsatib o'tamiz:

- Tuman, shahar miqyosida joylashgan madaniyat markazlari xodimlari bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish orqali o'sha hududdagi iqtidorli yoshlarni izlab topadi.
- Madaniyat markazi to'garak rahbarlari bilan kelishgan holda yoshlarning iqtidoriga qarab, guruhlar asosida tadbirlar rejasini ishlab chiqadi.
- Muddatni belgilagan holda mahallada joylashgan maktab bilan hamkorlikda tadbir o'tkaziladigan joyni aniqlaydi.

- Tadbir to'g'risida kamida bir oy avval maktab, mahalla faollari bilan birgalikda targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borish, tadbir nizomini e'lon qiladi.
- Tadbir o'tkaziladigan joy ochiq maydon yoki maktab anjumanlar zalida o'tkazilishi mumkin.
- Tanlov g'oliblariga taqdim etiladigan sovrinlar to'g'risida e'lon qilish maqsadida maktab, mahalla peshtoqiga afishalar chiqarish lozim.
- Tadbir o'sha hududda joylashgan madaniyat markazi bilan hamkorlikda sayl, tantana tarzida o'tkazilishi maqsadga muvofiq.
- Tadbir jarayonida rassomlar, mohir tikuvchilar, kitoblar savdosi kabi burchaklar tashkil qilish tadbirni ko'tarinki ruhda o'tishini ta'minlaydi.

Mahallardagi faol yoshlarni rag'batlantirish, ijodini targ'ib etish uchun madaniyat va san'at sohasining taniqli namoyondalari ishtirokida mahorat darslari tashkil qiladi. Tavsiya o'rnida Yoshlar ishlari agentligining mahalladagi vakili mahallarda to'garak, ko'rik-tanlov, festival, madaniy tadbirlar tashkil etish va o'tkazish bo'yicha bilim va malakaga ega bo'lishi kerak. Xulosa qilib aytganda, yuqoridagi fikr-mulohazalar asosida bajariladigan madaniy-marifiy ishlardan tashqari tashkil etilgan to'garak rahbarlari uchun o'quv qo'llanma, dastur, uslubiy qo'llanmalar mashg'ulot jarayonini tizimli yo'lga qo'yishda muhim vosita bo'lganligi uchun ularni ishlab chiqishni taqazo etadi. Bugun yurtimizda aholining barcha qatlamlari o'rtasida o'tkazilayotgan turli tadbirlar o'zining kreativligi, badiiy-estetik mohiyati bilan xalqimizning ma'naviy olamini yuksaltirishga xizmat qilmokda. Birgina misol, hozirgi kunda keng ommalashgan "Mahallada duv-duv gap" loyihasi, qator yoshlar forumlari, festivallar, tanlovlar, tadbirlar, shubhasiz, yoshlarimizning faolligini oshirishga, hamjihatlik sifatlarining kuchayishiga sabab bo'lmoqda. Mahallalarda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlash maqsadida har bir mahallada "mahallabay" tizimida ishlashga o'tildi.

"Bir ziyoli-bir mahallaga ma'naviy homiy", "Har bir nuroniy-besh nafar yoshga murabbiy" kabi tamoyillar, so'zsiz, azaldan qadr topgan milliy kadriyatlarimizning yorqin namunasidir. Zotan, yuksak ma'naviy makonni barpo etishda bu kabi ezgu tashabbuslar alohida ahamiyatga ega. Biz bugun Yangi O'zbekistonda yangi ma'naviy makonni barpo etishga kirishar ekanmiz, shubhasiz, fuqarolarimizda ana shunday makonni yaratishga bo'lgan ma'naviy ehtiyojni

shakllantirishimiz muhim. Buning uchun, birinchidan, fuqarolarimizning bugungi ma’naviy qiyofasi holatini, darajasini o‘rganishimiz lozim.

Bu o‘rinda mahallalarda ijtimoiy madaniy faoliyatni shakllantirish orqali yoshlarning ruhiy va ma’naviy olamnini boyitib, tizimli tarzda: bolaligida milliy xalq o‘yinlarini o‘rgatish o‘yin-kulgi davrini ham mazmunli o‘tkazishni ta’minlash har jihatdan ahamiyatlidir. Mahallalarda to‘garak tashkil qilishning o‘ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat.

1. Yoshlarning bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazish hamda madaniy hordiq olishiga imkon yaratadi.
2. Madaniyat va san’at sohasi bo‘yicha bilim va ko‘nikmalariga ega bo‘ladi.
3. Musiqa maktabi va madaniyat markazlari mavjud bo‘lmagan yoki uzoqda joylashganligi bois qatnash imkoni yo‘q, iqtidorli havaskor hamda nogironligi bor yoshlarni qamrab olish imkonini beradi.
4. Milliy qadriyatlarimizga sodiqlikni, vatanga muhabbatni oshirib, bo‘sh vaqtda yuzaga keladigan turli xil mojarolardan xoli hayotga erishiladi.
5. Ma’naviy va madaniy dunyoqarashi shakllanadi.

Yoshlar ishlari agentligining mahalladagi vakilining mahallalarda madaniy faoliyat targ‘ibotini shakllantirishda bajarishi lozim bo‘lgan asosiy vazifalari

- Mahallada targ‘ibot-tashviqot kengashini tuzib, unga tajribali o‘qituvchi, shifokor, madaniyat va san’at xodimi kabi mahalla faollarini kiritish hamda bajarilishi lozim bo‘lgan vazifalar rejasini tuzish.
- Ixtisoslashtirilgan madaniyat va san’at maktablarini bitirib, ish bilan band bo‘lmagan yoshlarni, mahalla qoshida to‘garaklar tashkil qilish va yoshlar o‘rtasida ommalashtirish bo‘yicha ko‘mak berish.
- Mahallada tashkil etilayotgan to‘garaklar faoliyatini keng miqyosda jamoatchilikka targ‘ib etish maqsadida “Iste’dodim istiqbolim”, “Kitob mening do‘stimsan”, “Jonajonim she’riyat”, “Kasbikorim iftixorim”, “Mushoira” kabi ko‘rik-tanlovlar madaniyat va san’at namoyondalari bilan uchrashuvlar, hunarmandlar, rassomlar ko‘rgazmalarini tashkil qilish va g‘olib bo‘lgan ishtirokchilarni tuman, viloyat, respublika miqyosidagi mahallararo yosh havaskorlar to‘garagi ko‘rik-tanlovlarga ishtirokini yordam berish.
- Tuman madaniyat bo‘limi bilan doimiy hamkorlikni yo‘lga qo‘yish.

➢ Har oyda bajarilgan ishlar yuzasidan tayyorlangan foto lavha, yozma ma'lumotlardan iborat hisobotni Yoshlar ishlari agentligiga topshirish.

Mahallalardagi to'garaklarga havaskor yoshlarni jalb qilish va o'rgatish metodlari quydagilardir:

1. Yoshlar ishlari agentligining mahalladagi vakilining mahalla faollaridan tuzilgan kengash yordamida har bir ko'cha sardori (ko'cha boshi)ni aniqlab ular bilan yig'ilish, suhbat va uchrashuvlar tashkil qilish orqali har bir ko'chadan iste'dodli yoshlar ro'yxatini shakllantiradi.
2. Yoshlar ishlari agentligining mahalladagi vakilining mahalla qoshida to'garak tashkil qilish maqsadida to'garak rahbarlarini topib, ular bilan foto lavhalar hamda e'lon afishalarini tayyorlaydi va mahallada joylashgan ta'lim muassasalari, savdo do'konlari, maktabgacha ta'lim muassasalari binosi peshtoqiga to'garaklar faoliyatini aks ettiruvchi suratlardan iborat afishalarni chiqaradi.
3. Yoshlar ishlari agentligining mahalladagi vakili to'garak rahbarlari bilan fuqarolar yig'inidagi mas'ul xodimlar bilan birgalikda maktablarga borib suhbatlar uyushtirgan holda havaskor yoshlarni bevosita to'garaklarga jalb qiladi.
4. Yoshlar ishlari agentligining mahalladagi vakilini mahalla va maktab stadionlari, faollar zallarida to'garak rahbarlarining faoliyatini targ'ib etish maqsadida konsert dasturlarini uyushtiradi.
5. Havaskor yoshlar o'rtasida sovrinli musobaqa va tanlovlar tashkil etadi.

Mahallada yoshlar va bolalar havaskor teatr jamoalarini tashkil etish yo'llari

– Mahallada yoshlar va bolalar teatr jamoasini tashkil etish uchun o'z faoliyatini hududda joylashgan maktab, madaniyat markazi bilan hamkorlikda olib boradi.

– Mahallada xalq ijodiyoti namunalari: matal, masal, latifa, lof, rivoyat, hikoyat, tez aytish kabi janrlarga qiziquvchi yoshlarni jamlagan holda yoshlar va bolalar havaskor teatr jamoasini tashkil qiladi.

– Jamoaning ijodiy faoliyatini rivojlantirish uchun tizimli tarzda trening mashqlar orqali unga qatnovchi yoshlarning so'z boyligi, tasavvuri, eshitish qobiliyati, dunyoqarashi hamda voqealarni ovozsiz hatti-harakatlar bilan ifodalash mahoratini shakllantirib boradi.

– Mahorati shakllangan yoshlarga tarbiyaviy ahamiyatga ega boʻlgan voqealar asosida sahna koʻrinishlarini tayyorlab borish, har oyda bir marotaba hisobot konsert tashkil qiladi.

– Tuman va viloyatda oʻtkazilayotgan umumxalq bayramlar va festivallarda ishtirokini ta’minlaydi. hisobot konsert oʻtkazish.

Mahallada festivallar oʻtkazish usullari. Festival –bu biror soha yoʻnalish asosida tashkil qilinib, uning doirasida bir necha tadbir, koʻrik-tanlovlar, koʻrgazmalar, uchrashuvlar, ilmiy-amaliy anjumanlar xalq havaskorlik jamoalarining chiqishlari tashkil qilinadi. Festival yakunida asosiy yoʻnalishda ishtirok etganlar taqdirlanadi. Bularning hammasi festivalni tashkil qilish jarayonidir. Mahallada festival tashkil qilishda quyidagi vazifalarni bajarish lozim

- Mahallada tashkil etilgan barcha yoʻnalishlar toʻgaraklar ishtirokchilari, umumiy oʻrta ta’lim maktablari, madaniyat markazi shu kabi ijodiy yoʻnalishdagi barcha ixlosmandlarni festivalga jalb qilish.
- Festival oʻtkaziladigan hudud tanlangandan soʻng, bosqichma-bosqich uning doirasida bir nechta tadbirlar oʻtkaziladi.
- Bir vaqtning oʻzida yon-atrofida koʻrgazmalar, folklor jamolarining chiqishlari, uchrashuvlar hamda konsertlar tashkil qilinadi.
- Festivalni tashkil qilishda umumiy vazifalar yuforida ta’kidlab oʻtilgan madaniy tadbirlarni tashkil qilish jarayoni festevalda keng foʻllaniladi. Ya’ni festival oʻtkazishdan 3 oy avval tuman, mahalla miqyosida e’lon va afishalar chiqariladi.
- Hamkor tashkilotlar umumiy oʻrta ta’lim maktabi, tuman madaniyat boʻlimi, xalq ta’limi boʻlimi, oila va mahallani qoʻllab-quvvatlash boʻlimi, tuman hokimiyat sektor rahbarlari bilan maslahatlashib ishchi guruh tashkil qilinadi.

Yoshlarning boʻsh vaqtlarini mazmunli tashkil etish hamda ma’naviyatini yukasaltirish borasida madaniyat markazlari tomonidan olib borayotgan ijobiy ishlar bilan bir qatorda, ba’zi madaniyat markazlarida yetarlicha sharoitlarning yoʻqligi, zamonaviy jihozlar bilan ta’minlanmaganligi, yosh mutaxassislarning tajribasizligi, mahalliy tashkilotlar mutasaddi rahbarlarining e’tiborsizligi bois yoshlar bilan ishlashda kamchilik va muammolar ham mavjud. Kelgusida madaniyat markazlari yoshlarning boʻsh vaqtlarini mazmunli tashkil etish hamda

ularning ma’naviyatini yuksaltirish borasida quyidagi muhim vazifalarni amalga oshirishi maqsadga muvofiq bo‘ladi:

- madaniy-ma’rifiy tadbirlarga mamlakatimizda olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning mazmun mohiyatini yoshlarga yetkazish va tushuntirish uchun tajribali mutaxassislar va siyosatshunoslar bilan jonli muloqotlar o‘tkazish;
- ommaviy axborot vositalaridan foydalangan holda yoshlar ongi va tafakkurida milliy qadiyatlarimiz, an’ana va urf-odatlarimiz, o‘zligimizga hurmat ruhini yanada kuchaytirish;
- yoshlarni milliyligimiz, vatanga sadoqat ruhida tarbiyalashda musiqa va san’atning boshqa turlari imkoniyatlaridan unumli foydalanish;
- milliy madaniyatimiz va san’atimizni targ‘ib qilishda yoshlarimiz imkoniyatlariga keng yo‘l ochish va ularni rag‘batlantirish maqsadida iste’dodli yoshlarni xorijga ijodiy safarlarini tashkil etish;
- joylarda shahar, tuman madaniyat bo‘limlari bilan Yoshlar ittifoqi bo‘limlari o‘rtasida yoshlarning bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish hamda ma’naviyatini yuksaltirish bo‘yicha hamkorlikda ishlashga doir “yo‘l xaritasi” ishlab chiqish va uni tizmili ravishda amaliyotga joriy etish.

Muhtaram Prezidentimiz “Mamlakatimizda madaniyat va san’at taraqqiy etmasa, jamiyat rivojlanmaydi”, – deb ta’kidlagan edi 2017-yil 25-dekabr kuni madaniyat va san’at sohasini rivojlantirishga bag‘ishlangan yig‘ilishda. Har tomonlama rivojlanayotgan, yangilanayotgan O‘zbekistonda iqtisodiyot bilan bir qatorda taraqqiy etgan ilm-fan cho‘qqilarini egallagan yoshlarga yuksak madaniyat va milliy ma’naviyat ham zurur ekanligini hayotning o‘zi taqazo etmoqda. Shu ma’noda mamlakatimiz istiqbolini yaratuvchilari bo‘lgan yoshlarimizni vatanparvar, sadoqatli va yuksak ma’naviyatli qilib tarbiyalashda bor kuch-g‘ayratimizni safarbar etish barchamizning birinchi galdagi vazifamizdir.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021. – B 464.
2. Alimasov V. Manzarov Yu. O‘zbekistonda ma’naviy-ma’rifiy soha: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Navro‘z, 2014. – B 120.

3. Qobilov Sh. Ma'naviy olamni asrash qayg'usi // Yangi O'zbekiston gazetasi. – Toshkent: 2022. – B. 8.
4. Haydarov A. Madaniyat – ma'naviy komillik poydevori // Teatr jurnali. – Toshkent: 2020. 2-son. – B. 50.
5. Gaziyev S., Ato H., Rahimov N. Madaniyat markazlarida barcha uchun ta'lim va rivojlanish imkoniyatlarini yaratish. – Toshkent: Fan va texnologiyalar nashriyoti. 2020. – B. 88.
6. Mahmudov I. Boshqaruv psixologiyasi. YUNAKS-PRINT bosmaxonasi. – Toshkent 2005. – B.170.
7. Haydarov A. Milliy madaniyat Renessans poydevori // Yangi O'zbekiston gazetasi. – Toshkent: 2020. – B. 8.
8. Yo'ldoshev I. Himmatning qiymati. Fan ziyosi. – Toshkent: 2021. – B. 322.
9. Mahmudov I. Boshqaruv psixologiyasi. YUNAKS-PRINT. – Toshkent: 2005. – B. 170.
10. Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekiston demokratik o'zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda. – Toshkent: 2021. O'qituvchi. – B. 184.
11. Haydarov A. Madaniyat – milliy yuksalish poydevori. – Toshkent: Oltin meros press. 2021. – B. 478.
12. O'sha yerda.
13. O'zbekiston Respublikasining Qonuni. "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida".2016-yil 16-sentabr. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami.
14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-avgustdagi "Yoshlarni ilm-fan sohasiga jalb etish va ularning tashabbuslarini qo'llab quvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori // www.lex.uz.
15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-maydagi "Iqtidorli yoshlarni aniqlash va yuqori malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori // www.lex.uz
16. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 12-dekabrdagi "Yoshlarni vatanparvarlik ruhida va jismoniy tarbiyalash hamda chaqiriluvchilarni harbiy-texnik mutaxassisliklar bo'yicha tayyorlash tartibini takomilashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori // www.lex.uz.

17. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-avgustdagi "Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga koʻtarish chora-tadbirlari toʻgʻrisida"gi Qarori // www.lex.uz.

18. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 12-maydagi "Buyuk allomalar, adib va mutafakkirlarimiz ijodiy merosini keng oʻrganish va targʻib qilish maqsadida yoshlar oʻrtasida kitobxonlik tanlovlarini tashkil etish toʻgʻrisida"gi Qarori// www.lex.uz.

19. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 5-iyuldagi "Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va Oʻzbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qoʻllab-quvvatlash toʻgʻrisida"gi PF-5106-son Farmoni.

20. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-iyundagi "Oʻzbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini tubdan isloh qilish va yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari toʻgʻrisida"gi PF-6017-son Farmoni.

21. Mirziyoyev Shavkat Miromonovich. Tanqidiy tahlil, qat' iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faol-iyatining kundalik qoidasi boʻlishi kerak. Mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga moʻljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yoʻnalishlariga bagʻishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruza, 2017-yil 14 yanvar. -Toshkent: «Oʻzbekiston», 2017.

22. Mirziyoyev Shavkat Miromonovich. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Mazkur kitob-dan Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2016-yil 1-noyabrdan 24-noyabrga qadar Qoraqalpogʻiston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri saylovchilari vakillari bilan oʻtkazilgan saylovoldi uchrashuvlarida soʻzlagan nutqlari oʻrin olgan. /SH.M.Mirziyoyev. -Toshkent: : "Oʻzbekiston", 2017.

23. Sh. Mirziyoyev "Niyati ulugʻ xalqning ishi ham ulugʻ, hayoti yorugʻ va kelajagi farovon boʻladi" Toshkent "Oʻzbekiston" 2019 y.

24. Shavkat Mirziyoyevning Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bagʻishlangan Oliy Majlis palatalarining qoʻshma majlisidagi nutqi. 14.12.2016. http://press service. uz/uz/news/5395/

25. Mirziyoyev Sh.M. Oliy Majlis palatalar, siyosiy partiyalar hamda O'zbekiston Ekalogik harakati vakillari bilan videoselektor yigilishidagi ma'ruza. 2017 y. 13 iyul // www.president.uz.
26. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekistonda milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" 2018 yil 28-noyabrdagi 4038-sonli qarori
27. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Madaniyat va san'at sohasining jamiyat hayotidagi o'rni va ta'sirini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 26-maydagi PF-6000-son Farmoni
28. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 26-maydagi PQ-4730-sonli qarorining
29. Azamat Haydarov. "O'zbekiston jamiyati siyosiy madaniyatida milliy ma'naviy qadryatlarning o'rni". Siyosiy fanlar nomzodini olish uchun yozilgan disertatsiya 2004-yil
30. Qadirov Eshmuhammadning "Yoshlarning huquqiy va siyosiy madaniyatini yuksaltirish". Avtoreferat. 2019-yil
31. Azamat Haydarov. Inson kamoloti va milliy-ma'naviy qadryatlar" Toshkent-2008, "Muharrir nashriyoti"
32. A. Haydarov "Harakatlar strategiyasi va ma'naviy yuksalish" "Donishmand ziyosi" nashryoti. 2020-yil

## O'SMIRLIK DAVRIGA XOS RUHIY OG'ISHLAR TAHLILI

***Shuxratjonova Rixsinisaxon Nasrulla qizi***
*Namangan davlat universiteti*
*Amaliy psixologiya yo'nalishi 3-bosqich talabasi*
***E-mail** : bnasirovna@gmail.com **Tel:** + 99893 104 70 20*

***Annotatsiya:*** *O'smirlik davrida fiziologik o'zgarishlar bilan bir qatorda ruhiy o'zgarishlar ham sodir bo'ladi. Afsuski, bu o'zgarishlar har doim ham ijobiy*

*emas. Ushbu maqolada o'smirlik davrida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan salbiy holatlar muhokama qilinadi.*

***Kalit so'zlar:*** *o'smirlik, psixika, hissiyotlar, o'z joniga qasd qilish, ruhiy kasalliklar, statistika*

***Аннотация:*** *Наряду с физиологическими изменениями в подростковом возрасте происходят и психические изменения. К сожалению, такие изменения не всегда бывают положительными. В данной статье рассматриваются негативные ситуации, которые могут возникнуть в подростковом возрасте.*

***Ключевые слова:*** *подростковый возраст, психика, эмоции, суицид, психические расстройства, статистика*

***Abstract:*** *Along with physiological changes in adolescence, mental changes also occur. Unfortunately, these changes are not always positive. This article discusses the negative situations that may arise in adolescence.*

***Keywords:*** *adolescence, psyche, emotions, suicide, mental disorders, statistics*

Hayot insonga bir marta beriladigan eng qimmatli sovg'adir. Bu hayotning unumli yoki mazmunsiz, samarali yoki samarasiz bo'lishi ko'p jihatdan har bir insonning o'ziga, uning atrofidagi dunyoga va odamlarga bo'lgan munosabatiga, hayot muammolarini qanday qabul qilishiga, yangi sharoitlarga moslashish darajasiga bog'liq. Afsuski, ba'zilar o'z xohishi bilan berilgan bu bebaho ne'matdan bosh tortadigan holatlar ham uchrab turadi. O'z joniga qasd qilish bizning davrimizning eng dolzarb muammosiga aylandi.

Jahon statistik ma'lumotlariga ko'ra, o'z joniga qasd qilish yoshlar o'limining ikkinchi asosiy sababidir va har yili uning ko'rsatkichlari ortib bormoqda. Ayniqsa, bolalar va o'smirlar o'rtasida o'z joniga qasd qilish holatlari ko'payib borayotgani katta tashvish uyg'otmoqda. Shuni esdan chiqarmaslik kerakki, har bir bunday holatning ortida katta shaxsiy fojia, ofat, nochorlik, o'limdan emas, balki hayot muammolaridan kuchli qo'rqish bor. Aksariyat hollarda o'smirlarning o'z joniga qasd qilishlari oiladagi nizolar, umidsizlik, kattalar bosimidan qo'rqish, ba'zi o'qituvchilarning noto'g'ri munosabati, o'qituvchilar va sinfdoshlar bilan

munosabatlardagi kelishmovchiliklar, qoʻpollik va boshqalarga e'tiborsizlik tufayli sodir boʻladi.

Statistik ma'lumotlarga koʻra, oʻz joniga qasd qilish holatlari koʻproq 14-20 yoshda va 55 yoshdan keyin kuzatiladi. Oʻsmirlik davrida inson psixikasida namoyon boʻladigan inqiroz va oʻz-oʻzini anglash va oʻzini oʻzi tasdiqlash bilan bogʻliq muammolar bilan bogʻliq holda 14-15 yosh "xavfli davr" hisoblanadi. Aynan shu yoshda oʻz joniga qasd qilish fikrlari paydo boʻlishi mumkin.

Oʻsmirning oʻz joniga qasd qilishi tasodifiy oʻylar mahsuli emas, bu bir necha bosqichda namoyon boʻladigan holat. Avvalo, oʻsmirda oʻz joniga qasd qilish fikri paydo boʻladi, keyin u maqsadga aylanadi, maqsadga erishishga harakat qiladi va uni oʻz joniga qasd qilish orqali yakunlaydi. Oʻz joniga qasd qilgan oʻsmirlar hech qanday ruhiy kasallikdan aziyat chekmasligi mumkin, ammo ularning ruhiy holatida turli darajadagi anormallik mavjud.

Koʻrgazmali oʻz joniga qasd qilish oʻsmirlar orasida keng tarqalgan. Oʻsmirning maqsadi oʻziga va uning muammolariga e'tiborni jalb qilish, hayotiy vaziyatlarni nazorat qila olmasligini koʻrsatishdir. Bu kattalardan yordam soʻrash va ularni hushyorlikka chaqirishning oʻziga xos usuli hisoblanadi.

Ba'zida oʻz joniga qasd qilish kuchli his-tuygʻular ta'sirida, ilgari mavjud boʻlmagan rejalar asosida sodir boʻladi. Kuchli salbiy his-tuygʻular oʻsmirning borliqni toʻgʻri idrok etish va baholash qobiliyatini cheklaydi, buning natijasida unda oʻz joniga qasd qilish fikrlari shakllana boshlaydi.

Oʻz joniga qasd qilish fikrlari paydo boʻlganda, oʻsmirlarning xatti-harakatlarida ba'zi oʻzgarishlar kuzatiladi: masalan, uyni tark etish, yaqinlaridan umidsizlik, chekinish, kundalik faoliyatning keskin pasayishi, odatlarning oʻzgarishi, shaxsiy gigiena qoidalariga rioya qilmaslik, tashqi koʻrinishiga e'tibor bermaslik; oʻlim va oʻz joniga qasd qilish mavzularida gapirish va oʻqishni tanlash, gʻamgin kuy yoki qoʻshiqlarni tinglash, "tartibga solish", kayfiyat va xatti-harakatlarning kutilmagan xavfli oʻzgarishi, keraksiz shifokorga borish va hokazo.

Oʻsmirda oʻz joniga qasd qilish bilan bogʻliq fikrlar paydo boʻlishi bilanoq, uning nutq faoliyatida ma'lum belgilar kuzatiladi. Bular: toʻgʻridan-toʻgʻri yoki bilvosita oʻz niyati haqidagi bayonot ("men oʻlishni xohlayman", "barchasi tez orada tugaydi", "hamma narsa mening qalbimga tegdi"), hayotning ma'nosizligi, hazillar,

kinoya va istehzo. oʻlim, oʻz kuchsizligi, nochorligi va ularning qaramligidan boshqa shikoyatlar, yaqin kishini doimiy haqorat qilish, oʻz-oʻzini ayblash va hokazolar haqida shikoyatlar, oʻz joniga qasd qilish fikrining oldini olish uchun oʻsmirda ijobiy hayotiy qadriyatlarni shakllantirish, kuchli irodani rivojlantirish juda muhimdir.

Oʻsmirlar oʻrtasida oʻz joniga qasd qilish holatlarining oldini olish ota-onalar, oʻqituvchilar va ta'lim muassasalarining amaliy psixologlari zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi. Oʻsmirlar xulq-atvoridagi oʻzgarishlarni oʻz vaqtida aniqlash va ularning muammolarni birgalikda tahlil qilish ayrim kishilarning hayotini saqlab qolish imkonini beradi. Oʻz joniga qasd qilish arafasida turgan oʻsmirga shaxs sifatida hurmat bilan munosabatda boʻlish, uning kechinmalari va muammolarini diqqat bilan tinglash, samimiy va doʻstona munosabatlar oʻrnatish, oʻsmirni chuqur muammo va "xavf" bilan yolgʻiz qoldirmaslik, batafsil maslahatlar, oqilona va eng toʻgʻri yoʻl-yoʻriq va koʻrsatmalarni talab qiladi. Ular esda tutishlari kerakki, oʻz joniga qasd qilish tasodif emas, bu ma'lum "ogohlantirishlar"dan keyin sodir boʻladi va bir marta oʻz joniga qasd qilgan oʻsmir 80-100 kundan keyin yana urinib koʻrishi mumkin. Oʻz joniga qasd qilish fikri avloddan-avlodga oʻtmaydi va koʻp hollarda bunday fikrlar hatto ruhiy sogʻlom odamlarda ham paydo boʻlishi mumkin. Odatda bitta muammo bunday fikrni taklif qilmaydi, oʻsmir uchun uning muammolari har doim juda jiddiy va hal qilish qiyin boʻlib tuyuladi. Shu sababli, ota-onalar, oʻqituvchilar, amaliy psixologlar oʻsmir ruhiyatida, ayniqsa, gapirgan yoki oʻz joniga qasd qilishga uringan oʻsmirlarning xatti-harakatlaridagi oʻzgarishlarni e'tiborsiz qoldirmasliklari kerak.

Oʻz joniga qasd qilishga qarshi omillarning ta'siri qanchalik kuchli boʻlsa, oʻsmirning "psixologik himoyasi" va oʻziga boʻlgan ishonchi shunchalik yuqori boʻladi. Ota-onalar bolalarda yuzaga keladigan har qanday xatti-harakatlar uchun javobgardir, chunki oʻz joniga qasd qilish bilan bogʻliq belgilar va alomatlar ota-onalarning e'tiboridan chetda qolmasligi kerak. Oʻz joniga qasd qilishning oldini olish uchun oʻsmirlarda depressiyadan qochish juda muhimdir. Agar oʻsmirning kayfiyati past, befarqlik, yolgʻizlikka moyillik va boshqa belgilar boʻlsa, uni bu vaziyatdan olib chiqish uchun zarur choralarni rejalashtirish kerak.

Oʻsmir bilan uning ahvoli va kelajagi haqida suhbatlashish, unga hayotiy rejalar tuzishga yordam berish, optimistik munosabatni, oʻziga ishonchni

shakllantirishga harakat qilish, oʻz maqsadlariga erishish imkoniyati bor. Bolani "har doim nimadandir norozisan!", "jahlingiz bor" deb ayblash oʻrniga, uning shaxsiyatining ijobiy tomonlarini koʻrsatish maqsadga muvofiqdir. Oʻsmirni yangi va qiziqarli mashgʻulotlarga jalb qilish, unga ilgari bilmagan narsani oʻrganish, ilgari qilmagan ishni qilishga harakat qilish imkoniyatini yaratish kerak.

Agar oʻz joniga qasd qilish sababi shaxslararo munosabatlar bilan bogʻliq boʻlsa, bolaning maktabdagi doʻstlari va oʻqituvchilari bilan munosabatlarini yaxshilashga e'tibor berish kerak. Salbiy kechinmalarni bartaraf etish, uning atrofdagilar bilan munosabatlarini tahlil qilishga yordam berish, hissiy stressdan xalos boʻlish koʻnikma va malakalarini shakllantirish, uni ijtimoiy-psixologik tayyorgarlikka jalb qilish uchun oʻsmir bilan tarbiyaviy ishlarni olib borish kerak.

Agar inson ruhiyatiga ogʻir yuk qoldiradigan va ba'zan oʻz joniga qasd qilish istagiga olib keladigan tajribalar yuzaga kelsa, ulardan xalos boʻlish uchun quyidagi usullardan foydalanish tavsiya etiladi: "Qalbingizdagi barcha fikrlarni ayting" - agar sizda kimdir boʻlsa. kim sizni tushunadi, sir saqlay oladi, yuragingizni qiynayotgan barcha fikrlarni toʻkib solar ekan, jimgina tinglang. "Xat yozing" - agar sizni tinglaydigan odamni topa olmasangiz, barcha his-tuygʻularingizni qogʻozga tushiring. Siz uni birovga berishingiz shart emas. Agar siz uni saqlasangiz, ma'lum vaqtdan keyin uni oʻqib, xatti-harakatingizni tahlil qilishingiz mumkin. "Oʻzingizga sovgʻa tayyorlang" - oʻzingizga bir necha soat yoki bir kun dam olish va zavqlanish uchun kutilmagan sovgʻa tayyorlang. Biroq, bunday sovgʻalar ortiqcha boʻlmasligi kerak. Chunki u sizga bergan quvonch kamayadi. "Boshqalarga yordam bering" - atrofingizda yordamingizga muhtoj odamlar borligini his eting. Shu bilan birga, ularga yaxshilik qilish uchun sizning hissiy va ruhiy stressingiz ham yoʻqoladi, kayfiyatingiz koʻtariladi. "Uxlash yoki dam olish uchun tashvishlaringizni oʻzgartiring" - agar uxlay olmasangiz, yaxshi dam olishga harakat qiling. Yotishdan oldin ertalab uygʻonganingizda sizni hech qanday tashvish bezovta qilmasligiga, yangi tong yaxshiliklar olib kelishiga oʻzingizni ishontiring. Eng muhimi, psixologlar bilan bogʻlanishni unutmang.

## ADABIYOTLAR ROʻYXATI:

1. Амбрумова А.Г. Социально-психологическая дезадаптация личности и профилактика суицида / А.Г. Амбрумова, В.А. Тихоненко, Л.Л. Бергельсон // Вопросы психологии. — 1981.
2. Волконская Е.К. Самоубийство с позиций уголовного права / Е.К. Волконская // Человек: преступление и наказание. — 2009.
3. Weller R. Overview and assessment of the suicidal child / R. Weller, K. Young, A. Rohrbaugh, B. Ronald, A. Weller // Depression and anxiety. — 2001.

## BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARINING KASBIY KAMPETENTLIGINING AHAMIYATI

***Askarova Nargiza Isroilovna***
*Namangan davlat universiteti stajyor-o'qituvchi*

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'qituvchilari hamda ularning kasbiy faoliyatida kompotentlikni rivojlantirish ahamiyati, kompetentning turlari va ularni qo'llash ususllari haqida to'xtalib o'tilgan. Bundan tashqari zamonaviy o'qituvchi uni dars jarayonida qo''lanishi munmkin bo'lgan usullari va ularni o'quvchiga ta'siri yuzasidan tavsiyalar berilgan.*

***Kalit so'zlar:*** *Kompetentlik, metod, boshlang'ich, usul, uslub, dars, kompetentsiya, shaxsiy, umuminsoniy, madaniy, kasbiy, zamonaviy.*

***Annotation:*** *This article discusses the importance of developing competence in primary school teachers and their professional activities, the types of competencies and the methods of their application. In addition, the modern teacher gave him recommendations on the methods by which the use of ' ' could be made during the course process and their impact on the student.*

***Keywords:*** *Competence, method, beginner, method, style, lesson, competence, personal, universal, cultural, professional, modern.*

***Аннотация:*** *В этой статье обсуждается важность развития компетенций у учителей начальных школ и их профессиональной деятельности, типы компетенций и методы их применения. Кроме того, современный учитель дал ему рекомендации относительно методов, с*

*помощью которых можно было бы использовать в процессе курса и их влияние на ученика.*

***Ключевые слова:*** *компетентность, метод, начинающий, метод, стиль, урок, компетентность, личный, универсальный, культурный, профессиональный, современный.*

Mamlakatimizda so‘ngi yillarda ta’lim sohasini isloh qilish, ta’lim sifatini yangi bosqichga olib chiqish, bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy kampetentligini rivojlanshning mexanizmlarini tadbiq etish, ta’limga doir zamonaviy o‘quv adabiyotlarning resurslarini xalqaro tajribalar asosida yangilashning huquqiy – meyoriy asoslari yaratildi va moddiy texnika bazasi rivojlantirilmoqda. “Uzluksiz ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta’lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish” ta’lim tizimi sohasidagi ustivor vazifa etib belgilandi [1]. Bugungi kunda ta’lim tizimiga va ayniqsa boshlang‘ich sinf o‘qituvchilariga va ularning bilim darajalariga ko‘nikmalariga va malakalariga alohida e’tibor qaratilganli bu boshlang‘ich o‘qituvchilarini yanada ko‘proq o‘z ustilarida ishlashlarini talab qiladi.

Muhtaram prezidentimiz aytganlaridek – “Bolalarimiz qalbning me’mori, muxandisi o‘qituvchilardir” [2]. Bugungi kunda ta’lim –tarbiya tizimini tubdan isloh qilishda eng avvalo o‘qtuvchilarimizning bilim darajalarini oshirish, hamda uni amaliyotda qo‘llay olish ko‘nikmalari shakllantirish, har bir o‘quvchiga uning iqtidori asosida topshiriqlarni shakllantirish berib borishi ko‘zlangan maqsadga erishish bu pedagogik kampitentligi shakllanishi asosida vujudga keladi

**O‘qituvchi kompetensiyasining ahamiyati.**

Inson shaxsni har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan ta’lim-tarbiya tizimini nazariy-metodologik jihatdan qurollantirish – bugungi kunda ta’lim-tarbiya bosh maqsadi sifatida belgilangan.

Bugungi kun ta’lim yuksak, ammo, sharafli vazifalarni muvaffaqiyatli uddalash har bir pedagogik xodimdan yuksak kasbiy mahorat, bilimdonlik va keng dunyoqarashni, kasbiga mehrni talab etadi.

Pedagogik mahorat – o'qituvchi ijodkorligining oliy nuqtasi bo'lib, u yillar davomida shakllanadi, sayqallanadu. Uning yuksak mahoratni egallashi g'oyat murakkab jarayon bo'lib, bugungi kun boshlang'ich sinf o'qtuvchilarining eng dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi.

O'qituvchi kasbiga xos bo'lgan ko'pgina fazilatlar, hislatlar bilan birga uning pedagogik mahoratni egallashi katta ahamiyatga ega. Kuchli pedagogik mahoratga ega bo'lgan o'qituvchigina o'z kasbiga layoqatli, ishtiyoqli bo'lib, iste'dodini kasbiy faoliyatda namoyon etishi mumkin.

Muvaffaqiyatli ishlash uchun har bir o'qituvchi yuqori pedagogik mahorat va keng dunyoqarashga ega bo'lishi, hamda komunikativ muloqot egasi bo'lishi kerak. Shundagina oz mehnat sarf qilib, katta natijaga erishadi, ijodkorlik uning hamisha hamkori bo'ladi. Pedagogik ishga qobiliyatli, iste'dodli kishidagina pedagogik mahorat egasi bo'lishi mumkin. Pedagogik faoliyatning samarali bo'lishi uchun o'qituvchi o'z fanininng bilimdoni bo'lishi, chuqur anglab yetishi va o'z ustida tinimsiz ishlashi kerak bo'ladi. Boshlang'ich ta'lim fanlarini chuqur anglab yetgan bo'lishi, o'quv materialini o'quvchilarga tushunarli qilib bayon eta olishi, o'quvchilarda mustaqil faoliyat, fikrlashga qiziqish uyg'otishi, o'quvchilarning bilim, ko'nikmasini darajasi va ruhiyatini hisobga olishi, ularning nimani bilishlari va hali nimani bilmasliklarini tasavvur eta olishi lozim. Qobiliyatli, tajribali o'qituvchi o'zini o'quvchilarining o'rniga qo'ya oladi, u iqtidorli o'quvchilarga aniq bilim darajasiga mos va past o'zlashtiruvchi o'quvchilarga ishlashi darajasida topshiriqlar berib, o'quvchi shaxsi va ruhiy xolatini inobatga olgan xolda ish tutadi. Shuning uchun u bergan topshiriqlarni xarakter va shaklini alohida e'tibor berib o'ylab chiqadi hamda rejalashtiradi.

O'qituvchi o'quvchining ichki dunyosiga kira olishi, u bilan do'stona munosabatda bo'lishi o'quvchi shaxsini va uning vaqtinchalik ruhiy holatlarini juda yaxshi tushuna bilishi bilan bog'liq bo'lgan psixologik kuzatuvlar olib borishi kerak. Bunday o'qituvchi o'quvchining erkaliklarini, uning sabablarini ko'z ilg'amas o'zgarishlarni ham tez fahmlab olishi, o'z farzandidek muomalada bo'lishi lozim.

O'qituvchida o'z fikrini to'liq va tushunarli bayon eta olishi, bolalarcha ularning qalbiga yo'l topib, beradigan bilimini yetkaza olishi, ya'ni o'qituvchi nutq madaniyatiga alohida e'tibor berishi lozim.

O'qituvchining nutqi aniq, jonli, obrazli, talaffuzi jihatdan yorqin, ifodali, his-hayajonli bo'lib, unda stilistik, grammatik, fonetik nuqsonlar uchramasligi lozim.

O'qituvchi kasbiga xos bo'lgan xislatlar, ya'ni yuksak pedagogik mahorat unda birdaniga shakllanmaydi. U o'z ustida tinmay ishlash, izlanish va ko'nikmalar asosida rivojlanadi.

O'qituvchining yuqori kasbiy mahoratni egallashi bevosita uzluksiz ta'lim tizimi orqali amalga oshiriladi. Uzluksiz ta'lim tizimida asosiy o'rin egallagan malaka oshirish o'quvchi faoliyatini tahlil qilish va unga istiqbol yo'nalishlar berishga imkon beradi.

Hozirgi davr o'qituvchidan o'qitishning ilg'or pedagogik texnologiya talablarini to'g'ri tushunish, tashabbuskorlik, o'z fani bo'yicha yangiliklardan xabardor bo'lishi va darslariga joriy eta olishni talab etadi.

O'qituvchi avvalo:

- Yumshoq ko'ngilli, ochiq chehrali, shirinso'zli, bolalarni qanday bo'lsa shundayligicha yaxshi ko'rishi; ularni qalbida kechayotganlarini bolalarcha tushinishi lozim.

- Mehr-muhabbat, qalb g'urini o'quvchilarga bab-baravar bo'lib berishi, sinfda do'stona muhitni yaratish va o'quvchilarning o'quv motivlarini rivojlantiruvchi kuch-rag'batlantirish metodlari ekanligini anglashi zarur.

- O'quvchilarning taqdiri, baxti va kelajagi uchun mas'ul ekanligini chuqur his etish, ularning nafsoniyati va qadr-qimmatini e'zozlash uni shaxs sifatida hurmat qilishi kerak.

- Har qanday pedagogik vaziyatda o'quvchilarga qo'pollik qilmaslik, haqorat qilish va baqirish, taqdid va qo'rqitishdan o'zini tiyishi, o'quvchi savollarga bergan javoblari noto'g'ri bo'lsa ham uning fikrini inobatga olishi va uni fikrini hurmat qilishi lozim.

O'quvchining mustaqil fikrini bayon etish, o'z yo'nalishini tanlashi va buning asosi bo'lgan qarashlarini isbotlashi, o'rni kelganda himoya qilishni o'rgatilsa, yoshlarni mustaqil hayotga tayyorgarlik ko'nikmalarini shakllantirib borishga erishishi orqali ta'lim mazmunining natijasi yaqqol ko'zga tashlanadi.

Ta'limni isloh qilishda o'qituvchi shaxsiga qo'yilagn talablar kundan-kunga oshib bormoqda. Pedagogika fani oldida turgan muammolarning biri ham, aynan,

oʻqituvchi va pedagog mehnat sharoiti muammosi hisoblanadi. Oʻqituvchining koʻp qirrali va murakkab faoliyati zamirida yosh avlodni bilimli va axloq-odobli qilib voyaga etkazish vazifasi yotadi.

Shu munosabat bilan bugungi kunda oʻqituvchi shaxsiga quyidagi talablar qoʻyiladi:

- oʻz fanini chuqur bilishi va uning metodikasini etarli darajada oʻzlashtirish;
- keng ilmiy dunyoqarashli va te'ran e'tiqod sohibi boʻlishi;
- ijtimoiy va fuqarolik burchini chuqur anglashi;
- ijtimoiy-siyosiy faol boʻlishi;
- oʻz kasbi va bolalarni sevishi;
- ruhiy pedagogik ziyrak boʻlishi va yangilikka intilishi;
- oʻz xalqi tarixi, milliy qadriyatlari va urf-odatlarini chuqur oʻrganishi va ularni targʻibot qilishi;
- pedagogik kuzatuvchanlik, tashkilotchilik, talabchanlik, qat'iylik, vazminlik, haqqoniylik, oʻzini tuta bilish kabi xislatlar sohibi boʻlishi;
- oʻz kasbiga toʻla layoqatli va pedagogik odob egasi boʻlmogʻi lozim.

**Kompetensiya turlari,**

Oʻqituvchining kasbiy kompentensiyasi turlari quyidagilardan iborat:



Kompetentsiyalarni oʻzida shakllantirib brogan oʻqituvchi bugungi kunning eng ilgʻor, tajribali ustoziga aylana oladi.

**Kompetensiya –** bilim, koʻnikma, malaka, qadriyat, boshqa shaxsiy sifatlar, ijobiy natijalarni faoliyatda koʻrinishi, nutq madaniyati, hayotiy tajribalar jamlanmasidir [3].

Xulosa qilib aytganda ta'lim tizimida faoliyat koʻrsatayotgan har bir pedagog-oʻqituvchi oʻzining bilim va tajribasini ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirishga yoʻnaltirishi, yuqori malakaga ega boʻlishi, kasbiy kampetentsiyasi rivojlangan boʻlishi bugungi kunning muhim dolzarb masalasidan biri hisoblanadi.

Har bir boshlangʻich sinf oʻqituvchilari kasbiy kompetentlikka erishish yoʻlida uzluksiz ta'lim olishlari, turli adabiyotlar bilan ishlashlari, ayniqsa AKTni yaxshi oʻzlashtirgan boʻlishlari va koʻproq tajriba almashishlari koʻzlangan maqsadga erishishga xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son "Oʻzbekiston Respublikasini rivojlantirish boʻyicha Harakatlar wtrategiyasi toʻgʻrisida"gi Farmoni.
2. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2022- yil 20-dekabrdagi Oliy Majlisga va Oʻzbekiston xalqiga murojaatnomasi.
3. Kasbiy kompetentlik –Toshkent. "Innovatsiyalarni rivojlantirish nashiryot-matbaa uyi". 2021

# АНАЛИЗ ПСИХИЧЕСКИХ РАССТРОЙСТВ В ПОДРОСТКОВОМ ВОЗРАСТЕ

***Шухратжонова Рихсинисахон Насруллаевна***
*Наманганский государственный университет*
*студентка 3 курса факультета педагогической психологии*
***E-mail*** *: bnasirovna@gmail.com* ***Телефон:*** *+ 99893 104 70 20*

***Аннотация:*** *Наряду с физиологическими изменениями в подростковом возрасте происходят и психические изменения. К сожалению, такие изменения не всегда бывают положительными. В данной статье*

*рассматриваются негативные ситуации, которые могут возникнуть в подростковом возрасте.*

***Ключевые слова:*** *подростковый возраст, психика, эмоции, суицид, психические расстройства, статистика*

***Abstract:*** *Along with physiological changes in adolescence, mental changes also occur. Unfortunately, these changes are not always positive. This article discusses the negative situations that may arise in adolescence.*

***Keywords:*** *adolescence, psyche, emotions, suicide, mental disorders, statistics*

Жизнь – это самый ценный подарок, который дается человеку только один раз. Будет ли эта жизнь плодотворной или бессмысленной, результативной или нерезультативной, во многом зависит от отношения каждого человека к себе, окружающему миру и людям, от того, как он принимает жизненные проблемы, от уровня приспособленности к новым условиям. К сожалению, известны случаи, когда некоторые люди отказываются от этого бесценного блага, данного ему по собственному желанию. Самоубийство стало самой актуальной проблемой современности.

Согласно мировой статистике, самоубийство является второй по значимости причиной смерти среди молодежи, и его показатели с каждым годом увеличиваются. Большую тревогу вызывает рост числа самоубийств, особенно среди детей и подростков. Не следует забывать, что за каждой такой ситуацией скрывается большая личная трагедия, бедствие, беспомощность, сильный страх не смерти, а жизненных проблем. В большинстве случаев суицид у подростков происходит из-за семейных конфликтов, разочарований, боязни давления со стороны взрослых, неправильного отношения одних педагогов, разногласий в отношениях с учителями и одноклассниками, грубости и пренебрежения окружающими.

По статистике случаи суицида чаще наблюдаются в возрасте 14-20 лет и после 55 лет. 14-15 лет считаются **«опасным периодом»** в связи с кризисом, проявляющимся в психике человека в подростковом возрасте и проблемами, связанными с самосознанием и самоутверждением. Именно в этом возрасте могут появиться суицидальные мысли.

Подростковый суицид не является продуктом внезапных мыслей, это состояние, проявляющееся в несколько стадий. Сначала у подростка возникают суицидальные мысли, затем он становится целью, пытается достичь цели и завершает ее, совершая суицид. Подростки, совершившие самоубийство, могут не страдать каким-либо психическим заболеванием, но их психическое состояние имеет разную степень ненормальности.

**Демонстративное самоубийство** распространено среди подростков. Цель подростка – *привлечь внимание к себе и своим проблемам*, показать, что он не в состоянии контролировать жизненные ситуации. Считается особым способом обратиться за помощью к взрослым и призвать их к бдительности.

Иногда самоубийство совершается под влиянием сильных эмоций, исходя из планов, которых раньше не существовало. Сильные негативные эмоции ограничивают возможности подростка правильно воспринимать и оценивать существование, в результате чего у него начинают формироваться суицидальные мысли.

При появлении мысли о суициде наблюдаются некоторые изменения в поведении подростка: например, уход из дома, разочарование в близких, замкнутость, резкое снижение повседневной активности, изменение привычек, несоблюдение правила личной гигиены, пренебрежение своим внешним видом, смерть и выбор разговоров и чтения на суицидальные темы, прослушивание грустных мелодий или песен, «наведение порядка», неожиданные опасные изменения настроения и поведения, обращение к врачу без особой необходимости , и так далее.

Как только у подростка появляются мысли, связанные с суицидом, в его речевой деятельности наблюдаются определенные признаки. Это: высказывание прямо или косвенно о своем намерении («хочу умереть», «скоро все это закончится», «все коснулось моей души»), бессмысленность жизни, шутки, сарказм и сарказм по поводу желания умереть , собственную слабость, беспомощность и другие жалобы на свою зависимость, жалобы на постоянное оскорбление кого-то из близких, самообвинение и т. д. Очень важно, чтобы у подростка сформировались положительные жизненные ценности, была сильно развита сила воли, чтобы предотвратить суицидальные мысли.

Профилактика суицида среди подростков возлагает большую ответственность на родителей, педагогов и практических психологов образовательных учреждений Своевременное выявление изменений в поведении подростков и совместный анализ ими проблем могут спасти жизни некоторых людей. Уважительное отношение к подростку, находящемуся на грани суицида, как к личности, внимательное выслушивание его переживаний и проблем, установление искренних и дружеских отношений, не оставление подростка наедине с глубокой проблемой и «опасностью», вместо многословных советов, рациональных и требуется самое правильное руководство и инструкции. Им следует помнить, что самоубийство – это не случайность, оно совершается после определенных «предупреждений», и подросток, совершивший суицид один раз, может повторить попытку через 80-100 дней. Суицидальные мысли не передаются из поколения в поколение, и во многих случаях такие мысли могут появляться даже у психически здоровых людей. Обычно отдельная проблема не наводит на такую мысль, для подростка его проблемы всегда кажутся очень серьезными и трудно поддающимися решению. Поэтому родителям, педагогам, практическим психологам не следует игнорировать изменения в психике подростка, особенно в поведении подростков, заговоривших или предпринявших попытку суицида.

Чем сильнее действие **антисуицидальных** факторов, тем больше «психологическая защита» и уверенность в себе у подростка. Родители несут ответственность за любое поведение, проявляющееся у детей, потому что признаки и симптомы, связанные с суицидом, не должны оставаться незамеченными родителями. Избегание депрессии у подростков имеет важное значение для предотвращения суицида. При появлении у подростка пониженного настроения, апатии, склонности к одиночеству и других признаков необходимо спланировать необходимые меры по выводу его из этой ситуации.

С подростком необходимо поговорить о его положении и будущем, помочь ему составить жизненные планы, постараться сформировать оптимистический настрой, уверенность в себе, в том, что у него есть возможность добиться поставленных перед собой целей. Вместо того, чтобы обвинять ребенка в том,

что «ты всегда чем-то недоволен!», «ты сердишься», уместно показать положительные стороны его личности. Необходимо вовлечь подростка в новые и интересные занятия, создать для него возможность научиться чему-то, чего он раньше не знал, попробовать сделать то, чего он раньше не делал.

Если причина суицида связана с межличностными отношениями, следует уделить внимание улучшению отношений ребенка с друзьями и учителями в школе. Необходимо проводить воспитательную работу с подростком с целью устранения негативных переживаний, помочь ему проанализировать свои отношения с окружающими, сформировать навыки и умения избавляться от эмоционального напряжения, привлекать его к социально-психологическим тренингам.

При возникновении переживаний, оставляющих тяжкий груз на психике человека, а иногда приводящих к желанию покончить с собой, для избавления от них рекомендуется использовать следующие методы: **«Рассказать все мысли в душе»** - если вы есть кто-то, кто тебя понимает, может хранить тайну, тихонько слушай, как он изливает все мысли, которые беспокоят твое сердце. **«Напиши письмо»** — если вы не можете найти того, кто вас выслушает, изложите все свои чувства на бумаге. Не обязательно его кому-то отдавать. Если вы сохраните его, вы сможете проанализировать свое поведение, прочитав его через определенный промежуток времени. «Приготовь себе подарок» - приготовь себе подарок-сюрприз, чтобы весело и весело провести несколько часов или день. Однако такие подарки не должны быть чрезмерными. Потому что радость, которую он вам дает, уменьшится. **«Помогай другим»** — почувствуй, что вокруг тебя есть люди, которым нужна твоя помощь. Вместе с тем, чтобы делать им добро, исчезнет и ваше эмоциональное и душевное напряжение, поднимется настроение. «Смени свои заботы на сон или отдых» — если не получается уснуть, постарайся хорошенько отдохнуть. Перед сном убедите себя, что, когда вы проснетесь утром, вас не будут тревожить никакие заботы, что новое утро принесет хорошие вещи. Главное, не забывайте обращаться к психологам.

## СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ:

4. Амбрумова А.Г. Социально-психологическая дезадаптация личности и профилактика суицида / А.Г. Амбрумова, В.А. Тихоненко, Л.Л. Бергельсон // Вопросы психологии. — 1981.
5. Волконская Е.К. Самоубийство с позиций уголовного права / Е.К. Волконская // Человек: преступление и наказание. — 2009.
6. Weller R. Overview and assessment of the suicidal child / R. Weller, K. Young, A. Rohrbaugh, B. Ronald, A. Weller // Depression and anxiety. — 2001.
7. Weller R. Suicidal behavior and parental psychopathology in hospitalized depressed children / R. Weller, E. Weller, M. Fristad, P.K. Bawa // Depression and anxiety. — 2001.

## IJTIMOIY INNOVATSIYALARNI JAMIYAT HAYOTIGA TATBIQ ETISH: MUAMMO VA YECHIMLAR

***G'apparov Elyorjon Otabekovch***
*Namangan davlat universiteti*
*Milliy g'oya va huquq ta'limi kafedrasi*
*o'qituvchisi, f.f.b.f.d.(PhD)*

***Annotatsiya:*** *Ijtimoiy innovatsiyalarni ujtimoyi hayotga tatbiq etishm bugungi kunda taraqqiy etgan mamlakatlarda keng yo'lga qo'yilgan. Mazkur amaliyot joriy etilgan mamlakatlarda demokratik tamoyillarning ustuvor ekanligini ko'rishimiz mumkin. Bu ijtimoiy innovatsiyalarning jamiyat boshqaruvida qo'llash muhim ahamiyat kasb etishini anglatadi. Maqolada ijtimoiy innovatsiyalardan jamiyat boshqaruvida foydalanish masalalari ilmiy tahlil qilingan.*

***Kalit so'zlar:*** *Demokratiya, innovatsiya, ijtimoiy innovatsiya, demokratlashtirsh, xalq qabulxonalari, virtual qabulxona.*

Ijtimoiy innovatsiyalarni ijtimoiy hayotga joriy etishning eng muhim jihati jamiyatni demokratlashtrish jarayonlarining jadallashuvi bilan belgilanadi. Zero, ijtimoiy innovatsiyalarning asl mohiyati shuni taqozo etadi. Ya'ni, barcha islohotlar xalq hamkorlikda amalga oshiriladi. Bugungi kunda boshqaruv masalasida

hamkorlik tushunchasiga yondoshuv xalq bilan hukumatning o'rtasidagi munosabat darajasidan keyingi po'gonaga ko'tarilgan. Ijtimoiy innovatsiyalarni yuqori darajada qo'llovchi, taraqqiy etgan Yevropa mamlakatlarida jamiyat boshqaruvi davlat-xususiy sektor-fuqarolik jamiyati tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlik jamiyat boshqaruvida eng muhim jihat hisoblanadi. Mazkur uch sektor birinchi navbatda fuqarolarning manfaatlarini hisobga olgan holda o'zaro hamkorlik qiladilar. Mamlakat fuqarolari ularning hatti-xarakatlariga baho beradilar. Mazkur xususiyatiga qarab ijtimoyi innovatsiyalarni demokratiyaning zamonaviy ko'rinishi, shakllari deyish mumkin(Takid bizniki: E.G'apparov).

Bu xususiyati orqali ijtimoiy innovatsiyalar jamiyat boshqaruvida amalga oshirilayotga islohotlarga nisbatan aniq ijtimoiy fikrni shakllantirishga hizmat qiladi. Masalan, quyidagi mamlakatlarda jamiyatni boshqarish va demokratlashtrish maqsadida yangi ijtimoiy innovatsion dasturlar ishlab chiqilgan va amaliyotga keng joriy qilingan:

- Kanadada "Ontorio" va Braziliyada "Porto-Alegre" dasturlari byudjetni shakllantirishda, uning ustuvor yo'nalishlarini va harajatlar limitlarini belgilashda jamoatchilikning ishtiroki ta'minlash bo'yicha;

- Janubiy Koreyada "Korean Tribunis Plebis" dasturi fuqarolarni rivojlanish jarayoniga jalb qilish va ularning onlayn so'rovlarini hisobga olgan holda siyosiy qarorlarni qabul qilish jarayonlariga keng jalb qilish; "Seul Metropolitan Government of Imagination Bank" -"Ochiq hukumat" dasturi orqali davlat xizmatlarini ko'rsatishni takomillashtirish; jamoat hisobdorligini ta'minlash uchun ochiq tekshiruvlar; davlat moliyasining ochiqligini ta'minlash uchun jamoatchilik nazoratini kuchaytirish;

- Yangi Zellandiyada "Yangi Zelandiya politsiya qonunining vikisi" dasturi fuqarolarning jamiyat boshqaruviga oid g'oyalarini ko'rib chiqish va amalga oshirish uchun ixtisoslashgan tuzilmalarni yaratish.

Ushbu ijtimoiy innovatsion dasturlar faoliyat yo'naishining ma'zmuniga ko'ra barcha harakatlarni fuqarolar bilan hamfikrlikda, hamkorlikda amalga oshirilishiga qaratilgan. Bu demokratiyaning prinsiplariga to'liq mos keladi va ijtimoiy innovatsiyalar jamiyatni demokratlashtirishga hizamat qiladi deya xulosa qilishimizga imkon beradi.

Ijtimoiy innovatsiyalarni jamiyat boshqaruvida qo'llash bo'yicha O'zbekiston Respublikasining ham o'ziga xos yo'liga ega. Xalqaro "Social Innovation: Driving Force of Social Change" ilmiy tadqiqot loyixasining xulosasiga ko'ra Markaziy Osiyo mintaqasida ijtimoiy innovatsiyalarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish hozircha faqatgina O'zbekistonda Respublikasida kuzatildi.

Ozbekiston Respublikasida ijtimoiy innovatsiyalarni joiry etish va rivojlantrish jarayonlarini ikki bosqichga bo'lib o'rganish mumkin. Bu xolat ijtimoiy innovatsiyalarning mamlakatimizdagi rivojlanish dinamikasi bilan bog'liq.

Mamlakatimizda ijtimoiy innovatsiyalarning qaror topishi va rivojlanishining birinchi bosqichi mustaqillikning dastlabki yillaridan 2015 yilgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Bu bosqichda ijtimoiy innovatsiyalar O'zbekistonda yangi tushuncha hisoblangan va spontan ko'rinishga ega edi. Ular asosan ijtimoiy va qisman iqtisodiy sohalarda joriy etilgan bo'lib, asosan fuqarolik jamiyati institutlari tomonidan amalga oshirilgan. Bu haqda "Social Innovation: Driving Force of Social Change" loyixasi hisobotlarida shunday ma'lumot beriladi: "Ijtimoiy-innovatsion loyihalar qator postsovet mamlakatlarida ham amalga oshirilmoqda. Masalan, jamoat osoyishtaligini ta'minlash bo'yicha ("Cyclic Patrol" loyihasi(Ukrainada), kambag'allarga yordam berish xayriya klasteri "Oselya"(Ukrainada); iqtisodiyotni demokratlashtrish bo'yicha "All the Money under Control" (O'zbekistonda), keksalarning hayotini farovonlashtrish boyicha "Old Age is Joy" (O'zbekistonda), nogironlarga yaqindan yordam berish bo'yicha "Fantasy" klubi va "Mohir Hunarmand" kashtachilik maktabi (O'zbekistonda)" kabilar. Ushbu ma'lumot ko'rinib turibdiki birinchi bosqichda ijtimoiy innovatsion loyixalar mavjud bo'lgan. Biroq, jamiyat boshqaruvi va demokratlashtrish jarayonlarida yaqqol ko'zga tashlanmagan.

Ijtimoiy innovatsiyalarni mamlakatimizda rivojlanishining ikkinchi bosqichi 2016 yildan toki bugungi kunga qadar bo'lgan davrni o'z ichiga oladi va bu muttasil davom etayotga jarayon hisoblanadi.

Bu bosqichdagi ijtimoiy innovatsiyalar va ijtimoiy innovatsion tashabbuslar O'zbekistonda jamiyatning deyarli barcha sohalarida keng qo'llanila boshlandi.

Mamlaktimizda davlat va jamiyat boshaqruvi sohasiga ijtimoiy innovatsiyalarni tatbiq etish masalasi bevosita Respublika Prezidenti

Sh.Mirziyoyev tashabbusi bilan bog'liq. Bu boradagi birinchi qadam xalq bilan muloqotning mutlaqo yangi tizimini yaratilishi bo'ldi. Dastlab O'zbekiston liberal demokratik partiyasi qoshida tashkil etilgan "Xalq qabulxonalari"ga rasmiy status berildi va Prezident "Halq qabulxonalari"ga aylantiriladi. 2016 yilning sentyabr oyidan boshlab Respublikamizning barcha viloyatlar, tumanlar va shaharlarida mazkur "Xalq qabulxonalarining" faoliyti tashkil etiladi.

2017 yil "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili" deya nomlanishi munosabati bilan qilingan davlat dasturining mohiyati fuqarolar bilan muloqot o'rnatishning yanada samarali mexanizmlari va yo'llarini izlab topish bilan bog'liq edi. Xalq bilan muloqot qilishning yanada samarali va qulay mehanizmi sifatida davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev tomonidan Prezident Virtual va Xalq qabulxonalarini ochish taklif etdildi. Keyinchalik bunady Virtual qabulxonalar Vazirlar Mahkamasi, Bosh prokuratura, Soliq Qo'mitasi, Ichki ishlar vazirligi, Adliya vazirligi, Kasaba uyushmalari Federatsiyasi, Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi qoshida ham atshkil etildi. "Ana shu ishlarning bosh maqsadi, – deya ta'kidlaydi Sh.M.Mirziyoev, – fuqarolarning qonuniy murojaatlarini qisqa muddatda sinchiklab ko'rib chiqishni va hal etishni ta'minlashdir. Bu borada raqamlar va silliq hisobotlarning orqasidan quvib, navbatdagi kompaniyabozlikni uyushtirish kerak emas. Buni xalq hech qachon kechirmaydi!".

O'zining mazmun-mohiyatiga ko'ra Prezident Virtual va Xalq qabulxonalari mutlaqo ijtimoiy innovatsion xususiyatga ega hisoblanadi. Bu xalq bilan aloqa qilishdagi shaffoflik, ochiqlik va ijtimoiy muammolarga tez va o'z o'rnida yechim topishida namoyon bo'lmoqda. Prezident Virtual va Xalq qabulxonalarining ishlash tizimi yildan-yilga takomillashtirilib, ko'lami kengayib bormoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Aholiga davlat xizmatlari ko'rsatishning milliy tizimini tubdan isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida» 2017 yil 12 dekabrdagi PF-5278-son farmoni va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida» 2017 yil 12 dekabrdagi PQ-3430-son qarori ijrosi yuzasidan Xalq qabulxonalari qoshida Davlat xizmatlari markazlarining tashkil etilishi shu jumladandir. Mazkur, harakat fuqarolar murojaatlari bilan bog'liq

muammolarga tez hamda aniq yechim topishda navbatdagi muhim qadam bo'ldi. Bugungi kunga kelib bu markazlar hamda Agentlik yagona interaktiv davlat xizmatlari portaliga ulanadi. Natijada, avvallari kata qiyinchilik, vaqt va harajat evaziga amalga oshirilgan hizmat turlari AKT vositalari yordamida juda oson va tezkorlik bilan yuritila boshlandi. Masalan, bugungi kunda Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali elektron hukumat infratuzilmasining muhim tashkiliy qismidir. Bugungi kunda portal orqali aholiga 260 dan ziyod elektron xizmatlar ko'rsatib kelinmoqda.

Mazkur islohotlar jahon hamjamiyati tomonidan ham munosib baholanmaoqda. Ularning hulosalarida mamlaktimizda yo'la qo'yilgan "xalq bilan muloqot qilishning yangi tizimi" jamiyat hayotidagi juda ko'p muammolarga yechim topishda va yuzaga kelgan ijtimoiy ehtiyojlarni qondiriahda muhim asos bo'lmoqda. Masalan, Hindistonning "Hindustan Times" gazetasida, "Prezident Shavkat Mirziyoev tomonidan ilgari surilgan "Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak" degan g'oya O'zbekistonning ijtimoiy hayotida o'z ifodasini topmoqda. So'nggi yillarda butun mamlakat bo'ylab ishga tushirilgan "Xalq qabulxonalari" faoliyati fuqarolar tomonidan iliq kutib olingan hamda to'la inson manfaatlarini himoya qiladigan ijtimoiy institut vazifasini o'tamoqda", - deya ta'kidlanadi.

Prezident "Halq qabulxonalari" va Hukumat "virtual qabulxonalari" ga qilingan murojaatlarning turiga e'tibor beradigan bo'lsak jamiyatning barcha sohalariga birdek taaluqli ekanligiga guvoh bo'lamiz. Masalan, 2017-2021 yillar davomida prezident virtual qabulxonasi va Xalq qabulxonalariga 5 mln 780 mingdan ziyod murojaatlar kelib tushgan. Shundan 3 mln 288 mingdan ortig'i qanoatlantirilgan. Ta'kidlanishicha, murojaatlarning qanoatlantirish darajasi yil sayin oshib bormoqda. Xususan, bu ko'rsatkich 2017 yilda 47,5 foiz, 2018 yilda - 53,9, 2019 yilda - 60,9, 2020 yilda 60,4 foiz bo'lsa, 2021 yili 86,7 foizni tashkil etgan.

Demokratik boshqaruvga asoslangan hququiy davlatda byurokratiya, ko'zbo'yamachilik hamda korrupsiya kabi illatlarga qarshi kurashishda asosiy e'tibor inson manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan bo'ladi. Xalq qabulxonalariga kelib tushayotgan murojaatlarni asosan quyidagi yo'nalishlarga ajratish – mumkin:

– birinchisi, bank moliya va kredit masasalariga (25 foiz);

– ikkinchisi, sud huquq tizimi faoliyatiga (22 foiz);

– uchinchisi, sogʻliqni saqlash muassasalari va ish haqlarini toʻlashga (12 foiz);

– toʻrtinchisi, tadbirkorlik faoliyatiga (10 foiz);

– beshinchisi, uy joy olish va kommunal xizmat koʻrsatish tizimiga (8 foiz);

– oltinchisi, ish bilan ta'minlanishga (4 foiz);

– yettinchisi, moddiy yordam koʻrsatish va ta'lim tarbiya muassasalariga (3 foiz) taalluqli arz, shikoyat va takliflardir.

Amalga oshirilgan islohotlar ijtimoiy innovatsion harakterga ega bo'lishi uchun boshqaruvda davlatning tashabbusi yetarli emas. Xalq bilan fuqarolarning jamiyat boshqaruvidagi faolligining uyg'un xolatigina ijtimoiy innovatison faoliyat deya baholanadi. Shu jihati bilan qaysi sohada bo'lmasin muammolarga yechim topishda fuqarolarning tashabbuslari ham muhimdir. Kelib tushayotgan ariza va shikoyatlar orasida takliflarning ham mavjudligi, bunday taklif ko'rinishidagi murojaatlarning tobora ko'payib borayotganligi fuqarolarimizning ijtimoiy-siyosiy faolligi ortib borayotganligidan dalolat beradi.

## СИНФДАН ТАШҚАРИ СПОРТ МАШҒУЛОТЛАРИДА ЎҚУВЧИ-ЁШЛАРНИНГ МАЪНАВИЯТИ ВА УНГА ТАЪСИР ЭТУВЧИ ОМИЛЛАР

***Бахтиёр Холмирзаев***
*Наманган давлат университети ўқитувчиси*
***Арзиев Фазлиддин Зовқиевич***
*Сурхондарё вилояти, Музробот тумани 35 мактаб Жисмоний тарбия ўқитувчиси*

***Аннотация:*** *Мазкур мақолада кичик, ўрта ва катта мактаб ёшидаги ўқувчиларнинг маънавий дунёқарашларини шакллантириш ва жисмоний фазилатларини юксалтириш мақсадида, улар устида олиб борилган тадқиқот натижалари ҳамда уларнинг маънавиятини юксалтиришга доир ишлаб чиқилган таклиф ва тафсиялар тўғрисида фикр юритамиз. Синфдан ташқари спорт машғулотларида ўқувчи-ёшларнинг маънавиятини юксалтиришда фақатгина, спорт тўгаракларидан эмас, аксинча, бадиий-*

*адабий кечалар, семинар-тренинг, спорт тадбирлари, байрамлари, маросимларида фойдаланилди. Ва бунга монанд ўкув-дастур яратилди.*

***Калит сўзлар:*** *глобаллашув, тараққиёт, қадрият, буҳрон, футбол ассосация, спортчи, маънавият, ҳаракатлар стратегияси, мезон, респондент, диаграмма, достонлар, эртаклар, ривоялар, мақоллар, афсоналар, платформа, хрестоматия, мутолаа.*

Жаҳондаги ривожланган мамлакатлар глобаллашув шароитида маънавий-маданий тараққиёт йўлида ўз маданий мероси, маданий ва ахлоқий қадриятларини мустаҳкамлашга алоҳида эътибор қаратиб келмоқда. Бу ўз навбатида таълим жараёнига инновацион ёндашув ва педагогик технологияларни фаол татбиқ этиш ҳамда таълим жараёнига жорий этилаётган инновациялар самараси ўқитувчи ва мураббийларнинг касбий-педагогик ижодкорлиги ва ривожланганлиги даражасига бевосита боғлиқ.

Сўнгги ўн йилликда жаҳон спорти ва унинг таркиби қисми бўлмиш Ўзбекистон спорти хаётида кучли, маънавий-руҳий бухронлар юз берди. Хусусан, Рио-2016 Олимпиадасида доппинг муаммолари сабаб, Россиялик аксарият спортчиларнинг иштирокига йўл қўйилмади. Айни чоғда Ўзбекистон футбол ассосацияси томонидан бир неча ҳакам келишилган ўйинларни ташкиллашда айбланди, бир неча футболчи эса ёшини кичрайтиргани аниқланди. Ўз-ўзидан равшанки, бу каби муаммолар спортчилар маънавиятидаги бўшлиқ билан чамбарчас боғлиқ. Очиқ айтиш керакки, спортчилардаги маънавиятсизлик ва натижани хар қандай йўл билан қайд этишга интилиш спортдаги адолат тамойилларига жиддий салбий таъсир кўрсатмоқда. Шунинг учун ҳам айни муаммолар билан боғлиқ илмий тадқиқотлар олиб бориш шу кундаги долзарб масаладир. Мазкур мақолада спортчилар хаётида кўзга ташланаётган маънавий-руҳий муаммоларни бартараф этиш эмас, аксинча, эндигина спортга қадам қўяётган ўқувчи-ёшларнинг маънавиятсизликларини олдини олишнинг бир имкони ва унинг айрим жиҳатларини тадқиқ қилиш учун белгиланди. Ҳозиргача айни мавзу комплекс тарзда илмий тадқиқ қилинмаган ва шунинг учун ҳам илмий

ўрганилиш нуқтаий назаридан, ҳам хаёт ўртага қўяётган муаммоларни тадқиқ қилиш жихатидан ниҳоятда долзарбдир.

Жумладан, "Жамиятимизда соғлом турмуш тарзини шакллантириш, аҳолининг, айниқса, ёш авлоднинг жисмоний тарбия ва оммавий спорт билан мунтазам шуғулланиши учун замон талабаларига мос шарт-шароитлар яратиш, спорт мусобақалари орқали ёшларда ўз иродаси, кучи ва имкониятларига бўлган ишончни мустаҳкамлаш, мардлик ва ватанпарварлик, она Ватанга садоқат туйғуларини камол топтириш, шунингдек, ёшлар орасидан иқтидорли спортчиларни саралаб олиш ишларини тизимли ташкиллаштириш ҳамда жисмоний тарбия ва оммавий спортни янада ривожлантиришга йўналтирилган кенг кўламли ишлар амалга оширилмоқда". Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида"ги, ҳамда, Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Ўзбекистон Республикасида жисмоний тарбия ва спортни янада такомиллаштириш ва оммалаштириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги фармонида ва мазкур фаолиятга тегишли бошқа меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатларда белгиланган вазифалар ижросини таъминлашда ушбу илмий иш муайян даражада хизмат қилади.

Ўқувчи-ёшларнинг маънавияти ҳақида фикр юритишдан аввал маънавият ҳақида қисқача тўхталиб ўтсак.

Маънавият – инсонни руҳан покланиш, қалбан улғайишга чорлайдиган, одамнинг ички дунёси, иродасини бақувват, иймон-еътиқодини бутун қиладиган бекиёс куч, унинг барча қарашларининг мезонидир. Бизнинг назаримизда, "маънавият" тушунчаси ўрганилаётган объект нуқтаи назаридан ҳам индивидуал, ҳам ижтимоий хусусиятни намоён эта олади. Юқоридаги фикрларга таянган ҳолда қайд этиш лозимки, синфдан ташқари спорт машғулотларида мактаб ўқувчиларининг маънавиятини шакллантириш узоқ муддатли, тизимли ва изчил ёндашувни талаб этувчи педагогик фаолият жараёнидир. Бу жараён баркамол шахс ва малакали мутахассисни тарбиялаш борасидаги ижтимоий мақсадни амалга ошириш борасидаги яхлит жараённинг муҳим таркибий қисми саналади.

Педагогик йўналишларда ташкил этиладиган тадқиқотларнинг асосида

ўрганилаётган муаммонинг амалиётдаги мавжуд ҳолатини ўрганиш, қўлга киритилган далилларни таҳлил этиш, муайян хулосаларга келиш, шунингдек, чиқарилган хулосалар асосида ягона муаммонинг умумий ҳолатига баҳо беришга йўналтирилган амалий фаолият алоҳида ўрин тутади. Ўқувчи ёшларда маънавиятни шакллантириш соҳасида ташкил этилган амалий фаолият учун объект (тажриба майдони) сифатида умумий ўрта таълим мактаблари танланди.

Шахснинг маънавиятга эгалик даражасини аниқлаш бир қадар мураккабдир. Бинобарин, шахснинг намоён бўлувчи барча ҳаракатлари ҳам унинг бу туйғуга эгалигини ифода этавермайди. Шу нуқтаи назардан синфдан ташқари спорт машғулотлари жараёнида мактаб ўқувчи-ёшлари билан сўрвнома орқали уларнинг маънавиятини ва китобхонлик маданиятини шаклланганлик даражаси ва китобга бўлган муносабитини ўрганишга ҳаракат қилдик. Олинган натижалар ва уларнинг таҳлили. Ўқувчи-ёшлар билан сўрвнома орқали уларнинг маънавиятини шаклланганлик даражаси ўрганилди. Тажриба бошида ўтказилган сўровнома натижалари қуйидагича бўлди:

**Олинган натижалар ва уларнинг таҳлили.** Ўқувчи-ёшлар билан сўрвнома орқали уларнинг маънавиятини шаклланганлик даражаси ўрганилди. Таҳлиллар қуйидагича бўлди:

**Сўров натижаларини қайта ишлаш учун калит**

| Жавоблар | Балл кўрсаткичлари | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | № 1 | № 2 | № 3 | № 4 | № 5 |
| а | 4 | 2 | 2 | 5 | 3 |
| б | 0 | 3 | 3 | 2 | 0 |
| с | 3 | 4 | 4 | 4 | 2 |
| д | 2 | 0 | 5 | 2 | 1 |

**Маънавиятнинг шаклланганлиги даражасини баҳолаш кўлами**

| Муносабат даражаси | Балл кўрсатгичлари |
|---|---|
| Юқори | 16-21 |
| Ўрта | 10-16 |
| Паст | 0-10 |

Тажриба бошида ўтказилган сўровнома натижалари қуйидагича бўлди:

Респондент ўқувчи-ёшларда маънавиятнинг шаклланганлик даражасини ўртача коеффиценти

| Т.р | Гурухлар | Тажриба аввалида | | | Коеффицент |
|---|---|---|---|---|---|
| | | Юқори | Ўрта | Паст | |
| 1. | Тажриба $н_1$=32 | 4 | 5 | 23 | |
| 2. | Назорат $н_2$=32 | 3 | 7 | 22 | |

Мактаблардаги ўқувчи-ёшлар (бўлажак спортчилар)ни ёшга доир бадиий адабиёт намуналаридан фойдаланишлари учун тафсия этилган адабиётлар:

**Кичик ёшдаги ўқувчи-ёшлар учун:**

1. Достонлар
2. Эртаклар
3. Ривоялар
4. Мақоллар
5. Афсоналар

**Ўрта ёшдаги ўқувчи-ёшлар учун:**

1. От кишнаган оқшом (Тоғай Мурод)
2. Юлдузлар мангу ёнади (Тоғай Мурод)
3. Сўнгги бекат (Шукур Холмирзаев)
4. Ўзбек полвонлари (Тўлқин Обидов)

**Юқори ёшдаги ўқувчи-ёшлар учун:**

1. Бадоъеул вақое (Зайниддин Муҳаммад Восиқий)
2. Фарҳод ва Ширин (Алишер Навоий)

Тажриба сўнгида ўтказилган сўровнома натижалари қуйидагича бўлди:

Респондент ўқувчи-ёшларда маънавиятнинг шаклланганлик даражасини ўртача коеффиценти

| Т.р | Гурухлар | Тажриба сўнгида | | | Коеффицент |
|---|---|---|---|---|---|
| | | Юқори | Ўрта | Паст | |
| 1. | Тажриба $н_1$=32 | 15 | 13 | 4 | |
| 2. | Назорат $н_2$=32 | 6 | 8 | 18 | |

1-савол:

| Тадқиқотдан олдин | Тадқиқотдан кейин |
|---|---|
| Тўғри жавоб-5% | Тўғри жавоб-80% |
| Нотўғри жавоб-95% | Нотўғри жавоб-20% |

2-савол:

| Тадқиқотдан олдин | Тадқиқотдан кейин |
|---|---|
| Тўғри жавоб-3% | Тўғри жавоб-91% |
| Нотўғри жавоб-97% | Нотўғри жавоб-9% |

3-савол:

| Тадқиқотдан олдин | Тадқиқотдан кейин |
|---|---|
| Тўғри жавоб-8% | Тўғри жавоб-86% |
| Нотўғри жавоб-92% | Нотўғри жавоб-24% |

4-савол:

| Тадқиқотдан олдин | Тадқиқотдан кейин |
|---|---|
| Тўғри жавоб-0% | Тўғри жавоб-93% |
| Нотўғри жавоб-100% | Нотўғри жавоб-7% |

5-савол:

| Тадқиқотдан олдин | Тадқиқотдан кейин |
|---|---|
| Тўғри жавоб-30% | Тўғри жавоб-83% |
| Нотўғри жавоб-70% | Нотўғри жавоб-26% |

6-савол:

| Тадқиқотдан олдин | Тадқиқотдан кейин |
|---|---|
| Тўғри жавоб-7% | Тўғри жавоб-89% |
| Нотўғри жавоб-93% | Нотўғри жавоб-21% |

Ўқувчи-ёшлар билан сўрвнома орқали китобхонлик маданиятини шаклланганлик даражаси ва китобга бўлган муносабитлари тадқиқот бошида қуйи эди ва китобхонликни ўзида мужассам этган янги ишлаб чиқилган маънавий-маърифий режа асосида ўтказилган тадбирлар ва тавсия этилган бадиий адабиёт намуналари мутолааси натижасида кўрсаткичлар кескин ошганини кўришимиз мумкин.

## УМУМИЙ ХУЛОСА ВА ТАВСИЯЛАР

Ўқувчи-ёшларнинг маънавиятини ўрганиш жараёнида шу жиҳат кўзга яққол ташландики, мавзу биз ўйлагандан ҳам кўра мураккаб ва кўламдор экан. "Ўқувчи-ёшлар маънавияти" бирикмаси шу қадар кенг экан-ки уни ҳар томонлама ёритиш бир мавзу доирасига сиғмайди. Барчага аёнки "Ўқувчи-ёшлар маънавияти" тушунчаси – ватанпарварлик, мардлик, адолат, ҳалолик, биродарлик каби ўнлаб сифатларни ўз ичига олади. Тадқиқотни ёзиш асносида ушбу сифатларнинг ҳар бирига алоҳида-алоҳида тўхталишга ҳаракат қилдик. Дейлик, ўқувчи-ёшлардаги ифтихор туйғусини янада кучайтириш учун уларга Муҳаммад Юсуфнинг "Муҳаммадқодир" номли шеърини ёдлатиш муҳим эканлиги таъкидланди. Ўқувчиларда ватанпарварлик туйғусини жўш урдиришда Паҳлавон Маҳмуд Ҳинд диёрида амалга оширган иш билан боғлиқ ривоятнинг аҳамияти ниҳоятда катта. Ёки спортчиларда ҳалолик туйғуси қон-қонга сингишида "Юлдузлар мангу ёнади" қиссаси бош қаҳрамони Бўри полвон тутган йўл ҳар жиҳатдан ибратлидир.

Умуман олганда, тадқиқот доирасига тортилган барча асарлардаги ўқувчилар маънавиятига даҳлдор тасвирлар маълум сифатлар билан алоқадорликда ўрганилиб, аҳамиятга молик жиҳатлар кўрсатиб ўтилди. Кўрсатиб ўтилган холатлардан келиб чиқиб қуйидаги якуний хулосаларни чиқариш мумкин:

1. Ўқувчилар маънавиятини шакллантиришда бадиий адабиётнинг ўрни ниҳоятда беқиёс. Шунинг учун бадиий асарларни ўқувчиларнинг ёш хусусиятлари билан муофиқликда ўрганишни ва хаётга тадбиқ этишнинг яхлит илмий тизимини ишлаб чиқишга эхтиёт мавжуд. Бу жараён яхлит бир илмий тизим асосида хаётга тадбиқ этилмас экан бадиий асарларнинг ўқувчи маънавиятига ижобий таъсири кутилган самарани бермайди.
2. Умумий ўрта таълим мактабларида ҳам ўқув ишлар режаси, маънавий-марифий иш режаси дастурларида "Юлдузлар мангу ёнади" қиссаси ёки "Фарҳод ва Ширин", "Алпомиш" каби достонларни ўргатилса мақсадга муофиқ бўлади. Мактаб адабиёт фани ўқув дастурида юқоридаги адабиётлдар ўрганилади. Лекин ўрганиш жараёнида ўқувчилар маънавиятига оид

ўринларга эътибор қаратилмайди. Шунинг учун маскур бадиий асарлардаги ўқувчилар маънавиятини шакллантиришда муҳим ўрин тутадиган тасвирларни алоҳида хрестаматия – мажмуа сифатида чоп этиш мақсадга муофиқ. Биз шу мақсадда тегишли хрестоматия – ўқув қўлланмани шакллантирдик ва бу ўқув қўлланма илк тажриба сифатида нашрга тайёрланмоқда.

3. Ўқувчилар маънавиятини шакллантирувчи муҳим бадиий тасвирларда ўқувчилар бутунлай бехабар қолишмоқда. Улар спортчи маънавиятини шакллантиришга хизмат қилувчи эртак ва ривоятларни ўқишмаябди, мақол ва шеърларни ёдлашмаябди. Бундан кўриниб турибди-ки, келгусидаги илмий тадқиқотларда мутолаа самарадорлигини ошириш механизмларига алоҳида эътибор бериш зарур.

4. Умумий ўрта таълим мактабларда тахсил олаётган ўқувчиларда кўзга ташланаётган камчиликларни бартараф этиш учун машғулотлар учун шароитларни тўлиқ яратиш ва шу асосда машғулот сифатини кўтариш, маънавий маърифий соҳада олиб борилаётган ишларни умумтаълим мактаблари билан ҳамкорликда бир-бирини изида ташкил этиш зарур.

5. Умумий ўрта таълим мактаблари маънавий маърифий ишларини такомиллаштириш, унинг таркибига ноанъанавий усулларни тадбиқ этиш.

6. Ўқувчи-ёшларнинг китоб мутолааси учун бадиий адабиётларни ёшга мос ҳолда саралаш ва шароит яратиш.

7. Ўқувчи-ёшларнинг маънавий тарбиясини сунъий яратилган шароитларда синаб кўриш ва назоратга олиш зарур.

8. Ўқувчи-ёшларнинг маънавиятини шакллантириш учун маънавий материаллар базаси платформасини яратиш.

Ўқувчи-ёшларнинг маънавий жиҳатдан тарбиялашда бадиий адабиёт намуналаридан фойдаланиш мавзуси орқалий улкан муаммолар занжирининг бир халқасигина тадқиқ қилинди. Келгусида барчага маълум муаммолар занжири бир неча мавзулар воситасида тизимли равишда ўрганилиши иш жараёнида кўзга ташланди. Умид қиламизки, бу каби кўламдор ишларни амалга оширишда биз ҳам муносиб хиссамизни қўшамиз!

**Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1. www.daryo.uz
2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг 2017 йил 3 июндаги "Жисмоний тарбия ва оммавий спортни янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги ПҚ-3031-сон қарори // Lex.uz.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги "Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида"ги ПФ-4947-сон.
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 24 январдаги "Ўзбекистон Республикасида жисмоний тарбия ва спортни янада такомиллаштириш ва оммалаштириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги ПФ-5924-сон фармони.
5. Каримов И. "Юксак маънавият – енгилмас куч". "Маънавият" нашриёти, Тошкент, 2008.

# БОЛАЛАР-ЎСМИРЛАР СПОРТ МАКТАБЛАРИДА ТАРБИЯЛАНАЁТГАН ЕНГИЛ АТЛЕТИКАЧИЛАРНИНГ МИЛЛИЙ ҒУРУРИ ВА УНГА ТАЪСИР ЭТУВЧИ ОМИЛЛАР

***Алим Назимов***
*Наманган давлат университети ўқитувчиси*
***Жаҳонгир Ураимов***
*Наманган давлат университети талабаси*

***Аннотация:*** *Мазкур мақолада БЎСМларда тарбияланаётган енгил атлетикачиларнинг миллий ғururини шакллантириш ва жисмоний фазилатларини юксалтириш мақсадида олиб борилган тадқиқот натижалар, таклиф ва тафсиялар ҳақида фикр юритилган.*

***Калит сўзлар:*** *енгил атлетика, спорт, миллий ғурур, урф-одат, анъана, маданият, интеллектуал, респондент, диаграмма, сўровнома, коеффитсиент,*

**КИРИШ.** Мамлакатимизда олиб борилаётган туб ислоҳатларнинг мазмуни ёш авлодни маънавий етук, жисмонан соғлом, интеллектуал салоҳиятли баркамол авлод қилиб тарбиялашга қаратилган. Ҳар томонлама етук ёшларни тарбиялашда жисмоний тарбия ва спортнинг ўрни ва аҳамияти жуда катта эканлиги ҳаммамизга маълум. Бу эса соҳада олиб борилаётган илмий тадқиқот ишларини янада кучайтириш, унинг қамровини кенг олиб бориш ҳамда самарадорлигини ошириш вазифасини қўяди.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 24 январдаги "Ўзбекистон Республикасида жисмоний тарбия ва спортни янада такомиллаштириш ва оммалаштириш чора-тадбирлари тўғрисида" ПФ-5924-сонли фармони, 2021 йил 5 ноябрдаги "Спорт-таълим муассасалари фаолиятини 2025 йилгача ривожлантириш дастури тўғрисида" ПҚ-5280- сонли қарори, 2022 йил 28 январдаги «2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисидаги» ПФ-60-сонли фармонлари ва мазкур фаолиятга тегишли бошқа меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатларда белгиланган вазифалар ижросини таъминлашда ушбу илмий ишимиз ҳам муайян даражада хизмат қилади [1; 2; 3].

Маълумки миллий меросимизда ватани, халқи учун фидоий бўлган инсонлар, қаҳрамонлиги ёш авлод тарбияси учун муқаддас бир дастури амалдир. Мана шу маънавий меросимизни таркибий қисми миллий ғурурдир. Миллий ғурур барча жанрларда халқимизни бой аҳлоқий ўгитлари ўз аксини топган. Авлоду аждодларимизнинг қадимги ижтимоий-иқтисодий ҳаёти, урф-одатлари, анъаналари, маданияти, тили, тарихи бадиий фалсафий жиҳатдан ўзига хос тарзда акс эттириладиган халқ педагогикаси ниҳоятда бой ва ҳилма-ҳилдир. Халқ педагогикаси миллий ғурур билан чамбарчас боғлиқ бўлиб, унинг манбаи юртимиз тарихи, аждодларимиз ҳаёти, бадиий адабиётларда кўрсатиб ўтилган барча қадриятларимиз ёшларга тарбиявий таъсир кўрсатишнинг энг қадимий воситаларидир.

**АСОСИЙ ҚИСМ.** **Миллий ғурур** - шахс, ижтимоий гуруҳнинг миллий ўз-ўзини англаши асосида шаклланадиган, аждодлари қолдирган моддий, маънавий меросдан, ўз халқининг жаҳон сивилизатсиясига қўшган ҳиссаси,

ўша, миллатлар олдидаги қадр-қиммати, обрў-еътиборидан фахрланиш ҳиссини ифодаловчи тушунча[4].

Бизнинг назаримизда, "миллий ғурур" тушунчаси ўрганилаётган объект нуқтаи назаридан ҳам индивидуал, ҳам ижтимоий хусусиятни намоён эта олади.

Юқоридаги фикрларга таянган ҳолда қайд этиш лозимки, БЎСМларда тарбияланаётган енгил атлетикачиларда миллий ғурурни шакллантириш узоқ муддатли, тизимли ва изчил ёндашувни талаб этувчи педагогик фаолият жараёнидир. Бу жараён баркамол шахс ва малакали мутахассисни тарбиялаш борасидаги ижтимоий мақсадни амалга ошириш борасидаги яхлит жараённинг муҳим таркибий қисми саналади.

Педагогик йўналишларда ташкил этиладиган тадқиқотларнинг асосида ўрганилаётган муаммонинг амалиётдаги мавжуд ҳолатини ўрганиш, қўлга киритилган далилларни таҳлил этиш, муайян хулосаларга келиш, шунингдек, чиқарилган хулосалар асосида ягона муаммонинг умумий ҳолатига баҳо беришга йўналтирилган амалий фаолият алоҳида ўрин тутади.

БЎСМларда тарбияланаётган ёш енгил атлетикачиларда миллий ғурурни шакллантириш соҳасида ташкил этилган амалий фаолият учун объект (тажриба майдони) сифатида Болалар-ўсмирлар спорт мактаблари танланди. Муаммонинг амалиётдаги мавжуд ҳолатини ўрганиш ва уни ташкил этишда қўлланилаётган восита, усул ва шаклларни илмий асослаш мақсадида Наманган туманидаги Болалар-ўсмирлар спорт мактабининг енгил атлетика спорт тури бўйича тарбияланувчи спортчилар билан 2022-2023 йил мобайнида анкета-сўрови ўтказилди.

Сўровномада 64 нафар спортчилар иштирок этди.

Респондентларга таклиф қилинган анкета шартли равишда қисмларга бўлинган: респондентлар тўғрисида маълумот ва махсус саволлардан иборат мазмунли қисм.

Шахснинг миллий ғурурга эгалик даражасини аниқлаш бир қадар мураккабдир. Бинобарин, шахснинг намоён бўлувчи барча ҳаракатлари ҳам унинг бу туйғуга эгалигини ифода этавермайди.

Шу нуқтаи назардан БЎСМларда тарбияланаётган ёш енгил атлетикачилар билан сўрвнома орқали уларнинг миллий ғурурини ва китобхонлик маданиятини шаклланганлик даражаси ва китобга бўлган муносабитини ўрганишга ҳаракат қилдик.

Олинган натижалар ва уларнинг таҳлили. БЎСМларда тарбияланаётган ёш енгил атлетикачилар билан билан сўрвнома орқали уларнинг миллий ғурурини шаклланганлик даражаси ўрганилди. Тажриба бошида ўтказилган сўровнома натижалари қуйидагича бўлди:

Респондент спортчиларда миллий ғурурининг шаклланганлик даражасини ўртача коеффитсиенти

| Т.р | Гуруҳлар | Тажриба аввалида | | | Коеффитсент |
|---|---|---|---|---|---|
| | | Юқори | Ўрта | Паст | |
| 1. | Тажриба $н_1$=32 | 4 | 5 | 23 | |
| 2. | Назорат $н_2$=32 | 3 | 7 | 22 | |

Бу кўрсаткичлар диаграммада ифодаланганда қуйидаги кўринишда намоён бўлди:




БЎСМларда тарбияланаётган ёш енгил атлетикачилар учун ўзбек миллати маданияти ва тарихида жуда юксак илм соҳиблари бўлган буюк бобокалонларимизни ҳаётини ўрганиш ҳамда уларнинг илмий, бадиий, тарихий, фалсафий, тиббий, ахлоқий, ҳуқуқшуносликка оид ва бошқа бир қатор асарлари ўқиб, ўрганишга тавсия этилади.

Тадқиқотимиз давомида БЎСМларда тарбияланаётган ёш енгил атлетикачилар учун ўқилиши шарт бўлган, буюк бобокалонларимиздан мерос қолган адабиёт намуналари юкламаларини тузиб чиқилди:

| № | Буюк бобокалонларимиз асарлари ва уларни спортчиларга тафсия этилган вақти | | |
|---|---|---|---|
| | Алломалар | Ўқиш учун ажратилган вақт | Асарлар |
| 1. | Муҳаммад ибн Мусо ал-Хоразмий (783-850 йиллар) | Сентябр ойи | “Васиятлар китоби”, “Қисқартирилган синдиҳинд” |
| 2. | Аҳмад ал-Фарғоний (797-865 йиллар) | Октябр ойи | “Фалакиётга кириш”, “Сайёралар илми” (“Самовий ҳаракатлар ва юлдузлар фанининг мажмуаси ҳақида китоб”) |
| 3. | Имом Исмоил ал-Бухорий (810-870 йиллар) | Ноябр ойи | “Ал-жомеъ ас-саҳиҳ”- (“Ишончли тўплам”), “Ал-адаб ал-муфрад”- (“Адаб дурдоналари) |
| 4. | Имом Исо ат-Термизий (824-892 йиллар) | Декабр ойи | “Ал-жомеъ ас-саҳиҳ” (“Ишончли тўплам”), “Аш- |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | | | Шамоил ан-набавия" ("Пайғамбарнинг алоҳида фазилатлар) |
| 5. | Абу Наср Форобий (873-950 йиллар) | Январ ойи | "Фозил одамлар шаҳри", "Бахт-саодатга эришув тўғрисида", "Илмларнинг келиб чиқиши", |
| 6. | Абу Али ибн Сино (980-1037 йиллар) | Феврал ойи | "Ал-қонун ат-тиб", "Ишқ ҳақида рисола" |
| 7. | Абу Райҳон Беруний (973-1048 йиллар) | Март ойи | "Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар", "Хоразмнинг машҳур кишилари "Сайдона", |
| 8. | Маҳмуд ибн Умар аз-Замахшарий (1075-1144 йиллар) | Апрел ойи | "Сўзга усталик асослари", "Қофия" |
| 9. | Бурхониддин ал-Марғиноний (1123-1197 йиллар) | Май ойи | "Ҳидоя", "Фуқароларнинг ҳуқуқлари тўғрисидаги тасаввурлар китоби", |
| 10. | Амир Темур Кўрагоний (1336-1405 йиллар) | Июн ойи | "Темур тузуклари" |

| | | | |
|---|---|---|---|
| 11. | Муҳаммад Тарағай Улуғбек (1394-1449 йиллар) | Июл ойи | "Зижи Улуғбек", "Рисолаи Улуғбек" |
| 12. | Заҳириддин Муҳаммад Бобур (1483-1530 йиллар) | Август ойи | "Бобурнома" |

**Сўров натижаларини қайта ишлаш учун калит**

| Жавоблар | Балл кўрсаткичлари | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | № 1 | № 2 | № 3 | № 4 | № 5 |
| а | 4 | 2 | 2 | 5 | 3 |
| б | 0 | 3 | 3 | 2 | 0 |
| с | 3 | 4 | 4 | 4 | 2 |
| д | 2 | 0 | 5 | 2 | 1 |

**Миллий ғурурнинг шаклланганлиги даражасини баҳолаш кўлами**

| Муносабат даражаси | Балл кўрсатгичлари |
|---|---|
| Юқори | 16-21 |
| Ўрта | 10-16 |
| Паст | 0-10 |

Тажриба сўнгида ўтказилган сўровнома натижалари қуйидагича бўлди:

Респондент спортчиларда миллий ғурурнинг шаклланганлик даражасини ўртача коеффитсенти

| Т.р | Гуруҳлар | Тажриба сўнгида | | | Коеффитсент |
|---|---|---|---|---|---|
| | | Юқори | Ўрта | Паст | |
| 1. | Тажриба $н_1$=32 | 15 | 13 | 4 | |
| 2. | Назорат $н_2$=32 | 6 | 8 | 18 | |

Бу кўрсаткичлар диаграммада ифодаланганда қуйидаги кўринишда намоён бўлди:




| Саволлар | Тадқиқот бошида % | | Тадқиқот сўнгида % | |
|---|---|---|---|---|
| | Тўғри жавоб | Нотўғри жавоб | Тўғри жавоб | Нотўғри жавоб |
| 1-савол | 5 | 95 | 80 | 20 |
| 2-савол | 9 | 97 | 91 | 9 |
| 3-савол | 8 | 92 | 86 | 24 |
| 4-савол | 0 | 100 | 93 | 7 |
| 5-савол | 30 | 70 | 83 | 26 |
| 6-савол | 7 | 93 | 89 | 21 |

БЎСМларда тарбияланаётган ёш енгил атлетикачилар билан сўрвнома орқали китобхонлик маданиятини шаклланганлик даражаси ва китобга бўлган муносабитлари тадқиқот бошида қуйи эди ва китобхонликни ўзида мужассам этган янги ишлаб чиқилган маънавий маърифий режа асосида ўтказилган тадбирлар ва тавсия этилган бобокалонларимиз асарлари мутолааси натижасида кўрсаткичлар кескин ошганини кўришимиз мумкин.

Юқоридаги таҳлиллар натижасида **ХУЛОСА** ва **ТАКЛИФЛАР** қилишимиз мумкин:

1. БЎСМларда тарбияланаётган ёш енгил атлетикачиларда кўзга ташланаётган камчиликларни бартараф этиш учун машғулотлар учун шароитларни тўлиқ яратиш ва шу асосда машғулот сифатини кўтариш, миллий ғурурни тарғиб қилиш ҳамда уни шакллантиришда маънавий маърифий соҳада

олиб борилаётган ишларни умумтаълим мактаблари билан ҳамкорликда бир-бирини изида ташкил этиш зарур.

2. БЎСМлар маънавий маърифий ишларини такомиллаштириш, унинг таркибига миллий ғурурни шакллантиришнинг ноанъанавий усулларни тадбиқ этиш.

3. Мураббийлар ва спортчиларнинг миллий ғururини шакллантириш йўлида, китоб мутолааси учун бадиий адабиётларни ёшга мос ҳолда саралаш ва шароит яратиш.

4. БЎСМларда тарбияланаётган ёш енгил атлетикачилар миллий ғururини сунъий яратилган шароитларда синаб кўриш ва назоратга олиш зарур.

5. БЎСМларда тарбияланаётган ёш енгил атлетикачилар миллий ғururини шакллантириш учун маънавий материаллар базаси платформасини яратиш.

БЎСМларда тарбияланаётган ёш енгил атлетикачилар маънавий ва жисмоний ҳаракатни узлуксиз олиб бормоғи лозим. Маънавий сифатни юксалишида эса, миллий ғурурнинг ўрни беқиёслигини юқоридаги тажрибамизда исботлаб бердик. Хулоса қилиб айтганда ўтказилган тадқиқотимиз натижаси ижобий томонга йўналди. Тадқиқотимиз бошланиш жараёнида енгил атлетикачилардаги холат ўта пассиф даражада эди. Биз талқин қилган илмий изланишлар, спортчиларга таклиф қилган адабиётларимиз енгил атлетикачилардаги маънавиятини шаклланишига алоҳида туртки бўлди. Буни исботи юқоридаги олиб борилган сотсиометрик текширувларда намоён бўлди.

## ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

6. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг 2020 йил 24 январдаги "Ўзбекистон Республикасида жисмоний тарбия ва спортни янада такомиллаштириш ва оммалаштириш чора-тадбирлари тўғрисида" ПФ-5924-сонли фармони // Lex.uz.

7. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг 2021 йил 5 ноябрдаги "Спорт-таълим муассасалари фаолиятини 2025 йилгача

ривожлантириш дастури тўғрисида" ПҚ-5280- сонли қарори // Lex.uz.

8. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг 2022 йил 28 январдаги «2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисидаги» ПФ-60-сонли фармони // Lex.uz.

9. Фалсафа: Қомусий луғат //Қ.Назаров умум. таҳрири остида. - Т.: Шарқ нашриёт-матбаа компанияси Бош таҳририяти, 2004. - 469 б.

## TEATRLAR FAOLIYATINING YOSHLAR TARBIYASIDAGI AHAMIYATI

***Haydarova Shohsanam Bahrom qizi***

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti*

*Madaniyat va san'at sohasi menejmenti mutaxassisligi*

*2-kurs magistranti*

***Annotatsiya:*** *Maqolada yurtimizdagi teatrlarning yoshlar tarbiyasidagi ahamiyati haqida so'z yuritiladi. Shu bilan birga teatr san'atiga va ijodkorlariga berilayotgan keng imkoniyatlar va teatrlar faoliyati haqida ststistik ma'lumotlar berilgan.*

***Аннотация:*** *В статье говорится о значении театров в воспитании молодежи нашей страны. При этом представлены широкие возможности, предоставляемые театральному искусству и его творцам, и статистические данные о деятельности театров.*

***Abstract:*** *The article talks about the importance of theaters in the education of young people in our country. At the same time, statistical information is given about the wide opportunities given to the theater art and its creators and about the activities of the theaters.*

***Kalit so'zlar:*** *teatr, yoshlar, urf-odat, sahna asarlari, repertuar, jonli tomosha.*

***Ключевые слова:*** *театр, молодежь, традиция, сценические произведения, репертуар, живое исполнение.*

***Key words:*** *theater, youth, tradition, stage works, repertoire, live performance.*

Inson ma'naviy olamini yuksaltirishda, ong va tafakkurini teranlashtirishda teatr san'atining o'rni beqiyos. Zero, san'at odamlarni ezgulikka chorlaydi, yaxshilikka undaydi, eng go'zal his-tuyg'ularni in'om etadi. Teatr shunchaki oddiy tomoshaxona emas, balki tarbiya, madaniyat, ma'naviyat va ma'rifat maskanidir. 1961-yilda YUNESKO huzuridagi Xalqaro teatr instituti tomonidan Avstriyaning Vena shahrida bo'lib o'tgan IX kongressda 27-mart — Xalqaro teatr kuni deb ta'sis etilgan bo'lib, bugungi kunda dunyoning 100 dan ziyod mamlakatlarida ushbu sana, teatr san'ati xodimlarining kasb bayrami sifatida keng nishonlanib kelinmoqda.

Prezidentimizning sa'y-harakatlari bilan mamlakatimizda ham madaniyat va san'atni, xususan teatrni rivojlantirish davlatimizning ustuvor vazifalaridan biriga aylandi. 2021-yilda faoliyat ko'rsatgan teatrlar soni 50 tani tashkil etib, ulardan 24 tasi drama teatri, 10 ta musiqali teatr, 4 ta yosh tomoshabinlar teatri, 7 ta qo'g'irchoq teatri va 1 ta opera va balet teatri. Yillar kesimida teatrlarning ortish soni quydagicha:

| | |
|---|---|
| 2000- yilda | 40 ta |
| 2010- yilda | 42 ta |
| 2020- yilda | 49 ta |
| 2021- yilda | 50 ta |

2020- yilda teatrlar tomonidan namoyish etilgan spektakllar soni 5486 tani tashkil etgan bo'lib, teatrga kelgan tomoshabinlar soni 1090,5 ming kishini tashkil etgan. O'zbek xalqining asrlar davomida avloddan-avlodga noyob meros sifatida o'tib kelayotgan teatr va tomosha san'ati an'analarini boyitish, xalqimiz, ayniqsa, yosh avlod ongida milliy madaniyatimiz va qadriyatlarimizga nisbatan ehtirom hislarini oshirish maqsadida bir qancha islohotlar amalga oshirilmoqda.

Mamlakatimizdagi mavjud teatrlar yo'nalishlarini belgilash, yangi badiiy jamoalar tuzish, boy an'analarga tayangan holda jahon andozalari darajasidagi zamonaviy milliy teatr san'ati maktabini yaratish va o'z tarkibidagi ijodiy

jamoalarning tashkiliy, moliyaviy, moddiy-texnika masalalarini hal etish, ularni zamonaviy texnika vositalari, zarur ashyolar bilan ta’minlash borasida ham teatrlarimiz katta amaliy tajribaga egadir. O‘zbekiston teatr san’atini mamlakatimizda va chet ellarda targ‘ib etish, gastrol faoliyatini uyushtirish va muvofiqlashtirish va milliy va xalqaro teatr festivallarida ishtirok etish hamda ularni tashkil etish borasida ham katta maktab yaratildi desak mubolag‘a aytgan bo‘lmaymiz. Darhaqiqat, teatr hayot ko‘zgusi, muqaddas dargoh sanaladi. Uning tarbiyaga yo‘g‘rilgan saboqlari esa kishilarni odamiylikka chorlab turaveradi. O‘zbek teatr asoschilaridan biri Mahmudxo‘ja Behbudiy ta’biri bilan aytganda, “Teatr ibratxonadir”. Darhaqiqat, kino yoki konsert tomoshalarini televideniye yoxud internet orqali tomosha qilish, zarur bo‘lsa ulardan nusxa ko‘chirib olish mumkin. Lekin teatr shu qadar nozik san’at turlaridan sanaladiki, tomoshabin rol ijro etayotgan aktyorlarning nigohi va nafasini, har bir so‘ziyu xatti-harakatini jonli tarzda ko‘rib, his qilib turadi. Ko‘z oldida sahna turadi, shu yerda aktyorlar bilan birga yashaydi, yig‘laydi, kuladi...

Binobarin, xalqimizning ming yillar davomida shakllangan dunyoqarashi, urf-odatlari, an’analari singari hech qaysi millatnikiga o‘xshamagan go‘zal qadriyatlari borki, shular asosida o‘lmas sahna asarlarini yaratib, elimizga havola etish eng asosiy vazifamizga kiradi.

Darhaqiqat, yillar davomida shakllangan boshqaruv va teatr asarlarini taqdim etish usullari endilikda o‘zgarib bormoqda. Zero, axborot texnologiyalari, internet tizimining keyingi yillarda shiddatli o‘zgarishi va rivojlanishi aksariyat sohalarning faoliyatini butunlay qayta ko‘rib chiqish, ish uslublarini o‘zgartirishga majbur qildi. Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 5-yanvardagi “2018-2022-yillarda davlat teatrlarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va ularning faoliyatini rivojlantirish chora-tadbirlari dasturi to‘g‘risida”gi qarori teatr san’ati sohasidagi tomosha va konsert dasturlarini yaratishda, xalqimiz, ayniqsa, yoshlar qalbida ona Vatanga muhabbat, umumbashariy qadriyatlarga hurmat, insonparvarlik g‘oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalashga munosib sahna asarlari, tomoshalar va konsert dasturlari bilan hissa qo‘shib borish, teatr va tomosha san’atini keng targ‘ib etish maqsadida xorijiy muassasalar bilan o‘zaro manfaatli hamkorlikni amalga oshirish kabi bir qancha ustuvor vazifalarni belgilab berdi. Bu

vazifalarni amalga oshirish jarayonida teatr-tomosha muassasalariga zamonaviy axborot texnologiyalari, internet va elektron ishlash tajribasiga ega zamonaviy menejerlarni jalb etishga, ijodiy kechalar, ekskursiyalar, teatr tarixiga oid qog'oz va video ko'rinishidagi xabarlar, tomoshabinlar ishtirokida so'rovnomalar tashkil etishga katta e'tibor qaratilyapti.

Repertuarni shakllantirishga, tomoshabinlarni jalb etishga yangicha yondashuv qaror topgan teatrlarda ijodiy barqarorlik mavjud. Bunday muhitda ijodkorning o'z ishiga bo'lgan ishonchi va shijoati yana-da oshadi. Teatr san'ati tarkibini hosil qiluvchi zanjir mustahkam bo'lmog'i lozim. Ana shundagina yaxshi asar asosida, dramaturgiya, rejissura va aktyorlik san'atining namunasi bo'lgan umirboqiy, beqiyos spektakllar yaratilaveradi[1].

"Hammamizga yaxshi ma'lumki, inson va jamiyat hayotida, xalqning ma'naviy dunyosini, ongu tafakkurini yuksaltirishda teatr san'atining o'rni va ahamiyati beqiyosdir. Buyuk ma'rifatparvar bobomiz Mahmudxo'ja Behbudiy aytganlaridek, teatr haqiqatan ham ibratxona, qutlug' tarbiya va ma'rifat maskanidir. Jahondagi eng ommaviy va ta'sirchan san'at turlaridan biri bo'lgan teatr asrlar davomida odamlarni insoniylik va ezgulikka chorlab, ularning qalbida olijanob fazilatlar, go'zal his-tuyg'ularni kamol toptirishga, jamiyat hayotida tinchlik, do'stlik va hamjihatlik, yuksak axloq va adolat tamoyillarini mustahkamlashga xizmat qilib kelmoqda.

Dunyodagi 100 dan ziyod mamlakatda keng nishonlanayotgan mana shu quvonchli bayram kunida bir asrdan ziyod shonli tarixga, ijodiy maktablarga ega bo'lgan o'zbek teatr san'ati o'zining boy an'ana va qadriyatlarini saqlab, zamon bilan hamnafas bo'lib, izchil rivojlanib kelayotganini alohida ta'kidlash o'rinlidir. Hayot yo'llarida uchrab turadigan turli muammo va qiyinchiliklarga qaramasdan, o'zining sevgan kasbiga, qadrdon sahnasiga hamisha sadoqat ko'rsatib, ko'pmillatli xalqimizga sidqidildan xizmat qilib kelayotgan siz, azizlarning – ustoz san'atkorlar, taniqli dramaturg va rejissyorlar, sozanda va bastakorlar, yosh aktyorlar, sahna rassomlari va texnik xodimlarning mashaqqatli va fidokorona mehnatingizni har qancha olqishlasak, sizlarga chin qalbdan rahmat aytsak, arziydi, albatta[2]" – deya ta'kidlab o'tgan edi Prezidentimiz.

| Koʻrsatkichlar | 2021 |
|---|---|
| Professional teatrlar soni - jami | 50 |
| opera va balet | 1 |
| drama, komediya va musiqiy | 34 |
| bolalar va yosh tomoshabinlar | 15 |
| Spektakllar soni | 9476 |
| opera va balet | 336 |
| drama, komediya va musiqiy | 5269 |
| bolalar va yosh tomoshabinlar | 3871 |
| Tomoshabinlar soni, ming | 1952,4 |
| Teatrlarga tashriflar soni, oʻrtacha 1000 aholiga[3] | 55 |

Teatr har bir davrda, hayotiy saboqlar beruvchi jonli vosita hisoblangan. Inson ma'naviyati yuksalishida ham uning oʻrni boʻlakcha. Zero, teatr ma'rifat ulashuvchi, sahna va tomoshabin o'rtasida jonli muloqot o'rnatuvchi maskan bo'lib, bu dargohda yuksak fazilatlar hamda umuminsoniy g'oyalar tarannum etiladi. Ma'lumki, teatr hayotning koʻrgazmali shaklining badiiy aksi boʻlib, obrazlar orqali dunyoni qabul qilishga asoslanadi. Teatrda ma'no va mazmunni ifodalashning oʻziga xos vosita, aktyorlar oʻyinida paydo boʻladigan sahna asaridir. Biroq bolalarni asosiy estetik ta'limi sohasida musiqiy-teatr faoliyati eng kam rivojlangan yo'nalish boʻlib qolmoqda.

Bugungi kunda yoshlarimiz, oʻquvchilar, oliy ta'lim muassasalari talabalarining teatr san'atiga boʻlgan e'tibori, qiziqishlarini oshirmogʻimiz lozim. Ertamiz kelajagi boʻlgan yoshlarni teatr tomoshalari orqali ta'limiy-tarbiyaviy tushunchalarini, tasavvur olamini boyitishimiz mumkin boʻladi. Imkon qadar teatr san'atining ahamiyati haqida yoshlar, ularning ota-onalariga ma'lumot, tushunchalar berib targʻibot-tashviqot ishlarini olib borish lozim. Chunki, farzandlarimiz teatr, sahna asarlarini jonli tomosho qilish orqali oʻzlariga ma'naviy ozuqa olishadi. Teatrlarimizda sahnalashtirilayotgan sahna asarlarining asosiy maqsadi ham kelajak yosh avlodni ma'naviy barkamol, yetuk insonlar qilib, ularni vatanga muhabbat ruhida tarbiyalashdan iborat boʻlmogʻi kerak[4].

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Durdiyeva G. Hayot va sahna koʻzgusi. https://yuz.uz/uz/news/hayot-va-sahna-kozgusi
2. Prezident Oʻzbekiston teatr san'ati xodimlariga tabrik yoʻlladi. https://xs.uz/uz/post/prezident-ozbekiston-teatr-sanati-khodimlariga-tabrik-jolladi
3. https://api.stat.uz/api/v1.0/data/teatrlar?lang=uz&format=xlsx
4. Amanbayev B., Qalandarov U. Yoshlar tarbiyasida teatr sanatining orni va ahamiyati// jur. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences

## MAKTABGACHA YOSHIDAGI BOLALAR TARBIYASIDA OʻYINCHOQNING AHAMIYATI

***Zokirjonova Laylo  Barkamol qizi***
*NamDU Maktabgacha  ta'lim yo'nalishi 2-bosqich  talabasi*
*Ilmiy rahbar:* ***Abdullayev DilshodbekYuldashali o'g'li***

***Annotatsiya**: Bu maqolada oʻyinchoq bolalarni turli rang-barang harakatlarga undaydi va bolaning faol harakatga boʻlgan ehtiyojini qondiradi. Tezkor javob reaksiyasini, harakatlarning aniqligi va muvofiqlashtirishini rivojlantiradi. Axloqiy his-tuygʻulami shakllantirishda qoʻgʻirchoq muhim ahamiyatga egaligi haqida soʻz boradi.*

***Kalit soʻz**: oʻyinchoq, tarbiya, axloqiy his-tuygʻu, mehribonlik, e'tibor, idrok, barbie qoʻg'irchoq.*

***Аннотация:** В данной статье игрушка мотивирует ребенка на различные виды деятельности и удовлетворяет потребность ребенка в активном движении. Развивает быстроту реакции, точность и координацию движений. Говорят, что кукла важна в формировании нравственных чувств.*

***Ключевые слова**: любовь, воспитание, нравственное чувство, доброта, внимание, восприятие, кукла Барби.*

***Abstract**: In this article, the toy motivates the child to various activities and satisfies the child's need for active movement. Develops quick response reaction, accuracy and coordination of movements. It is said that the doll is important in the formation of moral feelings.*

***Key word**: toy, education, moral feeling, kindness, attention, perception, barbie doll.*

Kichik yoshdagi bolaning eslab qolish qobilyati kuchli bo'ladi. Bolalikda his-hayajon bilan idrok etilgan narsalar bir umr esda qoladi. Shuning uchun ham bolaga o'yinchoq olib berishda e'tiborliroq bo'lish lozim. Qiz bolalar uchun yumshoq o'yinchoqlar, yoki bo'lmasam o'zbek milliyligi aks ettirilgan qo'g'irchoqalar sovg'a qilish tavsiya etiladi. O'yinchoqlar xilma-xilligi orasida rivojlanishga yordam berishning o'rniga, psixikaning vayron bo'lishiga va tarbiya buzilishiga olib keladigan o'yinchoqlar ham mavjud. Masalan, qo'rqinchli kiborglar, yuzlari bo'yalgan, yarim-yalang'och qo'g'irchoqlar, chandiqlari va so'gallari bo'lgan xunuk hayvonlar kabi o'yinchoqlar shular jumlasidandir. Bu o'yinchoqlarni olib berish umuman tavsiya etilmaydi. Og'il bolalarga esa asosan o'zbek xalq ertaklari qahramonlari va ularning tabiatiga mos bo'lgan o'yinchoqlarni sovg'a qilish maqsadga muvofiq. Shuningdek, o'yinchoqning rangi, tuzilishiga ham e'tibor qaratish kerak. Och rangdagi o'yinchoqlar bolaning kayfiyatini ko'tarishga, uning yaxshi va xotirjam uxlashiga yordam beradi. O'yinchoq — bola hayotining dastlabki davrlaridan boshlab ularga yo'ldosh quvonch manbayi. o'yinchoq bolaning o'ynashi uchun mo'ljallangan va boshqa maqsadlarda foydalanilmaydigan buyum hisoblanadi. Unda buyumlarning tipik xususiyatlari umumiy tarzda aks etadi.

maktabgacha bo'lgan yosh — bolalarning tug'ilgan paytidan yetti yoshgacha, to ularga umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida ta'lim berish boshlangan paytga qadar bo'lgan yoshi;

maktabgacha ta'lim va tarbiya — bolalarga ta'lim va tarbiya berishga, ularni intellektual, ma'naviy-axloqiy, etik, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek bolalarni umumiy o'rta ta'limga tayyorlashga qaratilgan uzluksiz ta'lim turi;

maktabgacha ta'lim va tarbiya davlat standarti — ta'lim-tarbiya jarayonining hajmiga, mazmuniga va sifatiga, maktabgacha ta'lim tashkilotini qurish va jihozlashga, shuningdek maktabgacha yoshdagi bolalarning sog'lom ovqatlanishini va xavfsizligini tashkil etishga doir majburiy talablar majmui;

maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat ta'lim dasturi — bola tomonidan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan asosiy bilimlarning, mahorat va ko'nikmalarning hajmini hamda mazmunini belgilovchi, shuningdek ta'lim va tarbiya mazmunining o'ziga xosligini, ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlarini tavsiflovchi hujjat;

maktabgacha ta'lim tashkiloti — maktabgacha ta'lim va tarbiya sohasida ta'lim va tarbiya xizmatlari ko'rsatuvchi davlat va nodavlat tashkiloti;

nodavlat maktabgacha ta'lim tashkiloti — nodavlat ta'lim xizmatlarini ko'rsatish sohasidagi faoliyatni amalga oshirishga doir litsenziya asosida maktabgacha ta'lim va tarbiya sohasida ta'lim va tarbiya xizmatlarini ko'rsatuvchi yuridik shaxs;

pedagogning kasbiy standarti — maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagogining shaxsiy kasbiy sifatlariga, bilimlariga, mahorati va ko'nikmalariga doir asosiy talablar majmui;

ta'lim va tarbiyaning muqobil shakli — maktabgacha ta'lim va tarbiya tizimidagi innovatsion ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish modeli.

Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning asosiy prinsiplari

Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

har bir bola uchun maktabgacha ta'lim va tarbiya olish imkoniyatining mavjudligi;

har bir bolaning iste'dodi nishonalarini, ishtiyoqlari va qobiliyatlarini rivojlantirish uchun shart-sharoitlar tengligi;

maktabgacha bo'lgan yoshdagi bolalarga ta'lim, tarbiya berish va ularni sog'lomlashtirishning, oila hamda maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyaviy ta'sirining birligi;

maktabgacha bo'lgan yoshdagi bolalarga ta'lim va tarbiya berish uyg'unligi;

bolaning shaxsini rivojlantirishga yo'naltirilgan shaxsiy yondashuv;

maktabgacha va umumiy o'rta ta'limning izchilligi hamda uzluksizligi;

ta'lim va tarbiyaning demokratik hamda dunyoviy xususiyatga egaligi;

ta'lim-tarbiya jarayonining shaffofligi va ochiqligi;

maktabgacha ta'lim va tarbiya mazmuni, darajasi hamda hajmining maktabgacha bo'lgan yoshdagi bolalarning rivojlanish xususiyatlariga hamda sog'lig'i holatiga muvofiqligi[1].

Xalq pedagogikasida o'yinchoqlaming butun bir tizimi ishlab chiqilgan bo'lib, bular bolaning sensor qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan. O'yinchoqlar bolalarning nutqiy faolligini uyg'otadi, lug'at boyligini oshiradi, ularda tahlil qilish, yaxlit holatga keltirish, umumlashtirish, taqqoslash, tavsiflash, diqqatni jamlash kabi qobiliyatlarni rivojlantiradi. O'yinchoqlar bolalarda ma'naviy-axloqiy tuyg'ulami (mehribonlik, avaylash, e'tiborlilik) shakllantiradi, atrof-muhitga ijobiy munosabatni uyg'otadi. O'yinchoqlar tanlashda bolaning yosh va individual xususiyatlari, qiziqishlari, istaklari hisobga olinadi. Maqsadga qaratilgan bunday yondashuv o'yinchoq tanlashga bo'lgan talabni yanada oshiradi. Asosan, pedagogik, gigiyenik, badiiy talab orqali o'yinchoq tanlanadi. O'yinchoq, o'yinning alohida predmeti, madaniyatning namoyon bo'lishidan biri sifatida, jamiyatning tarixiy rivojlanishi davrida paydo bo'ldi. Ibtidoiy kommunal tizimning dastlabki bosqichlarida o'yinchoqlar yo'q edi. Bu bolalarga kattalarning oddiy ishlarida qatnashishga imkon beradigan oddiy vositalar va mehnat shakllari bilan bog'liq edi: qutulish mumkin bo'lgan o'simliklar, ildizlar, baliqlarni yig'ish, mayda hayvonlar va qushlarni ovlash va dehqonchilik bilan shug'ullanish. Ishlab chiqarishning yuqori shakllariga o'tish bilan mehnat taqsimoti, uning turli shakllarida bolalarning ishtiroki tabiati o'zgardi. Vazifa bolalarga murakkab vositalarni iloji boricha erta o'rganishni o'rgatish uchun paydo bo'ldi, ular muhimroq narsalar bilan tanishtirish uchun. Buning uchun asbobning qisqartirilgan nusxasi yaratildi. Ularning yordami bilan bolalar haqiqiy hayotga yaqin sharoitlarda mashq qilishdi. Ammo qisqartirilgan nusxalar funktsiyalarni to'liq hajmda bajara olmadi. Aynan shu davrda o'yinchoqlar paydo bo'la boshladi[2]. O'yinchoq faqat tashqi buyumlarni aks

ettiradi. Ming yillar davomida o'yinchoq o'zgargan. O'zgarish birinchi navbatda ishlab chiqarishga tegishli: qo'lda sanoatdan sanoatgacha. Fan va texnologiyaning rivojlanishi o'yinchoqlarni tayyorlash texnologiyasiga ta'sir qiladi. Keyinchalik murakkab asboblar, uskunalar, bo'yoqlar va materiallar paydo bo'ldi. Yuzaga kelgan mafkura ta'siri ostida tasvirlarning mazmuni o'zgargan (asr boshlarida - xonimning qo'g'irchoqlari, xizmatkorlar, rohiblar, farishtalar, shahar, shohlar; keyinchalik - o'g'il bolalar - kibalchishis, qo'g'irchoqlar - Qizil Armiya askarlari, kashshoflar). Jamiyatning ijtimoiy siyosati va ilmiy-texnik taraqqiyotning ta'siri ostida o'yinchoqlar assortimenti va ularning sifati o'zgarib bormoqda. Bizning zamonamizda kompyuter o'yinchoqlari, kosmik mavzudagi o'yinchoqlar, Barbie qo'g'irchoqlari paydo bo'lishi shundan dalolat beradi. Asrlar davomida o'yinchoqlarning funktsiyalari o'zgargan (yovuz ruhlarni qo'rqitish uchun, oilaning himoyachisi sifatida, farovonlik va samaradorlik ramzi sifatida).

Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, bolalarning deyarli yarmi sevimli o'yinchoq sifatida o'yinchoq mashinasini tanlashadi. 2,5-3 yoshdagi eng katta muvaffaqiyat o'rta avtomobillarda qo'llaniladi. Ochiq eshiklari bo'lgan furgonlar ayniqsa jozibali. Bunday mashina biroz "sir": ichkarida nima bor? Hech kim ko'rmaydi !!! Ammo taxmin qilishga harakat qiling! Shunday qilib o'yin boshlanadi. Shuningdek, qizlar mashinalarni yaxshi ko'rishadi va ular bilan o'ynashadi, hikoyalar qurishadi. 2,5-3 yoshdagi o'g'il bolalar uy o'yinlarida qizlar kabi zavq bilan o'ynaydilar: temir bilan ishlaydilar, qo'g'irchoq kiyimlarini sovun bilan yuvadilar. Ammo bu erkak printsipining buzilishi emas, balki er va xotin o'rtasidagi sevgi va tushunishning uyg'un munosabatlari mavjud oilaning baxtli hayotining aksidir. Bunday o'yinlar tufayli bola kelajakda yaxshi oilaviy odamga aylanishi mumkin. 2,5-3 yoshda siz bir xil o'yinchoqlarni ishlatishda farqni ko'rishingiz mumkin. Qizlar qo'g'irchoqni olishdan 6 baravar ko'proq, o'g'il bolalar texnik o'yinchoqlarga ko'proq e'tibor berishadi. Agar qizlarda uy va kundalik hayot bilan bog'liq bo'lgan qo'g'irchoq bo'lsa, u holda o'g'il bolalar qurilish maydonchasida yoki transport vositalari bilan o'ynashda qo'g'irchoqlardan foydalanishadi. Turmush qurmaslik ko'pincha bolaning jinsiga qarab belgilanadi. O'g'il bolalar bolg'a bilan urishadi, uylar va garaj quradilar, qiz esa qo'g'irchoq uyini tozalaydi, kasal ayiqni davolaydi va qizini aqlli bo'lishga ishontiradi. O'yinchoq, birinchi navbatda, bolani hayratda qoldiradi va bu tuyg'u, deydi A.M. Gorkiy, tushunishning boshlanishi va bilimga yo'l bor. O'yinchoq bolaga atrofidagi dunyo bilan tanishishga yordam beradi, u orqali olingan taassurotlarni tuzatadi va qayta ishlaydi, faollik va muloqotga bo'lgan ehtiyojini qondiradi. O'yin va o'yinchoq, olimlarning fikriga ko'ra, har qanday madaniyatning eng muhim tarkibiy qismidir. Madaniyat nima, bunday o'yinchoqlar. Shunday qilib, Kossakovskayaning xalq ta'limi va oilada bolalar

o‘yin faoliyatini tashkil etish tajribasiga asoslangan o‘yinlar va o‘yinchoqlar bo‘yicha olib borgan izlanishlari barcha yoshdagi bolalar uchun o‘yinchoqlarni yaratish va tanlashda bir xil yondoshish mumkin emasligini ko‘rsatdi, ammo ular shunday bo‘lishi kerak. o‘yin faoliyati rivojlanishining yosh xususiyatlari hisobga olinadi. N.K. Krupskaya o‘yinchoqlarning bolalarni atrofdagi voqelik bilan tanishtirish, ularning hissiy rivojlanishi uchun ahamiyati haqida yozgan. Menjheritskaya D.V., o‘yinchoqlarni o‘rganish sohasidagi taniqli o‘qituvchi, o‘yinchoq bolalarni mehnatga qiziqishga o‘rgatishga yordam beradi, qiziquvchanlik, qiziquvchanlikni shakllantirishga yordam beradi deb ishondi. Bolalarga turli kasblar, turli millat vakillari haqida g'oyalar berib, u bir vaqtning o‘zida ularga nisbatan hamdardlik va hurmat tuyg'ularini rivojlantirishga yordam beradi. Mashhur psixolog Uruntaeva G.A. kattalarning asosiy vazifasi bolani o‘yinchoqlar bilan harakat qilishni o‘rgatish ekanligini aytdi[3]. O‘yinchoq ma'lum pedagogik, estetik, gigiena, texnik va iqtisodiy talablarga ega. O‘yinchoqlarning turli tasniflari mavjud. U erda majoziy o‘yinchoqlar, didaktik va o‘yinlar, texnik, teatr, karnaval va musiqiy, sport va motorli o‘yin-kulgilar mavjud.

O‘yinchoqlar boshlang'ich maktabgacha yoshdagi bolalar hayotida alohida ahamiyatga ega, chunki ular o‘ynashga undaydi, uning tashkil etilishi: qo‘g'irchoq sizni onasi-qizini, mashinada - haydovchini o‘ynashga undaydi. O‘yinning mazmuni o‘yinchoqlarga bog'liq, ular ijodiy tasavvurni rivojlantirish uchun yordam vazifasini o‘taydi. O‘yinchoqlardagi tanish narsalarni bilib, bola o‘z g'oyalarini birlashtirish, yangi tajribalarni qayta ishlash va faol ravishda o‘zlashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Ushbu taassurotlarni o‘yinchoqlar yordamida turli xil kombinatsiyalarda takrorlash umumiy fikrlarni shakllantirishga yordam beradi va bolada hayotning turli hodisalari o‘rtasidagi bog'liqlikni tushunishni osonlashtiradi. Bolalar o‘yinchoqlariga qo‘yiladigan psixologik-pedagogik talablar. O‘yinchoqlar bolalar o‘yinini rivojlantirish uchun katta ahamiyatga ega bo‘lganligi sababli, ularni tanlashga e'tibor berish kerak.Ota-onalarga bolalar o‘yinchoqlarini tanlashda yordam beradigan mutaxassis (psixolog, bolalar bog'chasi va bolalar bog'chasi o‘qituvchisi, oila bilan ishlaydigan ijtimoiy pedagog, pediatr, o‘yinchoqlar bo‘limida sotuvchi va boshqalar) ularning e'tiborini tashqi o‘yinchoqlarga qaratishi kerak. O‘yinchoqning jozibadorligi, albatta, uning pedagogik qiymati va bolaning salomatligi uchun xavfsizligi bilan bog'liq bo‘lishi kerak.

**O‘yinchoqlar quyidagilar bo‘lmasligi kerak:**

1. bolani tajovuzkor harakatlarga undash;
2. rollarini sheriklar (tengdoshlar va kattalar) o‘ynaydigan va syujet o‘yinchoqlari (qo‘g'irchoqlar, hayvonlar) bo‘lgan o‘yin qahramonlariga (odamlar, hayvonlar) nisbatan shafqatsizlik namoyon bo‘lishiga olib keladi;
3. axloqsizlik va zo‘ravonlik bilan bog'liq fitnalarni qo‘zg'atish;

4. bolalik vakolatidan tashqari jinsiy masalalarga nosog'lom qiziqish uyg'otish.

**Ular kerak:**

1. didaktik xususiyatlarga ega (bolani loyihalashga oʻrgatish, rang, shakl bilan tanishish, dasturlashtirilgan boshqaruv mexanizmlarining mavjudligi, masalan, elektrlashtirilgan oʻyinchoqlarda);
2. bolalar guruhidan foydalanish imkoniyati (oʻyinchoqning bir nechta bolalar tomonidan foydalanishga yaroqliligi, shu jumladan oʻyin sherigi sifatida kattalar ishtirokida, masalan, jamoaviy binolar uchun);
3. bolaning san'at va xalq amaliy san'ati olami bilan tanishishini ta'minlaydigan yuqori badiiy-estetik daraja yoki ularning badiiy hunarmandchilik mahsulotlariga tegishliligi.

Ular istaklar tabiatida. Ushbu darajaga mos keladigan oʻyinchoqlar Rossiyada eng koʻp qulayliklarga ega. Hozirgi vaqtda koʻplab psixologlar va oʻqituvchilar zamonaviy oʻyinchoqlarni turli xil tekshiruvlardan oʻtkazmoqda. Ushbu imtihonlar oʻyinchoqlarning rivojlanish qiymatini baholashning ob'ektiv, ilmiy asoslangan mezonlariga asoslanadi. Oʻyinchoqqa qoʻyiladigan asosiy talab - bu har bir yosh davrining neoplazmalarining shakllanishi va rivojlanishi eng samarali tarzda sodir boʻladigan faoliyat turlarini maksimal darajada rivojlantirish, ya'ni. rivojlanishning yoshga bog'liq muammolarini hal qilish[4]. Oʻyinchoq ta'lim vositasi sifatida ijtimoiy harakatlarni rag'batlantirishi va iloji boʻlsa, insoniy tuyg'ularni uyg'otishi kerak. U boshqalarga nisbatan g'amxoʻrlik bilan munosabatda boʻlishi, tirik va, albatta, insonning barcha shakllarida insoniy, antropomorfik tamoyilni ta'kidlashi kerak. Oʻyinchoqda antisotsial harakatlar va his-tuyg'ularni taqlid qiluvchi fazilatlarning mavjudligi qabul qilinishi mumkin emas: zoʻravonlik, shafqatsizlik, tajovuzkorlik, befarqlik, tirik mavjudotlarga ob'ektiv munosabat va boshqalar.Oʻyinchoqlarga qoʻyiladigan talablar va ularni baholash mezonlari oʻyinning tarkibiy qismlari asosida belgilanishi kerak. Faoliyat uning ob'ektivligi va yoʻnalishini belgilovchi motiv bilan turtki boʻlganligi sababli, u oʻziga xos mazmun va faoliyatga ega boʻlgan harakatlar orqali amalga oshiriladi. Oʻyinning motivi jarayonning oʻzida yotadi. Oʻyinga qiziqish asosan oʻyinchoq, ya'ni uning bola uchun jozibadorligi bilan belgilanadi. Bu oʻyinchoq uchun muhim talab boʻlib, u bolaning mustaqil, tashabbuskor faoliyati uchun material boʻlib, oʻyin faoliyatining motivatsion tarkibiy qismini ta'minlaydi. Tashqi tomondan, ular rangi bilan bezovta qilmasliklari kerak. Agarda oʻyin xonasi ranglar, shakllar, miltillovchi rasmlar, ob'ektlar va boshqalarning ustunligi boʻladi. Bolaning psixikasi bardosh bera olmaydi - rang va tovushni, hidni va teginishni idrok etish, yaxshi va yomon deformatsiya haqida g'oyalar. Oʻyinchoqqa qoʻyiladigan asosiy talab - bu har bir yosh davrining neoplazmalarining shakllanishi va rivojlanishi eng

samarali tarzda sodir boʻladigan faoliyat turlarini maksimal darajada rivojlantirish, ya'ni. rivojlanishning yoshga bog'liq muammolarini hal qilish.

Xulosa qilib aytmoqchimanki, oʻyinchoqlar bolaning aqliy, jismoniy va estetik rivojlanishida ajralmas qismdir. Va oʻyinchoqlarni yaratish tarixiga asoslanib, biz ular kutilmaganda paydo boʻlmaganligini tushunamiz. Oʻyinchoqlar butun tarixiy rivojlanish davrida yaratilgan boʻlib, ular yaratilgan davr hayoti va atmosferasini aks ettiradi. Shunday qilib, bolalar bizning hayotimizdagi eng muhim va eng qimmatbaho narsa ekanligidan kelib chiqib, oʻyinchoq ishlab chiqaruvchilar oʻzlarining ishlariga imkon qadar yaxshi munosabatda boʻlishlarini va bolalarga olib keladigan quvonchni qadrlashlarini istardim. Va shunda ular nafaqat oʻyinchoqning koʻrinishi va rangiga, balki xavfsizligi va oʻyinchoqning bolaga ijobiy ta'siriga ham e'tibor berishlari kerak. Chunki ota-onadan keyin 2-oʻrinda bola hali ham oʻyinchoqlarga ega. Va ular bilan, bolalar ham namuna olishadi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. MAKTABGACHA TA’LIM VA TARBIYA TOʻGʻRISIDA Oʻzbekiston Respublikasining Qonuni, 16.12.2019 yildagi OʻRQ-595-son
2. Elkonin D.B. Oʻyin psixologiyasi. - M., 1999 yil
3. Uruntayeva G. A. Bolaning aqliy rivojlanishidagi oʻyinchoqlarning roli. Maktabgacha psixologiya: oʻrta pedagogik oʻquv yurtlari talabalari uchun qoʻllanma. - 2-nashr. M .: Akademiya, 1997 yil.
4. F. Qodirova, Sh. Toshpo’latova, M. A’zamova Maktabgacha pedagogika T. : Ilm-ziyo. 2019-yil

# MAKTABGACHA TA’LIM YOSHIDAGI BOLALANING FAOLIYAT JARAYONLARIDA AXLOQIY TARBIYANING AHAMIYATI

***Mamajonova Maxfura Ahmadjon qizi***
*Namangan davlat universiteti Ta’lim-tarbiya nazariyasi va metodikasi (maktabgacha ta’lim) mutaxasisligi 2-kurs magistranti*
*Ilmiy rahbar:* ***Abdullayev Dilshodbek Yuldashali o’g’li***

***Annotatsiya:*** *Mazkur maqolada Maktabgacha yoshdagi bolalaning Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida olib boradigan, ya’ni o’yin, ta’lim va mehnat faoliyatlarida axloqiy tarbiyaning qanday ahamiyatga ega ekanligi yoriib o’tilgan.*

***Kalit so'zlar:*** *Maktabgacha ta'lim tashkiloti, tarbiyalanuvchilar, o'yin, ta'lim, mehnat, axloqiy tarbiya.*

***Аннотация:*** *В данной статье раскрывается значение нравственного воспитания детей дошкольного возраста в организациях дошкольного образования, т.е. в игровой, образовательной и трудовой деятельности.*

***Ключевые слова:*** *организация дошкольного образования, воспитанники, игра, воспитание, труд, нравственное воспитание.*

***Abstract:*** *This article describes the importance of moral education of preschool children in preschool education organizations, i.e. play, education and work activities.*

***Key words:*** *preschool education organization, pupils, game, education, work, moral education.*

Bugungi kunda uzluksiz ta'limning bosh bo'g'ini bo'lgan maktabgacha ta'lim bosqichiga e'tibor har qachongidan ortib bormoqda. Ushbu ta'lim bosqichi keyingi ta'lim bosqichlarining poydevori ekani ham barchaga ma'lum. O'zbekiston jahon andozalariga mos keladigan ko'p bosqichli ta'lim tizimiga o'tmoqda. O'quv-tarbiya jarayonida qo'llanilayotgan ta'lim texnologiyalari shaxsning rivojlanishiga, mustaqil ishlashga xizmat qilishi zarur. O'sib kelayotgan yosh avlodni muayyan maqsad yo'lida har tomonlama kamol toptirish, uning ongi, dunyoqarashi, e'tiqodini o'stirish, xulq-atvorini tarkib toptirish maktabgacha ta'limning dolzarb muammolaridan sanaladi. Hozirgi davrda har tomonlama rivojlangan barkamol insonni tarbiyalashning maqsad va vazifalari ma'naviy boylik, axloqiy poklik, jismoniy mukammallikni o'zida mujassamlashtirgan ijtimoiy faollikni tarbiyalashni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy munosabatlar mazmuni yangilanayotgan ayni paytda o'sib kelayotgan yosh avlodni faoliyatlari jarayonida axloqiy tarbiyalashni yangicha asoslarda,birtomondan, milliy pedagogik qadriyatlarimiz zaminida, ikkinchidan, rivojlangan mamlakatlar tajribasidan foydalangan holda olib borishga ijtimoiy zaruriyat sifatida qaralmoqda. Chunki bolalar faolityaini to'g'ri tashkil etish ijtimoiy taraqqiyotning manbai, barcha moddiy va ma'naviy ehtiyojlarni qondirishning asosiy shart-sharoitidir. Demak,

mehnat inson faoliyatining asosiy shakli, kishi hayotining mazmuni, har bir jamiyat a'zosining vazifasi, shaxs taraqqiyotining asosidi [1].

Maktabgacha ta'lim va tarbiya sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari

Maktabgacha ta'lim va tarbiya sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

har bir bolaning maktabgacha ta'lim va tarbiya olishga bo'lgan huquqi amalga oshirilishini ta'minlash;

bolalarning maktabgacha ta'lim va tarbiyaga to'liq qamrab olinishini ta'minlash uchun shart-sharoitlar yaratish;

bolaning rivojlanishida, maktabgacha ta'lim va tarbiya olishida oilaga har tomonlama yordam ko'rsatish;

bolalarning, shu jumladan alohida ta'lim olish ehtiyojlari bo'lgan bolalarning sifatli maktabgacha ta'lim va tarbiya olishi uchun shart-sharoitlar yaratish;

ta'lim va tarbiya berishning muqobil shakllarini yaratish hamda rivojlantirish;

maktabgacha ta'lim va tarbiyani rivojlantirishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash;

maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarmog'ini kengaytirishga qaratilgan davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini joriy etish va rivojlantirish;

maktabgacha bo'lgan yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlantirish maqsadida zamonaviy innovatsion va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish;

xalqaro hamkorlikni rivojlantirish.

Maktabgacha ta'lim va tarbiya olishga doir davlat kafolatlari

Har bir bola maktabgacha ta'lim va tarbiya olish huquqiga ega.

Davlat har bir bolaning umumiy o'rta ta'lim tashkilotiga o'qishga kirishidan bir yil oldin davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida umumiy o'rta ta'limga majburiy bir yillik tayyorgarlikdan o'tishga bo'lgan huquqini kafolatlaydi [2].

Bolaning maktabgacha ta'lim va tarbiya olishiga doir davlat kafolatlari davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari negizida maktabgacha ta'lim va tarbiya

xizmatlarini ko'rsatish, shuningdek ta'lim va tarbiaya berishning muqobil shakllarini tashkil etish orqali ta'minlanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar faoliyatini to'g'ri tashkil etish jarayonida axloqiy tarbiyalash imkoniyatlarini ketma-ketlikda ko'rib chiqsak. O'yin bolaga quvonch bag'ishlaydi, ijobiy his va kechinmalarni, hayotdan olgan taassurotlarini aks ettiradi. O'yin mazmuni bola shaxsining shakllanishiga muhim ta'sirko'rsatadi. O'yindan bolalardagi o'zaro o'rtoqlik, do'stlik, bir-biriga yordam ko'rsatish xislatlarini tarbiyalashda va bolalar hayotini tashkil etish shakli sifatida foydalaniladi.

Maktabgacha tarbiya yoshida bola faoliyatining xilma-xil turlari o'yin, mexnat o'qish rejimini bajarish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat rivojlana boradi. 2 yoshdan boshlab bolalar o'ynaydigan bo'lishadi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning yetakchi faoliyatlarga bo'lib o'ynaladigan, ijodiy o'yindir. O'yin jarayonida bola muayyan rollarni bajarishni o'z zimmasiga olishadi hamda o'yin sharoitida odamlar faoliyati va munosabatini esga keltirishadi.

O'yin faqat bilish jarayonlarini takomillashtirib qolmay, balki bolaning xulq-atvoriga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Maktabgacha yoshidagi bolalarda o'z xulqini boshqarish ko'nikmalarini tarkib toptirishga bog'liq psixologik muammoni o'rgangan Z.V.Manuylekoning fikricha, biror maqsadga yo'naltirilgan mashg'ulotga nisbatan o'yinda xulq ko'knikmalarini oldinroq va osonroq egallash mumkin, Ayniqsa, bu omil Maktabgacha yoshi davrining xususiyati sifatida o'zining yorqin ifodasini topadi. Katta maktabgacha yoshdagi bolalarda o'z xulqini o'zi boshqarish ko'nikmasi o'yin faoliyatida ham, boshqa sharoitlarda ham qariyb baravarlashadi. Ba'zida ular ayrim vaziyatlarda, masalan, musobaqa paytida o'yindagiga qaraganda yuqoriroq ko'rsatkichga ham erishishlari mumkin. Yuqoridagi mulohazalar asosida umuman aytganda, o'yin va o'yin faoliyati bolada o'z xulqini boshqarish ko'nikmalarini shakllantirish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

O'yinlarda katta guruhlarning ishtirok etishi pedagogning oldiga jamoaviy o'yin malakalarini (kelishib olish, rollar va o'yinchoqlarni taqsimlash ko'nikmalari, o'rtog'ining muvaffaqiyatidan quvonishi); odamlarga xayrixohlik bilan munosabatda bo'lish, ularga yoqimli va foydali biror narsa qilishni istash va bunga tayyorgarlikni tarbiyalashga alohida etibor berishni zarurat qilib qo'yadi. Bunda

pedagog bolalarni o'yin mavzusini ("Nimani o'ynaymiz?"), uning rejasini ("Qanday o'ynaymiz?") belgilashga, obrazlarni taqsimlashga ("Kim qanday rolni o'ynaydi?"), birgalikda muayyan harakatlar qilishga, bir-birigaxalaqitbermasdan, yordamlashishga, vujudga keladigan ziddiyatlarni mustaqil ravishda va adolatli haletishga, obraz va harakatni faqat xohishi bilan emas, jamoa uchun zarurligi tufayli ham bajarishga o'rgatadi.

O'yinda kattalarning rolini bajarish ayrim bolalardagi intizomsizlik, xudbinlikning oldini olishga yordam beradi. Agar, masalan, bola faqat bosh rollarnigina yaxshi ko'rsa, unga boshqa qiziqarli, lekin asosiy bo'lmagan rollarni berish foydalidir[3].

Qo'pollik, o'zboshimchalik ko'rinishlarini ko'rgan tarbiyachi, kattaning rolini ijro etayotgan bola xatti-harakatiga tayanib yakka-yakka tartibda suhbat o'tkazadi ("Tarbiyachi bunday qilmaydi"; "Bizning mudiramiz bunday gaplashmaydi..."). Ayni paytda tarbiyachi bolalar o'yinga ijobiy misollarni olib kirishlari uchun, odamlarning mehnatdagi o'zaro munosabatlariga ham etibor beradi.

O'yinlarda katta guruhlarning ishtirok etishi pedagogning oldiga jamoaviy o'yin malakalarini (kelishib olish, rollar va o'yinchoqlarni taqsimlash ko'nikmalari, o'rtog'ining muvaffaqiyatidan quvonishi); odamlarga xayrixohlik bilan munosabatda bo'lish, ularga yoqimli va foydali biror narsa qilishni istash va bunga tayyorgarlikni tarbiyalashga alohida etibor berishni zarurat qilib qo'yadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida mehnat faoliyatini tashkil etish, kattalar mehnati bilan tanishtirish orqali bolalarda mehnatga ongli munosabat, ziyraklik, chaqqonlik, kattalar mehnatiga hurmat, o'zaro yordam berish, mehnatsevarlik kabi ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantiradi. Bolalarning topshiriqlari, navbatchiliklari va jamoa mehnatini tashkil etish jarayonida ma'naviy-axloqiy tarbiyaning o'ziga xosligini ko'rish mumkin.

Katta va tayyorlov guruhlarda bolalarni kattalarga yordam berishga jalb etish katta ahamiyatga ega bo'ladi. Masalan, tarbiyachi bahorda xonaki o'simliklarni o'tqazishda bolalarga tuproqni elashni, gul tuvakni yuvishni, unga belgilangan joyigacha tuproq to'ldirishni, o'simlikni ushlab turishni topshiradi. Bolalar esa topshiriqni bajarar ekanlar, o'zlarini kattalarning yordamchisi deb his qiladilar.

Mehnat jarayonida tarbiyachining oʻzi taqlid uchun namuna boʻladi: u faqat ish usullarinigina emas, balki mehnatga munosabatni va mehnatdagi xatti-harakat namunasini koʻrsatadi (tartibli ish yuritadi, oʻsimliklar va hayvonlarga gʻamxoʻr munosabatda boʻlishni ta'kidlaydi). Ish davomida u bolalar bilan bu ishning qanday ahamiyatga ega ekanligini, u atrofdagilarga nima berishini muhokama qiladi.

Tarbiyachi bolalarga enagaga yordam berishni taklifetadi.Bunda uning bolalar bilan qiladigan ishini shunday tashkil etish muhimki, bolalar u yoki bu ishning passiv bajaruvchilari boʻlib qolmasin, balki enaga da ishning tashkilotchisini, bu ishning mohir ustasini koʻrsinlar.

Katta va tayyorlov guruh bolalarida ma'naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirishda tarbiyachining 5-6 kishidan iborat bolalar guruhiga u yoki bu ishni bajarishni taklif etadigan umumiy topshiriqlari alohida rol oʻynay boshlaydi. Bunday topshiriqlarning mazmuni turlicha boʻlib, butun guruh uchun biror narsa qilish zarurligidan kelib chiqadi.

MTMsining pedagogik jarayonida ta'lim muhim ahamiyat kasb etadi va u kundalik hayotda, o'yinda, mehnatda, mashg'ulotlar orqali amalga oshiriladi. Mashg'ulotda ta'lim va tarbiya vazifalari hal etiladi[4]. Bolalar tevarak-atrofdagi

hayot va tabiat bilan tanishish, nutqni o'stirish va savod o'rganish, matematika, jismoniy madaniyat, tasviriy faoliyat, musiqa bo'yicha eng oddiy tasavvur va bilimlarni, malaka va ko'nikmalar sistemasini egallab oladilar. Bolalar egallab olishlari kerak bo'lgan bilim, malaka va ko'nikmalar MTM dasturida belgilab berilgan bo'lib, u bolalarning umumiy rivojlanishida va ularni maktab ta'limiga tayyorlashda muhim ahamiyatga ega. Mashg'ulotlarda ta'lim berish didaktika prinsiplari asosida bolalarning yosh va o'ziga xos xususiyatlarini e'tiborga olib ma'lum izchillikda olib boriladi, mazmuni sekin-asta murakkablashtirib boriladi. Natijada u rivojlantiruvchi va tarbiyalovchi xususiyatga ega bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda Bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan pedagogik jarayon murakkab va rang-barangdir.

Tarbiya masalalari ta'lim-tarbiya ishining tashkiliy shakllari, bolalar faoliyatining har xil turlari: mashg'ulotlarda ta'lim berish orqali, ijodiy va

qoidali o'yinlar, bolalarning mustaqil faoliyatlari, ularning o'z mehnati va kattalar mehnati bilan tanishtirish orqali, o'z-o'ziga xizmat qilish, sayrlar o'tkazish, gigiyenik tadbirlar orqali amalga oshiriladi.

Bolalar shaxsini shakllantiradigan faoliyat turlarini (o'yin, mehnat, ta'lim] tashkil etish va bu faoliyatlar uchun kun tartibidan ma'lum vaqt ajratiladi. Maktabgacha yoshdagi bolalar faoliyatining o`ziga xosligi shundan iboratki bunda bolaning ma’naviy va shu bilan birga axloqiy sifatlari ham shakllanib boradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. Qonunchilik palatasi tomonidan 2020 yil 19 mayda qabul qilingan, Senat tomonidan 2020 yil 7 avgustda ma’qullangan. Toshkent sh., 2020 yil 23 sentabr, O‘RQ-637-son / Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020 y., 03/20/637/1313-son.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonuni. Qonunchilik palatasi tomonidan 2019 yil 22 oktabrda qabul qilingan, Senat tomonidan 2019 yil 14 dekabrda ma’qullangan. Toshkent. sh., 2019 yil 16 dekabr, O‘RQ-595-son / Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 17.12.2019 y., 03/19/595/4160-son.
3. F.Qodirova, Sh. Toshpo’latova, N. Qayumova, M.A’zamova “Maktabgacha pedagogika”T . “Tafakkur” 2019 y
4. Sh. A. Sodiqova “ Maktabgacha pedagogika” darsligi “Fan va texnologiya” 2012 y
5. D.R.Babayeva “Nutq o’stirish nazariyasi va metodikasi” Toshkent 2018-y

## ЎЗБЕКИСТОНДА КАПИТАЛ БОЗОРИДА ИНВЕСТОРЛАР БИЛАН ИШЛАШИШ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ

***Э.К. Тўйчиев,***
*Тошкент давлат иқтисодиёт университети магистранти, Тошкент*

***Аннотация.*** *Мақолада капитал бозорида инвесторлар билан ишлашиш ва соҳага хорижий инвестицияларни жалб қилиш, улардан*

*самарали фойдаланиш билан боғлиқ жараёнлар ва унинг самарадорлигини ошириш бўйича сўз юритилган. Капитал бозорга хорижий инвестицияларни жалб қилишга таъсир кўрсатувчи омиллар ва соҳа олимларининг илмий ишлари ўрганилиб тадқиқот ишлари олиб борилган. Шу билан бирга инвесторлар билан ишлашиш самарадорлигини ошириш бўйича тавсиялар берилган.*

***Калит сўзлар:*** *инвестор, маҳаллий ва хорижий инвесторлар инвестицион фаолият, салоҳият, капитал бозори, инвестицион самарадорлик, малакали мутахассислар.*

**Аннотация:** В статье рассматриваются вопросы работы с инвесторами на рынке капитала и привлечения иностранных инвестиций в отрасль, процессы, связанные с их эффективным использованием и повышением его эффективности. Изучены факторы, влияющие на привлечение иностранных инвестиций на рынок капитала и научные труды ученых отрасли, проведены научно-исследовательские работы. При этом даны рекомендации по повышению эффективности работы с инвесторами.

**Ключевые слова:** инвестор, отечественные и иностранные инвесторы, инвестиционная деятельность, потенциал, рынок капитала, эффективность инвестиций, квалифицированные специалисты.

**Abstract.** The article deals with working with investors in the capital market and attracting foreign investments to the sector, processes related to their effective use and increasing its efficiency. Factors affecting the attraction of foreign investments to the capital market and the scientific works of scientists of the field were studied and research works were carried out. At the same time, recommendations were made to improve the efficiency of working with investors.

**Key words:** investor, domestic and foreign investors, investment activity, potential, capital market, investment efficiency, qualified specialists.

Сўнги йилларда мамлакатимизда амалга оширилаётган инвестиция сиёсатидан кўзланган энг асосий мақсад хорижий инвестициялар иштирокида ташкил этилаётган корхоналарнинг маҳсулот ёки хизматларини экспортга йўналтиришдан иборат. Бунинг учун маҳаллий корхоналаримиз негизида

ташкил этилаётган корхоналар фаолиятини янгича ташкил этиш, улардаги ҳиссабай иштирок этиш, яъни акциялар улушига асосан томонларнинг қарор қабул қилишида иштирок этиш, энг асосийси хорижий инвестициялар иштирокидаги корхоналарнинг маҳсулот ёки хизматларини ташқи бозордаги рақобатбардошлигини оширишга эришиш кабилар муҳим аҳамият касб этади. Хорижий инвесторларни жалб қилишда турли усулларнинг қўлланилиши ўзининг самарали мевасини ҳозирнинг ўзиданоқ бермоқда.

Жадал ва мутаносиб иқтисодий ўсиш, чуқур таркибий ўзгаришларни амалга ошириш ва иқтисодиётни диверсификация қилишда фаол ва аниқ йўналтирилган инвестиция сиёсати юритиш энг муҳим омил ҳисобланади. Ўзбекистон ўзига хос инвестицион иқлим ярата олди ҳамда бунга мамлакатнинг ресурсларга бой эканлиги ва уларни қазиб чиқариш, қайта ишлаш борасида корхоналарни ташкил этиш, мавжудларини модернизациялаш бўйича берилаётган кенг имкониятлар хорижлик инвесторларни кириб келишига замин яратди[1:96]. Шу ўринда инвестиция фаолиятидаги субъектлар инвесторлар бўлиб, маҳаллий ва чет эллик фуқаролар, ҳуқуқий шахслар ёки давлат эканлигини алоҳида таъкидлаб ўтизимиз керак. Инвестор – фойда олиш мақсадида инвестиция фаолияти объектларига ўзининг маблағларини ва (ёки) қарз маблағларини ёхуд жалб қилинган бошқа инвестиция ресурсларини инвестиция қилишни амалга оширувчи инвестиция фаолияти субъекти; маҳаллий инвесторлар – инвестиция фаолиятини амалга оширувчи Ўзбекистон Республикаси фуқаролари, Ўзбекистон Республикаси резиденти мақомига эга бўлган чет эллик фуқаролар ва фуқаролиги бўлмаган шахслар, шу жумладан якка тартибдаги тадбиркорлар, шунингдек Ўзбекистон Республикасининг юридик шахсларидир.

Чет эллик инвесторлар – чет давлатлар, чет давлатларнинг маъмурий ёки ҳудудий органлари, давлатлар ўртасидаги битимларга ёки бошқа шартномаларга мувофиқ тузилган ёки халқаро оммавий ҳуқуқ субъекти бўлган халқаро ташкилотлар, чет давлатларнинг қонунчилик ҳужжатларига мувофиқ ташкил этилган ва фаолият кўрсатадиган юридик шахслар, ҳар қандай бошқа ширкатлар, ташкилотлар ёки уюшмалар, чет давлат фуқаролари ва Ўзбекистон Республикасидан ташқарида доимий яшайдиган фуқаролиги бўлмаган

шахслар[2:1] ҳисобланади. Бугуниги кунда капитал бозорида катта аҳамиятга эга бўлган яна бир муҳим устувор вазифа соҳага кўпрок чет эл инвестицияларини кенг жалб қилиш, юртимизда хорижий инвесторлар учун янада қулай шароитлар яратишга улкан эътибор қаратилиётганлигидир. Айниқса Янги Ўзбекистонда инвесторлар учун, айтиш мумкинки, кўп жиҳатдан бекиёс, ўта қулай инвестицион муҳит, имтиёз ва преференциялар тизими яратилиб бу ишлар янада такомиллаштирилмоқда. Мазкур жараёнларни янада тараққий эттириш ҳақида Президентимиз Ш.Мирзиёев қўйидагича таъкидлаб ўтган эди.

“Инвестиция муҳитини такомиллаштириш тармоқлар ва соҳалар кесимида инвестиция сиёсати самарасини ошириш, хорижий инвестициялар ва кредитлар ҳисобидан 2022-2026 йилларда амалга ошириладиган йирик инвестиция лойиҳаларини аниқлаштириш, иқтисодиётда давлат-хусусий шерикликни кенгайтириш масалалари диққат эътиборимизда бўлади. Шу асосда яна инвестиция фаолиятини амалга оширишнинг эркинлиги, инвесторлар ҳуқуқлари ва қонуний манфаатларини кафолатли ҳимоя қилиш, инвестициялар билан боғлиқ муносабатларни тартибга солиш мақсадида ягона Инвестиция кодексини ишлаб чиқиш зарурати мавжудлигини ҳам алоҳида таъкидламокчиман”[3:135]. Давлат статистика қўмитаси маълумотларига кўра, 2021 йилнинг 1 июнь ҳолатига кўра, республикамизда хорижий капитал иштирокида фаолият кўрсатаётган корхоналарнинг сони 12 654 тани, шундан қўшма корхоналар 5993 та ва хорижий корхоналар 6 661 тани ташкил этмоқда. 2021 йилнинг 1 июнь ҳолатига, хорижий капитал иштирокида фаолият кўрсатаётган корхоналарнинг соҳалар бўйича сони:

- Саноат – 4 064 та
- Савдо – 3 440 та
- Қурилиш – 1 046 та
- Қишлоқ, ўрмон ва балиқчилик хўжалиги – 693 та
- Яшаш ва овқатланиш бўйича хизматлар – 540 та
- Ахборот ва алоқа – 352 та
- Ташиш ва сақлаш – 326 та
- Соғлиқни сақлаш ва ижтимоий хизмат кўрсатиш – 197 та

Шу билан бирга, 2021 йилнинг 1 июнь ҳолатига кўра, республикамизда хорижий капитал иштирокида фаолият кўрсатаётган корхоналарнинг сони 12 654 тани ташкил этмоқда. Бу ўтган йилнинг шу даврига нисбатан 1 648 тага кўп. Ҳудудлар кесимида хорижий капитал иштирокида фаолият кўрсатаётган корхоналарнинг сони:

- Тошкент шаҳри – 7 518 та
- Тошкент вилояти – 1 365 та
- Самарқанд вилояти – 619 та
- Сурхондарё вилояти – 480 та
- Фарғона вилояти – 482 та
- Андижон вилояти – 364 та
- Бухоро вилояти – 317 та
- Наманган вилояти – 271 та
- Навоий вилояти – 241 та
- Қашқадарё вилояти – 229 та
- Жиззах вилояти – 219 та
- Хоразм вилояти – 189 та
- Сирдарё вилояти – 183 та
- Қорақалпоғистон Республикаси – 177 та[4:1].

Инвесторларнинг юртимизда тадбиркорлик фаолиятини олиб бориш кўрсатгичлари йил сайин ортиб бормоқда. Бу бежиз эмас, уларни ҳар томонлама қўллаб-кувватлаш иқтисодий ривожланишимизнинг асосий йўлидир. Инвестор учун мамлакатнинг инвестицион жозибадорлигини баҳолаш, унинг имкониятларини ҳисобга олиш муҳим масала саналади.

Бугунги кунда Ўзбекистонда қулай инвестиция муҳитини мунтазам равишда яхшилаб боришни таъминлаш устувор вазифадир. Бунда давлатнинг асосий вазифаси капитал жалб қилиш учун қулай инвестиция муҳитини яратиш ва унинг жозибадорлигини ошириш билан изоҳланади. Хорижий инвестицияларни миллий иқтисодиётга жалб этишдан манфаатдорлик ҳар қандай давлатнинг ўз инвестиция сиёсатини ишлаб чиқишини талаб этади. Бу сиёсат хорижий инвестицияларни жалб этишнинг ўзига хос йўналишини, шунингдек, уларни жалб этишни рағбатлантириш тизимини аниқлаб беради ва

инвестиция фаолиятининг ҳуқуқий тартибини белгилайди[5:90]. Инвестицияларнинг қайд этилган турлари ва шакллари асосида тадбиркорлик, ишбилармонлик ва бошқа давлат томонидан таъқиқланмаган фаолиятларни барча инвесторлар томонидан амалий равишда йўлга қўйиш, маблағлар сарфлаш ва уларни амалиётга тадбиқ этиш чора тадбирларининг йиғиндиси инвестиция фаолиятини англатади.

Самара ёки даромад келтирадиган мулкий ва интеллектуал бойликлар, яъни инвестициялар қуйидаги шаклларда бўлиши мумкин:

- пул маблағлари, банклардаги мақсадли жамғармалар, пайлар, акциялар ва бошқа қимматбаҳо қоғозлар;
- ҳаракатдаги ва ҳаракатда бўлмаган мулклар (бинолар, иншоотлар, асбоб-ускуналар, ҳамда бошқа моддий бойликлар);
- муалллифлик ҳуқуқи, ноу-хаулардан ташкил топган мулкдорлик ҳуқуқлари ва бошқа интеллектуал бойликлар;
- ер ва бошқа табиий ресурслардан фойдаланиш ҳуқуқлари ҳамда мулкчилик ҳуқуқлари;
- бошқа бойликлар.

Бозор иқтисодиётида инвестиция фаолиятини фуқаролар, ҳуқуқий шахслар (корхоналар, фирмалар, акционер жамиятлари ва бошқа типдаги мулк эгалари) ва давлат юритади. Инвестиция фаолиятини йўлга қўйишда ҳар бир мулк эгаси, биринчи навбатда ўз манфаатини кўзлаб ягона мақсадга, яъни фойда олиш ва самарага эришишни режалаштиради[6:183]. Ҳозирги кунда хорижий инвесторларнинг ўз маблағларини мамлакат иқтисодиёти учун сарфлашга қизиқтириш мақсадида давлат қонунлари асосида қўллаб – қувватланиши мақсадида улар учун имтиёзли молиявий шароитлар яратилган. Жумладан:

➢ хорижий инвесторлар капиталини сақланиши учун кафолатлар;
➢ кўрилган зарарларни қопланиши учун кафолатлар;
➢ солиққа тортиш тизимида уларга берилган имтиёзлар;
➢ фойда ва даромадларни хорижга олиб чиқиб кетишнинг эркинлиги ва имконияти борлиги;
➢ божхона имтиёзларини мавжудлиги;

➢ хорижий инвесторлар мулклари ва уларнинг ўзларини хавф хатарлардан суғуртавий мухофаза қилиш тизими яратилгани[7:9].

Шундай қилиб, хорижий инвестицияларнинг Ўзбекистонда иқтисодий ўсиш суръатларининг юқорилашига ҳисса қўшиши учун қуйидаги вазифаларни ҳал қилиш керак:

1. Иложи борича кўпроқ хорижий инвесторларни жалб қилиш ва қулай инвестиция муҳитини яратиш.
2. Хорижий инвестициялар билан бир қаторда ўз инвестицияларидан самарали фойдаланиш.
3. Корхоналар самарадорлигини ошириш мақсадида хорижий капитал қўйилмаларни рағбатлантириш.
4. Халқаро бозорда маҳаллий товарларнинг рақобатбардошлигини ошириш мақсадида илмий ва инновацион тараққиёт учун зарур инфратузилмани яратиш[8:73].

Капитал бозорини ривожлантириш агентлигининг директори Отабек Назиров: Мамлакатимиз иқтисодиётининг фундаментал кўрсаткичлари нуқтаи назаридан ёндашадиган бўлсак, хорижий инвесторлар томонидан Ўзбекистон капитал бозорига қизиқиш юқори. Сабаби, мамлакатнинг ресурс базаси ва мавжуд салоҳияти иқтисодиётнинг юқори суръатларда ўсишини таъминлаш учун етарли даражада... Бундан ташқари, уларни мамлакат фонд бозорига жалб қилиш учун қонун-қоидаларимиз нисбатан содда, тушунарли ва шаффоф бўлиши лозим**[9:1]** – дея мазкур соҳани янада ривожлантириш бўйича ўз таклифларини билдириб ўтган. Шунгидек ходимлар салоҳияти ва уларнинг маҳорати соҳани жадал тараққий эттиришнинг бош омили. Капитал бозори иштирокчиларининг малакасини ошириш, уларни ўқитиш ва қайта ўқитиш тизимини яратиш, соҳани билимли мутахассислар билан таъминлаш, уларни қайта ўқитиш ва малакасини мунтазам равишда ошириб бориш мақсадида қуйидагиларни амалга ошириш талаб этилади:

капитал бозорини тартибга солиш соҳасида билим ва кўникмаларга ўргатишга қаратилган кадрлар тайёрлашнинг комплекс тизимини яратиш;

нуфузли хорижий таълим муассасалари билан ҳамкорликда ўқув дастурларини ишлаб чиқиш;

кадрлар салоҳиятини ошириш бўйича институционал база яратиш, жумладан Банк-молия академияси ҳамда Иқтисодий тараққиёт ва камбағалликни қисқартириш вазирлиги ҳузуридаги Бизнес ва тадбиркорлик олий мактабида капитал бозори мутахассислиги бўйича алоҳида йўналишларни жорий этиш;

Молия вазирлиги ходимларини тайёрлаш ва қайта тайёрлаш ва капитал бозори ривожланган хорижий мамлакатларда уларнинг малакасини ошириш чораларини кўриш;

Молия вазирлигига юқори малакали, шу жумладан хорижий мамлакатларнинг қимматли қоғозлар бозорини тартибга солувчи органларида иш тажрибасига эга бўлган мутахассисларни жалб этиш[10:1]шулар жумласидандир. Ўзбекистонда капитал бозорида инвесторлар билан ишлашиш самарадорлигини ошириш мақсадида қўйидаги тавсияларни илгари сураман:

- инвесторларнинг фақат шаҳар эмас, овул-қишлоқлар равнақига пул тикиши учун уларга қулай амалий-ташкилий шарт-шароит яратиш;
- Капитал бозорда фаолият олиб бораётган инвесторларнинг ҳуқуқларини мустаҳкам ҳимоя қилиш;
- соҳадаги таълим тизимини илмий адабиётлар билан таъминлаш ва ёш олимларни ҳар томонлама қўллаб-қувватлаш;
- халқаро тажрибаларни ўргатиш ва амалиётга кўпроқ талабаларни жалб қилиш;
- хорижий инвесторларни жалб қилишда илғор ва маҳоратли мутахассислар томонидан доимий маҳорат дарсларини ташкил этиш;
- инвестициялар ва молиявий таҳлил соҳасидаги мутахассислар ўртасида тажриба алмашиш ҳамда соҳа регулятори билан таклифлар алмашинувини таъминлаш;

Мақолани ёзиш даврида соҳадаги етук мутахассисларнинг фикрлари диққатимни тортди. Айникса, бу борада менда икки хил прогноз мавжуд – дейди, Капитал бозорини ривожлантириш агентлигининг директори Отабек Назиров: Биринчиси – барқарор, яъни вазият деярли ҳозиргидек бўлиб қолаверади, ривожланиш эса ҳозирги суръатларда давом этади, айтарли катта ўзгаришлар бўлмайди. Иккинчиси – оптимистик прогноз, агар биз таклиф

қилган стратегиядаги ўзгаришлар қабул қилинса (Президент фармони шаклида) ва ушбу стратегияни амалга ошира олсак, умид қиламанки, мазкур сценарий бўйича биз фонд бозорига қимматли қоғозлар чиқарилиш ҳажмини ЯИМнинг 10 фоизга тенг миқдоригача оширишга муваффақ бўламиз. Ўзбекистонда капитал бозорида инвесторлар билан ишлашиш самарадорлигини оширишда халқаро молия бозорлари билан фаол интеграциялашув, замонавий ахборот-коммуникация технологияларидан кенг фойдаланиш зарурияти ҳам сезилмоқда.

**Фойдаланилган адабиётлар:**

1. Жамолов Ж. Ўзбекистон иқтисодиётига хорижий инвестицияларни жалб қилиш ва улардан самарали фойдаланиш йўллари. Жур. “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” (Economics and Innovative Technologies) ilmiy elektron jurnali. №1/2022,. (89-98). Манба: http://iqtisodiyot.tsue.uz

2. 2019 йил 25 декабрдаги “Инвестициялар ва инвестиция фаолияти тўғрисида”ги 598-сон Ўзбекистон Республикасининг Қонуни. Манба: https://lex.uz/docs/4664142

3. Mirziyoyev Sh. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent, O‘zbekiston. 2021. 464 b

4. Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Статистика агентлиги сайти. Манба: https://stat.uz/uz/

5. Зайниддинов Р. Ўзбекистонда инвестицион муҳит жозибадорлигини ошириш борасида илғор хорижий тажрибалардан фойдаланиш йўллари. “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” электрон журнали. № 5, sentyabr-oktyabr, 2020. 90-101 бетлер.

6. Каримов Н.Ғ., Хожиматов Р.Х Инвестицияни ташкил этиш ва молиялаштириш. –Тошкент.: ТДИУ, 2011. 801 бет.

7. Аманов О., Ёдгоров А. Инновацион лойиҳаларни амалга оширишда хорижий инвестицияларнинг ўрни. Конф. “Инновацион иқтисодиёт: муаммо, таҳлил ва ривожланиш истиқболлари”. Халқаро илмий-амалий анжумани тезислар тўплами (3 – қисм). Қарши. “Интеллект” nashriyoti, 2021- 489 бет. 7-11

8. Хамраева С., Йўлдошев И., Камолов С. Ҳудудларни ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришда хорижий инвестицияларни жалб этиш аҳамияти. Конф.

“Инновацион иқтисодиёт: муаммо, таҳлил ва ривожланиш истиқболлари”. Халқаро илмий-амалий анжумани тезислар тўплами (3 – қисм). Қарши. “Интеллект” nashriyoti, 2021- 489 бет. 70-74 бетлар.

9. Назиров О. Умидли реалист бўлиш керак. Манба: https://www.uzanalytics.com/iqtisodiet/6772/

10. 2021 йил 13 апрелдаги “Капитал бозорини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 6207-сон Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони. Манба: https://lex.uz/ru/docs/5371091

## UMUMTA’LIM MAKTABLARIDA JISMONIY TARBIYA DARSLARINI O’QUVCHILAR ORGANIZMIGA TA’SIRINI ILMIY-PEDAGOGIK ASOSLASH

***Alisherov Muhiddin Madamin o‘g‘li***

*Namangan davlat universiteti magistranti*

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqola umumta’lim maktablarida jismoniy tarbiya darslarini o’quvchilar organizmiga ta’sirini ilmiy-pedagogik asoslashga bag’ishlangan bo’lib, unda Umumta’lim maktablarida tahsil oluvchi o‘quvchilarning jismoniy tarbiyaning ta’siri va zamonaviy muammolari, Maktab yoshidagi bolalarning jinsiy balog‘atga yetish davrida o‘ziga xos jismoniy tayyorgarlik, 11-15 yoshli o‘quvchilari organizmiga jismoniy yuklamalarning ta’siri hamda 11-15 yoshli maktab o‘quvchilaring jismoniy rivojlanishi va tayyorgarligining yoshga xos dinamikasi bayon etilgan.*

***Kalit so‘zlar:*** *jismoniy rivojlanish, dinamika, kuch, chaqqonlik, tezkorlik, chidamlilik, egiluvchanlik, sport, pulsometriya, atropometrik o‘lchov, morfo-funksional kuzatuv, uslub, pedagogik test, pedagogik tajriba, matematik uslub, mushak, gimnastika…*

**KIRISH.** Jahonda bir qator ilmiy-tadqiqot ishlarini tahlil qilish natijasida umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida jismoniy tarbiya va sportning rivojlanishi bo‘yicha maktab o‘quvchilarning jismoniy faolligi hamda tayyorgarligi, rivojlanishning yoshga xos xususiyatlari, o‘g‘il bolalarning mushak kuchini rivojlantirish, boshlang‘ich hamda yuqori sinf o‘quvchilarining jismoniy tarbiya

darslarida mashqlar yuklamasini me'yorlash, jismoniy sifatlar (kuch, chaqqonlik, tezkorlik, chidamlilik hamda egiluvchanlik)ni rivojlantirishning vosita va usullarini ishlab chiqish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida tahsil oluvchi 5-9-sinf o'quvchilarining yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda, jismoniy sifatlarini rivojlantirishda maxsus mashqlardan foydalanish metodikasini ishlab chiqib, tadqiqotlarda ilmiy asoslab berish zarurati yuzaga kelgan.

Respublikamizda so'ngi yillarda o'quvchi-yoshlarni jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanishga jalb etish masalasiga davlat siyosati darajasida qaralib, undan millat genofondini sog'lomlashtirish, jismonan va intellektual salohiyatli avlodni tarbiyalashning kafolatli vositasi va milliy istiqlol g'oyalarini targ'ib qilishda strategik ahamiyatga ega bo'lgan muhim soha sifatida foydalanilmoqda. Bugungi kunda "Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etish" ustuvor yo'nalishlardan biriga aylandi. Ayniqsa, yuqori sinflardan boshlab o'quvchilarni har tomonlama sog'lom, mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega shaxs sifatida tarbiyalash bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri sifatida qayd etib kelinadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida", 2018 yil 5 sentyabrdagi PF-5538-son "Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmonlari, 2018 yil 14 avgustdagi PQ-3907-son "Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida", 2019 yil 16 yanvardagi PQ-4119-son "Ta'lim sifatini nazorat qilish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari hamda mazkur sohaga tegishli me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni hal qilishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi [2; 3; 4; 5].

**ASOSIY QISM.** Muammoni o'rganilganlik darajasi. Xorij olimlarining ilmiy-uslubiy adabiyotlarini o'rganish natijasida ma'lum bo'ldiki, jismoniy tarbiya bo'yicha qator ilmiy izlanishlar olib borilgan. Xususan, V.K.Balsevich, L.I.Lubisheva, S.V.Ribalkina, Yu.F.Kuramshin, V.A.Bogdanova, G.V. Julina, N.I.Chukturova, A.N.Kondratev, V.A.Baranov va boshqalarning ishlari shular jumlasidandir.

V.P.Filin, V.G.Nikitushkin, L.V.Volkov, V.E.Koteshov, T.Bompa va boshqa mutaxassislar yosh sportchilar zaxiralarini tayyorlash tizimi, bolalar va o'smirlar uchun sport mashg'ulotlari, bolalarning yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda mashg'ulot yuklamalarini rejalashtirish uslubiyatini ishlab chiqish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borishgan[6].

Mamlakatimizning qator olimlaridan R.S.Salomov maktab o'quvchilarining jismoniy rivojlanishi va tayyorgarligining yoshga xos xususiyatlarini, T.S.Usmonxo'jaev bolalarning jismoniy faolligi bilan jismoniy rivojlanishi orasidagi bog'liqlikning ilmiy-pedagogik asoslarini tadqiq qilganlar, X.X.Soliev tana tuzilishi tipi va rivojlanishi varianti har xil bo'lan 7-12 yoshli o'g'il bolalar mushak kuchini rivojlantirish, A.T.Sodiqov I-IV sinf o'quvchilarining jismoniy tarbiya darslarida mashqlar yuklamasini me'yorlash ustida ilmiy izlanishlar olib borganlar, B.G.Boyboboev jismoniy tarbiya darslarida 11-14 yoshli o'g'il bolalar uchun yuklamani me'yorlash masalalarini, O.V.Goncharova bolalarning kuch, chaqqonlik, chidamlilik, egiluvchanlik sifatlarini rivojlantirishning vosita va usullarini yoritib berganlar.

O'tkazilgan ilmiy-uslubiy adabiyotlar tahlillar shuni ko'rsatdiki, 11-15 yoshli o'quvchilarning jismoniy sifatlarini (kuch, tezkorlik, chidamlilik, eguluvchanlik) rivojlantirish metodikasini takomillashtirish juda muhim muammo sifatida keng muhokama qilinib kelinmoqda. Umumta'lim maktablarining jismoniy tarbiya darslarida kichik, o'rta va yuqori maktab yoshidagi o'quvchilarining jismoniy sifatlarini rivojlantirish metodologiyasini ishlab chiqish hamda ularning samaradorligini pedagogik tajribada tahlil qilish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borish zarurati aniqlandi.

Oldinga qo'yilgan vazifalarni hal etish uchun ishda quyidagi tadqiqot uslublaridan foydalanildi:

- ✓ Maxsus ilmiy-uslubiy adabiyotlar tahlili.
- ✓ Pulsometriya.
- ✓ Antropometrik oʻlchovlar. (Morfo-funksional kuzatuv uslublari).
- ✓ Pedagogik testlash.
- ✓ Pedagogik tajriba.
- ✓ Pedagogik kuzatuv.
- ✓ Matematik uslublari.

**Maxsus ilmiy-uslubiy adabiyotlar tahlili**

Maxsus ilmiy-uslubiy adabiyotlar tahlili natijasida mavzu yoʻnalishiga aloqador yoki uning doirasida tayyorlanib nashrdan chiqarilgan ilmiy maqolalar, dissertatsiyalar va dissertatsiya avtoreferatlari, monografiyalar hamda 11-15 yoshli maktab oʻquvchilarining jismoniy sifatlarini rivojlantirish yuzasidan olib borilgan ilmiy izlanishlar natijalari tahlil qilinib, yetuk soha mutahassislarning fikr mulohazalari umumlashtirildi. Ushbu usulimizda mamlakatdagi va horijdagi mutaxassislarning ishlari, 30 ta mamlakatimiz, 120 ta chet yel olimlarining ilmiy-uslubiy adabiyotlarini tahlil qilish orqali tadqiqot ishimizning maqsad, vazifalarini belgilab olindi.

Bu ishlar maktab oʻquvchilarining jismoniy qobiliyatlarini rivojlan–tirish darajalarini aks ettiradi. Shuningdek, shugʻullanuvchilarning jismoniy tayyorgarligini individuallashtirish masalalari oʻrganildi.

**Pulsometriya**

“Puls” soʻzi lotinchadan tarjiama qilinganda “turtki” ma’nosini berib, tomir urishi, yurak qisqarishi natijasida qon tomirlarining ritmik tebranishi, kengayib-torayishi demakdir.

Jismoniy tarbiya darslarida pulsometriya olib borishdan, ya’ni tomir urishini oʻlchashdan asosiy maqsad darsdagi yuklamaning oʻquvchilar yoshiga, tayyorgarligiga, mashgʻulot oʻtkaziladigan joy sharoitiga mivofiqligini aniqlashdan iborat.

Tomir urishini quyidagicha oʻlchash tavsiya etiladi.

1. Agar ish doimiy xususiyatga ega boʻlsa, saflanish, yugurish, umumrivojlantiruvchi mashqlar va h.k. orasida har 3 daqiqada, 3 daqiqadan kam oraliqda tomir urishini oʻlchash maqsadga muvofiq emas, chunki oʻquvchini tomir

urishini oʻlchash uchun tez-tez jalb etish darsdagi haqiqiy yuklamani aniqlashga yordam bermaydi.

2. Darsning har bir qismi tugaganidan soʻng.

3. Katta kuchlanishni talab etadigan yugurish, gimnastika snaryadlarida bajariladigan mashqlar, yugurib kelib sakrash, estafeta bosqichini tugatish va h.k., murakkab mashqlarni bajargandan soʻng [7].

Yurakning qisqarish soni "zarba/daqiqa" oʻlchov birligida bilakka taqiladigan MiBand -2 asbobida aniqlandi.

Puls (R) – tinch holatda testni bajarishdan avval, bajarib boʻlgan zahoti va 3 daqiqa oʻtgandan soʻng R ning tiklanish darajasi oʻrganildi.

**Antropometrik oʻlchovlar**

Oʻquvchilarning jismoniy rivojlanish darajasi antropometrik koʻrsatkichlar orqali aniqlandi. V.V. Bunak. Bu koʻrsatkichlar quyidagilar tanlab olindi:

1. Tana vazni.
2. Tana ogʻirligi.
3. Koʻkrak qafasining kengligi (tinch holatda).

Antropometrik maʼlumotlar boʻyicha sinaluvchilarning jismoniy rivojlanishi haqida mulohazalar yuritdik.

**Pedagogik testlash**

Yuqori sinf oʻquvchilarning jismoniy rivojlanishi koʻrsatkichlarining, MJT xolatini aniqlash maqsadida oʻtkazildi. Ushbu usul orqali 11-15 yoshli oʻquvchilarning mashgʻulot jarayonida jismoniy tayyorgarligi darajasi dasturda berilgan maxsus testlar orqali qoʻllanilayotgan vosita va usullarni samaradorligini baholab oldik.

Bajarish texnikasi murakkab boʻlmagan mashqlar tanlanib olindi, ular sinalayotganlarning muayyan jismoniy sifatlarini toʻliq koʻrsatadi.

Tekshirish uchun quyidagi testlar tanlab olindi:

1. 60 metrga yugurish (soniya);
2. Turgan joydan uzunlikka sakrash (sm);
3. Baland turnikda tortilish (marta);
4. 1000 metr masofaga yugurish (daqiqa, soniya);
5. 1500 metr masofaga yugurish (daqiqa, soniya);

6. 2000 metr masofaga yugurish (daqiqa, soniya);

7. Yugurib kelib uzunlikka sakrash (sm);

8. Kichik to'pni uzoqlikka uloqtirish (metr).

## Pedagogik tajriba

2021-2023-yillar davomida umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilarida pedagogik kuzatuvlar olib borildi. Tajriba guruhiga 5-sinflardan ($5^a$,$5^b$) 37 nafar, 6-sinflardan ($6^a$,$6^b$) 33 nafar, 7-sinflardan ($7^a$,$7^b$) 31 nafar, 8-sinflardan ($8^a$,$8^b$) 34 nafar hamda 9-sinflardan ($9^a$,$9^b$) 30 nafar o'quvchilar tanlab olindi.

Nazorat guruhi mashg'ulotlari amaldagi o'quv dasturi materiallariga asosan an'anaviy mazmunda o'tkazildi.

Pedagogik tajriba 2018 yilning sentyabr oyidan 2019 yilning may oyigacha (9 oy) o'tkazilgan bo'lib, bunda tajriba ob'ekti sifatida 34 nafar tajriba hamda 37 nafar nazorat o'quvchilardan iborat guruhlar ishtirok etdilar.

Yuqori sinf o'quvchilarining jismoniy sifatlarini rivojlantirish tayyorgarligini takomilashtirishda vosita sifatida qo'llanilish shiddat, hajmlari me'yorlangan mashqlar majmuasini qo'llash samaradorligini pedagogik tajribada asoslandi.

## Pedagogik kuzatuv

Tadqiqot ishimizda pedagogik kuzatuv boshlang'ich tayyorgarlik bosqichida shug'ullanuvchi 11-15 yoshli maktab o'quvchilarining jismoniy sifatlarini rivojlanish jarayoni kuzatilib tahlil qilindi. Natijasida 11-15 yoshli maktab o'quvchilarining jismoniy tayyorgaligida qo'llanilayotgan vosita va usullar o'rganilib chiqildi. Pedagogik kuzatuv usuli yordamida maktab o'quvchilarining jismoniy sifatlarini rivojlantirishda qo'llanilayotgan vosita va usullarni yanada takomillashtirish, shug'ullanuvchilarning yoshidan kelib chiqqan holda mashg'ulot jarayonlarini tashkillashtirishga ehtiyoj borligi aniqlandi.

O'quvchilarni sub'ektiv tekshirish orqali qimmatli ma'lumotlar olindi va ular umumiy o'rta ta'lim maktablarida jismoniy tarbiya o'quv mashg'ulotlari strategiyasiga ekstrapolyatsiya qilindi.

## Tadqiqot natijalarining matematik-statistik tahlili

O'tkazilgan tadqiqot natijalari statistik uslublar yordamida qiyosiy tahlil qilindi. Jumladan, barcha natijalarni statistik tahlil qilishda har bir juft uchun

o‘rtacha arifmetik, standart og‘ish, variatsiya koeffitsienti, o‘rtacha arifmetik xato, assimetriya va ekssess hisoblab chiqildi.

Ikkita o‘rtacha arifmetik hisob orasidagi tafovutlar gipotezasini tekshirish uchun parametrik va noparametrik me’zonlar qo‘llanildi. O‘zgaruvchan kattaliklar orasidagi zich bog‘lanishni o‘rganishda korrelyatsili va regressiyali usullardan foydalanildi. Dispersion tahlil turli omillar ta’sirini aniqlashga imkon berdi.

**11-15 yoshli maktab o‘quvchilarining tezkor-kuch sifatini rivojlantiruvchi mashqlar majmuasi**

**(5-sinf n=37, 6-sinf n=33, 7-sinf n=31, 8-sinf n=37, 9-sinf n=30)**

| № | Nazorat mashqlari | 11-12 yosh | 13-14 yosh | 15 yosh | 11-12 yosh | 13-14 yosh | 15 yosh | 11-12 yosh | 13-14 yosh | 15 yosh |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | **Takrorlashlar soni (marta)** | | | **Davom etish vaqti (soniya)** | | | **Yurak qisqarishlar soni (zar/daq)** | | |
| 1. | Gimnastika devorida to‘g‘ri oyoqlarni gorizontal holatda ko‘tarish (burchak osilish) | 2-3 | 3-4 | 4-5 | 2-3 | 3-4 | 4-5 | 126±7,35 | 131±8,12 | 125±7,22 |
| 2. | Turnikning yuqori qismini ushlab, tanani tekis tutib osilish (oyoqlar polga tegmasligi kerak) | 2-3 | 3-4 | 4-5 | 20-25 | 25-30 | 30-35 | 122±6,36 | 127±7,25 | 131±6,53 |
| 3. | Turnikni yuqoridan ushlab oldinga va | 3-4 | 4-5 | 5-6 | 20-25 | 25-30 | 30-35 | 136±6,28 | 140±7,23 | 138±8,29 |

| | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | orqaga tebranish | | | | | | | | | |
| 4. | Turnikni yuqoridan ushlab turgan holatdan oyoqlarni bukib siltanish | 2-3 | 3-4 | 4-5 | 20-25 | 25-30 | 30-35 | 124±7,21 | 127±8,14 | 126±6,40 |
| 5. | Turnikka oddiy osilib turishdan iyagi turnikdan yuqori boʻlgunga qadar qoʻllarni bukish (soniya ushlab turish, oyoqlar juft va toʻgʻri boʻlishi kerak) | 3-4 | 4-5 | 5-6 | 3-4 | 5-6 | 6-7 | 130±5,45 | 133±6,32 | 135±6,50 |
| 6. | Qoʻshpoyada qoʻllarga tayanib osilish | 2-3 | 3-4 | 4-5 | 8-10 | 12-15 | 17-20 | 128±7,36 | 134±8,15 | 131±7,19 |
| 7. | Qoʻshpoyada tirsaklarga tayanib tebranish | 3-4 | 4-5 | 5-6 | 10-12 | 13-15 | 17-20 | 130±5,52 | 133±7,41 | 132±6,49 |
| 8. | Halqaga sakrab chiqib, tayanib oyoqlarni oldinga va orqaga siltash | 2-3 | 3-4 | 4-5 | 15-20 | 20-25 | 25-30 | 137±7,24 | 139±8,29 | 140±6,29 |

**11-15 yoshli maktab o'quvchilarining tezkor-kuch sifatini rivojlantiruvchi mashqlar majmuasi**

**(5-sinf n=37, 6-sinf n=33, 7-sinf n=31, 8-sinf n=37, 9-sinf n=30)**

| № | Nazorat mashqlari | 11-12 yosh | 13-14 yosh | 15 yosh | 11-12 yosh | 13-14 yosh | 15 yosh | 11-12 yosh | 13-14 yosh | 15 yosh |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | Takrorlashlar soni (marta) | | | Davom etish vaqti (soniya) | | | Yurak qisqarishlar soni (zar/daq) | | |
| 1. | To'ldirma to'plarni uzatish (yonma-yon qatorda to'pni yon tomondan olib, sherigiga uzatish) | 3-4 | 4-5 | 5-6 | 20-25 | 30-35 | 40-45 | 129±6,02 | 131±6,29 | 128±7,36 |
| 2. | Birinchi shug'ullanuvchi tayanib yotadi, ikkinchi shug'ullanuvchi birinchisining oyog'idan ushlaydi. Birinchi shug'ullanuvchi qo'llarni bukadi va to'g'rilaydi | 2-3 | 3-4 | 4-5 | 15 | 20 | 25 | 137±7,33 | 139±9,20 | 135±6,09 |
| 3. | Birinchi shug'ullanuvchi tayanib yotadi, ikkinchi shug'ullanuvchi birinchisining oyog'idan ushlaydi. Birinchi shug'ullanuvchi qo'llarda harakatlanadi | 2-3 | 3-4 | 4-5 | 15 | 20 | 25 | 143±5,16 | 146±8,19 | 147±7,44 |
| 4. | Har ikki | 3-4 | 4-5 | 5-6 | 20- | 30- | 40- | 121±5,15 | 127±7,48 | 126±6,22 |

| | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | shug‘ullanuvchi oyoqlarni ochib, panjalar bilan tiralib va bir-biriga barmoqlar bilan bog‘lanib o‘tirib, oyoq va qo‘llarni bukmasdan kuch bilan bir-birini tortishish | | | | 25 | 35 | 45 | | | |
| 5. | Orqama-orqa o‘tirib qo‘llar o‘ralgan. Ikkinchi shug‘ullanuvchi oldinga egilib, birinchisini ko‘taradi. Birinchi shug‘ullanuvchi beliga yotib, keriladi, oyoqlarini oldinga ko‘taradi (navbat bilan) | 3-4 | 4-5 | 5-6 | 20-25 | 30-35 | 40-45 | 123±6,04 | 125±7,40 | 122±8,16 |
| 6. | Ikki kishi erkin turishda bir-biriga barmoqlari bilan bog‘lanadilar, kuch bilan bir-birlarini tortadilar | 3-4 | 4-5 | 5-6 | 25-30 | 35-40 | 45-50 | 128±7,36 | 134±8,15 | 131±7,19 |
| 7. | Oyoqlarni bukib va qo‘llar bilan o‘ralib qarama-qarshi o‘tirish. Oyoqlarni to‘g‘rilash va | 2-3 | 3-4 | 4-5 | 20-25 | 30-35 | 40-45 | 131±5,44 | 134±6,11 | 132±8,32 |

| | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | bukish | | | | | | | | | |

**11-15 yoshli maktab o'quvchilarining chidamlilik sifatini rivojlantiruvchi mashqlar majmuasi**

**(5-sinf n=37, 6-sinf n=33, 7-sinf n=31, 8-sinf n=37, 9-sinf n=30)**

| № | Nazorat mashqlari | 11-12 yosh | 13-14 yosh | 15 yosh | 11-12 yosh | 13-14 yosh | 15 yosh | 11-12 yosh | 13-14 yosh | 15 yosh |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | Takrorlashlar coni (marta) | | | Davom etish vaqti (soniya) | | | Yurak qisqarishlar soni (zar/daq) | | |
| 1. | 1-1,5 km ga yugurish. har 10-50 m da tezlik o'zgartirib turiladi | 1 | 1 | 1-2 | 5 daqiqa | 4-5 daqiqa | 4-5 daqiqa | 142±7,25 | 143±8,42 | 139±7,46 |
| 2. | Yo'nalishni o'zgartirib yugurish (zalda yoki stadionda) | 1 | 1 | 1-2 | 3 daqiqa | 3-4 daqiqa | 4-5 daqiqa | 138±9,16 | 141±8,35 | 140±7,53 |
| 3. | Har xil sakrash turlarini almashtirib yugurish: yonga, orqaga, tepaga; sur'atni o'zgartirib yugurish | 2-3 | 3-4 | 4-5 | 3-4 daqiqa | 4-5 daqiqa | 5-6 daqiqa | 142±7,51 | 140±9,38 | 138±8,29 |
| 4. | Arqon bilan sakrash, sur'atni o'zgartirib sakrash | 3-4 | 4-5 | 6-7 | 30-35 | 35-40 | 45-50 | 140±10,21 | 139±8,14 | 142±8,42 |
| 5. | O'nqir-cho'nqir | 1 | 1-2 | 2 | 4 daqiq | 4,5 daqiq | 5 daqi | 138±7,52 | 143±9,40 | 141±8,21 |

| | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | yerlarda kross; yuqoriga ko'tarilayotganda tezlashiladi, pastga tushayotganda sur'atni pasaytirib, orada sakrab turiladi | | | | a | a | qa | | | |

**11-15 yoshli maktab o'quvchilarining kuch sifatini rivojlantiruvchi mashqlar majmuasi**

**(5-sinf n=37, 6-sinf n=33, 7-sinf n=31, 8-sinf n=37, 9-sinf n=30)**

| № | **Nazorat mashqlari** | **Takrorlashlar soni (marta)** | **Davom etish vaqti (soniya)** | **Yurak qisqarishlar soni (zar/daq)** |
|---|---|---|---|---|
| | | **11-12 yosh** | | |
| 1 | Imkoniyat darajasidan yengilroq bo'lgan og'irlikni toliqquncha ko'tarish (1 kg to'ldirma to'pni qo'llarni bukmasdan yuqoriga ko'tarish) | 2-3 | toliqquncha bajariladi | 138±7,48 |
| 2 | Polga tayanib yotgan shug'ullanuvchining oyog'idan ko'tarib, qo'llarni bukib-yozish | 3-4 | toliqquncha bajariladi | 143±6,33 |
| 3 | Tayanib yotish. Qo'llarni bukish va to'g'ridash (sonlar bilan skameykaga tayaniladi, skameykaga boldir bilan tayaniladi, skameykaga oyoq uchi bilan tayaniladi) | 2-3 | toliqquncha bajariladi | 144±8,50 |
| 4 | Oyoqlarni yelka kengligida turgan holatda yelkada to'ldirma to'p bilan o'tirib turish mashqi | 2-3 | toliqquncha bajariladi | 146±9,11 |
| | | **13-14 yosh** | | |
| 1 | Imkoniyat darajasidan yengilroq bo'lgan og'irlikni toliqquncha | 3-4 | toliqquncha bajariladi | 141±8,53 |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | ko‘tarish (1 kg to‘ldirma to‘pni qo‘llarni bukmasdan yuqoriga ko‘tarish) | | | |
| 2 | Polga tayanib yotgan shug‘ullanuvchining oyog‘idan ko‘tarib, qo‘llarni bukib-yozish | 4-5 | toliqquncha bajariladi | 145±9,20 |
| 3 | Tayanib yotish. Qo‘llarni bukish va to‘g‘ridash (sonlar bilan skameykaga tayaniladi, skameykaga boldir bilan tayaniladi, skameykaga oyoq uchi bilan tayaniladi) | 3-4 | toliqquncha bajariladi | 148±9,39 |
| 4 | Oyoqlarni yelka kengligida turgan holatda yelkada tuldirma to‘p bilan o‘tirib turish mashqi | 3-4 | toliqquncha bajariladi | 145±7,09 |
| **15 yosh** | | | | |
| 1 | Imkoniyat darajasidan yengilroq bo‘lgan og‘irlikni toliqquncha ko‘tarish (1 kg to‘ldirma to‘pni qo‘llarni bukmasdan yuqoriga ko‘tarish) | 4-5 | toliqquncha bajariladi | 139±6,49 |
| 2 | Polga tayanib yotgan shug‘ullanuvchining oyog‘idan ko‘tarib, qo‘llarni bukib-yozish | 4-5 | toliqquncha bajariladi | 146±6,44 |
| 3 | Tayanib yotish. Qo‘llarni bukish va to‘g‘rilash (sonlar bilan skameykaga tayaniladi, skameykaga boldir bilan tayaniladi, skameykaga oyoq uchi bilan tayaniladi) | 3-4 | toliqquncha bajariladi | 145±8,53 |
| 4 | Oyoqlarni yelka kengligida turgan holatda yelkada tuldirma to‘p bilan o‘tirib turish mashqi | 3-4 | toliqquncha bajariladi | 149±7,54 |

**11-12 yoshli maktab o‘quvchilarining jismoniy tayyorgarligi ko‘rsatkichlari (pedagogik tajriba)**

| T/r | Nazorat mashqlari va o‘lchov birligi | TG n=37 | | NG n=33 | | Farqi | % | t | p |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | X±σ | V% | X±σ | V% | | | | |
| 1. | 60 m.ga yugurish (soniya) | 11,3±1,3<br>10,1±0,84 | 11,2<br>8,3 | 11,2±1,5<br>10,9±1,2 | 13,4<br>11,0 | 0,1<br>0,8 | 9,1<br>7,9 | 1,15<br>2,54 | >0,05<br><0,05 |

| | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | Farqi % | 14,8 | | 7,3 | | | | | |
| 2. | 1000 m.ga yugurish (daqiqa, soniya) | 6;20±0,56<br>5;15±0,59 | 9,0<br>11,5 | 6;24±0,51<br>5;46±0,32 | 8,2<br>5,7 | 0;04<br>0;31 | 0,6<br>6,0 | 1,35<br>2,21 | >0,05<br><0,05 |
| | Farqi % | 20,3 | | 14,2 | | | | | |
| 3. | Baland turnikda tortilish (marta) | 2,8±0,44<br>4,1±0,21 | 15,7<br>5,1 | 2,9±0,40<br>3,3±1,02 | 13,8<br>30,9 | 0,1<br>0,4 | 3,6<br>12,1 | 1,24<br>2,68 | >0,05<br><0,05 |
| | Farqi % | 46,4 | | 13,7 | | | | | |
| 4. | Yugurib kelib uzunlikka sakrash (sm) | 235,4±8,51<br>254,6±4,23 | 3,6<br>1,7 | 237,1±7,12<br>249,7±6,41 | 3,0<br>2,6 | 1,7<br>4,9 | 0,7<br>8,1 | 1,67<br>2,31 | >0,05<br><0,05 |
| | Farqi % | 21,3 | | 8,9 | | | | | |
| 5. | Turgan joydan uzunlikka sakrash (sm) | 128,6±6,24<br>143,2±4,12 | 4,8<br>2,9 | 130,5±5,56<br>139,6±6,41 | 4,3<br>4,6 | 1,9<br>3,6 | 1,5<br>7,5 | 1,53<br>2,29 | >0,05<br><0,05 |
| | Farqi % | 18,3 | | 9,3 | | | | | |
| 6. | Kichik to'pni uzoqlikka uloqtirish (metr) | 19,4±1,2<br>27,8±1,4 | 6,2<br>5,0 | 20,1±1,3<br>23,6±1,9 | 6,5<br>8,1 | 0,7<br>4,2 | 3,6<br>17,8 | 1,21<br>2,32 | >0,05<br><0,05 |
| | Farqi % | 43,2 | | 17,4 | | | | | |

**Izoh:** *TG – tajriba guruhi, NG – nazorat guruhi.*

**13 yoshli maktab o'quvchilarining jismoniy tayyorgarligi ko'rsatkichlari (pedagogik tajriba)**

| ***T/r*** | ***Nazorat mashqlari va o'lchov birligi*** | ***TG n=31*** | | ***NG n=34*** | | ***Farqi*** | ***%*** | ***t*** | ***P*** |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | ***X±σ*** | ***V%*** | ***X±σ*** | ***V%*** | | | | |
| 1. | 60 m.ga yugurish (soniya) | 10,6±1,8<br>9,1±1,2 | 16,9<br>13,2 | 10,5±1,6<br>10,0±1,1 | 15,2<br>11 | 0,1<br>0,9 | 0,9<br>9,9 | 1,35<br>2,46 | >0,05<br><0,05 |
| | Farqi % | 16,5 | | 5,0 | | | | | |
| 2. | 1000 m.ga yugurish (daqiqa, soniya) | 4;51±1,3<br>4;02±0,89 | 11,4<br>22,1 | 4;55±1,1<br>4,29±0,84 | 24,2<br>19,6 | 0;04<br>0;27 | 0,9<br>6,7 | 1,54<br>2,78 | >0,05<br><0,05 |
| | Farqi % | 12,2 | | 6,1 | | | | | |

| | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 3. | Baland turnikda tortilish (marta) | 4,0±0,76<br>5,9±0,52 | 19,5<br>8,8 | 4,2±0,55<br>5,0±0,42 | 13,1<br>8,4 | 0,2<br>0,9 | 5,0<br>18,0 | 1,26<br>2,95 | ≥0,05<br><0,05 |
| | Farqi % | 47,5 | | 19,0 | | | | | |
| 4. | Yugurib kelib uzunlikka sakrash (sm) | 275,3±8,75<br>355,2±6,46 | 3,2<br>1,8 | 278,1±6,32<br>324,3±5,13 | 2,3<br>1,6 | 2,8<br>30,9 | 1,0<br>9,5 | 1,09<br>2,62 | ≥0,05<br><0,05 |
| | Farqi % | 29,0 | | 11,6 | | | | | |
| 5. | Turgan joydan uzunlikka sakrash (sm) | 150,9±6,80<br>186,8±5,62 | 4,5<br>3,0 | 153,2±5,12<br>168,4±4,15 | 3,3<br>2,5 | 2,3<br>18,4 | 2,7<br>18,4 | 1,35<br>2,74 | ≥0,05<br><0,05 |
| | Farqi % | 23,8 | | 9,9 | | | | | |
| 6. | Kichik to‘pni uzoqlikka uloqtirish (metr) | 28,5±2,2<br>39,7±1,6 | 7,7<br>4,0 | 27,9±2,1<br>33,4±1,3 | 7,5<br>3,9 | 0,6<br>6,3 | 2,1<br>18,9 | 1,46<br>2,59 | ≥0,05<br><0,05 |
| | Farqi % | 39,3 | | 19,7 | | | | | |

**Izoh:** *TG – tajriba guruhi, NG – nazorat guruhi.*

**14 yoshli maktab o‘quvchilarining jismoniy tayyorgarligi ko‘rsatkichlari (pedagogik tajriba)**

| *T/r* | *Nazorat mashqlari va o‘lchov birligi* | *TG n=34* | | *NG n=37* | | *Farqi* | *%* | *t* | *P* |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | *X±σ* | *V%* | *X±σ* | *V%* | | | | |
| 1. | 60 m.ga yugurish (soniya) | 10,0±1,6<br>9,3±0,95 | 16,0<br>10,2 | 10,1±1,4<br>9,8±1,2 | 13,7<br>12,2 | 0,1<br>0,5 | 1,0<br>5,4 | 1,46<br>2,64 | ≥0,05<br><0,05 |
| | Farqi % | 7,5 | | 3,1 | | | | | |
| 2. | 1500 m.ga yugurish (daqiqa, soniya) | 8;16±1,6<br>7;09±0,74 | 19,6<br>10,4 | 8;20±1,4<br>7;41±0,79 | 17,1<br>10,7 | 0,04<br>0,32 | 0,5<br>4,5 | 1,54<br>2,75 | ≥0,05<br><0,05 |
| | Farqi % | 15,1 | | 10,7 | | | | | |
| 3. | Baland turnikda tortilish (marta) | 5,2±0,83<br>8,3±0,48 | 15,9<br>5,7 | 4,9±0,74<br>5,6±0,39 | 15,1<br>6,9 | 0,3<br>2,7 | 6,1<br>48,2 | 1,77<br>2,63 | ≥0,05<br><0,05 |
| | Farqi % | 59,6 | | 14,3 | | | | | |
| 4. | Yugurib kelib | 324,5±7, | 2,3 | 322,2±5 | 1,8 | 2,3 | 9,3 | 1,46 | ≥0,05 |

| | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | uzunlikka sakrash (sm) | 46<br>346,3±6,<br>23 | 1,8 | ,78<br>334,6±4<br>,47 | 1,3 | 11,7 | 6,6 | 2,26 | <0,05 |
| | Farqi % | 15,3 | | 7,9 | | | | | |
| 5. | Turgan joydan uzunlikka sakrash (sm) | 167,3±6,<br>74<br>183,2±5,<br>21 | 4,0<br>2,8 | 170,9±5<br>,54<br>179,1±4<br>,89 | 3,2<br>2,7 | 2,1<br>7,8 | 2,7<br>6,1 | 1,26<br>2,34 | >0,05<br><0,05 |
| | Farqi % | 15,5 | | 5,9 | | | | | |
| 6. | Kichik to'pni uzoqlikka uloqtirish (metr) | 32,9±2,1<br>41,5±1,8 | 6,38<br>4,34 | 33,5±2,<br>4<br>36,3±1,<br>8 | 7,16<br>4,95 | 0,6<br>5,2 | 1,8<br>2<br>14,<br>32 | 1,49<br>2,67 | >0,05<br><0,05 |
| | Farqi % | 26,1 | | 8,3 | | | | | |

**Izoh:** *TG – tajriba guruxi, NG – nazorat guruxi.*

**15 yoshli maktab o'quvchilarining jismoniy tayyorgarligi ko'rsatkichlari (pedagogik tajriba)**

| ***T /r*** | ***Nazorat mashqlari va o'lchov birligi*** | ***TG n=30*** | | ***NG n=33*** | | ***Farqi*** | ***%*** | ***t*** | ***P*** |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | ***X±σ*** | ***V%*** | ***X±σ*** | ***V%*** | | | | |
| 1. | 60 m.ga yugurish (soniya) | 9,8±1,5<br>8,5±1,1 | 15,3<br>12,9 | 9,9±1,1<br>9,1±1,2 | 11,1<br>13,2 | 0,1<br>0,6 | 1,0<br>7,1 | 1,21<br>2,33 | >0,05<br><0,05 |
| | Farqi % | 15,3 | | 8,8 | | | | | |
| 2. | 2000 m.ga yugurish (daqiqa, soniya) | 11;09±1<br>,2<br>9;15±0,<br>87 | 10,8<br>9,5 | 11;15±1,<br>1<br>10;22±0,<br>67 | 9,7<br>6,5 | 0;06<br>1;07 | 0,49<br>11,7 | 1,25<br>2,44 | >0,05<br><0,05 |
| | Farqi % | 21,2 | | 9,1 | | | | | |
| 3. | Baland turnikda tortilish (marta) | 6,4±0,9<br>9<br>8,2±0,4<br>2 | 18,3<br>5,31 | 6,3±0,88<br>7,2±0,36 | 15,7<br>5,37 | 0,1<br>1,0 | 1,6<br>13,9 | 1,36<br>2,71 | >0,05<br><0,05 |
| | Farqi % | 28,1 | | 14,3 | | | | | |
| 4. | Yugurib kelib uzunlikka sakrash (sm) | 340,9±8<br>,21<br>398,1±4<br>,32 | 3,66<br>1,64 | 342,4±6,<br>54<br>362,8±3,<br>21 | 1,9<br>1,36 | 1,5<br>35,3 | 0,4<br>9,7 | 1,52<br>2,36 | >0,05<br><0,05 |
| | Farqi % | 16,8 | | 5,9 | | | | | |

| | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 5. | Turgan joydan uzunlikka sakrash (sm) | 180,6±5,42<br>206,2±4,56 | 3,0<br>21,1 | 178,3±5,41<br>185,8±4,78 | 3,0<br>2,6 | 2,3<br>20,4 | 1,3<br>10,9 | 1,54<br>2,22 | ≥0,05<br><0,05 |
| | Farqi % | 14,2 | | 4,2 | | | | | |
| 6. | Kichik to‘pni uzoqlikka uloqtirish (metr) | 35,1±0,87<br>43,9±0,62 | 2,5<br>1,4 | 36,5±1,5<br>39,2±1,1 | 4,1<br>2,8 | 1,4<br>4,7 | 4,10<br>11,9 | 1,71<br>2,36 | ≥0,05<br><0,05 |
| | Farqi % | 25,1 | | 7,4 | | | | | |

**Izoh:** *TG – tajriba guruhi, NG – nazorat guruhi.*

**XULOSA.** O‘tkazilgan ilmiy-uslubiy adabiyotlar tahlili pedagogik kuzatuv, antropometriya, pedagogik tahlillardan quyidagi muhim xulosalarni chiqarishga asos bo‘ldi:

1. Adabiyotlar tahlili, soha mutaxassislari amaliy tajribalarini o‘rganish va yetuk olimlarining o‘z ilmiy ishlarida keltirilgan fikr-mulohazalariga ko‘ra, aynan maktab yoshidagi to‘laqonli jismoniy rivojlantirish va jismoniy sifatlarni tarbiyalash aynan 11-15 yoshlar oralig‘iga to‘g‘ri kelar ekan. Shu davrda, mualliflar fikriga ko‘ra o‘quvchilarda zarur harakat ko‘nikmalari ayniqsa yaxshi o‘zlashtirilib, mustahkamlanadi.

2. Antropolog olimlar ma’lumotlarining ko‘plarida bolalarning jismoniy rivojlanishi qonuniyatlarini, ularning morfologik, funksional xususiyatlarini, jismoniy sifatlarni rivojlantirishning yoshga bog‘liq jihatlarini ochib beradi. Fiziologlar ikkinchi bolalik davri – o‘g‘il bolalarda 8-12 yosh; o‘spirinlik davri – o‘g‘il bolalarda 13-16 yosh deb qayd etganlar.

3. 11-15 yoshli maktab o‘quvchilarining jismoniy rivojlanishini faollashtiruvchi hamda jismoniy sifatlarini rivojlantiruvchi vositalarni tanlash va amaliyotga tatbiq etish yuzasidan ko‘pgina ilmiy izlanishlar olib borilganligining guvohi bo‘ldik. Lekin shu o‘rinda jismoniy tarbiya darslarida 5-9 sinf maktab o‘quvchilarining jismoniy sifatlarini rivojlantirishda maxsus mashqlar ishlab chiqish zarurati mavjud.

4. Umumta’lim maktablarida tahsil oluvchi 5-sinf o‘quvchilarining jismoniy rivojlanishi (bo‘y uzunligi, tana vazni, ko‘krak aylanasi) ko‘rsatkichlari

o‘lchanganda, o‘quv yili boshida ularning bo‘yi 140,4±5,8 sm.ga, o‘quv yili oxirida esa o‘rtacha 143,2±4,7 sm.ga teng bo‘ladi. Ushbu yoshdagi o‘quvchilarning jismoniy rivojlanishi ko‘rsatkichlaridagi yillik o‘sishi farqi 2,8 sm.ga tengligini aniqlandi (1,21%). Statistik jihatdan farq yo‘q. B.Madaminovning [2005] tadqiqot ishlari bilan qiyoslaganimizda ham, 5-sinf o‘quvchilarining tana uzunligi tajriba (141,2±1,44 sm) va nazorat guruhlaridagi (142,1±2,56 sm) ko‘rsatkichlardan olingan natijalar bo‘yicha jismoniy rivojlanishda statistik farqlar ishonchli emasligi aniqlangan. 13-15 yoshli o‘quvchilarda ham o‘quvchilarining jismoniy rivojlanishi ko‘rsatkichlari yil davomida statistik jihatdan farqlar ishonchli emasligi aniqlangan (R>0,05).

5. 11 yoshli o‘quvchilarining jismoniy tayyorgarlik holati aniqlash bo‘yicha 1000 m masofaga yugurish bo‘yicha nazorat testi natijalari o‘quv yili boshida o‘rtacha 6;28±0,59 daqiqaga teng bo‘lib, o‘quv yili oxirida 5;55±0,51 daqiqaga yetganganligi aniqlandi. Turgan joydan uzunlikka sakrash nazorat mashqi bo‘yicha yil boshida o‘rtacha ko‘rsatkich 126,4±6,20 sm.ga va o‘quv yili oxirida 137,7±5,51 sm.ga teng bo‘ldi. Yugurib kelib uzunlikka sakrash nazorat mashq ko‘rsatkichlari 11 yoshli o‘quvchilarda yil boshida 238,1±8,53 sm bo‘lgan bo‘lsa, yil oxirida 253,6±7,12 sm.ga teng, ya’ni natija 9,4% ga o‘sganligini ko‘rish mumkin. Ko‘rsatkichlar orasidagi statistik farqining ishonchliligi mavjud emas (R>0,05).

6. 11-15 yoshli maktab o‘quvchilarining jismoniy rivojlanishini faollashtiruvchi hamda jismoniy sifatlarini rivojlantiruvchi vositalarni tanlash va amaliyotga tatbiq etish yuzasidan ko‘pgina ilmiy izlanishlar olib borilganligining guvohi bo‘ldik. Lekin shu o‘rinda jismoniy tarbiya darslarida 5-9 sinf maktab o‘quvchilarining jismoniy sifatlarini rivojlantirishda qo‘llaniladigan vosita va usullarning shug‘ullanuv-chilarning yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda qo‘llanilishi shiddati va hajmi, me’yorlarini ishlab chiqish zarurati mavjud;

7. Jismoniy tayyorgarligi har xil bo‘lgan o‘quvchilariga jismoniy tarbiya darslarini o‘tishda ularning salomatligini saqlash va umumiy jismoniy tayyorgarligini mustahkamlashga qaratilgan uslubiyat ishlab chiqish kerak.

9. Umumiy tayyorgarlik mashqlari tezkor-kuch qobiliyatlarini har tomonlama rivojlantirishga mo‘ljallangan bo‘lib, maxsus samarali tayyorgarlik uchun asos bo‘la oldi. Shu maqsadda quyidagi mashqlar majmuasini qo‘llash metodikasini tavsiya etamiz:

- tezkor-kuch sifatini rivojlantiruvchi mashqlar majmuasi. Gimnastika devorida toʻgʻri oyoqlarni gorizontal holatda koʻtarish (burchak osilish) mashqi qoʻllanilish shiddati va hajmi me'yorlarini quyidagicha belgilab oldik: qoʻllanilgan mashqlaridan soʻng shugʻullanuvchilarning YuQS koʻrsatkichlari bir daqiqada 11-12 yoshlilarda oʻrtacha 126±7,35 zarba atrofida boʻladi. 13-14 yoshlilarda oʻrtacha 131±8,12 zarba, 15 yoshli shugʻullanuvchilarda 125±7,22 zarba atrofida boʻladi. Mashqlar yoshga qarab 02-05 soniya vaqt oraligʻida davom etadi. Bajarishlar soni: 11-12 yoshlilar uchun 2-3 marta, 12-13 yoshlilar uchun 3-4 marta, 15 yoshlilar uchun 4-5 martadan bajarishga toʻgʻri keldi;

- turnikning yuqori qismini ushlab, tanani tekis tutib osilish (oyoqlar polga tegmasligi kerak). Qoʻllanilgan mashqdan soʻng shugʻullanuvchilarning YuQS koʻrsatkichlari bir daqiqada: 11-12 yoshlilarda oʻrtacha 122±6,36 zarba atrofida, 13-14 yoshlilarda oʻrtacha 127±7,25 zarba, 15 yoshli shugʻullanuvchilarda 131±6,53 zarba atrofida boʻladi. Mashqlar yoshga qarab 20-35 soniya vaqt oraligʻida davom etadi. Bajarishlar soni 11-12 yoshlilar uchun 2-3 marta, 12-13 yoshlilar uchun 3-4 martadan, 15 yoshlilar uchun 4-5 marta:

- turnikni yuqoridan ushlab oldinga va orqaga tebranish. Qoʻllanilgan mashqdan soʻng shugʻullanuvchilarning YuQS koʻrsatkichlari bir daqiqada: 11-12 yoshlilarda oʻrtacha 136±6,28 zarba atrofida, 13-14 yoshlilarda oʻrtacha 140±7,23 zarba, 15 yoshli shugʻullanuvchilarda 138±8,29 zarba atrofida boʻladi. Mashqlar yoshga qarab 20-35 soniya vaqt oraligʻida davom etadi. Bajarishlar soni 11-12 yoshlilar uchun 3-4 marta, 12-13 yoshlilar uchun 4-5 martadan, 15 yoshlilar uchun 5-6 marta.

10. 8-sinf oʻquvchilari uchun jismoniy tarbiya fanidan oʻquv mezonlarida 1500 m masofaga yugurishda 08;00,0 daqiqa, turgan joydan uzunlikka sakrashda 160 sm, kichik toʻpni uzoqlikka uloqtirish esa 28 m natijalar 3 baho bilan baholansa, oʻquvchilar ushbu nazorat me'yorlarini tadqiqotdan soʻng oʻquv yili ohirida 1500 m masofaga yugurish shartlarida oʻrtacha 7;09±0,74 daqiqa, turgan joydan uzunlikka sakrashda oʻrtacha 183,2±5,21 sm, kichik toʻpni uzoqlikka uloqtirish esa oʻrtacha 41,5±1,8 m natijalar bilan bajarishdi. Natijalar 5 baho bilan baholangan. Koʻrsatkichlar orasidagi statistik farqi ishonchliligi mavjud.

**UMUMIY XULOSA.** *Umumta'lim maktablarida jismoniy tarbiya darslarini o'quvchilar organizmiga ta'sirini ilmiy-pedagogik jihatdan judda katta ekanligini bilib oldik. O'quvchilarning sog'ligini mustahkamligi va komil inson bo'lib yetishlarida jismoniy mashqlarning ro'li katta ekanligini guvohi bo'ldik. Kelgusida umumta'lim maktablarida jismoniy tarbiya darslarini o'quvchilar organizmiga ta'sirini ilmiy-pedagogik asoslash mavzusini chuqurroq, tizimli ravishda o'rganilishi zarurligi ish jarayonida ko'zga tashlandi. Umid qilamizki, bu kabi ko'lamdor ishlarni amalga oshirishda biz ham munosib xissamizni qo'shamiz!*

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2018 йил 25 октябрдаги 864-сон "Ўқувчи ва талаба ёшлар ўртасида ўтказиладиган республика спорт мусобақалари тизимини янада такомиллаштириш" тўғрисидаги Қарори. Lex.uz.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida" Farmoni. Lex.uz.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 sentyabrdagi PF-5538-son "Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni. Lex.uz.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 14 avgustdagi PQ-3907-son "Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida" Qarori. Lex.uz.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 16 yanvardagi PQ-4119-son "Ta'lim sifatini nazorat qilish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori. Lex.uz.

6. Котешов В.Е. Методология управления адаптацией спортсменов к специальным двигательным действиям в спорте. Автореф. дисс.... доктор. пед.наук. / В.Е. Котешов. - Краснодар, 1998.–45 с.
7. Садикова Г.С. Влияние физических нагрузок на сердечно-сосудистую систему детей и подростков. Т.: Медицина. 1985. -44 с.

# GANDBOLCHILARNING HUJUM VA HIMOYADAGI TAKTIK HARAKATLARINI MASHG'ULOTLARDA MUSOBAQA USULI ORQALI RIVOJLANTIRISH

***Ergashaliyev Dostonbek No`monjon o'g'li***
*Namangan davlat universiteti Sport faoliyati kafedrasi stajyor o`qituvchisi*

***Annotatsiya:*** *Mazkur maqolada gandbolchilarning taktik harakatlari rivojlantirish va uning o`rni, qanday holatlarda to`g`ri taktik usulardan foydalanish kerakligi mashg`ulot jarayonida taktik usulardan ishlab chiqish kerakligi musobaqa orqaliy gandbolchilarni taktikasini rivojlantirish to`grsida amaliy ta`vsiyalar berilgan.*

***Kalit so'zlar*** *Taktika texnika sport to'garagi,jismoniy tayyorgarlik, yordamchi jismoniy tayyorgarlik*

# РАЗВИТИЕ ТАКТИЧЕСКИХ ДЕЙСТВИЙ ГАНДБОЛИСТОВ В НАПАДЕНИИ И ЗАЩИТЕ ПУТЕМ КОНКУРЕНЦИИ В УПРАЖНЕНИЯХ

***Эргашалиев Достонбека Номонджанивч***
*Преподаватель-стажер кафедры спортивной деятельности Наманганского государственного университета:*

***Аннотация:*** В данной статье даны практические рекомендации по развитию тактических движений гандболистов и их роль, в каких ситуациях необходимо использовать правильные тактические приемы, необходимость отработки тактических приемов на тренировках, выработка тактики гандболистов во время соревнований.

***Ключевые слова:*** Тактика, техника, спортивный клуб, физическая подготовка, вспомогательная физическая подготовка

## DEVELOPMENT OF HANDBALL PLAYERS' TACTICAL ACTIONS IN ATTACK AND DEFENSE THROUGH COMPETITION IN EXERCISES

***Ergashaliyev Dostonbek Nomonjan o`g`li***

*Intern teacher of the Department of Sports Activities of Namangan State University*

**Abstract:** *In this article, practical recommendations are given on the development of tactical movements of handball players and its role, in what situations it is necessary to use the correct tactical methods, the need to develop tactical methods during training, and the development of tactics of handball players during the competition.*

***Keywords***: *Tactics, technique, sports club, physical training, auxiliary physical training*

**Ishning dolzarbligi.** Hozirda barcha sport turlarida hujum va himoyataktik tayyorgarligi alohida ahamiyat ega hisoblanadi. Bunga sabab mashg'ulotlarda o'yinning texnik usullari va uni o'zlashtirish, jismoniy sifatlarning rivojlanish darajasi yuqori bo'lishiga qaramasdan sportda yaxshi natija ko'rsatish uchun sportchilarning taktik tayyorgarlikga ega bo'lishi tabab qilinadi. Jismoniy tayyorgarlikning o'rni, ayniqsa, musobaqalar bir necha kun o'tkazilsa va musobaqa murosasiz davom etadigan bo'lsa, hamda taktik tayyorgarlik yetarli bo'lmasa, sportchilar hujum va himoyatexnikasini kutilgandarajada bajara olmasligi yaqqol namoyon bo'ladi. Gandbolchilarni tayyorlash tizimini takomillashtirish ularning natijalarini yaxshilash,hujum va himoyataktikasini rivojlantirishda "Jismoniy

tarbiya va sportning xususiy metodlari" tarkibiga kiruvchi "Musobaqa usuli" dan foydalanish eng qulay vosita bo'lib, hizmat qilishini quydagi malumotlarda bayon etiladi.

Sport mashg'ulotlari jarayonida sportchilarni tayyorlashda ko'pgina o'rgatish usullaridan foydalaniladi. Albatta har bir usulni o'ziga xos jihatli mavjud. Bizga tanish bo'lgan usullardan biri musobaqa usuli hisoblanadi. Ushbu usuldan sport mashg'ulotlarda ma'lum bir o'yin yoki harakat texnikasini o'rgatishda faydalaniladi. Musobaqa usulining o'ziga xosligi shundaki u orqali o'yin texnikasini gandbolchilar maksimal nomoyon etishga erishiladilar. Buning asosiy sababi o'zaro raqobatlashuv hisoblanadi. Jismoniy tarbiya va sportning xuxusiy metodlari haqida so'z yuritilganda albatta quydagi usullarni yodga olamiz. Ular quyda 1-chizmada keltirilgan. Musobaqa usuli asosan mashg'ulotlarda yangi o'yin texnikiksini o'zlashtirilgandan so'ng qo'llaniladi natijada gandbolchilari shu harakatlarni o'zaro jamoalar o'rtasida kichik musobqa tashkillash orqali yanada mustaxkamlanadi. Bu musobaqa usulining o'ziga xosligini to'la yoritishga kamlik qiladi va uning yana bir eng kerakli jihati uni mashg'ulotlarda faqatgina o'yin texnikasiga oid harakatlarni tarbiyalashgina bo'lmay, u orqali gandbolchilar hujum va himoya taktikasi rivojlantirish uchun asosiy usul hisoblanadi.

Ushbu usulda mashg'ulotni tashkillash va o'tkazishni qanchalik kerkligini va taktik harakatlarni rivojlanishi haqida so'z yuritayotganda biz aslida o'yin taktikasi o'zini nima uni vazifasi haqida qisqacha ma'lumot keltirsak.

*1-chizma*



## Jismoniy tarbiya va sportning xususiy metodlari

Taktika ikki ko'rinishda amalga o'shirilib, ular a) hujum taktikasi, b) himoya taktikasiga bo'linadi.

Taktika – malum bir texnik harakatlar to'plamini mahorat bilan qo'llashni oldinda va musobaqa jarayonida murabbiy hamda jammo tomonidan rejalashtish tushiniladi. Obrazli qilib aytganda, taktika bu – generallar o'yinidir.

Chunki, mashg'ulot va musobaqa jarayonida sportchilarning o'yin faoliyati murabbiy tamonidan boshqariladi, barcha kerakli qarorlar qabul qilinadi. Ushbu usul yordamida mashg'ulot tashkil etilsa, uning tub negizida o'zaro musobaqalashuv o'rin oladi va bu taktik tayyorgarlikni yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun keng yo'l ochib beradi.

**Ishningmaqsadi** :Gandbolchilarning hujum va himoyadagi taktik harakatlarini rivojlantirishda musobaqa usulidan foydalanish bilan ushbu harakatlarni tez o'zlashtirishga imkon berishini ilmiy asoslashdir.

**Ishning vazifasi:** 1.Gandbolchilarni mashg'ulot jarayonida rejalashtirilgan taktik harakatlarni musobaqalarda qo'llash hamda kamchiliklarni bartaraf etish.

2. Gandbolchilarni hujum va himoyadagi taktik tayyorgarlik jarayonini optimallashtirishga doir ilmiy-uslubiy adabiyotlarni va musobaqa jarayonini o'rganish hamda tahlil qilish;

Gandbolchilarning mashg'ulot jarayonidaga mos bo'lgan usulni tanlash va unga hujum va himoyadagi taktik harakatlarni joylashtirish, bu jarayonga biz gandbolchilar tomomidan o'yinda qo'llanilishi kerak bo'lgan hujum yoki himoya taktikalarni qay darjada o'zlashtirilganligini bevosita nazortaga olish imkoni tug'iladi hamda ulardan qay biri yuqori darajada bajarilyotgani yoki qaysidir taktik harakatni bajarishda gandbolchilar muammoga uchrayotganligini ham aniqlab olamiz. Odatda o'yin usuli yordamida shug'ullanuvchilarni faoliyatga ijodiy yondoshuvni shakllantiriladi ammo, musobaqa usuli esa sportchilarni texnik va taktik harakatlarni maksimal darajada namoyon qilishga majbur qilib qo'yadi. Bunga asosiy sabab bu har bir mashg'ulotda musobaqalashuv, o'zaro raqobat va g'oliblikkaintilish borligi hisoblanadi. Quyida gandbolchilar taktik tayyorgarlini rivojlantirishda muhim sanalgan hujum va himoya taktik usullarini 2- jadvalda keltirilgan.

**Gandbol mashg'ulotlarini musobaqa usuli asosida tashkillashtirishda tavsiyaetiladiga hujum va himoya taktikalari.**

***2-jadval***

| Gandbolchilarnig himoya taktikalari | | |
|---|---|---|
| T/r | Taktika nomi | Uning tavsifi |
| 1 | 6:0 taktikasi | Bu taktika eng ko'p qo'laniladigan taktika hisoblanib barcha o'yinchilar bir |
| | | chiziqda joylashib himoya qilish vazifasini bajaradi. |
| 2 | 5:1 taktikasi | Bu taktikada bir o'yinchi raqib jamoadagi eng mahoratli o'yinchini himoyalash bilan qolgan taktik usulardan farq qiladi. |
| 3 | 4:2 taktikasi | Ushbu taktik joylashuv orqali hujum qilayotgan jamoani taktik o'ylangan rejasini amalgan oshmasligini ta'minlash va himoyani mustaxkamlashga xizmat qiladi . |
| Gandbolchilarning hujum taktikasi | | |
| T/r | Taktika nomi | Uning tavsifi |
| 1 | 4:2 taktikasi | Mazkur taktik usul hujum paytida himoyani yorib o'tishga yordam beradi, bunda ikki hujumchi himoyachilar orasiga kirib borib jamoadoshlari hujumini samarali hal etishga qaratilgan taktik usul hisoblanadi . |
| 2 | 3:3 taktikasi | Ushbu taktik usulda asosan uch hujumchi hujum qiladi va hujumni samarali yakunlaydi qolgan uch o'yinchi esa himoya taktikasini buzish uchun xizmat qiladi. |
| 3 | 5:1 taktikasi | 5:1 taktikasi eng ko'p qo'laniladigan usul hisoblanib,uning o'ziga hosligi butun jamoa bo'lib hujum qiladi va samarali yakunlashga yordam beradi. |

Mazkur usul gandbolchilar mashg'ulotlarini tashkil etishda turli yoshdagi sportchilar uchun samara berishi ham uning qay darajada optimal ekanligini ko'rsatadi.

**Xulosa:** Ilmiy-uslubiy adabiyotlarni o'rganish hamda amaliyotda gandbolchilarning tayyorgarligi jarayonini kuzatish natijasida olib borilayotgan mashg'ulotlarda aynan musobaqa faoliyatiga xos bo'lgan taktik harakatlarini rivojlantirishga yetarli darajada e'tibor berilmasligi hamda tayyorgarlik davrining bosqichlarida mana shunday harakatlarga oid metodik jihatdan yondoshuvning yetishmasligi yosh sportchilarda hujum va himoyadagi taktik harakatlarni rivojlantirishni samarali tashkil etish imkonini bermay kelayotganligi ma'lum bo'ldi.

Gandbol mashg'ulotlarida sportchilarning jismoniy tayyorgarligi darajasi shakllangandan so'ng, gandbolchilarning mashg'ulot jarayonlarini musobaqa usuli orqali tashkil etilishi sezilarli darajada ta'sir ko'rsatishini hisobga olgan holda nazariy jihatdan musobaqa oldi tayyorgarlik davrida gandbolchilarning hujum va himoyadagi taktik tayyorgarligini amalga oshirishda yuqorida tavsiya etilgan ro'yxatdagi taktik usullarni musobqa usulidagi mashg'ulotlarda bajarilishi taktik harakatlarni o'zlashtirish, mustaxkamlash va takomillashtirish jarayonlari tez va samarali hal etiladi.

**Adabiyotlar:**

1. Sh.Pavlov., F.Abduraximov., J.Akbarov. Gandbol nazaryasi va uslubiyoti O'zDJTI nashiryotmatbuot bo'limi, 2005 –yil. 190.b.

2. A.Abdullayev. Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi, Farg'ona-2016. - 372 b.

R.S.Salomov. Jismoniy tarbiya nazaryasi va uslubiyati, T. -2014 - 296 b.

# ИСТОРИЯ АНТРОПОЛОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЫ.

***Хомиджонова М. А.***

*Национальный университет Узбекистана*

*им. Мирзо Улугбек Факультет история*
*магистрант кафедры археология*

В конце I тысячелетия до н. э. в предгорьях и горных долинах Ферганского региона растет число погребальных памятников с подбойно-катакомбными захоронениями, которые одни авторы связывают с проникновением сюда других племен извне, другие— считают их памятниками местного происхождения. Наибольшее количество могильников в Ферганской долине концентрируется в поймах рек, озер, в местах с удобными подходами к воде, с обильными камышовыми и тугайными зарослями. Отмечены различные типы погребальных сооружений, локализуемых в разных районах. Так, на севере долины распространены земляные насыпи и погребения в катакомбах, на востоке преобладают погребения в виде подбоев, на юге — могилы в виде грунтовых ям.

Антропологический материал древней Ферганы первой половины I тысячелетия н. э. многочислен. Хотя и нет достоверных критериев для разделения памятников, принадлежащих оседло-земледельческому и скотоводческому населению Ферганы, многие исследователи относят эти памятники к скотоводческому населению.

**Ширинсайский могильник.** На западе Ферганской долины из подбойных и катакомбных захоронений II – IV вв. Ширинсайского могильника получены черепа различного антропологического типа: хорасанского, урало-алтайского и европиоидно-дравидоидного [2; с. 125-129]. Однако Кияткина Т. П., проанализировав эти материалы заново, пришла к заключению, что население Ширинсая европеоидное, однородное и аналогичное населению юго-западной Ферганы [14; с. 158-160].

**Могильник Кайрагач.** В могильнике Кайрагач, который находится в 25 км южнее Ленинабада, раскопано 10 курганов. Изучен лишь один череп, отнесенный к европеоидному мезокранному типу, близкому к типу Среднеазиатского междуречья [8; с. 94]. К европеоидному долихокранному типу Гинзбург В. В. отнес черепа из могильника Кара-Мойнак юго-западной Ферганы [8; с. 106].

**Могильники Исфаринской долины.** Ряд могильников Исфаринской долины (Ворух, Кех, Чорку, Калантархона, Сурх, Навгилем) оставлен племенами, переходившими к оседлости. Население юго-западной Ферганы характеризовалось европеоидным типом Среднеазиатского междуречья без следов монголоидного типа [9; с. 131-163].

**Пещера Кувасай.** На юго-востоке Ферганской долины, в 23 км от г. Ферганы, в пещере Кувасай из массового захоронения получены черепа I – III вв. н. э., принадлежавшие оседлому населению. Серия, несомненно, европеоидная, состоящая из долихокранных и брахикранных компонентов [3; с. 89-91, 96-101]. На востоке Ферганской долины, на городище Шурабашат, обнаружено погребение первых веков нашей эры, также оставленное оседлым населением. По предварительному определению Г. Ф. Дебеца и Н. Н. Миклашевской, череп европеоидный, сходный с усуньскими [8; с. 20].

**Урюкзорский могильник.** Все погребения датируются первыми веками нашей эры. Исключение составляет череп 5 из кургана 1а, датирующийся более ранним временем – V – IV вв. до н. э. Изучаемый череп антропологи отнесли к восточной ветви средиземноморской расы. Этот тип отмечается в Ферганской долине с эпохи бронзы у поселений Дальверзин и Чуст, которые относятся к земледельческому типу населений [5; с. 118].

**Рапканмазарский могильник.** Могильник датируется первой половиной I тысячелетия н. э. Захоронения произведены в курганах. Черепа из Урюкзорского и Ранканмазарского могильников характеризуются главным образом мезобрахикранным европеоидным типом Среднеазиатского междуречья. На некоторых черепах отмечается примесь монголоидных элементов.

**Поселения Куюктепа.** В 1971 г. при раскопках поселения Куюктепа в Учкурганском районе Ферганской области на глубине 340 см у северной стены башни № 9 получен сильно фрагментированный череп ребенка 4 – 5 лет, датирующийся первыми веками нашей эры. Черепная коробка удлиненная. Поперечный диаметр 120 мм.

**Тагапский могильник.** Здесь также детский череп, который датируется первой половиной 1 тысячелетия н. э., получен из кургана 4 Тагапского

могильника. Захоронение ребенка 8 – 12 лет. Черепная коробка удлиненная, без следов преднамеренной деформации.

**Могильник Гурмирон.** В течение 1973 г. археологический отряд Института археологии АН УзССР изучал курганный могильник Гурмирон I в. до н. э.— I в. н. э. Вскрыто около 30 курганов. Все курганные погребения содержат от одного до нескольких захоронений. Погребения в основном катакомбные, лишь два из них ямного типа. Небольшой антропологический материал из раскопок 1951 г. изучен В. В. Гинзбургом [3; с. 87-89].

**Могильник Обишир.** Могильник расположен в 17 км восточнее кишлака Сох, на левом берегу сая Обишир. Был открыт в 1969 г. Дуке Х. И. На дне оврага вскрыто три погребения [7; с. 71-75].

**Могильник Хангиз.** Курганный могильник Хангиз располагается в Ферганской области в 30 км юго-западнее г. Ферганы и датируется первыми веками нашей эры [6; с. 14]. Видимо, в расовом отношении население Хангиза было смешанным. Здесь распространено умеренно брахикранное европеоидное население типа Среднеазиатского междуречья с отдельными вкраплениями средиземноморского расового типа.

Памятники эпохи античности, из которых были получены краниологические материалы с достаточной численностью, сосредоточены в западной (Ворух, Кех, Чорку, Калантархона, Сурх, Навгплем и Ширинсай), юго-восточной (Рапканмазар, Урюкзор, Тагап, Обишмр, Кувасай и Хамгиз) и северной (Гурмирон, Лу-гумбек и Богджай) частях Ферганской долины [15; с. 20-21].

Земледельческое и скотоводческое население Ферганской долины характеризуется в основном мезобрахикранным типом Среднеазиатского междуречья. В составе населения долины по-прежнему встречается восточносрсдиземноморский тип. Однако он представлен единичными случаями и его можно встретить на севере, юге и западе долины.

В заключение можно отметить, что при подсчете удельной доли монголоидного элемента оказалось, что европеоидные черты сосредоточены у населения западных районов Ферганской долины, главным образом в Исфаринской долине [16; с. 101]. Возможно, что в расовом отношении население

Пенджикента было тесно связано с населением Исфаринской долины. Жители юго-восточной Ферганы имели европеоидные черты, но с незначительным вкраплением монголоидных. Несомненно, наличие тесных связей населения юго-восточной и западной Ферганы. У населения северной части Ферганы монголоидные элементы представлены более заметно. На антропологических материалах отражаются связи его со скотоводческим населением Ташкентского оазиса и Тянь-Шаня.

**Использованная литература:**

1. Гамбург Б. З. Горбунова Н. Г. Актамский могильник. КСНИМК, Вып. 69, 1957.

2. Герасимов М. М. Основы восстановления лица по черепу.

3. Гинзбург В. В. Материалы к антропологии древнего населения Ферганской долины. ТКАЭЭ, т. I. М., 1956.

4. Гинзбург В. В. Антропологические материалы из Вуадильского и Актамского могильников. КСИИМК. вып. 69. 1957.

5. Гинзбург В. В. К антропологии населения Ферганской долины в эпоху бронзы. МИА, 118, 1962; Зезенкова В. Я. Скелет из погребения в поселении эпохи бронзы близ г.Чуста. – САН, 1958, № 3.

6. Горбунова Н. Г., Гамбург Б. З. Могильник Хангиз. «Изв. отделения общественных наук АН Тадж ССР», 1957, № 14.

7. Дуке Х. И. Археологические исследования в Сохской долине. ОНУ, 1973, №9, с. 48—50. Он же. Могильник Обишир. ИМКУ, вып. 11, 1974.

8. Заднепровский Ю. А. Археологические памятники южных районов Ошской области. Фрунзе, I960.

9. Зазенкова В. Я. Предварительный отчет об исследовании краниологического материала из раскопок курганов в Ворухе (1952). Труды Института истории, археологии и этнографии АН Тадж ССР. 1955. т. 35

10. Зазенкова В. Я. Антропологические типы Узбекистана по данным остеологии. Бюлл. САГУ. вып. 23, 1945: Она же. Материалы к палеоантропологии Узбекистана и Туркмении. В сб. «Вопросы этногенеза народов Средней Азии в свете данных антропологии». Ташкент. 1953.; Она же.

Антропологическая характеристика черепов из древних погребений Богджая. ИМКУ, вып. 2, 1961.
11. Зезенкова В. Я Некоторые данные о скелетах из погребальных курганов возле станции Вревская.
12. Кадыров Э. Б. Древние погребальные памятники Ферганы как - исторический источник.-. Автореф. канд. дисс. Ташкент, 1975, с. 16—18; рук. Дисс.
13. Кияткина Т. П. Предварительное определение краниологического материала из могильника в Ворухе. Труды Института истории, археологии и этнографии АН Тадж ССР, 1956. т. 63. Она же. Материалы к палеоантропологии Таджикистана.
14. Кияткпна Т. П. Материалы к палеоантропологии Таджикистана.
15. Ходжайов Т. К. К палеоантропологии древнего Узбекистана.
16. Ходжайов Т. К. К палеоантропологии древнего Узбекистана. (для Северной Ферганы УЛС равен 40,4; ПФЦ 90,7; УДМЭ 23.4; для юго-восточной соответственно 24.9; 89,0; — 3,8; для западной —12,4; 90,7; 9,2.)

## STEREOTIP VA U BILAN BOG'LIQ NAZARIYALAR

***Abdullayeva Mushtariy Moxmud qizi.***
*O'zMU tarix fakulteti "Antropologiya va etnologiya"*
*kafedrasi stajyor o'qituvchisi.*
*e-mail: mushtariyabdullayeva@gmail.com*
*Tel.: (+99899) 821-32-28;*

***Annotatsiya:*** *maqolada stereotip va stereotiplash xodisasining mazmun-mohiyati, uning vazifalari va turlari tahlil qilingan bo'lib, stereotiplarning nazariy asoslari ochib berildi. Shuningdek, stereotiplarni psixolog, sotsiolog, pedagog, faylasuf va antropologlar tomonidan o'rganilishi, bu borada ularning ilmiy qarashlari umumiy xulosalandi. Stereotiplarning inson ongida barqaror mavjudligi asoslandi.*

***Tayanch so'zlar:*** *stereotip, stereotiplash, stereotip turlari, stereotiplash nazariyalari.*

***Аннотация:*** *В статье анализируется сущность стереотипов и явление стереотипизации, ее задачи и виды, раскрываются теоретические основы стереотипов. Также были обобщены исследования стереотипов психологами, социологами, педагогами, философами и антропологами и их научные взгляды на этот счет. Обосновано устойчивое присутствие стереотипов в сознании человека.*

***Ключевые слова:*** *стереотип, стереотипизация, виды стереотипов, теории стереотипизации.*

***Annotation:*** *The article analyzes the essence of stereotypes and the phenomenon of stereotyping, its tasks and types, and the theoretical foundations of stereotypes are revealed. Also, the study of stereotypes by psychologists, sociologists, pedagogues, philosophers and anthropologists, and their scientific views in this regard were summarized. The stable presence of stereotypes in the human mind was substantiated.*

***Keywords:*** *stereotype, stereotyping, types of stereotypes, theories of stereotyping.*

## KIRISH

Ijtimoiy tizim fenomeni sifatida stereotip turli fan soha vakillari tomonidan o'rganiladi. Xususan, faylasuflar, sotsiologlar, psixologlar ko'proq stereotiplarining ijtimoiy hayotdagi ahamiyati (haqiqatmi? yolg'onmi? xurofotmi? va h.k.), uning shaxsga va jamiyatga ta'sirning kognitiv hamda emotsional jihatlariga qiziqsa, etnolog va antropologlar asosan stereotiplarning etnik ta'siriga, madaniy xususiyatlariga e'tibor qaratishadi.

Stereotiplar guruh yoki ijtimoiy toifaga oid statik va o'ta soddalashtirilgan g'oyalar bo'lib, kundalik hayotda ular bizning taxminlarimiz va xatti-harakatlarimizga kuchli ta'sir qiladi [8]. Stereotiplar inson hayotining barcha sohalarini qamrab oladi. Bugungi kunda stereotip so'zining ko'p ma'nolari mavjud bo'lib, ko'pincha undan birovning fikri, tashqi qiyofasi yoki xulq-atvorini baholash uchun foydalaniladi.

Stereotiplar turli yondashuvlar asosida o'rganilgan. Stereotiplash hodisasi ko'p qirralidir. U o'zini inson faoliyatining turli sohalarida namoyon qiladi. Shundan kelib chiqib, tegishli bilim sohalarida ma'lum bir talqinni oladi. Biz bu

yerda stereotipning mohiyatini tushunishga qaratilgan ijtimoiy, psixologik, pedogogik va antropologik yondashuvlarni tizimlashtirishga harakat qildik.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Stereotip va stereotiplash nazariyalari haqidagi qarashlar:

– qiyosiy taqqoslash (stereotiplar haqida pedagog, sotsiolog, psixolog va antropologlarning ilmiy qarashlari qiyosiy taqqoslandi);

– davriylik (stereotiplar bilan bog'liq nazariyalarning oldingi va keyingi o'zgarishi xronologik keltirildi);

– obyektivlik (stereotiplarni salbiy yoki ijobiy baholashda belgilangan chegara-qiymatdan chiqilmadi) kabi asosiy uslubiy tamoyillaridan foydalanib o'rganildi.

## NATIJALAR VA MUHOKAMA

XVII asr oxirida fransiyalik noshir F. Dido kitob nashriyotida vaqt, mehnat va narxni tejaydigan qurilmani ixtiro qilgan. Ixtirodan oldin, har safar kitobning matni katta mablag' sarflashga olib kelgan. F. Didoning yangi ijodiy qarori matn terishdan iborat bo'lib, undan so'ng ko'p sonli kitoblarni chop etishga imkon beruvchi metall plitalari ishlab chiqarilgan. F. Dido o'zining ixtirosini stereotip – "stereos", "tyros" – mustahkam tasvir deb nomlagan [3, 6 b.].

Oksford ingliz lug'atida "Stereotip – ma'lum bir turdagi shaxs yoki narsaning keng tarqalgan, ammo qat'iy va soddalashtirilgan shakli yoki g'oyasi" [14] deb ta'riflanadi.

Stereotip termini (yunon. stereos – qattiq, typos – iz, tamg'a) ilmiy muomalaga amerikalik sotsiolog U. Lippman tomonidan kiritilgan. U 1922 yilda nashr etilgan "Publik opinion" ("Jamoat fikri") nomli kitobida stereotiplarning jamoatchilik fikri tizimidagi o'rni va rolini aniqlashga harakat qilgan. U. Lippman stereotipni bizning ongimizga yetib bormasidan oldin his-tuyg'ularimizdagi ma'lumotlarga muayyan ta'sir ko'rsatadigan atrof-muhitni alohida idrok qilish shakli sifatida tushuntirgan [11, 79-95 b].

XX asrda ijtimoiy fan negizida stereotiplarga oid 3 ta keng yondashuv yaratilgan:

1) iqtisodiy yondashuv – stereotiplarni statistik kamsitishning namoyon bo'lishi sifatida ko'rib chiqadi;

2) sotsiologik yondashuv – bu faqat ijtimoiy guruhlarga tegishli bo'lib, bunda stereotiplarni guruh xususiyatlari bilan bog'lashadi;

3) Ijtimoiy bilish yondashuvi - ijtimoiy psixologiyadan kelib chiqqan bo'lib, bu stereotiplarni kognitiv sxemalar yoki nazariyalarning alohida xolatlari sifatida ko'rib chiqadi [8].

Ijtimoiy-psixolog olim G. Tajfel ijtimoiy idrok, ijtimoiy o'ziga xoslik va guruhlararo munosabatlar haqida o'zining nazariyalarini yaratgan, ijtimoiy hodisalarni psixologik izohlash masalalarini tadbiq qilgan. Xususan, u o'zining stereotiplash maqolasida stereotipning normalligini va uning kundalik hayot uchun funksionalligini ta'kidlaydi. "Stereotip "yomon" ham emas, "yaxshi" ham emas, balki u mavjud va ehtimol atrofimizdagi dunyoni soddalashtirishga qaratilgan doimiy harakatlarimizda biron bir maqsadga xizmat qiladi" [12, 4 b.].

XX asr rus psixologi V.S. Ageev stereotiplar xususan ijtimoiy stereotiplarning psixologik asoslarini o'rgangan va ularning kognitiv hamda motivatsion asosini farqlab bergan. Hayotda stereotip bilan bog'liq quyidagi nazariy muammolarni: stereotiplarning haqiqiy psixologik funksiyalari qanday va ular ijtimoiy funksiyalardan nimasi bilan farq qiladi, ushbu hodisaning chegaralari qanday, ijtimoiy stereotiplarning dinamik qonunlari qanday, ular qanday paydo bo'ladi, shakllanadi, o'zgaradi yoki yo'q bo'lib ketadi kabi savollarni o'rganish taklifini kiritgan.

Amerikalik psixologlardan J.L. Hilton va W. von Hippellar [10] o'zlarining hammualliflikdagi "Stereotiplar" nomli maqolasida, stereotipni shakllantirish, saqlash, qo'llash va o'zgartirishga yordam beradigan bilim va motivatsion omillarni ochib berishadi. Xususan, stereotiplar nafaqat turli xil motivatsion sabablarga ko'ra, balki turli xil motivatsion omillar tufayli shakllanib, saqlanib qolinadi deb taxmin qiladilar. Ya'ni, motivatsiya va his-tuyg'ular "qachon" va "qanday" stereotiplarni yaratishda "muhim" rol o'ynashini asoslab beradilar. Ular stereotiplarni – "haqiqiy farqlarning aqliy namoyishi" [10, 238-239 b.] deb ta'kidlashadi.

Sotsiolog olimlardan W.E. Thompson va J.V. Hickeylar [13] "Jamiyat diqqat markazida: sotsiologiyaga kirish" jurnalida stereotiplar va uning qanday paydo bo'lishiga to'xtalib, ular ijtimoiy harakatlarni shakllantirishga va ta'sir

koʻrsatishiga yordam berishini ta'kidlaydi. Ularning fikricha: "Boshqa guruhlar va shaxslarning umumlashtirilgan tasavvurlari va stereotiplarning koʻpchiligi oʻz-oʻzidan paydo boʻladi, chunki biz aniq ijtimoiy aloqada boʻlamiz. Shunga qaramay, ushbu tajribaning (asosning) oʻzi ba'zi bir kuchli in'ikoslarni hisobga olmaydi. Koʻplab odamlar ba'zi guruhlar hamda toifalarga nisbatan (garchi ular bilan hech qachon shaxsan uchrashmagan boʻlsa ham) ijtimoiylashuv jarayonida oʻrgatilgan taxminlar va stereotiplarda qolib ketadi, bu esa bizning ijtimoiy harakatlarimizni shakllantirishga va ta'sir koʻrsatishda yordam beradi" [13, 130-131 b.].

Etnopsixolog olima T.G. Stefanenko [7] asosan etnik stereotiplar, uning xususiyatlari va stereotiplashtirishni shakllantirish jarayonlariga toʻxtalib oʻtib, ijtimoiy stereotiplarning mohiyatini ochib beradi. U ta'kidlaydiki: "Guruhlararo munosabatlarda muhim rolni ijtimoiy stereotiplar oʻynaydi, ular soddalashtirilgan, shaxsiy qarashlarning sxematik tasvirlari, individual tasavvurlarning yuqori darajadagi izchilligi bilan tavsiflanadi. Stereotiplar erta bolalik davrida oʻzlashtiriladi, odatda toʻgʻridan toʻgʻri tajribadan emas, balki ikkilamchi manbalardan – bolalarning oʻzi tegishli boʻlgan guruhlar toʻgʻrisida aniq tasavvurlar paydo boʻlishidan ancha oldin anglaydilar" [7, 149 b.].

Sotsiolog olima A.V. Bochkareva [2] oʻzining dissertatsiyasida etnik stereotiplarni ijtimoiy hodisa sifatida oʻrgangan boʻlib, sotsiologik tadqiqotlarda etnik stereotiplarni psixosemantik usullar bilan oʻrganish imkoniyatlari va xususiyatlarini ochib bergan.

Rus sotsiologi T.B. Ryabova [5, 120-139] soʻnggi adabiyotlarning tahlili boʻyicha stereotipning xususiyatlari (atributlari)ni (rus sotsiologiyasida ham ushbu talqinning ustunligini ta'kidlab) quyidagicha ta'riflaydi: birinchidan, ular bizni va boshqalarni baholash uchun ishlatiladi, shuning uchun ular aksiologik (xulosalarni ifodalaydigan va ijtimoiy aks ettiradigan ijtimoiy ong) jihatdan neytral (betaraf) emas;

ikkinchidan, stereotiplar ikki madaniyatni yoki ijtimoiy guruhni taqqoslashda tomonlarning qarama-qarshiliklari sifatida talqin etilganda yuzaga keladi;

uchinchidan, bu boshqani ifodalashning soddalashtirilgan usuli. Shuningdek, "Stereotiplash – bu stereotiplangan guruh a'zolari oʻrtasidagi mumkin boʻlgan

farqlarni tan olmaydigan va umumiy qoidalardan istisnolarga yo'l qo'ymaydigan fikrlash uslubi" [5, 120-139].

Rus pedagog olimi N.V. Sorokina [6] stereotiplarning madaniyatlararo aloqa omili sifatida ulkan ahamiyatiga qaramay, ularga universitetdagi o'quv jarayonida yetarlicha e'tibor berilmayotganligini ta'kidlaydi. Shuningdek, chet tillarini o'qitish sohasida o'tgan yillardagi stereotiplar muammosini ta'lim mazmuniga singdirishga qaratilgan bir nechta urinishlar asosan stereotiplarga qarshi kurashish, yo'q qilish, olib tashlashga qaratilgan bo'lib, bu esa zamonaviy ijtimoiy-psixologik fan nuqtai nazaridan to'g'ri emasligini asoslab beradi. Stereotiplarni salbiy deb baholashlarini o'zi bir "stereotipdir", deb biladi. "Olimlar o'zlarining xolislikka intilishlariga qaramay, stereotiplar ta'siriga duchor bo'lmoqdalar, bu esa ushbu hodisaning hamma narsani qamrab oluvchi xususiyatiga yana bir bor ishora qilmoqda" [6, 121 b.] degan qarashlari bilan stereotiplarni butunlay yo'q qilish kerak degan fikrga qarshi chiqadi va buni milliy stereotiplar fenomeniga zidligi bilan asoslaydi. Uning fikricha: "Stereotiplar bilan kurashmaslik, balki ularni hisobga olish va ularning madaniy aloqalar samaradorligini oshirish uchun ularning konstruktiv xususiyatlari va funksiyalaridan foydalanish zarurdir [6, 122].

Shuningdek, N.V. Sorokina stereotiplashning tabiati insonning fikrlash jarayonlarining ajralmas qismi ekanligini, stereotiplarning eng muhim xususiyatlaridan biri bu ularning xilma-xilligi bo'lib, buni stereotiplarning turlarini ajratib berish orqali isbotlaydi [1, 161-164 b.].

N.V. Sorokina [6] stereotiplarni quyidagilarga ajratadi:

– sub'ektiv (stereotiplarni tashuvchilari) jihatdan: kollektiv (jamoaviy) va individual (yakka) stereotiplarga;

– ob'ektiv jihatdan: shaxsiy va ijtimoiy stereotip.

Aytish joizki, stereotiplarning o'zi bir necha turlarga bo'linadi: gender stereotiplari ("erkaklik va ayollik bilan bog'liq xususiyatlar"); yosh stereotiplari ("yosh – tirik organizm tug'ilgan paytdan to hozirgi kungacha yoki boshqa biron bir aniq vaqtgacha bo'lgan davr davomiyligi"); kasbiy stereotiplar ("uchish xavfli"); irqiy stereotiplar ("osiyoliklar matematikani yaxshi bilishadi"); milliy stereotiplar; etnik stereotiplar ("nemislar qat'iy hisob kitob bilan ish qiladi"); diniy stereotiplar;

hududiy stereotiplar; guruhiy stereotiplar; siyosiy stereotiplar (“Respublikachilar boy”), demografik stereotiplar (“Florida” aholisi qariyalar) va h.k.

Stereotiplar sub’ektining ob’ektga tegishli bo‘lishiga ko‘ra quyidagilarga bo‘linadi: *avtostereotip* (bu ijtimoiy guruhning o‘zi haqidagi); *geterostereotip* (ma’lum bir guruhning boshqa/begona guruhlar haqidagi obrazidir); *endostereotip* (guruh ichidagi); *ekzostereotip* (guruh tashqarisidagi); *metastereotip* (stereotip haqidagi stereotip, boshqa guruhda qabul qilingan geterostereotiplar tushuniladi); *kontr-stereotip* (stereotipning umuman etnik guruhga emas, balki uning individual tipik bo‘lmagan vakillariga nisbatan berilgan).

Stereotiplar mazmuniga ko‘ra *ijobiy* va *salbiyga* bo‘linadi. Stereotip tuzilishining *kognitiv* (aqliy) komponenti nisbatan barqaror, *affektiv* (ta’sir) komponenti nisbatan esa o‘zgaruvchan hisoblanadi. Shuningdek, stereotip tuzilishining turli tarkibiy qismlari bilan bog‘liq bo‘lib, ular: *xurofotlar* (“keksalar qobiliyatsiz”), *evristika* (“bolalararni tarbiyalash – bu ayolning ishi”), *me’yor – norma* (“hech kim ko‘chada kiyimsiz yurmaydi”) va *an’analarga* ajratiladi. Stereotip ratsional *(kognitiv),* emotsional *(affektiv)* va motorli *(xulq-atvorli)* tarkibiy qismlarni o‘z ichiga oladi [6]. Shuningdek, stereotiplarni aniq (“gollandlar baland bo‘yli”), boshqalarini esa aniqligi kamroq guruhlarga (“Irlandiyaliklar qizil boshli”; atigi 10%) ajratish mumkin. Bundan tashqari, stereotiplar o‘zgaradi: AQSHda yahudiylar XX asrning boshlarida diniy va o‘qimagan sifatida tasavvur shakllangan bo‘lsa, XXI asrning boshida ularga nisbatan aksil stereotip shakllanadi [6].

Garchi stereotiplarning ongsiz tarkibiy qismlarining mazmuni va ahamiyati to‘g‘risida ba’zi tortishuvlar mavjud bo‘lsa-da, stereotiplar bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, odamlardan turli xil guruh a’zolarini tavsiflashni so‘rash, bu ularning stereotiplari to‘g‘risida to‘liq tushuncha beradi [8, 1753-1754].

Alohida individlarning tasnifini umumlashtirish va ularni bir insonlar va hodisalar guruhiga qo‘llash bu – stereotiplash yoki stereotip asosida fikrlash deb ataladi. E. Aronsonning fikricha, “Stereotip asosida fikrlash – bu guruhda uning a’zolari o‘rtasidagi real farqliklarga e’tibor bermagan holda har qaysi insonga bir xil tasnif berishdir” [4].

Rus olimi S.V. Chugrov milliy stereotip tushunchasini qo‘llagan, "stereotip" va "imidj" tushunchalarini o‘zaro bog‘liqligini aniqlagan [15].

Demak, Stereotiplar – bu guruhlar, insonlar, hodisalar toʻgʻrisidagi ayrim tasavvurlardir, bunday tasavvurlar haqiqatga yaqin boʻlishi, ayrim hollarda notoʻgʻri yoki haddan tashqari umumlashtirilgan boʻlishi mumkin. Bir tomondan, ular dunyo manzarasini soddalashtiradi va olinayotgan ma'lumotlarni tez ishlashga koʻmaklashadi, boshqa tomondan, ular haqiqatni buzib koʻrsatishi va xatoli umumlashmalarga olib kelishi mumkin [4, 61 b.].

Qayd qilish lozimki, har qanday madaniyat oʻzining dunyoni idrok qilishiga asoslangan, oʻz tafakkuri va xulq-atvorining stereotipini shakllantiradi.

Stereotiplar insonga umuman olganda dunyo gʻoyasini shakllantirishga, uning tor ijtimoiy, geografik va siyosiy dunyosi chegaralaridan chiqib ketishga imkon beradi. Stereotiplarning shakllanishiga asosan ma'lum bir jamoat vakillarining xulq-atvorini, ularning milliy va madaniy xususiyatlarni bilmaslik sabab boʻladi. Stereotiplar boshqa madaniyat vakillarining xatti-harakatlari toʻgʻrisida ba'zi taxminlarni keltirib chiqaradi. Ammo shuni ta'kidlash kerakki, stereotiplarning shakllanishi qisman haqiqiy faktlar bilan ham qoʻllab-quvvatlanadi. Shunga qaramay, stereotiplar na milliy xarakterga, na xalqning oʻziga xos qiyofasiga oʻxshash emas. Stereotiplar tilda aks etadi. Vaqt oʻtishi bilan doimiy ravishda takrorlanib turadigan iboralar ma'lum bir lisoniy (tilga oid, tilga tegishli) barqarorlikni oladi va "klik" (uzatilgan axborotni toʻgʻridan toʻgʻri (sintezsiz) qabul qilish) darajasiga oʻtadi [16].

Yangi me'yorlar, madaniyatlar, xatti-harakatlar va haqiqatlarga qarshi turish usuli sifatida stereotip bilan shugʻullaniladi. Bu jamiyatning ijtimoiy evolyusion rivojlanishidan kelib chiqishi mumkin. Irqlar, madaniyatlar, etnik guruhlar, jamoalar va mintaqalarning oddiy izolyatsiya qilingan ijtimoiy guruhlaridan hozirgi kunga qadar yuqori darajada integratsiyalashgan global jamiyatlarda ham boshqalarni qadrlash va qabul qilish uchun kurash olib borilgan va borishmoqda. Shuning uchun har bir jamiyat oʻz shaxsiy va guruh identifikatorini tasdiqlashi kerak, ayniqsa ular shu jamiyat me'yorlari va qadriyatlariga zid boʻlganda [9, 142 b.].

Stereotip va stereotiplash har doim insoniyat jamiyatining bir qismi boʻlib kelgan va bizdan boshqalarning xatti-harakatlari, qadriyatlari, tillari, tashqi koʻrinishi, madaniy amaliyoti va ideallarini tasvirlash hamda tushunishga

urunishlaridan kelib chiqqan bo'lishi mumkin. Stereotiplar o'zlikni anglash va saqlab qolish yoki reaksion maqsadlar uchun ko'proq xizmat qiladi va bu boshqalarni tushunish borasida o'zlarining qobiliyatsizligi va cheklovlarini qoplashga xizmat qiladi [9, 142-143 b.].

Stereotipning jamiyat hayotidagi o'rni ikki xil. Bir tomondan, stereotip ko'p vaqt va kuchni tejaydi, chunki inson shu kabi vaziyatlarga shablon echimini resurslarni fikrlashga sarf qilmasdan qo'llashi mumkin. Boshqa tomondan, stereotiplar xurofot va xatolarga olib kelishi mumkin. Shuning uchun stereotiplarning xususiyatlarini ham o'rganish muhimdir.

Shaxsiy xurofotlar va murosasizlik ham stereotiplarni yaratishga olib keladigan kuchli manbalardir. Boshqalarni tushunish va chinakam bilish uchun vaqt ajratishiga to'sqinlik qiladigan stereotiplash jarayoni osonroq yo'lga murojaat qiladi, ya'ni rivojlanmagan bilimlarga asoslanib taxminlar qiladi hamda ularni butun guruh va xalqlar bo'yicha umumlashtiradi. Agar bu guruhning o'z hayoti va mavjudligiga ijtimoiy raqobat nuqtai nazaridan xavf tug'dirsa, ular ijtimoiy genetika tufayli farqlarga qarshi turishi va madaniy sinkretizm hamda assimilyasiya (bir xalqning o'z tili, madaniyati, urf-odatlari va boshqalarini yo'qotib, ikkinchi xalqqa qo'shilib ketishi) qilishdan saqlanishi kerak [9, 143].

Stereotiplarning mazmun-mohiyatini psixologik emas, balki ijtimoyi omillardan izlash kerak [7, 151 b]. Stereotip shaxsning taxminlari va xatti-harakatlariga kuchli ta'sir ko'rsatadigan guruh yoki ijtimoiy toifaga oid statik va soddalashtirilgan g'oyalar bo'lib, stereotiplar madaniy va ijtimoiylashuv uslublari, oila, do'stlar, tengdoshlar bilan o'zaro munosabatlaridan kelib chiqadi va ular yashaydigan, ishlaydigan va o'ynaydigan ijtimoiy institutlarda mavjuddir [9, 141-142]. Stereotiplar ommaviy va individual ongning ajralmas qismidir. Hech kim ham idrok, ham tafakkurda "avtomatizmlarsiz" yashay olmaydi. Uning har qanday vaziyatni o'ylab ko'rishga na kuchi, na vaqti bor [17].

Demak, stereotiplar bir guruh odamlar shaxsiy xususiyatlariga oid fikrlar bo'lib, ular umumlashtirilgan, noaniq va yangi ma'lumotlarga chidamlidir. Odamlar o'zaro munosabatlarni anglash, barpo etish va yanada to'liq bilish jarayonida stereotiplarni tabiiy ravishda qonuniy asoslanmagan yondashuvga aylantiradi.

## XULOSA

Shunday qilib, yuqorida keltirilgan nazariyalarga asoslanib quyidagi xulosalarga kelindi:

– stereotiplar insonga olam haqida yaxlit tasavvurga ega boʻlish, oʻzining tor ijtimoiy, geografik va siyosiy muhitidan chiqishga imkon beradi. Bundan koʻrinib turibdiki, stereotiplar hech qachon alohida kishilarda paydo boʻlmaydi, ular har doim guruhlarda yuzaga keladi;

– stereotip – u yoki bu xalqning milliy xarakteri haqida qisman ma’lumot beradi. Ayrim hollarda real faktlarga asoslandi;

– streotip bu ma’lum yoki noma’lum guruhlar, institutlar, irq va boshqalar haqidagi bilvosita anchayin zaif asoslarga ega boʻlgan ayrim yoki koʻp hollarda umumiy tushunchadir. U ijtimoiy munosabat asosida vujudga keladi va doimiy ravishda globallashadi. Umumiy tushuncha sifatida qoʻllanilganda aynan yoritilayotgan obyekt(lar) haqidagi boshqa dalillar nazardan chetda qolib ketadi. Bu esa kishi ongida salbiy yoki ijobiy harakterli obrazlarning shaklanishida koʻplab xatolarga yoʻl qoʻyilishiga sabab boʻladi;

– tushuncha mazmuni doimiy ravishda oʻzgarib turishini hisobga olganda stereotip koʻplab yangi bilimlar hosil qilishga qarshilik qiladi. Chunki stereotip oʻzigagina xos boʻlgan hukmron gʻoyalari boshqa zid boʻlgan ma’lumotlarni rad etadi va aynan shu gʻoyalar doirasiga kiruvchi dalillarni (asossiz boʻlsa ham) qabul qiladi. Bu esa aqliy qoloqlikka, ma’lum bir tur yuzasidan chiqarilgan sayoz obrazlar doimiy ravishda saqlanib qolishiga hizmat qiladi.

– shu bilan birga, hozirgi glaballashuv davridagi vaqt tanqisligi masalasida streotiplar anchagina ijobiy yechim sifatida xizmat qilishi mumkin. Chunki stereotiplarning qisman yoki to’liq ob’ektiv asosi ham boʻladi. Uning shakllanishi va tarqalishi juda tezligini, insonlar ongiga engil "hazm" boʻlishini inobatga olganda undan ma’lumotlarni qisqa, tez, unumli va ishonchli tarzda bilvosita va bevosita yetkazishda foydalanish yaxshi samara beradi. Buning uchun stereotiplarning mantiqiy asoslarini, ya’ni tushuncha ichiga kiruvchi hukm va xulosalarning obyektivligini, chinligini ta’minlash lozim. Stereotiplardan omma orasida xoh salbiy, xoh ijobiy maqsadlarda foydanilmasin, uning ichki mohiyatini anglash, doimiy ravishda undagi oʻzgarishlarni tahlil qilib borish asosida yangi bilimlar hosil

qilish mumkin. Bu esa kelajakda boʻladigan stereotiplar bilan bogʻliq boʻladigan ijtimoiy muammolarni oldini olishi mumkin.

## ADABIYOTLAR ROʻYXATI


1. Абдуллаева М. Стереотип ва унинг ижтимоий-психологик асослари // Бердақ номидаги Қорақалпоқ Давлат Университети Ахборотномаси. 2021. – №2(51). – Б. 161-164.
2. Бочкарева А.В. Этнические стереотипы: основные методологические подходы к исследованию и особенности использования психосемантических методов: Дисс. ... канд. социол. наук. – Москва, 2014. – 186 л.
3. Вилинбахова Е. Л. Материалы к курсу лекций «Лингвистическое изучение стереотипов»: учебно-методическое пособие. СПб.: СПбГУ, 2015. – 72 с.
4. Ким Л. Гендер стереотиплари.//Гендер муносабатлар назарияси ва амалиётга кириш (илмий мақолалар тўплами). –Т. "Ўзбекистон". 2007. – Б. 46.
5. Рябова Т.Б. Стереотипы и стереотипизация как проблема гендерных исследований //Опубликовано в: Личность. Культура. Общество. T.V. Вып.1-2. 2003. – С. 13-16.
6. Сорокина Н.В. Методическая типология стереотипов как компонент содержания обучения иностранным языкам в вузе // Язык и культура. – № 3 (23). – 2013. – С. 120-139.
7. Стефаненко Т. Г. Этнопсихология: Учебник для вузов. – М.: Аспект Пресс, 2003. – 368 с.
8. Bordalo P., Coffman K. , Gennaioli N., Shleifer A. Stereotypes //The Quarterly Journal of Economics. 2016. – P. 1753–1794.
9. Donovan McFarlane A. A positive theory of stereotyping and stereotypes: is stereotyping useful?// Journal of studies in social sciences.(ISSN 2201-4624). – 2014. – volume 8, number 1. – P.140-163.
10. Hilton J. L. and Hippel von. W. Stereotypes // Annu Rev. Psychol. 1996. 47 (1): – P. 237-271.
11. Lippman W. Public Opinion. – N.Y., 1950. – P. 79-95.
12. Tajfel, H. Stereotypes// Race, V, 3-14. 1963. – P. 8.
13. Thompson W.E., Hickey J.V. Social Interaction in Everyday Life // Society in focus: an introduction to sociology, 5/e. New York: Longman. – 2005. – P. 119-141.

14. Oxford English Dictionary Online. Definition of Nickname. 2013. Retrieved from http://www.oxforddictionaries.com/definition/english/ nickname
15. Изучение этнических стереотипов / https://studme.org/90325/kulturologiya/izuchenie_etnicheskih_stereotipov
16. Национально-культурные стереотипы: генезис и функции / https://studme.org/.../natsionalnye_kulturnye_stereotipy_genezis_funktsii.
17. Профессиональные стереотипы и мифы о психологах / https://studme.org/272303/.../professionalnye_stereotipy_mify_psihologah

## INTERFAOL TA'LIM METODLAR KREATIVLIKNI RIVOJLANTIRUVCHI OMIL SIFATIDA

***Mirzayeva Feruza***
*Namangan davlat universiteti*
*"Ta'lim tarbiya nazariyasi va metodikasi"*
*(boshlang'ich ta'lim) yo'nalishi magistranti*

***Annotatsiya:*** *Maqolada bo'lajak o'qituvchilarning kreativlik qobiliyatlarini interfaol ta'lim metodlari asosida rivojlantirish orqali kasbiy ijodkorliklariga hamda ta'lim samaradorligiga erishish masalasi bayon qilingan.*

***Kalit so`zlar:*** *interfaol ta'lim, kreativlik sifatlari, bilim, ko'nikma, malaka, kasbiy ijodkorlik, samaradorlik*

***Annotation:*** *The article describes the issue of achieving professional creativity and educational efficiency by developing the creative abilities of future teachers based on interactive educational methods.*

***Key words:*** *interactive learning, qualities of creativity, knowledge, skill, qualification, professional creativity, efficiency*

Bugungi kunda har bir sohada etuk, bilimli, mustaqil ijodiy tafakur bilan fikrlay oladigan, faol va tashabbuskor mutaxassislarni tayyorlash masalasi dolzarb vazifalardan biridir. Albatta bunday vazifani hal etish ta'limning zimmasida ekanligi ahamiyatlidir. Xalqaro standartlar asosidagi oliy malakali

mutaxasssislarni tayyorlash ularning sifat darajasini oshirish uchun oliy ta’lim muassasalarida jahonning yetakchi ilmiy-ta’lim muassasalarining tajribalaridan foydalanish kutilgan natijaga olib kelishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan oliy ta’lim sohasi bo‘yicha o‘rtaga quyilayotgan vazifalarni bajarish ko‘p jihatdan o‘qituvchi shaxsiga bog‘liq [1]. O‘qituvchilik sharafli, lekin juda murakkab kasbdir. Bozor iqtisodiyotiga o‘tish sharoitida ta’lim-tarbiyadan ko‘zda tutilayotgan maqsadga erishish, talabalarning xilma- xil faoliyatini uyushtirish, ularni bilimli, odobli, e’tiqodli, mehnatkash, ishbilarmon, barkamol inson qilib o‘stirish o‘qituvchi zimmasiga yuklatilgan. Xalqimizning kelajagi, O‘zbekistonning istiqboli ko‘p jihatdan o‘qituvchiga, uning saviyasi, tayyorgarligi, fidoyiligiga, yosh avlodni o‘qitish va tarbiyalash ishiga bo‘lgan munosabatiga bog‘liq. Yaxshi o‘qituvchi bo‘lish uchun pedagogik nazariyani egallashning o‘zigina yetarli emas. Chunki pedagogik nazariyada bolalarni o‘qitish va tarbiyalash haqida umumiy qonun-qoidalar, tamoyillar, umumlashtirilgan metodik g‘oyalar bayon etiladi, talabalarning yosh va individual xususiyatlarini e’tiborga olish ta’kidlanadi [2].

O‘qituvchi o‘z fani boyicha yuqori bilimga ega bo‘lsada, lekin ta’lim oluvchilarga o‘z bilimlarini yetkaza olmasligi, darsning samaradorligiga salbiy ta’sir etadi. Barchamizga ma’lumki, pedagog ish faoliyatining natijasi uning o‘zi erishgan yutuqlaridan ko‘ra ta’lim berayotgan o‘quvchilarining muvaffaqqiyatlariga qarab baholanishi ustunroqdir. Pedagog o‘z bilimlarini maksimal darajada ta’lim oluvchilarga yetkazib bera olishida , zamonaviy ta’lim texnologiyalari, texnik vositalar va interfaol ta’lim metodlarining o‘rni beqiyos. Hozirgi zamon talabiga mos darslarni interfaol metodlarsiz tasavvur etish qiyin, lekin interfaol metodlar ta’lim jarayoni samaradorligini kafolatlay oladi deb bolmaydi. Chunki ta’lim jarayonini interfaol metodlar asosida talqin va tahlilga ya’ni ma’lum malumotlarni yetkazib berishga qoliblanishi uning asl imkoniyatlarini chegaralanishiga sabab bo’ladi. Bu esa asosan ta’lim oluvchilarning ta’lim mazmunini yodlab olishi, qayta takrorlab borishi bilan cheklanadi Bunday holda bilim kontseptsiyasi to‘rt bosqichda amalga oshiriladi:

1. Bilim bilan tanishish, ma’lum axborotni tushunib olish, voqealarni bir – birdan ajrata olish;

2. Bilimdan nusxa olish, olgan bilimlarini takrorlash;

3. Bilim, koʻnikma, olgan malakalarini amaliy faoliyatda qoʻllay olish;

4. Bilim – transformatsiya, olgan bilimlarini keyingi yangi bilimlarni, yangi vazifalarni bajarishda qoʻllay olish (ya'ni ijodiy foydalana olish darajasi)dir.[9]

Aslida interfaol metodlar (ing."inter"- o`zaro, ikki taraflama, "act"-harakat qilmoq, ish ko'rmoq) oʻz mohiyatiga kora ta'lim oluvchilarning oʻquv bilish faolligini oshirishi bilan birgalikda yangi bilimlarni oʻzlashtirish asosida ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlanishiga, uygʻonishiga ta'sir etmogi lozim. Shuning uchun ham ta'lim berish jarayonini pedagoglar interfaol metodlarning asl imkoniyatlaridan foydalangan holda tashkillashi bilim kontseptsiyasining toʻrtinchi bosqichini rivojlantirishda ahamiyatlidir.

Interfaol oʻqitish metodlari oʻz ichiga: aqliy hujum, muammoli bayon; Keys-stadi; tadbirkorlik oʻyinlari; POPS-formula; debat; blits-soʻrov; Suqrot dialogi; oʻquv loyihalari; aniq vaziyatlar tahlili (ABT), SWOT-tahlil va boshqalarni qamrab oladi [8].

Ijod – fikrlashning orginal usulining sinonimi, ya'ni odatdagi, chegalarni buzish qobiliyatidir. Ijodiy aql - bu aktiv sinchkov, boshqalar muammolarni koʻrmagan joylarda ularni topa oladigan aqldir.[3]. Pedagog ta'lim oluvchilarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishni maqsad qilib, interfaol metodlarni tasavvur hamda fantaziya bilan boyitib, ta'lim jarayonini tashkillashi ijodiy yutuqqa erishishning talabidir. Zamon talabida asoslanadiga boʻlsak, pedagogning oldidagi muhim vazifa ijodkor yaratuvchi shaxsni tarbiyalashdir. Ta'lim oluvchilarning fanga ma'lum boʻlgan bilimlarning oʻzi bilangina kifoyalanmay, olingan, oʻzlashtirilgan bilimlar zamirida yangi bilimlarni kashf etishlari bilan muhimdir.

Bunga yorqin misol qilib, ulugʻ allomalarimiz Muso al – Xorazmiy matematika fani asoschisi, Al – Fargʻoniyning turli fanlarga tegishli buyuk kashfiyotlari, Al – Farobiyning (70 dan ortiq tillarda erkin soʻzlashgan) tovush tezligi, chastotasi, moddiyat, issiqlik, harakat, optikaga oid kashfiyotlari, Abu Rayhon Beruniyning (qomusiy olim) minerologiya, geodeziya, joʻgʻrofiya, falakkiyot fanlari rivojiga qoʻshgan katta xissalari, Abu Ali ibn Sinoning "Tib qonunlari", "Koʻz anatomiyasi"ga bagʻishlangan kitoblari, Ulugʻbekning "Zijji Koʻrogoniy" asari va

boshqa buyuk allomalarimizning qoldirgan qimmatli asarlari hamda buyuk kashfiyotlari butun jahon xalqlarining umummulkiga aylanmoqda. Allomalarimiz mavjud bilimlarni chuqur va puxta o'rganib, o'zlashtiribgina qolmay, ular o'z ishlariga izlanuvchanlik, (kreativ) ijodkorlik bilan yondashib, juda ko'plab kashfiyotlar qilganlar. Shuning uchun yangilangan didaktikaning vazifasi faqatgina fanga ma'lum bilimlarning o'zini o'rgatish, uni takrorlash bilan cheklanmay, ularni ijodiy, tanqidiy va yaratuvchanlik ruhida ish yuritishlariga sharoit yaratib berishdan iborat.[9].

Kreativlik (lot., ing."create"-yaratish, "creative" yaratuvchi , ijodkor) – individning yangi g'oyalarni ishlab chiqishga tayyorgarlikni tavsiflovchi hamda mustaqil omil sifatida iqtidorlikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati ma'nosini ifodalaydi [4].

Kreativ tafakkur barcha faoliyat turlariga tegishli bo'lib talab eng ko'p bo'lgan , samaradorlikni oshiruvchi qobiliyatlarda biridir. Kreativ fikrlovchi insonlar biron bir manzarani o'zgacharoq tasavvur etadi, hech kim ilg'amagan jihatlarni payqay oladi.

P.Torrens fikricha, "kreativlik " tushunchasi negizida quyidagilar yoritiladi [5]:

- muammoni yoki ilmiy farazlarni ilgari surish;
- farazni tekshirish va o'zgartirish;
- qaror natijalarini shakllantirish asosida muammoni aniqlash;
-muammo yechimini topishda bilim va amaliy harakatlarning o'zaro qarama – qarshiligiga nisbatan ta'sirchanlik.

Mana shunday kreativ tafakkurni rivojlantirish tashkil etilgan darsning qaysi metod va usullardan foydalanganlik darajasiga bog'liq bo'ladi. Ta'lim oluvchilarning mustaqil, faol, ijodiy faoliyatini tashkil etishda pedagogik shart – sharoitlarga amal qilish va interfaol metodlar asosidagi ta'lim alohida o'rin tutadi.

Tadqiqotchi G.Ibragimova interfaol o'qitish jarayonida ta'lim oluvchilarda kreativlikni rivojlantirish bosqichlarini quyidagicha ifodalab o'tgan [6]:

1. Reproduktiv – tavakkalchilik bosqichi. Bu bosqich ta'lim oluvchilarda kreativ faoliyat, kreativ faollik va ijodkorlikka bolgan moyillikni qaror toptirish, ta'limdagi

innovatsion texnologiyalarning mahiyatini anglash va yangi g'oyalarni tug'ilishi, shaklllanishi bilan tavsiflanadi.

2. Ijodiy – izlanish tadqiqotchilik bosqichi. Ta'lim oluvchilardagi tadqiqotchilik, ijodiy faollik, nostandart tafakkur, bilish mustaqilligi, improvizatsiya, yangilik yaratish ko'nikmalarining shakllanishi bilan belgilanadi.

3. Kreativlik, novatorlik bosqichi. Yaratilgan yangilikni amalda qollash, baholash, tahlil qilish, ommalashtirish va uni keng tadbiq etish hamda istiqbolga yo'naltirilgan strategik rejalarni tuzish bilan bog'liq jarayonlarni o'z ichiga oladi.

Ta'lim jarayonini kuzatadigan bo'lsak, kreativlik bo'lajak pedagoglarning ( ayniqsa, amaliy mashg'ulotlarda) faoliyatida tez-tez ko'zga tashlanadi, buni o'quv – biluv jarayonini ijodkorlikka yo'naltirilganligi, ularning faolligiga, yaratuvchanlik qobiliyatlarini oshib borishiga turtki bo'layotganligi bilan izohlash mumkin. Bu holat ularni kelgusida ijodiy yutuqlarga erishishlariga zamin yaratadi. Umuman shaxs faoliyatida yaratuvchanlik, ijodiy fikrlash asosida har qanday muammoli vaziyatni o'z vaqtida hal etsa, ular uchun asta – sekin ko'nikma va malakaga aylana boradi.

Har qanday ko'nikmani shakllantirish mumkin bo'lganiday, kreativ fikrlash qobiliyati yoki ko'nikmasini ham rivojlantirish mumkin. Bu talabalarga ham taalluqli bolib, kreativlik ustida ishlash talabalarga noodatiy tarzda fikrlashga yordam beradi. Biroq talabalarni ruhlantirish va kreativ bo'lishga undash o'qituvchining qay darajada malakali ekanligiga bog'liq[7].

Ta'lim beruvchilar mashg'ulotlarni interfaol metodlarni asl imkoniyatlaridan foydalanib ijodiy yondashgan holda talabalarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishni maqsad qilib tashkillashi, bu borada ularda malaka hamda ko'nikmalar shakllanishiga olib keladi. O'z navbatida bo'lajak ta'lim beruvchilar o'zlarida shakllangan bunday noyob qobiliyatni o'sib kelayotgangan yosh avlodga singdirib, ta'lim samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatishlari tabiiydir

## Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. "O'zbekiston" NMIU, 2017. - 47 b.

2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. "O'zbekiston" NMIU, 2017. - 485 bet.

3. R.Mavlyanova,N.Raxmanqulova “Boshlangich ta’lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiyasi” – T.: “Voris-Nashriyot”,2013
4. Ҳасанбоев Ж., Тўрақулов Х., Хайдаров М., Ҳасанбоева ., Усманов Н.
Педагогика фанидан изоҳли луғат - Т.: «Фан ва технологиялар», 2009. – Б.236
5. Дружинін, Н., Козленко, В., Кравчук, П., Ляхова, Л., Медник, С., Моляко, В.,
... & Харрингтон, Д. СТРУКТУРНІ СКЛАДОВІ КРЕАТИВНОГО ПОТЕНЦІАЛУ НАУКОВО-ПЕДАГОГІЧНИХ ПРАЦІВНИКІ
6. Янгирова, В. М., Ибрагимова, Г. Ф., & Сандалова, Н. Н. (2021). Освоение компетенции «преподавание в младших классах» бакалаврами педагогики по стандартам worldskills. Педагогический журнал Башкортостана, (1 (91)), Б.153
7. Муслимов Н.А. ва бошқалар. Касб таълими ўқитувчиларининг касбий компетентлигини шаклланти-риш технологияси / Монография. – Т.: «Фан ва техноло-гия» нашриёти, 2013. – Б.14.
8. Ibragimova.M.N “ИНТЕРФАОЛ ЎҚИТИШ МЕТОДЛАРИ ВА ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ АСОСИДА ТАЛАБАЛАРНИНГ КРЕАТИВЛИК ҚОБИЛИЯТЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ”(PhD) Dissertatsiyasi avtoreferati-T-2017
9. https://www.hufocw.org

# APPLICATION OF NEW PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES AND INNOVATIONS IN THE EDUCATIONAL PROCESS

***Mirzabdullayeva Gulnora Muhammadjon’s daughter***
*Namangan State University*
*1st stage foundation doctorate*
*Phone number: +998995174980*

***Abstract:*** *In this work, special attention is paid to the introduction of advanced pedagogical technologies in reforming the content of education and bringing it into line with world educational standards. In particular, the need to*

*"provide the educational process with advanced pedagogical technologies" is also specified in the national personnel training program.*

***Key words and concepts:*** *Technology, teaching technologies, pedagogical technology, computer technology, education.*

Today's scientific and technical development requires the introduction of new technologies not only in numerous branches of production, but also in the field of cultural, social and humanitarian knowledge, and education. Therefore, one of the issues that has attracted attention in recent years is pedagogical technology.

As our first president Islam Karimov said, "We always believe that the future of our country depends on how our young generations are brought up, what spiritual qualities they grow up with, how active they are in the lives of our children, and what high goals they serve." We must keep in mind" For this reason, first of all, it is necessary to expand and deepen the content of education and its structure, in particular, it is necessary to include not only knowledge, skills and competences, but also the experience of creative activities that make up universal human culture, and relationships with the environment.

In short, a new approach to the design of the educational process based on the new educational system, content, State educational standards, textbooks and training manuals is necessary.

Special attention was paid to the introduction of advanced pedagogical technologies while reforming the content of education and bringing it into line with world educational standards. In particular, the need to "provide the educational process with advanced pedagogical technologies" is also specified in the national personnel training program.

"The word technology entered the science in 1872. It is composed of the Greek words: technos" - art, craft and "logos" - science. " word can come in the meanings of art, accomplishment, skill.

The initial interest in the technological approach to teaching, that is, in ensuring that the educational process is as repetitive as the production process, was carried out by American pedagogues in the 50s of the 20th century. In particular,

the phrase "educational technology" was used for the first time by the American scientist B. Skinner.

Today, adding words such as "New", "Advanced", "Progressive" to the concept of "Pedagogical technology" has a relative meaning, a single interpretation of this concept has not been developed. Today, the concept of "pedagogical technologies" is defined differently in world pedagogy. The international organization UNESCO defines a teacher of pedagogical technology as follows:

"Pedagogical technology" is a systematic method of creating, applying and determining the process of teaching and acquiring knowledge, taking into account human and technical resources and their interaction to optimize forms of education. To put it simply, pedagogical technology is a unique new approach to teaching, i.e. facilitation of educational forms.

The beginning of the use of teaching machines was the impetus for the formation of pedagogical technology. The development of technical tools in world pedagogy, their inclusion of all students in the room, the increase of information capacity and the ability to transfer information, the individualization of educational information transfer have further increased the possibilities of education. The introduction of television, radio instead of radio, computerized system of information form, "Internet" network, laser communication channel, microelectronic devices and other new media into the educational system led to the emergence of such concepts as "Computer technology". will bring.

It should be noted that "Pedagogical technology" should not be combined with the concept of "Educational technology". Because, in the pedagogical technology, the process is designed, starting from the determination of the specified educational goals of the educational process, until the control of the achievement of the final educational results. "Teaching technologies" (problematic teaching, developmental education, modular teaching, didactic games, etc.) appear as didactic constructions of the educational process designed according to pedagogical technology.

The essence of pedagogical technologies is to abandon the traditional oral teaching method and encourage students to learn more independently. In this case, the teacher acts as a consultant of the manager of students' cognitive activities, a guide to the final result.

Today, teachers often cannot distinguish methodology from technology.

Methodology - consists of a set of recommendations on the organization and conduct of the educational process. The goal of the methodology is to transfer and apply the theories related to scientific subjects to concrete phenomena.

Pedagogical technology is to organize the interrelated parts of the teaching process from an organizational point of view, to build stages, to determine the conditions for their introduction, to ensure the achievement of the set goal, taking into account the available opportunities, or pedagogical technology is to enable the teacher to complete his professional activity and It is a set of procedures that guarantee the final result.

Technology - It differs from methodology by its flexibility, stability of results, efficiency, and the need for advance planning.

Currently, in our republic and in foreign countries, great importance is attached to the production of advanced pedagogical technologies and their implementation in the educational system, various new pedagogical technologies projects are being created. The following projects are recognized as promising new pedagogical technology projects.

**Literature**

1. 2. Ishmuhamedov R. Innovation in education.-T.: Science, 2010.

2. 3. Sh. Kurbanov, E. Seytkhalilov. Quality management of education. Tashkent. "Turon-Iqbal", 2006

3. 4. Kh. Ibragimov. Improving the effectiveness of the content modernization of the continuing education system is the demand of the times. Educational problems. Scientific-methodological journal. Tashkent, 2011, No. 2

# ВОЗНИКНОВЕНИЕ УЗБЕКСКОГО ФОЛЬКЛОРА И ЕГО ОСОБЕННОСТИ

***Зокиржонов Аббосбек Зокиржонич***

*Студент Наманганского государственного университета*

*abbosbekzokirjonov99@gmail.com*

***Аннотация:*** *В данной статье представлены сведения о возникновении и развитии узбекского фольклора, его изучении учеными, написании произведений, посвященных фольклору.*

***Ключевые слова:*** *художественное слово, фольклор, фольклористика, эстетика, «Девону Лугатит-Туркиш», эпос, поэтика, анонимность, вымысел.*

С древних времен творческие люди верили в характер и привлекательность художественного слова в воспитании подрастающего поколения. Свои самые уникальные произведения он создал чудом слова. Художественное слово увековечило все духовное богатство народа. Даже когда люди не знали, что такое письмо, люди умели играть, смеяться и рисовать портреты. Наука, изучающая народное творчество, называется фольклористикой или фольклористикой.

История изучения фольклора не ограничивается наблюдением за подходом к нему в научных целях, но требует и учета литературных интересов деятелей науки и культуры, по-разному относящихся к нему в развитии человеческой мысли. В этом смысле основы фольклористики восходят к эстетическому мышлению античного мира. Для фольклористики важны записи туристов и историков древнего мира о легендах и сказаниях, различных традициях и обрядах, первые мысли писателей и композиторов о фольклоре. Первые опыты записи фольклорных образцов относятся к XI веку. Примером тому являются фольклорные примеры в произведении «Девону Лугатит-тюрк» знаменитого Кашгари.

Книгу «Тысяча ночей», представляющую собой сборник народных сказок и легенд из регионов Арабского Халифата, можно назвать уникальным опытом собирания фольклорных образцов.

Рост научного интереса к фольклору в Европе в конце 18 — начале 19 вв. обусловил бурное развитие собирательства и публикации образцов народного творчества и его реального изучения.

Европейские туристы, послы и ученые, жившие во второй половине прошлого века и начале XX века, первыми записали, проверили и опубликовали некоторые образцы узбекского фольклора. Их дневники и

произведения содержат важные записи о быте, обычаях и устном творчестве узбекского народа; описываются его впечатления от народных игр, клоунады, любопытства, выборов; записаны детали некоторых устных драм и некоторых сказок.

В 20-х годах 20 века всерьез началось собирание и изучение узбекского народного творчества.

Узбекский фольклор добился больших успехов в первые годы своего существования. Наши ученые смотрели на народных исполнителей как на творцов и делали прекрасные наблюдения. выдвинули мысль о том, что эпические произведения следует изучать непосредственно в связи с местом, где они поются, условиями и самим певцом. Такой методологически правильный подход к изучению народного творчества проявляется в статьях Хади Зарифа (1905-1972) о народных дарах(1).

Другой характерной чертой периода становления узбекского фольклористики является внимание, уделяемое развитию фольклорного текстологии.

Помимо сбора и изучения народного творчества, необходимо его издавать и заново представлять народу. В данном случае в качестве примеров можно привести термин «Алла», записанный Гази Олимом от его последователя Джуманбюльбюля, «Ташкент», записанный Хади Зарифом от сына Фазиля Юлдоша, и эпос «Шайбани хан», рассказанный Полканом(2).

Таким образом, во второй половине 20-х годов наука об узбекском фольклористике обрела свое научное направление и была создана ее основа.

В монографии «Узбекские сатирические сказки» (1974) фольклориста К.Имомова важными вопросами являются жанровые особенности таких сказок, традиционный зачетный мотив, комический герой, социальный мотив и конфликт, художественные особенности и судьба сатирических сказок. , связь между сказками и былинами. Г. В монографии Джалолова «Поэтика узбекских народных сказок» (1976) анализируется генезис и морфология сказок-волшебников(3).

Народное творчество – древнейший вид художественной литературы. Узбекский фольклор имеет ряд своих особенностей, как и в устных

произведениях всех народов мира. Эти признаки и характеристики в основном являются отличительными чертами образцов устного творчества от письменных произведений литературы. Фольклористы по-разному относятся к их ордену. Например,

Первым признаком фольклора О. Мадев считает традиционность. Мы согласны со сторонниками следующей процедуры:

1. Устная речь и вымысел.
2. Сообщество и общественность.
3. Традиционность.
4. Мультиплексирование и работа в сети.
5. Анонимность.

Устность и художественная выразительность связаны с формальным обликом произведений устного творчества. Былины, сказки, песни, пословицы и другие произведения, дошедшие до нас на протяжении веков, создавались устно, передавались из поколения в поколение и стали устным наследием народной культуры. Наблюдения, сделанные на протяжении многих лет над изучением примеров устного творчества, подтверждают наличие положительных и отрицательных сторон устного творчества. На наш взгляд, сарафанное радио имеет положительное значение в распространении народного творчества в массах и в его широком распространении. Потому что исполнение произведений в такой форме не накладывает на исполнителя чрезмерной ответственности. Но следует отметить и вторую сторону вопроса, в частности, потому что некоторые произведения исполняются устно, со смертью исполнителя жизнь произведения прекращается и забывается.

В связи с тем, что некоторые образцы творчества не были освоены учащимися или не были зафиксированы учеными, они со временем забываются, произведение теряется.

Бадихагой – это знак, вытекающий из природы непосредственной устности в народном творчестве. Художественной литературы в письменном произведении не существует, потому что процесс письма связан с индивидуальным творчеством. Нарратив проявляется в связи со слушающей аудиторией. Жанр аския в фольклоре невозможно представить без бадихи.

Также во время исполнения былин, сказок и других образцов фольклора исполнитель может постепенно изменять текст произведения, иногда придумывать новые сцены, отказываться от некоторых из них.

В ходе фольклорных экспедиций мы были свидетелями того, что некоторые поэты-певцы бадихаго плетут отдельные четверостишия для каждого участника экспедиции. Можно сказать, что значимость бадихаго в создании новых копий былин, сказок и фольклорных образцов в целом значительна.

Понятие общности и публичности также является важным признаком в народном творчестве. Здесь необходимо подчеркнуть, что создание произведения связано с сообществом, а его распространение в народе связано с общественностью. Возникновение каждого произведения народного творчества, его совершенствование как жанра, воздействие на народ как образца речевого искусства определяются участием коллектива. Есть разница между понятием совместной работы в фольклоре и понятием совместной работы при выполнении какой-либо физической работы. По мнению ученых-фольклористов, можно собирать хлопок в команде, строить здание, но нельзя создать работу непосредственно в команде. В образовании былин и сказок понятие коллективности имеет относительное значение. Потому что первую задачу в создании фольклорного произведения выполняет человек, обладающий способностью творить. Однако в результате многолетнего устного исполнения оригинального произведения, созданного личностью, в него неоднократно вносятся изменения другими талантливыми детьми нации, в результате чего оно формируется как коллективное произведение.

Наблюдения ученых подтверждают, что даже во время исполнения слушатели вносят изменения в экземпляр произведения, выражая свой интерес к изображенным в произведении событиям. Мы думаем, что этот процесс можно будет связать с символом коллективности в фольклоре. Поэтому понятия коллективности и индивидуального творчества в народном творчестве не отрицают друг друга. Популярность связана с распространением созданного фольклорного образца во всех регионах проживания народных представителей. Правда, иногда эти регионы могут быть ограничены исторически и этнографически. Например, произведения эпоса, сказки, аския и других жанров

исполняются не во всех регионах Узбекистана одинаково. Но, несмотря на это, популярность произведений подтверждает принадлежность каждого образца к культурному наследию узбекского народа.

Традиционность – одна из главных черт народного творчества, проверенная жизненным опытом на протяжении веков. Как мы уже упоминали выше, ученый-фольклорист Омонилла Мадаев считает традиционность главной и первой чертой фольклора. Дело в том, что исполнение былин, сказаний, песен, аскиев, загадок, являющихся основным средством отдыха и культурного отдыха народа, издревле подчиняется определенной традиции.

Таким образом, как мы отмечали выше, народное творчество имеет пять специфических признаков. Эти особенности являются признаками, отличающими произведения устного творчества от письменной литературы, и в то же время народное творчество от других видов искусства. Также необходимо подчеркнуть, что есть и другие характеристики фольклора, отличные от письменной литературы. Например, в фольклоре преобладает относительно романтический и фантастический образный стиль. Большинство фольклорных произведений заканчиваются на высокой ноте. Например, традиционные концовки в узбекских сказках: «Семь ночей и семь дней свадьбы — смотри и достигай своих целей», «Старик — старуха — достигай своих целей, дружи и живи в той стране «живых лохов».

**Использованная литература:**

1. Хайдаров З. Учебно-методическое пособие «Музееведение», Наманган, 2022 г.
2. https://uz.wikipedia.org/wiki/Музей
3. Хайдаров З. Учебно-методическое пособие «Музееведение», Наманган, 2022 г.

## THE PLACE OF FOLK SPECTACULAR ART IN THE SPIRITUALITY OF THE NATION

***Zokirjonov Abbosbek***
*Student of Namangan State University*
*abbosbekzokirjonov99@gmail.com*

***Abstract:*** *In this article, opinions about folk performance art, as well as the role of folk performance art in the spirituality of the nation, are reflected.*

***Key words:*** *Folklore, idealizer, tendency, position.*

For many years, our folklore studies has taken a great and complex path of development and has taken a worthy place among social sciences. His development path was definitely not smooth. Folklore has achieved commendable achievements in the recording, publication and scientific research of examples of oral creativity, such as the Alpomish saga, Shashmaqom music, idealizing or, on the contrary, completely denying folk creativity. But to tell the truth, Uzbek folklore has been developing unilaterally for a long time (as a part of literary studies and ethnography). This situation was mainly caused by a misunderstanding of the term "folklore".

For a hundred years, "what is folklore?" There is a heated debate around the question. Although Russian folklorists have clarified the issue a little, the debate is still ongoing. Mistakes often arise from different understandings of the so-called "folklore". Previously, the concept of folklore included traditions and proverbs of ancient times. In the following periods, two conflicting trends appeared in defining the object of folklore and the scope of the concept: one considered the entire folk culture as folklore and greatly expanded the scope of the concept, the other limited the object of folklore to only works related to the artistic word, and extremely narrowed down.

The first tendency mixes folklore with ethnography, while the second interprets it only from the position of literary studies. Both tendencies are not correct, of course. In recent years, folklore has been described as "folk creativity", "folk oral creativity", "folk art". Among them, in our opinion, the concept of "folk art" more accurately expresses the essence of folklore. But even then, folklore is not the entire folk art (for example, folk practical and decorative art is not included in it), but according to the definition of folklorist V. Ye. - is a part of artistic reflection in choreographic and dramatic forms. In other words, folklore studies as a science is not limited to the creation of artistic words of the people (such as proverbs, anecdotes, fairy tales, epics, legends, riddles), but the creation of music (song, tune,

yalla, chant, yor-yor, alla, folk musical instruments and khakozo) and folk performing arts (such as folk theater, dance, circus) should also be studied.

In Uzbek folklore studies, philological, musical and "stage" (theatre) directions, which work on three main objects related to each other, have been decided. The service, level, and reputation of these directions are not the same. Since then, philological folklore studies, founded by H.T. Zarifov, has dozens of highly qualified specialists, has carried out many important works in the leading areas of science, including collection, study and publication, has gained great scientific experience, and has been formed as a school. V.M. Due to the consistent work of musicologists such as Belyaev, V.A.Uspensky, N.N.Mironov, Ye.ye.Romanovskaya, Yu.Rajabiy, Il.Akbarov, F.M.Karomatov, K.A.Ahmedova on folk music, musical folklore was formed. Professional theater in the oral tradition, "stage" performances, folk dances, and circus games associated with ritual and customs have not been as consistent. But in the last twenty years, the expedition and scientific research work carried out by theater scholars led to the emergence of a unique "stage" folklore study on the basis of folklore and theater studies.

First of all, about the concept of "folk performance art". In the past, folk artists performed on the occasion of Nowruz holiday, harvest festival, folk ceremonies, holidays and weddings. Performances of clowns and amateurs performed together or side by side in parks and wedding halls where thousands of people gather, puppetry, gatekeeping, goat, race, wrestling, blindfolding, trickery, hanging, dancing, Mooring, bear, goat, elephant, monkey, snake playing, ram, cock, quail fighting, etc. are among them. They actually belong to traditional theater, folk dance, circus art and even sports, and although each of them is independent in itself, they form a whole artistic organism due to the performance form (spectacle and fun), intended for a mass audience. was doing. Therefore, they can be called "folk performance art".

Of course, people's artists have been fighting for their rights. Advanced-minded scientists, poets, scholars came to them and tried to protect them from unfair slanders, taunts, persecution and oppression, and promoted democratic views on art and folk performances. However, the people's artist still did not get rid of

persecution, pressure, slander, and lived in strange poverty. No one was interested in organizing, developing and leading folk art.

Three periods are visible in the study of the performance art of the Uzbek people. The first practical period associated with writing and artistry. During this period, Kh.Kh.Niyazi, followed by A.Qadiri, G'.Zafari, K.Yashin, S.Abdulla, and others created works of art that accurately reflect social life and can be enjoyed by readers and viewers. they studied people's life, customs, oral art, and in this connection, they were also the first researchers of the performing arts. The writers' observations, knowledge, and recorded examples of the art of spectacle were embedded in the content and form of most of their works. Khamza's comedy "Maysara's Work" and A. Qadiri's novel "Mehrobdan Chayan" are vivid examples of this. In addition, writers and artists tried to express the views of the Uzbek people about the performing arts in the form of articles. In this place, it is necessary to mention G. Zafari's "Uzbek People's Theater" and A. Qadiri's "About Laughter" (1926). After all, for the first time, they have an objective opinion about the art of spectacle, its leading type, the theater of clowns and amateurs. In particular, A. Qadiri's comments are noteworthy, because he tries to interpret art forms related to laughter, that is, satire and humor, from the point of view of social life and class.

The second period in the study of performing arts is the ethnographic-folkloristic period. In this regard, "Dorboz" by A.K. Borovkov, "Puppet Theater in Uzbekistan" by M.F. Gavrilov, "People's Theater in Uzbekistan" by A.L. Troitskaya, "Big o" by Ye.B. It is impossible not to mention the large manuscript-researches named "yin". The merit of these works is that they are described in connection with the paintings of the performing arts. At the same time, they have shortcomings such as not being able to reveal the specific features of each art, not being able to see the components that make it up, and finally, showing weakness in analyzing the skills of the artists of this field In some ethnographic and folkloristic works, one can see the tendency to interpret the past life of the performance art as an unchanging, fixed, single event. Also, sometimes this or that type of art is shown to be subordinate to Iran due to its origin, and its independence is questioned. A.L. Troitskaya's work on folk theater and circus can be cited as an example.

The third period is the period of art historians. Art historians relied on the treasure collected by ethnographers in the study of performing arts and tried to enrich it as much as they could. It started with taking the Institute of Art Studies named after Hamza under the care of the Academy of Sciences of Uzbekistan. During these years, theater experts, art experts, musicologists, and dance experts have developed. A number of scientific works created by them not only gained importance in the study of the history of performing arts based on scientific methodology, but also made a significant contribution to the formation and development of art studies in our republic.

**References:**

1. Dictionary of english language and culture / director- summers. Pearson longman. 2005.
2. Khaidarov Z. "Intangible cultural heritage" educational and methodological manual, Namangan, 2022

## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING TURIZM SALOHIYATI VA UNI OSHIRISH YO'LLARI

***Ismoilov Jaloliddin Kamoliddin o'g'li***
*Namangan davlat universiteti*
*Geografiya yo'nalishi -bosqich talabasi*
*E-mail: ismoilovjaloliddin5@gmail.com*

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada respublikamizda turizm sohasini barqaror rivojlanishi, iqtisodiyotda yuqori daromad manbai bo'la olishi, ichki turizm sohalarini katta imkoniyatlarini kengaytirish, turizm sohasidagi xizmat ko'rsatish sohalarini jahon standartlari darajasiga ko'tarish va sayyohlar oqimini ko'paytirish kabi ishlarni o'z ichiga olgan.*

***Kalit so'zlar:*** *Sayyohlik, madaniy turizm, madaniy yodgorlik, jahon standarti, turizm xizmati darajasi, xizmatlar eksporti, ijtimoiy soha, xususiy tadbirkorlik.*

***Annotation:*** *In this article, the sustainable development of the tourism industry in our republic, its ability to become a source of high income in the economy, the expansion of the great opportunities of the domestic tourism industry, the raising of the service industry in the field of tourism to the level of world standards and touristsincluding works such as increasing the flow.*

***Key words:*** *Tourism, cultural tourism, cultural monument, world standard, level of tourism service, export of services, social sphere, private entrepreneurship*

***Аннотация:*** *В данной статье рассматриваются устойчивое развитие туристической отрасли в нашей республике, ее способность стать источником высоких доходов в экономике, расширение отечественной туристической отрасли, поднятие сферы услуг в сфере туризма на обсуждается уровень мировых стандартов, а также увеличение потока туристов.*

***Ключевые слова:*** *Туризм, культурный туризм, памятник культуры, мировой стандарт, уровень туристического обслуживания, экспорт услуг, социальная сфера, частное предпринимательство.*

Turizm (sayyohlik) tarmog`i - jahon iqtisodiyotining tez rivojlanayotgan sohalaridan biridir. Sayyohlik sohasida taraqqiyotga erishgan ba`zi mamlakatlarning asosiy darmoad manbai ham aynan turizm hisoblanadi. Mamlakatimiz ko`plab sohalar kabi turizim sohasida ham katta imkoniyatlarga ega davlat. O`zbekistonda turizim sohasining 10 ga yaqin turi mavjud bo`lib, ular orasida madaniy (tarixiy shaharlar va madaniy yodgorliklarni ziyorat qilish) turizm yetakchilar qatorida turadi. 2017-yil 22-dekabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev parlamentga Murojaatida barcha sohalar qatorida turizm sanoati borasida ham quyidagi fikrlarni bildirdi: «Hozirgi kunda milliy iqtisodiyotga yuqori daromad keltiradigan istiqbolli tarmoqlardan biri – bu turizmdir. O'zbekiston turizm sohasida dunyo bo'yicha ulkan salohiyatga ega bo'lgan davlat hisoblanadi. Yurtimizda 7300 dan ortiq madaniy meros obektlari mavjud va ularning qariyb 200 tasi YuNESKO ro'yxatiga kiritilgan. Samarqand, Buxoro, Toshkent shaharlaridagi muqaddas qadamjolar va yodgorliklarni ziyorat

qilish dasturini rivojlantirish va jadallashtirish zarur. Ichki turizm sohasidagi katta imkoniyatlarni ham to‘liq ishga solish lozim»[1].

Sayyohlik sohasi bugungi kunda mamlakat iqtisodiga katta daromad keltiradigan sohaga aylangan. Shu sababdan jahonning ko`plab mamlakatlari turizmi sohasini rivojlantirish, sohada yangiliklar qilish, xizmat ko`rsatish sohasini jahon standartalari darajasiga ko`tarish va sayyohlar sonini oshirish bo`yicha chora tadbirlar ishlab chiqmoqda.

Afsuski, O‘zbekiston bu sohada hali ancha orqada ekanligini ko‘rish mumkin. Xususan, Butunjahon turizm va sayohatlar bo‘yicha kengashi (BTSK) tomonidan berilgan bahoga ko‘ra, O‘zbekiston sayyohlar tashrifi bo‘yicha dunyo mamlakatlari orasida 150-o‘rinni egallaydi. Ma'lumotlarga ko‘ra, turizm sohasi mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotidagi ulushi 2,3 foiz bo`lib, bu ancha past ko`rsatgich hisoblanadi.

Shu sababli prezidentimiz tomonidan turizm sohasini rivojlantirish uchun farmon qabul qilindi. Unga ko`ra turizm sohasining joriy holati tahlil qilinib, uni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari belgilab olindi. 2019 — 2025-yillarga mo`ljallangan turizm sohasini rivojlantirish Konsepsiyasi qabul qilinib, har bir yilga mo`ljallangan chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqildi. Sayyohlar sonini oshirish uchun ba`zi xorijiy davlatlarga 30 kun muddatga vizasiz rejim joriy qilish, xorijiy fuqarolarning ayrim guruhlari uchun qo‘shimcha (elektron bo‘lmagan) kirish vizalari toifalarini joriy etish kabi yengilliklar yaratildi. Shu bilan birga, O‘zbekistonning logistika jozibadorligini tubdan yaxshilash, shuningdek, mahalliy aeroportlarda parvozlarga xorijiy aviakompaniyalarni jalb etish bo`yicha choralari ko`rish belgilandi. Shu qatorda, sayyohlik bozorida turistlarga qulay sharoit yaratish, servis xizmatini yaxshilash, sayyohlik obidalarining jozibadorligini oshirish va reklamani kuchaytirish orqali ham o`z o`rnini mustahkamlash va rivojlanish mumkin[2].

2022-yilda MDH davlatlaridan respublikamizga tashrif buyurgan fuqarolar soni 2021-yilga nisbatan 2,9 barobarga, boshqa mamlakatlardan kelganlar soni esa 58,1 %ga oshdi(1-rasm).

2022-yilda O‘zbekiston Respublikasiga MDH davlatlaridan 4 968,1 ming kishi tashrif buyurib, bu jami kelganlarning 94,9 %ini tashkil etdi, boshqa davlatlardan –

264,7 ming kishi (5,1 %) tashrif buyurgan.2022-yilning yanvar- dekabr oylarida O'zbekistonga kelgan chet el fuqarolari safar maqsadini o'qish uchun deb belgilaganlar soni 8,8 ming kishiga (jami kelganlarning 0,2 % i) teng, tijorat maqsadida kelganlar –20,4 ming kishi (0,4 %), davolanish uchun –70,0 ming kishi(1,3 %), xizmat safari uchun –83,8 ming kishi (1,6 %), bo'sh vaqt va dam olish uchun –392,2 ming kishi (7,5 % ga to'g'ri kelgan).




**1-rasm. O'zbekiston Respublikasida MDH davlatlaridan tashrif buyurgan fuqarolar soni, ming kishi[3].**

Hozirgi vaqtda turizm jahon iqtisodiyotida tez sur'atlarda o'sayotgan va xizmatlar eksporti sohasiga aylanib bormoqa. Jahon turizmi buyicha Manila deklaratsiyasida "Turizm faoliyat sifatida mamlakatlarning ijtimoiy, madaniy, ta'lim va iqtisodiy sohalariga va ularning xalqaro aloqalariga to'g'ridan-to'g'ri ta'siri ko'rsatgan holda xalqlar hayotida muhim ahamiyat kasb etadi" deya e'tirof etilgan. Ushbu holat turizmning milliy davlatlarning ijtimoiy hayotida alohida o'ringa egaligi va chuqur kirib borayotganligi hamda istiqbolli soha sifatida yuqori o'ringa ega bo'layotganligini turizm va rekreatsiyaga xos uning turli xil funksiyalarini tadqiq qilish asosida tushunish mumkin. Turizm sohasi rivojlanishining iqtisodiy funksiyasi turistlarning turistik xizmatlarga bo'lgan talab va ehtiyojlari orqali shakllanadi. Doimiy yashash joyidan uzoqda bo'lgan turistlarning ehtiyojlari uch guruhga, ya'ni asosiy, o'ziga xos va qo'shimcha ehtiyojlarga ajratiladi.

Mamlakatimizda turizmni samarali rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan choralarning muhim ijobiy natijalari quyidagilarda namoyon bo'ladi: turizm sohasini rivojlanish konsepsiyasini ishlab chiqish, Markaziy Osiyo davlatlari va uzoq xorijiy mamlakatar bilan aloqalarni mustahkamlash, turizm infratuzilmasini rivojlantirish, turizm sohasida xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash kabi yo'nalishlar.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, hozirgi vaqtda turizm ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning real katalizatori hisoblanadi. Biroq, mamlakatimizda mavjud turistik salohiyatni oshirishga yetarlicha baho bermaslik mazkur sohada amalga oshirilayotgan islohotlar samaradorligini pasayishiga olib kelmoqda. Sayyohlik agentliklarini, shuningdek kelajakda xizmatlarni diversifikatsiyalash va rag'batlantirishga ta'sir ko'rsatadigan texnik innovatsiyalardan to'liq foyda olish, xarajatlar samaradorligini oshirish, mehnatni va iqtisodiy faoliyatni rag'batlantirishga yordam beradigan muammolarni hal qilishning zamonaviy tahliliy usullari va yondashuvlaridan yetarli darajada foydalanish lozim.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Sh.M. Mirziyoyev – parlamentga Murojaati 2017-yil 22-dekabr
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 05.01.2019 yildagi PF-5611-son Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

# YANGI O'ZBEKISTONDA MILLIY HARAKTER VA MA'NAVIY YUKSALISH JARAYONLARI

***Erkinboyev Sohibjon Nurdinovich***

*Namangan davlat pedagogika instituti Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o`qitish metodikasi kafedrasi 70112101-Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish metodikasi (ma'naviyat asoslari) mutaxassisligi magistranti*

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqola bugungi kunda jamiyat hayotining asosi va uning barqaror taraqqiyoti uchun zaruriy xususiyat va harakter kasb etgan ma'naviyat va milliy harakter, uning o'ziga xos xususiyatlari va bugungi kunda unga bo'lgan ehtiyoj masalalaridagi fikr mulohazalardan iborat.*

***Kalit so'z:*** *globallashuv, ijtimoiy harakter, pozitsiya, ma'naviyat, qaror, strategiya, demokratiya*

Dunyoning qay tarafiga nazar solmang har qaysi millat hamda jamiyat hayotida o'ziga xos jihatlar, uning tarixiy taraqqiyot va uzoq yillar davomida ajdodlardan avlodlarga o'tib kelgan milliy an'analari va qadriyatlari tizimi, milliy xususiyatlari hamda xarakterini ko'rish mumkin. Ushbu jarayonlar bevosita jamiyatdagi ijtimoiy barqarorlik va milliy totuvlikni ta'minlash, mental xususiyatlar va xarakterni saqlab qolish jarayonida asosiy dastak vazifasini o'taydi. Milliy qadriyatlar va an'analar, umuman olganda barcha milliy xususiyatlar jamiyat hamda insonlar hayot tarzining asosini belgilovchi omillardan hisoblanadi. Milliylik elementlari maishiy turmush tarzi, mehnat faoliyati, odob-axloq, ijtimoiy munosabatlar va boshqa jihatlarda bir qator o'z ta'sirini ko'rsatmasdan qolmaydi. Aslini olganda esa har bir milllat mentaliteti shu millat taqdiri, ertasini belgilab beruvchi vosita ham hisoblanadi. Jamiyat hayotida ma'lum bir davrdan boshlab toki hozirgi kunga qadar bosib o'tilgan mashaqqatli va sinovli, achchiq hamda shirin, ibratli va hikmatli kunlar shu jamiyatning, shu millatning orzu umidi, an'analari, qadriyatlari, maqsad motivida, bir so'z bilan aytganda milliy g'oyasida o'z aksini topadi deyish mumkin. Milliy g'oya – bu har bir millatning ezgu orzu-intilishlari, maqsadlari va ideallarining milliy qadriyatida, urf-odat va an'analarida, turmush tarzi va hayot faoliyatining barcha sohalarida aks etuvchi abstrakt tushuncha sifatida har bir millatning qalbini anglatuvchi g'oyalar yig'indisi, majmui hisoblanadi. Milliy g'oyaning asosini tarixiy taraqqiyot, e'tiqod va

muayyan davr sivilizatsiyasi, yutuqlar va milliy ruh uyg'unligi, mintaqaviy xususiyatlar va mental jihatlarning birikmasi hosil qiladi. Milliy g'oya jamiyat ijtimoiy muhiti va jarayonlarining, turli tabiiy va ijtimoiy hodisalar, tabiiy jarayonlarda yuz berishi mumkin bo'lgan voqeliklarning yechimini o'zida ma'lum badiiy ideallar asosida shakllantirgan jihatdir. O'z oldiga muayyan davrning mukammal pozitsiyasini namoyon qilgan milliy g'oya ushbu muammolar yechimini topgunga qadar bosh maqsad, strategiya vazifasini o'taydi hamda davrlar o'tishi bilan yangi bir ijtimoiy komillik darajasini o'zida aks ettirgan, yana ham yuqori istiqbollarni belgilab beradi. Umuman olganda jamiyatning va millatning ruhi, qalbi milliy g'oyada, ma'naviyatda mujassam bo'ladi deyish mumkin. Davlatimiz rahbari ham, bejizga "Mening nazarimda, insoniyat dunyosining buyuk bir yoritqichi - ma'naviyat chirog'i bor.

Bu chiroqning boshqalardan farqi shuki, u insonning ongi va tafakkurini yoritadi, qalbi, vijdonini uyg'otadi, odamiylik hissini kuchaytiradi.

O'zbekistonning yangi uyg'onish davrini yaratishga kirishgan ekanmiz, har bir yurtdoshimizning qalbi va ongida ana shunday ma'naviyat shu'lasi porlashi va u bizni ezgu ishlarga undab, yuksak mas'uliyat tuyg'usi bilan yashashga da'vat etib turishi zarur" deb ta'kidlamagan edi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar va bunyodkorlik ishlari natijasida xalqimizning ongu tafakkuri, dunyoqarashi o'zgarmoqda. Yurtimizda huquqiy davlat, fuqarolik jamiyatini barpo etishda "Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari" degan hayotbaxsh g'oyaning ahamiyati tobora ortib bormoqda.

Bu borada olib borilayotgan muhim ishlarga qaramasdan, ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy sohalardagi yangilanishlar jarayonida ma'naviy-ma'rifiy islohotlarning samaradorligiga to'siq bo'layotgan bir qator tizimli muammolar saqlanib qolmoqda.

Xususan, ma'naviy-ma'rifiy jarayonlarni tashkil etishda yaxlit tizim mavjud emas, xalqimiz, ayniqsa yoshlarni ma'naviy tahdidlardan himoya qilish borasida yetarli darajada tashkiliy-amaliy va ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmayapti, ushbu yo'nalishda davlat tashkilotlari, fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari hamda xususiy sektorning ijtimoiy hamkorligi samarali yo'lga qo'yilmagan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida" hamda "Ma'naviyat va ijodni qo'llab-quvvatlash maqsadli jamg'armasini tashkil etish to'g'risida"gi qarorlari madaniy hayotimiz ravnaqi, adabiy-badiiy tafakkur rivoji va yoshlar tarbiyasi samaradorligiga xizmat qiladi.

Hayot sur'atining tezlashuvi deb atalayotgan bugungi globallashuv sharoitida ma'naviy tarbiya iqtisodiy o'sish, ilmiy tafakkur, ma'rifiy yetuklik kabi tushunchalar qatorida yetakchi o'ringa ega bo'lib turibdi. Chunki ayni shu sohada yuzaga kelayotgan muammolar boshqa sohalardagi muammolar yechimiga borib taqaladi. Ma'naviy tarbiyani to'g'ri yo'lga qo'ymay turib, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, jug'rofiy va ekologik muammolarni hal qilib bo'lmaydi. Chunki bu muammolarning kelib chiqishi umumma'naviy tarbiyada yuzaga kelgan bo'shliq, beparvolik bilan bog'liq.

Ma'naviyat oqsasa ilmiy taraqqiyot to'g'ri yo'ldan chalg'ishi mumkin – bugun dunyoning favqulodda iste'dodli olimlari, tug'ma qobiliyat egalari sog'liqni saqlash, atrof-muhitga zarar yetkazmaslik, inson maishiy turmushini yaxshilash muammolari bilan emas, zamonaviy qurol-yarog'lar yaratish bilan shug'ullanmoqdalar. Taassufki, inson aql-zakovatining yuksak samarasi bo'lgan internet omborlari behayolik, zo'ravonlik, bosqinchi va talonchilik, zino va boshqa illatlar bilan to'lib-toshgan. Matbuot xabarlariga qaraganda, bu tizimda yoshlarni o'z-o'zini, boshqa gunohsiz odamlarni o'ldirishga o'rgatuvchi son-sanoqsiz saytlar bor ekan.

Ma'naviyat bir chetga surib qo'yilsa, yangi boylar xayr-sahovat, muruvvat yo'lini qo'yib, hoyu havasga, tuturiqsiz xarajatlarga beriladilar, bema'ni urf-odatlarni o'ylab topadilar va shu ishlari bilan nom qozonadilar.

Dunyo dunyo bo'lib, pul, boylik yuzaga kelganidan beri hech bir boyvachcha "Bo'ldi, mol-mulkim oshib-toshib ketdi, boshqalarga ham qolsin", degan emas. Ma'naviyatli kishi, agar uning atigi bir kunlik rizqidan boshqa hech vaqosi bo'lmasa ham, shukr qiladi, shu rizqni og'ziga solayotib, boshqalar to'g'risida ham o'ylaydi.

Bundan anglashiladigan xulosa shuki, endilikda dunyoni kuch, boylik, qurol-yarog', do'q-po'pisa emas, imon-e'tiqod, fahm-farosat, aql-idrok, ta'lim-tarbiya bilan mujassamlashgan ma'naviyat qutqaradi. Koronavirus pandemiyasi inson hayotida kutilmaganda g'aroyib holatlar ham yuz berishi mumkinligini oshkor qildi. Ulardan biri – tojdor virus hamlasi payti hisobsiz boylikka ega kishilar ham bu ofatdan chetda qolmadilar. Xalqona aytganda, "Bir kaft bug'doy osh bo'ldi, tilla, kumush – tosh bo'ldi".

Shu sababdan ham bugun dunyoda kechayotgan murakkab jarayonlarni tahlil qilishda ularga, eng avvalo, ma'naviyat ko'zi bilan qarash, hayotimizga kirib kelayotgan, turmush tarzimizga singdirilayotgan "qoida"lar kimga va nimaga qaratilganini aniqlash, aholi turli qatlamlariga ta'sirini o'rganish, milliy manfaatlarimizga, hayot tarzimizga zid jihatlarini ochib berish, va, tabiiyki, zarur choralar ko'rish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi dunyoning o'ziga xos xususiyati shundaki, rivojlangan, iqtisodi baquvvat davlatlar ham, bu yo'lga endi-endi kirib kelayotgan mamlakatlar ham o'zaro hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yishda, o'zining shaxsiy manfaatidan kelib chiqadi.

Yirik davlatlar iqtisodi endi-endi oyoqqa turayotgan mamlakatlarga ma'lum ma'noda iqtisodiy, siyosiy va boshqa bosim ham o'tkazadi. Iqtisodiy tazyiqni sezish oson, ammo mafkuraviy tazyiq ko'rinmas bir ofat yanglig' xalq, millat

hayotiga pistirib kirib keladi va ildiz otadi. Iqtisodiy tanglikni yengish mumkin, ammo ma'naviy tanazzul oqibatlarini tugatish g'oyat murakkab vazifa. Demak, milliy tiklanishdan milliy yuksalish yo'liga o'tayotgan O'zbekiston uchun ma'naviy tarbiya bugun har qachongidan ko'ra ham ahamiyatlidir. Davlatimiz rahbarining qarorida bu borada amalga oshirilishi lozim bo'lgan birlamchi muhim vazifalar belgilab berilgan.

Shu bilan birga, olib borilayotgan keng ko'lamli tadbir-choralarga qaramasdan ma'naviy-ma'rifiy islohotlarning samarasiga to'siq bo'layotgan tizimli muammolar saqlanib qolayotgani sabablari aniq-ravshan ko'rsatib berilgan. Chunonchi, ma'naviy-ma'rifiy tarbiya ishini tashkil etishda yaxlit samarali, ta'sirchan tizim mavjud emas, milliy taraqqiyot bilan bevosita bog'liq bu jarayonga dahldor ilmiy-tadqiqot ishlari sust olib borilmoqda, hokimliklar, fuqarolik jamiyati va mahalla institutlari, xususiy sektor hamda ommaviy axborot vositalarining ijtimoiy hamkorligi yo'lga qo'yilmagan.

Boz ustiga, hokimlik, vazirlik va boshqa rasmiy idoralarning ayrim rahbarlarida ma'naviyat masalalari bilan shug'ullanishga, OAV imkoniyatlaridan unumli foydalanishga, mavjud muamolarni birgalikda hal etishga xohishning o'zi yo'q. Ular matbuotni ortiqcha tashvish keltiradigan, kamchilik va nuqsonlarni oshkor qiladigan vosita deb tushunadilar va shu sababli gazeta-jurnal o'qimasliklari bilan boshqalardan ajralib turadilar. Davlatimiz rahabarining qarorida ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari sifatida, birinchi navbatda, "Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari" g'oyasini umummilliy harakatga aylantirish, oila, ta'lim tashkilotlari va mahallalarda ma'naviy tarbiyaning uzviyligini ta'minlash vazifasi qo'yilgan.

Bunda ma'anviy tarbiya bilan bog'liq ishlar ma'lum hududlarda emas, butun mamlakatda yaxlit olib borilishi va hamma joyda talab darajasidagi samaraga erishilishi ko'zda tutiladi. Shundan kelib chiqib, ma'naviy tarbiya bilan bog'liq

targ'ibot-tashviqot ishlari qanday samara berayotgani bilan shug'ullanuvchi doimiy monitoring tizimi joriy etiladi.

Muhim vazifalardan yana biri – el-yurt taqdiriga loqayd, ish uslubida mahalliychilikka, urug'-aymoqchilikka, tanish-bilishchilikka yo'l qo'yadigan rahbarlar bilan murosasiz bo'lish. Bu illatlar alohida bir mamlakatda bugun yoki kecha paydo bo'lgan emas.

Ular hamma joyda va hamma vaqt ijtimoiy adolatning buzilishiga, halollik va vijdoniylik ildizlarining sustlashishiga, oshkoralik qolib, imi-jimida ish bitirishga sabab bo'ladi. Shu bois, davlatimiz rahbarining yangi xalqchil siyosatida bunday nomaqbul holatlarga barham berish muhim o'rin tutadi. Qarorda madaniyat, adabiyot, kino, teatr, musiqa va san'atning barcha turlari, noshirlik-matbaa mahsulotlari, ommaviy axborot vositalarida ma'naviy-axloqiy mezonlar, milliy va umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligiga erishish, geosiyosiy va mafkuraviy jarayonlarni muntazam ravishda o'rganish, terrorizm, ekstremizm, aqidaparastlik, odam savdosi, narkobiznes va boshqa xatarli tahdidlarga qarshi samarali g'oyaviy kurash olib borish vazifasi ham qo'yilgan.

Toki shunday ekan, bu kurashni tashkil etishdagi nomutanosibliklar – bosma nashrlarning joylarga, ayniqsa, o'quv yurtlariga o'z vaqtida va izchil yetib borishini ta'minlash, buning uchun pochta xizmatlarining asossiz oshib borishiga yo'l qo'ymaslik, o'rta ta'lim maktablari kutubxonalarini ma'naviy-ma'rifiy nashrlar bilan doimiy ravishda to'ldirib borish talab etiladi. Prezident Shavkat Mirziyoyev aytganidek, bunday jurnallarni o'qimagan yoshlarni ma'naviy yetuk insonlar etib tarbiyalash qiyin.

Qarorda Ma'naviyat va ma'rifat Kengashi oldiga milliy g'oya targ'ibotida sohalar va hududlarning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olish, aniq maqsadga yo'naltirilgan targ'ibot-tashviqot dasturlarini ishlab chiqish, aholi, ayniqsa, yoshlarni islom dini va falsafasiga, boshqa diniy konfessiyalarga hurmat-ehtirom va bag'rikenglik ruhida tarbiyalash, millatlararo totuvlik va o'zaro mehr-oqibat

muhitini yanada mustahkamlashga qaratilgan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni amalga oshirish, matbuotda ilmiy-ijtimoiy mavzularda maqolalar e'lon qilish vazifasi qo'yilgan.

Bunda jamoatchilikning e'tiborga molik taklif hamda fikr-mulohazalarini inobatga olish, mafkuraviy jarayonlar tahlili, sohaga oid yangiliklarni to'plash, tayyorlash va tarqatishga alohida e'tibor berish zarur bo'ladi. Hududlarning o'ziga xos xususiyatlari deganda ma'naviy targ'ibot ishiga jalb etilgan voizlar ma'ruza matnini tayyorlashda har bir tuman, qishloq yoki chekka bir hududning jug'rofiy joylashuvi, etnik tarkibi, muammolari va boshqa jihatlarni hisobga olishi, ma'ruzani mahalliy fakt va raqamlar, ayni shu hududda olib borilayotgan bunyodkorlik ishlari, davlat dasturlarida ko'zda tutilgan rejalar bilan boyitishi talab etiladi. Bu yo'nalishda "Ma'naviyat targ'ibotchisi" ta'lim muassasasi negizida Markaz huzurida tashkil etiladigan Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti tashabbuskor bo'lishi talab etiladi.Shu o'rinda ushbu vazifalarning bajarilishiga dahldor mutasaddilar e'tiborini bir holatga qaratib o'tmoqchiman. Bizda, yuqorida keltirib o'tilgan illatlarga qo'shimcha, yana bir g'aroyib illat ham bor. Boshqacha atash mumkin emas.

Bu – ko'zbo'yamachilik. Ya'ni, "Falon vazifani bajarish yuzasidan falon-falon ishlar qilindi, falonta tadbir o'tkazildi, ularda falon ming kishi qatnashdi" qabilida yuqoriga soxta, yarim yolg'on hisobot yo'llash. Bir misol. Keyingi o'n yilda o'tkazilgan umumxalq hasharlarida ekilgan mevali va manzarali daraxtlarning umumiy soniga nazar tashlasak, agar ularning har o'ntadan bittasi ko'karganida ham, bugun mamlaktimizda bog' bo'lmagan bir qarich yer qolmasdi. Taassufki, bunday emas.

Bugun kutubxonalarni ma'naviy-ma'rifiy nashrlar bilan to'ldirish masalasida ham shunday bo'lmoqda. Ba'zi viloyatlardan olingan ma'lumotlarda aks etgan raqamlarni o'rganar ekanmiz, madaniy-ma'rifiy jurnallarga rasmiylashtirilgan

obunaning aksariyati bir oylik ekani ma'lum bo'ldi. Bu bilan kim kimni aldamoqda?

Mazkur qarorlarga binoan O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi “Ijod” jamoat fondi negizida Ma'naviyat va ijodni qo'llab-quvvatlash maqsadli jamg'armasi tashkil etildi. Jamg'armaga “Uzluksiz ma'naviy tarbiya kontseptsiyasi” asosida maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus va oliy ta'lim bosqichlari uchun metodik qo'llanma, uslubiy tavsiyalar, ma'naviy-axloqiy tarbiya nazariyasi va metodikasini boyitishga qaratilgan ilmiy-amaliy adabiyotlar yaratish, milliy merosimiz, buyuk ajdodlarimizning jahon tamadduniga qo'shgan ulkan hissalarini dunyo miqyosida targ'ib qilishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish, adabiyot va kitobxonlikni har tomonlama rivojlantirish, faol ijodkorlarni moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlash vazifasi yuklandi.

Bugun dunyoda iqtisodiy sohada – o'zga mintaqalardagi tabiiy boyliklar ustidan nazoratni qo'lga kiritish, mafkuraviy sohada — turli xalqlarning asrlar davomida shakllangan turmush tarzini o'z manfaatlari yo'lida “isloh” qilish, yoshlar ongi va qalbini egallash, ularni to'g'ri yo'llardan chalg'itish kabi nosog'lom xatti-harakatlar tobora kuchayib bormoqda. Bunday harakatlar bir qarashda ko'zga uncha tashlanmaydigan, deyarli beozor bo'lib ko'rinadigan va hatto qiziqarli, jozibali shakllarda olib boriladi. Moddiy manfaatdorlik va'da qilinadi.

Hulosa o’rnida shuni aytish mumkinki, hayotiy tajribasi yetarli bo'lmagan yoshlar bunday “joziba”ga tez mahliyo bo'ladilar va o'zlari bilmagan holda kimlarningdir to'riga ilinib qoladilar. Yoshlarni bunday halokatdan asrashda badiiy adabiyot, ma'naviy va ma’rifiy ishlar targ'iboti xaloskor kuchga aylanadi.

# MUNDARIJA

## I. TA'LIMNING DOLZARB MUAMMOLARI VA YECHIMLARI;


1. **Ta'limda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishning dolzarbligi, ahamiyati va afzalligi** 3
*To'g'izboyev F.U., Erkinov B.N.*
2. **Kasb-hunar maktablarida informatika fanini o'qitish hozirgi kunda muammolar va istiqbollar** 9
*Nafasov G'. A., Abduraimov D.E., Qilichev S. T., Axmedova X.A.*
3. **Axborot asri taxdidlarining yoshlar ongiga ta`siri va uning g`ayriaxloqiy jihatlarini oldini olishda ta`lim tizimining o`rni** 16
*Karimov I.I.*


## II. TA'LIM-TARBIYA NAZARIYASI VA METODIKASI


4. **Янги ўзбекистон ўқувчи ёшларини ватанпарварлик руҳида тарбиялашда ва эътиқодини мустаҳкамлашда ҳадис илмининг ўрни ва роли.** 24
*Қулматов Н.Э.*
5. **Олий таълим муассасаларида масофавий таълим тизимини замонавий компьютер технологиялари асосида ташкил этиш** 30
*Хайриев Э.И.*
6. **O'qish darsida interfaol uslublardan foydalanishning ta'limiy ahamiyati** 36
*Ubaydullyev I.S.*
7. **Assessment of physical activity and pedagogical challenges in elementary school students** 43
*Uraimov S.R.*
8. **"Storytelling" метод в изучении иностранного языка** 49
*Тошматова М.К.*
9. **Most common problems in translation** 57
*To`rayeva O., Muxtarova D., Toshpo'latova N.*
10. **Jismoniy tarbiya va sportda darsdan tashqari mashg'ulotlarni uslubiy rivojlantirish** 64
*Arabjonov Sh.Sh.*
11. **Организационно-педагогические принципы профессиональной подготовки будущих специалистов физической культуры** 70

| | | |
|---|---|---|
| | *Болтабоев Х.Х.* | |
| 12. | **Ma'naviy-axloqiy tarbiyaning mazmuni**<br>*Qosimov X.A., Ismoilov T.I.* | 81 |
| 13. | **Ona tili darslarida o'quvchilarning o'quv-ta'limiy kompetensiyalarini rivojlantirishda so'zlarning ma'no noziklikalrini farqlash**<br>*Maxkamova G.A.* | 85 |
| 14. | **Terminologik bilimlar bazasini shakllantirishda parallel korpusning o`rni va valentlik tushunchasi**<br>*Toshpo'latova D.K.* | 92 |
| 15. | **Pedagogical experiment on the dynamics and comparative dynamics of movement qualities during the annual educational cycle using health tests for primary school-aged children**<br>*Uraimov S.R.* | 102 |
| 16. | **Katta yoshdagi bolalar bilan tasviriy faoliyat mashg'ulotlarini o'tkazish metodikasi**<br>*Nasirdinov O. S., Sobirova G. Sh.* | 110 |
| 17. | **Boshlang'ich ta'lim tizimida bog'lanishli nutqni shakllantirishning nazariy asoslari va ahamiyati**<br>*Nuriddinova A.B.* | 116 |
| 18. | **Tasviriy san'at darslarida o'quvchilarning kompozitsion fikrlash qobilayatlarini shakllantirishning ahamiyati**<br>*Suyarov N.T., Nasirdinov O. S.* | 122 |
| 19. | **Milliy g'oya va huquqshunoslik fanlarini o'qitish metodikasi mazmuni**<br>*Qosimov X.A., Ismoilov T.I.* | 127 |
| 20. | **Huquqiy tarbiyaning maqsadlari, vazifalari va muammolari**<br>*Satvoldiyev F.A., Komilova M.Y., Mashrapova D.M.* | 131 |
| 21. | **Ta'lim tarbiya tizimida analitik kimyo fani o'qitish metodikasi**<br>*Raxmonaliyeva G.B., Karimova L.A., Hasanova A.B.* | 135 |
| 22. | **O'quvchilarning jismoniy tarbiya bo'yicha bilim va ko'nikmalarini dars jarayonida shakllantirishning o'qitish metodlari**<br>*Boltaboev H.H.* | 138 |
| 23. | **Мактаб ёшидаги болаларни тасвирий фаолиятга ўргатиш усуллари**<br>*Исомиддинов А.А., Хасанбаева И.И.* | 145 |
| 24. | **Maktabgacha yoshda bo'lgan bolalarda ilk iqtisodiy bilimlarini tashkil etish va rivojlantirish**<br>*Yuldasheva D.R.* | 151 |

25. **Darslardadagi zamonaviy ta'limning o'rni** 157
*To'lqinova S.B.*

## III. PEDAGOGIKA TARIXI;

26. **V.V.Bartold - Sharqning eng yirik tarixchisi** 160
*Ibraximov B. B.*
27. **Abdulla Avloniy asarlarida ilgari surilgan ta'lim-tarbiyaga oid qarashlar** 163
*Rejabova D.E.*

## IV. TA'LIMDA MENEJMENT;

28. **Uzluksiz ta'lim tizimi boshqaruvini modellashtirishning ayrim masalalari** 169
*Nafasov G'.A., Abduraimov D.E., Qilichev S.T., Axmedova X. A.*
29. **Профессионал таълим муассасаларида ишлаб чиқариш амалиётини замонавий таълим методлари асосида ташкил этиш** 173
*Исаков А.Ю.*

## V. MAXSUS PEDAGOGIKA;

30. **Имконияти чекланган ёшлар таълимига оид электрон ресурсларни ўкув жараёнига жорий этишнинг зарурати** 181
*Эшимов Р.Р.*
31. **O'zbekiston Respubikasida inklyuziv ta'lim** 189
*Karimov J.J., Siddiqov A. M.*
32. **Inkyuziv ta'limni rivojlantirish inson huquqlarini ta'minlashning zaruriy sharti** 195
*Mahkamov M.G'.*
33. **Nutq kamchiliklarini oldini olish** 199
*Xalimova O.M.*
34. **Rinolaliya. Rinolaliya turlari** 203
*Hikmatillayeva M.I., Nizamova M.N.*

## VI. IJTIMOIY PEDAGOGIKA;

35. **Sifatli ta'lim – taraqqiyot poydevori** 209
*Abdumutalipova Sh.H.*
36. **Talabalarning kasbiy madaniyatini shakllantirishning ta'lim tizimidagi o'rni** 213
*Nafasov G'. A., Abduraimov D.E., Qilichev S.T., Axmedova* **X.A.**
37. **Tarbiya jarayonining moxiyati va mazmuni. Tarbiya tamoillari** 217
*Muxtarova D., Toshpo'latova N.*
38. **Pedagogika shaxs tarbiyasi va rivojlanishi to'g'risidagi fan** 222

*Qosimov X.A., Boqijonova O.B.*

39. **O'qituvchi kreativligi va ijodkorligi talabalar mafkuraviy qarashlarni rivojlantirishdagi ahamiyati** 225
*O.R.Ortiqov*

40. **Boshlang'ich sinf o'quvchilarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, vatanni sevish, uni ardoqlash, unga b o'lgan mehr-muhabbat, sadoqat kabi tuyg'ularni shakllantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning o'rni** 230
*Qodirova B. T.*

41. **Ona tili va o'qish savodxonligi darsliklarida milliy qadriyatlarning ahamiyati** 237
*Nuriddinova A. B.*

42. **Ўқувчи ёшларни ватанпарварлик руҳида тарбиялашда ижтимоий бурч муносабатларининг ўрни ва роли** 241
*Сулайманбеков О.Д.*

43. **Sportchi shaxsida o'ziga bo'lgan ishonch va dadillik xissining shakllanishi** 246
*Қахрамонбеков А., Ориббоева Д.*

## VII. ILG'OR MILLIY VA XALQARO TAJRIBALAR;

44. **Morfologik sathni o'rganishda pedagogik va innovatsion texnologiyalarning o'rni** 251
*To'ychiyeva Z. H.*

45. **Bolalarda tasviriy faoliyat ko'nikmalarini shakllantirish (qum terapiyasi misolida)** 257
*Nasirdinov O.S., Yuldasheva D.S.*

46. **The history of famous cities of majority english speaking countries** 261
*Muxtarova D.,Toshpo`latova N.,To`rayeva O.*

47. **Boshlang'ich sinflarda so'z turkumlarini o'rgatishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish yo'llari** 265
*Norkuziyeva O.*

48. **Madaniyat va san'at milliy qadryatlarning timsoli sifatida** 271
*To'lanboyeva V.T.*

49. **Миллий қадриятлар тимсоли** 275
*Қутликов В.*

50. **Arxeologik tadqiqot ishlarida ob'yektlar bilan tanishish usullari** 281
*Maxsutaliyev J.*

51. **O'zbekistonda ommaviy axborot vositalarini rivojlantirishda madaniyatning tutgan o'rni va ahamiyati** 285

*Musayeva D.A.*

52. **Abu ali ibn sinoning pedagogik qarashlari yordamida komil inson shaxsini shakllantirish** 288
*Boydavlatov A.A.*

53. **Steam ta' lim texnologiyasi asosida talabalarni ilmiy faoliyatga yo 'naltirishning pedagogik mexanizmlari** 293
*Xasanboyev A.B.*

54. **Texnologik rivojlanishning ekologiyaga ta'siri** 298
*No`monov Sh.F.*

55. **Yoshlarda ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish ko`nikmalarini rivojlantirish va ijtimoiy tarmoqlar orqali targ`ib qilishning zamonaviy vositalari** 301
*Musayeva D. A.*

56. **Arxeologik qazishmalar davomida ishlatiladigan texnikalar hamda xronologik tanishish usullari** 305
*Maxsutaliyev J.*

57. **Yoshlar ijtimoiy faolligini oshirishda mahallalarda to'garak tashkil qilishning ahamiyati** 308
*Nazarova Z.B.*

58. **O'smirlik davriga xos ruhiy og'ishlar tahlili** 319
*Shuxratjonova R.N.*

59. **Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kampetentligining ahamiyati** 324
*Askarova N.I.*

60. **Анализ психических расстройств в подростковом возрасте** 329
*Шухратжонова Р.Н.*

61. **Ijtimoiy innovatsiyalarni jamiyat hayotiga tatbiq etish: muammo va yechimlar** 334
*G'apparov E.O.*

62. **Синфдан ташқари спорт машғулотларида ўқувчи-ёшларнинг маънавияти ва унга таъсир этувчи омиллар** 339
*Холмирзаев Б., Арзиев Ф. З.*

63. **Болалар-ўсмирлар спорт мактабларида тарбияланаётган енгил атлетикачиларнинг миллий ғурури ва унга таъсир этувчи омиллар** 347
*Назимов А. Ураимов Ж.*

64. **Teatrlar faoliyatining yoshlar tarbiyasidagi ahamiyati** 356
*Haydarova Sh.B.*

65. **Maktabgacha yoshidagi bolalar tarbiyasida o'yinchoqning** 361

| | | |
|---|---|---|
| | **ahamiyati**<br>*Zokirjonova L.B., Abdullayev D.Y.* | |
| 66. | **Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalaning faoliyat jarayonlarida axloqiy tarbiyaning ahamiyati**<br>*Mamajonova M.A., Abdullayev D.Y.* | 367 |
| 67. | **Ўзбекистонда капитал бозорида инвесторлар билан ишлашиш самарадорлигини ошириш**<br>*Тўйчиев Э.К.* | 373 |
| 68. | **Umumta'lim maktablarida jismoniy tarbiya darslarini o'quvchilar organizmiga ta'sirini ilmiy-pedagogik asoslash**<br>*Alisherov M.M.* | 382 |
| 69. | **Gandbolchilarning hujum va himoyadagi taktik harakatlarini mashg'ulotlarda musobaqa usuli orqali rivojlantirish**<br>*Ergashaliyev D.N.* | 402 |
| 70. | **История антропологических исследований ферганской долины**<br>*Хомиджонова М. А.* | 407 |
| 71. | **Stereotip va u bilan bog'liq nazariyalar**<br>*Abdullayeva M.M.* | 412 |
| 72. | **Interfaol ta'lim metodlar kreativlikni rivojlantiruvchi omil sifatida**<br>*Mirzayeva F.* | 423 |
| 73. | **Application of new pedagogical technologies and innovations in the educational process**<br>*Mirzabdullayeva G.M.* | 428 |
| 74. | **Возникновение Узбекского фольклора и его особенности**<br>*Зокиржонов А.З.* | 431 |
| 75. | **The place of folk spectacular art in the spirituality of the nation**<br>*Zokirjonov A.* | 436 |
| 76. | **O'zbekiston Respublikasining turizm salohiyati va uni oshirish yo'llari**<br>*Ismoilov J.K.* | 440 |
| 77. | **Yangi O'zbekistonda milliy harakter va ma'naviy yuksalish jarayonlari**<br>*Erkinboyev S. N.* | 444 |

*“Ta’lim va taraqqiyot” ilmiy-uslubiy jurnali elektron to’plam sifatida O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi (AOKA)ning 2022-yil 25-oktabrdagi № 045 044 raqamli guvohnomasi asosida chop etiladi. “Ta’lim va taraqqiyot” ilmiy-uslubiy jurnalining 2023-yil 2-soni NamDPI Ilmiy-texnikaviy Kengashining 10-may 2023-yildagi 5-sonli kengaytirilgan yig’ilishida muhokama qilinib, ilmiy to’plam sifatida chop etishga ruxsat etilgan (Bayonnoma **№ 5**). Maqolalarning ilmiy saviyasi va keltirilgan ma’lumotlar uchun mualliflar javobgar hisoblanadi.*

**Texnik muharrir: R.Tursunov**

***Tahririyat manzili: Namangan shahri, Uychi ko‘chasi, 316-uy.***

***Pochta indeksi:*** 160136, ***Faks:*** (0369) 227-27-21,

***Email***: Info@namspi.uz

***“Ta’lim va taraqqiyot” ilmiy-uslubiy jurnalining 2023-yil 2-soni 459 sahifadan iborat bo’lib, 77 ta ilmiy maqoladan tashkil topgan.***

***Jurnalning elektron holatini har qanday tartibda o‘zgartirish yoki soxtalashtirishga uringan subyekt shaxsan javobgan hisoblanadi.***

***NAMANGAN DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI 2023***